


Rusische Lyrik des 19. Jahrhunderts

F. L. Froskurin



SENING ISMING



Kitob shu erda ko'rsatigan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori _____

--	--





R21
P88

50.

Rus adabiyoti durdonalari

PYOTR LUKICH PROSKURIN



SENING ISMING

Т 74
Roman

TOSHKENT – «O'ZBEKISTON» – 2021

Rus tilidan **Rohila ABDULLAYEVA** tarjimasi

Proskurin Pyotr Lukich. *T 94*


P 88 Sening isming. [Matn]: Roman / P.L. Proskurin. Rus tilidan Rohila Abdullayeva tarjimasi – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 376 b.

ISBN 978-9943-7335-9-6

UO'K 821.161. 1-31

KBK 84-44 (2Ros-Rus)

Rus adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Pyotr Lukich Proskurin keng kitobxonlar ommasiga yaxshi tanish. Adib asarlarida bepoyon rus zaminini hamisha go'zal tarzda qalamga olishi bilan ajralib tursa-da, undagi inson obrazi, xarakterlar xilma-xilligi o'quvchini o'ziga bog'lab oladi. Uning har bir asarida rus xalqiga bo'lgan ehtirom sezilib turadi. Qo'lingizdagi asar ham o'z ijodkoriga alohida shuhrat keltirgani bilan diqqatga sazovor. Mutolaa chog'i qalamga olingen qahramonlar turli fe'l-atvorga ega bo'lishlariga qaramay, ularni yaxshi ko'rib qolganingizni sezmay qolasiz. Ular bilan hamnafas bo'lib, sarguzashtlariga beixtiyor sherik bo'lasiz. Asosiysi esa Vatan degan tushuncha naqadar buyukligini his etasiz. Zero, yozuvchining maqsadi ham shu aslida.



© P.L. Proskurin, 2021

© R. Abdullayeva (tarj.), 2021

© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2021



U aniqlashtirib olishni xohlagan haqiqatlar yana tizginsiz tuyg‘ular qa‘riga g‘arq bo‘ldi. Bu gal ham yo‘lchi yulduzini yo‘qotib qo‘ygan odamdek angrayib qoldi.

«Nega men bunaqaman, nimani bilishimni ham, bilmasligimni ham, nimani xohlasmashimni ham, xohlamasligimni ham bilmayman – yangi savolni tiliga ko‘chirdi Alyonka, – ha, menda bir insonga yetarli hamma narsa bor, erim yonimda, atrofim to‘la odam, ... unda nimadan bunchalik qo‘rqaman? Robbim, menga farzand ato qil, kichkinagina, murg‘ak go‘dakni, Robbim...»

U qayin ustunlariga yetmasdan to‘xtab qoldi, bu majruh xayollar unga bir qadam tashlashga ham izn bermayotgan edi go‘yo. Borgan sari o‘t-o‘lanlar tanasini qurshab oladi, endi ular Alyonkaning ko‘kragigacha yetdi. Uzoq-uzoqlardan, ufqning bir burchagida, qayinning shoxlariga osilib olgan quyosh ko‘rinadi. Quyosh o‘zining issiq nurlarini unga sancha boshlagan edi. Shu onning o‘zida ko‘ngilda ertaklardagi kabi mo‘jizakor tuyg‘u paydo bo‘ldi, bir daqiqada u o‘z o‘rmini nekbin tuyg‘ularga almashdi. Quyosh nuriga burkangan qasrlar, o‘rmon-u dalalar, mag‘rur tog‘lar – hammasi ertaklardagi kabi. Oq-qaymoqrang shudringlar butun o‘t-o‘lanlarning yuzasini qurshab olgan. Qayinning yerga engashgan novdalarida ham ular, billur tomchilar. Alyonka bu manzaraga mahliyo bo‘lib qoldi. «Bu nima bo‘ldi ekan?» – xayolidan kechirdi u. Kichkina jussasiga shuncha shudringni yuklab olgan, hislari o‘ktam, yaltiroqlar olamining yengib bo‘lmash sadosi u. Qayinga yetib olish uchun odam bo‘yi kela-digan o‘t-o‘lanlarni qoplab olgan shudringlar dengizini kesib o‘tish kerak. «G‘arq bo‘lishni xohlayman» – xayoliga kelgan fikrdan suyunib ketdi u. Shu zahoti boshdan oyoq yechinib shudring qoplagan dalaga sho‘ng‘idi, badanni junjiktiruvchi sovuq tomchilardan tanasi rohat oldi. Poyalar ichidan faqat boshini ko‘rsatgancha qayin tomon yo‘l oladi. Qayin tagida tanasini iliq shudringlar quchdi. Alyonka rohatbaxsh shudringlarga iliq tabassum bilan minnatdorchilik bildirdi. Qo‘lida g‘ijimlab olgan barglarni yuziga bosdi. Dimog‘iga barra o‘t hidi urildi, bu ifor shunchalar tozaki, unga dunyodagi hech bir hidni tenglashtirib bo‘lmaydi. U bu iforni dimog‘igacha yetib borganini sezdi. Yo‘lida davom etdi, ajablanarli tomoni shundaki, endi unda iymanish hissidan asar ham qolmagan edi. Qadamlari shaxdam, ta-

nasiga yopishayotgan o'tlarga beparvo odimlaydi. U endi shudring yomg'irida qolgan, tanasidan quyilayotgan suv tarang ko'kraklari orasidan irmoq yasab, pastga tomon oshiqardi. Nima uchundir shu onda tanasini hayvoni hislar egallab olgandek tuyuldi, mana hozir shu yerning o'zida o't-o'lanylар ustiga dumalaydi va shu yerda abadiy qoladi, xayolidagi bu fikr ham bir ondayoq o'chdi. U endi o'zini uchayotgandek his qilardi, shu o't-o'lanylarga, daryoga, quyosh va yerga qo'shilib uchayotgan ayol. Parvozda shamol uning yuzlariga, ko'kraklariga uriladi. Alyonka qayinga tirmashib chiqdi, daryoning qirg'oqlarida daraxtlar uyquchan, o't-o'lanylар sukutga cho'mgan, daryo ham sokin. Suv asta-sekin bug'laniб bormoqda, shu sababli havoda dimlik bor. Atrofdagi barcha sershox qayinlar butun tanasi bilan daryoga engashib olgan, xuddi sochlarini yuvayotgandek ta-assurot qoldiradi. «Go'zal, nihoyatda go'zal, men u haqida umuman unutib yuborgan ekanman», – xayolidan kechirdi u.

Kiyimlarini qayinlardan biriga osdi, qumloqda oyoq izlarini qoldirib daryo tomon yurdi, endi bu oyoqlarga suv o'tlari yopishayotgan edi. Suvga beligacha kirganda ko'kraklarini qo'li bilan to'sdi, kuchli oyoqlarini birin-ketin tebratib narigi qirg'oq tomon suza boshladи. Kechuvning yarmiga yetganda o'zini kuchsiz his qildimi yoki yuragini qo'rquv bosdimi ortga qaytdi. Uzoq vaqt tik ko'tarilgan bulutsiz osmon ostida yotdi. Qimirlashga majoli qolmaganidanmi belini yerdan ko'tara olmas edi. Ko'm-ko'k, yaltiroq qanotlarini o'ynatib uchayotgan ninachi uning yuziga qo'ndi, Alyonka chuqur nafas olib burnidan chiqargan edi, ninachi yuzidan peshonasiga uchib qo'ndi. U peshonasidagi qitiqlashga uzoq vaqt chiday olmadi, qo'lini peshonasiga yaqinlashtirgan edi hamki, ninachi jon talvasasida uchib ketdi. Nima uchundir ninachining qo'rquvi Alyonkaning kulgisini qistatdi. Suvni shaloplastib, har tomonga sachratgancha uzoq vaqt suzdi. Ochiq ko'z bilan suv tubiga sho'ng'idi, dengiz o'tlari va ular orasidagi baliqchalarini tomosha qildi. Suv tubining qatiy qonuniyatları bor. Alyonka uni hech qachon buzmagan bo'lar edi, albatta, haqiqatdan mayjud bo'lsa. Ko'lning o'rtasiga quyosh chegara qo'yib olganga o'xshaydi, ayni shu nuqtada uzun suv o'tlari o'sib yotibdi, ular suvga qo'shilib chayqaladi. Alyonka quyosh chegarasiga yetganda suv tubidagi qorong'ulik va quyosh qorishib ketdi. Shu turishda ko'l juda



sirli edi deyish mumkin. Alyonka qirg'oqqa chiqib oldi, endi quyosh g'ira-shira torta boshlagandi. Uning ko'zi qop-qora qisqichbaqaga tushdi. Odamning sharpasini payqagan bu maxluq bir zumga dumini g'ajak qildi, shu zahoti ko'zdan g'oyib bo'ldi. Alyonka uning qaysi tomonga o'zini urganini payqamay qoldi. «Qani edi, shu qisqichbaqa bo'lsam, sening bor yoki yo'q ekanligingni ham payqashmaydi, eng muhimmi, istagan vaqtingda ko'zdan g'oyib bo'lishing mumkin, naqadar ahmoqona orzu».

Alyonka suv tinchishini kutdi, suv tinchigach uzun mayda bargli suv o'tlarini kuzata boshladi. Suv o'tlari poyasining atrofida kumush tangachali baliqchalar raqsga tushadi. Bu baliqchalar juda tartibli. Bir joyda turib dumini likillatadi, biroz vaqt o'tgach bir santimetr oldinga siljiydi va yana o'z raqsini namoyon qila boshlaydi, minglab mayda baliqchalar xuddi shunday o'z o'rmini sherigiga bo'shatib, raqs tushadi. Qarabsizki, minglab yaltiroq baliqchalardan iborat tizim ishlay boshlaydi. Alyonka o'z o'mida yaxshilab o'rnashib oldi, baliqchalarning o'zaro uyg'un raqsini uzoq tomosha qildi. Bundan uning o'zi nihoyatda mamnun, go'yoki hech kimga nasib qilmagan baxt nashidasini surayotgandek masrur edi. «Yana biroz qolay, keyin suzib o'tib olaman», – xayolidan kechirdi u. Axir, ko'z oldida eng samimiyl va beg'ubor raqs ijro etilmoqda. U bir necha soniya ga chalg'idi, shunda ko'zi bir baliqchaning boshiga yopishib olib, uni vahshiyarcha tishlayotgan suv qo'ng'iziga tushdi. «Senmi hali, la'nati gazanda» – u qo'lini suvgaga tiqdi va shu zahoti hammasi barbob bo'ldi. Bu tartibli baliqchalar bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi, qo'ng'izdan ham nom-nishon qolmadi. Alyonka qirg'oqqa qaytdi, qulay joy topib o'zini oftobga soldi. Dam ko'kraklarini, dam belini tobladi, keyin esa salqinga, o'tloqqa o'tdi. Chanqog'ini oftobda qondirgan tana oromga muhtoj edi, tez orada surbet suv qo'ng'izi ham esdan chiqdi. Umuman, quyosh toblagan bu tanadan hamma o'y-fikrlar uchib keta boshladi. Uni uyqu elitdi, tanasini tabiatning huzurbaxsh salqiniga tutib, ko'zlarini yumdi.

* * *

Alyonka uyg'onganida quyosh ancha yuqoriga ko'tarilgan edi, shundan ham bilish mumkinki, oradan bir necha soat o'tgan.

O'rmonda mayin shabada esmoqda, qayin shoxlari bir tomonga qarab tebranmoqda. O'rmon sokin. Alyonka avvaliga sira o'midan turishni xohlamadi. U eriniib sekin gavdasini yerdan ko'tardi. Bugun tongdan oqshomga qadar bo'lgan barcha voqealar qon-qoniga singib ketdi, xotirasiga muhrlandi. Shudringlar og'ushiga kirgan xotirjam tana nomsiz tuyg'u bilan ataldi. Bu ilqlikni ancha-muncha maskanda tuyish amrimahol. U nima uchundir yana Avdotya buvini esladi, balki xotirjamlik tuyg'usi uni yodga solgandir, chunki bu insonning oldida istalgancha taskin topish mumkin edi. U har bir daraxtning ko'zi, qulog'i, qalbi bo'ladi – ular ham tinglaydi, ko'radi va his qiladi der edi. «Mana, uzoqlardan dehqon ayollarining gurungi quloqqa chalinyapti», – Alyonkaning qulolqarida bolalikdagi jo'shqin tez aytish yangray boshladi. U xuddi o'sha bolalikdagi qish oqshomiga, o'zi biqinib yotadigan pechka yoniga qaytdi-qoldi. Avdotya buvi har bir daraxt, shox, navda va gulning vijdoni bo'ladi der edi. Oqko'ngil insonni yaramas kimsadan hatto yaproq ham ajrata oladi der edi u. U har doim o'z gaplarining tasdig'i sifatida bir misolni keltirardi. Uni ertak desa ham bo'ladi. Bu ertak qabih bir kimsaning odamlardan qochmoqchi bo'lGANI haqida. «Bir yaramas, taqdir hukmidan qochgan inson harchand urinmasin, berkinishga joy topa olmaydi. Kun-u tun uni qushlar qurshab olar, bor ovozda sayrab odamlarga bu manfurni qayerda ekanligini fosh qilmoqchi bo'lar edi. Har qadamda bir yirtqichga yo'liqar, yirtqich ham uni ayovsiz talar edi. U yemoqchi bo'lGAN meva, o't-o'lan, ichmoqchi bo'lGAN suv yer qariga singib ketar edi. Har qancha yo'l yurmasin, faqat va yana faqat cho'lga duch kelar edi». «Ko'rdingmi, Parvardigor, bunday kimsalarni qanday ja-zolaydi» – ertak shu yerga kelganida Avdotya buvi bosh chayqardi. «Yillar o'tadi, asrlar o'tadi, avlodlar almashinadi, manfur kimsa bir qultum suv ichmaydi, bir burda non yemaydi, biron kimsaga dilini yormaydi. Yaratgan Egamning birgina ishorasi bilan butun dunyo undan voz kechgan. Shu tarzda manfur kimsa asrlar osha dahshatlis hisob kunini kutib yashaydi».

G'ayrishuuriy tarzda Alyonkaning xotirasida Avdotya buvining yuzi gavdalandi, u shu darajada aniq ediki, Alyonkaning o'zi ham taajjubda qoldi. U nima uchundir kaftida yengil, pahmoq o'tlarni ushlab olgan. Alyonka qadrdon chehrani yo'qotib qo'ymaslik uchun

ko'zlarini mahkam berkitdi. «Bunday qismat yozilishi uchun qanday ish qilgan bo'lishi mumkin» xayolidan kechirdi u. Daraxt va o't-o'lalnarda ko'z, qulqoq, qalb bo'lishini bugun his qildi. Qari qayin-ning ostida turib uning qalbini his qildi, shamolni his qildi, yashil olamni his qildi. Keyin u boshqa qayin tagiga yugurdi. Bu daraxtlar yuzlab mitti qora ko'zlarini unga tikib turganiga ishonchi komil edi. U endi hech narsadan hayiqmas, hech narsadan cho'chimasdi. Badanini silab o'tayotgan shamol, qayin barglari uni erkalayot-ganga o'xshardi. Hozir uning qalbida so'z bilan ta'riflab bo'lmas yashil tuyg'ular kurtak yoza boshladi. U shu daqiqada o'zini o'rmon qalbidek his qildi, bu tuyg'u insonlarga anchayin begona. U hozir yashil dunyoga tushib qolgan, dunyoni ham shu daraxt ko'zi bilan ko'rayotgandek edi go'yo. «Qanday ajib, qanday dahshat», – oyoqlari ostiga qarar ekan, nimadandir qattiq cho'chib ketdi. Shu zahoti daraxt panasidan quyosh nuri tushib turgan yalanglikka chiqdi. Daraxtning so'nggi chayqalishi xuddi ortidan kimdir ushlar moqchi bo'lgandek taassurot qoldirgan edi unda.

Kun anchagina qizib ulgurgan edi, Alyonka nima uchundir daraxt soyasiga qaytishga qo'rqi. Birinchi navbatda kiyinib oldi, yalanglikda shabada esib turgan joyga o'tirib oldi. U tezroq Gustishga ketish haqida o'ylay boshladi. U yerda onasi bilan ko'rishadi, u bilan buvisi haqida suhbatlashadi, umuman olganda, hamma narsa haqida suhbatlashadi. «Nima bo'lgan taqdirda ham hayot bag'oyat qiziq», – xayolidan kechirdi u, – mana, masalan, Bryuxanovni olib qaraylik, u men haqimda hamma narsani bilaman deb hisoblaydi. Lekin u men haqimda hech narsa bilmaydi, balki oz-moz bilar. Men ham uni yaqindan tanimayman. Men hech qachon uni yaqindan biliш uchun harakat ham qilmaganman. Bu dunyoda hamma o'zi bilan o'zi ovora. O'zim ahmoqman, o'zim shunday qari xudbin yalmog'iz niqobini taqib olganman. U esa o'zini meni hamma balo-qazolardan asraguvchi farishta deb hisoblaydi. U meni butun dunyodan himoya qilgisi keladi, balki uning vazifasi ham aslida shundan iboratdir. Bilmadim, so'nggi vaqtarda o'rtamizdag'i sovuq munosabat ham shundan kelib chiqdi. U kecha nima degan edi? Kecha kechqurun... eslolmayapman, mana sizga xubdinlikning oliy namunasi, u g'oyat

muhim deb ta'kidlasa-yu, siz unutib yuborsangiz. Moskva haqidamidi yoki poyezdlar haqida... ha, ... aytganday...

Bir zumda o'sha mungli qiyofa tirildi-qi'ydi. Bir soniyada butun dunyo o'z ma'nosini yo'qotdi, undagi barcha narsalar keraksiz va bema'ni bo'lib tuyuldi. Bryuxanovning gaplari, olisdag'i Moskva osmoni va ularning o'zlar... u bekorga Alyonkaga shuncha mehribonlik ko'rsatyapti, u o'zi bilmagan holda bir qulay qobiqqa o'ralib yashashga o'rganib qoldi. Bu esa g'oyatda mudhish ish. «U nima uchun bu gaplarni aytди, boz ustiga MQ ning navbatdagi plenumiga ketish taraddudida bo'la turib?» – eslashga jon-jahdi bilan harakat qilardi Alyonka. – Qandaydir almashinish, Moskva, zavod, yana nimadir... ha-ya, – quvonchdan ko'zlar yonib ketdi, – Chubarev! Ay-nan Chubarev, – u yaqinda Xolmskga tashrif buyurishi kutilayotgan Zejsk motor zavodi direktorining familiyasini aytди.

U yana erining quvonchi va yashirin xavotirini esladi. Eri oldin ham unga bu inson haqida hikoya qilib bergen. Taqdir hazilini qarangki, urushgacha bo'lган davrda uning motor zavodini portlatish Bryuxanovga yuklatilgan. Bryuxanov bu haqida eslar ekan, ovozini qaltiroq bosdi, hech xushlamay gapirdi bu voqealarni. Ovozidagi qaltiroqni esa kutilajak plenum hayajoni va Chubarevga yo'ydidi-qi'ydi. Uning gap-so'zlaridan bu odam Xolmsk uchun katta sinov bo'lishi kutilayotgandek edi go'yo. Naqadar alomat ekan, bu Chubarev deganlari.

Harakatsiz inson sharpasini payqamagan, tanasida mayda ko'kish patlari bor ikki nar o'rdak daryoga kelib qo'ndi, ga'lma-gal boshi bilan suvga sho'ng'idi. Lekin qandaydir bir xavf borligini payqagach nariqi qirg'oqqa uchib ketishdi.

Alyonka o'rdaklarni cho'chitib yuborgan narsa nima ekanligini bilmoqchi bo'ldi, suvdagi aksiga qarar ekan ularni cho'chitib yuborgan maxluq o'zi ekanligini tushunib yetdi. Yo'q, u endi o'zini o'zgartirmasa bo'lmaydi, hammasini, eng boshidan boshlab o'zgartirish kerak, xayolidan kechirdi u. U o'rnidan sapchib turdi, hozirgina o'rdaklar uchib ketgan joydagi halqalarni, egik qayin shoxlarini tomosha qildi. Bu orada shamol kuchaydi. Endi qayin shoxlari kelishib olgandek bir tomonga qarab egilib olgan edi. Kun qizib ketgan, o'rmonda ham jazirama hukmron. U endi tongdagi shudringlar

ummoniga sira o‘xshamaydi. Uning o‘rnida dangasa poyalar boshini quiyi solgancha uxlari edi go‘yo. Alyonka bu safar ham o‘z xayollari og‘ushiga g‘arq bo‘ldi, u endi tongdagi sokin so‘qmoqlardan uyga qaytmoqda.

2

Uraldan Moskvaga shoshilinch chaqirib olingan mehmon, urush yillarida katta ahamiyatga ega bo‘lgan raqamli motor zavodining direktori Chubarev yo‘lda harakatlanayotgan mashinalarni, yo‘lakchalarni to‘ldirib u yoqdan bu yoqqa, bu yoqdan u yoqqa talpinayotgan odamlar oqimini tomosha qilmoqda. U bugungi kunidan mammun. Bugun tunda MQ kotiblaridan birining qabulida bo‘lishi kutilayotganidan vaqtি choq. Lekin yuzidagi bayram siyohini darhol o‘chirib tashladi, og‘ir-vazmin qiyofaga kirdi, gajaklari ostidagi ingichka tomir bo‘rtib chiqqandek bo‘ldi, lekin hayratli biron-bir o‘zgarish bo‘lmadi. U endi ancha xotirjam tortdi, chunki Zejsk avia-motor zavodini oldindan bilar, u yerda bo‘lish uchun tayyorgarlik ham ko‘rib qo‘ygan edi. Mehmonxonadagi xonasida ayolinining tez qaytishi haqidagi xatiga ko‘zi tushdi, nima uchundir o‘zidan biroz achchiqlandi. U kun bo‘yi Xolmskga bo‘ladigan tashrifi, u yerda eski tanishlaridan kimlarni uchratishi mumkinligi, yangi do‘sstar orttirish va, albatta, Bryuxanov haqida o‘ylagan edi, bu o‘ylari sabab atrofidagi barcha narsalarni unutayozibdi. Hammasidan ko‘proq Bryuxanov va bugungi plenumda u bilan bo‘ladigan uchrashuv haqida o‘yladi. Lekin u shu onda eski tanishi Bryuxanov Stalin qabulida o‘tirganini, hayajonini bosish uchun ustma-ust suv ichayotganini, aytajak gaplarini harchand tirishmasin bir notaga sola olmayotganini xayoliga ham keltira olmas edi. Urush va urushdan keyingi yillarda Bryuxanovni Moskvada bo‘ladigan favqulodda kengashlarga chaqirib turadigan bo‘lishdi, u Stalin boshchiligidagi o‘tgan kengashda ham ikki marta qatnashgan, oxirgi ishtiroki vaqtida sifatli motor uchun zarur bo‘lgan xomashyolarning yetishmasligi xususida keskin fikr ham bildirgan. Tez orada u o‘z tanqidining natijasini ko‘rdi. Ma’lum muddat zavodni aytilgan xomashyo bilan ta’minlab turishdi. Biroq bugungi qabul uni nihoyatda o‘ng‘aysiz holatga solib qo‘ydi, ay-

niqsa, bu qabulning plenum oldidan bo‘lib o‘tayotgani tashvishiga tashvish qo‘shtgan edi. U hozir yosh boladek, oyoqlarini yerga tirab «kirmayman» deb injiqlik qilgisi kelyapti, lekin nachora.

Qabulda undan tashqari to‘rt kishi bor. Bu odamlarning barchasi o‘zaro tanish, lekin bir-birlari haqida hech narsa bilmaydilar. Bir joyda kengashib o‘tirishlariga qaramay o‘zaro chin ko‘ngildan gaplashmaydilar. Burchakda Stalining xonasi bilan yonma-yon joylashgan xonada Poskribishev qog‘oz uyumlariga ko‘milib o‘tiradi. Bryuxanov toza yog‘ochdan ishlangan eshiklarga razm soladi, shu bahona o‘y-xayollarini tartibga solib olmoqchi bo‘ladi. U birozdan keyin o‘zi bilan sodir bo‘ladigan voqealarni jonlantiradi. Mana u endi Stalining xonasida turibdi. Unga ehtirom bilan qo‘l uzatadi. U bu yerlarda oldin ham bo‘lgan, bugun uning ziyoniga ishlaydigan hech qanday voqeа yuz bermaydi. Bryuxanov shu tariqa o‘zini o‘zi yupatdi. Mana endi u haqiqatdan ham Stalining xonasida turibdi. Stalin undan o‘zini qanday his qilayotganligini so‘radi. Mehmonlarning javobini diqqat bilan tinglar ekan, har doimgi odati bo‘yicha xonasini aylangan bo‘ldi. Bryuxanovning oldiga kelib taqqa to‘xtadi.

— Menga bag‘rikeng va dadil odamlar yoqadi, o‘rtoq Bryuxanov, — uzoqlasha turib so‘z qotdi u, — lekin, kamina anglashicha, siz hozir keragidan ham ko‘proq talabchanlik qilayapsiz. Urushda faqat Xolmsk yoki uning qo‘shti shaharlari vayron bo‘lgani yo‘q. Bundan tashqari, davlat sizga belgilab bergen vazifa bor, axir. Biz u yerga nimani yuborish mumkin bo‘lsa, yuborayapmiz, bundan keyin ham yuboramiz.

Birinchi jumladanoq Bryuxanov gap nima haqida ketayotgani ni tushunib yetdi. Xolmskdagi xoh kengaytirish ishlari bo‘lsin, xoh ko‘paytirish yoki tiklash, bu tashabbus kimdan chiqadi — Bryuxanovdan, imzola, lekin, albatta, bu imzolarining sariq chaqalik qiy-mati yo‘q, bularning barchasini kim do‘ndirib qo‘ygan — Bryuxanov. Lekin bularning barchasi bir bahona, bugungi chaqiriqning alohida bir sababi bor. Tez orada u ham ayon bo‘ladi. Bryuxanov o‘ziga qarata aytيلوغان har bir so‘zni eslab qolishga tirishardi. Aniqlik kiritish, nimanidir so‘rab olishga sira hojat yo‘q. Bugun unga ortiq-cha niqoblanib o‘tirmay qayerda xato qilganligi va kelgusi ishlarida bunday xatolarga yo‘l qo‘ymasligi xususida saboq berib qo‘yishdi.

Bryuxanov jim turdi, bordi-yu og‘iz juftlab nimadir degudek bo‘lsa, bu suhbatning yakuni nihoyatda mudhish tus olishini yaxshi bilardi. Qolaversa, nimadir deyishning umuman keragi yo‘q, axir, u shunchaki bundan keyingi ishlarida dasturulamal qilib oladigan mantiq qonuniyatlarini o‘rganyapti va eng asosiysi keksa dohiy Stalining o‘zi undan hech qanday javob kutmayapti. Vazifasini tushunib oldimi, olam guliston.

– Xabaringiz bor, o‘rtoq Bryuxanov, sizning motor zavodingizga Chubarev yuborilayapti, – Stalin gapni gapga ustalik bilan ulab ketdi. – Muravyev unga ko‘rsatgan ishonchimizni oqlamadi. Do‘stlari xatoga yo‘l qo‘yganda Chubarevning qaynoq maslahatlari bilan har qanday muammoni bir zumda hal qilishini bilsangiz kerak. Qarorimizdan mammunmisiz?

Bryuxanov 1942-yildagi uchrashuvdan beri yodida qolgan jihatni esladi. Stalin suhbatdoshiga ham doim yarim tasdiq ko‘rinishidagi savol beradi, u hech qachon o‘z manfaatiga zid keladigan javob olishni istamaydi. Uzoq yillik harbiy, siyosiy faoliyati natijasi o‘laroq o‘ziga xos nutq uslubini ham egallagan. U o‘z istaklarini suhbatdoshidan yashirib ham o‘tirmaydi. Ko‘rinib turibdiki, Bryuxanovning ishga oid barcha ma’lumotlari ikir-chikirlarigacha bu insonga ma’lum, lekin bugungi tayinlovdan ko‘zda tutilgan maqsad noaniq. Har holda Stalining ham bu masalada o‘z sabablari bo‘lsa kerak. Nima bo‘lgan taqdirda ham yarim tasdiq savol yangradi, uni javobsiz qoldirib bo‘lmaydi.

– Chubarev bilan til topishib ketamiz, o‘rtoq Stalin.

– Undan-da yaqinroq bo‘lish ham mumkinmi? – u tepa labini xiyol ko‘tarib kulgan kishidek bo‘ldi, lekin hech bir o‘zgarishsiz qolgan ko‘zlar bu tabassumning naqadar yasama ekanligini sotib qo‘ydi. U xayolidan boshqa nimalarnidir o‘tkazayotgani aniq edi. Yangi savolga javob bergani hamonoq: – Ha, ha, men sizni eshitayaman qabilidagi, suhbatga unchalik yopishmagan jumlani eshitdi.

Nimqorong‘i xonada Stalining qora sharpasi u yoqdan bu yoqqa o‘ta boshladi. Nima uchundir bu sharpa bir necha soniyaga g‘oyib bo‘ldi, keyinroq u qalin yog‘och derazaning oldida paydo bo‘ldi va derazalarni ochib yubordi. Bryuxanov xonaga kirgan yengil shababani his qildi. Xayriyatki, tez orada bularning barchasi yakun to-

padi va u mana shu toza havo yugurayotgan ko‘chalarga, Moskva ko‘chalariga chiqib ketadi. U tobora bo‘yniga malol kelayotgan bo‘yinbog‘ini biroz bo‘satishga harakat qildi, aksiga olgandek bo‘yinbog‘ ham anchagina tixir chiqdi. Yaqinlashib kelayotgan xavf endi yaqqol bo‘y ko‘rsatdi. Bu orada Stalin soatiga qarab qo‘ydi.

— Agar undan-da yaqinroq bo‘lish kerak bo‘lsa, albatta, qalin do‘sit bo‘lamiz. Bizning zavodimizga Chubarevga o‘xshagan fantaziyaga boy, tavakkal qilishdan cho‘chimaydigan, noyob qobiliyatli kadrlar zarur. Chubarevga o‘xshagan insonlar istalgan sharoitda ham o‘z vazifalarini bajara oladilar. Afsuski, Muravyev haqida bunday deya olmayman, u — qog‘oz odami. U hamma ishni o‘tirgan joyida bajarishni ma‘qul ko‘radi, bu esa sira zamonamizga mos emas, — uzoq vaqt davom etgan sukutdan keyin tilga kirdi u.

— Men sizni eshityapman, o‘rtoq Bryuxanov yoki siz o‘z so‘zingizni yakunladingizmi?

— Ha, yakunladim, o‘rtoq Stalin, — Bryuxanov bosh chayqab qo‘ydi, — hozir reaktiv dvigatellar ustidagi ish juda qizg‘in. Chubarev, u bu vazifaga kirishadi, buni yangi ishlab chiqarish taqozo qiladi va yana jadal reaksiyalar o‘tkazish kerak. Bryuxanov maddohlikni qoyillatishga qoyillatdi-yu, ich-ichini xavotir yemirib yubordi. Uni birgina so‘zi uchun bitmas-tuganmas balolarga giriftor qilishlari mumkin. Uning har bir so‘zi, har bir harakati Stalin miyasiga yozib olinayotganligiga hech bir shubha yo‘q. — «Yangi zamon oldinga qarab shiddat bilan yugurmoqda, unga yetib olish uchun esa yangicha fikrlash kerak. Xo‘sish, kim yangicha fikrlaydi. Albafta, yoshlari. Mana, Chubarevni olib qaraylik, uning havas qilarli jihatlari talaygina. U o‘z atrofiga iste’dodli yoshlarni birlashtira oladi. Ularning hammasi urushdan so‘ng otilib chiqdi. Siz ta’kidlaganingizdek, o‘rtoq Stalin, yoshlarni ulkan rejalarimizga qo‘sishimiz kerak. Ular yetuk, toza, kuch-quvvatga to‘la. Men bu gaplaringizni o‘z maslagimga aylantirganman.» — nihoyat uning so‘zlari tugadi, og‘zi qurib qoldi chamasi, yengil yo‘tal tutdi.

— Bekor buncha maqtanchoqlik qildingiz, o‘rtoq Bryuxanov, ko‘rib turganingizdek men yosh masalasida sizdan ham keksaroqman, — Stalin suhbatdoshining xavotirini yozib yuboradigan qiyofada kulumsiradi. «Bu dunyoning savolini bizdan so‘ramay kimdan

so‘raysan, yoshlar-ku, hay mayli, o‘z yo‘liga. Ular ham bir kun ulg‘ayadi.» – dedi Stalin. Aftidan, Bryuxanovning yoshga doir mulohazalari Stalinga ko‘p ham ma‘qul bo‘lmadi. Bryuxanov buning uchun kulgi aralash bo‘lsa-da yengilgina dashnom oldi. Stalinning yodiga bir voqeа tushdi, «yodiga tushdi» deyish ham andakkina haqiqatga to‘g‘ri kelmas, chunki bu xotira doimo uning miyasida aylanib yurgan. Mana, bugun ham bir bahonayi sabab topib qalqib chiqdi.

Kecha Kurchatov bilan bo‘lgan uchrashuvdan umuman ko‘ngli to‘lmadi. O‘z bo‘ynida turgan mas’uliyatni tushunib yetdimi, bu mamlakat qanday halokatli yo‘lga kirib borayapti? Atom ishlab chiqarish, xo‘s, undan tashqi siyosatda foydalanish nimalarga olib keladi?

Kurchatovning e’tirozlari, keltirgan dalillari Stalinni xavotirga solib qo‘ydi. Hammasini tushunib turibdi, Kurchatov bu borada qo‘lidan keladigan nimaiki kelsa, hammasini qilgan, endi faqat kutish kerak. Odamni eng betoqat qiladigan palla ham shu. Kurchatov irodali va shuning bilan birga muloyim, bo‘ysunuvchan odam. Lenkin kecha u Stalinni rosmana talab tashladi. Stalinning yuzida qizil nuqtachalar paydo bo‘la boshladи. U kechagi voqeа haqida nima deb o‘ylashni ham bilmaydi, bu masalada nima qilish mumkin. Bugun esa undan-da jiddiyroq masalani hal qilayapti. U endi yuzini derazadan yugurayotgan salqin shabadaga tutdi va yana o‘zining ahmoqona niqobini taqib oldi.

Uning yodiga qirq birinchi yilning kuzida Moskvadan Kuybishevga zudlik bilan chaqirilganligi tushdi. Tabiiyki, bu voqeа o‘n to‘qqizinchi oktabr tongi bilan bog‘liq. Rogoj-Simonov boshi berk ko‘chasi, maxsus poyezd, cho‘l platforma... bu uning hayotidagi milliondan bir ulushidagi soniyalar. Qachonki oldinga bexato qadam tashlash mas’uliyati tushganda, beli karaxt bo‘lib qolganini, go‘yo butun shahar unga diqqat bilan razm solib turganini his qiladi. Zakhirxanda olamning qoq markaziga tushib qolganini sezadi.

U hozir jismonan, butun tanasi bilan bu yorug‘ olamdan ajralib chiqqanini esladi. Yuziga urilayotgan shamolga qaramay oldinga, faqat oldinga mag‘rur qadam tashlagan edi. U ham oddiy bir inson bolasi, lekin xohlaydimi, yo‘qmi taqdir unga millionlab insonlarning

yo‘lchi yulduzi bo‘lish bitigini berdi. Faqat o‘z yerida emas, dunyodagi o‘nlab, yuzlab janglarda qon kechdi. O‘sanda u hammasidan o‘lar darajada charchagan, to‘yan inson edi, lekin buni pisand ham qilmadi, yelkalarini bosib kelayotgan vatan oldidagi mas’uliyatga tik boqdi. Uni o‘z yelkalariga joylab, o‘sha boshi berk ko‘chadan, Rogoj-Simonov ko‘chasidan dadil odimladi. Hech kimga bir og‘iz so‘z aytmadni, ortiga o‘girildi, mashinasi tomon shaxdam yurib keldi va unga o‘tirib ketdi.

Stalin to‘rt yil o‘tib yana o‘sha maxsus poyezdga chiqqanini esladi. O‘sha kuni Potsdam konferensiyasida qatnashishi kerak edi. Lekin yodda qolarli voqeа bu emas. Uning yodida qolgani xuddi shu poyezd bilan bog‘liq bo‘lgan qirq birinchi yilgi voqeа. U hayotida bundan og‘ir kunni ko‘rmagan, uning o‘sha kungi kechinmalarini tushunish uchun, faqatgina o‘sha kuni uning o‘rnida bo‘lish kerak.

* * *

Stalin deraza yonida Bryuxanovga orqa o‘girib turar edi. Shu pallada u Bryuxanovni tamomila unutgan edi. Oraga jimlik cho‘kdi. Bu jimlikda u nafaqat yaqin o‘tmish, miyasining qa‘rida qolib ketgan uzoq o‘tmishni xotirladi. Birgina noto‘g‘ri qadam, qarabsizki hammasi barbod. Qisqa fursatda, eng oqilona qarorni qabul qilish, ko‘pincha taqdir unga shunday og‘ir vazifalarni yuklar edi. Bir daqiqa ham kechikish, paysalga solish mumkin emas. Stalining o‘zi ham deraza qarshisida turib shu bir necha daqiqa cho‘mgan jimlik orasida his qilgan tuyg‘ularini kimgadir tushuntirib bera olmas edi. U hech narsa demadi, yuz ifodasidan ham bir narsani o‘qib olish qiyin edi. Faqat Bryuxanov tomonga o‘girilgandagina bugungi charqiruvning sababi bo‘lgan gap aytilishi kutilayotgani ma’lum bo‘ldi. Bryuxanov nimalar bo‘lishini oldindan his qilayotgan edi, ko‘ngli g‘ash tortdi. Stalin deraza yonidan ketdi, ish stoli yoniga borib, kresslosiga yastandi. U hozir ham bir qarorga kela olmayotgan edi, buni qilish kerakmi, balki mavridi emasdir. Yo‘q, buni hozir qilish kerak, bu ko‘nglidagi tuyg‘ulari muvozanatga kelishiga ham yordam beradi. Bundan tashqari, kichik bir ko‘ngilchanlik ortidan katta falokatlar kelib chiqishi hech gap emas. Bryuxanov unga xalaqit bermadi, shu daqiqalarda bu inson ham o‘zi bilan o‘zi bo‘lib qolgan. Bunday

daqiqalarda u o‘z ummoniga sho‘ng‘iydi, bu ummon uni atrofida-gilardan tamomila uzib qo‘yadi, bunaqasi bir necha marotaba ro‘y bergen. U bu daqiqalarda o‘zining vazifalari, mavqeyi va hayotini unutib yuboradi. Bu daqiqalarda ‘u shunchaki bir mavjudotga aylana-nadi, quyosh nurlarida toblanadi, maysalar shivirini eshitadi, qishda oyog‘iga eski, qalin etigini kiyib olib qor bosgan adirlarda yuradi. Shu qor qo‘ynida qolib ketadi. Ba’zan shunaqasi ham bo‘lib turadi.

U o‘z xayollariga sho‘ng‘ib ketib Bryuxanov bilan bo‘ladigan suhbat yakunini paysalga solayotgan edi, keyin uning qo‘lida o‘ta dag‘allik bilan o‘ralgan, ustidan kanop ip bilan o‘rab tashlangan paket paydo bo‘lib qoldi (Bryuxanov u qachon qo‘liga bu paketni ol-ganini bilmay qoldi, u so‘nggi bir necha soniyada Stalinni ko‘zdan qochirib qo‘ydi).

– O‘rtoq, Bryuxanov, bu Konstantin Leontyevich Petrovning qog‘ozlari, shaxsan sizga atalgan, – u paketni ohista Bryuxanov to-monga surib qo‘ydi.

Bryuxanov Stalining qo‘llariga diqqat qildi. Kaftlarining yuzasi sarg‘ayib ketgan, umuman olganda, qari odamning terisiga xos. Le-kin shu onda u nima ko‘zlayotganini tushunish qiyin. Bundan tash-qari Petrovning qog‘ozlari haqida ham bir narsa deyish mushkul, le-kin shunisi aniqki, oldinda xavotirli kunlar turibdi. Buni Bryuxanov ichki bir tuyg‘u bilan his qilib turibdi. Balki uning va yana ko‘plab boshqa insonlarning taqdiri shu birgina qog‘ozlarga bog‘liqdir.

Bryuxanov shu onda qilishi mumkin bo‘lgan yagona ishni qildi. Ro‘parasida o‘rog‘liq turgan paketni ehtiyojkorlik bilan qo‘liga oldi, ip-kanoplarni bo‘shatib qog‘ozlarni oldi. Hozirgina shaxsan unga ekanligi ta’kidlangan yozuvlarni diqqat bilan o‘qib chiqdi. Bryuxa-nov marhum Petrov va Stalin o‘rtasidagi munosabatlar haqida ko‘p marotaba eshitgan, lekin uning qo‘lyozmalariga bu qadar qiziqishini xayoliga ham keltirmagan. Siyosat odamidan bunday qiziquvchan-likni kutish amrimahol, aslini olib qaraganda.

– Petrov buyuk shaxs edi, u juda haqiqatgo‘y, o‘zining o‘tkir fikr-lari bilan hammadan ajralib turadigan inson edi, O‘z hayoti, tinimsiz kurashi va fidoyiligi bilan asrimizga muhrlanib qoldi. Ha, ha, o‘rtoq Bryuxanov, siz va men yashayotgan asrga. Uyda bu qog‘ozlarni ba-furja o‘qib chiqing. Balki siz uchun mutlaqo kutilmagan ma’lumotlar

chiqib qolar. Shunday bo'lgan taqdirda siz uchun bag'oyatda foydali ish bo'lgan bo'lar edi. Nima dedingiz? Nafaqat do'stlaring, dushmanlaring ham sen haqingda nima deb o'ylayotganligini bilib olish foydadan xoli bo'lmaydi, – gapini tugatar ekan Stalin Bryuxanovning yuziga razm soldi. U endi ancha xotirjam, osoyishta qiyofada edi. Bu gal ham Bryuxanov Stalining gaplarini to'liq eshitib olmadi, qo'lidagi qog'ozlarga ko'zlarini tikib o'tirar ekan, uning oxirgi jumllalari qulog'iga chalinib qoldi.

– Chekib oling, ichingiz yorishadi, – Stalin jilmaygancha gapi-da davom etdi. Hozir Bryuxanovning ko'z oldida sodir bo'layotgan voqealarga ishonish juda qiyin. Shu daqiqada unga bu inson orasida qandaydir yaqinlik bordek tuyuldi. Stalining yuz ifodasidan payqash mumkinki, u hozir Bryuxanovning o'y-xayollarini yuziga, ko'zlariga qarab uqib olmoqchi va ayni paytda bu har ikki suhbat-dosh uchun og'irlik qilyapti. Xonaga xushchaqchaq kayfiyat olib kirgan Poskribishev vaziyatni ancha yengillashtirdi, har ikki tomon ham nafas rostlagandek bo'ldi. U Stalinga borish vaqtı bo'lganini aytdi. Demak, hozir uni qayerdadir kutishayapti.

– Ha, esimda, boshlanishiga besh daqiqa qoldi, – Stalin qo'qqisdan Bryuxanovga yuzlandi va qarshi bo'lmasa, birga tanovul qilishga taklif qildi.

«Qancha uzoq vaqt davom etsa, jumboqlar ham shunchalik ko'p bo'ladi», – o'z holatini shunday tasavvur qildi Bryuxanov. Bundan tashqari, u endi suhbatdoshining shaxsiyatiga niyoyatda qiziqib qol-gan edi.

Stalin shaxsiyatiga bo'lgan qiziqish vajidan bir necha soat o'tib u bilan bir stolga tushlik tanovul qilish uchun o'tirdi. U ortiqcha e'tibor tortmay o'ziga ko'rsatilgan joyga o'tirdi, qo'lidagi Petrovning maktublarini iloji boricha ko'zdan pana qilishga harakat qilyapti. Bir necha xos kishilar o'z vazifasiga binoan ularni kuzatib, stolni qurshab olgan. Tushlik davomida (vaqt jihatdan sira bu nomga munosib bo'lmasa-da) Bryuxanov deyarli ga-pirmadi. U Stalin va Dmitrovning Xitoy, Bolqon ishi haqidagi qaynoq suhbatlarini jon qulog'i bilan tinglab o'tirdi. Bu suhbat rasmiyatchilikdan mutlaqo xoli bo'lib, ikki do'stning uyda o'tirib quradigan gurungiga o'xshardi. Bryuxanov ziravorlarga

to'yintirilgan, nordon go'shtni og'ziga solarkan, suhbatdoshlar-ning hech bir jumlasini ko'zdan qochirmslikka harakat qilar edi. Uni hozir Stalining shinam muhit o'ziga mahliyo qilib qo'ygan edi. Bryuxanovning tushunishicha, bu insonning xarakteri shunday – moslashuvchan, u suhbatdoshining saviyasidan kelib chi-qadi, u o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib butun mamlakatni boshqarib kelmoqda. Ko'rsatgan qahramonliklari tildan tilga ko'chib, afsonalarga aylanib bormoqda. Eng muhimi, u o'z aqliga suyanadi va uning o'z mantig'i bor. Bryuxanovning o'zini taftish qilib o'tirganini payqagan Stalin navbatdag'i qadahni kapitan va kashfiyotchilar sog'lig'i uchun ko'tardi. Bryuxanov ham hamma qatori nim taxir vinodan bir qultum yutdi, bu orada Dmitrovning Stalinga bergen savolini eshitolmay qoldi. Atrofga sukunat cho'mib, barcha javobni diqqat bilan kuta boshlaganidan bilish mumkinki, bu savol anchagina zalvorli bo'lgan.

– Yo'q, Georgiy Mixaylovich, – Stalin lablarini sochiqqa ar-tib, oldiga qo'ydi, o'ziga xos tabassum qildi, ko'zlar ham mamnu-niyatini bildirib turardi, – yo'q, biz kolxozlarga chidashimizga to'g'ri keldi, o'shanda bundan boshqa yo'limiz ham yo'q edi-da. Qolaversa, tajribamiz ham yo'q edi. Lekin, sizga bu nimaga kerak? Sizda bizning tajribamiz bor, siz bizga o'xshab yo'Ining boshida turganingiz yo'q.

Yangragan javob Bryuxanovni hayron qoldirdi, qo'shnilarining yuz ifodasini ko'rish uchun atrofga alangladi. Hamma Stalining gaplarini diqqat bilan tinglayotgan edi. Bu safar uning ovozi bir-muncha bo'g'iq va bir ohangda aytilgan edi.

– Ha, maqsadga muvofiq, qattiq tizim edi, shoshilishdi, tayoqni ikki bukishdi, adashishdi. Aytgancha, tushunib yetishdi va o'zlarini isloh qilishdi. O'qish va tajriba yig'ishga esa hech kimda imkon yo'q edi.

Suhbat davomida Stalin va Bryuxanovning holati tobora o'zgarib bordi, Stalin borgan sari suhbatda ochilib borar, Bryuxanov esa se-kin-asta muvozanatini yo'qota boshlagandi. Bryuxanov ko'targan oxirgi qadah, umuman olganda, uning zarariga ishladi. Og'ziga uril-gan nordon va mazali bu tam tamomila hushini yo'qotishiga sabab bo'ldi.

Kutilmaganda miyasiga quyilib kelgan bir fikr uni o‘ziga keltirdi, kayfini tarqatib yubordi. Ha, bu yolg‘izlik hissi edi, ichi qop-qorong‘i yolg‘izlik, ... bunday cho‘qqidagi odam yolg‘iz bo‘lishi mumkin emas va u Bryuxanov, stol ustida bag‘oyatda go‘zal madaniyat bilan suhbat olib borayotgan kimsalar, nafaqat, kuch-quvvatga to‘lishlari, orom olishlari, yolg‘izlikdan himoyalanishlari ham zarur.

Endi Bryuxanov o‘zi haqida xayol sura boshladи. Uni kelasi kuni Katta teatrda qo‘yiladigan «Abgor xonim»ga taklif qilishgan. Mana, g‘ira-shira yoritilgan, zaldagi tomoshabinlardan sun‘iy to‘siq bilan ajratilgan lojada, Stalindan sal nariroqda u o‘tiradi. O‘ziga ajratilgan kresloga yastanib olib, tamaki tutatadi. O‘tirgan o‘rnidan atrofdagilar yaqqol ko‘rinib turadi. U hozir o‘zini sekin-astalik bilan falaj qilib boradigan, og‘ir bir bosim ostida qolgan edi. Uning shuurida bir insonning ismi chek-chegarasiz bo‘shliq hosil qilgan, U qayerda bo‘lmasin, oltindan qurilgan tog‘mi, olmos dalami, odamlar bilan o‘rtasiga tushgan to‘siq o‘z holicha qolaveradi. Hatto shu yerda, hashamatga burkangan insonlar orasida ham u yolg‘iz. Bu to‘siqni na odamlar buzib o‘ta oladi va na Bryuxanovning o‘zi. Umuman, olib qaraganda Bryuxanov o‘ziga ma’lum bir chegara qo‘yib, undan chiqmasdan hayot kechiradigan insonlar sirasiga kiradi. Hozir ham u buyuk shaxsga qaram bo‘lib qolgan. Bu qaramlikdan qutilish uchun ojiz qo‘llarini ko‘taradi, lekin foydasiz. Birdaniga o‘zida bu inson bilan qandaydir yaqinlik bor ekanligini his qildi, bir necha soatgina qabulida bo‘lgan bo‘lsa-da, xuddi u bilan oylab birga yashaganga o‘xshar edi. U bugungi kunini o‘zicha taftish qilmoqchi bo‘ladi, lekin xayollarini bir joyga yig‘a olmaydi.

Hatti-harakatsiz, jim qolgan Stalin bor diqqatini sahnaga qaratgan. Shu onda butun dunyoda shu opera va undan bo‘lak hech narsa yo‘qdek tuyuladi. Buning sababi quyidagicha: Stalin bu operani tushunarsiz sabablarga ko‘ra jon dilidan yaxshi ko‘radi, uni bemalol, xotirjam tinglashi mumkin bo‘lgan yagona joy bu – opera. Taassuflar bo‘lsinki, u orziqib kutilgan bu kechadan hech bir zavq ololmadidi. Aniqki, bunday alamli kechani shayton uysushtirgan, Stalining tinchini buzib, sevimli operasini tinglashga xalaqit berish bandasining qo‘lidan kelmagan bo‘lar edi. Uning tinchini Bryuxanovning

diqqati buzdi. Stalinga qadalgan Bryuxanovning o'tkir nigohlari, diqqati unga malol kelayotgan edi.

Ha, u Bryuxanovning o'ziga qaratilgan diqqatini sezib turibdi, bu hissiyotning butun qonuniyatlaridan xabardor. Lekin bu diqqatni boshqa safar muhokama qilishni xohlaydi, garchi yakuni anchayin yomon bo'lsa ham. Bu insonni yaqindan tanib olish uchun Petrovning qog'ozlari ham bir qadam bo'ldi, shu jumladan, Petrovni bilish uchun ham... Nega odamlar bu dunyoda o'z hissiyotlariga va muhabbatga bu qadar qaram bo'lib qoladi, xuddi moddiy bir ehtiyoj singari? – Uning miyasida savollar charx ura boshladi. Hayotda, uning yon-atrofida, avjiga chiqqan xursandchilik, esayotgan shamol – hammasi shartlilikdan xolimi? Bundan nima kelib chiqadi? «Bugun sen, ertaga esa men». Almashinishning zaruriy va o'zgarmas qonuniyati, o'lim bilan tugaydigan hayotning tantanavor uchquni? Inson hayoti – abadiyatga daxldor, hatto eng ulug', favqulodda jiddiy hodisami? Lekin hech bir pog'ona, hech bir ulug'vorlik odam bolasini o'lim changalidan tortib ololmagan. Uni har bir jon tatib ko'radi. Yo'q, u holda u hozir bu yerga nima uchun keldi? Deyarli, uch-to'rt soat vaqtini shu yerda o'tkazdi? Bu yerda u Volinskda daraxtlar orasida uch-to'rt kun yurib olishi mumkin bo'limgan oromni, kuch-quvvatni oldi. Endi u yana kuch-quvvatga to'la, o'z yumushlarini qilishdan charchamagan, yechimsiz muammolarni ustalik bilan hal qilishga tayyor inson. U shu yerda boshqalar ko'zlariga qarab o'qib oladigan mislsiz kuch-quvvatni yig'adi. Shuning uchun ham u bu asarning biron soniyasini o'tkazib yubormagan, harchand muammojar qurshovida qolmasin, teatrga kelish uchun fursat topgan, uni hech qachon bu masalada boshqalar nima deb hisoblashi qiziqtirmagan. Unga kerakmi, demak, hammaga kerak, vassalom. Gap bunda ham emas. Qandaydir shaytoniy, yengib bo'lmas kuch bu ikki dahoni, ikki avliyonи ko'zdan yashirib turibdi. O'z «meni» bilan kechadigan shavqatsiz olishuv oldida yo'qlikka mahkum – ikki daho.

Shu onning o'zida Stalin va Bryuxanovning kechinmalari qaysidir ma'noda bir-biriga o'xshash. Bu ikkovlon mo'jizaviy, yuksak va sira boshqalariga o'xshamaydigan nimanidir kutishayapti. Stalin o'z tamoyili bo'yicha o'ziga xalaqit berishi mumkin bo'lgan har qanday narsani chetga surib qo'ygan, shu jumladan Bryuxanovni ham. Ha-

rakatsiz tana, hech bir mushagi loaqal bir marotaba ham qimirlama-gan yuz – bu ko‘rinishda u o‘zi uchun muhim bo‘lgan musiqanining rohatbaxsh nuqtasini kutadi. Ohista tebranayotgan musiqa ummoni, alaloqibat, uni g‘arq qiladi. Taqdir eshik qoqmoqda, ha, ha, xuddi shunday, insonni ko‘zini shamg‘alat qilib soat chopadi, vaqt o‘tadi. Butun jahonini berib bo‘lsa-da eshikni ochish kerak, vaqt qisqa, eshikni ochib ulgurish kerak, bu dunyoda har bir inson o‘z eshigini o‘zi ochishi kerak.

Birdan yana hammasi asl holiga qaytib qoladi, yana o‘sha tanish savollar aylana boshlaydi, inson nima uchun yaralgan o‘zi, u nima qilishi kerak va u nima qilayapti, hammasi qachon va qayerda boshlangan o‘zi, qachon tugaydi? Qanday tugaydi?

Deyarli bir-biriga qayrilib ham qaramagan, bir og‘iz so‘z ayt-magan bu ikki inson u lahzalarda bir butunga aylanib qolganga o‘xshardi. Bryuxanov uchun bu tanish musiqa bu safar mutlaqo boshqacha yangrayotgan edi. Uning qarshisiga shunday bir sir pesh-voz chiqdiki, harchand urinmasin, uni tushunib yetmaydi, tushuntirib ham bera olmaydi. U o‘zining sentimentallikka moyil no‘noq tabiatidan har doim uyalib kelgan, lekin sahnada Germann ko‘rinish bergen o‘sha lahzada rangi o‘chgan va butun ishtiyoqini taqdirdan o‘z nasibasini yilib olish ishtiyoqi egallagan... «nimani yilib olish» ro‘parasidagi eski grafindan qo‘rquv aralash so‘radi u. U bema-jol gavdasini kresloga tashladi. «Kim, kim bo‘ldi o‘zi bu taviya?» so‘radi u betoqat ovozda. U ilgari hech qachon bu yerning mohiyati tushunib yetmagan, faqat bugungina u yerga ich-ichidan kirib bordi. Lekin bu dunyoni hech kimga ko‘rsata olmaydi. Endi uning oldida hayot mazmuni bor bo‘y-bastini ko‘rsatib turibdi, u shunchalar ravshanki, hech narsa avvalgidek qolishi mumkin emas.

Bryuxanov Stalin sharpasi o‘zi tomon ohista yaqinlashib ke-layotganini payqadi. U butun gavdasi bilan sahnani egallab oldi, endi hammasi tushunarli, u butun opera davomida ayni shu yerni egallahni ko‘zlagan. Ayni shu daqiqalarda bu odam o‘tkazayotgan kuchli bosimdan xalos bo‘lish mumkin. Bu musiqa ham u odamlarni osongina ishg‘ol qilishiga yordam beradi. Bryuxanovni chanqoq tutdi. Kimdir uning yelkasidan sekingina ushlab ketish vaqt bo‘lganini shipshitganida u musiqadagi so‘zlarning ham farqiga bormay qol-

gan edi. U ro‘parasida, mutlaqo jiddiy qiyofadagi Stalining yuzini ko‘rdi. U bilan bir necha daqiqa oldin sodir bo‘lgan voqealarning barchasi haqiqatdan ham sodir bo‘ldimi o‘zi?

3

Yangi topshiriqlarni qabul qilib olgan Chubarev qotmadan kelgan, novcha, ellik yoshni qoralab qolgan Muravyev bilan ish yuzasidan uchrashdi. Chubarev Zejsk zavodida ayni shu inson ishlab turgan lavozimni egalladi. Tabiiyki, Muravyev yangi qo‘shma korxonaning boshqarma boshlig‘i hisoblanadi. «Qiziq holat, – xayolidan kechirdi Chubarev, o‘z kreslosida bir tekisda o‘tirgan Muravyevni zimdan kuzatar ekan. Bu odam o‘z kreslosida juda to‘g‘ri o‘tirib olgan, qad-qomati xuddi sportchilarnikiga o‘xshaydi, yuz tuzilishidan esa melanxolikning o‘zginasi. U deyarli suhbatdoshining yuziga qaramaydi, agar vaziyat juda qaltis tus olsa, boshini ko‘tarib gapiriishi mumkin yoki yangi hamkasbi unga umuman manzur bo‘lmadi. Buni shunday deb tushuntirish ham mumkin. Ilk suhbat juda qisqa va aniq bo‘ldi. Yangi juftlik uchun juda yaxshi tanishuv bo‘ldi desa ham bo‘ladi. Chubarevning yodiga Stalin va Muravyev o‘rtasidagi murosasizlik xususidagi mish-mishlar tushdi. U bu mish-mishlar qanchalik haqiqatga yaqinligi haqida bir narsa deya olmaydi, lekin ularga tayanadigan bo‘lsa Stalin bu insonga o‘z shaxsiyatiga mutlaqo zid bo‘lgan chidam bilan yondashgan, bu ikki inson o‘rtasidagi munosabatlar ancha tushunarsiz. Muravyev bir lavozimda uzoq vaqt ishlamay, mansab pillapoyalaridan juda tez ko‘tarilgan. Stalin bu insonni har qadamda suyab turgan va har qadamda aynan uni tanlab yanglishmaganini isbotlashga uringan. Chubarevga Muravyev umuman yoqmadi. Buni insonga xos ojizlik sifatida tushuntirish mumkin, kuchli shaxsiyatning qonidagi belgisi. Qon-ku o‘z yo‘liga, bu odam jo‘n tabiatni, kibor qatlamga mutlaqo yarashmaydigan ovozi, iymanib o‘tirishi bilan umuman boshliqlar, siyosat odamlariga taalluqli emas.

– Yangi boshlangan ish shunday baquvvat, mohir qo‘llarga muhtoj, xursandman, bag‘oyatda xursandman, – xayrlasha turib Muravyevning aytgan gaplari shunday bo‘ldi, bir tekis ochilgan og‘iz, ter yiltirab turgan mo‘ylovni nazarda tutib aytish mumkinki, u Chuba-

rev va uning bu yerda ekanligidan muddao nima ekanligini yaxshi biladi.

Chubarev boshqarmadan chiqib, ochiq Moskva osmoni ostida sayr qildi. U Moskvani jon dilidan yaxshi ko‘radi, shuning uchun ham ruhi tetik. U hech qachon Arbatni kezish imkoniyatini qo‘ldan bermaydi, eng tor ko‘chalarigacha aylanadi, Sivsen Vrajk, Volxonka boradi, yo‘lda biron eski bino uchrab qolsa, uni soatlab tomosha qiladi. Qayerda bo‘lmasin Kreml darvozasimi yoki Pushkin, dvor yan uyi, bir aylana atrofida joylashgan o‘nlab xo‘jaliklar, xullas, nima bo‘lmasin, u navqiron va ko‘hna shaharning bag‘rikeng ruhini ko‘rib turgandek bo‘ladi. Mana, hozir ham barchasini eshitib turibdi. U bu yerda yangiliklarga to‘la jo‘sinqin hayot nima ekanligini his qiladi. So‘nmas muhabbat va nafrat, qon va peshona teri, quvonch va hayajon bu shaharni yaratgan, kengaytirgan va asrab kelgan. U o‘zining onalarcha mehribonligi bilan necha avliyonи, necha shoirni, qo‘yingki, uning bag‘riga kim kelgan bo‘lsa, barchasini ulg‘aytirgan. Hech kim hech qachon bu shaharning qaynoq, jo‘sinqin, serg‘ayrat ruhini sindira olmagan. Uning boshiga qirg‘inbarot urushlarni yo‘liqtirdilar, lekin u har doim ich-ichidan o‘zini o‘nglab oldi. Har bir asr boqiy shahar ustuniga bir g‘isht qo‘ydi, bu shahar minglab hukmdorni ko‘rdi, qamchisidan qon tomgan necha jallodning qah-rini ko‘rdi, lekin hukmdorlar qamchisi ostida ezilgan bu xalq doim olg‘a yurdi. Hatto Buyuk Pyotrning qutqlari ham bu shahar ruhini, xalq irodasini sindira olmadi. Buyuk Pyotr ham bu shaharda hech bir narsani o‘zgartira olmadi, chunki xalq dahos doimo ustun kela-di. «Men bu shaharni naqadar sevaman, – Chubarev o‘ziga o‘zi pi-chirladi, shahar ruhini tuyish uchun ko‘zlarini yumib oldi, – ...ham-masini boshqacha qilish... yo‘l chetidagi ustunni quchoqlab olish ... yoki militsionerni...bu shaharni kezish, borgan sari bachkanalashib ketayapman, lekin Moskva shunga arziydi, arziydi, – baralla qahqa-ha soladi.

Chubarev xuddi uchar mashinaga o‘xshab odamlarning ustiga chopib boradi, ular bilan to‘qnashishga bir bahya qolganda ustalik bilan o‘giriladi, paxmoq ensalarini havoda shishirib sakraydi.

– Lapa, Lapa, – quvonch bilan qichqira boshлади u, – Lapa, – shu onda yelkalaridan kimdir qattiq tutdi, Chubarev shiddat bilan

orqasiga o'girildi, baland bo'yli, yuzini tikanak soqol qoplagan, darg'azab bir erkak bilan ko'zları to'qnashdi.

– Kechirasiz, bu yerda nimalar bo'layapti, bu nima gustohlik? – Chubarev norozilik ohangida berilgan savolni eshitdi, atrofida xuddi shu kayfiyatdagi basharalar ko'payib ketdi. Buni qarangki, u mana shu norozi basharalar orasida o'ziga juda tanish bir qiyofani ko'rib qoldi. U shunchaki beg'araz bir sho'xlik edi xolos, u hech kimga zarracha ozor berishni istamagan. O'ziga yo'liqqan tanish qiyofa quvonchidan u darg'azab erkakni ham, norozi basharalarni ham unutib yubordi, shu onda qadronining yelkalaridan mahkam quchib oldi.

– Buni qara-ya, qariya, – u do'stining yelkalaridan mahkam tutib, silkitib qo'ydi. Quvonchdan chaqnagan katta-katta ko'zlarini ham unga tikib olgan edi.

– Mana ular, yo'lkaning o'rtasida, o'pishib quchoqlashib yotishibdi.

– Qani, hammasi chin yurakdan bo'lsin, – sho'x, quvnoq ovoz shodon baqirdi, – qani, qariyalar, mahkamroq.

Chubarev ovoz kelgan tomonga alangladi. (Yosh, quvnoq, tirjagan bir bashara undan sal nariqoda turardi.)

– Yur, Lapa, yo'l chetiga o'tamiz, ana xiyoboncha, – Lapani chetga sudrar ekan ko'zi tanish o'rindiqqa tushdi, – qara, Lapa, o'rindiqni qara, hammasi xuddi ilgarigidek.

– Bu yerda vaqt hech narsani hal qilmaydi, – dedi biroz hayajonini yengib olgan Lapin, – Vaqt – mutlaqo muvhum tushuncha, lekin sen va men bu dunyodagi tirik mavjudotlarmiz, bugungi uchrashuvimiz ham aniq ro'y berdi. Bashoratgo'y, Oleg, uni eslaysanmi?

– Bo'imasam-chi, albatta, «Qani, menga ayt-chi, ilohlar erkatori, men bilan nimalar bo'ladi», ha yoki yo'q, Lapin, oradan qancha vaqt o'tdi o'zi? – Chubarev Lapinni yana yelkalariga qoqdi.

– O'ttiz besh yil, undan kam emas, ha, ha, bizning gimnaziyani bitirishimiz sakkizinchiga to'g'ri kelgan edi, eslaysanmi? O'ttizinchi yillarning boshida Orjonikidzeda uchrashgan edik, lekin senga ikki og'iz so'z aytishga ham fursat yetmagan edi o'shanda. Urush vaqtida kimdandir seni Uralda ekanligingni eshitdim, – Lapin do'stining qaynoq kaftlarini mahkam ushlab gapirardi.

— Men sen haqingda hech narsa eshitmadim, — Chubarev suhbatni davom ettirdi, bor yo‘g‘i chorak soat ilgari soniyalarigacha ma’lum bir rejaga bo‘ysundirilgan hayoti xuddi og‘ir tush kabi ni-hoyasiga yetgan edi. U hozir xiyobonda Rostey Lapin — Rostislav Sergeyevich Lapin bilan chaqchaqlashib o‘tiribdi. U bu inson bilan qirq yil oldin bir partada o‘tirgan, ajablanarli jihatni, bu ikki do‘st shu gimnaziyaning bir bitiruvchisiga ko‘ngil qo‘ygan. Bunaqasi ba‘zan bo‘lib turadi.

— Aytarli hech gap yo‘q, Oleg, meni urushda xippa bo‘g‘ishdi, hali hamon hamma yoqdan tamg‘alar o‘rmalab chiqadi. Mana biznikiilar bilan nimalar bo‘ldi.

Ikki qariya eski, pastak cho‘yan o‘rindiqqa o‘rnashib olgan. Qari, sershox terak barglarini to‘kib bosh chayqaydi.

Lapinning ham, Chubarevning ham xayolidan bir narsa o‘tdi. Bundan bor yo‘g‘i bir soat oldin ham ular bir-birlarini uchratishni xayollariga ham keltirishmagan. Taqdir ularni uchrashтиrdi, quchoqlashtirdi, suhbatlashtirdi, bordi-yu bu uchrashuv yuz bermaganida qahramonlarimizning keyingi hayoti qanday kechgan bo‘lar edi.

— Menga qara, — Lapinga jiddiy ohangda dedi Chubarev, — bu yerda nima qilayapmiz o‘zi, nima bizning uyimiz yo‘qmi? Mening dang‘illama mehmonxonada xonam bor, aroq, konyak, ko‘ngil tusaydigan boshqa narsalar ham topiladi. Ketzik o‘sha yerga.

— Turush-turmushingga odamning g‘ayirligi keladi-ya, o‘zingga o‘zing xo‘jayinsan. Nima deb o‘ylaysan, men bu yerga toza havoda sayr qilish uchun kelganmanmi? Men haydovchini kutayaman, ... shu yaqin o‘rtadagi boshqarmaga kelgandik. Qanaqadir ish qo‘zg‘atish kerak ekan.

— To‘xta, to‘xta, sen Muravyevning huzurida bo‘lmadingmi? Pavel Andreyevich, — Lapinning hafsalasiz qo‘l silkishidan u bir urinishda to‘g‘ri topganini taxmin qildi, — Qo‘ysang-chi, xavotir bo‘lma, uning masalasini o‘zim hal qilaman. Men bu ishning ikir-chikirlarigacha ichida yuribman, birinchi yil o‘rganaman, keyin hammasiga ko‘rsatib qo‘yaman...

— Rahmat, Oleg, hammasi sen o‘ylaganingdek emas, bu umuman boshqa masala, yaxshisi men o‘zim.

– Tushunaman, tushunaman, hammasini tushunaman, – aytilajak javobni oldindan bilgandek xitob qildi Chubarev, – Kel, yaxshisi, hozir ish mavzusiga tupuramiz, maza qilib tushlik qilamiz, keyin «Metropol» ga borib bir yoshlikni eslaylik, Lapa.

– Yo‘q, bugun sira ilojim yo‘q. Bugungi tashrifga juda ko‘p narsalar bog‘liq. U mening muammoymanni hal qilmagunicha bir qadam ham yonidan jilmayman. Yaxshisi kechqurun biznikiga kel, xotiningni ham olib, albatta.

– Shoshma, shoshma, qari qaroqchi, o‘zi xotining bormi, kishtim ayig‘i? – savol ma’nosida bosh irg‘adi Lapin.

– Vera Streshnevani eslaysanmi? – savolga savol bilan javob qaytardi Chubarev, u Lapinning yuzini jilmaygancha kuzatib turdi.

– Qaysi... Vera Streshneva? – Lapin uzun barmoqlarini o‘rindiq bo‘ylab yugirtirdi, – To‘xta, to‘xta, Vera Streshneva, bu haligi professor Streshnevning qizi emasmi? Obbo qaroqchi-ye.

Chubarev jimgina yelka qisdi, unga Lapinning bolalarga xos hayratini kuzatish yoqib tushdi.

– Esingdami, Politexnikada Streshnevning ma’ruzasidan qanday qochganimiz? – Chubarevning xotiralarini qitiqladi Lapin, – yoshlikda hammasi boshqacha edi, – Qochib to‘g‘ri qilganmiz, bizga arxeologiya yoki hind vedalarining nima qizig‘i bor? Qara, nahotki, u bo‘lsa-ya, – Vera Streshneva. Demak, o’shanda meni dog‘da qoldirgan ekansan-da, kishtim ayig‘i.

– Shunchaki, menga davomli munosabatlar yoqadi, Lapa, – Chubarev mayin tabassum qildi.

– Vera qalay, yaxshi yuribdimi?

– Nima ham derdim, Vera har doimgi Vera. U Nadejda, U Lyubov, har doimgidek maftunkor. Moskvaga kelganimizdan o‘zida yo‘q xursand. Senda-chi? Rafiqangning ismi nima?

– Farzandlaringiz bormi? Nechta? – Lapin savolga savol bilan javob qaytardi.

– Bolalarim... nabiralarim ham bor. Ikki karra xizmat ko‘rsatgan boboman, – Chubarev mag‘rur kerishib qo‘ydi, – Hech narsadan quruq qolmaysan, unda ko‘rishguncha, – u Lapinning turayotganini ko‘rib xayrashmoqchi bo‘ldi.

- Kechgacha, Oleg, hech qanday «lekinlarsiz», Vera bilan birga,
- Lapin hamyonini titkilab gugurt qidirdi. Tamaki tutatgancha odimlay boshladi.
- Shoshma, nimanidir unutmadingmi, masalan, manzilingni aytishni?
- Bu nima deganing? Meni manzilimni ham unutib yubordingmi?
- Qanaqasiga? Sen hali ham Ordinkda yashayapsanmi? – Chubarev esankirab qoldi.

– Takallufsizligim uchun ma'zur tutasiz, lekin bunday qulay manzilni nima uchun o'zgartirishim kerak? Undan ko'ra arzonroq biron narsani o'zgartirganim ma'qul, to'g'rimi. Xullas, ikkingizni ham kechga kutaman, Vera kelishi shart, – Lapin o'rindiqdan uzoqlasha boshlagan edi, shuning uchun ham endi baqirib gapirayotgandi. U odamlar orasiga singib ketishdan oldin baqirib yana «Vera» dedi va nihoyat, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Ikkovlon ham kech tushishini sabrsizlik bilan kutishdi. Stolga did bilan qotirilgan oq dasturxon solingan. Uning usti turli xil antiqa vino va gazaklar bilan to'ldirilgan, lekin nima uchundir bu kecha ma'yus ohangda boshlangandek bo'ldi. Lapin hali-hanuz Vera Streshnevaning tabiatini tushunmaydi, bu qiz bir vaqtlar havoyi, shoirtabiat bo'lishiga qaramay uzun sochlarini hurpaytirgancha modernistlikka ham da'vo qilardi. Qizig'i shundaki, o'z tabiatiga mutlaqo mos bo'limgan holda qadimgi yun'on tragediyalari, «uyg'onish davri» ijodkorlari ixlosmandi edi. Ular Chubarev bilan qattiq sevishishdi, bu sevgiga bor-budini tikishdi, ko'rinish turibdiki, bu muhabbat ham hech qachon ularni tark etmabdi. Ochig'i, uning bir necha nabiraga buvi ekanligiga aqling bovar qilmaydi. Lapin voy-voylagancha xonimning atrofida girdikapalak bo'ldi, Vera Streshneva esa unga shahlo va yoshlikdagi kabi chaqnab turgan ko'zlarini tikib o'zini urintirib qo'ymasligini tayinlardi. Nima uchundir Lapin ma'yus tortib qoldi. Bir vaqtlar zavq-u shavq bilan to'lib toshgan, serg'ayrat Vera Dmitriyevna hozir Chubarevning yonginasida, uning hangomalariga tabassum bilan javob qaytarib o'tiribdi.

– Menga qara, Rostya, bugun alamlaringni chetga surib qo'y, sen vaqt bilan, qadrdonim, bellasha olmaysan, u ortiga qayrilib ham qaramaydi, – norozi ohangda dedi Chubarev.

– Nima uchun qayrilib qaramas ekan, kim uchun qayrilib qaramaydi?

Qadahlarga quyilgan konyakni sekin-astalik bilan simira boshladilar. Vera Dmitriyevna kreslolardan biriga qulay o'mashib olgan, suhbatdoshlariga iltifot ko'rsatib tabassum bilan o'tiribdi. Unga bu yerdag'i sokin muhit yoqdi. Bundan tashqari, turmush o'rtog'ining yangi lavozimi ham ko'nglini tog'day ko'targan. Lekin dilni xira qiladigan jihatlar ham yo'q emas, Uralning qahraton iqlimi bu ayolning didiga umuman o'tirmadi, kichkinagina, kam aholiga ega shahar, bu yerga uni zavoddan boshqa hech narsa bog'lab turgani yo'q. Ularda umid va hayotga bo'lgan muhabbat bor. Lekin xonim hozir bu haqida o'ylashni istamaydi, bu bilan o'zini yerga urmoqchi ham emas, u shunchaki Rostya Lapinnikida o'tkazayotgan bu kechani maroqli o'tkazmoqchi. Hammasi yodida, u baland bo'yli, biroz asabiy o'spirin edi. O'ziga qilinadigan hech bir xiyonatni mushtsiz qoldirmas, Vera kimnidir maqtagudek bo'lsa, uni otib tashashga tayyor turar edi.

Vera Dmitriyevna bu yerda ortiqcha hayajonga berilishni xohlamadi. Lekin qalbida kamdan kam his qiladigan xotirjamlikni tuydi. Uzoq vaqt peshonasiga qandaydir muqaddas toshni olib borayotgan, bir necha qo'lli buddaning bronza haykalchasini tomosha qilib turdi. Oradan necha yillar o'tib ketdi, lekin haykalcha hali-hamon o'zining oldingi o'mida turibdi. Nozik harakat bilan xonim turmagini to'g'rilaqandek bo'ldi. Hozir u hech narsaga amin emas, lekin u, Rostya Lapin, o'sha-o'sha beg'uborligicha qolgan, biroq hammasi qanday bo'lishi lozim bo'lsa shundayligicha kechdi. Hech kim va hech narsa uni to'xtatib qololmadi.

Vera Dmitriyevna erkaklarga yashirinch'a nigoh tashladi. Qadrondonlar suhbatli qizigandan qizib borar edi. «Nima ham derdik, ular birga vaqt o'tkazishni yaxshi ko'rishadi» xayolidan kechirdi u. Nima uchundir Oleg unga ancha uddaburondek ko'rindi. Yana nima uchun o'z sevgilingni sevishingni so'z bilan ifodalab bera olmaysan, nima

uchun aynan uni, boshqasini emas, ha, ba'zan hayotda shunday dildir daqiqalar ham bo'lib turadi.

Shu daqiqada to'q yashil bo'yoq bilan bo'yagan og'ir eshik ochilib xonaga sakkiz yoshlari atrofidagi qizcha yugurib kirdi. Uning ortidan Chubarevlar oilasiga yaqindan tanish bo'lgan Lapina Mayya Sergeyevna halloslagancha kirib keldi. U jigarrang yungli ko'ylak kiyib oлgan. Bu ayolning qayerlaridir akasiga o'xshab ketadi, lekin bir qarashda buni aniq aytib berish qiyin. Qizaloq otasining quchoqlarini oshib, o'rnashib oldi. Bu qizaloqning ko'zlarini moviy, dum-dumaloq. Shu onda Vera Dmitriyevnaning kulgisi qistadi.

– Naqadar ko'r kam, – dedi Vera Dmitriyevna qizaloqqa mehr bilan qarab. Qizcha notanish ayolga yashirinchha ko'z tashladi. Uning javobi ham ayolning kulgasiga sabab bo'ldi.

– Men ko'r kam emasman, – qizaloqning gap ohangidan bu uyda uning gapi gap ekanligini bilish mumkin, – men Tanyaman, – otasining qo'ynida o'zini bexatar sezgan qizaloq yangi kelgan xolaga iljayib qo'shib qo'ydi.

Xo'mraygan Mayya xola qizchaga qarab o'zi tomonga imladi, Tanya o'sha zahoti otasining quchog'ini bo'shatib uning oldiga yugurib bordi.

– Xola, men aybdor emasman, men xohlamagandim, uning o'zi tushib ketdi, – tez-tez nafas olib dedi Tanya.

– Mayli, mayli, mehmonlarga o'zimizning kichkina sirlarimizni ochmaymiz, – Mayya Sergeyevna Tanyaning katta ko'kish sochbandi to'g'rilagan bo'ldi.

– Ochmaymiz, ochmaymiz, – Tanya bu gapni xuddi tez aytish-dek yodlab oldi va qaytaraverdi.

– Meni ma'zur tutinglar, choy qaynataman-u, oldingizga kiramani, bizning Klava hali bu san'atni maromiga yetkazganicha yo'q.

– Menga qara, Rostya, bunaqasi ketmaydi, – barchasini kuzatib turgan Chubarev kresloni g'ichirlatib o'rnidan turdi, – biz sen ha-qingga umuman hech narsa bilmaymiz?!

– Nima deganining bu «hech nima»? – Lapin eshik oldida turgancha yelka qisdi, – Mana, mening o'tmishim, ko'z oldingda turibdi, qirq birinchi yilda tug'ilgan, uning onasi Tamara bir necha oy muqaddam vafot etdi. Men hatto u haqida hech narsa bilmas edim, u vaqtida

men Boltiqda kema safarida edim-da. Institutim esa Uralda... O'sha kuni Lokatorlar ham o'zlashtirilgan edi... xullas kalom, men o'sha kuni bиринчи хотинимдан ажрасиб, иккичисига уйланган едим. Нима ham derdik, mana qizcha ulg'ayyapti, Mayya unga onalik qilyapti. Bu nimasi o'zi, shunday o'tirish bo'lishi mumkinmi? – oxirgi gapini mehmonlardan o'kingan ko'yi gapirdi, – mog'or bosgan, sengayam, mengayam tegishli ba'zi gaplarni gapirib bermaysanmi?

– Norilskda kombinat qurishayapti, o'zing o'ylab ko'r, bu биринчи маротаба эмас.

– Sulola, Oleg, buyuk hodisa. Chubarevlar – ular butun imperiyani tutib turishgan. Ular o'zlaridan katta-katta yerlarni ham qoldirishgan, bunga ishonchim komil. Nima deding, qizalog'im.

– Ayol men uchun bir umrlik jumboq bo'lib qoldi, – Chubarev jim qolgan rafiqasining qo'llaridan tutdi, – Unga qanday umidlar berishdi! Musiqaga, vokalga, insho yozishga o'qitishdi. Xo'sh, axiri nima bo'ldi? Aql bovar qilmas darajada sevishdi, endi oilali ayol. Harbiyning rafiqasi. Igna qayerda bo'lsa, ip ham o'sha yerda bo'lgani kabi erining soyasi. Shiddati so'ngan, hozir Kaliningradda. Yozishicha, harbiylarning bolalariga mo'ljallangan bolalar bog'chasi ochishibdi. Unda musiqa mashg'ulotini o'zi o'tar ekan, aytishicha, bu ish o'ziga juda yoqib tushibdi. Albatta-da, tabiat shu, bahona qidiriyapti.

– Sizlarni qarang-u, urishqoqlar, sizning oldingizga bunday ayollar yo'lamasligini o'z zimmamga olaman, – Vera Dmitriyevna-ning hazilomuz so'zлари yangradi.

– Vera, Vera, umid qilamanki, sening bu gaplaring qizlarimizga tegishli emas.

– Lekin uning eriga tegishli, u erini jon dilidan sevadi, mana baxt nimada. Shuning uchun ham men muhtarama Klara Setkindan marosimda taqdirlamasligini so'radim. Endi aniq bilamanki, men emansipatsiyada taqdirlanishga loyiq emasman.

– To'g'ri, to'ppa-to'g'ri, qo'shilaman, – xuddi aks sadodek takrorladi Chubarev.

Vera Dmitriyevna o'rnidan turdi, eshikni ortidan yopar ekan:

– Rostya, men Mayya Sergeyevna va Tanyaning oldida bo'lamon. Oleg, bilib qo'y, biznikilar allaqachon u yoshdan o'tgan.

– Bolalaring katta bo‘lishi naqadar ayanchli, – Chubarev xotining vajohatiga biroz hayron qoldi, – to‘g‘ri, ularni oldingidek yaxshi ko‘raverasan, lekin har soniyada senga muhtoj bo‘lgan paytalarida o‘zingni yosh va uddaburon his qilasan, hali hammasi oldinda deb o‘ylaysan. Senga havasim kelyapti, Rostya.

Vera Dmitriyevna eshikni yopganidan so‘ng Lapin Chubarevning tamakisi hidi bilan to‘lgan xona havosini ichiga tortdi, keyin boshqa xonaga chiqib ketib qo‘lida shamshod tanasidan ishlangan trubka va tamaki qutisi bilan kirib keldi. Oynavand eshikni ichidan qulflab trubkaga tamaki soldi, o‘z odati bo‘yicha cho‘zib-cho‘zib tutatdi.

– Faqat o‘z xonamda tutatishim mumkin, tushunayapsanmi, aks holda hammasi tagiga oladi, bu yer taqiqlangan hudud, Mayya toqat qila olmaydi, – Lapin Chubarevga bolalarcha hasrat qildi, – lekin bugun botirlik qilsam bo‘ladi, ular sening hurmating uchun ham indashmaydi. Qani, endi gapir-chi, nimalar qilib yuribsan o‘zi?

– Nima bilan, nima bilan... – Chubarev yelkalarini yozdi, qo‘lidagi tamaki kulini kuldonga bosdi, – Yana ko‘chish kerak, Uralning Xolmsk guberniyasiga, eski joylar... yana motorlar. Bilasanmi, Rosta, xuddi butun umr gimnaziyaga tayyorlanayotgan o‘quvchidek yashadim. Qo‘limga bolalar kubigini berishadi, endi nimadir qilish haqida o‘yay boshlaganingda xuddi futbol to‘piday umuman boshqa tomonga tepib yuborishadi. U yerda yana yangi alifbo va kubikchalar berishadi, shu zaylda aylanaverasan, aylanaverasan. Barchasidan qanchalik bezib ketganimni tasavvur qila olsang edi.

– Yaxshi emasmi, – Lapin tamakidan rohat olayotgan edi. Har ehtimolga qarshi har zamonda eshikka ko‘z qirini tashlab qo‘yadi.

– Nimasi yaxshi ekan, o‘zingni mening o‘rnimga qo‘yib ko‘r, butun umring muammo va hisob-kitob bilan o‘tib ketsa. Mana sen istiqboli bor yo‘ldasan. Qanaqa yo‘l ekan – radiofizika. Akademik bo‘lding. Men-chi?

– Oleg, hammasi bir go‘r, seniki zavod, meniki institut, ikkala si ham bo‘yinturuq. Menimcha, olim hech qachon boshqaruvchi bo‘imasligi kerak, masalan menda har bir hisobot, har bir jadval aql bilan yondashishni talab qiladi.

– Bilmadim, bilmadim, Rostya, men o‘z ishimdan sira ham mamnun emasman, u men uchun emas. Jadval-u hisobotlar – bar-

chasi odam bolasi toqat qila olmaydigan narsalar, bo'tana, loy. Lekin yaxshi tomoni ham bor, hech qaysi ahmoq senga hukmini o'tkaza olmaydi, o'zingga o'zing xo'jayinsan, bilasan, boshqarmada bunaqa ishyoqmaslar tiqilib yotibdi. Aksincha, sen ularga xo'jayinlik qilasani.

— Ming'irlashlaringga qaraganda, ular seni ancha qiyashibdi, sendan qog'oz odamini yasamoqchi bo'lishgan. Hechqisi yo'q, qattiq yong'oqning o'zginasisan, sendan tishlarini avaylaganlari ma'qul, nima deding.

— Bu gunoh! — Chubarev o'tirgan joyida kerishdi, — Xo'sh, Rosta, o'zing-chi, nimalar bilan mashg'ulsan? Umuman olganda, nimalar bilan shug'ullanasan?

— Nima desam ekan senga, qariya, — suhbat mavzusi o'ziga ko'chganidan Lapin jonlanib ketdi, — hozir favqulodda muhim, juda qiziq yangi dastur ustida ishlayapmiz. U atrofga bejo alanglab qo'ydi, so'ng tushuntira ketdi:

— Ishning tabiatidan kelib chiqadigan bo'lsak, bizni aloqachilar deb atash mumkin. Yangi nimanidir kashf qildik deb da'vo qilolmayman, lekin o'zingdan qolar gap yo'q, to'g'ri va qarama-qarsi aloqalarsiz hayotdagi hech bir jarayonni yurgizib bo'lmaydi, texnik taraqqiyot, tezlikning takomillashuvi ham u bilan bog'liq. O'yashimcha, biz buyuk sakrash yo'lidagi bir zarrachamiz. Hozir hech bir shahar, hech bir fan axborot texnologiyalarisiz rivojiana olmaydi. Mudofaani-ku, aytmasa ham bo'ladi. Ha, Oleg, katta sakrash yoqasida turibmiz. U juda qudratli bo'ladi. Kimdir nimadandir hayratda qolib yoqa ushlaydi. Lekin ogohlantirib qo'yay, men senga hech narsa demadim, sen ham hech narsa eshitmading, kelishdikmi.

— Mayli, o'rtoq tashkilotchi, tamakingni kuldonga bos, hozir singlingdan baloga qolasan, — Chubarev Lapinni singlisi kelayotganidan boxabar qildi. U shoshilgancha dasturxon ustiga tushgan kullarni qo'li bilan sidirib oldi. Ayollar tomonga qarab biroz xayolga berildi, ayollar oshxona stoli oldida gurunglashib o'tirishibdi, stol ustida choynak va boshqa oshxona anjomlari turibdi, ular qora ryabina murabbosi qanday tayyorlanishi haqida gaplashishardi. Lapin yelka qisdi. Bu orada Mayya Sergeyevna ham finjon ko'tarib o'rnidan qo'zg'aldi.

– Rahmat, Mayya!

Lapin singlisining qo‘lidan finjonni oldi, bug‘i chiqib turgan choyga bir necha bor puflab, og‘zini kuydirsa ham oz-ozdan ho‘play boshladi, Chubarevning dimog‘iga qadrdon va yoqimli choy isi urildi. Qachonlardir, yoshlik yillarda, dunyo oyoqlari ostida charx ursa ham parvolariga kelmaydigan o‘sha kunlarda jezdan yasalgan eski choynakka xuddi shunday hid keladigan quruq choy solib damlashardi. Chubarevning dimog‘iga o‘tkir quyosh nurida quritilgan ko‘kat hidi urildi. U hayajonini Lapinga sezdirgisi kelmadi. Oldiga bo‘shab qolgan qadahlarni tortib bo‘g‘zigacha quydi.

– Kel, Lapin, barcha yaxshi narsalar uchun ko‘taramiz, – Lapin indamasdan uzatilgan qadahni ko‘tardi, – bilasanmi, Lapa, hozir bizga kim yetishmay turibdi? Nimalar bo‘layapti o‘zi senga, shunga ham fahm-farosating yetmasa, axir, oramizda Seva Rostovsev yo‘q-ku, boshqa kim ham bo‘lishi mumkin.

– To‘ppa-to‘g‘ri, Oleg, kel unikiga boramiz, bu yerdan uncha uzoq emas, qulay, markazda joylashgan, Yeliseyev maydonida, – umuman kutilmagan taklifni berdi Lapin, u Chubarevning ko‘zlariga yalingan inson ko‘yi qarab turardi, – xohlamaysanmi yoki qo‘rqasanmi? Ochig‘ini aytaver, uyaladigan joyi yo‘q buning.

– Nega bormas ekanmiz, Lapa, – dedi Chubarev bo‘shatilgan konyak qadahini zarda aralash stolga qo‘yar ekan.

– Qarib qoldik, bundan tashqari, ayollar bizni qo‘yib yuborishmaydi, hozir ancha kech ham bo‘lib qoldi sirasi.

– Valdirayver, valdirayver, yana men haqimda nimalar deb o‘ylaysan, – Chubarev unga o‘grayib qo‘ydi.

– Hech narsa, boshqa gapim yo‘q, – Lapin qo‘li bilan yo‘q ishorasini ko‘rsatdi.

– Boshqa gaping bo‘lmasa, ketdik, – Chubarev o‘rnidan turib kiyimlarini to‘g‘rilagan bo‘ldi. – Men o‘zimning ikkinchi yarmim haqida senga gapirib berdim, u hozir men bilan, hamon mendan boshqaga ko‘nika olmaydi, sendagi ayollarning zuvalasi esa boshqa xamirdan qorilgan, to‘g‘rimi? Tanya hali kichkina, singling qaynonalik qila olmaydi, shunday bo‘lgach, nimadan qo‘rqasan? Ketdik endi... Boramiz! Bo‘ldi, muhokama qilma. Qanday odam bo‘ldi ekan bizning Sevka Rostovsev?

– Bu haqida senga hech narsa demayman, – Lapin betgachoparlik qilib stol ustidan konyak, limon, konfetlarni yig‘ishtirib portfeliga sola boshladı, – borishga boraveramiz, lekin meni aytdi dersan, bundan hech narsa chiqmaydi, – u stol ustiga ko‘z yugirtirib, pichoqqa ilingulik nima qolganini tekshirdi.

– Bilasanmi, men akademikcha tanovul kishisiman, u haqida esa bunday deyolmayman.

– Bo‘la qolsang-chi endi, Sevkani ko‘rishga oshiqayotgan Chubarev Lapinni holi joniga qo‘ymasdi. Bu yigit gimnaziyaning so‘nggi yillarida Chubarev va Lapinga oshna tutingan. U doim o‘z xayollari qurshovida yashaydigan, hech qachon hech kim bilan senmenga bormaydigan, matonatli, mulozamatli yigit edi. Hali yosh bo‘lishiga qaramay Nikolay Rerixning ixlosmandi edi. Chubarev harchand urinmasin gimnaziyanı bitirganlardan keyin bu yigitta nima bo‘lganligini eslay olmadı. Chubarev o‘zini nochor sezgan vaqtarda Lapin singari do‘satlari oldiga oshiqardi, shu sababli qo‘qqisdan qabul qilingan bu qaror uning jig‘iga tegmadi. Xonim beparvo qo‘l silkitar ekan:

– Buncha tortishdingiz, – erining kalovlanganiga hayron qolgancha yelka qisdi, – boringlar, bora qolinglar, hali choy ichib bo‘lganimizcha yo‘q, mehmonxonaga, azizim, o‘zim yetib olaman, bu birinchi marta emas. Siz qarshi emasmisiz, Mayya Sergeyevna? Ularni bo‘ydoqlar sayriga yuborishga.

Mayya Sergeyevna ko‘rsatkich barmog‘ining uchi bilan ko‘zoynagini to‘g‘rilagandek bo‘ldi, lekin u bu oqshomni yo‘qqa chiqarishga botinolmadı. Oradan qirq daqiqalar o‘tgach ikki oshna xira yoritilgan zinalardan nafaslari tiqilib yettinchi qavatga ko‘tarila boshladilar. Uy eski uslubda qurilgan, devorlari ham ancha eskirgan. Yigirma besh daqiqqa deganda yettinchi qavatga ko‘tarilib katta qizil eshikni taqillatishdi. Ostonada ularni past bo‘yli, to‘ladan kelgan, tepakal bir kishi qarshi oldi. U mehmonlarga bolalarcha iljayib qarab turardi. Ha, bu o‘sha Sevka Rostovsevning o‘zginasi... Bir qop yong‘oqday, do‘mboq baqaloq bu odam o‘z eshigini ochish bilan birga yangi sarguzashtlarni boshlab bermoqda edi. Rostovsev Lapin bilan quyuq ko‘rishi, Chubarevning qo‘llarini siqib qo‘ydi.

– Bilmabman, umuman bilmay qolibman, – Lapin kulgidan o‘zini zo‘rg‘a tiyib turdi.

– Aybdorman, aybdorman, qariyb unutayozgan ekanman-a, – U Rostovsevdan bir necha qadam narida turardi, keyin boshini quyi solib jonsarak suhbatdoshlarini kuzata boshladi.

– Juda yaxshi, mana kelishib ham oldik, – u hazilini davom et-tirgan ko‘yi, – ba’zan seni littada tanib olishmagani ham yaxshi, dedi. Stol yoniga borib portfelini bo‘sata boshladi.

– Bo‘ldi endi, Rostya, jin ursin seni, akademik bo‘lding-u, insof degan narsadan asar ham yo‘q, – Chubarev o‘kingan kishi bo‘ldi, bu orada Rostovsevning rangi bo‘zarib ketdi, orqasiga bir necha qadam tashladi.

– Bo‘lishi mumkin emas, Chubarev... Oleg, – u xotiralarini tit-kilar ekan, taxminiga ishonchi komil emas edi, lekin bir soniyada yuziga o‘sha tanish tabassumi qaytdi, – aniq, xuddi o‘zginasi, Oleg Chubarev, o‘lay agar, faqat biroz semirgan va salobatli.

Chubarev ko‘ngliga to‘lib-toshib kelayotgan hissiyotlarini tu-shunishga urinardi, bugun Lapin bilan bo‘lgan tasodifiy uchrashuv-dan so‘ng ichida g‘amgin allanima o‘rmalay boshladi, bu o‘tmishni sog‘inish, uning bir soniyasida bo‘lsa-da paydo bo‘lib qolish istagi edi. U Rostovsevning peshonasida uzun ichiga botgan chiziqlar pay-do bo‘lganini payqadi.

– Shunaqa qaqqayib turaveramizmi, – Chubarev bir necha katta qadam bilan Rostovsevning oldiga yetib oldi, – nima, turaverasan-mi to‘nkaga o‘xshab, – u Rostovsevning bo‘ynidan mahkam quch-di, Lapinni ham qo‘li bilan imladi. Uch og‘ayni xuddi oldingidek qo‘llarini chambarak qilib, bir-birlarini mahkam quchib ko‘rishishdi, shu daqiqada ularning bo‘g‘ziga nimadir tiqilib qolgandek bo‘ldi, bir necha soniyada bu tiqilgan narsa ko‘zlardan dumalab tushishni boshladi. Chubarev sog‘ingan va qaytib qolishni istagan lahma – ay-nan shu lahma edi, balki.

– Sen unga bo‘sh kelma, – Lapin Rostovsevni gap bilan qitiqlashni boshladi, – bu ishingni butun insoniyat kechirmaydi, axir.

– Buni gapini qaranglar endi, bunisiga nima deymiz, – qari do‘stiga dashnom bergan ko‘yi ming‘illadi Chubarev, lekin hozir

uning bor xayoli o‘zlarini oldinga borishga chorlayotgan Rostovsevda.

Chubarev uyni ko‘zdan kechirar ekan, usta haykaltaroshnikida mehmon bo‘layotganligini tushundi. Bu uy haykaltaroshga yotoq vazifasini bajarishdan tashqari ishxona vazifasini ham o‘tar ekan. Ro‘paradagi devorda Pushkin va Betxovenning yuz niqoblari ilinib turibdi. Katta stol ustida latta-puttalar uyulib ketgan, ular orasida maftunkor Nefertiti va Chubarevga umuman tanish bo‘lmagan bir sohibjamolning bosh haykali ham bor. Yana bu yerda haykaltaroshlikka doir boshqa anjomlar ham borki, Chubarev bir qarashda ular dan nima maqsadda foydalanishini taxmin qila olmadi. Tokchalarga loydan yasalgan o‘yinchoqlardan tortib qo‘lida kumush xoch yaraqlab turgan sipo xonimlargacha terib qo‘yilgan. Chubarev yuzida bolalarcha soddalik bilan ularni diqqat bilan tomosha qilardi. Lapinga ham bu yerga kelish yoqadi, lekin vaziyat taqozosi bilan kamdan kam bu yerga kela oladi. U portfelidan kichkina, rezinadan ishlangan taxlama stolchani olib o‘tirdi, tabiiyki, yarimlagan konyak ham portfeldan bosh ko‘tardi. Rostovsev shu yerning o‘zida spirt lampasida kofe qaynatdi. U xonaning shu burchagini mo‘jazgina oshxona qilib olgan.

— Baribir, ichish yaxshi-da, — Lapinga uy egasi nimadandir bezovta bo‘layotgandek tuyuldi, — aybga buyurmaysan-u, senda ul-bul topiladimi? Axir, gazak ham qilish kerak. Topilmasa, xijolat bo‘lma, mana konfetlar bor, — yaxshisi Dashani gapir...

— Ha ajoyib, bu hafta juda kam uxladi, bugun u ... — Rostovsev tabassum qildi-yu, lekin g‘ashi keldi, savol unga og‘irlilik qilgan edi, chamasi.

— Mana unga Mayya nimalar berib yuboribdi limonlar, shokoladlar esa mendan, — Lapin portfeldan yana bir tugunchani oldi, biroz o‘ylanib turib tugunchani qo‘lyozmalar, turli figuralar, o‘ram qilib qo‘yilgan, poxol uyulib yotgan tokchaga qo‘ydi, — qo‘rqamanki, bir kuni hammani g‘afiatda qoldirib boqiy dunyoga yo‘l olamiz, ana shu pallada bizdan hech bir asar qolmaydi. Unga qari shaydosi bosh egib yolvorayotganini ayt va yana aytginki, hech qanday yomon xayollarga borib yurmasin.

— Yaxshi, hammasini yetkazaman, — Rostovsev bosh chayqab qo‘ydi, — lekin sen ko‘p ham oliftagarchilik qilaverma, ishonasanmi, Sava Morozov topildi. Kecha Sibirdan, Tomskdan, bir tanish geolog qarmoq tashlayapti, o‘ziyam vooo-ooo.

— Ha mayli, bir ishga yarab qoladi, — parvosiga ham keltirmay dedi Lapin. Anchadan beri bir portretni tomosha qilib turgan Chubarevga tikildi. Chubarev hozir bor diqqatini suratlarga qaratgan edi. U portretdan umuman ko‘z uzmadi. Bu surat unga ajabtovur, o‘ziga xos bo‘lib ko‘rindi. Hali juda yosh, o‘n yetti yoshlar chamasi bu yigit suratiga qandaydir yashirin ma’no yuklanganga o‘xshaydi. Lapin uni stolga chaqirdi, lekin Chubarev eshitmadni. U portretni sinchiklab tomosha qilishda davom etdi, u endi yanada sekinlasha boshladi. U hozir o‘zi bilmagan holda g‘aroyib bir olamga tushib qolgan edi. Bu yerda hammasiga o‘zing hukmronlik qilasan, o‘z qonunlaringni ham o‘zing yaratasan, Chubarevning o‘zi shu yerda o‘tgan umri qandaydir qiymatga ega ekanligini his qildi, lekin uni o‘zi ham hali anglab yetmagan.

U stolga kelganda qadahlarga konyak quyib bo‘lingan edi.

— Xo‘s, bularning hammasi senikimi, Seva, — u qadahni ko‘tarar ekan boshi bilan devor tomonga ishora qildi.

— Meniki. Yoqmadimi?

— Nega endi, aksincha, hammasi juda-juda yoqdi, men bilmagandim, bilmagandim.

— Bizning Seva sehrgar. U hayratiga jon bag‘ishlaydi, — Lapin bu gapi bilan do‘sidian g‘ururlandimi yoki uni aybämochi bo‘ldimi, buni tushunish qiyin, — buyurtmaga ishlamaydi, ko‘rgazmalarda qatnashmaydi, tanqidni-ku pisand qilmaydi, menimcha, uning surat chizishini do‘stilidan boshqa hech kim bilmaydi, uning xaridori ham faqat do‘sqli, — Lapin ko‘rsatkich barmog‘ini ko‘kragiga tirab qo‘ydi. — U xotinini o‘ldirdi, hozir kasalxonada yotibdi, bu ablahni jonidan ortiq sevadi, havas qilasan kishi. Lapin gapini hazilomuz ohangda boshlagan edi, lekin uning yakuni mutlaqo jiddiy bo‘ldi. — Kelinglar, sehrgarlar uchun ichamiz, ayollar ularni jonidan ortiq ko‘radi.

— Yo‘q, birodarlar, bugungi uchrashuvimizdagi eng yaxshi narsa nima? — Chubarev biroz avval yakunlangan sayohatidan keyin

anchayin faylasuf bo'lib qoldi, – bu bizning mavjudligimiz, ayt, Seva, to'g'rimi, – u nihoyatda jonli chiqqan yoshlik portretiga boshi bilan ishora qildi, – sen unda o'zingni tasvirlagansan, shunaqami?

– Bu uning o'g'li, Oleg, u qirq to'rtinchchi yilning oxirida, deyarli urush yakunlanay deb qolganda halok bo'lgan, – Rostovsevning o'rniga Lapin javob berdi.

– Buni qara-ya, meni ma'zur tut, bexabar edim, – Chubarev Rostovsev tomonga o'girildi, – ketganlar, qaytish nasib qilmaganlar uchun... ularning porloq xotirasi uchun... ular biz uchun hech qachon o'lishmaydi.

Hamma o'z qadahini ko'tardi, o'rtaga jimplik cho'kdi, shu daqiqada hamma o'zi haqida, urush ulardan tortib olgan narsalar haqida o'yldi. O'rtaga cho'kkani sukunatni Chubarev buzdi, gimnaziyadagi balda Lapin tushib qolgan noqlay vaziyatni esladi. O'sha vaqt dagi Lapaga achingan bo'ldi, lekin portretning tarixini eshitganidan so'ng uni yana ko'rgisi keldi, shuning uchun yana suhbatdoshlarini qoldirib portret yoniga ketdi.

– Ayt, Seva, – Lapin sening qiynalayotganining aytdi, muammo nimada? Senga qanday yordamim tegishi mumkin? – Chubarevning gaplaridan Lapinning qoshlari tepaga ko'tarildi.

– Hammasi quyidagicha Oleg, – Rostovsev jilmaydi, – hozir Lapin meni akademiklarga xos usulda bo'rttirib, balandparvoz gaplar bilan ta'rifladi, ... menga hech kimdan hech narsa kerak emas. Bilasizmi, yigitlar, hayot juda ham qisqa, shuning uchun iloji boricha keraksiz narsalardan voz kechish kerak. Yo'lda asqatmaydigan har bir narsadan. ... Menda zarur hamma narsalar bor, keraksizidan voz kechayapman, masalan, kitoblardagi baxtli yakunlardan va xira akademiklardan, – u Lapin tomonga o'girilib kului.

– Demak, har qanday zaruriyatga hojat yo'q, shunaqa xulosa qilsa bo'ladimi, demak, sening haqiqating shunday, unda sen uchun muhim narsa nima, Seva, shunday narsa bormi? – so'radi Chubarev.

– Albatta, bor, – shu ondayoq tasdiqladi Rostovsev, do'stlari u uchun muhim bo'lgan narsani bilish ishtiyoqida og'zidan chiqayotgan har bir so'zni favqulodda muhim bir hodisadek kutib turishardi. – Eskirmaydigan har bir narsa... bolalar, gullar, onalik, uyg'unlik, tabiatni harakatlantirayotgan zanjir, bilasanmi, menga dunyoning be-

maza shiorlaridan yangi bo'y cho'zgan navdaning taqdiri muhimroq. Har yili daraxt novdalari o'sadi, shoxga aylanadi, o'zidan yana kichkina novdalarni chiqaradi, shiorlar-chi, ular eskiradi, siyqasi chiqadi, bir zumda o'rniga yangisini to'qib chiqarishadi.

– Sen qachondan beri bunaqa bo'lib qolding? – Chubarev savoni Rostovsevga bergen bo'lsa-da, hayratlanib Lapaga qaradi.

– Nega endi «bunaqa»? – Rostovsev e'tiroz bildirdi, kasbiy ko'nikmasi sababmi Chubarevda bir necha soniya ichida yuz bergen o'zgarishlar diqqatini tortdi. Uning qoshlari tepaga ko'tarilib, biroz oldin do'ngidek bo'lib turgan peshonasini o'nqir-cho'nqir adirlikka o'xshatib qo'ygan edi. Tabiiyki, ko'tarilgan qoshlar o'rnini dumaloq ko'zlar egallagan. Uning qo'llari asabiy qaltirardi.

– Nima uchun darhol tashqi sabablarni qidirish kerak? Agar har birimiz tug'ilgunimizga qadar ma'lum bir dasturga bo'ysundirib qo'yilgan bo'lsak-chi, kimdir tug'ilgach o'z dasturidan oqilona foydalanadi, kimdir esa yo'q.

– Sen iste'dod va borliq o'rta sidagi aloqadorlikni nazarda tutayapsan, chog'i.

– Bilasanmi, agar men o'shanda Rerix degan yigitchani uchratmaganimda butun umrim davomida o'lik ruhni ko'tarib yurgan bo'lar edim, ayni u bilan bo'lgan uchrashuv menga maqsad berdi... bir umrga yetgulik maqsad. Men bir umr u tomonga yurdim.

– Sen yolg'on gapi ryapsan, Seva, aldayapsan! Sen maqsadingni amalga oshirishing uchun, bilasanmi, kim qancha ter to'kishi kerak? Mana bu odam (U Lapin tomonga ishora qildi) hayot bir maromda o'tishi uchun ertalabdan kechgacha kerosin bilan o'tin yoqadi, mening zavodim ishlashi uchun, va yana kimlardir non yeishi uchun, va yana kimnidir yanchishi uchun, yana u kerak joylar kam deysanmi, – Chubarev devordagi portretga ishora qildi, – xuddi sening o'g'ling kabi begona dalalarda qolib ketmasliklari uchun kerak.

– Sen haqsan, Oleg, – Rostovsev uning gaplarini ma'qulladi, – hammasi kerak, sen sanaganlardan boshqalari ham zarur. Lekin, meni tushun, rassomchilikning o'z qonuniyatları bo'ladi, u temirchi yoki qo'shchinikiga umuman o'xshamaydi. Meni kechir, texnokrat, ... mening qo'limdan nimadir kelsa, u devorda osilib turadi, xolos, agar uni qo'limdan keladigan nimadir deb bo'lsa, mening qo'limdan

chiqqan asar, boshqa bir rassomning qo‘lidan chiqishi dargumon. Masalan, Laktionov, Plastov, yoki Konenkodan ... Busiz ham ularda ..., aksariyati havaskorlar, ayimlari bundan mustasno, bu shunday ham hammaga ma‘lum gaplar*, – joyiga qo‘yib iljaydi Rostovsev, Chubarev bu gal munozaraga borib o‘tirmadi.

– Tabiiyki, sen ham o‘z ko‘yingda ana shu «mustasnolar» dan birisan, to‘g‘rimi?

– Nega endi o‘z ko‘yimda, – mutlaqo sokin ovozda e’tirozga nomunosib ohangda javob berdi Rostovsev, – mana, masalan, siz endi yer sharining xaritasini yangidan chizayapsiz, uncha-muncha emas, sayyoralar bilan o‘yin qilasiz, mana zamonamizning oldi go‘laxlaridan biri, – u Lapin tomonga boshi bilan ishora qildi. – Kerosini bilan boshimizga bir tushirsa, Dantenikida ko‘ramiz o‘zimizni. Men hozir bu haqida gapirmoqchi emasman. Tabiat yaratadi, xalq yaratadi, go‘dak yaratadi. Inson fitratidan qancha olislasa, uni shuncha qo‘msaydi, bu hayot qonuni. Bu ong ostida, odam o‘zi tushunmagan holda kechadi. Sen hech bo‘lmasa bir marotaba bo‘ron naqadar musiqiy, uyg‘un holda kechishini kuzatganmisan?

– Seva, menga biron narsa sovg‘a qilsang-chi, nima deding?

– Qaysi birini xohlasang olishing mumkin, o‘g‘limdan tashqari..., ana yonboshdagи stellajda bir g‘arami turibdi, osishga devor yo‘q.

– Endi meni eshit, kel, senga Xolmskda ko‘rgazma tashkil qilamiz, juda ajoyib o‘tadi, men kafilman.

– Boshliqlarga ham ko‘rinib qolar edi, bir ko‘rgazma bilan ancha-muncha shuhrat yig‘ib oladi, – xayrixohlik bildirdi Lapin.

– Sen jim o‘tir, go‘lax, sening joyingni bilib oldik, – Chubarev Lapinni jerkib berdi, – bilasanmi, sizlar fil bilan burgani tenglashtirmoqchi bo‘lasizlar, har holda bu shunday taassurot qoldiradi, ... gapim og‘ir botgan bo‘lsa, meni kechir, Seva, balki, shunchaki o‘zing uchun bir marta tekshiruvdan o‘tishing, rentgenga tushishing kerakdir, nima deysan?

– Buni menga nima keragi bor? Men o‘zimni hammadan ko‘ra yaxshiroq bilaman, o‘zim haqimda yangi nimadir eshitishni xohlamayman, – Rostovsev gapni hazilga burib, xoxoladi.

– Unda sening mavjudliging haqidagi fikrlaring mutlaqo asossiz! Avstraliyadagi yalqov degan hayvon butun umri davomida daraxtda boshini yerga osiltirib yashaydi, hatto uning hayoti ham senikidan mazmunliroq, – Chubarev rosmanasiga qizisha boshlagan edi, – to'xta, to'xta, sen hali xudoga ham ishonarsan?

– Ishonaman, – Rostovsev bukchaygan yelkalarini qisdi, u hozir Lapinning oyoqlariga yengil tepganini ham payqamadi, – ishonaman, buyuk sabab va insonning mavjudligi, har qadamimda uni isbotlashga harakat qilaman, – nima uchundir endi uning ovoziga aybdorlik hissi qo'shilgan edi, – aks holda, hammasi o'z mazmunini yo'qotadi.

– Demak, butun hayotingda, shundaymi? O'zlikni topish yo'lidagi mubtaloliklar, o'sha o'zlik topiladi yoki yo'q, lekin bu yo'lida hech kim va hech narsa kerak emas, to'g'rimi? Xudo ko'rsatmasin-u, sen adashayotgan bo'lsang-chi?

– Men nimani izlayotganimni, menga nima kerakligini mendan ortiq kim bilishi mumkin? – javob savol tugagani hamonoq yangradi, – sen xuddi lotsman-san'atkorlarga o'xshab fikrlayapsan, ular uchun san'at yoki iste'dod emas, inson omili muhim.

– Ishonmayman, bunaqasi ketmaydi, insonga jilla qursa bitta hamxona kerak, afsus, Seva, sen kasaba uyushmasida emassan-da, – qo'llarini orqasiga qilib yana rasmlar bilan to'lgan devor tomon yura boshladi. Bu yerda bolalarning suratlari ko'p. Bu suratlarda o'lim va hayot o'rtaida uyg'unlik bor. Bolalar surati o'damga xotirjamlik bag'ishlaydi, hozir Chubarevning qalbida ham sokinlik, manbasi noma'lum taskin bor.

U bir surat qarshisidan ikkinchisiga boradi, keyin yana birinchi surat oldiga qaytib keladi, lekin hammasi boyagidek. U ich-ichidan xotirjam.

– Bilasanmi, Seva, yaqinda men ish yuzasidan Nyu-Yorkda bo'ldim, – u yana rassomning o'g'li tasvirlangan portret oldidan joy oldi, – nima uchundir sening bolaliging yodimga tushdi, shuning uchun Rerixning uy-muzeyiga kirdim.

– Hayotning achchiq haqiqatlaridan biri ham shunda, ne'mat doim muhtojlarga berilmaydi, – Rostovsev o'z xayolot dunyosidan

biroz bo'lsa-da chekinganday bo'ldi, – u yerda bo'lib qolish uchun butun umrimni bergan bo'lar edim.

– Bu taqdiringdagи nimanidir o'zgartirgan bo'larmidi? – Chubarev ovoz kelgan tomonga o'giriłdi.

– Balki, – Rostovsev yana bolalarga xos iljayish qildi, – qayerda go'zallik bo'lsa, u yerda ko'ngilni tozalash mumkin, har holda men shunday deb hisoblayman. Masalan, qurbaqani olib ko'raylik, u cho'kib ketmaslik uchun ichini havoga to'ldiradi, keyin yana suvg'a sakraydi. Rassom ham shunday gap... Rerixning inson imkoniyatlari haqidagi qarashlari meni jumbishga soladi har doim, – Rostovsevning tabiatan qisiq ko'zları yanada qisilib ketdi, – kimdir zo'rg'a hayotini izga solganda umri poyoniga yetadi, yana kimdir Pyotr Birinchi yoki Leonardo da Vinchi singari o'z davriga muhrlanib qoladi. Ularga bir xil umr, bir xil tana berilgan bo'lishiga qaramay... Tinchlik pakti, insoniyat ruhiy olamini asrash xalqaro tashkiloti... bu haqida faqat orzu qilish mumkin. Bu g'oyalalar uning miyasiga birinchi jahon urushi davrida kelgan. Urush kechayotgan og'ir bir pallada bir-birini g'ajib tashlashga tayyor insonlarni birlashtirish, bu orqa-li millionlab hayotlarni o'z egasiga qaytarib berish. Quyib qo'ygan utopist, lekin u bir qisqa umr ichida mana shunday g'oyalarni yet-kazishga ulgurgan. Gimalayev o'zining o'n ikki yillik ijodida ikki mingdan ortiqroq surat, katta adabiy-ijodiy manba qoldirgan. Ular-ning har birida bir umr bor, do'stlar, butun bir umr. Biz uning hali juda ko'p qirralarini bilmaymiz.

– Xo'sh, Seva, sen ham nimadir qilib ulgurgandirsan shu kungacha o'tgan umringda?

– Nima desam ekan? Agar u bilan taqqoslaydigan bo'lsak, men oddiy bir mehnatkash chumoliman, ishchi hisob. Inson umri mobaynida nima qilishi mumkin bo'lsa, shoshilmay, anglab, ba'zan anglamay nimalarnidir qilib yuradi. Bu ham tabiatning bir qonuniya-ti. Demak, yo'l bor, maqsad bor. Rerixning bosh konsepsiysi ham shundan iborat edi.

– Taassufki, sen okean ortidagi muzeyda bo'lmading, Seva, nima bo'lgan taqdirda ham sen bilan yana diyordorlashganidan mammun-man, – dedi Chubarev.

Oradan bir necha kun o'tib, Moskva safarini yukunlagan, MQ bilan bog'liq barcha ishlarini yakunlab, vedomostlarni o'rniga qo'ygan Chubarev Xolmskda hozir bo'ldi. U endi tezroq Zejsk zavodini borib ko'rishi kerak, lekin yo'l-yo'lakay hal qilishi kerak bo'lган muammolar borki, keyinchalik oyoq ostidan chiqmasligi uchun hozir hal qilish zarur. Kutilganidek, barcha muammolarning yechimi undan kutilayotgan ekan. Hammasi tushunarli, biroz oldin obkomda uni bu haqida ogohlantirishgan, bu yerdagilar uning Stalin bilan yaxshi munosabatda ekanligidan xabar topgan. Atrofga bir ko'z yogurtirishda uning miyasiga bir fikr kelib urildi, bu yerda uning motor sohasida qilgan ishlarini yaxshi bilishadi va uni, shaxsan o'zini ko'rib turganlaridan bag'oyat xursand. U bu yerdagi odamlarda yaxshi taassurot qoldirgan, o'zi ham zavodni yaxshi eslaydi. Chubarevning bir odati bor, u qayerda bo'lmasin, o'sha yerning odamlari bilan tez til topishib ketadi, eng qizig'i, u buni ich-ichidan his qiladi, hamma ham bunday xislat bilan taqdirlanavermaydi. Hozir ham u o'zini bu yerdarda necha yillardan beri yashab kelayotgan odamday his qilayapti. Tashrifning birinchi kunidayoq Bryuxanov uni o'z uyiga tushlikka taklif qildi. Chubarevga ham taklif juda yoqib tushdi, bir tomonidan u yana Bryuxanovni ko'rishidan mammun bo'lsa, ikkinchi tomonidan, u bilan uyda, dilkash suhbat o'tkazish mumkin bo'lган joyda birga bo'lishidan xursand edi. Bunday uchrashuvlarning uyda o'tishi muhim, odam o'zini bexavotir, erkin his qiladi. Bryuxanov nari-beridan ko'rishgan bo'ldi, Chubarev bu vaqtga qadar u bilan aytarli gaplashmagan, lekin bugun uning kaftlariga tikilib, xuddi shu qo'llari bilan zavodni portlatishiga to'g'ri kelganini esladi, Chubarevning yuragi siqilib ketdi.

— Obbo, qaroqchi-ye! Bu gaplardan keyin bir-birimizning ko'zimizga qanday qaraymiz, siz bilan qanday qilib bir stol atrofida o'tiramiz.

— Nega bunchalar pardasiz ta'rif, Oleg Maksimovich, — Bryuxanov xuddi oldingidek ozg'in, lekin chayir qo'lining kuchli mushaklari kiyimini yengil turtib bilinib turadi. U yoshiga nisbatan anchayin yosh ko'rinadi.

– Biz qachonlardan beri birga ishlaymiz, axir, – Bryuxanovning qalin sochlariga qarar ekan, so‘z qotdi Chubarev.

Bryuxanovnikiga taraddud ko‘rar ekan, bir masalada boshi qotdi, har holda bu uyda o‘tkazilayotgan birinchi mehmondorchilik, unga quruq borish madaniyatdan bo‘lmaydi. Unga nima sovg‘a qilish mumkin. U mehmonxona qarshisidagi do‘konga kirdi, ming afsuski, bu do‘konda qo‘lga ilinarli hech narsa yo‘q, peshtaxtalar bo‘m-bo‘sh. U yerlarda urushdan keyingi og‘ir qashshoqlik hukmron, do‘kon devorlaridagi gulqog‘ozlar ham sarg‘ayib ketgan, umuman, bu do‘kon kirgan odamning hafsalasini pir qiladi. Taassufki, u endi mehmondorchilikka quruq qo‘l bilan borishiga to‘g‘ri keladi.

U Bryuxanovlarnikida o‘zini juda yaxshi his qildi. Uy egalaring do‘stona mehmonnavozligi har qanday mehmonga yoqib tu shishi aniq edi. Bryuxanovning ortidan yoshi elliklarga borib qolgan, to‘ladan kelgan, lekin ko‘zları quvnoq bir ayol chiqdi. Ayol Chubarevga paltosini yechishda yordamlashdi va uni qo‘liga yengil tashlab oldi. Chubarev ayol unga o‘g‘rincha boshdan oyoq qarab olganini sezdi, balki u mehmonni xo‘jayini bilan solishtirib olgandir shu bahona. Timofeyevna (ayolni uyda shunday chaqirishardi) Chubarevni qo‘llarini yuvishga taklif qildi, unga yangi, oppoq sochiq tutar ekan, dasturxon ham tayyor ekanligini aytди.

– Minnatdorman, jonginam, minnatdorman, – Chubarev mam nunligini yashirmasdi, – mana buni bayram desa bo‘ladi, azizam, karam sho‘rva qaynatyapsiz, chamasi, yana somsa ham borga o‘xshaydi, hidini qarang bularni, naqd dimog‘ni yoradi. Men xuddi o‘z uyimda yurganga o‘xshayman, ajoyib.

Timofeyevna stol atrofida yugurib-yelib noz-ne’matlarga to‘ldira boshladи. Bu orada mehmon kitob jovoniga ko‘z yogurtirib oldi, kitoblarning aksariyati qadimgi og‘ir bosmadan chiqqan qalin kitoblar, jovon oldidagi eshik ochilganda esa u rosmanasiga esankirab qoldi. G‘oyatda go‘zal, yosh bir ayol tobora unga yaqinlashib kelmoqda edi, bu go‘zal bir ko‘rishda istalgan erkakning xotirasiga muhrlanib qoladi, ayniqsa, jodu ko‘zları.

– Tanishinglar, Alyonka, mening rafiqam va ayni vaqtida tibbiyot oliyghohining talabasi. Nevropatolog bo‘lishga bel bog‘lagan, – xo-

naga boshqa eshikdan kirib kelgan Bryuxanov ularni tanishtira boshladi.

– Alyonka?! – Chubarev katta boshini biroz egib, ayolning qo‘lidan tutdi, uni lablariga tekkizib, shu zahoti qo‘yib yubordi.

– Yelena Zaxarovna, – ayol qo‘llarini tortib olar ekan, bu mu-lozamatdan o‘ng‘aysizlangandek bo‘ldi, buni mehmon shu onda-yoq payqadi, – stolga marhamat qiling, – u orqasiga o‘girilib ochiq qolgan eshikdan kimnidir chaqira boshladi: – Kolya, bu yoqqa kel, keyinroq tugatib qo‘yarsan, ... u mening ukam, – u yana mehmon-ga o‘girildi. Shu daqiqada mehmonning yonida qarshisidagi ayolga o‘xshab ketadigan o‘n olti-o‘n yetti yoshlardagi yigitcha hozir bo‘ldi. Chubarev navqiron Nikolayning qo‘llaridan mahkam tutib, bir necha marta silkitdi. U umri bino bo‘lib bunaqa chiroyli odamlarni hech qachon, hech qayerda ko‘rmagan.

– Qoyilmaqom, nihoyatda qoyilmaqom, – navqiron insonlar davrasiga tushib qolishini kutmaganligi bois bugungi uchrashuvdan juda xursand bo‘ldi.

Chubarev mehmondorchilikdan bor vujudi bilan zavqlana boshladi, bu yerdagi muhit unga juda yoqib tushdi, lekin vaqtı-vaqtı bilan navqiron Kolyaning o‘ziga qadalgan g‘azabli nigohlariga to‘qnash kelganda halovati buzildi, kecha davomida bu holat bir necha mar-ta takrorlandi. «Mana sizga asabbuzarlik» yosh raqibining likob-chaga qadalgan ko‘zlarini kuzatarkan, xayolidan kechirdi Chubarev. Kolyaning nojo‘ya qilig‘ini Timofeyevna ham payqadi, u vaziyatni yumshatishga harakat qildi.

– Bu nimasi, Kolya, sho‘rvam senga ma’qul bo‘lmadi, chog‘i.

– Yo‘q, nega endi, ma’qul, ma’qul, – buzg‘unchilik xumori tut-gan bola likobchadan boshini ko‘tarmay turib javob berdi, uning xatti-harakatlari Chubarevning asabini qo‘zirdi, nima uchundir u bo-laning qovoq-dimog‘i oldinda uni kutib turgan dilxiraliklarga ishora-dek tuyuldi, lekin shu zahoti aqlini yig‘ib olib, ortiqcha his-tuyg‘uga berilishni istamadi. Yana ko‘ngling nimalarni tusaydi, qari qaroqchi, bugungi kechki ovqatdan maqsad Bryuxanov bilan uchrashishmi, bo‘ldi-da, yoshlар seni boshlariga ko‘tarib, qo‘llaringdan o‘pishini kutayapsanmi yo, Bryuxanov bilan hammasi joyidami... bo‘ldi, shuning o‘zi yetarli. Qo‘lingdan yana nima keladi, planer to‘garagiga

yozilasanmi? Qamishsurnaylar, oldingi vaqlar, qanday sakrasang ham motorlar qayerdadir qolib ketadi, qirg‘oq yaqin, ana u, ko‘rinib ham turibdi.

Timofeyevnaga xushomad, bundan tashqari stol atrofiga cho‘kkan og‘ir vaziyatni yumshatish uchun Chubarev yana sho‘rva quyib kelişlilarini so‘radi.

– Bir cho‘michgina, iltimos, – Timofeyevna iltimosni ortig‘i bilan ado etib, kosaning bo‘g‘zigacha suzilgan bug‘i chiqib turgan sho‘rvani mehmonning oldiga qo‘ydi, u sho‘rva juda ko‘p suzilgani haqidagi e’tirozni eshitib ham o‘tirmadi. Jahl bilan likobchasida ni-manidir qoshiq bilan o‘ynab o‘tirgan Nikolayga qarab qo‘ydi. Uning qarshisidan o‘tib borar ekan:

– Haqiqiy xo‘randani bir qarashda ajratib olish mumkin, shunday ne’matni isrof qilish qanchalar gunoh ish, inson to‘yib ovqatlanmasa, unga kuch qayerdan keladi, axir.

– Timofeyevna, – Alyonka peshonasini tirishtirib turgan ukasiga qaradi.

– Qo‘yaver, Alyonka, Timofeyevna menga shama qilayapti, – bolaning zorlangan ovozi yangradi, «Yo Rabbim, bu bor yo‘g‘i go‘dak-ku» xayolidan kechirdi Chubarev, – u menga kitoblar sabab silga chalinishimni aytyapti.

– Chalinasan, chalinasan ham, – Timofeyevnaning fig‘oni falakka chiqdi, – yeb-ichmaysan, uxmlamaysan, tun-u kun o‘tin yoqasan, yoqasan, yana yoqaverasan. Hammasi mana shu kitoblarni deb! Sen uning oldiga tongda bor, rangi ko‘m-ko‘k, murdaning o‘zginasi deysan. Xudo haqi, shunday ham o‘qish mumkinmi? Buning hayoti shundan iborat bo‘lib qolgan: kechasi bilan o‘qiydi, o‘rnidan turib yana kutubxonaga yuguradi, to‘rtta-beshta o‘ziga o‘xshaganini topib olib yana birga o‘qiydi, topgan-tutganiga kitob sotib oladi, uydagi kitobni qara, joyon o‘lgur sig‘dirolmay sinib ketay deydi. Nega yangisini olaveradi... pul qurg‘ur uvol emasmi, – Alyonka javob berish o‘rniga kulib yubordi, – bir kuni gup etib yiqiladi, shunda hammasi tugaydi, ayol kishi erga bola ko‘ray deb tegadi axir... hali gapiraman desam gap ko‘p... hammasi shu kitoblarni deb.. kitoblarni deb... marhumlar go‘rida tik turgan bo‘lsa kerak... gunohdan qo‘rqishmaydi... men ular uchun cherkovda sham

yoqqanman, har gal Parvardigordan ularni kechirishini so'rayman, ular hali yosh gunoh va savobni bilmaydi, o'zing to'g'ri yo'lga solgin deb o'tinaman.

Chubarev shu vaqtgacha suhbatga qo'shilmadi, shu daqiqada boshini ko'tarib qo'llari qaltirab likobchalarni yig'ayotgan, lablarini qimtib olgan Timofeyevnaga qaradi.

– Senga onalarcha aytayapman buni, – Timofeyevna sira yengilishni istamadi, – buni tushunarmiding, eee.

– Mehribonlik haqida gapirmay qo'ya qol, hatto quymoqlaringni ham kitob yoqib pishirasan.

– Ko'zlar, Tixon Ivanovich, rahbarlarnikiga o'xshaydi, – Timofeyevna xizmatchilarga xos bo'limgan mahmadonalik qila boshladi, – havasing keladi, kelishi ham kerak-da, kuniga bir yarim soat kichkina harfchalar va tamom, qo'lingda aravaning g'ildiragidek teshik kulcha.

Orada yana kulgu ko'tarildi, do'stona muhit uyg'ongandek bo'ldi. Timofeenva ikkinchi taomni suza boshladi. Nikolay qancha qarshilik qilmasin, uning likobchasiga ikki hissa ko'p ovqat suzib berdi.

Bir necha daqiqa oldin ichilgan bir qultum vino Chubarevni qizdira boshladi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, yonoqlarini bo'rttirib qizartirgan ayolning tinimsiz vaysashi miyasini alg'ov-dalg'ov qilib yubordi. Chubarevga uy yoqib tushdi, u xuddi o'z uyida o'tirgandek his qilardi o'zini. Ishqalab artilgan pol ustida u yoqdan bu yoqqa yurdi, devordagi naqshlarni tomosha qildi, kitoblarni yaraqladi, Moskva yangiliklaridan gapirdi, yangi hangomalarни aytib berdi. Shu daqiqalarda o'zining ham ichi yorishdi. Shu payt Alyonka boshini ko'tarib, unga gapira boshladi:

– Siz bizning Timofeyevnamizga bir ko'rishdayoq yoqib qolib-siz... Ajoyib... yaxshisi, u bilan Iloh haqida gaplashmagan ma'qul, Oleg Maksimovich.

– Xursandman, xursandman – Nikolayni zimdan kuzatar ekan, bosh irg'ab qo'ydi Chubarev. Bu yigit suhbat boshidan beri stolga qovusha olmay o'tirgandi, uni bu yerda ushlab turgan yagona sabab, mehmonga hurmatsizlik qilmaslik. U barcha stol atrofida bo'lган bir paytda turib ketishni o'ziga ep ko'rmadi.

– Boraqol, Kolya, – devor tomonga qarab boshi bilan ishora qildi Alyonka, – seni boshqa mahtal qilgimiz yo‘q.

– Rahmat, – Nikolayning uzun gavdasi stoldan ko‘tarildi, eshikdan chiqar ekan, orqasiga qarab iljaydi.

– Katta bo‘lganiningda tushunasan, – qo‘lini o‘ychan iyagiga tira-di Bryuxanov, – men hozir hech qachon o‘zimni yosh bo‘lma-gandek his qilaman.

Chubarev unga javoban hech narsa demadi. Keyin tamaki tutatishdi, oraga yana jimlik cho‘kdi. Bu orada yana telefon jiringladi. Bir gal unga Timofeyevna javob qildi, bir gal Nikolayni va yana bir gal Alyonkani chaqirib berishlarini so‘rashdi. Bu galgi qo‘ng‘iroq esa shaxsan Bryuxanovning o‘ziga qilingan edi.

– Mana sizga la’natlangan qavm – ertalabdan kechgacha bezova-ta qilishgani-qilishgan, marhamat qilib mana bu xonaga kirsangiz, u yerda bemalol chekishingiz mumkin, – Timofeyevna Chubarevga qo‘shti xonani ko‘rsatdi. Chubarev og‘ir qadamlar bilan xonaga kirdi, kitob javonlarini tomosha qilgancha katta jigarrang kresloga o‘rnashib oldi. U hozir Bryuxanovning xotini haqida o‘ylayotgan edi, bu ayolning mislsiz go‘zalligi Chubarevning ko‘ngliga o‘rnashib qoldi.

Bu orada Bryuxanov qaytib keldi, ko‘rsatgan betakallufligi uchun mehmondan uzr so‘radi, lekin bu ishlar zavodni ta’mirlashga oid bo‘lganligi uchun paysalga solib bo‘lmasligini aytdi. Bryuxanov Chubarevda suhabbatdoshlarining gapini oxirigacha tinglamaydigan shoshqaloq inson sifatida taassurot qoldirdi. U Bryuxanovdan Muravyev haqida so‘radi. Nima uchundir Bryuxanovning ko‘zida uch-qunlar paydo bo‘ldi.

– Men u bilan uch yildan beri tanishman, zavodni tiklash ishlari boshlangan davrlardan beri. U paytda qurilishda nemis asirlari ishlardi. Bilasizmi u, xuddi kar-soqov... devorga o‘xshaydi, qora quti deysiz, ichida nima borligini bila olmaysiz. O‘ylashimcha, bu odam ich-ichidan pishib yetilgan yirtqich, lekin uni hech bir vaziyatda ko‘rsatmaydi, u odamlar orasida vegetarian ko‘rinishida bo‘lishni ma‘qul ko‘radi.

– Hm, – Chubarevning qoshlari chimirildi, shu vaqt stol ustidagi telefon jiringlay boshladi. O‘sha zahoti Bryuxanov go‘shakka yo-

pishdi. U go'shakdan kelgan ovozga qulog tutar ekan, unga bazo'r toqat qilayotgan edi. Buni burishgancha qotib qolgan yuz ifodasidan ham ko'rish mumkin. Suhbat bir necha daqiqaga cho'zildi, bu orada Chubarev uning yuz ifodasini kuzatib o'tirdi. Suhbat unga Bryuxanovni yaqindan o'rganish imkoniyatini berardi shu pallada, lekin sira uning o'rnida bo'lib qolishni xohlamasdi.

— Qo'limizdan nimaiki kelsa, barchasini qilamiz, — u shu tariqa go'shakni qo'ydi. U Chubarevga bosh egib «ma'zur tutasiz» degandek bo'ldi, yana go'shakni olib kimgadir telefon qila boshladi. Bryuxanovning bu galgi suhbatni tinglab o'tirar ekan, voqealar oqimini tushunib oldi. Zudlik bilan Porkov tumaniga shifokorlarni jo'natish kerak, u yerda minalashtirilgan maydonda bir vaqtning o'zida bir necha portlash bo'lган va yigirmadan ortiq o'spirin yaralangan. Bryuxanov barchaga qo'lidan kelgan choralarmi ko'rishini aytishdan bezor bo'ldi.

— Ertalabdan kechgacha shu ahvol, hatto kechasi ham tinchlik yo'q, biz nima haqida gaplashayotgan edik, Oleg Maksimovich, Muravyev haqida emasmi?

— Ha, u haqida, mayli Xudo uni yarlaqasin, men hozir boshqa narsa haqida gapirmoqchiman, — Chubarev gapida davom etdi, — menga natija emas, azaldan o'zingiz bilgan insonning yangi qirralarini ochish qiziq, g'oyat qiziq jarayon, — Chubarev jimb qoldi, yaqindagina Rostovsev bilan bo'lган uchrashuvni esladi. Bir vaqtlar sinfdoshi bo'lган insonning bugungi alfozidan hayratda qolganini esladi, — siz uchun xursandman, Tixon Ivanovich, yumshoq ohanga qo'shib qo'ydi u, — men sizni bugungidek alfozda ko'rganimdan xursandman, siz bu vaqt orasida hech narsa yo'qotmabsiz hisob, lekin asosiysi bu emas, shu yillar orasida ko'p yutuqlarga erishgansiz, ammo buni qanday uddaladingiz, sira aqlimga sig'dira olmayapman, o'lay agar, ishongim kelmayapti, jim turing, gapimni bo'l mang, men nima deyotganimni yaxshi bilaman, uyingiz g'oyat shinam, siz uchun xursandman, sizga havasim kelayapti, qariya, havasim, — Bryuxanovning yuziga qarab hech narsani tushunmaganini bilish qiyin emas edi. Go'zallik — mana sizga adabiy jumboq, sizning rafiqangiz shunchaki go'zal ayol emas, u odamni sehrlab qo'yadigan

darajadagi go‘zal ayol ... unda qandaydir sir bor. Yoshlar juda qizi-quvchan... jin ursin, ularning nasl-nasabi qanaqa edi, ha, Deryuginlar..., g‘oyat go‘zal sulola.

– Kolya biz bilan anchadan beri yashaydi, men unga bog‘lanib qolganman, – Bryuxanov xushmuomalalik bilan javob qildi, – uning xarakteriga to‘xtaladigan bo‘lsam, imkoniyatlari odamni lol qoldiradi, o‘ninchisinfda fizikadan institut dasturini tamomlayapti, matematika dasturini tamomlaganiga ikki yilcha bo‘lib qoldi, keyinchalik uni nima qilamiz, boshimiz qotgan. Yaqinda Moskvada butun itti-foq matematika olimpiadasida qatnashdi, unga maxsus taklifnoma jo‘natishdi. Menimcha, u bir marta ko‘z yogurtirgan kitobini umrbod eslab qoladi.

Bryuxanov telefonga qaragancha nimalarnidir ovoz chiqarmasdan pichirladi, Chubarev unga xalaqit bergisi kelmadi. Aynan shunday, inson uyatdan tashqariga chiqadigan daqiqalarda uni bezovta qilmagan ma’qul, chunki bu daqiqada inson kechinmalarini kim bilandir bo‘lishishni istamaydi. Chubarev unga savol bermadi, hammasini o‘z oqimiga tashlab qo‘ydi, Bryuxanovga qoyil qolsa arziydi, shunday og‘ir qo‘ng‘iroqdan keyin ham o‘zini bardam tutayapti, bu xonada ularni ko‘cha shovqinidan bo‘lak hech bir narsa bezovta qilayotgani yo‘q.

– Demak, sizningcha, Oleg Maksimovich, nasl-nasab, – Bryuxanov og‘ir pardalarni ikki tomonga surdi, derazalarni ochdi, xonada yengil shabada yugurdi, harir ichki pardalar ucha boshladni, – men bu masalaga boshqacharoq qarayman, nasl-nasabidan qat’iy nazar, Nikolayga berilgan aql bir umr uchun juda og‘irlik qiladi. U hozir gulxonaga kirib qolganga o‘xshaydi, san’atga ixlos qo‘yib yuribdi, Deryugin nasabiga esa jang, shiddat, g‘oliblik yarashadi.

– Bu nima deganingiz, qo‘ysangiz-chi, u hali bola bo‘lsa, bu shunchaki bir havas.

– Aytmang, Oleg Maksimovich, odamni sindiradigan xarakterlar bor, aql, bu shunchaki aql emas, u qimmatbaho hodisa, undan oqilona foydalanish imkoniyati ... Kolya hozir serrayib turibdi, xuddi suv yuzidagi katta ko‘pikka o‘xshaydi, lekin hali o‘zi buni tushunib yetganicha yo‘q...

– Keling, uni Moskvaga yuboramiz, eski tanish-bilishlarni ishga solsak, bir-ikki akademik topiladi-qoladi, yigitchani ularga topshiramiz, – bu vaqtda xonaga qahva ko'targancha Alyonka kirib keldi, Chubarev uning qo'lidan finjonni oldi, uni stol ustiga qo'ydi, – Bay, bay, bu qahvaning hidini qarang, hidini ... qahvani qarang, birodar, bilasizmi, Yelena Zaxarovna, boshimdan o'tgan kunlar, la'natni o'tmishimda ...

– Yo'q, bexabarman, – Alyonka ehtiyotkorlik bilan yana bir finjonni oldi, uni Bryuxanovning oldiga qo'ydi.

– Buni qarang-a, buni hamma eslab qolgan bo'lsa kerak deb o'ylagandim. – Chubarev astoydil hayratlandi, Bryuxanovga hayotdagi hamma narsadan zavq olishni biladigan insonlar yoqardi, Chubarev haqida ham shunday ta'rifni berish mumkin, – bilasizmi, Yelena Zaxarovna, men o'z Veram bilan cherkovda nikoh o'qitganman. Albatta, bundan ancha yillar oldin. O'sha daqiqada hech narsaga qarab o'tirmaysan, ko'zlarining mahkam yumib olib, qo'llaringni qovushtirasan, va amin bo'lasanki, u hozir sening yonginangda turibdi, mana u, yoshlik, ostona yonginangda turibdi.

Alyonka unga diqqat bilan qaradi.

– Inson tabiatida bir tushuncha bor, Oleg Maksimovich, u o'lim mavjud emas deb o'laydi, lekin inson buni o'zini yupatish uchun o'ylab topgan.

– To'xtang, to'xtang, – Chubarev bug'lanib turgan qahvani stolga qo'ydi. – Men inson tabiatning bir bo'lagi degan qarashni sira hazm qila olmayman, men infuzoriya va yoki yomg'ir tomchisi bo'lishni istamagan bo'lar edim, bu men uchun uyat, or qilaman. Men yaqinda Moskvada ikki sinfdoshim bilan uchrashdim, ular dan biri olim, akademik, yana biri rassom ... Rostovse... qarang, naqadar porloq hayot yo'li, lekin ularning qarashlari haqida gapi rib beradigan bo'lsam, yoqangizni ushlab qolasiz. Buni o'sha kuni uchrashuvda his qildim. U yerda aytilgan gaplarni, g'oyalarni hazm qilish qiyin, ishonish amrimahol... biz bolalikda ajrashib, keksalikda topishdik, g'oyalarmizning bir-biriga o'xshamasligi ham har birimiz turli hayot yo'lini bosib o'tganimizda ... yer yuzida bir-biriga quyib qo'ygandek o'xshaydigan ikki nusxa uchramaydi, Yelena Zaxarovna.

– Hammasi juda oddiy, sen o‘zingga nasib qilganinigina qo‘lga kiritishing mumkin, – muloyimlik bilan javob berdi Alyonka, u biroz sukul saqlab turdi, – biron hojatingiz bo‘lsa meni chaqirishingiz mumkin, Tixon, sizga nimadir kerak bo‘lib qolgudek bo‘lsa, men shu yerdaman.

Chubarev o‘midan turdi, xonimning qo‘lidan tutib o‘pdi, ba’zan shunday lahzalar bo‘ladiki, sen o‘zingning yoshing haqida umuman unutib qo‘ysan, ayniqsa, xonim singari nozik xilqat oldida, Bryuxanov bekorga bunaqalar dadil va navqiron emas. Chubarev xayolidan kechirganlari ko‘zida zuhur qilishidan qo‘rqib, suhbatdoshiga qaramaslikka tirishdi. Sukunatni bu gal Bryuxanov buzdi.

– Rostovsev, Rostovsev, ma’zur tuting, Oleg Maksimovich, bu kimsa rassom emasmi?

– Ha, uni taniysizmi? – umumiy tanishlar topilganidan Chubarev xursand bo‘lib ketdi.

– Yo‘q, u haqida eshitganman, – Chubarev tezroq tafsilotlarni eshitgisi kelayotganligini fahmladi, – Xolmskda bir g‘alatiroq odam bo‘lar edi, suratlar gallereyasining direktori ... o‘tgan yili olamdan o‘tdi. Ko‘p marotaba o‘sha rassomning bir asarini sotib olishga harakat qilgan ... lekin har gal rad javobini olavergan. Balki ular pul masalasida kelisha olishmagandir, balki rassom bu asarni sotishni xohlamagandir ...

– Xuddi shunday, – Chubarev tasdiq ma’nosida bosh chayqadi, – bilasizmi, Tixon Ivanovich, hamma narsa bo‘lishi mumkin, meni ancha-muncha narsa hayratlantirmay qo‘ygan. Fahmimcha, san’at masalasida havaskorchalik ham ilmim yo‘q, aslida san’atga ixlosim ham yo‘q, lekin uning suratlari menga ta’sir qildi, ichimni yoqdi. Qani endi bu aynigan miyani yangilashning iloji bo‘lsa ... nima bo‘lgan taqdirda ham hayotda insonni o‘ziga tortib turadigan nimadir bor, yaxshiyamki men pragmatikman, aks holda bilmadim, nimalarni boshdan kechirgan bo‘lardim.

5

Bu kecha Nikolay uzoq vaqtgacha uxlay olmadni, bir-biriga aloqasi yo‘q, uzuq-yuluq xayollar miyasida aylanaverdi, aylanaverdi. Bir necha oydan beri yaqin o‘rtada hayotida yuz beradigan o‘zgarishlarni

ko'nglidan o'tkazib yurgan edi, mana hozir shu daqiqada, shu lahzada ko'nglidan kechirgan o'sha vaqt yetib kelganini his qildi. Hayot o'zgaryapti, uning o'zi ham o'zgaryapti. Bu o'zgarish uni baxtli qiladimi va yoki aksincha, buni oldindan aytib bo'lmaydi, lekin Nikolay bu kunni kutgan, kutgan va yana kutavergan. Kutish iztirobli holat, unda tunning har bir sharpasini eshitasan, yosh to'lgan ko'zlarining yumib olib o'zingni o'zing allalaysan. Tun kunning sokin, o'z qoidadariga ega qismi. Sarg'imtir oy shu'lalari xonani xira yoritadi. Nikolay yotoqdan turar ekan, tanasi o'ta bemajol bo'lib qolganini payqadi, pardalarni ko'tarib, derazani ochdi. Deraza ortida har kuni o'z fantaziysi bilan olamni lol qoldiradigan shahar turibdi. Ulkan qora sharpaga aylangan uy, qari daraxtlarni xira ko'cha chiroqlari yoritadi. Ba'zi uylarda hali chiroq o'chmagan, uy ichidan chiqayotgan nur ko'chaga, daraxtlarga tushadi. Nikolayning xayolidan juda g'alati fikr o'tdi, bularning barchasi usiz ham o'z holicha mavjud bo'ladi. Bu qanaqasi, nima uchun aynan usiz? Ich-ichidan bu fikrni yomon ko'rib ketdi, nimaga endi usiz mavjud bo'lishi kerak. Jahl bilan qo'llarini deraza tokchasiga mushtladi. Nega endi usiz? Safsata! Bunga toqat qilib bo'lmaydi.

Nikolay oradan qancha vaqt o'tganini bilmay qoldi, bu orada oyoqlari sovuqdan uvishganini payqadi, unda qandaydir ichki xavotir bor. Uydagilarni uyg'otib yuborishdan cho'chimay, yana derazalarni ochdi. Xonaga salqin kuz shabadasi kira boshladи, miyasida minglab jumboqlar g'ujg'on o'ynaydi. Xuddi atrofida tillarang kuz yaproqlari raqs tushayotganga o'xshaydi, baxt va dahshatdan bor ovozing bilan baqirging keladi. Jarohat, g'alaba, shavqatsiz jang, ojizlik – bu tanani xuddi shunday atash mumkin, hammasi shu tanadan boshlanadi. Oyning oxirgi shu'lesi barbod bo'lganda, bu tana ham yo'qlikka mahkum bo'ladi. Bir vaqtlar Avdotya buvi olamdan o'tgan o'sha qorong'i kunda Nikolay birinchi marta yo'q bo'lish nima ekanligini tushunib yetgan (ayni shu kuni iztirob nima ekanligini tushungan, undan totib ham ko'rjan). Nikolay bu kunni barcha tafsilotlari bilan eslab qolgan. U hozir yo'qlik tushunchasiga boshqacha qaraydi, o'sha bolaligidagi kabi emas, mazmunan har ikkisida yo'qlik bo'lsada, hozir bu ikki lahzaning farqi bor. Endi unda bolalikdagi kabi yo'qlikdan iztirob chekish emas, unda hozir butun vujudini titroqqa

soladigan, har bir hujayrasi bilan yo‘qlikka qarshi bosh ko‘tarish hissi. «Yo‘q, yo‘q, aslo yo‘q, – u o‘ziga o‘zi gapira boshladi, – bo‘lishi mumkin emas, hammaga o‘xshab shunchaki yo‘q bo‘lib ketishni istamayman, men hozir mavjudman va mavjudligimdan xursandman, men mavjud bo‘lishni istayman, oy barhayot, quyosh ham, hatto sen yashaydigan uy ham o‘limingdan keyin o‘z o‘rnida turadi, to‘g‘ri, u eskiradi, lekin u uyligicha qoladi, bunday bo‘lishi kerak emas, odamzod shunchaki yo‘q bo‘lib ketishi kerak emas».

Nikolay tashqa’rida shamol qo‘pganini payqamadi. Hozir u oy atrofida betoqat uchayotgan yaproqlar, tabiatda qo‘pgan tartibsizlik haqida o‘ylardi, olamning moddiy asoslarini qidiradi, bu anchayin zalvorli mulohaza. Tasavvur qilib ko‘ring, undan hech narsa qolmaydi, muzlagan cho‘lning o‘rtasida yo‘q bo‘lib ketadi, faqat bir vaqtlar g‘ussalarga to‘lgan yuragi osmonda uchib yuradi. Qalbing bu balandlikda na og‘riqni, na g‘ussani va quvonchni his qiladi, shunchaki hammasidan ozod bo‘lib parvoz qilasan. U endi yulduzlar olamiga tushib qolganini biladi. Barcha qaramlik, moddiyatdan uzilib kelgan bu olamda abadiy qolishning iloji bo‘lsa edi ...

Nikolay ko‘zlarini ochdi, bir qarashda qayerda ekanligini va u bilan nima sodir bo‘lganini eslay olmadi, lekin tanasi guvoh bo‘lgan parvoz zavqini elas-elas xotirlaydi. Balandlikdan boshi aylanib qoldi, chog‘i. Sekin aqli-hushi joyiga kela boshladi, ko‘zi eshik tutqichini ehtiyyotkorlik bilan ochayotgan Timofeyevnaga tushdi.

– Nima, sizga nima kerak? – Nikolay tishlarini g‘ijirlatib, Timofeyevnaga g‘azab bilan qaradi. Timofeyevna ustiga qalin tungi xalat, boshiga yengil ro‘mol o‘rab olgan edi. U Nikolayning savoliga javob berib o‘tirmadi, voyvoylagancha derazalarga yopishdi, pardalarni tushirib, Nikolayni yelkalaridan quchoqladi. Uning ko‘zlaridan oqqan issiq tomchilar Nikolayning ko‘kragiga to‘kila boshladi.

– Xudoyim, boshimizda shu kunlar ham bormidi, – u Nikolayni qattiqroq quchdi, yelkalaridan avaylab suyab o‘rniga yotqizdi. – Qudrat sohibi, bizni avf et, sen yot, qo‘zichog‘im, bezovta bo‘lma, men o‘zim, o‘zim, – yoping‘ichni bolaning bo‘ynigacha tortib, oyoqlarini o‘rab qo‘ydi, – hozir, sut qaynatib kelaman, yo Rabbiy, bizni nimalar bilan sinayapsan.

Nikolay harchand urinmasin lablaridagi titroqni to'xtata olmadi, ko'rpa bir zumda bolani dimiqtirib yubordi, lekin asosiysi bu emas, u hozir oy va inson o'rtasidagi qandaydir sirli joduni ko'rdi. Hozir shu vaqtدا o'z holidan shikoyat qilib dod-voy solgisi keladi, lekin bu titroq lablar bunga ham izn bermadi.

Timofeyevna qaynatilgan sut bilan qaytib keldi, yuzidagi uy-quchanlik butkul yo'qolib, isitmadan keyin qoladigan yuz ifodasiga o'xshash bir narsa qolgan edi.

– Bilasizmi, Timofeyevna, men o'z hayotim masalasida qo'rqayapman, – dedi Nikolay, Timofeyevna shu ondayoq cho'qinib oldi.

– Yo'q, kerakmas ...

– Ich, issiq-issiq ich, ich-ichingni ilitadi, – Timofeyevna Nikolay sut idishni qo'liga olmaguncha qo'yamadi, Nikolay sutdan bir necha marta ho'pladi. Bu orada xonaga uzun tungi ko'yak kiygan Alyonka kirib keldi.

– Timofeyevna, bu nimasi, yana nima bo'ldi? – so'radi Alyonka atrofga olazarak qarab.

– Yo Rabbim, hech narsa, hech narsa bo'lgani yo'q, – Timofeyevna uni tinchlanirishga harakat qildi, – borib dampingni ol, jilla qursa, odam kechqurun dam olishi kerak.

Alyonka Kolyaning tepasiga keldi, sovuq va quruqshab ketgan lablaridan paypasladı, tartibsiz sochlarini qo'li bilan bir tomonga yotqizgan bo'ldi.

– Xayrli tun, Alyonka.

– Uxla, Kolya, xayrli tun, holdan toygansan, ertangi mashg'ulotlarga borma, hammasi o'tib ketadi.

– Hammasi kitoblarni deb, – Nikolayning yostiqlarini to'g'rilar ekan, shikoyat qildi Timofeyevna, – hammasi shularni deb, la'nat tekkan bu kitoblarga. Bu qanaqasi bo'ldi, ertalabdan kechgacha kitob atrofida o'ralashadi, qanaqa zabardast yigit edi, lattaga aylanib qoldi. Tixonga ham, senga ham aytgandim, parvoyingizga kelmadidi, – Timofeyevna ich-ichidan kuyinib gapirardi. – Qayoqda qoldi, mana endi ko'zing ochilgandir, titrab-qaqshab yotibdi. O'n oltiga kirayapti, men bu vaqtدا turmushga chiqqandim, u-chi, unga nima kerak – kitob kerak.

Timofeyevna Nikolayning qo‘lidagi kitobchani olib qo‘ydi, uni uyqu elita boshlaganini payqadi. Nikolay Timofeyevna nimalar de-yotganini eshitmadni, nima uchundir uhing ro‘parasida Chubarevning katta boshi paydo bo‘ldi. Bezovtalanib u yoq, bu yoqqa o‘zini tashladi, biroz vaqt o‘tgach uxbab qoldi. Timofeyevna chiroqlarni o‘chirdi, Alyonkaning orqasidan oyoq uchida xonadan chiqdi.

Alyonka Tixonning og‘ir qo‘lini sekin-asta surib qo‘ydi, yotoqqa chiqib, katta tugun qilib olingan sochlarni yozib yubordi.

– Bu Oleg Maksimovich deganlari ajoyib inson ekan, – meh-mondorchilikni eslay boshladи u, – istarasi issiq, o‘z kayfiyatini yuqtirishni biladi, yonida boshqa olamga tushib qolasan, ... Kolya baribir uxbab olmaydi, atrofing to‘la gerdagan kimsalar, ular naqadar jonimga tekkanini bilsa eding, dardingni kim bilan bo‘lishishni bilmaysan.

– Menimcha hammasi bir maromda ketayapti, gerdagan kimsalar kimligini tushunmadim, – Bryuxanovning charchoqli ovozi keldi.

– Hamma, hammasi gerdagan, – Alyonkaning ovozida asabiylik bor edi. – May oqshomi esingdami? ... meni hech kim raqsga taklif qilmagan edi o‘shanda ... u yerdagi ikki muxbirni eslaysanmi? Baland bo‘yli, qorachadan kelganini? Ko‘rinib turibdi, taklif qilgisi bor, lekin unga mumkin emas, sen esa mening yonginamda turibsan, lekin u ham erkak kishi. Bryuxanov, men boshqaruvchi bo‘lishni istamayman, raqsga tushishni xohlayman.

– Istaganingcha institut kechalarida raqsga tushishing mumkin, kim senga buni taqiqlayapti?

– Nimalar deyapsan, Tixon? Hozir gap nimanidir taqiqlash yoki taqiqlamaslik haqida borayaptimi? Gap bunda emas. Mening odamlardan chegaralanib qolganim haqida. Bilaman, sen insonlar uchun yashayapsan, kechalari uxlamaysan, jag‘ing og‘riguncha go‘shakni qo‘ymaysan, lekin odamlar buni bilishmaydi, his qilishmaydi, sen ular uchun kreslo, katta odamsan.

– Biz sen bilan hammasining asl mohiyati haqida gaplashgan edik, hammasi ...

– Hammasi muhim, Tixon.

– Alyonka, biron shirin narsa yeb qo‘ymadingmi, senga shunday tuyulmayaptimi?

— Mana arazlashga bahona ham topildi, — Alyonka boshini yos-tiqqa qo‘ydi, — yo‘q, menimcha, yemadim, va yana hammaning o‘z shirinligi bor, bilasanmi, nimasi kulgili, har biringiz o‘zingizcha, ti-rik odamsiz, egningizda mundir, tugmalari qadalgan, lekin hech kim-ning atrofga qarashga va kulishga haqqi yo‘q, kulgili-a, to‘g‘rimi?

Alyonka Bryuxanovning sertuk qo‘liga boshini qo‘ydi, unga shudring, mayda dengiz baliqchalari, ba’zan yolg‘izlik nashidasini surish naqadar totli bo‘lishi haqida gapirib bergisi keldi, lekin o‘zida jur’at topa olmadi. Tirsagi osha erining yuziga qarar ekan, nimagadir iymandi.

— Tixon, menga qara, men haqimda hammasini bilishni istaysan-mi? Hamma-hammasini ... ko‘nglimda bor gaplarimni aytishimni ... a? Nimaga jim bo‘lib qolding?

— Nimani nazarda tutayapsan, — beparvolik bilan javob berdi Bryuxanov, — nima deyayotganiningni o‘zing ham bilmaysan. Nima keragi bor?

— Haqsan, — shu ondayoq tasdiqladi Alyonka, — sen aqlli inson-san, sen bilan bo‘lish maroqli.

— Kel, Xudo haqi, — Bryuxanov kulib yubordi, — sen meni adoyi tamom qilishga ont ichganmisan?

— Bo‘ldi, churq etmayman, — dedi Alyonka, o‘girilish oldidan eri-ning yonoqlaridan o‘pib qo‘ydi, keyin qulay o‘rnashib olib ko‘zlarini yumdi. — Kvartiramiz ajoyib-da! Necha yildan beri qog‘ozlaringni yig‘ishtiraman, har gal syurpriz bo‘lib bir teshikdan chiqib kelavera-di ... kecha omborda bir quticha paydo bo‘lib qoldi ... seniki bo‘lsa kerak, ichidan qandaydir yondaftarchalar, qayddatarlar chiqdi.

— Daftarcha? — tarqoq xayollarini to‘plashga urinib so‘radi Bryu-xanov.

— U yerda chang bosib ketadi, men ularni stol ustiga qo‘yib qo‘ydim. Qandaydir partizanning qaydlariga o‘xsharkan.

— Yaxshi, ertaga gaplashamiz, — Bryuxanov esnadi.

Alyonka jimb qoldi. Bryuxanov orqasiga o‘girilgancha uzoq vaqt xayol surdi. Biroz oldingi suhbatni esladi, xotinining bunchal-lar ochiqchasiga gaplashishni istashidan xursand bo‘ldi. Lekin u hali ayolining ko‘nglidan o‘tganlarni tushunishga tayyor emas. Lekin bu juda muhim, hatto bugun eshitganlari orasidagi eng muhim gap.

Hozir uning o‘ziga ham nimadir bo‘ldi, qachon hammasi bu qadar aralash-quralash bo‘lib ulgurdi o‘zi? Nima o‘zgardi, u odamlar bilan munosabatga kirishishda nimalarni unutib qo‘ydi? O‘zi haqidachi? Qaror qabul qilish naqadar og‘ir. Atrofiga og‘ir cheklovlarini o‘rnatishgan, hammasidan qutulib qirg‘oqqa chiqib olishni istaydi, lekin buning sira iloji yo‘q. Uni yana cheklovlar to‘la orolga uloqtirishadi, har gal, esini kiritib qo‘yish uchun yaxshilab siltashadi. Alyonka uyqisirab Bryuxanovga yopishib oldi, Bryuxanovning yuragi gupillab ketdi. U baxtli inson, oldida shunday rafiqasi bor, Alyonka ga qattiq bog‘lanib qolgan, hayotini usiz tasavvur ham qila olmaydi. Bu bog‘lanish yildan yilga kuchaysa kuchaydiki, sira kamaymadi. Tashqaridan qaraganda Alyonkaga nisbatan g‘amxo‘r, uning istaklarini bajo keltiradi, lekin hozir qaysidir ma’noda uni tutib turibdi, buni o‘zi ham yaxshi biladi. U zimdan bo‘lsa-da, Alyonkaning hayotini boshqaradi, to‘g‘ri, bu yaxshilikka xizmat qilgan vaqtlar ham ko‘p bo‘ldi. Masalan, o‘ninchisinfni bitiriboq institutga kirdi, jigalaridan biri ular bilan birga yashayapti. O‘zining ishi qanchalar og‘ir va mas‘uliyatli bo‘lishiga qaramay, doim uni yolg‘izlatmaslikka harakat qiladi. Lekin nima uchundir ularning o‘rtasida iliqlik yo‘q, xuddi bu munosabatlarda nimadir yetishmayotganga o‘xshaydi, masalan, sal oldin bo‘lib o‘tgan suhabatni olaylik. Yodiga ozgina oldin xotinidan eshitgan so‘zlar tushdi. Nima edi o‘zi bu? Bu nima yoshlikning shiddatli isyonimi, yoki qo‘pollik ko‘rsatishning yangi usuli, uning nozik tabiatи hech qanday dag‘allikni ko‘tara olmaydi, bunisi kundek ravshan, lekin u hali o‘zi gapirayotgan gaplarni yaxshi bilmaydi yoki hali anglab yetmagan...

Bryuxanov uyqusi qochgan kechalarda ish kabinetiga kiradi, avval muzdek vanna qabul qiladi, keyin ish xonasiga kirib tongcha ishlaydi. U Alyonkani uyg‘otib yubormaslik uchun ehtiyyotkorlik bilan o‘midan turdi, deraza yoniga bordi, uyqu og‘ushiga kirgan ko‘chalarni tomosha qildi. Shamolning uvlashidan etni junjuktiradigan sovuq hukmronligini bilish mumkin.

«Yaxshi, bugun nimalar sodir bo‘ldi», – o‘z-o‘zidan so‘radi u, – nega bunaqa holatdaman? Xo‘p, Chubarev bilan uchrashuv, juda aqli odam, ... Parkovga shifokorlar brigadasini yubordik, muammo yo‘q, hozircha qo‘limizdan kelgani shu, o‘tgan yilgi g‘alladan qarz-

dorlik masalasi, bu ham doimgi gap, xo'sh, bundan tashqari, nima bo'ldi? U hozir sodir bo'lgani yo'q, oldinroq bo'lgan edi. Alyonka nimanidir his qilgan edi, kechinmalarini hayajon bilan gapirib bergen edi. Endi hammasi tushunarli. Ayolining xotirjam, bir maromda nafas olayotganini ko'rdi, uni uyg'otib yubormaslik uchun oyoq uchida yurdi. Ish xonasiga kirib, eshigini ichkaridan berkitdi, kresloga o'tirib stol lampasini yoqdi, chiroq xonani burchaklarigacha g'ira-shira yoritdi. Bir qancha vaqt chekib o'tirdi, oxirgi tamakining kulini kuldonga qoqdi. Stol ustida turgan qutichaga qaradi. Stalin bergen kanop ip bilan o'rab tashlangan to'q sariq qog'ozga o'rog'lig' qog'ozlarni oldi. Ularni ko'zdan kechirib chiqdi. Hozir u uyqusirayotgani yo'q, aqli ham joyida, fikrlari tiniq, hammasi shu qog'ozlar bilan bog'liq. Konstantin Leontyevich Petrovning qog'ozlari qanaqasiga unga kelib qolganiga aqli bovar qilmaydi. Mana to'rt kun bo'libdiki, u hammaga baxtli, hayotning eng olg'ir odamlaridan biri sifatida ko'rinishga harakat qiladi, jilmayadi, hazillashadi, chaqchaqlashadi. Hatto xotiniga ham nihoyatda baxtiyor ko'rinati, lekin to'rt kundan beri mijja qoqmaydi, ko'zini yumdimi, Stalining xonasi, zaldagi ziyofat, la'natni konsert esiga tushadi. U hatto tushida ham u yerda bo'lib qolishdan qo'rqadi. Mana endi lampachiroq bilan yoritilgan ish stolida shaxsan uning o'zidan qabul qilib olingan qog'ozlar turibdi. Stalining shaxsan o'zi bu maktublar bilan qiziqib qolganligidan unda qandaydir o'ziga ham noma'lum bir sir borligini taxmin qilish mumkin. Bu odam istalgan manbaning mohiyatini, ildizini o'rganishga fahm-farosati yetadigan darajadagi uzoq hayot yo'lini yashab qo'ygan. Avval uning bu qog'ozlardan ko'zlagan maqsadini aniqlash kerak, bundan tashqari, u keyin qanday yo'l tutadi, hammasi hali qorong'i. Tabiiyki, u bu qog'ozlarni shunchaki Bryuxanovga topshirib qo'yayotgani yo'q, ma'lum ma'noda, ular bilan tanishib chiqqan. Ko'z oldiga bir umr birga ishlagan bo'lsa-da, o'zi mutlaqo bilmaydigan Petrov kelgan. Har holda, u shu vaqtga-chi Petrovni besh barmog'imday bilaman deb hisoblagani aniq. U endi Bryuxanovdan nima kutayapti. Shu kabi savollar ichida qaynar ekan, Bryuxanov har bir qadamini taftish qila boshladı. «Keyin nima bo'ladi» larga taxminlarini tayyorladi. Stalining harakatlari ni qanday tushunish mumkin? Bu masalada ham bir necha taxmin

bor. Birinchisi, u o'tmish bilan bog'liq siyosiy o'yin boshlagan, qo'lyozmalar unga nimagadir qo'l kelishi mumkin. Ikkinchisi, u oldida turgan o'lim yoki yolg'izlikdan hadiksiraydi va yoki u buyuk bir shaxsiyat bilan qiziqayapti, bulardan istalgani bo'lishi mumkin. Lekin bunchalar jo'n sabab bo'lishi mumkin emas. Sira mumkin emas. Bryuxanov qog'ozlarga tikilib qoldi, nima bo'lgan taqdirda ham endi ortga yo'l yo'q, topshiriq berildi, uni bajarish kerak. Bu yog'iga boshga tushganni ko'z ko'radi, vassalom.

U Petrovning dafn marosimini esladi, o'shanda marosimda Stalining shaxsan o'zi qatnashgan. Petrovning yosh, kelishgan va ayni vaqtida harbiy uchuvchi bo'lgan o'g'li uzoq vaqt tobutni quchib yig'lagandi. Juda og'ir kun bo'lgan edi, Bryuxanov hozir xayolidan o'sha kunni o'tkazayapti-yu, yana o'sha og'ir kayfiyatga tushib qol-ganga o'xshaydi. U o'sha kuni umrida birinchi marta Stalin bilan bir safda turgan ... Aql bovar qilmaydi, nemislar bilan bo'lgan Stalin-grad jangida Bryuxanovga eng og'ir vazifalarni yuklatishdi, bir soniya ... hatto bir soniya kechikishga, tin olishga, o'ylab ko'rishga vaqt yo'q edi. U hamma qatori qo'lidan nimaiki kelsa, hammasini qildi. Tinim bilmadi. O'zini ayplashga hech qanday asos yo'q.

O'rog'liq qog'ozlarni o'ziga tortdi, iplarni bo'shatib sarg'imtir qog'ozni ham yechib oldi. Inson umri juda qisqa, hatto qog'oznikidan ham qisqa. Mana bir vaqtlar Petrovning qo'llari tekkan qog'ozlar turibdi, lekin Petrov yo'q. Sarg'imtir qog'oz ichidan yana ikkita qog'ozjild chiqdi, Bryuxanov oldinroq Stalining shohona tushligi arafasida ularga ko'z yugirtirgan edi. Qog'oz jildlar orasidan kichki-na maktub chiqdi. Unga Petrovning dastxati bilan «T.I.Bryuxanovga» deb yozib qo'yilgan.

Konvert ichidan bir nechta sarg'ish, mayda harflar bir tekis qilib yozilgan gazeta varag'iga o'xshab ketadigan yupqa qog'ozlar chiqdi. Bryuxanov o'ziga o'tmishdan yuborilgan bu maktubni o'qishni boshladi, u hozir xat mazmuniga shunchalar qiziqib qolgan ediki, nari-berisi yo'q. «Tixon Ivanovich» xatboshidagi ikki so'zni bir necha marta qaytardi. «Xo'sh, xo'sh, xo'sh, sen bizga nimalar demoqchisan o'zi» xayolidan kechirdi u.

«Tixon Ivanovich» u bu safar ancha hayajonini bosib oldi, xonda hukm surayotgan o'lik manzaraga razm soldi, yengil shamol qiya

ochib qo'ygan eshikni mahkam berkitib yana kreslosiga o'mashib oldi. Endi u xatdan ko'zini uzmasdi.

«Tixon Ivanovich, hammasini senga yuzma-yuz aytib berishni xohlar edim. Lekin taqdirda yo'q ekan, sezib turibman umrim oxirlab qoldi, seni chaqirtirishga ham ulgurmasligim aniq. Vaqt, Tixon, o'ta shafqatsiz maxluq, sen hatto so'nggi soat, daqiqangni yasha-yotganingdan ham bexabar qolaverasan. Ushbu maktub qo'lingga tushib oxirigacha o'qishga sabr-toqating yetsa, o'tinaman sendan, meni esidan og'gan bir qariyaga chiqarma. Meni shunchaki, Tixon, senga aytadigan gaplarim bor. Aytib qo'yay, bu yerda yozilganlari mening qarashlarim, uni qabul qilish yoki qilmaslikni o'zing hal qilasan. Lekin sen hayotingda ro'y bergan ayrim voqealarning sababini bilishing shart. Qolaversa, o'lim yoqasidagi insonni afv etish lozim. Xullas, gap bunday. Yaqinda MQ da bo'lib o'tgan muhokamalarning birida gap sen haqingda borardi. Muddao – seni Xolmsk obkomining birinchi sekretari qilib saylash, men o'shanda sening zararingga gapirdim, seni tavsiya qilmadim. Inson hayot yo'llari qiyin, munosabatlarni bir tizginda ushslash oson emas. E'tirof etishga inkor qilish orqali boriladi. Ular meni xotirjam, diqqat bilan tinglashdi. Natijada seni saylashdi. Bu xatdan muddaoyim senga oddiy bir haqiqatni aytish. Sen nega bunchalar o'zing bilan o'zing bo'lib qolding, yo ko'rmayapsanmi, yoki mohiyatiga tushunmaysanmi, hammasi bir tekis ketayapti deb hisoblaysanmi? Seningcha, qay biri? Agar oxirgisini ma'qullasang, davom etishimdan foyda yo'q. Odam qachondir jonidan to'yishi kerak. Masalan, men jonimdan to'ydum. Umring poyoniga yetganda tavakkal qilishing zarurligini tushunib yetasan. Ruhiy dadillik har doim o'zini haqiqat bilan taqqoslaydi. Lekin yaqinda bilib qoldim, bunday bo'lishi dargumon, balki qachondir sodir bo'lar, lekin, ming afsuski, yaqin orada emas. Men nega bu xulosaga kelganimni senga tushuntirib bera olmayman. Buning tarixi uzun, bundan tashqari seni zeriktirib qo'yaman. Bilasan, Tixon Ivanovich, taxminimcha, sen meni yaxshi bilasan. Ba'zan o'zingga o'zing savol berasan, nega endi hozir, avvalroq emas? Miyada bunaqa savollar kam deysanmi. Noto'g'ri, sen meni umuman bilmaysan, men dunyoni yaxshilash istagida yuradigan tentaklar xilidanman ...

Erkak kishi umri davomida uch marta dong taratadi, tug'ilganida, uylanganida va vafot etganida. Har holda shu mazmundagi xalq maqoli bor. Men hozir uchinchi dovrug'im – o'limim yoqasida turibman, hozir men tuchun haqiqatni gapirish oson. Tixon, haqiqat bilan murosa qilish qiyin. Sen mehnatkash insonsan, lekin ko'zingni shamg' alat qilib minalashtirilgan maydonga itarib yuborishlari hech gap emas. Sen hali taqiqlangan hududga kirgatingcha yo'q. Senda hali tanlash imkoniyati bor, agar shu zaylda ketsang, bir umr ko'zlarini mahkam qisib olgan iste'molchi bo'lib o'tasan, hech qachon ijodkorga aylana olmaysan. Partiya ishi qo'l mehnatiga o'xshamaydi, u hayotning qoq markazida qaynaydi, unda bir zum bo'lzin nafas olishga fursat bo'lmaydi, faqat va faqat harakat qilasan. Lekin nima bo'lmasin, o'z ichki ovozingni eshit, uni bosib o'tma. Bu ovozni har bir inqilobchi eshitgan. Fan inqilobchisi, san'at inqilobchisi, jamiyat inqilobchisi, ... Bilaman, nimadir o'zgartirishga kech bo'ldi. Qanchalar istamay endi imkonim yo'q, lekin umidim borki, tuproqqa tashlab yuborilgan dondan ham g'alla unadi. Mo'jizaga ishonamiz, mendan ranjima, Tixon, buyog'iga nima qilishni o'zing yaxshi bilasan.

8-avgust 1942-yil.
K.Petrov».

Bryuxanov oxirgi satrlarni o'qir ekan, ko'zлari yoshlandi. Keyin xatdan ajratilgan eslatmaga ko'zi tushdi. «Vaqtin bo'lganda, Tixon, daftarchani o'qib chiq, shunda sen nega bunday og'ir qadamni qo'yishimga to'g'ri kelganini tushunib olasan» deb mayda harflar bilan yozib qo'yilgan edi u yerda.

Bryuxanov qo'liga katta, bir tomoni dag'al tikilgan daftarni oldi. Daftarni varaqlar ekan, o'zini qo'lga olishga harakat qildi. Bo'g'ziga tiqilib qolayotgan nafasini bir maromga soldi. Yana uzoq vaqt chekdi. O'ziga tanish dastxatga tikilib qoldi va nihoyat birinchi sahifani ochdi. «Byuro juda kech tugadi. Ajoyib hazil, muammo qancha kichkina bo'lsa olg'irlar uning atrofida aylanaverishadi, aylanaverishadi. Aksincha, o'rtaga zalvorli masalani tashladiningmi, tamom, hammaning og'ziga tolqon tushadi». «Hammasini yoqib yuborish kerak, gapirishgayam arzimaydi» — Bryuxanovning ko'ngidan shu

o‘y o‘tdi, xuddi kimdir yuragiga tinimsiz tayoq bilan urayotgandek zirqirab ketdi. Boshqachasiga ishlashning, yashashning iloji yo‘q, har qanaqa dog‘ga ko‘z yumishing kerak, axir. Shu payt qulog‘iga kimdir uni masxara qilib kulayotgandek bo‘ldi. Mana sening mohiyating, odamlarning kulgisini qistaydigan darajada kulgili, tikanli. Jur‘ating yetmaydi, tashlab ham keta olmaysan. Ko‘rdingmi, qaysidir ma’noda Petrov haq bo‘lgan .. Uni sen haqingda, senga bo‘lgan munosabati haqida gaphirishga jur‘ati yetgan. Agar u Stalin bilan ham ochiqchasiga gaplashishga jur‘at qila olgan bo‘lsa, buni nimasi yomon, senga nimasi yoqmayapti. Uning oldidagi majburiyatlarining esla. Beruvchi qo‘l la’natlangan bo‘ladi deyishadi, to‘g‘rimi? U nega bunday qildi, nega? U haqiqatni aytish uchun eng maqbul odamni topgan, u odam esa gaplarini eshitishi bilan o‘zgarib qolishi kerak, shundaymi? Balki, hammasi shaxsan Petrovning tashabbusidir. Ba’zan shunaqasi ham bo‘ladi, inson o‘z «meni»ni ichiga yutishiga to‘g‘ri keladi, lekin endi nima bo‘lgani yolg‘iz Parvardigor-u Petrovga ayon. Nahotki, u shunaqa va’zлari bilan hammasini o‘zgartira olaman deb o‘ylagan bo‘lsa. Unda bu jo‘natmadan muddao nima? Agar u yana besh karra shunaqa maktub yuborsa ham biron narsani o‘zgartirishi mumkin emas, u sening qo‘lingda emas, axir. Fa-qat azoblanganining, o‘zingga yana bir tuzoq qo‘yaning qoladi. Eng yaxshisi, bu haqida boshqa o‘ylamaslik kerak.

U hozir ichki bir tuyg‘u bilan Petrovning hamma gaplari haqiqatga to‘g‘ri kelmasligini isbotlamoqchi. O‘n yettinchi, yigirma ikkinchi, o‘ttiz yettinchi yillar, qirq sakkizinchи emas. Umuman boshqasi bo‘lsa-chi? Hammasi oldingiga bog‘liq bo‘lsa-chi? Uzoq o‘tmishdagiga? Kasallik, og‘ir buzilish?

Qani endi hammasini yoqib yuborsa, hozir qo‘lidagilarning bar-chasini toptab tashlashga tayyor. Shu onda yuziga mayda-mayda qizil nuqtachalar tepib chiqdi. Biroq xayoliga kelganlaridan uyalib ketdi, har qanaqasiga bo‘lmasin o‘zini oqlashga, himoya qilishga urinib ko‘rdi, lekin ... yaramaslik bu, uchiga chiqqan ablahlik!

Bryuxanov xira yorug‘lik tushib turgan derazaga termilgancha qotib qoldi, barmog‘iga xiyol yetib olgan tamaki kulini kuldonga qoqdi. Atrof sokin, xona suv quygandek jimjit. Lekin xonadagi tinchlikni Alyонkaning eshik ochishi buzdi.

– Nimalar bo‘layapti, Tixon, bu nimasi? – Uning yuziga qarab Alyonkaning hushi uchib ketdi, – tuni bilan mijja qoqmadingmi?

– Bor, Alyonka, boraver, men hozir, boraqol endi.

Alyonka atrofga ko‘z yogurtirdi, keyin chiqib ketdi. Bryuxanov daftarlarni apil-tapil yig‘ib qutiga soldi. O‘z odati bo‘yicha muzday suvda cho‘mildi. Yaxshi kayfiyatda nonushta qilib, ishga otlandi.

6

Chubarev Bryuxanov bilan birgalikda Zejskga tashrif buyuradi, ushbu tashrifdan ko‘zda tutilgan maqsad yangi direktorni raykom va zavodga tanishtirish. Ketish oldidan Alyonka erining yelkalaridan mahkam quchdi, xayrashmoqchi bo‘ldi.

– Balki, onangnikiga kirib o‘tarsan-a, Tixon?

Bryuxanov yelka qisdi. Tamakidon, yondaftarcha, olov yoqgichni hamyoniga soldi. U naqshinkor stol yonidan yurar ekan gandiraklab qoldi. Alyonka hamon uni kuzatib turardi, darhol yoniga kelib qo‘ltig‘idan suyadi. Yana yelkalaridan mahkam quchdi.

– Bo‘lganicha bo‘ldi, menga kechroq qo‘ng‘iroq qil, bu hafta amaliyot yo‘q bizda. Sen menga e’tibor berma, ko‘p narsalarni vaysab qo‘ydim, o‘zimning ham miyam g‘ovlab ketdi. Tushunolmadim, bu nima yurish? – u tez-tez gapirib ichini bo‘shatib oldi, lekin endi bu ko‘ngilda na muhabbat, na istak, na nafosat qolgan edi, buning nomini shunchaki zaruriyat deb atash mumkin.

Chubarev mashinada o‘tirar ekan atrofdagilarga umuman hushi yo‘q, berilgan savollarga ham qisqa qilib yo «ha» deydi, yoki «yo‘q» deydi. Uni hozir faqat Alyonka qiziqtrradi, faqat u haqida o‘laydi. Undan ayrligani hamon azoblanadi, joni og‘riydi. Qanchalar tushunarsiz ekan bu tuyg‘u?

Alyonka va Tixon o‘rtasidagi rishtalarni mo‘rtlashtirayotgan jihat – farzand masalasi. Tixon barcha erkaklar singari otalik baxtini orzu qiladi, Alyonka uni bu baxtdan mosuvo qilib kelayotganlikda ayblaydi o‘zini. O’sha kunni Bryuxanov yaxshi eslaydi.

– Tixon, biron narsa qil, o‘zimdan o‘zim hazar qila boshladim, mendan umid yo‘q, – aprel oyining boshlaridagi suhbatda Alyonka birdan-qizishib ketdi, – boshqasi senga farzand tug‘ib bera oladi ... axir, eng katta orzung ham shu-ku.

Tixon o'shanda uni tinchlantirishga urindi, bu yorug' olamda undan yaqinroq insoni yo'qligini, u yonida bo'lsa, boshqa hech kim kerak bo'lmasligini bot-bot uqtirdi. U hech qachon Alyonkaning o'rnida boshqa ayol bo'lishiga toqat qila olmasligini aytdi. Alyonka yig'lamsirab turgan bo'lsa-da, hammasini eshitdi, oxirigacha jim turdi.

– Yo'q, Tixon, men bilan hech qachon bunday bo'lмаган, – Alyonkaning ovozi sokin tortdi, – men hech qachon homilador bo'lмаганман, u qanday kechishini bilmayman ham.

– Menden so'rashning nima keragi bor edi?

– Keragi bor edi, Tixon, shart edi, yaxshiyamki, so'raganim, bu haqdagi fikringni bilib oldim, zotan sen bu masalani o'yamasliging mumkin emas.

Shu bilan farzand mavzusi yopildi. Bryuxanov xotiniga qarab jilmaydi. Unga qarab jilmayar ekan, xayoliga Alyonka bilan bog'liq uzuq-yuluq xotiralar kela boshladı. Alyonkaning qishloqda katta oilasi bor. Alyonkaning otasi Zaxar Bryuxanovning uzoq qarindoshi, lekin Bryuxanov bu odam bilan hech qachon qiziqmagan, aniqrog'i, nazariga ilmagan. Kunlarning birida uning Zejskga tashrif buyurganidan xabar topadi, u bu yerga Yefrosinya Deryuginanikiga kelgan edi. O'shanda g'ayirligi keldimi, shu kuniyoq uy ko'tarishga kirishdi. U umrida birinchi marta haddidan oshdi, o'sha kuni raykom sekretariga baqirdi. Bir shisha viskini dast ko'tardi, mo'ylovlaridan oqizib ichdi. Yana yodiga deraza oldida mum tishlagan Valsev tushdi.

– Bilmadim, u yerni nimasiga qiziqib qoldingiz bunchalik, – Valsev bo'sh kelmasdi, u har doimgidek birinchi hamlaga o'tdi. – Birinchi bo'lib Yefrosinya Pavlovna Deryuginaga uy qurish kerak, yana kimga bo'lishi mumkin ... o'zi va nemislarini o'z qo'li bilan yoqib yuborgan ... nega bunchalik hadsizlik, axir.

– Hammasi yonib kul bo'lган, – Valsevning og'ziga urdi Bryuxanov. – Mayli, qurishganmi-qurishgan, titkilashga hojat yo'q.

Bryuxanovning boshi chayqalib ketdi, Alyonka bilan bog'liq xotiralar uzuq-yuluq ko'z oldidan o'tdi, faqat u haqida emas, lekin bu xotiralarni Alyonka birlashtirib turadi. U shu kungacha bu ayloga erishish yo'lida chekkan mashaqqatlarini o'yladi.

Mashina shiddat bilan oldinga intiladi, haydovchining yonida Chubarev atrofni tomosha qilgancha, miq etmasdan o'tiradi. Bryuxanov ko'chaning narigi betidan yo'lni kesib o'tayotgan qaynonasini ko'rib qoldi, pastki labini qattiq tishladi. U oxirgi vaqtarda bu ayol bilan ko'rishishdan ham, gaplashishdan ham tortinadigan bo'lib qolgan. Hozir Zaxar Kamdag'i lespromxoza Manya Palivanovna ismli ayol bilan birga yashaydi, Yefrosinya Deryugina esa yolg'iz qoldi, shu vajdan bu ikki inson bilan ko'rishish Bryuxanovga o'ng'aysizlik tug'dirayapti. Lekin bu haqida hali Alyonkaga aytganicha yo'q. Alyonka buni to'g'ri tushunadi, u oxirgi vaqtarda ancha ulg'aydi hisob, u hozir katta niyatlarni diliqa tugib, shaxdam odimlayotgan ayol.

– Bilasizmi, Tixon Ivanovich, xuddi o'ta og'ir bir imtihonga kirish taraddudida turganga o'xshayman, – yelkasi osha balandroq ovozda dedi Chubarev, – go'yoki hammasi birinchi marta sodir bo'layotganga o'xshaydi.

Chubarevning gaplari Bryuxanovga qiziq tuyuldi, yelkasini qisdi. Haydovchi manzilni aniqlashtirib olish uchun bir-ikki savol berdi.

- Tixon Ivanovich, qaysi yo'ldan... Sherstobindanmi?
- Yo'q, Fedotich, Slepnevskiydan ...
- Eeeh, Tixon Ivanovich, yo'limizga g'ovlar chiqib qolishadi-ku, – tanlov haydovchini xavotirga solib qo'ydi.
- Qani, bo'l, bo'l, qachondan beri bunaqa ehtiyyotkor bo'lib qoldilar, – asabiylashdi Bryuxanov.

O'rindiqqa suyanar ekan, yana xayollari uni uzoq-uzoqlarga uchirib ketdi. Yana o'ziga o'zi savol berishni boshladi, nima degani endi bu «imtihon». Bergan savoli qarshisida o'zi gung bo'lib qoldi. Bundan bir necha yil avval, hatto xayolida ham hech qanday Alyonkalar bo'limgan kunlarning birida u xuddi shu ko'chadan o'tgan, qirq birinchi yilning kuzida, ovozi bo'g'ziga tiqilib, bor-yo'g'idan ayrılayotgan kimsadek, ulgurmaslik fikridan dahshatga tushib adoyi-tamom bo'lib o'tgan. O'shanda xuddi joni chiqib ketayotgan odamga o'xshab qolgandi. Og'riq nihoyatda o'tkir bo'lib, xuddi atay Slepnevskidan o'tishiga qarshilik qilish uchun qo'zg'alganga o'xshardi, lekin bugun, aynan shu bugun hammasiga barham berish kerak. O'tmishga o'tmishda qolib ketganini isbotlash kerak. «Nega

endi aynan bugun?» – miyasida tuturiqsiz savol jarangladi, lekin, tabiiyki, savol javobsiz qoldi. U hozir o‘zini savolga tutishi shart emas. Shundog‘am hammasi ma’lum. Bo‘ldi, bo‘ldi, yetar, axir, o‘tmishning kir sharpasini sezib yashash, qachongacha o‘zini o‘zi yeydi. Petrov haq bo‘lishi mumkin, lekin uning haqiqati zo‘raki, dag‘al, u xuddi qo‘rg‘oshin toshtaxtaga o‘xshaydi, odamning ustiga tushsa, bosib o‘ldiradi. Endi u daftarchani hech qachon qo‘liga olmaydi. Biron kavak topib hammasini tiqib tashlaydi, tamom vas-salom. Stalin haqida fikrlarni ham miyadan quvadi, nima bo‘lsa bo‘lsin, kerakmas endi. Daho inson ham o‘zini nima kutib turganini taxmin qila olmaydi, hayot burilishlarga boy. U hammasini vaqtisoati bilan tushuntirib beradi.

«Bunday qilaman, bu qog‘ozlar bilan bog‘liq hamma narsani yig‘ishtiraman, eng oqilona ish shu bo‘ladi», o‘ziga o‘zi pichirlar ekan yuziga qandaydir quruq issiq yugurbanini sezdi. «Yana qo‘rqaqligim?» o‘zini yana o‘sha mudhish savol bilan eza boshladı. «Qo‘rqaqlig ham gapmi, eng tuban qo‘rqaqlig bu», xuddi shunday, yumaloq qornidan boshqasini o‘ylamaydigan kimsaning jirkanch qo‘rquvi. Marhum Petrov avval boshdan kurtak yozib kelayotgan xatarni payqagan, bejiz umrining oxirida bularni qog‘ozga tushirmagan. U hozir o‘ta muhim nimanidir ko‘zdan qochirganini o‘ylaydi. Hozir qo‘lidan kelgancha o‘zini xotirjam ko‘rsatishga harakat qiladi. Lekin buni bazo‘r uddalayapti. Xuddi hozir qirq birinchi yilda gidek dahshat ichida qolganga o‘xshaydi. «Yaxshi» u yana o‘zini bosishga harakat qila boshladi. «Xo‘sh, qo‘lingdan yana nimalar keladi? ... isbotlash, qochish, xumordan chiqquncha so‘kish, mushtlashish, o‘t qo‘yish – to‘xta!» ... «Kerakmas, endi bunday yashab bo‘lmaydi, oldinda qizil chiroq turibdi, agar yana shunday ikki uyqusiz kechani boshdan kechirsa odam bolasining oyoq uzatib yuborishi hech gap emas».

Haydovchi nimadir deb ming‘irlagandek bo‘ldi, Bryuxanov u nima deganini eshitmadı, shu sababli u tomonga engashdi.

– O‘tolmaymiz deyapman, Tixon Ivanovich, suvning ko‘pligini qarang! – Fedotich gaplarini baqirib qaytardi. Har ehtimolga qarsi tormozning ustiga oyog‘ini qo‘ydi, Bryuxanovdan ha deganda javob bo‘lavermagach yuzini burishtirdi, istar-istamas gazni bosdi.

Bunaqa vaziyatlarda barcha bama'ni odamlar o'zini qanday tutsalar, u ham xuddi shunday tutdi. Vazminlik bilan mashinani yurgizdi. «Hukumat yana bir bemazagarchilikni boshlagan ko'rindi, mana uch yildirki Sherstobin orqali o'tadigan yo'l quryapti, hech natija yo'q» xayolidan o'tkazdi ko'pni ko'rgan Fedotich. U ehtiyotkorlik bilan rulni burdi, mashina sekin sirg'ala boshladi. Shu sirg'alishda shox-shabbalar oralab eski liqaldoq taxta ko'prikan eson-omon o'tib olishdi. Ko'prikan tushganlari hamonoq mashina qattiq bo'kirdi, avval bir joyda aylanib, keyin taqqa to'xtadi. G'ildiraklar botqoq ichida ko'rinday ketdi. Fedotichning yuzidan «bundan battar bo'linglar» degan ifodani o'qish qiyin emas edi, o'z gaplarining tasdig'ini amalda ko'rgach yana nima ham deyishi mumkin, yuz ifodasini o'zgartirmasdan sovuqqonlik bilan motorni o'chirdi.

— Botib qoldik, — bo'g'ilib qolgan xirildoq ovozini tomoq qirib rostladi Fedotich. U ko'p yillik tajribasi sababmi hozirgi holatga tu-shishlarini taxmin qilgan edi, shuning uchun hozir xo'jayiniga nisbatan ancha xotirjam, dadil ko'rindi. Hozir uni Bryuxanov bilan solishtirib bo'lmaydi, Fedotich ancha xotirjam, vazmin shu sabablimi, ko'ngliga sig'ib tamaki ham tutatib oldi. Chubarev va Bryuxanova-ning diqqatini shu yaqin atrofda ishlayotgan traktoring ovozi tortdi. Tayinki, bu yerdan o'zları chiqib keta olishmaydi, bundan tashqari, har kuni ham yangi direktor bilan zavod jamoasini tanishtiravermaysan, shoshilish kerak.

— Mana sizga ilohiy marhamat! — Chubarev derazadan boshini chiqarib atrofga alanglatdi, — lekin bahs bog'lashim mumkinki, bunda ham bir hikmat bor.

— Tixon Ivanovich, — har qanday mas'uliyatli haydovchidek o'z burchini ado etishni boshladi Fedotich, — traktorga borib kelaman, eshityapsizmi, aftidan shu yaqin atrofda ishlayapti.

Tasdiq javobini olish uchun Bryuxanov tomonga o'girilib qaradi, qo'nji uzun etigini bamaylixotir tortib bog'ladi, u yoq bu yog'iga tekkan loyni artgan bo'ldi. Asta mashinadan tushib qirg'oq tomon loy sachratib keta boshladi.

Chorak soat o'tib qirg'oqda vang'illagan temir tasma g'ildirakli traktor paydo bo'ldi. Yosh, yelkador traktorchini Fedotich ko'z qirida kuzatib turibdi, traktorchi voqealoyini diqqat bilan kuzatyap-

ti. Zum o'tmay traktorni narigi quruq qirg'oqqa chiqardi, shu orada mashinani ham tortib qari qarag'ay tagiga olib chiqib qo'yishdi. Bryuxanov traktorning qalin temir tasmalari yarmigacha suvga botib lapanglab borayotganini zavq bilan kuzatib o'tirdi va nihoyat quruq yerga chiqib, mashinadan tushishdi. Traktorchi do'stona bosh chay-qadi.

— Rahmat! — Bryuxanov minnatdorchilik bildirish uchun yaqinlashdi, — chamamda bu yerlarni yaxshi bilasiz, ... shoshmang, shoshmang, — Bryuxanov traktorchiga tikilib qoldi.

— Eslash qiyin bo'lyaptimi, o'rtoq Bryuxanov? — traktorchi op-poq tishlarini ko'rsatib iljaydi, — siz meni oldin ham ko'rgansiz, yodingizda bo'lsa.

Traktorchi bir-ikki yengil harakat bilan traktorga chiqib olishga chog'landi. Buyumlarini yengil harakat bilan kabinaga joylashtirdi.

— Men sizni qayerdadir ko'rganman, bu aniq, — Bryuxanov traktorga engasha boshlagan traktorchiga to'xtash ishorasini qildi, — lekin qayerdaligini eslolmayapman.

— Biz, o'rtoq Bryuxanov, Slepensk o'rmonlarida ko'ngillilar safida birga xizmat qilganmiz. Men josus edim, siz ham shu otryada edingiz.

— To'xtang, to'xtang, ... partizan Mitka! — Bryuxanovning chehrasi yorishib ketdi, — sizni uchrataman deb sira o'ylamagandim, biram xursandmanki ...

Mitka katta sergo'sht kafti bilan Bryuxanovning kaftini mahkam ushlab oldi, bugungi uchrashuvdan mamnun ko'zлari Bryuxanovga qadalgan, ulardan kichkina tomchilar dumalab xursandchilikni aks ettirardi.

— Men, o'rtoq Bryuxanov, Gustishlikman, hozir ham shu yerda yashayman, — Mitka o'zi chiqib kelgan o'rmon qirg'og'i tomoniga boshi bilan ishora qildi, — urushda Smolenskdagi har bir joydan foydalandik, botqoqdan ham, bu yerdagi har bir butagacha tekshirib chiqqanman, har bahor-yoz shu joyda yer ag'daraman, — u gapirarkan, biron nojo'ya gap gapirib qo'ymadimmikan degan andishada Bryuxanovga tikildi, uning yuz ifodasini kuzatdi, — haligi makkor nemis polkovnigini qo'lga tushirganimizmi eslaysizmi, nimalar qilmadik unga, churq etgani yo'q, sizni ko'rishi bilan sayrab qolgandi

yaramas. Sayramasa ham bo‘lmasligini tushinib yetgan-da. Basha-rasini yorib qo‘yishimiz aniq edi. Avval boshdan shunaqa xurmacha qiliq qilganida kallasini olib qo‘yardik, bilmaysizmi, o‘rtoq Bryuxanov, keyinchalik unga nima bo‘lganini? – Mitka quvnoq ko‘zlarini yana suhbatdoshiga qadadi.

– Boshini olmay to‘g‘ri qilgansiz, – suhbat asnosida Fedotich tomon yurishdi. Fedotich yuzini burishtirib pichirlar, mashinaga yopishgan bo‘tanani sidirib tashlashga harakat qilardi. Xo‘mraygan-chä chelagini dengizga botiradi, suv olib g‘ildirakka, qanotga, mashinaning pastiga sochadi, ustidan g‘ijinib artadi.

– O‘scha polkovnik, Dmitriy, bizga ancha asqatdi, u hozir hazi-lakam odam emas. U haqida quloqqa ancha yaxshi gaplar chalinib turadi. Tasavvur qilyapsizmi, Dmitriy, urushdan keyin inson o‘zini ko‘rsatdi. Berlinni tiklash ishlarida jonbozlik ko‘rsatdi, yana Drez-denni tiklashda ... xalqaro tinchlikni saqlash konferensiyasida qat-nashdi. Hozir Shimoliy Germaniyada yaxshigina moyanaga ishlaydi. Yaxshi qilgansiz, shunday insonni asrab qolib.

– Mana sizga yangilik, qandini ursin! – Mitka oqko‘ngil in-son ekanligi bois sobiq dushmanining yutuqlaridan ham suyundi, – o‘zimiznikilarga aytsak bormi, ikki dunyoda ishonmaydi.

– Oleg Maksimovich, – Bryuxanov Chubarevga yuzlandi, – tanishinglar, Oleg Maksimovich, biz o‘rtoq Volkov bilan bir necha yillardan beri tanishmiz. Eski og‘aynilarmiz desak ham bo‘laveradi. U partizan – Mitka, biz tomonlardagi tirik afsona. U haqida qo‘shiqlar kuylashadi. Ko‘ryapsizmi, o‘zi qanaqa basavlat inson.

– Salom, motor zavodining direktori, sherigim ta’kid-laganlaridek Chubarev bo‘laman, ko‘rsatgan yordamingiz uchun katta rahmat! – Chubarev Mitkaning qo‘llaridan mahkam siqdi, Mitka odatdagagi kamtarlik bilan boshini engashtirib, kulrang yaltiroq ko‘zlarini yerga qadadi, – Dmitriy ... haligi ... uzr, sir bo‘lmasa yoshingiz nechada?

– Yoshimga keladigan bo‘lsak, ancha-muncha yashab qo‘ydim, hozir yigirma sakkiz yoshdaman, tez orada uchinchi o‘n yillikni qar-shilayman. Na chora! – Mitka ketishga taraddudlandi, lekin Chubarev suhbatdoshiga yangi-yangi savollar berib, gapni qizitishga harakat qilardi. U Mitkaning oilasi, farzandlari bilan qiziqdi. Keyin

kolxozdagi yumushlar haqida savol berdi. Qandaydir sabab bilan mavzu rus geografiyasiga ko'chdi. Qirg'oqqa chiqib papiros tutashdi.

Avval Mitkaning gapi Chubarev bilan unchalik ham qovushmadi, keyin ikkala tomon ham gapga berilib ketishdi. Bryuxanov uzoq vaqt bu ikki notanishning maroqli suhbatini eshitib o'tirdi, ba'zan o'zi ham gapni gapga uladi. Chubarev gapga berilib ketganidan, zavodni ham yodidan chiqarib qo'ygan edi.

— Mashina tayyor, Tixon Ivanovich, — suhbatni Fedotichning asabiy ovozi buzdi.

— Yaxshi, bir daqiqa kutib tur, Oleg Maksimovich...

— Hozir, hozir, — Chubarev o'rnidan turdi, shimiga yopishgan xazon barglarni qo'li bilan qoqdi, yana Mitkaning qo'lini mahkam siqdi, — nima ham derdik, Dmitriy Sergeyevich, bugungi tasodifiy tanishuvdan boshim ko'kka yetdi. Bizning zavodga boring, to'ppa-to'g'ri mening oldimga, sira xijolat tortmang, sizga xizmat ko'rsatishdan mamnun bo'lamiz, — Chubarev yangi tanishiga odadagidan ko'ra ko'proq mulozamat ko'rsatdi. — Menikida mehmon bo'lasiz, hali siz bilan ko'p masalalarda bahslashgim bor. Men kutubxonamni yordamga chaqiraman, agar siz buyuk rus tekisliklarining ashaddiy ixlosmandi bo'lsangiz, sizga bir necha nodir kitoblarimni qarzga berib turaman. Nihoyatda sinchkovlik bilan chop etilgan nusxalari bor, Sabashnikovlarni bilsangiz kerak, moskvalik noshirlar. Ularni sizga berib turaman, faqat qaytarib berish sharti bilan.

— Kelishdik, — dastavval Mitka ko'rsatilgan mulozamatdan biroz o'ng'aysizlandi, lekin gap kitoblar borasida ketgani uchun o'zida yo'q xursand edi, — Gustishda qanday kitoblarингiz bor? — nima uchundir manmansiragan ko'yi so'radi Mitka, — u yerda bir-ikki risola, plakat bor xolos. Ularni ham yildan yilga pashshalar bejab tashlayapti. Haqiqiy kitoblarni esa jon deb o'qigan bo'lar edim.

Chubarevga aytilgan gaplar unchalik ham manzur bo'lmadi, lekin u xotirjam yuz ifodasini o'zgartirmay Bryuxanovga o'girildi, — nima emish, kitoblarni pashsha bejab yotgan emish, hukumat qayonna qarayapti o'zi, — u Mitkaga javob qaytarmadi, lekin xayrixoh ohangda bosh irg'adi. Chubarevning yuz ifodasidan suhbatga yakun yasash niyatida ekanligini payqash qiyin emas edi. Kitoblar-u ular-

ga g‘amxo‘rlik qilish masalasi bir gap bo‘lar, oldinda ularni yanada mas’uliyatli ishlar kutib turibdi. Bryuxanov Mitkaning so‘zlariga munosabat bildirdi, shu bahona Chubarevning diliqa tushgan xijilikni ham xaspo‘shlaganday bo‘ldi. Lekin asosiysi bu emas, hozir uning miyasiga g‘oyatda muhim bir fikr keldi, lekin zum o‘tmay fikrlari sochilib ketdi, u hozir nima haqida o‘ylaganini ham eslay olmaydi. Mitka bilan nari-beridan xayrashgan bo‘ldilar. Traktorchi do‘stona yelka qisdi, yag‘rindor yelkalarini ko‘z-ko‘z qilib, traktor tomon yo‘l oldi. Bir necha yengil harakat bilan kabinadan joy oldi, traktor bir vang‘illadiyu kelgan izidan shox-shabbalar orasiga kirib ketdi.

Quyosh osmonning markazidan joy oldi, u atrofga beminnat nurlarini sochayapti, daryo, dov-daraxtlar quyoshda cho‘milib, yar-qiraydi. Bir vaqtlar bu yerlarni olov va snaryadlar portlashidan os-tun-ustun bo‘lganini aqlingga sig‘dira olmaysan. Bryuxanov Fedotichga tikildi. Bu og‘zi buzuq hamon so‘kinar, motorga yopishib uni qarg‘agani-qarg‘agan edi.

— Hechqisi yo‘q, azizim, hechqisi yo‘q, axir, yana qachon shunday go‘zallikdan bahramand bo‘lamiz, — u Fedotichni yupatgan ko‘yi gapirdi, keyin chuqur nafas oldi, berilib atrofni tomosha qildi, so‘ng kichkina yong‘oq butalarini tomosha qildi, shoxlarni qurshab turgan kichkina yong‘oq g‘o‘ralariga razm soldi. Beixtiyor hamrohi ham unga ergashdi, oyoq ostidagi nam barglar etiklarga yopishadi, ahyon-ahyonda g‘uj bo‘lib o‘sgan qarag‘aylar, o‘z umrini yashab tutgatgan qizg‘ish yaproqlar yerda yuzlab kilometrlarni qamrab olgan, ular Smolensk bilan Belorus chegarasini ham birlashtirib turibdi, so‘kin aldamchi daryo o‘z ko‘yida oqadi. Uzoqlarda makkor yashil bot-qoq yastanib yotibdi. U avval ham bu yerlarga kelgan, qirq birinchi yilning kuzida ... hammasi boshidan boshlanganga o‘xshaydi.

Bunday og‘riqli xotiralar girdobida qolganda inson kimgadir bahr-u dilini ochishni istamaydi, ochiq yaralarini ko‘rsatgisi kelmaydi, shu jumladan, Bryuxanov ham. Chubarev sershox yong‘oq butalariga zavqqa to‘lib tikiladi. Serbang yashil novdalarda yangi hayot kurtak yozayotganini bot-bot ta’kidlaydi. Bryuxanov uning shodligiga soya solgisi kelmaydi, shuning uchun o‘zini o‘rmon ichiga oldi. Oyoq ostida quruq xas-cho‘p shitirildi. Hozir, aynan hozir bu tan-

holik unga juda-juda kerak. U yaqindagina o'zi unutib qo'ygan o'sha muhim fikrni eslashi kerak. Aftidan Chubarevning aytgan gaplarida jon bor: dunyodagi eng og'ir olishuv bu – o'zing bilan kechadigan olishuv. Qolganlarini bir amallasa bo'ladi. Sababini topish – mana eng muhimi nima, avvallari uni miyangdan chiqarib tashlashga harakat qilar eding, uning olovida yonishdan qo'rqqansan, lekin o'zingdan o'zing qochib qutula olmaysan. Agar u hali-hanuz sevs ... allaqachon barbod bo'lgan kimsani ... lekin u mavjud ... mana shu nimqorong'i o'rmon qa'rida o'shshayib turibdi. Bu traktorchi bir urganda tog'ni tolqon qiladi, partizan Mitka, bu o'rmonda unga o'xhash yana bittasi bo'lgan, yo'q, u ancha yoshroq bo'lgan. Alyonka hech qachon Aleksey Sokolsevni xotirlamaydi, loaqlal biron marotaba uning ismini tilga olmagan, lekin u qizning shuurida, borlig'ida yashaydi. Hozir uning bo'y-basti, ko'z-u qoshlari qanaqa bo'lgani muhim emas, muhimi hozir ham u Alyonka uchun mavjud va uning hayotida yashab kelayapti. U ham Mitka singari josus bo'lgan, so'nggi bora Pekarev bilan kuzatuvga chiqqan. Ha, o'lim haq, u bir kun kelib hammani mahv etadi, dunyoda hali bundan bosh-qacha yakun bo'lмаган. O'lim – ayanchli intiho. O'likdan ayolni qizg'anish juda kulgili bo'larkan. Kulgili? Nega endi kulgili? Tirik odam bilan olishish, mushtlashish mumkin, o'lik bilan-chi? Xo'sh, uning taqdiri nima kechdi? U ham afsonaga aylandimi? Yo'q, u Alyonkaning qo'shiqlarida, tushlarida muhrlanib qoldi. «Nimaga marhum tiriklar baxtiga rahna solishi kerak?» – Bryuxanov o'ziga o'zi savol berdi. «Nega, axir?» Men oshiq bo'lmadimmi, men dunyolarni poyiga sochadigan darajada sevmadimmi? Sevmadimmi men? U uchun nima qilmay besamar ... Bizning o'rtamizda ko'rinaso soya bor. Har doim ikkimizni ikki tomonga irg'itib yuboradi, lekin hech kimga aytal olmaysan. Ayniqsa, Alyonkaga ... chunki sharmandali. Allaqachon tuproqqa qorishgan, lekin shu yerda, shu yashil zulmat ichida kezadi, qo'lingdan hech narsa kelmaydi.

Bryuxanov tishlarini g'ichirlatdi, go'yoki butalar orasidan kimdir unga tikilib turgandek tuyuldi. U bu nigohlarni yaxshi eslaydi. Bu o'sha jiddiy, o'ychan, viqorli nigoh.

U biroz vaqt joyidan qo'zg'alolmay qoldi, endi lablari o'ziga bo'ysunmas, bir-biriga timinsiz urilar edi. Shu zahoti orqasiga

o'girildi-yu mashina tomon odimlab ketdi. U boshqa nimqorong'i o'rmonda, o'sha uchinchi bilan yolg'iz qolishga toqat qila olmas edi. Qancha qadamini tezlatmasin, o'sha nigoh ortidan qolmas, uni tinimsiz ta'qib qilar edi. Mashina o't oldi, biroz o'tib tekis shahar yo'liga chiqib oldi. U uzoq vaqt o'ziga kelolmadi, yuragiga qandaydir sovuq havo kirib qolganga o'xshardi go'yo.

7

Mashina qarama-qarshi yo'naliшhga o'tib Gustishga yo'l oldi, zavodga yaqinlashgach Bryuxanovning ko'ngli sal xotirjam tortdi, Chubarevga zavod yoqdi. Bryuxanov yangi direktorni qonun-qoidaga binoan, barcha rasmiyatchiliklarni joyiga qo'yib tanishtirdi. Avval ma'muriyat, bo'lim boshliqlari, keyin ishchilar bilan tanishtirdi. Yangi istarasi issiq direktor ishchilar bilan bir zumda apoq-chapoq bo'lib ketdi. Bu yerda hayot o'z oqimida oqadi, bir zumga bo'lsin, uni to'xtatib qola olmaysan, toshqin daryo kabi yo'lidagilarni ag'darib-to'ntarib, ko'mib o'tib ketaveradi. Bryuxanov shu yerda o'zi uchun g'oyat katta qaror qabul qildi, u endi hech qachon Petrovning esdaliklari bilan qiziqmaydi, shu bugundan boshlab bu mavzu yopildi. Bir kun kelib unga hamma haqiqatlari bemazagarchilikdan boshqa narsa emasligini isbotlab beradi.

Ayniqsa Yefrosinya bilan bo'lgan uchrashuv bahr-u dilini ochib yubordi. Yefrosinya uyostonasida turardi, kuyovini ko'rgach shosha-pisha fartugini yechdi, mehmonga peshvoz chiqish uchun mashina tomonga chopdi. Mehmongan hol-ahvol so'radi, tinimsiz «Tixon Ivanovich, Tixon Ivanovich» deb mulozamat ko'rsatdi. Yefrosinya hech qachon Bryuxanovga «Tixon» deb murojaat qilmagan, bunga haqi bo'lsa ham, haddi sig'magan. «Tixon» deyishga tili bormagan. Tixon Ivanovich iliq tabassum qildi, qaynonasining sog'lig'i, turmushi qanday kechayotganini so'radi. Mehmondorchilik oldidan bo'yinbog'ini tortib to'g'rilagan bo'ldi.

Quyosh o'rmonning ortidagi burchakka yetib boribdi, bir necha daqiqalardan keyin botishga shaylanayapti. Lojuvard osmon qizg'ish nur sochadi, uning har yerida yakkam-dukkam bulutlar harakatsiz qolgan. Bryuxanovga sassiz, zaif shabada urilyapti. Bu shabada

o'tmish qa'rida qolib ketgan, unutilayozgan kimsani xotirlamoqchi bo'lgandek zaif to'lg'anadi. Olmazorlarni aytmaysizmi, xuddi bo'yab qo'yilgandek qip-qizil. Bu yerda yozning barcha ranglaridan bor.

«Shoshilishning nima keragi bor» xayolidan kechirdi Bryuxanov. Bu yerda daraxtzor, o'rmon, olis osmon bor va o'z qoidalari bo'yicha yashaydigan Yefrosinya bor. Balki u ketmay to'g'ri qilgandir, Zaxar Shimoliy Uralda xizmat qilgan davrlarda ko'p marotaba uni yoniga chaqirgan, biroq Yefrosinya bormagan, u bor vujudi bilan mana shu o'rmonga, Gustishga bog'langan. Lekin ko'rinib turibdiki, natijasi qanday bo'lganidan qat'iy nazar, u o'z qaroridan mammun, buni lablaridagi tabassum, ko'zlaridagi quvonchdan ham payqash mumkin.

Bryuxanov uyga kirishi bilan pidjagini yechdi. Yefrosinya stol bezatishga kirishib ketdi, mezbon o'z ko'yida ekan, Bryuxanov devorga osig'liq rasmlarni ko'zdan kechirdi. Suratdagi insonlarining ko'plarini urushdan keyingi tiklash ishlarida qatnashganini taxmin qilish mumkin, har holda ularning liboslari shundan dalolat berib turibdi. Tanish va notanish chehralar, Bryuxanov ularning ayrimlarini tanidi, ayrimlarini esa yo'q. Lekin ularning bari Alyonka bilan daxldor. Kimdir amakisi, tog'asi, xolasi, aka-ukasi va h.k. Mana bu esa Alekseyning o'zginasi. Rasm yaqinda olin-ganga o'xshaydi, deyarli yap-yangi. Alyonka uni chiqarib ulgur-gan ekan, demak. Yefrosinya uni devorning to'riga ilib qo'yibdi, hatto Zaxar ikkovlari birga tushgan rasmdan ham teparoqqa. Yosh, navqiron Zaxar va Yefrosinyaning surafi Bryuxanovning kulgisini qistatdi. Nimagadir shu rasmga qarab ko'ngli yorishdi, ikkalasining ko'zları katta-katta, quvonchdan porlaydi, hoynahoy, biron bayram bo'lsa kerak, er-xotin yangi libosda, bir-birini suyab ol-gan. Negadir bir-biriga qapishib tursa-da, ikkisi ham bir-biriga begonadek ko'rinadi. Ha, nima ham derdik, rasm eskirgan, unga qo'shilib munosabatlar ham eskirgan. Bryuxanov savol ma'nosida yelka qisdi. Nima bo'lgan taqdirda ham Zaxar endi uning qaynotasi. Endi ortiqcha tortinchoqlikka hojat yo'q. Bir uchi uning qarindoshlari, axir. Shu payt orqadan odam sharpasi ko'zga chalindi, Bryuxanov ortiga o'girilganida yag'rindor, o'ktam «Yegorushka» u bilan salomlashish uchun kelayotgan edi (Nikolay va Alyonka

Bryuxanovga Yegor haqida ko‘p marotaba aytib berishgan, shuning uchun uni tanib olish qiyin bo‘lmadi). Yegorushka zabardast kaftlari orasiga Bryuxanovning qo‘lini oldi. Bu yigitning nigohlariga qarab turib qiziquvchan, qiziqxon o‘siprin ekanligini payqash qiyin emas.

– Xo‘sh, ishlar qalay, Yegor? – odatiy salom-alik yo‘sindida gap boshladi u, – nima yangiliklar?

– Doimgidek, – avval sal tortinchoqlik bilan, Bryuxanovning do’stona tabassumini ko‘rib sal ochilib javob berdi Yegor, – Alyonka, Kolya qalay?

– Boshlarini ko‘tarmasdan o‘qishyapti, Alyonka salkam shifokor, Kolyaning matematikaga iqtidori bor, iqtidor ham gapmi, erta labdan kechgacha kitobdan boshini ko‘tarmaydi, yetuk analitik.

– Kolya har doim shunday bo‘lgan, uni tushunish qiyin, – bu orada Yegorushkaning xayoli o‘ziga ketdi shekilli, yuz ifodasi ancha yumshoqlashdi, u hozir akasiga havas qilayotganligi aniq.

– Qulq sol, Yegor, men sen bilan anchadan buyon ochiqchasiqa gaplashib olish niyatida edim, erkakchasiga ... Yur biznikiga, Xolmskga, uy-joy yetarli, jigarlarining doim yoningda bo‘ladi.

– Yo‘q, qo‘ysangiz-chi, – ko‘p ham gapning ma’nosiga tushunmay bosh chayqadi Yegor, ko‘zlarini mehmondan olib qochish uchun yerga tikildi, biroz jim turgach boshini ko‘tardi, ikki yuzi olov ichida qolgandek qip-qizil: – Siz bilmaysiz, Nikolay o‘qishi kerak, u shunga munosib, men Gustishda qolaman, menga shunisi ma’qul.

– Shoshma, shoshma, Yegor, javob berishga shoshilma.

– Yo‘q, – yigitchaning ovozi dag‘allahdi, – onamni kimga qoldirib ketaman? Bundan tashqari maktab ham bor.

– Bilasanmi, Yegor, senga qanday tushuntirsam ekan, – kalovlanib qoldi u, – bilasanmi, o‘qish kerak, qayerda kim bo‘lishingdan qat‘i nazar o‘qishing kerak, hammasi shunday qurilgan: yoshliginda butun umring uchun poydevor qurasan. Onangni esa shaharga birga olib ketishimiz mumkin, muammo yo‘q.

Ko‘rinib turibdiki, Yegorning avzoyi buzildi, chimirilgan qoshlarini peshonasiga chiqib ketgandek bo‘ldi, Bryuxanov «tushundim, bu mavzuga boshqa qaytmaymiz» degan ma’noda bosh chayqadi. Shu payt Yefrosinya tamaddi uchun stolga chaqirdi, taranglashib bora-

yotgan asablar ham biroz bo'shashdi. Stol juda kamtarona tuzalgan, tovada oq-sarig'i alohida pishirilgan tuxum, did bilan bo'laklangan sala, tuzlangan bodring va yangi tuzlangan nim pushti pomidorlar.

– Hozir kartoshkalar ham tayyor bo'lib qoladi, – harsillagan ovozini mayinlashtirishga harakat qilardi Yefrosinya, keyin tortinibgina Bryuxanovga yuzlandi: – Tixon Ivanovich, nima deb o'ylaysiz, Yegor biron shisha ... olib kelgani ma'qulmikan-a?

– Sira hojati yo'q, – Bryuxanov rozi bo'lmadi, – nima qilamiz shunday chiroyli tushligimizni buzib.

– Bola paqir, keyin barmog'ingni tishlab qolmasang, go'rga edi. O'tgan hafta Zaxar Yegorga maktub yuboribdi, – Yefrosinya yangi qishloq nonini chaqqonlik bilan bo'laklarga bo'lib taxta ustiga terdi, – uni oldiga chaqiryapti, yozishicha, yaxshi haq to'lasharkan, hor-diq ham yaxshi emish, eng muhimi mutaxassis bo'lishiga yordam qilmoqchi, mashinist yoki haydovchi. U yerda texnikum bor ekan. Yana picha pul ham qo'shib jo'natibdi. Va'da qilishicha ... o'zi umuman bu yerda nima qilasan, yosh umringni o'tkazib, eh...

– Men hech qayerga bormayman, oyи, – Yegor javob berar ekan, qizarib ketdi. Aniqki, bu xonadonda bu masalada ancha-muncha tortishuvlar bo'lib o'tgan.

– Zaxar yana nimalar haqida yozibdi? – so'radi u.

– Sizni aldab nima qildim, menga umuman yozmaydi, faqat unga yozadi, – Yefrosinya boshi bilan darg'azab Yegorga ishora qildi. Va'da qilishicha, qanday qilib bo'lmasin vataniga kelib ketadi ... sog'ingan ko'rindi, bor, Yegorka, maktubni olib kel, javonning tepasida turibdi.

Birdan Bryuxanovda yana o'tmish iztiroblari bosh ko'tardi, yana u xojasini oyoqlari ostiga olib ezg'ilashni boshladи. Lekin o'ziga qadalgan dag'al o'spirin nigohlaridan ularni pana qilib ulgurdi. U Yegorning qo'lidan maktubni oldi, bir boshdan o'qishni boshladи:

«Salom, Yegor, – bu dastxat Bryuxanovga tanish, u endi ko'z uzmasdan maktubni o'qiy boshladи, – sen men uchun qayg'uradigan yagona insonsan, buning uchun senga katta rahmat! Bu yerda, o'g'lim, Kam daryosining bo'yida katta o'rmon bor. Bizning o'rmonimiz quvnoq, rangin edi, bu o'rmon haqida unday deyish qiyin, hay mayli. Hayvonlar ham, baliqlar ham ko'p, kelganingda

birga ovga chiqamiz. Bu sen biladigan ahmoqona ov emas, haqiqiy san'atkorona ov bo'ladi. Xatingda qachon qaytishimni so'rabsan, bilmadim, bir kunmas bir kun.nasib qilib qolar. Albatta, boraman, mana ko'rasan. O'tgan safar senga boshimga tushgan ishlar haqida yozgandim, yodingda bo'lsa. Nachora, odam bolasi ko'nikar ekan, men ham ko'nikayapman. Aslida bir burda nonga ham to'yasan kishi. Kel, o'g'lim, hammasini o'z ko'zing bilan ko'r, bu yerning mehnati og'ir, lekin shunga yarasha yaxshigina to'lashadi ham. Kolxozda qo'ling bunaqa pul ko'rishi qiyin. Yana bu yerda texnikum bor, unda o'qib mashinist yoki haydovchi bo'lishing mumkin, yoki paravoz haydovchisi. Kelganingda maslahatlashamiz yana senga yangi velosiped, soat olamiz. Nikolay va Alyonkaning o'qiyotganini eshitib, boshim ko'kka yetdi, sen ham bo'sh kelma. Kolya ham sendan xavotir bo'lib yurgandir, unga qo'limdan kelganicha senga yordam qilishim haqida yoz. Yaxshi o'qi, o'g'lim, o'qishda gap ko'p, odamni zulmatdan olib chiqadigan boshqa najot ham yo'q, ishonaver. Onangni asra, u shundog'am juda ko'p uqubat tortdi».

Bryuxanov maktubni bir necha marotaba oldi-orqasini o'girib ko'rdi, bir necha marotaba hijjalab o'qib chiqdi, o'quv daftari varaqlariga yozilgan, keyin uni yana buklab xatjildga soldi, Yegorgia uzatdi. Nima uchundir uzoq vaqt jimib qoldi.

– Zaxar Tarasovichga uch marta xat yozdim, – uzoq vaqt davom etgan sukunatni buzib tilga kirdi Bryuxanov, – Alyonka ham yozdi, javob ololmadik. G'ashing keladi kishi, nahotki, bir og'iz «yaxshiman» deyish shunaqa qiyin bo'lsa ... boshiga qanday mushkulot tushibdi uning.

Dasturxon popugini o'ynab o'tirarkan, Yefrosinya devorda osig'lig' xochga tikildi, u hozir Bryuxanov qanday tikilib (to'liqib) turganini sezib turardi, vaziyatni yumshatish uchun unga qarab jilmaydi. Negadir o'zini aybdordek his qildi.

– Iya, bu nimasi, qani, Tixon Ivanovich, oling, oling ovqatdan, tortinmang, – mavzuni o'zgatirishga tirishardi u, – siz, azizim, unga nima bo'lganini surishtirib, boshingizni qotirmang. Boshga tushgанини ko'z ko'radi. O'sha yurtlarda bir kunini ko'rsin-da endi. Nima ham derdik, samo ham bunaqalarni kechirmaydi, mayli, shularning haqqi-hurmati, – u boshi bilan Yegorgia ishora qildi, – shularga bir ziyon-zahmat yetmasa bo'lgani.

Bryuxanov bahuzur tuxum tanovul qildi, bu orada Yefrosinya chugun idishda bug'i chiqib turgan kartoshkalarni olib keldi, ustidagi maydalangan barra shivit hidini aytmaysizmi, naqd dimog'ni yorib yuboradi. Bunaqasini Alyonka ham xush ko'radi, ustiga nomiga tuz sepadi-yu, paqqos tushiradi.

– O'tgan yili Yegorkamiz yig'ib olgan hosildan, ko'pligini ko'rganingizda edi, yoqa ushlab qolgan bo'lardingiz. U bizning qo'ziqorinlar bo'yicha mutaxassisimiz, undan boshqa hech kim bunday ustomonlik bilan topib, terolmaydi. Olsang-chi, Yegor, xuddi begonalarga o'xshab o'tirishingni qara, – go'yoki hayratlangan insondek ko'zlarini pirpiratdi Yefrosinya, shu bahonada o'g'lini ovqatga undab ham oldi. Yegor shuncha takallufdan keyin ham bezrayib turishni ep ko'rmadi, istar-istamas likobchasiga ikki dona kartoshka soldi, yoniga pomidorlardan qo'ydi. Qiziq, shu daqiqalarda Yefrosinya mehmon haqida nimalarni o'ylayotgan ekan-a, Bryuxanovning shuuridan yarq etib shu savol o'tdi (buni qarangki, Yefrosinyamizning miyasida ham shu savol charx urayotgan edi). Uning jim o'tirishini ta'biga yo'ydi-ko'ydi. Qadahini kvas bilan to'ldirdi.

– Sobiq qishloq raisi bor-ku, haligi Anisimov, yaqinda bizni zi-yorat qilib ketdi, – gap boshladi Yefrosinya, – qanaqa uddaburon odam edi-ya u, hozir-chi, boqi beg'am, bir joyda o'tirib gap sotgani sotgan, qanaqa edi-ya u, vo-oo edi-da, – Yefrosinya bosh barmog'ini ko'rsatdi, – o'tirib rosa valaqlashdik o'ziyam, afsus, hozir u zamondagi kishilardan barmoq bilan sanarlisi qolgan.

– Anisimov, qaysi edi-ya? – Bryuxanov kichkinagina qo'ziqorinni sanchqiga ilib oldi, uni og'ziga solib bahuzur chaynadi, – Qachon kelgandi?

– Adashmasam erta bahor edi, qor endigina erishni boshlagandi, – shu zaylda Yefrosinya gapga tushib ketdi, endi u o'sha uchrashuvni bor tafsilotlari bilan hikoya qila boshladi. U Anisimovning Yelizaveta Andreyevna bilan yashagan uyi, uning yaqinidagi kesik shumtol tagida o'tkazgan kunlari, keyinchalik qora ishchilikka qaytgani, shu bilan hikoyasini tugatib ozgina sut so'raganini aytib berdi.

– Men undan Yelizaveta Andreyevna haqida so'radim ... uni ham urushga olishgan ekan, sal qolsa musofir yurtlarda omonatini topshiray debdi. Qizni, eshityapsizmi, olib kelishibdi. Onasi o'sha

lagerda vafot etibdi, bechora onasiga qancha kuydi ekan, ... qalbi daryo ayolda bu Yelizaveta Andreyevna. Men bu ayol haqida eshitganlarimni hammasini eslاب qolganman. Mening Ivanim bilan ham xuddi shunday bo'lgan, Germaniyada. Urushdan avval unikida choy ichganmiz, men xonimga yordamlashgandim o'shanda, Anisimovlarnikida mehmonda edik. Zaxar ularga sarmoyasi haqida savol bergandi ... uyatsiz, masalan, meni birovlarning cho'ntagidagi pul umuman qiziqtirmaydi, – gap Zaxarga ko'chgani uchun Yefrosinya qizishib ketdi.

– Nima ham derdim, hammasi tushunarli, o'tmish sizni o'z domiga tortayapti, – xayoliga kelgan birinchi fikrni tiliga ko'chirdi u, axir, shuncha jonbozlik ko'rsatib aytilgan hikoyaga javoban nimadir deyish kerak edi-da. Keyin oldidagi likobchani surib qo'ydi. – Rahmat!

– Yana ozgina yeng, Tixon Ivanovich, jilla qursa bir likob. Alyonka yozganicha bor ekan, siz umuman o'zingizga qaramay qo'yibsiz.

Bryuxanov yelka qisdi, tamaki tutatdi, tamaki qoldig'iga tikilib qolgan Yegordan so'radi:

– Chekasanmi?

– Tortgani-tortgan, paravozga o'xshab tutatadi, uni mehmon qiling, Tixon Ivanovich, so'rashga jazm qilolmay turibdi.

– Ish uzoqqa cho'zilibdi-ku, – potsigarini ochar ekan, ilmoq tashladi Bryuxanov, – men Kolya bilan shug'llandim, u chekishni tashladi, sen esa haliyam ... bu nimasi?

– Odat bo'lib qolgan, – Yegor qisqa va lo'nda javob berdi, keyin sigaralardan birini olib tutatdi, nima uchundir «rahmat» deyish o'rniga «o'ylab ko'raman» dedi.

– Endi kech, bo'yi cho'zilib qoldi, bobo-buvisiz o'sdi bu bola, yigitlarni uddasidan faqat ular chiqishi mumkin. O'g'il bola erkaklikni ulardan o'rganadi. Chekishi-ku o'z yo'liga, haligi Mitka partizan bor-ku, o'sha bilan bahs boylashibdi bular, ko'lning o'rtasigacha borib nima borligini bilib qaytarmish, yana nechtasini yo'ldan urdi bu yaramas, yangi rais sho'rlikni aytmaysizmi, gandiraklab qoldi oxir. Bir kuni Yegorkamni ham shu ko'yga solmasa go'rga edi, voy Xudoyim, nimalar deb valaqlayapman tag'in ... yaxshisi, Tixon Ivanovich, o'zingizdan gapiring, qalay u yoqlarda hayot?

— Bir maromda, Yefrosinya Pavlovna, bir kuni miszni ko'rib yuribmiz, — Bryuxanov yangi tamakini tutata boshladi, — Alyonka o'qishga boshi bilan sho'ng'igan, ertalabdan kechgacha institutda, keyin shifoxonaga boradi, hozir u yerda amaliyot o'tayapti. Uni, deyarli, uyda uchratmaysiz. Kolya ajoyib yigit, tinim bilmaydi, o'zini o'qqa-cho'oqqa uradi, uzoqqa boradi deb o'ylayman. Yefrosinya churqur nafas ola boshladi, u bolalari haqida gap ketganda shunday jonsarak bo'lib qoladi, sekin qo'llarini stol ustiga qo'ydi, butun vujudi quloqqa aylanib Bryuxanovni tinglay boshladi. Bryuxanov Nikolayning Moskvadagi matematika olimpiadasida qatnashganini so'zlab berdi, oxirida kolokvitumda yetti kishi qolgani, ular g'alaba uchun qanday harakat qilganini gapirib berdi (baribir, gapdag'i asosiy mavzu Nikolayga borib qadalaverdi). Yefrosinya bolalarcha ishtiyoq bilan tinglaydi, ba'zan ko'zlarini katta ochib voyvoylaydi, oxirida ko'z yoshi ham qilib oldi. Hozir uning miyasida suhbatga aloqasi yo'q qandaydir fikrlar suzib yuribdi, lekin nima bo'lgan taqdirda ham bu xayollar o'tmish bilan aloqador, bolalarning bu xayollarda izi ham yo'q. Bryuxanov hozir Yefrosinyaning ko'nglidan kechayotgan xayollarni taxmin ham qila olmaydi, lekin u ham gap o'ziga ko'chganidan jo'shib ketgan. Yefrosinya balki o'z umrini sarhisob qilayotgandir, balki xayoli yana o'sha tunga ketgandir, qadim-qadim zamonlarda qolib ketgan o'sha tunga ...

— A-a, nima bor ekan? Har novdaning o'z bargi bo'ladi, — umuman mavzuga qovushmagan gap aytdi Yefrosinya, u buni o'zi berilib ketgan xayollarga javoban aytdimi yo boshqa bir muddaosi bormidi, Bryuxanov ham tushuna olmadi. Nima uchundir o'zi sevgan ayol bilan Yefrosinya o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rmadi, xuddi bu ikki inson bir-biriga begonadek tuyuldi shu pallada.

Kech tusha boshladi, Bryuxanov shisha lampani olib fonusga olov tutdi.

8

Oradan ikki yil o'tgan bo'lsa ham xuddi kecha sodir bo'lganga o'xshaydi. Yefrosinyaning xotirlashicha, kech kuzak tushib qolgandi, shamol qizg'ish yaproqlarni sochgani-sochgan. Kun hali yorug'... O'shanda boshiga har yerida kichkina gul g'unchaning rasmi

tushirilgan yangi kashmir ro'mol tashlab olgan Manya Palivanonna kelgan edi, juda g'alati. Yefrosinya uyda yolg'iz edi, u xo'jalik ishlarini yolg'iz yuritishga o'rganib qolgan, uyda yolg'iz paytlar ancha-muncha joyni saranjom qilishga odatlangandi. Yegorning chokidan sirtilgan cholvari, yana bir uyum latta-putta to'planib qolibdi, hammasini yamab chiqish kerak. Shu zaylda u nina-ipni oldi, xotirjam yamoq ishiga kirishdi. Birdan ostonada odam sharpasi eshitildi, Yefrosinya Yegorning bunchalik erta kelishini kutmagandi, ishidan bosh ko'tarmay:

– Yegor, senmisan? – dedi.

– Yo'q, Fros, bu Yegor emas, – javobdan Yefrosinya dong qotdi, boshini ko'targach hayrati yanada ortdi. Ostonada yangi ko'ylik va ro'mol o'ragan Manya Palivanovna turardi. Bunaqasini taxmin qilish ham qiyin.

– Senikiga kirib o'tay dedim, – Yefrosinya nina-ipini chetga surdi, qo'liga kerosin lampa ko'tarib, mehmonga peshvoz chiqdi.

– Yolg'izmisan deyman?

– Ha, yolg'iz o'tiribman, qanaqa katta oila edik-a, marhuma qaynonam ovqat pishirib yetkaza olmasdi, hozir-chi, so'qqabosh bo'lib qoldim, hammalari birin-ketin narigi dunyoga rihlat qilishdi. Yegor ham sayoq chiqdi, hali u yoqda, hali bu yoqda, armiya deydimi-yey, yana kim bilsin, – Yefrosinya Manyaning ko'ylagidagi bezaklarga razm soldi, nima uchun allamahalda bu xotin shuncha yo'l bosib unikiga keldi ekan? Taxmin qilish ham qiyin.

– Bolalaring, Frosya, Tangriga hamdki, qanotingga kirgan, hammaning havasi keladi. Kattam, Vanya, kuydirdi, bunaqada kimni o'ldirishmaydi, juda-juda kuydirdi. Bunaqa hovlini butun dunyonи aylanib ham topa olmaysan. Sening yo'rig'ing boshqa, qariganda yolg'iz qolmaysan, Alyonka yoki Kolya shaharga olib ketadi. Bu yerda qolsang Yegor g'amxo'rlik qiladi, xullas, nima qilishni o'zing bilasan, aqling o'zing bilan.

Yefrosinya taka-puka bo'lib ketgan yuragini sal bo'lsa-da bosib oldi, nafas rostladi. Bolalar haqida aytilgan gaplar ayni haqiqat, kim nima demasin, bu bolalar o'zлari oyoqqa turishdi, ta'lim olish uchun shaharga ketishdi. Alyonka – oqko'ngil qiz, ko'z tegmasin, avvalgilar aql yosh bilan emas, bosh bilan o'lchanadi deyishgan. Og'ziga

kuchi yetmaganlar nimalar demadi. Mish-mishlarini qarang, Bryukanovga – uy evaziga ... yashiradigan joyi yo‘q, uyni u olib bergen. Lekin bu sotib oldi degani emas, aks holda Kolyani ham o‘zi bilan olib ketmagan bo‘lar edi. Xo‘s, shu kolxozda yurib kim bo‘lardi, shaharda odam bo‘ladi. Ayol boshi bilan hammasining uddasidan chiqarmidi? Bo‘Imagan gap, hech qachon ... faqat shu Alyonkadan dili g‘ash, turmushga chiqqaniga ham bir yil bo‘ldi, hali boladan darak yo‘q. Yaxshi emas, yaxshi alomat emas, eriga kelsak, u hali yosh, baquvvat, tog‘ni tolqon qiladi, xotin ham chakki emas.

Yefrosinya o‘yga toldi, Manya unga xalaqit berishni istamadi chog‘i uzoq vaqt jim o‘tirdi. Yefrosinyaning xayoli urushga ketdi, u nimalarni yulib ketganiniyu, nimalarni qoldirganini o‘yladi, lekin befoyda. O‘yashdan ma’ni yo‘q.

Zaxar bilan ketishni o‘zi istamadi. Zaxar bir necha marta maktub yozdi, pinagini ham buzmadi. Hech qachon rozi bo‘lmaydi. Tug‘ilgan go‘shasini qandaydir bir Zaxarga ergashib tashlab ketmaydi. Qo‘shnilarga ham doim shunday deydi. Shimol to‘g‘risida, Zaxar haqida eshitgisi ham kelmaydi. U ikki kun qattiq og‘rib qolganida Zaxarni kechirganini aytdi, oyoqqa turgach esa yana go‘riga g‘isht qalay boshladi.

– Ivandan ko‘nglim notinch, – uzilib qolgan suhbatni davom ettirdi u, – yuragim orqasiga tortib ketadi, ko‘zimni yumdimmi tamom, xuddi tirikdek peshonamga keladi, uchinchi kuni g‘alati tush ko‘ribman deng, tushimda yana Ivanim, yap-yalang‘och, qo‘llarini menga qarab cho‘zadi, lekin qo‘llari bo‘m-bo‘sh: «Oyi, yordam bering, yuragim og‘riyapti, yonib ketayapman» deydi. Ko‘zlar to‘la alam. Tushimda ham robbimga yuzlanaman, «unga yordam ber» deb yolvoraman. Bola necha yoshda bo‘lmasin, onaga qiyin. Onaizor adoyi tamom bo‘ladi. Rabbim, butun olam onalarini o‘z panohingda asra, – Yefrosinya yelkalarini bukchaytirib o‘tirdi, hozir o‘z yog‘ida o‘zi qovrilmoxda.

– Xo‘s, sizda nima gaplar, – Manyadan so‘radi u, – Makar amakining tobi yo‘q deb eshitdim, tekshirtirish kerakmikan?

– Nima ham qillardik, qarilik, u tug‘ilganida onamning qornida ham bo‘Imaganman, naqd bir yuz ikki yoshni qarshiladi, o‘zi bo‘ladimi, – Manya boshini orqasiga tashladi.

– Hamma ham o‘ziga atalgan umrni yashab o‘tadi, undan bir misqol ham ko‘p emas, – Yefrosinya yana qo‘liga gugurt oldi, yangi kerosin lampasini yoqdi, – qachon bu xalq bechoraga bir yengillik beriladi-a, kattalar aytishardi, balo ustiga balo yopiriladi deb. O‘zi jonimizdan to‘yib turgandik, baloga duchor bo‘lgur qurg‘oqchilik boshlandi, o‘ylab ko‘rgin-a, naqd ikki yil, ketma-ket. Na kartoshka undi, na bug‘doy, odamlar haliyam oshqozonni aldash uchun nima topsa, yamlab yotibdi. Bugun Volodka Rijevni ko‘rdim, Varka bilan aravaga ikkita qopni yuklab ketayapti...

– Fros, men kecha Zaxardan xat oldim, – gapini taqqa to‘xtatdi Manya, – shuning uchun bu yerga keldim, – u meni yoniga, Kamga chaqryapti, bu ikkinchi marta xat yozishi. U sen bilan hammasi tugaganini yozibdi, oldiga ketishga rozi bo‘lmabsan, men esa roziman, urushdan oldingi holim bo‘lganda-ku sira rozi bo‘lmas edim. Lekin endi borishim, bir kunimni ko‘rishim kerak, menga ham oson emas, o‘zing tushunasan-ku, doim uchinchi bo‘lgan odam jafo tortadi, umuman, hozir hech kimga oson emas.

Yefrosinyaning ko‘ksida o‘rmalovchi og‘riq paydo bo‘ldi. Bir soniya atrofida bo‘layotgan voqealarni anglamay qoldi, nimalar deyapti bu ayol. Hozirgina nima dedi?

– Men ketishga qaror qildim, Fros, – yelkasidan tog‘ ag‘darilgandek yengil tortdi u, chunki hozir sira avvallari jur‘ati yetmagan gaplarni gapirayotgan edi, – men hali ham uni sevaman!

– Bu nimasи bo‘ldi menga xushxabarni yetkazmoqchimiding yoki maslahat so‘rayapsanmi, – Yefrosinyaning qoshlari savol ma’nosida baland ko‘tarildi, – nima ham qillardik, u bolangning otasi, u bilan bog‘liq joying bor. Mana ko‘rib turganingdek o‘z joyimda turibman, senga hech qanday g‘ayirligim yo‘q. Qancha mashmashalarga chidashingga to‘g‘ri keldi. Hayot seniki, ketishga qaror qildingmi, unda bor. Men unga hech qachon u yerkunda bormasligimni takror-takror aytganman. Bilmadim, nimaga, lekin u menga xuddi allaqachonlar o‘lib ketgandek tuyuladi. Eslab qolishim lozim bo‘lganlarini eslab qolganman, men hozir o‘zimni o‘ylamay qo‘yanman, bolalar ulg‘ayishdi. Qismat ayri yo‘llarga yetaklar ekan, chora yo‘q, baribir, ayrlasan. Sizlarga yomonlik tilamayman, qanday xohlasangiz, shunday yashang. Senikilar ketishingga qanday rozi bo‘lishdi? – Yefro-

sinya qiziqsinib so‘radi, shu bahona ayolning yuziga yaxshilab qarab oldi. Darhaqiqat, ayol hali juda yosh, qizg‘ish yuzlarini ajin bosmagan.

— Men ularga aytmoqchi emasman...

— Borganingda bizni so‘rasa, hammasi joyida ekanligini ayt. Usiz o‘lib qolganimiz yo‘q, buni o‘zi ham yaxshi biladi, bir kuni vaqt soati yetib kelish nasib qilsa, bolalarini ko‘rib ko‘zi quvnaydi.

Manya ketishga hozirlandi. Ostonaga borganda yana ortiga qaytdi. Yefrosinyaning qarshisiga keldi-yu, biron so‘z aytishga jur‘ati yetmadi. Stolga cho‘kib, qaltiroq qo‘llarining hovurini bosishga urindi, osig‘liq xochga qarab uvvos tortdi.

— Kechir meni, Fros, — ko‘z yoshiga qo‘shilib ichidan fig‘on otlib chiqdi, — men aybdor emasman, Xudo haqi, hayot yo‘llarimizni tutashtirib, ikkimizni ham azobga soldi. Onamning bir gaplari bor edi, ahmoq ayol umrini xazon qilib xotin bo‘ladi. Yana odamlar bunaqalarni maqtaydi. Odamlarmish... kim o‘zi o‘scha odamlar? Nimaniyam bilishardi? O‘zing guvohsan, ayol bo‘lib nima ko‘rdim men? Badani ho‘l suvdan qo‘rqmaydi deyishadi. Butun asrimizni o‘g‘irlashdi, umrimizni o‘g‘irlashdi, lekin sen biron narsa o‘g‘irlab qorningni to‘yg‘iza olmaysan. Eh odamlar! Begona xumdag‘i asalni shirin bilishadi. Iltimos, Fros, meni qarg‘ama, men o‘zimni qarg‘ab adoyi tamom qilib bo‘lganman.

— Menga nima, — ko‘zini yerdan uzmasdan pichirladi Yefrosinya, — yaramas xotinboz, o‘zi yomon odam emas-ü, hay mayli, hammasi o‘tmishda qoldi, Xudoga shukur.

— Demak, meni qarg‘amading, shundaymi Frosya?

— Boraqol, Manya, qanchalar og‘ir bo‘lmasin, taqdiri azal degan bir gap bor. Nima bo‘lmasin, qalbingga qulqoq sol, — u o‘rnidan turmoqchi bo‘ldi, lekin bemajol oyoqlarini qimirlata olmadi. Nima uchundir u tanasini ko‘tara olmayapti, — boraqol endi, qo‘lingdan yetaktlab olib borib qo‘yishimni kutayapsanmi?

— Xudo yor bo‘lsin, Manya, — qora, manfur to‘lqin ko‘ksidan chiqib bo‘g‘ziga tiqildi, bo‘g‘iq ovozi allanechuk mahzun tortdi, — u oqko‘ngil inson, yillar davomida meni bir marotaba ham chertmagan, ishonaver, lekin hozir qanaqa, bunisini bilmayman.

Manya Yefrosinyaning yelkalaridan mahkam siqdi, keyin shosha-pisha chiqib ketdi. Xuddi shunday, Yefrosinya o'ziga o'zi uqtirdi, xuddi shunday bo'lishi kérak edi, hammasini jimgina tinglash, keyin unutib yuborish kerak. Yaxshiyamki, Manyaning oldida shaltog'ini oqizmadi, bir amallab o'zini ushlab turdi. O'g'rilik qilishni istamasmish, Manya ayol bo'lib, hech narsa ko'rmagan bo'lsa, Yefrosinya nima ko'rdi. Bu xotin dunyoga kelib g'aram-g'aram ish bilan uqubatdan boshqa nimani ko'rdi.

U stolga boshini qo'yarkan, hammasiga qo'l siltab ketgisi keldi, ko'chaga chiqib bor ovozi bilan dod solgisi, dunyoni ag'dar-to'ntar qilgisi keldi, lekin endi nima foyda. Hech kim aybdor emas. Hech kimni aybdor qila olmaydi. Mana Yegor ham yo'q, shu kulbada shumshayib bir o'zi qoldi. Zaxar kelishini so'rab bir necha marotaba yolvordi. Nega uning ortidan ketmadni?

Sekin kulbaga qulqo tutadi, sukunat ... odamni g'ajiydigan suknat. Kulba bo'm-bo'sh, huvillab yotibdi. Mana endi bu koshonada ikkovlon javlon urishadi, Yegor oila qursa-chi, unda nima bo'ladi, mana u hozir xotinlik umrining so'nggi daqiqalarini yashayapti, o'z qo'llari bilan... qo'sh-qo'llab tutqazdi. Hatto qo'shimchasiga oq yo'l tilab, duoyi fotiha ham berdi. Ahmoq, xomkalla, miyasini qurt yegan ovsar, g'o'ddaygan xodalikning oxiri har doim shunaqa bo'ladi. Tug'ilgan yeridan ketishdan shunchalik ham qo'rqadimi odam, borsa kelmas yo taygaga chaqirayotgani yo'q edi. Manya-chi, u ikkilanib ham o'tirmadi, hech kimga aytgani ham yo'q. Shunchaki qaror qildi, yo'lga tushdi... u Zaxarning birinchi maktubidanoq keta olmasligini bilgan, hech qachon keta olmasligini tushungan. U Zaxardan ilk maktub kelgan o'sha kunni esladi, avval sog'lig'i haqida yo-zibdi, ishlari joyida ekanligini qo'shimcha qilgan, keyin birgalikda o'tkazgan vaqtulari haqida yozgan, demak, hammasi yodida, u haqida undan bo'lak hech kimsa bilmaydi. Hammasi... o'sha vaqlardagidek. Chuqur xo'rsindi, lekin ketolmaydi. Ichidagi kechinmalarini o'zi ham tushunmaydi, nahotki, shu majruh ko'ngil bilan ham Zaxarga kerak bo'lsa? Ha, aftidan, vaqt hech kimni ayab o'tirmaydigan ko'rindi, uning o'rniga Manya ketayapti. Ha, endi u g'o'ddaygan xodalikni unutib ayollik baxtini totadi. Lekin Yefrosinya hanuz haqiqiy ayol bo'lib yashash qanaqa bo'lishini tushuntirib bera olmaydi.

«Mayli, mayli, hammasi o‘tib ketadi» o‘zini o‘zi ovutgan ko‘yi pi-chirladi u, lekin shafqatsiz ko‘zyoshlar gaplarining aksini ko‘rsatib turardi. Endi uning kimga ham keragi bor, bolalar voyaga yetdi, hammasi o‘z taqdiri yo‘lidan uchirma bo‘ldi, hali bilagida kuchi bor, xo‘jalik ishlariga yaraydi, shu bahona ovunadi, ko‘ngli xotirjam tor-tadi. U bir vaqtlar hammaga kerak edi, jo‘jabirdek bolalariga, eriga, qarovga muhtoj qariyalarga, xullas, hammaga. Endi-chi, keraksiz bir xotin. Yefrosinya ko‘zyoshlarini yengiga artdi, bu tomchilar ham o‘chakishgandek yanada shiddat bilan otilib chiqsa boshladи.

Tezda borib eshikning lo‘kidonini surdi, keyin yamoq solishni kelgan joyidan davom ettirdi.

– Buncha barvaqt qaytmasang, o‘g‘lim, – Yegor ostonada ko‘rinishi bilan Yefrosinya savolga tutdi.

– Tarqaldik, – hafsalasizlik bilan javob berdi u, garmonchi Lenka hammaning asabiga tegdi, g‘irt mast, bugun garmon chalgisi yo‘q emish, o‘rtaga olib urishmoqchi edi, men qo‘shilmadim.

– Shuning o‘zimi? – U Yegorning aft-angoriga tikilar ekan, nimadandir shubhalanib qoldi, – hay mayli, o‘g‘lim, sutdan ozgina qu-yib ilit, pechga kecha kechqurun o‘t qalaganman, yerto‘la sovuqligi uchun sutni tushirib qo‘ygandim, Lenkani urmay to‘g‘ri qilgansan, bunaqa joylarda senga nima bor.

– Oyi, nimaga shu vaqtgacha uxlamading? Lampa ham qurum ichida qolib ketibdi.

Yegor non do‘konining yonginasida o‘tirgani uchun unga yangi non isi urib qolgan edi. Yefrosinya mayin jingalak sochlarni qu-chog‘iga tortdi, u hozir entikib nafas olayotgan jigargo‘shasiga bor alamlarini aytib yig‘lagisi keldi.

– Bilasanmi, bir ahmoq bilan tortishib qoldim, haligi Stepka Bobok bilan, doim Alyonkaning ko‘ziga cho‘p suqqani-suqqan, yana nima deydi degin-a ...

– Nima deydi?

– Aytishicha, Alyonka o‘z tug‘ishganini o‘qishga joylagan, sen ham unga sherik bo‘lgansan, qilar ishing go‘ng titish emish.

– Sen bunaqa gaplarga e‘tibor berma, – qaltiroq ovozda dedi Yefrosinya, – Stepka birovlar haqida valdiragani-valdiragan, xuddi unga zararimiz tekkanday. Odamlar bizning hayotimizni qayerdan

bilishsin? Alyonka Kolya bilan doim seni oldiga chaqiradi, Tixon Ivanovich ham tezroq o'ziga ma'qul sohani tanlasin debdi.

— Bilaman, oyi, — Yegor jilmaydi, — kel, yaxshisi, uxlasmiz, balki, birgalikda dadamning yoniga ketarmiz, axir, ikkalamizni ham bot-bot chaqiryapti-ku...

— Senga ming marta qaytarishim kerakmi? — Yefrosinyaning avzoyi buzildi, — qariganimda begona o'lkalarda nima qilaman men? — keyin yumshoqroq ohangda qo'shib qo'ydi, — men o'zim uchun qaror qabul qilib bo'lganman, seni esa ushlab qolgim yo'q, Xudo haqi, katta bola bo'lib qolding, ketishni istasang, otlanishing mumkin, men shu yerda taqdirimga yozilganini ko'raman.

— Taqdir, taqdir, — Yegor onasining gaplarini takrorladi, lekin javoban hech narsa demadi. Boshini uning qo'ynidan chiqararkan, chuqur esnadi, uslashga taraddudlandi. U onasining qolishga jiddiy sabablari borligini biladi, lekin ochiqchasiga so'ray olmaydi, uyaladi.

Kiyimlarini yechib ko'rpasiga o'randi, Yefrosinya chiroqni puf-ladi, keyin jimib qoldi, xonaga yana sukunat cho'mdi. Yegor qalin choyshabga o'ranib yotgan bo'lsa ham nimagadir sovuq qotdi, bada-nida bir narsa jimirlayotgandek bo'ldi, kelajak xavotirimi yoki qorong'ilik qo'rquvi bois o'rnidan turdi, onasini qidirdi:

— Oyi, oyi, uxlaysanmi?

— Ha, ko'z oldimni tuman qoplayapti, sen ham uxla, qo'zi-chog'im, tongda barvaqt uyg'onishimiz kerak.

Boshini yostiqqa qo'yishi bilan Alyonka haqida o'yladi, yana Nikolay haqida ham. Otasini, Ivanni xotirladi. Naqadar katta va ahil oilasi bor edi, hozir-chi u oiladan asar ham qolmadi, hamma tarqalib ketdi. Avdotya buvi vafot etdi, Ivandan esa dom-darak yo'q. Albatta, otasining oldiga borish-bormaslikni onasining o'zi hal qiladi. Unga nima, bu yerda chakki yashamayapti, axir. Ikki yildan keyin armiyaga boradi, xizmat qiladi, ortga qaytgach Valka Kudryavsevaga uylanadi. Mana buni omad desa bo'ladi. Bu go'zalni bir ko'rganingizda edi. Hamma yigitlar unga oshiqlar, yo'lini poylaydi, bir og'iz gapiga intizor. Shilqimroqlari qorong'i burchaklarda yo'lini poylaydi, belidan mahkam quchib, labidan bo'sa olsam deydi, lekin qayoqda deysiz. Valka tutqich bermaydi,

hammasini shapaloq bilan siylaydi. Lekin mendan qochib qutula olmaydi, jur'atsizgina ta'kidladi u, qo'limdan kelganini qilaman. Xuddi bularning hammasi sodir bo'lgandek uh tortdi, xayolidan raqiblari bilan savalashgani, mushtlashgani o'tdi. Nima uchundir shu pallada o'ziga bo'lgan ishonchi ortdi.

Bolalarcha xayollari bilan uyquga ketdi, allamahalgacha to'lg'anib, alahlab chiqdi, hozir bu yigitchaning chirkin dunyodagi yagona maqsadi Valka Kudryavsevaga erishish edi, bu uning naqadar kuchli ekanligini anglatardi. Yigitchaning xayollari tushiga ko'chib yarim ochiq labiga tabassum yugurdi, shu ko'yi uyquga ketdi.

Yefrosinyaning ko'zlariga uyqu kelmadi. Tong yorisha boshladidi. Podachi uyma-uy sigirlarni yig'ib olish uchun kezadi, uxbab qolganlarni baqirib uyg'otadi. Yefrosinyaning toqati toq bo'ldi, boshqa kutib o'tirgisi kelmadi, to'ppa-to'g'ri Zaxarning cho'qintirgan otasi Ignat Kuzmichning oldiga yo'l oldi.

– Xullas shunaqa gaplar, Ignat amaki, – ostonada turiboq gap boshladidi Yefrosinya, Ignat Kuzmich ertalabdanoq uy yumushlariga kirishib ketgan edi, – kecha Manya Palivanovna kelgan edi, Zaxarning oldiga ketayapti, chaqirgan ko'rindi.

Ignat Kuzmich o'siq paxmoq qoshlari ostidan uzoq vaqt tikilib qoldi, soat ko'rsatkichini to'g'rilib oynavand eshigini yopib joyiga olib qo'ydi, asabiy bosh chayqab kursiga cho'kdi.

– O'zing pala-partish xotinsan, – shu asnoda tamaki olib tutatdi, bu odad partizanlarga urush yillaridan estalik bo'lib qolgan. Ignat Kuzmich ham mana necha yildirki, chekishni tashlay olgani yo'q, – bu dunyoda yolg'iz boshing bilan nima qilasan, hali Yaratgandan o'lim kelmagan bo'lsa, bolalar bo'lsa o'z yo'liga, hammasi uchirma bo'lib ketadi, nima demoqchiligidagi tushungandirsan.

Yefrosinyaning ko'z oldida etigini yechib, kir paypoqlarini oyog'idan sug'urib oldi, keyin ularni bir chekkaga uloqtirdi.

– O'zing qaror qildingmi, nimaga endi iching achishayapti? – so'radi Ignat Kuzmich, – avvalroq kelish kerak edi.

– Sira e'tirozim yo'q, Ignat Kuzmich, faqat ko'nglim g'ash, ichim yorishmayapti.

– Qanaqasiga iching yorishsin, – Ignat Kuzmich yelka qisdi, – shuncha yil birga yashadinglar, farzandlaringiz bor, axir.

— Agar boshqa chorasi bo‘lganida boshqasini chaqirmasdi, — Yefrosinya xotirjam ko‘rinishga harakat qildi, tabiiy chiqishi uchun biroz jilmaydi, — lekin, nima ham·derdim, muhokama qilish bizning ishimiz emas.

— U senga, Fros, yil bo‘yi xat yozib yalindi, — zorlandi Ignat Kuzmich, — qulqlaringni tanbalab olding, hayot har doim yasma narsalarni yanchib tashlaydi, yo‘llarni har doim ham tekshirib ko‘rolmaysan, xuddi turna va qarqara ertagidagiga o‘xshaysan, mana endi yolg‘iz qolding, bemalol sayrayver.

— Mayli, Ignat amaki, — Yefrosinya uni to‘xtatdi, — siz xotin-xalaj masalasini qayerdan ham bilar edingiz. Nimalar deyapsiz o‘zi, mayli, men ketdim.

Ignat Kuzmich uzoq vaqt joyidan qo‘zg‘almadi, qo‘li ishga bor-madi, uyni yoqilgan tarasha isi tutib ketdi, quyosh ham ancha bo‘y ko‘rsatib qoldi, qanchalar qizib ketmasin, joyidan qo‘zg‘almadi. Bir nuqtaga termilgancha tamaki tutatib o‘tiraverdi. Yefrosinya hech narsaga qaramay yo‘lida davom etdi, yo‘lidan chiqqanlar bilan so‘rashmadi. O‘zini oq qayinlar panasiga olib qo‘ylar podasi hosil qilgan katta qora ko‘lanka ortidan bordi. Havoda biroz tuman bor, o‘rmon-dalalar kumush quyosh nurlariga cho‘milib yaltiraydi, kumush daryo to‘lib oqadi. U hech narsaga, hech kimga qaramaydi, fa-qat va faqat oldinga yuradi. O‘ziga o‘zi endi hech narsani o‘zgartirib bo‘lmasligini aytib fig‘on chekadi. Hozir o‘zini kurreyi zaminda yolg‘iz o‘zi qolib o‘limga mahkum qilingan yirtqichdek his qilayapti. Nima ham qilarding, hammasini avval boshdan bilar eding-ku, qandaydir bir begona ovoz g‘ussalariga g‘ussa qo‘shdi. «Hammasini bilarding, qachon bo‘lmasin bu kun kelishini bilarding, uning ko‘nglida boshqasi borligini bilarding, yana nima xohlaysan? Har doim mana shu kunning kelishidan xavotirda yashading, mana endi, qo‘lingdan hech narsa kelmaydi, turmushingizga nuqta qo‘yildi». Shu kunchaga ko‘ngilda bir uchqun bor edi, urush yillaridan beri kurtak yozgan, kimgadir keraklik hissi, ayollik orzusi... bugun ayon bo‘ldiki, ularning hammasi chirib bitgan, u hech kimga keragi qolmagan qarimsiq bir ayol...

Dalalardan tuman ko‘tarilib quyoshning iliq nurlari tusha bosh-ladi, lojuvard dalalarda nahorgi shabada o‘ynaydi. Birin-ketin kulba-lardan ham dud chiqib, taom isi tarala boshladi.

Yefrosinya xayolga cho'mdi. Unga ikki yil mobaynida o'tmish bir necha marotaba hamla qildi, ayol iztirob chekdi. Bugungi Bryuxanovning tashrifi, u bilan bo'lgan suhbat yana o'sha kunni yodga soldi. Bo'lar ish bo'ldi, lekin ayol o'shanda ham, hozir ham to'g'ri ish qilganini aniq biladi.

— Men bora qolay, Yefrosinya Pavlovna, — Bryuxanov stoldan turishga chog'landi.

— Balki bugun biznikida qolarsiz, — keraksizlik haqidagi fikrlaridan biroz bo'lsa-da chalg'ib, mehmonnavozlik qildi u, — vaqt ham allamahal bo'lib qoldi.

— Ilojim yo'q, ertalab Xolmskga jo'nashim kerak.

— Albatta, yana mehmonimiz bo'ling, — Yefrosinya jilmaydi, — ha, aytgancha, nima demoqchi edim-a, albatta, bu men burun suqadigan ish emas, lekin malol kelmasa, bir narsani so'ramoqchi edim.

— Nega malol kelsin, marhamat, — Bryuxanov suhbatdoshining gapidan taajjubda qoldi, qanaqa savol bo'lishi mumkin, javobi odamga malol keladigan. Yefrosinya nafas rostladi, Bryuxanovning yuziga qaradi:

— Alyonka bilan anchadan beri birgasizlar, lekin farzandingiz yo'q. Unga bir necha marta aytdim, parvosiga kelmaydi, siz, Tixon Ivanovich, undan kattaroqsiz, o'zingizga ma'lum, bola — umrning mazmuni. Bolasiz qanaqa oila bo'lishi mumkin.

— Yozmishimiz shunaqa ekan, Yefrosinya Pavlovna, sira ahvolimiz o'zgarmayapti, — Bryuxanovning yuzi mahzun tortdi, — yaqinda Alyonkamiz institutni tamomlaydi... siz bu gaplarni qo'ying, o'zingizda nima gaplar, turish-turmushingiz qanday kechayapti?

— Eh, Tixon Ivanovich, — Yefrosinya kaftlarini peshonasiga qo'ydi, ko'zлari ham quyiga cho'kdi, — so'ragan narsangizni qarang, ana bu yerga uy quydik, ikkita sigirim bor, lekin hali og'zim yollchib sut ko'rgani yo'q. Bolalarga so'rashadi, qariya-kasalmandlarga so'rashadi, unga so'rashadi, bunga so'rashadi, yo'q deyolmaysan, bir joyda yashab turib... hali qishloqning yarmi oyoqqa turolgani yo'q, nemislardan keyin ko'pchilikning dasturxonida makkadan bo'lak yemish qolmadi.

— Siz hech kimdan uyalishingizga hojat yo‘q, — Bryuxanov ta-raddudlanar ekan Yefrosinya dalda bergen ko‘yi gapirdi. Yefrosinya ro‘molini to‘g‘rilab turib, yelka qisdi. Odob yuzasidan tabassum qildi, bu gaplarsiz ham u yaqinda hamma qiyinchiliklar ortda qoli-shiga katta umid boylardi.

— Raislar almashgani-al mashgan. Ekindan oldin yana yangi-sini saylashdi. Ey xudoym, bunaqa ahmoqlarni qayerdan topishar ekan-a? — u yana qo‘lini peshonasiga qo‘ydi, haligi Stepka Bobok degani kolxoz omborining yonginasida yashaydi, doim omborxonada janjal... u esa bamaylixotir papiros tutatadi. Naqd oltitasini og‘ziga tiqadi. Undan tovuq aqlliroy. Lekin nima ham derdik, bir kunini ko‘rib yuribdi. Yangi rais ishni chekuvchilarni ovlashdan boshladi, kimda-kim kolxoz hududida chekkudek bo‘lsa, o‘scha ku-niyoq ishdan haydalishini e’lon qildi, bunga javoban Stepka Bobok deganlari ham o‘zini alohida rais saylaganmish, ham kulging qistaydi, ham yuraging siqiladi, bular esa doim peshonangda qaynaydi... shunaqa yashayapmiz, Tixon Ivanovich.

— Men ketdim, Yefrosinya Pavlovna, — Bryuxanov o‘rnidan turdi.

Shu ko‘yi ular boshqa gaplashishmadi. Yefrosinya kuyovining yelkalariga qoqib qo‘ydi, qizi va o‘g‘liga ko‘rsatayotgan mehribonligiga o‘ziga xos javob edi bu. Bryuxanov xayrlashar ekan, barchani shaharga mehmondorchilikka taklif qildi. So‘ng chaqqonlik bilan mashinaga chiqib oldi, qarama-qarshi yo‘nalishdagi mashinalarni tomosha qilib borar ekan, xayoli yana Yefrosinyaning gaplariga ketdi. Ayniqsa uning oxirgi gaplari ... Bryuxanov bor kuchi bilan o‘zini bamaylixotir insondek ko‘rsatishga harakat qildi, lekin doim insonni kutilmagan bir hodisa o‘z holiga qaytarib qo‘yadi.

Yo‘l ustida joylashgan Zejskka kirib o‘tmoqchi bo‘lishdi, yuk tashuvchi Valsev uni ancha ushlab qoldi, bir hojati bor chog‘i o‘ta sertakalluflik bilan o‘z fikrlarini ayta boshladi. Bryuxanov gapning po‘stkallasini tushundi. Yaqinda tumanda motor zavodi filiali ishga tushadi, ish ancha kengayadi. Ma’lum bo‘lishicha, uni boshqarish tuman ma’muriyatiga topshiriladi. Valsev oxirgi yillarda ishda ko‘rsatgan fidoyiligi, o‘zini axloqli insonga munosib tutgani, meh-

natlarining samarasini ko‘rishi lozimligi, filial boshqaruvi rayonda bo‘lishi achinarli hol ekanligi haqida gapirardi.

– Xo‘p mayli, Gennadiy Mixaylovich, – Bryuxanov charchoq bukchaytirgan yelkalarini qisdi, – menimcha ham, o‘zingizni viloyatdagilarga ko‘rsatadigan vaqt keldi, boshlanishiga o‘rinbosarlikni so‘raymiz, nima dedingiz? Viloyatdagilar yaxshi biladi nima qilishni. Qanday qilib o‘z sukutingni baholashlarini so‘rashing mumkin.

- Partiya nima derkan?
- Xo‘sh-xo‘sh, – Bryuxanov yuzini burishtirdi, – O‘z ovozing zararingga ishlashi mumkinmi?

– O‘ylab ko‘rish kerak, o‘rtoq Bryuxanov, – Valsevga jon kirkandek bo‘ldi, yangi gaplar ancha xotirini jam qildi, sal eti junjukgandek bo‘ldi, shu bahona papiro tutatdi.

– Yana bir gap, Gennadiy Mixaylovich, – Bryuxanov papiroslardan birini olib barmoqlari orasiga qistirdi, – Gustishda Dmitriy Volkov degan inson bor, partizan josuslardan bo‘lgan, esladiningizmi? Hozir traktorchi bo‘lib ishlaydi. Uni yaqindan o‘rgansak zarar qilmaydi, qulqoqqa chalingan gaplarga ko‘ra, kadrlar yetishmayapti, odam yo‘q, taklif qilsak chakki ish bo‘lmas edi, kadrlar ham bir joyda unib-o‘sadi, siz-chi, siz bo‘lsangiz yana o‘sha Fedyuninni tiqish-tirdingiz. Jin ursin, nimaga ham yarardi u.

– Bilib turibman, Tixon Ivanovich, – xayrixohlik bildirdi Valsev, – lekin darhol ishdan bo‘shatib yubora olmayman, axir, balki ozgina qo‘llab yuborish kerakdir, keyin esa... – Valsev ko‘zlarini yuqori ko‘tardi, Bryuxanov uni diqqat bilan tinglayotgan edi, – keyin esa, o‘zingiz ham yaxshi bilasiz, gap faqat Fedyuninda emas.

– Bilaman, shuning uchun ham, Gennadiy Mixaylovich, biz kolxozga aqli odamlarni yo‘naltirishimiz kerak. Fedyuniningiz esa u yerni bulg‘ashdan boshqasiga yaramaydi, – Bryuxanovning ovozi sokin tortdi, lekin sezib turibdiki, Valsev undan aniq bir buyruq kutayapti, – xullas, o‘zingiz hal qiling, iste’dod degani qonda suzib yuradi, qolaversa tovuq ham xo‘rozga qarab qoqlaydi, bu yigit jang maydonida mo‘jizalar ko‘rsatgan, men Volkovni nazarda tutayaman, osonlikcha qahramon bo‘lgan deysizmi?

Valsev papirosga gugurt tutdi, ikkovlon ham tutunlarni ichlariga so‘ra boshladilar. Bryuxanov par qoplagan deraza oynasi qarshisiga

keldi, xira fonus nur taratadi, daraxtlarning ohista tebranishidan zaif shamol turganini taxmin qilish mumkin. U hozir Valsevga aytgan gaplarini o'yladi, to'g'ri qildimi o'zi, kamiga bu insonga yangi matabani naqd qilib qo'ydi.

— Odamlar allaqachon uyquga ketgan, — u deraza tagida chayqa-layotgan nastarin navdalariga tikildi, bu nastarin ko'p yillardan beri shu yerni egallab olgan, zavodning bir bo'lagiga aylanib qolgan.

— Ikki soatdan keyin tong yorishadi, — Valsev Bryuxanova ga xitob qildi, hozir u ham o'z ko'yida yangi lavozim haqida o'ylar, buni yaxshilikka ham, yomonlikka ham yo'yolmay o'ylanib qolgandi, nima bo'lganda ham bugungi uchrashuvdan dili yorishdi, keyin sekingina sukunatga cho'mgan yo'laklardan beun qadam tashladi, — tun esa chumchuqning tumshug'idek kalta...

9

Hozir rus qishloqlari bir navi, bazo'r kunini ko'rib yuribdi. Xolmskga keladigan bo'lsak, Zejsk zavodini ham tiklash ishlari olib borildi, zavodni oyoqqa turg'izishga keragidan ortiqcha ikki yil sarflandi, nafaqat Xolmsk, Rossiyaning har bir nuqtasida qayta tiklash ishlari olib borildi. Butun mamlakat bo'ylab kunlar xuddi qushlar singari uchib o'tib ketdi. Mo'ylovi sabza urgan yigitchalar erkakka aylandi, soqoliga oq oralaganlar munkillab qoldi, shahar-u qishloqlarda urush zada qilgan odamlarning yangi avlodlari tug'ildi. Mayin bahor yomg'irlari yer bag'ridagi xazinalarni tuproqqa qorishtiradi, u ham o'z injiqliklarini bir ko'rsatib o'tdi-da, qayerlardadir dunyoning barcha ikir-chikirlariga tupurib ikki go'dak xandon otadi. Nadomatlar bo'lsinki, ular ham buyuk sivilizatsiya sohibi qoldirgan yaralarning isidan iskab ulg'ayishga majbur.

Xolmsk va butun mamlakat uchun qirq beshinchi yilning bahori juda og'ir keldi. Urush tugaganiga bir yil bo'layapti-yu, beva va yetimlarning boshi-keti ko'rinxmaydi. Xuddi yildan-yilga ko'payib yer sharini bosib olayotganga o'xshaydi. Kasalxonalarda faqat urush majruh qilgan tanalar o'lgani yo'q, umid o'ldi, ertangi kuniga bo'lgan ishonch o'ldi, dom-daraksiz ketganlardan bir xabar kutib ko'zlar toldi, xotin-xalaj topinadigan bir joyim bo'lsin deb qo'lida

qolgan ko‘ylakmi, botinkami, biron narsani ko‘mib o‘zini yupatdi. O‘lim haqida xabar beruvchi ikki yoki uch qator xat ko‘zlarga botib ketdi, ayol yuragini o‘rtab-yoqdi.

Har bir qishloqning o‘z udumi, yozilmagan qonun-qoidalari bo‘ladi, bu yerda odamlar seni tug‘ilganingdan tortib o‘lguningcha tanishadi, to tirik ekansan, shu hayotning ichida qaynaysan. Qishloq an’analari ota-bobolardan bolalarga meros bo‘lib o‘tadi. Gustishning o‘z solnomasi bor, undan qariyalarning xotiralari joy olgan. Kim qachon tug‘ilgani, qachon o‘lgani, kimning to‘yi bo‘lgani, hosilning unumli yoki unumsiz bo‘lgani – xullasi kalom, bu yerliklar kechir-gan shodon va g‘amgin kunlarning barchasi unda yozilgan.

Qahatchilikda boshlangan qirq oltinchi yil ham gustishliklarni ayab o‘tirmadi, na chorvaga o‘t qoldi, na it-mushukka sut. Lekin quvnoq gustishliklar har qanday vaziyatda ham o‘zlarini xursand qilish yo‘lini topishadi, ichak uzdi hangomalarini-ku qo‘yaverasiz. Masalan, Nyurka Kudelinaning sarguzashtlarini hali-hanuz eslab ku-lishishadi.

Xullas, qirq beshinchi yilning bahori, may oqshomlaridan bida Nyurka Kudelina kech tushishiga qaramay tomorqasini kav-lab ko‘radi (hali rang olmagan uch-to‘rt bodring bilan karam uzib oladi). Qora terga botib o‘rindiqqa cho‘kadi, may qo‘ng‘izlarining g‘o‘ng‘illashiga berilib mudraydi. O‘zini epaqaga keltirib olgisi keldi chamasi, sochlarini yoyib, alumin taroq bilan taray boshladи. Hozir bunaqa taroqlar Gustish bozorlarida serob, uni qulagan nemis samolyotlari qoldiqlaridan yasashadi, buñaqa mayda yumush bilan, asosan, qariyalar shug‘ullanishadi.

Mayin shabada esdi, kichkina bog‘da Foma urushgacha o‘tqazgan olma ko‘chatlari bor, ular hozir ancha qaddini rostlab olgan, tagini oqlash kerak, bo‘lmasa qurt-quzg‘un bosib ketadi. Uchinchi kuni Nyurka daraxtlarning tanasiga bo‘r aralashtirilgan suv surtib chiq-di, endi olmalardan ko‘ngli to‘q, ancha-muncha ro‘zg‘or ishini ham binoyidek uddalayapti, nima uchundir umid bilan darvozaga tikildi. Dalalar allaqachon ko‘kalamzorga aylangan, mana urush ham tu-gadi, askarlar uylariga qayta boshladilar, kimningdir yori qaytadi, kimnikidir esa, hammasi tushunarli, bizning Fomaning ham omadi chogjanmikan, unga ham qaytib kelish nasib qilarmikan, qaytadi,

tez orada, albatta, qaytadi. – Nyurka chuqur xo'rsinib qo'yadi, katta qizi Tanyaning ham bo'yi yetib qoldi, ayni kelin bo'ladijan palla-da hozir. Lekin kimga qayliq qiladi, urushdan sog'-omon qaytgan biron yigit topilarmikan, Tanya o'zi ko'zga yaqin qiz, bir yigitning ko'nglidan joy topishi aniq, qolaversa, nega hozir bu haqida o'ylashi kerak, odam hayot ekan, boshiga kelganini ko'raveradi. Shartmi fol ochish, bundan boshqa g'ami yo'qmi? G'ami bor – bor bo'lganda ham katta g'ami bor. Mana bir yildan oshibdiki, o'g'lidan biron xabar bo'lgani yo'q, boshiga nimalar tushdi ekan u bechoraning, hatto tirik ekanligi ham noma'lum.

Nyurka ko'zlarini pirpiratar ekan, qoshlarini chimirdi. Avvallari bog'dagi yumushlar o'g'llarining gardanida edi, mana hammasi o'ziga qolib ketdi, mayli, bu ham yaxshilikka. Yaqin o'rtada sodir bo'lgan voqealarni sarhisob qilar ekan, yodiga kecha Germaniyadan yuborilgan posilka tushib qoldi, chehrasi yorishdi. Kecha Fomadan posilka keldi, o'rtacha quticha, ustiga muhr bosilgan, ichidan yigirmatacha xushbo'y sariq xo'jalik sovunlari chiqdi. Kutilmagan jo'natmadan anchagacha esini yig'ib ololmadi, kechasi o'mniga yotsa ham uyqu kelmadi, «qanday ajoyib oilaparvar erim bor-a» xayolidan kechirdi u. Foma har doim shunaqa mehribon bo'lgan, haqiqiy erkak. Keyin birgalikda kechirgan farovon yillarini yodga oldi. Yillar davomida «oltinni tuproqdan tozalashiga to'g'ri keldi», ko'ribiszki, yonginasida havas qilgulik er turibdi. Bunaqasi butun olamda bo'lmasa kerak. «Jilla qursa, ikki dona o'zimga olib qolishim kerak» xayolidan o'tkazdi u. «Boshimni yuvaman, qizlar ishlatadi, bu badan sovun ko'rmaganiga qancha bo'ldi, axir, qolganlarini bozorga olib chiqaman. Ro'zg'orning bir kamiga yaraydi-da. Bo'lmasa bu teshik cho'ntak qachon yamaladi. Qizlarning kiyimlari uvada bo'lib ketdi, yangisini olish kerak.

O'rindiqqa suyanib, may shabadasiga o'zini tutar ekan, Nyurka hammasini qayta-qayta hisoblab chiqdi. Ertaga yakshanba, kechasiyoq qizlarni bozorga hozirlaydi, qo'liga sovun bo'lagini ola-di, ikki yuz rubldan bir so'm ham kamiga sotmasligini tayinlaydi. Xudo ko'rsatmasin, bir yuz ellikka baholashsa ham sotmaslik kerak, qancha oyoq tirab olishmasin narxini tushirmsliklarini tayinlaydi.

Shu bahona pul g'amlab olmasa bo'lmaydi, kim bilsin, ertaga yana qanaqa kunlar bor.

Tanyuxa – juda muloyim qiz, u otasiga, onasiga ham umuman o'xshamaydi, xushbichim, xushtabiat qiz. Kallayi saharlab qo'liga matoga o'ralgansovun bo'laklarini olib shaharga jo'nadi. Onasi bot-bot sovunlarini ho'l joyga qo'ymaslikni tayinladi.

Kenja Varka shaxsan Fomaning xohish-istiklari mevasi o'laroq dunyoga kelgan (Foma ketma-ket ikki o'g'il ko'rishni orzu qilib yurgan edi, taqdir uni ikkinchi qiz bilan siyladi). Varka haliyam uyg'ongani yo'q. Nyurka oddiygina dasturxon tuzadi, endi tezroq tomorqa ishlariga sho'ng'imasa bo'lmaydi, qolgan non va sutni stolning bir burchagiga surib qo'ydi, ustiga toza sochiq yopdi, o'zi esa uy yumushlariga kirishib ketdi. Varka g'ujanak bo'lib olib dong qotib yotibdi. Nyurka uning ustiga yengil choyshab tashlab qo'ydi, eshikni shovqinsiz yopib kolxozi tomonga ravona bo'ldi. Kecha brigadir unga urug' sepuvchilik qilishini tayinlagan. Ish og'ir bo'lsa ham, dahmazasi kam, ot aravaga ortilgan qopdag'i urug'ni yerga se-pib ketaveradi. Zum o'tmay tushlikka chaqirishadi. Bugun lavlagi urug'ini sepish kerak, bir yillik sabzavot, hademay bo'y ko'rsatadi.

Pochtachi Olga Nikita Bobka bilan suhbatlashib turib, qo'lini og'ziga karnay qildi:

– Nyurka xola, – uzoqdan Olganing tovushi eshitildi, – Char-chamang, sizga Foma amakidan xat bor, kecha berishga ulgurmagan dim.

Olga sumkasini ko'targancha uchib keldi, u xat olib kelganida odamlarning quvonchiga sherik bo'ladi. Hozir ham Nyurkadan kam sevinayotgani yo'q. Xatni Nyurkaning qo'liga tutqazdi, chaqqongina yo'liga ravona bo'ldi. Nyurka shosha-pisha yuzidagi ro'molini quyi sidirdi. Necha marotaba xat olmasin, xuddi birinchi marta olayotgan-dek qo'llari qaltiraydi, yuragi qinidan chiqib ketgudek po'kkillarydi, mana hozir yana hammasi boshidan boshlaniyapti. Biroz qaltirog'i bosilgach xatni ochdi, shosha-pisha ko'z yugirtirdi, xayriyat, biron shum xabar yo'q, endi ikkinchi marta bamaylixotir o'qib chiqadi. Foma obdan duysi salom yo'llagach o'z ahvoli haqida yozibdi, sog'-salomat yurgan emish, lekin Gustishni juda qattiq sog'inibdi, agar starshina Fedyuk Andriyan Timofeyevich ruxsat bergenida piyoda

bo'lsa ham Gustishga ravona bo'lishga tayyorligini aytibdi. Bu yer dan qancha olisdaligini chandalabdi, gap orasida yuborgan posilka si haqida ham qistirib o'tgan. Bu sovun Nyurka taxmin qilganidek ro'zg'orning bir koriga yarashini bilgan. Agar o'zi yaqin o'rtada qaytadigan bo'lib qolsa, hammasini jobajo qilishini yozibdi, bordiyu kechikkudek bo'lsa, sovunlarni qanday qilib saqlash kerakligini yozibdi. «Agar sovun bilan kir badanni ishqalamoqchi bo'lsa, avval sovunni ikkiga bo'lib olish kerak, yarimta sovun bo'lagini ishlatalish kerak, shunda sovun uzoq vaqtga yetadi ham yaxshi saqlanadi» deb yozibdi. Foma bu gapni g'oyat muhim deb hisoblagan ko'rindi, ustidan yana bir marta siyoh yurgizib, qalin qilib bo'yab qo'yibdi. «Tirnoq bilan ustini teshib ikki bo'lak qilish kerak» – «Yana ko'ngling nimalarni tusaydi» shu yerini o'qiganda Nyurka otga o'xshab pish-qirdi. Erining bu darajadagi mayda ishlarga ham aralashishi asabini buzdi. «Qanaqa saqlashni o'zim yaxshi bilaman», – «Dumbul, taqdир in'om qilib Germaniyada yuribdi-yu, tariqcha aqli yo'q. Germaniya dan sovunni qanday saqlash haqida xat jo'natiбdi».

Xatni buklab buramador yubkasining cho'ntagiga soldi, ro'molini yuziga tortib, yana urug' sepishda davom etdi. Xayoli Foma Alekseyevichga ketdi. Uning o'spirinligi, yigitligi, hatto o'sha uch yoshlik chog'idagi voqealarni ham esladi. Buni unga yoshi ulug'lar hikoya qilib bergen. Xullas, haqiqatmi yoki uydurma, o'sha paytlarda ertalabdan kechgacha tabordan bolaning uvil-lagan ovozi eshitilib turgan, shu sababli ham lo'lilar bu bola katta baxtsizlik olib kelishiga ishonishgan. Kunlarning birida lo'li uyuridagi ellikta eng sara ot o'z-o'zidan nobud bo'ladi. Lo'lilar kul-fatga bolani aybdor qilishadi va zudlik bilan Gustishga, qishloq chegarasidagi jo'xorizor ichiga tashlab ketishadi. Boyaqish zor-zor yig'lagancha shu yerda qoladi.

Nyurka aravaning yoniga keldi, xuddi oxirlab borayotgan urug' unga achinib shivirlagandek bo'ldi: «Bechora xotin, – boshida shivir-shivir pichirlash uyg'ondi, – eridan kelgan xat boshidan oxirigacha sovun haqida, bu yerda bir gap bor, nima ekan-a bu». Birdan miyasini yashin urgandek bo'ldi, aravani Varechka Chernayaga topshirdiyu, o'qday oldinga otildi. Bunaqa yugurishdan keyin nafasini rostlashi qiyin bo'ldi, nafasi bo'g'ziga tiqilib, og'zidan ajdarnikiga

o'xshash hovur chiqa boshladi. Tokchada turgansovun bo'laklarini oldi, ularga sanchish uchun nina qidirdi, kalava ipga sanchilgan bir ninani tishi bilan sug'urib oldi, keyin uni sovunga sancha boshladi.

— Jin urgur paxmoq kalla, — Nyurkaning baqirig'i uyda aks sado bera boshladi, — buni qara-ya! Yana nimalarni o'ylab topding. Oliftagarchilik qilib sovun yuborganini-chi, turish-turmushingni qara... Nyurkaning jag'i ochildi, — hali shu yerga kelasan-ku, qo'limga tushasan-ku, ko'rsatib qo'yaman senga, paxmoq kallaga.

Nina sovunning o'rtasiga yetganda nimagadir qadalib, to'xtab qoldi. Qattiq bir narsa ninaning o'tishiga xalaqit qildi, Nyurka qaysarlik bilan uni yana tiradi, lekin nina joyidan jilmadi, keyin nina qadalgan joyni kesib ko'rdi, yaqinroqdan ko'rish uchun ko'ziga yaqinlashtirdi, hayratdan og'zi ochilib qoldi, qo'llari shalvirab bo'shashib ketdi, nina qadalgan joyda soat murvatchasini eslatadigan kichkina-gina bo'lakcha yarqirab turar edi.

Nyurka ularni kaftiga olib ko'rdi. Endi ko'zları tinib, oyoqlaridan mador qochdi, lablari o'ziga bo'ysunmay dag'-dag' titray boshladi. U nima qilib qo'yganini endi tushundi. Hozir bir yaramas bozorga tushib talashib-tortishib sovun sotib oladi, uyiga borib sovunning ichidan qimmatbaho soat bo'laklarini topib oladi, ularni olib chiqib sotadi-yu rohat-farog'atda yashaydi. Ana, erining iltimosini qoyillatib bajardi. Nyurka oh tortdi, yuzi dokadek oqarib ketdi. Kulbaning u burchagidan bu burchagiga yurarkan, oh tortib, boshiga mushtladi. Axir Foma faqat sovun haqida valdiraydigan ahmoqlardan emas edi-ku, jin ursin seni alvasti, Olga Bobkovà posilka bilan birga xatni ham yetkazishga aqling yetmaydimi.

Nyurkaning miyasida bema'ni, uzuq-yuluq xayollar aylana boshladi. Bir amallab stulchaga o'tirib oldi, qo'l-oyog'i uvishar, g'alati ovoz chiqarib, ko'zları atrofga bejo alanglaydi. Atrofga alanglayotgan bo'lsa ham bir chekkada qo'rquvdan qotib qolgan Varkani payqamaydi. Nyurka bor kuchini yig'ib o'mridan turdi, dahshat bilan o'zini ko'cha eshikka urdi. Bu qilig'i bilan Varkaning o'takasini yordi, lekin hozir qizini o'ylaydigan ahvolda emas. Ko'chada tanishbilish uchradi, birontasi bilan gaplashmadi, faqat oldinga qarab yugurdi. Yo'lovchilar og'izlarini lang ochgancha ko'cha bo'ylab yugurayotgan «telba»ni tomosha qilishdi.

Dastlabki uch-to'rt kilometrni bir maromda bosib o'tdi, soni va boldiri o't bo'lib yondi, yuziga issiq shamol urildi. Orqadan qandaydir signal eshitildi, Nyurka ortiga o'girildi, orqasidan bir mashina g'irillab kelayotgan edi. Mashinaga yo'l bo'shatib yugurishda davom etdi, mashina oldinga o'tib oldi, lekin sal o'tmay yo'l chetida to'xtadi. Bu odamoxun, quvnoq haydovchi kampirshoga ko'rsatib qo'ymoqchi edi, lekin shalag'i chiqib ketgan mashinasi sira gapga kirmasdi. Mashinaning ichi va tashqarisi qirq yamoq, haydovchi kampirshodan o'zish uchun gaz bosganida motor pishqirdi, oldinga qarab bir sapchidi-yu jon berayotgan fildek zaif ingradi, joyida qotdi. Haydovchi ham bu shaloq aravaning «qiliq»lariga ko'nikib qolgan, bir yelka qisib qo'ya qoldi. Oldin ham bunaqa holat ko'p bo'lgan, bo'lganda ham son-sanoqsiz, haydovchining o'zi ham bilmaydi. Mashinaning shu holiga nima bor edi kampir bilan quvlashmachoq o'ynab. O'lik mashina bir marta og'ir harsilladi, keyin tinimsiz aksa urdi, qarabsizki yana oyoqqa turib oldi. Haydovchi ham yengil tortdi, darrov o'zini kabinaga urdi, dastakni tortib motorni o't oldirdi, jilla qursa yana biron kilometr yurib oladi, axir. Oldinda yana yugurayotgan kampirshoni ko'rdi. Mashina yana « hunar » ko'rsatdi, dastakni ortga surib, motorni kavlashga to'g'ri keldi, bu safar ancha qo'lini ushladi, peshonasidan muzdek ter chiqib ketdi. Mashina yana o't oldi, endi sog'lom motorning ovozi jaranglay boshladi. Haydovchi tamaki tutatdi, atrofdagi so'fito'rg'aylarning sayrog'iga qulqoq tutib turdi. Qushlar sayrog'iga bosh chayqarkan, o'ziga o'zi pichirladi:

— Ish berdi-ya! — o'zicha ming'irladi u, — mana sening jigaringda yara bor, mittigina qushcha, qushchang nimasi butun boshli orkestr bu.

Mashinani yana yo'tal tutdi, keyin ancha bo'g'iq ovozi ochildi, sog'lom motor ovozi yangradi, haydovchining ham dili yorishdi, bu safar hammasi binoyidek bo'lishidan suyunib yo'liga ravona bo'lди. Chamasi yigirma daqiqalar o'tgach yana o'sha marafonchi kampirsho — Nyurka Kudelinani uchratdi. Endi haydovchining hayrati ortdi, lekin sir boy bermay bir maromda yurdi, endi hech narsaga tushunolmay qoldi, nimalar bo'layapti o'zi, bu mashinaga, bu kampirshoga nima bo'lgan. Oradan besh, o'n, o'n besh daqiqa o'tdi, haydovchi shu ko'yi kampirning ortidan bordi.

– Seni qara-yu, qari alvasti, – dashnom bera boshladi u, – jiga-ringda yara bor. Kamiga olqishlangan sovet texnikasining ustidan kulayapsan. Sendaqalarni kunini ko‘rsatib qo‘yishadi hali.

Haydovchining erkaklik nafsoniyati qo‘zg‘ab ketdi, dastakni burib, tezlikni oshirishni boshladi, «bellashish kerak bo‘lsa, bellashaman» xayolidan o‘tkazdi u, shu onda belidan muzdek ter oqib tu-shayotganini sezib, huzursizlandi. Dam-badam yelkalarini chiqarib uchib ketayotgan kampirsho ham biroz qadamini sekinlatdi.

– To‘xta endi, jin urgur, – Nyurkaga yigirma metrlar qolganda haydovchi kabinadan boshini chiqarib baqirdi, Nyurka bu shilqimga e’tibor berib o‘tirmadi, yugurishda davom etdi, haydovchi yana baqirdi, yanada balandroq ovozda baqirdi, Nyurka qayrilib ham qaramadi. Haydovchi tezlikni oshirdi, Nyurkaga yetib oldi, kabinadan qo‘llarini chiqarib uni ushlab olmoqchi bo‘ldi. Begona qo‘ldan seskanib Nyurka muvozanatni yo‘qotdi, oyoqlari chalkashib yerga dumaladi, to‘xtagani sababmi otga o‘xshab pishqirdi.

– Esingni yeganmisan, tentak, – Nyurka haydovchiga yopisha ketdi, – nima men senga xonaki tovuqmanmi, o‘rdak yo g‘ozga o‘xshaymanmi, ushlaromoqchi bo‘lasan? Qanaqasiga hadding sig‘di menga qo‘l tekkitishga?

– Qo‘y, go‘zalim, meni koyima, kel, yaxshisi, seni olib borib qo‘yaman, – haydovchining ovozi ancha muloyim tortdi, tasalli bergandek yelkalaridan ushladi, – koftangning tagiga olti silindrli motor o‘rnatilganmi deyman, naqd uchib ketayapsan, signal chalaman, qaramaysan, baqiraman, qaramaysan, bu juvonning boshiga bir kulfat tushmadimikan deb ergashdim-da.

Nyurka o‘ziga kela boshladi, atrofida nimalar bo‘layotganligini tushundi, kabina va hayratdan dong qotgan haydovchiga qaradi, lekin haydovchi unga qapishib turganini payqamadi.

– Qani bo‘l, – shoshilib haydovchini mashinaga sudradi Nyurka.
– Onajonim mening, aql-u hushing rasomi? – haydovchi turgan joyida oyoqlarini mahkamroq tiradi, – senga bitta yo‘rtoqining burun kovklari yetmayapti xolos.

– Ketdik, ketdik endi, arzanda, – Nyurka qichqirib yubordi, – aqlli gaplaringni keyin gapirasani, muhim ish yonayapti, ish.

Nyurkaga mashina juda sekin ketayotgandek tuyuldi, shartta eshikni ochsa-yu, yana yugurib ketsa. Zejskgacha yana besh kilometr qoldi, Nyurka toqatsizlik bilan oynadan termiladi, yarim naqshinband qo‘ng‘iroqlarga qaraydi, nihoyat mashina bozor maydoniga kelib to‘xtadi. Nyurka uzoqdan ham qizining yorqin rangli ro‘molini tanidi, shu tomondagi mashina eshigini siltab tortdi, mashinani o‘chadigan vaqt-u soati yetgan chamasi shu yerga kelib o‘chdi, Nyurka mashinadan o‘qdek otilib chiqdi, yo‘lidagi odamlarni turtibsurtib qizining oldiga yugurdi. Haydovchi rasmiyatichilik yuzasidan bo‘lsa ham mashinani qulflagan bo‘ldi, keyin voqealar rivojiga qiziqib Nyurkaning ortidan ergashdi. Nyurka Tanyaning oldiga kelgani-da u oxirgi sovun bo‘laklarini baland bo‘yli, oppoq, katta jimjimador shlapa qo‘ndirib olgan xonimga sotayotgan edi. Xonim sovunni sumkasiga joyladi, nazokat bilan pulni sanab qizga uzata boshladi. Nyurka hech narsa demasdan xonimning sumkasiga yopishdi, nisbatan yuzada turgan sovunlarni yulib oldi, xonimning rangi o‘chdi, o‘takasi yorilay deb sumkasini quchoqlab ortiga tisarildi.

— Ber, ber, pullarini qaytarib ber, — Nyurka qiziga o‘shqira ketdi, xuddi bezgak tutayotgandek Tanyaning qo‘llaridagi pulga yopishdi, — Obbo, mening tunganmas anduhim, hammasini sotib bo‘libdi-ku, fagat ikkita qolibdi! Adoyi tamom bo‘lgan bu bosh hozir yorilib keta-di, — ha, nima bo‘ldi, nega baqrayasan, senga pullarini qaytarib ber dedim, karmisan, nima balo, o‘zimizga kerak deyapman. Onajonlarim mening!

Nyurka biroz o‘zini bosib oldi, atrofda ancha-muncha tomoshabin ham to‘planib qoldi, kaftidagi lattaga o‘ralgan ikki sovunni mahkam g‘ijimladi, biron narsani valaqlab qo‘ymaslik uchun og‘zini yopdi. Bu orada begona xonim uni insofga keltirishga urinardi, hatto sovunlarga qo‘shib to‘lashini aytdi.

— Bermayman, sovun sotilmaydi, o‘zimizga kerak, — Nyurka xonimni jerkib berdi, shartta og‘zini ochdi-da sovunlarni tiqib yubordi. Xonim ham zarda aralash keta boshladi, Nyurka uni to‘xtatmoqchi bo‘ldi, lekin xonim shuncha gapdan keyin ham qayrilib qarashni o‘ziga ep ko‘rmadi.

— Obbo! — Nyurka lablarini qimtib gapira boshladi, — bechora boshim mening, hozir jonim bo‘g‘zimdan otilib chiqadi, o‘tda ku-

yib kul bo‘lgur, paxmoq kalla, – Nyurka erini nomaqbul so‘zlar bilan so‘ka boshladi, bu payt ketma-ket aksira boshladi, – bechoragini jonim mening, – aksa urish kuchayganidan ko‘zlarini ocholmay qoldi, – kechiringlar meni, marhamatli insonlar, chorasiz qoldim, mutlaqo chorasiz!

Hech narsaga tushunolmay Tanyaning diqqati oshdi, atrofnı hayratga to‘lgan ko‘zlar bosib ketdi, bu orada kimdir ko‘z yoshi ham qilib oldi, bir xonim pulini o‘g‘irlatganini bilib dod soldi, olomon to‘plangandan to‘lib toshdi, kimdir «tezroq militsionerni chaqirish kerak» deb uqtirardi. Nyurka o‘lim kutib turmasligi, to o‘lim kelgunicha nimadir qilib ulgurish lozimligi, foniy dunyoning boshiga solgan kirdikorlari haqida vaz o‘qidi. Alaloqibat to‘planganlardan o‘zini shifokorga olib borishlarini yolvorib so‘radi, peshonasida o‘lim qaqqayib turganini bot-bot gapirdi. Nihoyat, bir yarim soatlar o‘tib chamasi uzun navbatda turganidan so‘ng Nyurka o‘ziga jilmayib, qiziqsinib qarab turgan doktorning qabuliga kirdi.

- Nima dedingiz, eee, haligi, qayeringiz og‘riyapti?
- Doktor, tug‘ishganim mening, soat yutib yubordim... yordam qilmasang, o‘lib qolaman.
- Soat... hm, g‘alati-ku, qancha kattalikda?
- Qancha kattalikda? Mana shuncha! – Nyurka kaftining yarmini barmog‘i bilan bo‘lib ko‘rsatdi, keyin yaxshiroq ko‘rishi uchun qo‘lini doktorning tumshug‘iga qadadi.
- Durustgina kattalikda ekan, – kasbi yuzasidan yana surishtira boshladi doktor, uning peshanasida mayda uchqunchalar tovlandi, qo‘llarini xalatining cho‘ntagiga tiqdi, – qanday qilib yutib yubordingiz?
- Balki sal kichikroq bo‘lgandir, – Nyurka soatning o‘lchamini kichraytirib ko‘rsatdi, doktor katta-katta barmoqlarini qisirlatib o‘ynaganda, yuragiga g‘ulg‘ula tushdi.

Soatning hajmi kichraygach doktor ham xandon otib yubordi. Bemorni yanada tinchlantirish uchun tilini chiqarishini so‘radi. Qornining bir-ikki joyini bosib ko‘rdi, Nyurkaning a’zoyi badani qaqshab ketdi, bemor sog‘lomligiga ishonchi komil bo‘lgach doktor qo‘llarini chayqadi.

– Bo'shsiz, azizam, ketaverishingiz mumkin, – qo'lini sochiqqa artar ekan, yelkasi osha Nyurkaga bejo qaradi, – soatni ikki kundan keyin olasiz, ehtiyotkorroq bo'lsangiz, albatta, navbatdag'i... tura qolning endi, bo'shsiz, dedim-ku.

– Doktor, doktor, nima bo'ladi endi?

– Shaxdam-shaxdam yurasiz, tinimsiz sayr qilasiz, qancha tez harakat qilsangiz, shuncha erta olasiz, – xayrlashish ma'nosida yelka qisar ekan, doktor odatiy shikoyatlardan zerikib turganida g'ayritabiyy shikoyat bilan kelgan bemorga tabassum qildi.

* * *

Tangrining marhamati bilan bo'lib o'tgan ishlarni Gustishda hech kim bilmadi (Nyurka qizlariga takror-takror hech kimga lom-mim demaslikni tayinlardi). Agar demobilizatsiya ishlarini yakunlab uyiga qaytgan Foma Kudelin bo'limganida gustishliklar umrbod bu hangomani eshitish sharafidan bebahra qolgan bo'lar edilar. Foma xotini va bolalariga o'ktam, tetik ko'rinish uchun qayin tagida o'zini rostladi, biroz o'ylanib turdi. Kira solib Nyurkani, qizlarini bag'riga bosdi, qizlar yig'i-sig'i qilishdi, nima uchundir Nyurka uning qu-chog'idan bo'shanib burchakka ketib qoldi, yuzini qo'li bilan to'sib oldi. Foma bo'yi yetib qolgan Tanyani, keyin Varkani qayta-qayta bag'riga bosdi.

– Mityadan biron xabar bormi? – burchakka qapishib o'z ko'yida yonayotgan Nyurkadan so'radi u, xotinning holatidan taaj-jubga tushdi.

– Oh, dadajon, yo'q, – Nyurkaning o'rniga Tanya javob berdi, otasining orden va medal taqilgan ko'ksiga boshini qo'ydi, – u dom-daraksiz ketdi, ko'rini turibdiki...

– Nima, nima ko'rini turibdi senga u yerda? Ninachimi? – nimadir urish uchun qo'lini shaylab turgan Nyurkaga qarar ekan, so'radi Foma, – hech narsa ko'rini turgani yo'q, biz simtikanlar ortida qolgan qancha birodarlarimizni ozod qildik, son-sanog'i yo'q! Lekin hali o'sha yevropasida qancha norg'ul yigitlarimiz zindonband bo'lib yotgan ekan... biz ularni mana bunday qilib, barmoqlarimiz bilan ezib tashladik, – Foma ko'rsatkich barmog'i bilan stolni ezib

ko'rsatdi, – fashist degani endi joyidan turolmaydi, – u xotini va bolalarini yana bag'riga bosdi, – oh, go'zallarim mening, bo'ylaringiz cho'zilib qolibdi, endi doim birga bo'lamiz, o'la o'lguncha. Hay mayli, qopni ochinglar, sizlarga sovg'a olib kelganman... yuragim intiqib ketayapti, bir atrofni aylanay.

Urush bilan hisob-kitob shu zaylda tugadi, Foma uyiga to'rt muchasi sog'-omon kirib keldi. Nyurka Foma qizlariga olib kelgan sovg'alarni ko'rib ko'zi quvnadi, lekin to'rt yillik yetishmovchiliklar girdobida o'tgan hayotga shunchalik o'rganib qolgan ekanmi, xayoli ertaga nima qilaman, keyingi hafta nima qilaman qabilidagi hisob-kitobga ketdi. Foma Salovinodagi tashlandiq jarlikka bordi, bu yerlar unga qadrdon. Kolxozlar qurilgunga qadar bu yerda uning mo'jazgina kulbasi bo'lardi. U shu kulbada tug'ilgan, uylanib qaylig'ini ham shu yerga olib kelgan. Bu yerdagi yong'oqning shovulashini yaxshi ko'radi. Qo'liga tamaki olib cho'ntagidan qimmatbaho sadaf bilan bezatilgan olov oldirgichni chiqardi, tamaki tutatdi. Orqasidan kuzatib turgan Nyurkaning nigohlarini payqagani hamonoq ortiga o'girilib qaradi. Tirjaygancha uning oldiga bordi, yelkasiga qo'llini tashladi. Nyurka zabardast qo'llarning tagida serrayib qoldi.

– Oh, Foma, Foma, – qo'llaridan quchib shivirladi u, – xuddi hammasi tushga o'xshaydi, nahotki, shu la'nati urush tugagan bo'lsa.

– Tugadi, Nyurka, tugadi, – oshiqib javob berdi Foma, – O'zim birinchi guvohiman. Men yigitlarimiz maydonda qanday qon kechganini ko'rdim. Mayli, nima derdik. Yur, o'rindiqqa o'tiramiz. Qizlar yumushlarini qilib olguncha shu yerda o'tira turamiz. Orzularim sarob bo'layozganda, men uyga borganimda Nyurkamning oldida ko'zlariga termilib o'tiraman deb orzu qildim, boshqa hech narsa kerak emas.

– Haqsan, Foma, boshqa hech narsa kerak emas.

O'rindiq yoniga kelib bir-birining quchog'idan bo'shandi, xuddi yoshlikdagi kabi o'rindiqqa suyanib chaqchaqlashishdi, quyosh ham pastga og'a boshladi, oxirgi qizg'ish nurlaridan ko'zi qamashgan Nyurka erining yelkasiga boshini qo'ydi, Foma bundan biroz o'ng'aysizlandi, chunki u odamlar oldida xotini bilan qo'lliqlashishdan doim uyalgan, qancha vaqt o'tmasin bu holatdan yana o'zini nochor his qildi.

Fomka xodaga suyandi, xayoli o'sha Berlin xotiralariga ketdi, komandir hushtagini chalarkan, hamma pechakzor ustidan o'rmalay boshladi, Fomkaning ro'parasidan bir kichkina qutichada soatlar chiqdi, uni qo'yniga yashirdi, harbiy tamoyilga ko'ra urush maydonidagi har qanday buyumni o'zlashtirib olish taqiqlanadi. Fomka uni ming azob-uqubat ichida o'zida olib qoldi, Gustishga yuborish yo'llarini qidirdi, nihoyat,sovun bahonasida topdi.

Kechasi qishloq doshlar yig'ilib o'tirarkan, Fomka soat hangomasini gapirib berdi, kimdir buralib qolguncha kului, kimningdir ko'ngliga sig'madi, bundan ko'ra kattaroq tashvishlari borligi sabab yelka qisib qo'ya qoldi. Lekin bizning Varechka Chernaya Nyurkaga qo'llarini ko'rsatib yig'lamsiradi. Aytishicha, bu sho'rlikni toza laqillatishibdi, oza-yoza shaharga tushib Sovun sotib olgan ekan, bechoraning qo'lidan yulib olishibdi, nahotki, ayolga shunchalar shafqatsizlik qilish mumkin bo'lsa, lekin har holda pulini yulib olishmaganiga xursand.

10

Gustishliklar uchun qirq oltinchi yilning yozi nihoyatda og'ir keldi. Deyarli, mavsum oxirigacha odam bolasining bardoshi sinovdan o'tdi, suv izlab ming kilometrcha dala-dashtni kavlab tashlashdi hisob, hozir hamma yoq o'ydim-chuqur. Odamlar bu o'ydim-chuqurlar orasida yurib suv tintiydi. Mayning oxiriga kelib daraxt-u o'simlikdan putur ketdi, iyunda esa bug'doy aynidi, avvaliga ikki-uch bosh boshoqning ildizi qurib, rangi so'lg'in bo'lib qoldi, bir necha kun o'tib uch-to'rt metrdagi boshoq bilan shunday hodisa yuz berdi, qarabsizki, bir hafta orasida butun dala qovjirab qoldi. Iyunning oxiriga kelib pastlik, hatto botqoqlardagi suv ham bug'lana boshladi. O'simliklar qovjirab ketdi, qushlar-u hayvonlar, odamlar ham zaiflashib qoldi, hatto traktorlar ham nimjon bo'lib qolganga o'xshaydi, kuni bo'yi yerdan bitta toshni ko'tara olmaydi. Ko'pni ko'rgan qariyalar isitma aralash o'tadigan ocharchilik yillari boshlanishini bashorat qila boshladilar. Makar amaki Gustishdagi eng yoshi ulug' qariyalardan biri. Bu ketishda uzoqqa bormasligiga ko'zi yetib uchinchi marotaba raisning oldiga yo'l oladi. Maqsadi – rais-

dan tobut uchun taxta olish. Makar amaki tobuti oddiy tobutlardan bo'lishini istamaydi, u qarag'aydan ishlangan, yengil va xushbo'y, eng muhimi havo o'tkazib turadigan bo'lishi kerak. Makar amaki yoshiga mos ezmalik bilan tobut taxtasini mukammal tasvirlab beradi. Hatto eng mayda jihatlariga ham to'xtaladi, Kulikov Makar amakining tobut haqidagi ma'ruzasini tinglar ekan, ko'zlarida xuddi aqldan ozgan kishinikiga o'xshash ifoda zuhur etdi.

— Bajaramiz, Makar amaki, — umuman boshqa masalani o'ylar ekan bosh irg'adi u, — qarag'aynikini olamiz, hech bo'limganda ikki qatorini qoqib qo'yamiz. Sen boraver, buyog'idan xotirjam bo'l, hali kuch bor ekan, bir kor-holga yarab tur.

— Ikki qator nimaga kerak, Timosh? — xotirjamlik bilan gap boshladi Makar amaki, — ortiqcha og'irligi tushadi. Demak, qachon tayyor bo'ladi? — so'radi u.

— Nima?

— Tuxtalar-da, qachon olib kelasan ularni? Olib kelsang ancha ko'nglim xotirjam tortgan bo'lardi.

— Oh, amakijon, buncha bitta gapni qaytaravermasang, — o'qrayib qo'ydi Kulikov, — issiq boshingdan o'tgan ko'rindi, keyingi hafta olib kelamiz... qancha kerak? Gap bitta, esdan chiqmaydi.

— Ertami kechmi, Xudo dargohiga chaqiradi, yuvib-taralmagan ahvolda ...

— Olib kelaman, so'z berdimmi, demak, bajaraman, — Kulikov cholning xarxashasidan charchadi.

O'zicha nimalarnidir g'uldirab Makar amaki chiqib ketdi, hassasi do'qillatgancha borarkan yoz quyoshi boshini ayovsiz kuydirdi. Xiyol salqinka o'tib olgach joni orom oldi, mayin shabada quyosh kuydirgan sochlarini silab o'tdi. U hozir urush vaqtida kesilgan o'rmon yalangliklaridan sekin o'tib ketayapti. Makar amaki raisdan norozi bo'ldi, lekin nima bo'lganda ham tez orada taxtalarni olib keliishi haqidagi va'dasiga ishondi. U bu yo'llardan anchadan beri ketayotganga o'xshaydi, xuddi bu yo'lning adog'i yo'qdek. Xuddi bu yo'l tinimsiz oldinga itarayotganga o'xshaydi. U zo'rg'a bir xodani quchoqlab, unga o'tirib oldi, butun og'irligini xodaga tashlab yengil tin oldi, endi yo'l yura olishiga ko'zi yetmadi, yo'l esa borgan sari jilvalanib uni o'ziga tortmoqda edi, u hozirgina yo'ldan kelayotgan

ovozni eshitdi, bu uni o‘ziga chorlayotgan yo‘lning ovozi. Shu onda qulqolariga shu ovozdan boshqa hech narsa kirmasdi, u hozir janozada qarindoshlarga tarqatiladigan non haqida aytishni unutganini ham eslamadi – endi unga bunaqa mayda masalalarning umuman qizig‘i yo‘q.

Lekin Gustishda hali hayot bilan rishtalari uzilmagan har qanday insonning asosiy tashvishi qurg‘oqchilik bo‘lib qoldi, quduqlarni mog‘or bosdi, tomorqa jo‘yaklari qaqrab ketdi, uzoq daryo qirg‘oqlaridan suv tashib keltira boshlashdi, har kuni ertangi yomg‘ir iltijosi bilan uyquga ketishadi. Ayrimlar tushiga kirgan momaqaldoq, yulduzsiz osmonni kelayotgan mudhish kunlarning daragi ekanligi haqida safsata sotdi. Lekin hammaning dardi o‘zi bilan. Masalan, mushtipar Varka Chernayani olaylik. Uning tomorqasida yashnab turgan kartoshkalar avval sarg‘aydi, kun o‘tmay so‘lib bir tomonga «yotib» qola boshladi. Nimadir qilish kerak, lekin aynan nima? Ustiga-ustak shu kunlarda eri ham o‘zini g‘alati tutayapti. Varechka ich-ichidan his qilib turibdi, eridagi o‘zgarishlar qurg‘oqchilik bilan bog‘liq emas. Hammasi Nastka Plyushixinaning silliqqina g‘ayirligi bilan bog‘liq. Buni qarangki, uning eri urushdan qaytmadi. Albatta, qurg‘oqchilik emas, qurib-qaqshagan tomorqa ham aybdor emas. Nastasya Plyushixina, balki, Volodka kela solib uning oldiga yugur-gandir, eski oqpadar. Varechka har kuni Tangridan yomg‘ir so‘rab iltijo qilar ekan, bu yaramasga ham insof so‘rashni kanda qilmaydi: «yo qodir Tangrim, quling Vladimirga to‘g‘ri va begunoh yo‘lni o‘zing ko‘rsatgin», vaqt topdi deguncha Zejskdagi rohibaning oldiga chopadi. Rohibalarga ikki marta o‘ntadan tuxum olib bordi, evaziga «jirkanch» bir duoibadni o‘rgatishdi, aytishlaricha kuniga ikki marta duoga hozirlanib ichida qaytaradi, ko‘rbsizki, hammasi joyida-da. Erta tongda xayoliga bir fikr keldi. Varechka bog‘da turardi, sxafaq yoyilgan, atrof qonday issiq, yana quruqshagan yer, o‘rmon yoqasiga cho‘kkaladi, quduq tomondan chelaklarning darang-durungi eshitiladi, ayollar suv loyqalanib ketmasdan g‘amlab olishning payida shoshiladi. Odamzodning suvgaga tashnaligini kuzatarkan, lablari ni qimtidi. Ichida astoydil iltijo qilib cho‘qinib oldi va birdan dong qoldi: shu tiniq osmonda, Varechkaning ro‘parasida o‘rmonning ustini avvaliga qalin tuman qopladi, keyin tuman tarqala boshladi va

uning ro'parasida nurli siymo paydo bo'ldi. Varechka uni shu zahoti tanidi. «Ishon, ishon, insonlar ishonmadilar, shuning uchun menden jazo keldi» – xuddi yelkasi osha kimdir pichirlayotgandek bo'ldi, u ovozga mahliyo bo'lgancha cho'qinib yolvora boshladi. Peshonasini qaqragan yerga bosdi. Orombaxsh halovat vujudini qamrab oldi, ko'zlaridan sevinch yoshlari shashqator bo'lib oqa boshladi. Varechka ko'zlarini ochdi, quyosh allaqachon o'rmon ustini egal-labdi. Ruhi tetiklashdi, o'ziga yuborilgan mujda va bundan buyon qanday yashashi lozimligini o'yładi, hozir unda qandaydir par-chalanish bo'lganga o'xshardi, u shu kundan e'tiboran bu dunyoda faqatgina o'zi uddalashi mumkin bo'lgan vazifani bajarish uchun dunyoga kelganini tushunib yetdi. Erining muammosi ham bir chekkada qolib ketdi, u shu kundan alohida uxlashni boshladi. Erining asosli e'tirozlariga qattiq dashnom berdi. Aytishicha, u hali buning mohiyatiga tushunmas emish. U yil davomida Xudoga tavba-tazarru qilishi kerak, bu shunchalar nozik va mashaqqatli ish emishki, hatto mayda bo'laklarga bo'linib ketsa ham ortga qaytmaydi.

– Vo'y bo', yolg'izlikni sevuvchi kampirshoni qarang, – gap qistira boshladi Volodka Malla, yostig'ini to'g'irlab oyna tagidagi karavotda o'tirgan Varechkani kuzatarkan, – ha, nima, Varvara, qanaqadir afyunlaring yetmadimi?

Varechka lablarini qimtidi, lekin javob qaytarmadi, indamasdan o'rniga cho'zildi va ustiga yengil choyshabini tortdi. Hammasi shu zaylda davom etdi, necha yillik turmush o'rtog'i sira uni tushuna olmasdi, u ham qarashlarida sobitqadam, ortga chekinmaydi. Bir marta Volodka Malla erkaklik irodasini ko'rsatmoqchi bo'ldi, lekin ro'parasida toshday qattiq bir to'siqni ko'rdi, mana bunisi endi hazil emas. Hamma o'z aqliga yarasha ish ko'radi. Volodka muammoning yechimini shu ondayoq topdi, u endi bor mehrini, e'tiborini Nastasyaga beradi. Nastasya – e'tibor ramzi. Birgina imosiga hamma ishini qo'yib, yugurib keladi. Shunday bo'ldi ham. Nastasya kundan kunga ochilib, erkaliklar qila boshladi. Oxirgi kuni esa mutlaqo. O'sha da-qiqalarda shunchalik yaqinlikni tuydiki, Volodkaning burun kovaklarri xuddi otnikidek kengayib ketdi. Unga yaqinlashishga jur'at qilishi kerak, xayolidan kechirdi Volodka. Bundan buyog'iga nima qilishini

o‘ylarkan, ichida shaytoniy so‘zlarni aytib so‘kindi, bog‘ga kirib bিroz aylangach hovuridan tushdi. Insonlar o‘rtasidagi uzilib ketgan rishtalar birgina kichik sabab bilan bog‘lanib ketishi hech gap emas, gustishliklar Volodka Malla o‘z gunohkor fikrlari botqog‘iga botib uyg‘ongan kunni hali-hamon yaxshi eslashadi, o‘sha kuni sxafaq yorishib bo‘lgan edi, bizning Varechkamiz esa odatdagidan ancha erta uyg‘ondi va shu zahoti tushunib yetdiki, o‘sha uzoq kutilgan kun – aynan bugun.

Xotirjamlik bilan o‘rnidan turdi, joyini yig‘ishtirib, atrofni epaqaga keltirdi, nonushta tayyorlar ekan, bot-bot ostonaga qarab qo‘ydi. Hammasi tushunarli, bugun ilohiy mujda eri va uyatsiz me-gajin Nastasya Plyushixinani o‘zi bilan osmonga olib ketadi, lekin buni qanday qilar ekan-a? Atrofga alangladi, tovaga tovlanib tur-gan va shu bilan birga juda g‘alati yog‘ni quydi, keyin yog‘ni yana yashirib qo‘ydi. Erining uyg‘onishini kutib o‘tirmay ishga tayyorgar-lik ko‘rdi, kecha brigadir Yefrosinya Deryugina bilan so‘lib qolgan kartoshkalarning tagini yumshatib chiqishini tayinlagan. O‘tgan yili Yefrosinyaning sigiri rosa tomosha ko‘rsatgan, kasal bo‘lib qolgandi chog‘i, zo‘riqib nafas olib, odamning ustiga bostirib keladigan bo‘lib qolgandi. Varechkaning sigiridan ko‘ngli to‘q, uni dalaga qo‘yib yu-borsa tamom, hammasini o‘zi boplab tashlaydi...

– Qo‘ysang-chi, qo‘shnijon, bekorga xavotir olayapsan, – tasalli berdi Varechka, – birinchi marta emas, bilaman sigiring qanaqaligini.

– Sen uni ushlab tur, ushlab tur, – yana bir marta takrorladi Yef-ro-sinya. – Ahmoq, u mening ro‘zg‘orimning yuragi. Qancha tixirlilik qilmasin, baribir o‘zi tortadi, – Yefrosinya sigirning biqiniga qo‘ngan pashshani ohista qo‘rdi, bu orada Varechka uchinchi bahorni qarshi-layotgan Milkani yangi egatga soldi.

Ertalabdan kun qizidi, sigiri bilan saf tortgan kampirlar jamoasi bir necha marta yerni haydab chiqdi. Quyosh dalaning qoq tepasi-da turib qimirlagan jon borki jizg‘anak qiladi, kampirlar ro‘molini qoshigacha tushirib yana sigiriga xipchin soladi. Ozg‘in sigirlarning og‘ir shoxlari nari borib beri keladi, uzoqlarda quyoshda yaltirab ko‘zni oladi, yer esa behush, – har tomonda bashorati berilgan alamli kun kelganga o‘xshash manzara hukmron.

Milka orqasidagi qo'shni ergashtirib sekin qadam bosadi, Varechkaning sabr kossasi to'ladi, qancha ortidan itarmasin, sira tezlashmaydi, tuyoqlarini obdan namoyish qilib keyin yerga bosadi. Har tomondan so'nalar kelib yopishib sigirlarni battar ishdan qoldiradi.

— Xonimlar yana bir marta borib-kelamiz — keyin sigirlarni bo'shatasizlar, — dedi Stepka Bobok, — zabonsiz jonzotni qiyab yubordik, harsillashini qarang.

Varechka Chernaya Stepkaning gaplarini ma'qullab ortidan ergashdi, hamon yuzidan ilohiyot ko'rsatajak mo'jizani kutayotganligi zuhur qilib turibdi, lekin sigirni xo'jayinidek sabr-bardosh sohibi edi deb bo'lmaydi, hadeb biqiniga nuqta solishganidan jonivor holdan toydi, atrofga salqin bag'ishlayotgan ko'lga yaqinlashgach qulqlarini o'ynatdi, uzun tilini ko'rsatib ko'l tomonga shataloq otib ketdi, Varechka zo'rg'a unga yetib oldi.

Salqin va orombaxsh Ojogov ko'lining sati ham ancha cho'kkan, qirg'oqlari taqir bo'lib qolgan, gustishliklar yoz kunlariда bu yerda cho'milishni yaxshi ko'rishardi, ayniqsa, o'spirinlar. Hozirgi kunda eng bahsli masalalardan biri ko'lning o'rtasida nima borligi. Aytishlaricha, bu jumboqni yechish hammaga ham nasib qilavermagan. Oxirgi marta bundan yigirma yil muqaddam navqiron Zaxar Deryugin ko'lning o'rtasigacha suzib borgan, suvning tagida ko'zlarini ochib atrofni tomosha qilgan. Va yana aytishlaricha, uning atrofida katta qora girdob paydo bo'lgan, zum o'tmay yashil tusga kirib tovlana boshlagan. Lekin bu gaplarga ancha bo'ldi. Hozir Zaxarning o'g'li Yegor ham hamqishloqlari bilan ko'l o'rtasigacha borishga bahs boylashgan. Lekin hozir miyasi o'zining tashvishlari bilan to'lib toshgan Varechkaga bu bahsning zig'ircha qizig'i yo'q. Lekin shu yerda Varechka, Yefrosinya va uning sigiri, qo'yingki, ko'lga cho'milish uchun kelgan Yegor va barchani hayratga soladigan bir ish sodir bo'ldi.

Sigir qonib suv ichgach bir zumga ko'zlarini yumdi, yana qu loqlarini o'ynatdi, endi u bekasining keyingi rejadagi ishlarini bajarishta tayyor. Varechka bir zumga qo'lidagi arqonni qo'yib yubordi, shu zahoti betavfiq sigir o'zini suvga otdi, orqasiga qo'shilgan qo'shuning ortidan shaloplab suvga tushdi.

– Oh, jonivor cho‘kib ketdi, o‘troqlar, kunim bitdi, – qo‘rquvdan dod soldi u, – shu paytda o‘lsa ham shu hayvon bilan birga bo‘lish uchun o‘zini suvgaga otmoqchi bo‘ldi, bir payt ko‘l yuziga qo‘sh va uning mayda-chuydalari ortidan sigirning boshi ko‘tarildi. Sigir qulog‘i va tumshug‘ini suvdan chiqardi, keyin narigi qirg‘oqqa qarab suv kecha boshladidi. Quruqlikka chiqqach dumini dikkaytirdi, quvonchga to‘lgan dumaloq ko‘zlarini ortiga bir-ikki tikdi-yu, shataloq otib qochib ketdi. Varechka yerga o‘tirib qoldi, sigirning qilgan ishidan xo‘rligi kelib yig‘lab yubordi. Qolganlar sigirlarini mahkamroq ushslash payida bo‘ldi, oldida ehtiyyot shart arqon olib yurmaydiganlar sigirining bo‘ynidan ro‘molini o‘tkazib oldi.

– Yo Xudo, issiqni qarang-a, xuddi avjiga chiqqanga o‘xshaydi, teri qolib ichkarini ham yondirib tashladi-ku, – zorlandi Stepka Bobok.

Varechka Yefrosinyaning ortidan dalaga ergashdi, tinimsiz sigiriga omonlik tilab iltijo qildi, biron kimdan sigir olib turishga bardoshi yetmadi. Yefrosinya unga tasalli berdi. Keyin sigirining oldiga bordi, sigir suvlab bo‘lgach ko‘l yoqasida o‘tlab yurgandi, o‘zi tomon kelayotgan bekasini shu zahoti payqadi. Yefrosinya uning boshini, biqinini obdan siladi, keyin qo‘shdan bo‘shtadi. So‘ng yana ayollarning oldiga qaytdi.

Quyosh xuddi olov purkayotganga o‘xshaydi, inson boshi issiqdan yonib kul bo‘ladi. Ayollar bor kuchini yig‘ib ishga zo‘r beradi, jilla qursa bir soat oldin ishni tugatgisi keladi. Shu payt Varechkaga yengil shabada yelkalarini silab o‘tgandek tuyuladi, o‘ziga ishonmay ortiga o‘giriladi, qarasaki, o‘rmon tomondan osmonni nimadir to‘ldirib kelayapti.

– Yo Rabbiy, o‘rtoqlar, bulut kelayapti, bulut, – bor kuchi bilan baqirdi u, endi ancha kuchaygan shamolga bag‘rini ocharkan, ayollar ham sarosimada Varechkaning ortidan o‘rmon tomonga o‘girildi. Kimdir cho‘qindi, kimdir yoshga to‘lgan ko‘zlarini mahkam yumib oldi, osmonni gumburlagan ovoz tutdi, yer bir usq nuqtasidan ikkinchi nuqtagacha darz ketdi, osmonda nimadir ucha boshladidi.

– Ber, ber, ber! Marhamatingni darig‘ tutma, Rabbim. In’om qil, Qodir egam, in’om qil, – har tomondan iltijolar yangray boshladidi,

ayollar o‘zini panaga olgan bo‘ladi, keyin yana umidvor qo‘llarini o‘rmon tomonga cho‘zib iltijo qila boshlaydi.

Shamol kuchaygandan kuchaydi, osmon ko‘tarilgan chang-to‘zon va chaqindan xira tortdi. Hamma daladan ancha uzoqdagi Solovin jarligi tomonga qochdi. U yerda ham quruq shamol og‘izburunlarini qumga to‘ldirdi, shamol keng yubkalarini har tomondan tortqlab ochib tashladi.

– Karami keng egam, najotkor Iso, bizdan marhamatingni darig‘ tutma, – jiqqa ho‘l ko‘zlarini artarkan yolvordi Varechka. – Marhamatingni ko‘rsat, u bizning ohimizni eshitdi, eshitdi, endi yomg‘ir yog‘adi.

Kutilmaganda hammasi boshqacha tus ola boshladi, nihoyatda kuchli shamol to‘lqini keldi, hammayoqni ag‘dar-to‘ntar qilib tashladi, bir zarb bilan hammani yiqitdi, ayollar bir-birlariga qapishib ketishdi, quyosh butkul g‘oyib bo‘ldi, atrofni zulmat qoplab, momaqaldiroq chaqa boshladi.

Har tomondan ayollarning dod-fig‘oni keladi, hammasi birbirining ustiga yiqilib, aralashib ketgan, faqat Varechka sal narida to‘zigan yubkasini tushirib, o‘zini o‘nglashga tirishadi. Stepka Bobok turib olish uchun jon holatda Varechkaga osiladi. Yefrosinya ham jon holatda tikka turishga intiladi, yiqilganida lat yetgan oyog‘ini bazo‘r tiraydi, bu orada yerni larzaga solib ikkinchi to‘lqin keldi. Havoga qo‘pchigan chang-to‘zon shamolga ergashib uzoq-uzoqlarga uchib ketdi. Odamlar o‘zlariga kelib ko‘zlarini ochganlarida boshlari ustida yana o‘sha yondiruvchi osmonni ko‘rdilar. Uzoq sharq tomondan gumburlash va quyuning ovozi keladi.

Varechka qo‘llariga tayanib o‘rnidan turdi, shu zahoti yubkasi dan bir uyum tuproq sidirilib tushdi.

– Gunohkorlik sabab, – oh tortdi u, – gunohkorlarni ko‘rgan, ularni ko‘rish, bilish u uchun hech narsa emas, gunohga botgan qishloq, gunoh, gunoh!

Stepka Bobok umidsiz yuzini artdi, qo‘llarini Varechkaga cho‘zib o‘rnidan turib oldi. Hamma boshini quyi solib birin-ketin o‘rnidan tura boshladi.

Qayerlardandir kelib qolgan quyun bir tomchi ham yomg‘ir bermay Gustish osmonini tashlab ketdi, lekin gustishliklar uni keyin ham uzoq vaqtgacha eslab yurishdi.

U izsiz g‘oyib bo‘ldi, ko‘pni ko‘rganlar bu jumboq haqida uzoq o‘ylashdi, lekin hech bir savollariga javob topa olishmadi. – Bu nima edi o‘zi? U rostdan ham sodir bo‘ldimi? Keyin yaqinda Yevropani kezib kelgan Ivan Yemelyanov, Foma Kudelin singarilardan shunga o‘xshaganini uchratgan yoki uchratmaganini surishtirishdi. Ular ham ayollarning yangi mish-mishiga ensa qotirib qo‘ya qolishdi.

– Nima quloqlaringiz tom bitganmi, – jerkib javob qildi Mitkpartizan Gustishdagi jazo kuni haqida tinimsiz gapirayotgan Ilyuta xolaga, – anavi shaytonmi, Varechka Chernaya deganlarimi uch so‘mga butun taqdiringizni bashorat qilib beradi.

Hammasi ravshan, ba’zan shunaqasi ham bo‘lib turadi. Hammasi ko‘z oldingda sodir bo‘ladi, o‘zing ham ishonish yoki ishonmasligingni bilmay qolasan, vaqt o‘tgani sari esa hech kim ishonmay qo‘yadi. Xullas, qachonlardir dalada quyun uchirganlar orasida bo‘lgan Saltichixa xola hozir o‘z tomorqasini ko‘zdan kechirib yuribdi. Bodring palagini ko‘rib ko‘ngli xijil tortdi. Har yerda uchta-to‘rtta sarg‘aygan yaproq, pichoqqa ilingulik hosilning o‘zi yo‘q. Har yili barra bodring bo‘ladigan yerda burishiq bir narsa. Saltichixa xola hatto qiziqib ham ulardan tatib ko‘rish mumkin emasligini o‘z tajribasidan yaxshi biladi.

– Tfу, tfу, – achindi xola, – shuncha suv bekor ketdi.

Esiga o‘tgan haftadagi dilxiralik tushdi, Troitsa kuniga atab qimmat narxga sut sotib olgan edi, qo‘schnining o‘g‘ri mushugi ko‘zini shamg‘alat qilib sutni to‘kib ketdi. Saltichixaning yuzida dahshatlifoda paydo bo‘ldi, shu taxlit qo‘llarini beliga qo‘ydi, miyasidan birbiridan yomon xayollar o‘tdi – boradi-da qo‘schnidan to‘kilgan sutning pulini talab qiladi, faqat bir masalada ikkilanib turibdi, hozir borsinmikan yo do‘zax darvozalari yopilib, yerdan taft ko‘tarilgandami? Tomorqanening o‘rtasida turarkan, boshidan oftob o‘tib ketdi, quyosh o‘tkir tig‘ini ro‘molidan o‘tib sochlari orasidan o‘rmalab, to‘ppato‘g‘ri miyasiga sancha boshladi. Shu payt tili kalimaga kelmay qoldi, o‘zini salqinroq joyga urishga shoshdi. Lekin ulgurmadi, ulkan ko‘rinmas bir sharpa baland ovozda gumburladi-da xolani te-

paga ko'tardi va boshqa tomonga uloqtirdi. Katta ko'lanka atrofiga chaqin sochib qurshagan o't-o'lanni kuydirdi. Shu payt qaroqchilar hushtagiga o'xhash bir ovoz chalindi, Saltichixaning ko'zlar va qu-loqlariga qum to'lib qolganga o'xshardi, shu onda gapirish qobiliyatidan ham mosuvo bo'lgandek angrayib turardi, qo'llari ham shalvirab qoldi. O'ynoqi kuch xolaning ko'hna loysuvoq kulbasini yerdan dast ko'tardi, xira tuman hosil bo'lib uning ichida kulba chirpirak bo'lib aylana boshladi, uning atrofida mayda guvalachalar sochila boshladi. Saltichixa xola og'zini juftlab ulgurmasidan hammasi yana joy-joyiga tushib qoldi.

– Qoravul! Odamlar, voy dod, ushlanglar, voy dod, ushlanglar, kulbam uchib ketdi, – deya qichqira boshladi Saltichixa xola, tomorqa bo'ylab o'zini yo'qotib yugurarkan, tildan qoldi, bir amallab kulbasiga yetib oldi, ne ko'z bilan ko'rsinki, hammasi o'sha-o'sha, kulbasi ham o'z o'rnila turibdi, faqat mo'rchasiz qolgan pech bekasiga qarab qaqqayib turibdi. Shu payt yana o'sha issiq shamol hushtak chalib quturdi, Saltichixani dast ko'tarib xuddi bir jonsiz buyumdek zarb bilan yerga urdi. Saltichixa vovvoylagancha bazo'r o'rnilan turdi, kim bilsin, oyog'ining ostiga sandig'ining bo'laklari qayerdan tushib qolgan. Bu sandiqda Saltichixa o'limliklarini saqlaydi, sandiq yerga zarb bilan urilgan chog'i bir tomoni qiyshayib ketibdi, rasmiyatchilik uchun taqib qo'yilgan qulfi soat kapkiriday nari borib beri keladi. Saltichixa yuragi betlamay sandiqqa yashirinchaligiga tashlaydi, qayta-qayta cho'qinadi. Sandiqning ichiga ko'z qirini tashladi va peshonasidan muzday ter chiqib ketdi, qo'l-oyoqlarini qaltiroq tutdi, bo'g'ziga tiqilib qolgan iltijo achchiq ko'z yoshlari qorishib chiqdi.

– Belgi, tangridan kelgan belgi, – tishsiz dahanini osmonga burib yig'lamsiradi, atrofni epaqaga keltirishga yuragi dov bermadi, o'takasi yorilgudek bo'lib sandiqdan nari ketdi, taxta to'siqdan hatlab qochdi, oyoqlari uni to'ppa-to'g'ri dugonasi Chertixichanikiga olib bordi, undan keyin birin-ketin hamma kulbalarga kirib chiqdi. Yo'lovchilardan Varechka Chernaya ishdan qaytgan yoki qaytmaganini surishtirdi. Unikiga tunash uchun kirganida kun ancha og'ib qolgan edi. Biroz shabada turgan, dov-daraxtlarning bargi ohista tebranadi, Varechka Saltichixa xolani uyga boshladi, «ko'rinishidan

hammasi joyidaga o‘xshaydi-yu bir kor-hol bo‘lgan» xayolidan kechirdi u. Lekin chiroq yoqdi, xolaning uchar kulba haqidagi poyintar-soyintar hikoyasini tinglar ekan, pechdan qaynoq sho‘rvani oldi, sopol idishga quyib mehmonga uzatdi, non kesdi.

— Ol, ol, xolajon, tortinma, tun uzun, yotoqdan xavotir olma, joy masalasi bemalol, — Varechka atrofga ko‘z yogurtirdi, nimadir yetishmayotganini his qildi, lekin nima ekanligini topa olmadı. Chelaklar bo‘shab qolibdi, Saltichixa bemalol tamaddi qilib olishi uchun chelaklarni ko‘tarib quduq boshiga ketdi, u yerda navbat to‘planib qolgan ekan, o‘z navbati kelishini kutib turdi. Nima uchundir xomush tortdi, uningcha, hozir faqat kulbasida emas, butun olam nima-gadir risoladagidek emas.

Shu payt chelaklarini qiyg‘illatib Yefrosinya kelib qoldi, darrov Varechkaning oldiga o‘tdi.

— Qo‘sniyon, bu haqida gapirishni istamasdim, chunki so‘z bergenman, faqat gaplarimni yuragingga yaqin olma, — Yefrosinya oyoqlarining uchiga qaradi, — xullas, gap bunday, kecha kechqurun Volodkang biznikiga keldi. Eshityapsanmi, aytishicha, sening xabarling yo‘q emish, u Nastasyaga ketibdi, bir umrga. Bunaqasi men bilan ham bo‘lgan degin, xabari yo‘q emish. Parvoyingga ham kelmaydi, to‘g‘rimi, batamom unutib yuboradi dedim, yoshing o‘tganda senga nima bor bunaqa qiliq qilib dedim kaltafahmga, u esa tirjaydi, nima emish, qari echkining shoxlari baquvvaturoq bo‘larmish. Tfu, tfu.

Quduqning oldiga yana kimdir keldi, Yefrosinya bilan kulishdi, Varechka juda tanish chehrani ko‘rdi-yu, kimligini eslay olmadı. U kulbaga bo‘sh chelaklar bilan qaytdi, ostonadan kirdi-yu devorga suyanib qoldi, hozir xuddi ko‘nglida eriga bo‘lgan nafratidan asar ham qolmaganga o‘xshardi. Bor ovozi bilan baqirgisi, jumlayi jahonni os-tin-ustun qilgisi keldi, lekin nega endi. Shunaqa bo‘lishini o‘zi ham bilardi. Avvaliga bu holat va o‘ziga qilingan haqoratga tushunolmay turdi, birdan aqli ravshan tortdi va u bugun o‘zi va o‘z hayoti ustidan g‘alaba qozonganini tushundi. Bu paytga kelib Saltichixa xola sho‘rvani tamomladi, u Varvaradan nimadir so‘radi.

— Ko‘ngil xotirjamligi uchun... bir tomchi sharobdan totib ko‘rilsa... dunyo sharmandagarchilik va gunohdan iborat, Varvara, —

Varechkaning ko‘z oldi qorong‘ilashib ketdi, shunga qaramay, Saltichixa xolaning ovozini eshitdi, omborga tushib og‘zi mahkamlangan samogon shishasini olib chiqdi va stolga qo‘ydi. Saltichixaning tomog‘i qaqrab ketdi, shishani obdan hidladi, bu orada Varechka alumindan ishlangan nemis krujkalarini olib keldi, har ehtimolga qarshi qo‘lsochiqqa ko‘z qirini tashlab qo‘ydi. Qo‘lsochiqning o‘zgarishsiz turganini ko‘rib yuzi bo‘zarib ketdi, aqldan ozgandek tishsiz og‘ziga non va tuzni g‘ijimlab sola boshladni, hammasi barbod bo‘ldi, uni osmonga olib chiqib ketgani yo‘q, qaytaga ko‘z oldida topishib olishdi.

Tunda ikkalalari kulbaning ikki burchagini egallahdi, lekin ikkisining ham ko‘ziga uyqu kelmadi. Varvara hamma mustajob duolarni o‘qib chiqdi, hatto gunohkor Volodka Grigoryevichga ham yumshoq ko‘ngil ato qilishini so‘radi. Saltichixa u yoqdan bu yoqqa ag‘darilar ekan, ahvoliga o‘zining xo‘rligi keldi. Ko‘zi uyquga ketib mudray boshladni, biroz o‘tib baqirib uyg‘onib ketdi, o‘rnidan turib irg‘ishlay boshladni, havodagi ko‘rinmas narsalarni qo‘li bilan haydadi, qulog‘ining tagidan pashshalarning g‘ing‘illagan ovozi ketmay qoldi, shu holatda kulbaning u burchagidan bu burchagiga, bu burchagidan u burchagiga yuguraverdi.

– Buvijon, – birdan Varvaraning tahlikali ovozi yangradi, – tug‘ishganim mening, ayt-chi menga, Xudo bormi?

– Sharmanda, Varvara, o‘zingga kel! Gunoh bu, gunoh. Sen so‘rama, ishon, ishon, – biroz sukutdan keyin Şaltichixa qo‘shib qo‘ydi, – senga shaytonlar yopishibdi, Varvara, ishon.

– Shaytonlar, buvijon, yopishib olgan, – iqror bo‘ldi Varvara.

– Sening yoshing nechada, Varvara? – Saltichixa jiddiy qiyofada so‘radi, – ellikga yaqinlashib qolgandirsan?

– Qirq olti, buvijon, oh, umrimning qanchasi bekor ketdi, qanchasi-ya!

– Qanchasi, – behalovat bo‘ldi Saltichixa. – Juda ko‘p, hatto shaytonlarga ham kattalik qilasan, ishonaver.

– Rabbim, marhamatingni darig‘ tutma, – Varechka ovoz chiqarib iltijo qila boshladni, shift tomondan kulbaga kirib qolgan pashshanning g‘ing‘illashi eshitiladi.

Saltichixa allamahalgacha vaysab o'tirdi, axiri ko'zi ilindi, Varechkaning ko'ziga uyqu kelmadi, allamahalgacha bir-biridan g'amgin voqealarni eslab ezildi, ustiga choyshabini tashladi-da ko'chaga chiqdi. Kulba dim, lekin tashqarida yerdan issiq ko'tarilgan, havo salqin. Mitti yulduzchalar osmonning har yeriga sochilib ketgan, nihoyat Varvaraning ko'ngli ancha taskin topdi. «Mo'jiza, osmon mo'jizakor yaratilgan» – shivirladi boshi uzra yoyilgan samoga qarab.

* * *

Dalada ayollarni shamol uchirib, Saltichixaning kulbasi havoga ko'tarilganga o'xhash bemaza ishlar sodir bo'lib turgan bir payt-da qishloqning ko'zga ko'ringan ahmoqlaridan biri Feklushanining o'rmon yoqasidagi emanzorlarda sayr qilgisi kelib qoladi. Bu yerdagi emanlar hali kichkina, odam bo'yи keladi, tagida konussimon chumoli uyalari bor. Feklusha bu yerlarni yaxshi ko'radi, jilla qursa haftada bir marta keladi, bu yerga kelishning nimasini yoqtiradi, faynat xudoga ayon. Nim qorong'i o'rmon yoqasida, soyalar ichida sayr qilishning o'zi dahshat, aslini olganda. Feklusha sayr qilarkan, oyga qaradi, u o'zining cho'qqisiga chiqib olibdi, atrofga kumush tolalarini sochgancha sukutga cho'mgan. Bu yerda dahshatlari sir yashirinib yotganga o'xshaydi, lekin, ishonavering, gustishliklarning hech biri bu sirga qiziqib emanzorga borishga rozi bo'limgan bo'lar edi, Feklushadan tashqari, albatta. Katta sariq o'rmon chumolilarining shaxdam qadam tashlab bir maromda yurishi Fekleshani angraytrib qo'ysi. Fekleshanining ko'zları hayratdan kosadek bo'lib ketdi, u oldin ham hasharotlarning tartibsiz uymalanib yurishini kuzatgan, lekin bugun ular xuddi odamlarga o'xshab bir safga tizilib qadam tashlayapti. Buni qarangki, chumoli uyasiga ham jon kiribdi, qum us-tida sekin joyidan qo'zg'alganini Fekleshua o'z ko'zları bilan ko'rди, to'g'ri g'ira-shira oy yorug'ida ko'rди, lekin hammasini aniq ko'rди, chumoli uyas qumda sudralib ketayotgandi. Uya to'xtashi bilan undan yana qator-qator chumolilar chiqadi. Tizilib o'rmon ichiga yo'l oladi. Fekleshua jur'atsizlik bilan o'sha tomonga bir-ikki qadam tashladi, shu payt miyasidan ularni kuzatib o'rmon ichiga kirish xayoli

xira shu'la sochib o'tdi va Feklusha sassiz ularga ergashdi. Yo'lidagi barcha narsa: to'nka, sinib tushgan dov-daraxt, ko'prikcha-yu, o't-o'lanni qoldirib chumolilar o'rmonning eng qorong'i nuqtasiga krib keta boshladi. Feklusha cho'kkalab o'tirib oldi, qahqaha otdi, bu bilan chumolilar lashkarining yo'lini to'sib qo'ydi, boshini tirsaklari orasiga oldi, lekin lashkar bunga parvo ham qilmay ayolning qo'llari ustidan manziliga intildi, ular xuddi jonsiz bir narsa ustida o'rmalayotgandek xotirjam edi, Feklushaning tirsaklarini nimadir chaqqandek bo'ldi, lekin bu aniq chumoli emas. Feklusha yana qahqaha otdi, qo'lidan «askarchalar»ni sidirib tashladi, lekin shu onda ko'zları qo'rquvdan irg'ib chiqayozdi. Ortidan uyulib, hushtakka o'xshash ovoz chiqarib kelayotgan issiq shamol uni dast ko'tarib o'rmonning boshqa tomoniga uloqtirdi. Yerga chalqanchasiga yiqlidi, shu payt tevarakdag'i daraxtlar raqs tusha boshladi. Atrofda kuchli chaqin guldiradi, lekin shu zahoti tindi, qayerlardadir kuzak to'kk'an yaproqlar mayin shildiraydi.

Feklusha bir amallab o'rnidan turdi, jonholatda o'rmondan qochib chiqdi. Ko'zları qo'rquvdan ola-kula bo'lib ketdi, eng ajablanlisi, chumolilar uyasi qayoqqadir g'oyib bo'libdi, go'yo bu yerda hech qachon bo'lmagandek. Feklusha dovdirab qoldi, qayerga kelib qolganini ham tushunolmay qoldi. Feklusha dahshatga tushdi, bu yerda hammasi o'sha-o'sha, faqat chumoli uyasi yo'q va shu atrofdagi bir daraxt barglaridan ayrilib, qip yalang'och bo'lib qolibdi. Feklusha uyani qidira boshladi, hozirgina daladagi ayollar-u Saltichixa yo'liqqan issiq shamolga duch kelganini xayoliga ham keltirmasdi. Hozir bor e'tibori uyada bo'lib, faqat uni topishni o'ylardi. Chumoli uyasining taqdiri ham g'alati bo'ldi, issiq shamol uni qo'yniga oldi, vatanidan yuz, balki ming kilometr uzoqdagi shaharga, avtovokzal maydoniga uloqtirdi, xullas yomg'irsiz qolgan o'lkalardan olis-olis-larga uchirib ketdi. Bu yerda vokzalni to'ldirib olomon qaynaydi, bir-biriga urilib-surilib poyezdga osiladi. Lekin, chumolilardan ayrimlari emanzorda qolib ketgan ko'rindi, tez orada ular o'zları uchun boshpana kavlab oldi. Feklusha keyingi yili yozda xuddi o'sha yerda yana uyaga duch keldi. Ko'zları quvonchdan porlab ketdi, bu safar chumolilar ancha kam, lekin Feklusha bunga e'tibor ham bermadi. Uyani tomosha qilar ekan, orqasida kimdir pisib tur-

ganini sezib qoldi, o'girilib qulq-chakkalab solishni o'ylab turgan edi, tanish chehrani ko'rib ko'ngli xotirjam tortdi. Bu yigirma besh yoshlar chamasidagi traktorchi yigit – Keshka Aldonin bo'ladi. Chamasi, bundan yarim yil muqaddam Smolenskdan kelgan. Bu yigit urushda nafaqat g'anim yerida, balki Smolensk o'rmonlarida ham qahramonlik ko'rsatgan. Hozir traktorchi bo'lsa ham, o'z ishining ustasi, qahramon.

Aldonin Feklushani bir yoki ikki marotaba ko'rgan, lekin eslab qolgan. Shuning uchun unga jilmayib qaradi, Feklusha ham jilmaydi, Aldonin bilan ko'rishgan bo'lib, chekkadagi o't ustiga cho'kkaladi, Aldonin ham uning yonidan joy oldi.

– Issiqni yoqtirasamni deyman, Feklusha, – qiziqsinib so'radi, – xo'sh, malikamizning turish-turmushlari qalay ketayapti?

– Ketayapti, ketayapti, – Feklusha takrorladi, allaqachon osmonni egallagan quyoshdan ko'zlarini pana qildi.

– Eh, Feklusha, Feklusha, – Aldoninning ko'zları o'ynadi, suhbatga jon kiritishga harakat qildi, – shu yerga kelganing kelgan, nega kelaverasan? Bu dunyoda nima uchun yashayapsan? Mana, ko'rdingmi... bilmaysan, gapirmaysan, kel, menga turmushga chiq, nima deysan, birga uy quramiz, beshta bola ko'ramiz, atrofingda xuddi qo'zichoqlarga o'xshab chopqillab yurishadi, kel, Feklusha, senga ertagayoqsovchi jo'nataman, – Aldonin jinnilikka zeb berar ekan, yerga beligacha yastanib oldi, issiq quyosh nurlari yuzini kuydirib, ko'zini qamashtirdi, ko'zlarini mahkam qisib oldi, oldidagi o'tdan bir hovuch yulib olib og'ziga soldi, baquvvat tishlari orasida o'ynab yutib yubordi, – yana bozordan echki sotib olamiz, bilasan unga kam soliq to'lanadi, yungidan ro'zg'orbop narsalar to'qiysan, echki ko'p pichan yemaydi, lekin yaxshigina sut beradi. Har xil barg-u po'choqlarga ham qorni to'yadi. O'zi hech echki boqqanmisani?

Feklusha boshini quyi soldi. Oldidagi zabardast insonning soyasiga tikildi. O'rnidan sapchib turdiyu, bor kuchi bilan yugurib ketdi. Ancha joyga yetgach orqasiga qaradi, Aldonin hamon o'sha o't us-tida uni kuzatib o'tirardi. Feklusha ortiga o'girilgani zahoti qichqira boshladi.

– Hoy, Feklusha, Feklusha, ertaga sovchilarni kutib ol! – keyin miriqib hoholadi, ichaklari buralib qolguncha kuldil, kulgisi to‘xtagach qilgan ishidan xijolat tortdi, nima bo‘lgan taqdirda ham bir ojiz insonning ustidan kulish yaxshi ish emas. Bundan boshqa qiladigan ishi yo‘qmi? Qiladigan ishi bor, juda muhim ishi bor, bir soniya bo‘lsin xayolidan chiqarmagan ishi bor, bugun kechqurun esa hammasini hal qilish kerak.

11

Foma Kudelin stolning to‘rida o‘tiribdi, ahyon-ahyonda tamaddi qilayotgan qizlari va xotiniga qarab qo‘yadi. Barra bodringni karsilatib tishlar ekan, shaharlik yangi rais Fedyuninning go‘riga g‘isht qalaydi. U bugun kolxozda hammaning jig‘iga tegdi, daraxtga chiqib olib tomosha ko‘rsatdi. Shu payt Fomaning nigohi ostonada bashang kiyinib olgan Keshka Aldoninga to‘qnash keldi. Mehmon boshidan furajkasini yechib harbiychasiga salom berdi. Tabiiyki, hammaning nigohi bashang kiyinib olgan yigitga qadaldi.

– Salom, azizlarim, – Foma ham el qatori bosh irg‘ab qo‘ydi. Nyurka o‘rnidan sapchib turdi, nimalarnidir shivirlab qo‘srimcha stul olib kelib qo‘ydi. Bu ora qizlari bilan ko‘z urishtirib olishga ham ulgurdi. To‘ng‘ich qizining boshi quyi egildi, yer ostidan Aldoninga ko‘z qirini tashladi.

– Kira qol, Kesha, kira qol, ayni taom ustiga kelding, – Nyurkaning ovozi nihoyatda mayin bo‘lib ketdi, Foma shuncha yil birga yashagan bo‘lsa-da biron marta xotinining bunday ovozdagi murojatini eshitmagan, xursandligini aytmaysizmi, og‘zi qulog‘ida. – Kartoshka hozir pishdi, bodringlar ham... Vera, qizalog‘im... – qiziga ham o‘ta mayin ohangda tayinladi u, – omborxonadan qorin bilan go‘sht olib chiq, eng pastdagi idishda turibdi, voy azizim, – dedi nihoyatda saxiyligi tutib, keyin Fomani battar lol qoldirib gapida davom etdi, – mehmonni taklif qilmaysizmi, qoqqan qoziqday turib qoldi-ku.

Qanchalar soxta bo‘lmasin, Nyurkaning mayin ovozini eshitish hammaga yoqib tushdi. Vera Keshkaga qarab kulib yubordi, uning ortiga o‘tib eshikni ochdi va omborga yo‘l oldi. Foma ham o‘rnidan

turdi, mehmonnavozlikni nimadan boshlash kerakligini tushunolmay biroz o'ylanib qoldi, bu orada Vera go'sht va barra bodringlarni ko'tarib kirib keldi.

— Kel o'tir, Keshka, o'tir, qo'lingdagini bu yerga qo'y, — Foma shoshib qoldi, Keshka stolga ikki qadam qolganda qo'ynidan ikki shisha aroqni chiqardi, bir-biriga urishtirib, jiringlatib stolga qo'ydi. Tanyuxa boshini quyi solgan ko'yi qotib qoldi, o'midan irg'ishlab turib stoldan qochib ketdi.

— Eh-heeee, — Foma endi gap nimada ekanligini taxmin qila boshladi, yaltirab turgan aroq shishalariga qarab yutinib qo'ydi, — hechqisi yo'q, hechqisi yo'q, hammasi joyida! Hayot qonuni! Tabiat qonuni! Xudoning xohish irodasi, qani, onasi, qadahlarni keltir, jin ursin!

Stolda bir zumda yirik qilib to'rg'algan salo, non, yangi qovurilgan tuxum paydo bo'ldi. Ochqich bilan aroqlar qopqog'idan bo'shatildi. Foma qadahlarni to'ldirarkan, og'zi qurib, ko'zlarini yaltilrab ketdi. Qizlar salo va tuxumni keltirib qo'chiqib ketishgan edi, Nyurka esa stolning narigi tomonini egallagan, vaqtiga vaqtiga bilan Aldoninga o'g'rincha qarab oladi. Gustishda bu yigit g'aroyib tabiatini bilan odamlarning og'ziga tushgan, lekin kim bilibdi deysiz, uni kun kelib Kudelinlarnikiga sovchilikka keladi deb. Nyurka sira ko'zlariga ishona olmayotgan edi, Tanyuxa u bilan shu yili bahorda tanishgan, bir-ikki marotaba birga aylanishgan, lekin keyinchalik Foma va Nyurkaga bu holat manzur bo'lmadi, Tanyadan tezroq bu uyatsiz munosabatlarni to'xtatishni talab qila boshlashdi. Lekin qizdan sas-sado chiqmasdi. Tanya juda kamsuqum qiz, ovqat masalasida ham xuddi shunday. Lekin oxirgi vaqtarda kundan kunga to'lishib, yuzlari bo'liq bo'lib qoldi, Nyurka bir-ikki marta gap orasida shama qilib ko'rni, lekin bundan hech bir ish chiqmadi. Keyin gapini hazilga burdi-qo'ydi. Oxirgi marta Tanyaning xonasiga kirib shu masalada og'iz juftlagan edi, qizning fig'oni falakka chiqdi, bor ovozi bilan baqirdi, boyaqish Nyurkaning qo'llarini qaltiroq bosdi.

Nyurka hammasini ko'z oldidan o'tkazdi, nima uchundir ko'nglida bu yigitga onalarga xos mehr uyg'ondi. Ko'rini turibdi, Aldonin yomon yigitga o'xshamaydi, ko'zlarini doim kulib turadi, is-

tarasi issiq, tishlari ham bir tekis, chiroyli. Buning ustiga yag‘rindor, bo‘yi ham uzun.

Fomaning sabr kosasi allaqachon to‘lgan edi, shuning uchun shosha-pisha qadahga yopishdi.

– Qani, olinglar, – boshqalarni ham qadah ko‘tarishga undadi, – Sog‘-omon bo‘laylik! Shunaqa mehmonlar kelib tursin! Tabiat uchun!

Aldonin tomoq qirdi, Foma tomonga qarab qo‘ydi, u ham sog‘liq tilab qadah ko‘tardi, lekin qanday qilib muddaoga o‘tishni bilmay kalovlanib qoldi. Sanchqisiga ilib olgan yirik salo bo‘lagini tuzga botirdi.

– Ol, Keshenka, ol, – Nyurkaning navbatdagi mayin undovi eshitildi, u hozir umuman Foma haqida o‘ylamay qo‘ygan edi. Bu vaqtda Foma ikkinchi shishani ochib qadahlarni to‘ldirayotgan edi, xotinining erkalangan ovozini eshitib asabi buzildi. Bir zum ishidan chalg‘ib Nyurkaga qaradi:

– Bas qil, kampir!, – Foma ovozini ko‘tardi, – bu senga kampir-laringning yig‘inimidiki, takallufbozlik qilasan. Bu yerda erkakcha gap bo‘layapti, hammasini erkakchasiga hal qilamiz, hukumat miq-yosida, albatta. Tabiat!

– O‘chir ovozingni! Bir qadah ichdingmi, yo‘qmi jining qo‘ziyaptimi? – Nyurka asabiy qichqirdi, odob yuzasidan uzrxonlik qilib Aldoninga qarab jilmaydi.

Aldoninning quvnoq ko‘zları yaraqlab ketdi, Foma Kudelinga bir qarab oldi-yu o‘rnidan turdi, qo‘llarini stol ustiga qo‘yib, barmoqlarini yurgizdi.

– Hurmatli Foma Alekseyevich va Anna Dormidonovna, men sizlarning oldingizga bir ish bilan keldim, – qizingiz Tatyana Fomishovna bilan o‘rtamizda muhabbat tug‘ildi. Sizlardan uning qo‘lini so‘rab keldim. Oila qurib baxtli hayot kechirsak deymiz, iltimos sizlardan, Foma Alekseyevich, Anna Dormidonovna, qizingizni menga turmushga bering, mening bor-yo‘q gapim shu.

Foma og‘zini yarim ochib voyvoylagancha Aldoninning nutqini tinglab o‘tirdi, bu orada Nyurka bir necha marta pichirlab, ko‘z yoshlarini ro‘moliga artib oldi.

– Keshenka, azizim mening, – Nyurka o'pkasini to'ldirib kela-yotgan ko'z yoshlarini tutib qoldi. – Biz nima... nima ham derdik, ikkingiz ahd-u paymon qilgan bo'lsangiz... biz qayoqqa ham...

– Ha, onaizor, kutib turgan ekansiz-da, – Fomaning ovozi balandlagandan balandladi. – Keldimi keldi, qani, qizim, orqasidan tush, undan ko'ra bozorga olib chiqa qo'ya qolaylik, balandroq narx bergeniga ergashib ketaveradi. Xullas, Kesha, – Foma stol ortidan turib do'q urdi, – mening otalik so'zim shu.

– Foma, Foma Alekseyevich, to'xta, ahmoq, – Nyurka uning og'zini yoparkan asabiy qichqirdi: – Qizlar! Qizlar! – u yanada balandroq baqira boshladi, – Verka, bu yoqqa opangni boshlab kel! Yo tangrim, churq etishmaydi-ya.

Verka hammasiga parda ortidan quloq tutib turgan edi, darhol Tanyaning oldiga yugurdi, oqizmay-tomizmay bo'lgan voqeani aytib berdi. Zum o'tmay ostonada Tanya paydo bo'ldi, yanoqlari qip-qizil, u avvallari ota-onasiga bunchalik tik boqmagan, o'ziga ishonchi ham bugungidek bo'lman, u Aldoninga qarab jilmaydi, stol yoni-ga borib qo'llaridan mahkam tutdi.

– Ko'rib turibman, hamma rozi, tabiat ham... – dedi Foma, keyin boshini stolga qo'yib nima uchundir chuqur xo'rsindi, so'ng yana qo'shib qo'ydi, – onaizor, oq fotiha bering, bo'lsangiz-chi...

Nyurkaning yuz ifodasi o'zgardi, avval qizini, keyin kuyovning yuziga qaynoq lablarini bosdi, hammaning kayfiyati ko'tarilib ketdi.

– Omin! Omin! – takrorladi Nyurka, – xuddi bizdek yashanglar, biz otangiz bilan juda baxtli yashadik (bu gaplarni eshitar ekan, Foma yuzini stolga bosdi, ko'zlarini xotiniga tikdi), sizlarni voyaga yetkazdik, – birdan yana ko'zlariga yosh oldi, – boyaqish o'g'lim Mitka esa shunday baxtli kunlarimizda oldimizda emas, bechoraning boshini yedi bu la'nati urush.

– Bo'ldi qil, onaizor, – Foma boshini stoldan ko'tardi, qoshlarini chimirdi, – bizning o'g'limiz o'lman, u mana bu yerda yashayapti, – Foma qo'llarini musht qilib ko'kragiga urdi, – tirik, biz bilan mana bu yerda, xursandchiligidiz sherik bo'lyapti.

Nyurkaning ko'zları yoshga to'ldi, ularni qo'li bilan berkitdi, stolga og'ir ruh cho'kdi, hamma bir burchakda qayerga qarashini, nima qilishini bilmay qoldi. Lekin zum o'tmay stolda ikkita alumin

nemis krujkasi, samogon, dudlangan tovuq va saryog‘, tuzlangan qo‘ziqorin, sarimsoq va har xil ko‘katlar paydo bo‘ldi. Foma uyida shuncha tansiq yeguliklar borligini ko‘rib hayratga tushdi. Kamiga har gal ayol xonaga qo‘lini noz-ne’ matlarga to‘ldirib qaytadi. Avvaliga xotinidan jig‘ibiyron bo‘ldi, lekin dasturxonga qarab, mehmonning oldida g‘ururlanib ham qo‘ydi. O‘zining shunday uddaburon xotini borligidan faxrlandi, ko‘rinib turibdiki, bu ayol yemay-ichmay topgan-tutganini shu kun uchun yig‘gan.

Hamma yana stolga o‘tirdi, u yoq bu yoqdan gaplashib kulisishdi, qadahlar bir necha marta to‘ldirildi. Foma bunaqa nochorlik zamonida to‘y qilish oson emasligini aytib qayg‘urardi. Gapini tugatishi bilan Aldoninning quvnoq javobi yangradi:

– Hechqisi yo‘q, dadajon, biz nikoh o‘qitganmiz, to‘yni ham biron kun o‘tkazib olarmiz, – oldida o‘tirgan Tanyaning yuzlari qizarib ketdi, yerga kirib ketgudek bo‘ldi.

– Dadajon, deyapti, eshityapsizlarmi, dadajon, – Foma xo‘rsindi, – hurmat bajo keltiryapti menga o‘g‘lim.

Foma stolga suyanib o‘rnidan turdi, chayqalib Aldoninning oldiga bordi, uni quchoqlab o‘pdi, xayoli marhum o‘g‘liga ketdi, o‘rniga o‘tirarkan ko‘zyoshlarini kafti bilan berkitdi. Keyin papiro tutatdi.

– Dadajon, sen shunaqasidan chekasanmi, – Aldonin achining bo‘ldi, qo‘ynidan bir quti «Belomor» chiqarib Fomaga uzatdi, tuhfadan keyin Foma yana ikki marotaba Aldonin tomonga borib keldi.

– Bu yog‘iga qayerda yashamoqchisizlar, – otalik muhabbat jo‘sib gap boshladi Foma, – biz bilan tura qolinglar, faqat Verka qolyapti, biron burchakni sizlarga bo‘shatib beramiz, – Foma shu onda birga yashash taklifi xotiniga qanday ta’sir qilishini o‘ylab ham o‘tirmadi.

– Men, dadajon, oldingizga bir uy qurishni o‘ylab turibman, uying yoni bo‘sh, bog‘ ham chakalakzorga o‘xshab ketibdi.

– Bu Antip Kosogo qo‘rg‘oni, urush vaqtida bir oila sigirning tilidek yalab-yulqagan, o‘shami, onasi, a? – Foma o‘rnidan sapchib turdi. – Nima? Rejangiz faqat shumi? Biz esa ... onasi, a?

– Pechni o‘zim quraman, ul-bul g‘amlab qo‘yganman, – xudi hammasi hal bo‘lgandek Aldonin rejasini gapira ketdi, – direktor taxta va’da qilgan, o‘rmondan ham oz-moz olishga ruxsat tegadi,

traktorda ko‘z ochib yumguncha olib kelib tashlaymiz, keyingi haf-tadan ishni jadallashtiramiz, to‘y o‘z yo‘liga, ish o‘z yo‘liga...

Shu kecha Foma Kudelining uyidagi chiroq o‘chmadi, qo‘shnilar ham yarim tungacha u yerda nima bo‘layotgani haqida g‘iybatlashishdi, g‘iybat bahsga aylanib ketishiga bir bag‘iya qoldi. Ayrim o‘ta qiziquvchan gustishliklar Fomaning derazasidan mo‘ralashga borib keldi, lekin aksar gustishliklar yosh-qarining og‘ziga tushgan Kesha Aldonin Fomaning qiziga og‘iz solmoqchi bo‘lib yurganini orqavoratdan eshitishgan edi. Tez orada to‘y bo‘lib ketsa hech gap emas, Foma ham kelinning baxtiyor otasiga aylanadi-qoladi. To‘g‘ri, qiz ham ko‘zga ko‘rinib qoldi, bundan tashqari Fomaning ham urushdan oldingi turish-turmushi yo‘q. Demak, boshqa kuyov kutishdan ham ma’ni yo‘q.

– Kuyov haligi g‘alatiroq yigitmi? – Chertichixa xola quduq boshida turib ming‘irladi, – ancha o‘ziga to‘q ko‘rinadi, boshida esa shamol kezadi, oh, bilmadim, men bilmadim.

Kimdir xolaning gapini ma’qulladi, kimdir sharaqlab kulib yubordi, lekin aytilgan gaplarda jon bor, Kesha Aldoninni bir marta uchratdingizmi, yodingizdan chiqarishingiz amrimahol. Yana gustishliklar tashkilotchi Veterka buzoqcha laqabli insonni ko‘p eslashadi. Bir vaqt Veterka yangi rais Fedyuninning muvaffaqiyatsiz chiqqan portretini orqalagancha o‘tib qoladi, hammaning oldidan portretni ko‘z-ko‘z qilib o‘tib, bir burchakka borib yelkasidan tushirdi. Hangomatalab gustishliklar u tomonga qarab ketishayotgan edi, Veterka o‘tkir shoxlarini tiradi, oyog‘i bilan yerdepsindi, kimda-kim yaqinlashgudek bo‘lsa, suzib tashlashini aytib dag‘dag‘a qildi. Kim nima desa desin-u, gustishliklar bu «qiliq»da Aldoninning qo‘li borligini aytishadi. Kim bilsin, gap isbotini topmadni, bu kezlarda Aldonin bo‘lajak qaylig‘i bilan baxtdan sarxush bo‘lib, kelajak rejalarini tuzib yurgandi. Bu ikki juftlikning unash-tiruv marosimi ham to‘ydan kam bo‘lgani yo‘q. Hamma o‘z dar-di bilan degandek, Chertichixa xolaning ko‘ngli hech yorishmadi, aytishicha dahshatli tush ko‘rgan, tushi o‘ngidan kelib, ziyon-zahmatga qolmasliklari uchun kulbama-kulba yurib non tarqatdi, tanigan-bilgandan tushining xosiyatini so‘radi. Aytishicha, tushiga Yefrosinya Deryuginanining dom-daraksiz ketgan o‘g‘li Ivan kiribdi,

bu yigit qaytib kelgan emish-u, tanasidan o't chiqarmish. Tanasi-dan chiqqan olov qishloqqa tutashib, butun qishloq yonib ketibdi.

* * *

Urushdan keyingi yillarda Gustish va uning atrofidagi qishloqlar-da deyarli to'y bo'lmadi, hisob. Shuning uchun gustishliklar Aldon-in va Tanyuxanинг to'yini haqiqiy bayramga aylantirib yuborishdi. Mana to'y bo'lib o'tganiga ham ikki oydan oshdi. Bu yil qishloqda qish arafasida yana bir uy qad rostladi, to'g'ri uncha katta emas, lekin o'ziga xos. Uyning qarag'ay ustunlari o'rnatilgan mo'jazgina shinam ayvonchasi bor. Aldonin Fomaning qarshiliklariga qaramay Antip Kosogo qo'rg'onidan Fomaning urushda halok bo'lgan bobo-siga qarashli aravaning katta g'ildiragini olib chiqdi. Uni tol navda-lari bilan bezatib qarag'ayga ilib qo'ydi, aytishicha, ro'zg'orga katta nafi tegadi, qushlar kelib shu g'ildirakda yashab, atrofdagi ilon, qur-baqa va hasharotlarni ov qilishadi.

Xullas, bu oila ham ro'zg'or tavshivlarini zimmasiga olib umrguzaronlik qila boshladi, Kesha Aldonin nihoyatda oilaparvar er chiqdi. Bu inson o'z rafiqasini chin dildan sevar, kezi kelgan-da buni yashirib ham o'tirmasdi. Jo'shib ketsa bas, ko'chaning o'rtasimi, odam gavjum joymi, qarab o'tirmaydi, shartta rafiqasi-dan bo'sa olib qo'ya qoladi. Bir gal yo'lning o'rtasida xotinidan bo'sa oldi, orqadan kelayotgan Chertichixa xola ko'zlarini kafti bilan pana qildi.

– Seni qaragin-u, vijdonsiz, – xola jahl bilan yerga tupurdi, – hech bo'lmasa, kattalardan uyalsang bo'lmaydimi?

– Hechqisi yo'q, xolajon, sevgilimning labini qarang, – Aldon-nining quvnoq ovozi yangradi. – Yuz yildirki, samoning o'zi ham bunaqa bo'yoqni ko'rmagan.

Aldoninning gapidan xola karaxt bo'lib qoldi, u bilan tortish-gisi kelmadi, katta to'qima ro'moliga yaxshiroq o'ranib oldi, shox-shabbalar g'aramining bir chetiga suyandi, kuz salqini sababmi mudroq bosdi.

Gustishda hayot bir maromda davom etardi: kuz poyoniga yetdi, qish kirib keldi, hamma uy isitish g'amiga tushib qoldi, ko'p o'tmay

kulbalarning tomlari oppoq qorga burkandi, qishloqda suv masalasi yumshagandek bo'ldi. Endi hammaning og'zida Aldoninning farzand, Fomaning bobo bo'lishi haqidagi mish-mish. Urushdan keyin Gustishda uchta chaqaloq dunyoga keldi, Tanyuxa dunyoga keltirajak chaqaloq ularning to'rtinchisi bo'lishi kutilayotgan edi. Har holda gustishliklar hali ham Tanyuxani o'z qishloqdoshlari deb hisobla-shardi. Kesha Aldoninning g'aroyib tabiatи bois uning tug'ilajak fanzandiga ham gustishliklar bo'lak qiziqish bilan qarashayotgan edi. Aldoninning o'zi ertalabdan kechgacha dalada bo'ladi yoki xo'jalik ishlari bilan shug'ullanadi (bu orada tovuq uchun yangi qo'noq qurdi, yangi ombor uchun joy hozirladi, ancha-muncha xomashyo ham yig'ib qo'ydi), oxirgi oylarda xotinini juda qattiq ehtiyot qila bosh-ladi. Tanya suv ham tashimaydigan bo'ldi, deyarli, ko'chada ham ko'rinish bermay qo'ydi.

Tanyaning ko'zi yorishidan oldin katta mashmasha chiqdi. Kunlarning birida Foma yosh oilani mehmondorchilikka chaqirdi. Tanya bazo'r oyog'ini sudrayotganini ko'rib, uning qo'lidan tutdi, o'tirishiga yordam berdi. Keyin esa qo'ynidan ikki shisha aroq chi-qardi. Tanya indamay oshxonadan ikkita qadah olib keldi. Foma va Aldonin qadah urishtirishdi. Gap erta bahorda qilinajak ishlardan boshlandi, keyin yana har xil mavzular, alaloqibat gap tug'ilajak chaqaloqqa ko'chdi.

– Biz unga Aleksey deb nom beramiz, – dedi orziqib Foma Kudelin kuyovining asabiy toraygan qorachiqlarini payqamay.

– Nega Aleksey, dada? – g'ijinib so'radi Aldonin.

– Bobomning ismi shunday edi, – yumshoqqina qilib javob qildi Foma og'ziga tuzlangan bodringdan solar ekan, – davlatini aytmay-sizmi, Tangrining o'zi yuqtirgan edi.

– Otamning ismi Prokof bo'lgan, – bo'sh kelgisi kelmay davom etdi Aldonin, u ham juda yaxshi inson bo'lgan.

– Qo'ysang-chi, Kesha, qo'y endi, keyingi safar Prokof deb qo'yamiz, – muloyimlik bilan javob qildi Foma, lekin ovozi oldingidan ko'ra ancha dag'allashdi, – axir, kattalarga hurmat bajo keltirish kerak, o'g'lim, ularning hurmatini joyiga qo'yish kerak.

– Bir to'xtamga kelish kerak, – Aldonin miyasida pishitgan gapni tiliga ko'chirdi. – Yigitchaning ismi Prokofiy Kesarevich Aldonin bo'lsa, chakki bo'lmaydi. Juda jarangdor ism, to'g'rimi, dada?

— Qanaqa? Qanaqa? — Foma aytilgan ismdan hayratda qoldi, — haligi ... Ke... Ke...

— Kesarevich, Kesarevich, dada, — hozirjavoblik bilan gapni ilib ketdi Aldonin, — Mening to‘liq ismim Kesar, tug‘ilajak go‘dak ham mening zurriyotim, shuningdek, qonuniy rafiqam, sening qizing Tanyaning farzandi, — biroz o‘ylanib turib yana qo‘sib qo‘ydi, — xo‘s, u mening o‘g‘limmi o‘zi yoki yo‘qmi?

— Haddingdan oshma! Qari-yu yosh shu yerda, lekin hech masala hal emas, mana bo‘lmasa sizga, ikkita ahmoq!

— Men sendan so‘rayapman, u mening o‘g‘lim bo‘ladimi yoki yo‘qmi? — Aldonin pinagini buzmay yana takroran so‘radi.

— Bo‘ladi, bo‘ladi, — Tanyuxa asabiyashib ketdi, katta qornini avaylab salmoqlanib o‘midan turdi.

— Bilib qo‘y, Kasha, nevaramni Aleksey deb ataymiz, mana shunisi adolatdan bo‘ladi, — kutilmaganda Foma kafti bilan stolga qarsilatlib urdi, Aldonin ham mushtini tuggi, Fomaning ko‘zini mo‘ljalga oldi-yu, oxirgi soniyalarda shashtidan qaytdi, mushtini bo‘shashtirib stolga urdi.

— Bo‘lajak nevarang, boboy, so‘zsiz Prokofiy bo‘ladi, — Aldonin juda yumshoq ohangda gapirdi, ovozi ham ingichka xirillash bo‘lib chiqdi, — u bobosining, ya’ni mening otamning nomini oladi. Bu ism bilan oshig‘i olchi bo‘ladi, sinab ko‘ramizmi-a, boboy?

Aldoninning oxirgi jumllari masxaromuz tarzda yangradi, bu shundoq ham Fomaning toshib ketayotgan sabr kosasini to‘ldirdi.

— Mana, aslida, kim ekansan! — xuddi umrida birinchi marta ko‘rib turgandek boshdan oyoq qarab chiqdi, — demak, ota-onani hurmat qilmaysan? Demak, faqat sening aytganing bo‘ladi? Demak, sen uchun kattalarning gapi bir tiyin? Demak, hech kim bilan hisoblashmaysan?

— Albatta, hisoblashaman, dadajon, sen tinchlanib o‘tirib olgin, kel o‘tir, — Aldonin uni stolga o‘tirg’izmoqchi bo‘ldi.

— O‘tirmayman, la’nati, o‘tirmayman, — Fomaning fig‘oni falaka chiqdi, — demakki, hurmat qilmas ekansan, bu uyga qaytib qadamningni bosmaysan, bu mening senga — oxirgi so‘zim, kuyovjon.

— Demak, oxirgi gaping shu, shunaqami, dadajon, — Aldonin afsuslangan ko‘yi bosh chayqadi, — yaxshi ish bo‘lmaydi, yaxshi ish emas... odamlarga gap-so‘z bo‘lasan.

– Qani, o'zing o'y lab ko'r-chi, – Fomaning ko'zi oxirlab qolgan samogon shishasiga tushdi, uni qadahiga bo'shatdi-da, bir ko'tarishda ichib yubordi, keyin og'zini yengiga artib gapini oxiriga yetkazdi – Xudo asrayman desa, bir asr ham gard yuqmaydi. Men odamlarning gapiga tupuraman, agar g'iybatchi xotin-xalaj gapiradi-gan bo'lsa, ikki karra tupuraman.

Agar shu paytda Nyurka kelib erining qo'llariga yopishmaganida, kim bilsin, bu voqeа qanday yakun topardi. Nyurka ham uni tinchlantira olmadi, kuyovning uyi tomonga qarab bor ovozi bilan baqira boshladi.

– Bo'l maydi! Bo'l maydi! – Fomaning ovozi ko'cha bo'y lab jaranglay boshladi. Nyurka uning yelkasidan siltab basharasini uy tomonga burishga harakat qilardi.

– Yur bu yoqqa, yur, – tishlarini g'ijirlatdi Nyurka, – tinch oilaning halovatini buzasan, takasaltang, qizingni, qara, zo'rg'a oyog'ini sudrayapti, oldida shuncha tomosha ko'rsatding. Yur dedim senga, yur, qachon shuncha bo'kib ichishga ulgura qolding.

– Og'zingni yum, shum kampir, – Foma xotinining tosh qotgan changalidan yoqasini chiqarib olmoqchi bo'ldi, – men qadam bosmaydi dedimmi, demak, qadam bosmaydi, tabiat ham... eshityapsamni, arzanda kuyoving qadamini bosmaydi.

Fomaning arazi ha deganda tarqamadi, bir hafta o'tib yo'lidan chiqib kelayotgan Aldoninni ko'rib, yo'lning narigi betiga o'tib oldi. Aldonin kulib, qalpog'ini boshidan oldi.

– Ehtiromim bo'lsin sizga, – deb shodon qichqirdi-yu, yana yo'liga ravona bo'ldi.

Foma ikki oyog'ini bir etikka tiqib oldi, xotini qancha yo'lga solishga urinmasin, bilganidan qolmadidi. Odamlarga qanaqadir Ke-sar degan mishiqiga ko'rsatib qo'yishini bot-bot aytdi, yuz yil kutmaydimi, bir kuni to mog'idan xippa bo'g'adi. Kunlar ketidan kunlar o'tdi. Bir kuni Fomaning uyquchan ko'zlariga Aldoninning sharpasi ko'rindi-yu zum o'tmay g'oyib bo'ldi, keyin esa xotinining sharpasini ilg'ab goldi.

– Hatto kechasiyam uyqu bermaysizlar, – uyqusirab ming'illadi Foma qorong'ida bir navi yubkasini tepaga tortayotgan xotiniga qarab.

— Tanyaning ko‘zi yorayapti, kasalxonagacha ulgurmadi, — Nyurka bor ovozi bilan baqirdi, — Verka, Verka, Ilyuta xolanikiga chop, ayt, tezroq yetib borarkansiz degin! Hoy, qari takasaltang, hech bo‘lma ganda chiroqni yoqib tur!

— Topgan vaqtini qarang, — uyqu aralash yelkasini qashlarkan Foma o‘ziga o‘zi pichirladi. Nyurka etagini pastga tortdi, bu orada Fomaga yana bir marta o‘xshatib o‘shqirgan edi, Foma o‘rnidan turib qanday qilib lampaga gugurt yoqqanini o‘z ham bilmay qoldi. Shu zahoti yodiga kuyovi tushdi, lafz qilgan, baribir bormaydi, nima bo‘lgan taqdirda ham bormaydi. Keyin yotog‘ining bir chetiga suyandi, yostiqning tagidan tamakixaltani olib, tamaki tutatdi. Bir daqiqa o‘tar-o‘tmas xonaga to‘lgan tutundan nafasi ortiga qaytib ketdi, boshi aylana boshladi, shosha-pisha cholvarini kiydi, karavat tagiga engashib boshmoqlarini qidirdi. Ortiq qidirishga toqati yetmadi chog‘i yalangoyoq kulbadan yugurib chiqdi. Jon-jahdi bilan yugurganidan oyoqlari qizarib ketdi, lekin na sovuqni, na og‘riqni his qilardi. Fomani ayvonda to‘xtatib qolishdi. Ostonada qishloqning kampirlari turardi, ostonaga yaqinlashmoqchi bo‘lganida, kimdir qattiq jerkib berdi, Fomaning yuragi g‘ash tortdi. O‘rtaga yana jimlik cho‘kdi. Shu ko‘yi biroz nafasini rostlab ayvon chetiga o‘tirdi. Foma oldida ishtonchan, ustiga yengil pidjak tashlab olgan Aldonin turganini endi payqadi. Lekin Aldoninning bugungi alfozini ta’riflash qiyin, yuzi dokadek oppoq, bo‘lib o‘tgan voqealardan yuragi yorilib ketgani aniq. Qanday bo‘lmasin kuyoviga biroz tasalli bergisi keldi, qo‘lida allaqachon o‘chib qolgan tamakiga qaradi-yu, yo‘qdan ko‘ra harna deb Aldoninga uzatdi. Aldonin tamakini hidlab ko‘rdi-yu, yuzini burishtirdi. Shu zahoti yerga uloqtirdi, oyog‘i bilan ezg‘ilab tashladi.

— Yigitchamiz keldilar, — sukunatni yarim ochiq eshikdan chiqqan Ilyuta xolaning ovozi buzdi.

— O‘g‘lim! — Aldonin o‘zini eshikka urdi, kirish mumkin emasligi esiga tushib qoldi chog‘i yana ortiga qaytdi, — Prokofiy tug‘ildi, — Aldonin hozir nima qilishi kerakligini umuman bilmasdi. Qaynotasini mahkam quchoqlab, boshini o‘ziga tortdi. Foma ham kuyovini bag‘riga bosdi, shu ko‘yi uzoq turishdi, bir mahal yana kulbada shovqin-suron ko‘tarildi. Ayollarning voy-voylashi eshitila boshladi,

yana o'sha baqiriq hamma tomonni tutib ketdi. Zum o'tmay hammasi to'xtadi, ba'zilar Aldoninni ichkaridan turib ikkinchi o'g'il bilan tabriklashdi.

– Egizakmi, – Fomaning ko'zлari hayratdan qotib qoldi, – men senga nima degandim, Keshka, baquvvatsan sen, itvachcha, barakalla! Mana, men o'zim... men o'shanda senga nima degandim, tabiatning o'zi ham...

– Mana bo'lmasa senga, otajon, Aleksey... – Aldonin bu vaqtga kelib biroz bo'lsa-da o'zini qo'lga olgandi, biroq ovozidagi ishonch-sizlik hali ham bo'lib o'tayotgan voqealarga ishonqiramay turganini ko'rsatib turardi.

– Ha, ota-onaning hurmatini joyiga qo'yishdimi, qo'yishdi, – Fomaning eski ginalari tarqab ketdi, faqat oyoqlari bilan paypaslab yerdan boshmoqlarini qidirdi-yu hech oyog'iga ila olmadi. Keyin yana kuyovining yelkasidan quchdi, – barakalla senga, qolaversa tabiat ham, – Foma yana kuyovini quchoqlashga chog'langan edi hamki, ostonada og'zi lang ochiq, yuzidan qon qochgan Ilyuta xola paydo bo'ldi, xonadagi ayollar ham tinimsiz voyvoylay boshladi. Shu payt xola bor ovozi bilan dunyoga uchinchi go'dak kelganini e'lon qildi, uchlikni suyuvchi xudo bu oilani ham uchlik bilan siylaganini gapirdi. Foma angrayib qoldi, ko'zлari soqqasidan chiqib ketgudek bo'lib Aldoninga qaradi, bu vaqtdagi Aldoninning turishi ham Fomanikidan mutlaqo farq qilmas edi.

– Ha, ha, – Ilyuta xolaning ko'zлari quvonchdan yoshlandi, – bunisi ham o'g'il, pahlavon, ularni urush balosidan o'zing asragin...

Aldoninning ko'zlariga qayg'u cho'kdi, shiddat bilan eshik tutqichini tortgan edi, u lang ochilib ketdi.

– Chirog'ingni o'chir, kampirsho, – Aldonin kira solib do'q urdi, – bolalarning ko'ziga tushayapti, axir.

Aldonin serrayib qoldi, bu yerda nima qilayotganidan taajjublandi chog'i yana ayvonga qaytib chiqdi, og'ir nafas chiqardi, ko'ngli taka-puka bo'lib uyga qulqoq tutdi. Naridan beri biroz yurgan kishi bo'ldi, ichkari tinchib qolgach ko'chaga chiqdi. Foma ham unga ergashdi. Tamaki tutatishdi, lekin hech kim tinchlikni buzib biron gap aytishni xayoliga keltirmasdi, ahyon-ahyonda kulba tomonga qarab

qo‘yishadi. Hozir u yerda nimalar bo‘layotgan ekan-a? Foma xayolida o‘zi bilan o‘zi gaplasha boshladi, xayoli uzoq-uzoqlarga ketdi, nima bo‘lgan taqdirda ham yaxshilikka, bira to‘la uchta g‘amxo‘ring bo‘ladi, yomonmi, axir.

– Sen, Keshka, birato‘la qahramon ota bo‘lding-qolding, – ser-rayib qolgan kuyovni biroz bo‘lsa-da o‘ziga keltirish uchun Foma ovozini balandlatdi. – Kolxozda seni orden bilan mukofotlaymiz. Hozir esa, qani ketdik biznikiga, ota-bobomdan qolgan NZ bor, qolaversa, urushda ancha-muncha hiylalarni ham o‘rganib kelganman. Xullas ketdik, tabiatan ham... hozir eng to‘g‘risi shu, – Foma uning qo‘ltig‘idan oldi, biroz o‘tib ikkovlon stol atrofida hozir bo‘lishdi, Aldonin o‘zining to‘latilgan qadahiga qayrilib ham qaramadi. O‘ychan shiftga tikilib qoldi. Foma uchinchi yoki to‘rtinchi qadahni bo‘shatganida ham Aldonin shu ko‘yi o‘tiraverdi, Foma tomoq qirib kuyoviga o‘zini eslatgan bo‘ldi. Nihoyat, Aldonin tilga kirdi.

– Echki sotib olishimizga to‘g‘ri keladi, dada, mana gap qayerda.

– Echki, – Foma aytilgan so‘zni bir eshitishda ilg‘ay olmadı.

– Echki, echki, – takrorladi Aldonin, – u foydali jonzot, kam yeysi, lekin suti hammaga yetadi.

– Bo‘lishi mumkin, lekin gustishliklar uchun bu hayvon la’natlangan hisoblanadi, – Foma tushuntirgan bo‘ldi, – agar echki boqqudek bo‘lsang, butun qishloqqa sharmanda bo‘lasan. Nahot, eshitmagan bo‘lsang?

– Eh, ota, ota, ko‘rinib turibdi, qishlog‘ingiz – g‘irt yovvoyi, – Aldonin ko‘rsatkich barmog‘ini ko‘rsatdi, – echki nima degan gap, shunday olib chiqib o‘tloqqa qo‘yib yuborasan, yemishini o‘zi topib yuraveradi.

– Mayli, mayli, – Foma bo‘lib o‘tgan dilxiraliklar yana takrorlanmasligi uchun yon berib qo‘ya qoldi, – kel yaxshisi, o‘g‘lim Keshka, ichamiz.

Xullas, shunday qilib Gustishda birato‘la uch nafar Aldoninchalar dunyoga keldi, ular hayratomuz tarzda juda tez oyoqqa turishdi, bir yoshdayoq oyoqlari chiqib, bobolarinikiga mustaqil chiqib bordigan bo‘lishdi. U yerda eski emanedek baquvvat Foma Kudelinning yelkalariga tirmashib chug‘urlashishadi.

Hammasi qanday boshlangan bo'lsa shunday tugadi. Ikki yillik qurg'oqchilik ham shu tariqa poyoniga yetdi. Lekin endi Gustishda yangi ayanchli manzara hukmron. Urushda o'ldirilgan gustishliklar soni bir yuz ellikdan oshdi, lekin nachora, hech narsani o'zgartirib bo'lmaydi. Urushdan jami yigirma sakkiz kishi qaytdi. Kimdir qo'siz, kimdir oyoqsiz, kimningdir ko'ziga o'q uchgan va h.k. Lekin hamma sekin-asta o'zining majruhlik qismati bilan murosa qila boshladi, masalan, traktorchi Ivan Yemelyanov xuddi o'zini bir oyog'idan ayrilmagandek his qiladi. Kunini traktorda o'tkazadi, ikki marta bir amallab shifoxonaga yotqizishdi, shartta o'rnidan turadi-da yana o'zini traktorga uradi. Ikki safar ham shifoxonadan ketib qoldi. Urushga ketgan tortinchoq, uyatchan Ivandan asar ham qolmadidi, hozir uning o'rnida mag'rur ko'k ko'z o'ktam bir yigit bor. Bir gal hamma traktorchilar, tirkamachilar yig'ilib tushlik qilib o'tirgan vaqtida Aldoninga gap otdi, uning uchlik borasidagi rekordini tez orada yangilashini aytib qahqaha otdi.

Lekin urush tom ma'nodagi jafokash insonlar sinfini yaratdi. Sog'-salomat bo'la turib vataniga qaytib kelmaganlar bo'ldi. Kimdir umuman boshqa mamlakatga bosh olib ketdi, kimdir nemis ayoliga uylanib, o'z oilasini tashlab ketdi, masalan, ulardan biri, qishloqning kattasi Toborov, qandaydir sabablarga ko'ra Avstraliyaga borib qolibdi, umuman begona ism bilan Gustishga, jiyaniga xat yuboradi. Xatda yozilishicha, u yerda g'alati bir mavjudot boqildigan fermaga ishga kirgan mish. Bu mavjudotning oyoqlari xuddi quyonnikiga o'xsharmish-u, lekin ancha katta va baquvvat emish, yana belida qandaydir xalta bo'lib, ikkita-uchta bolasini doim shu xaltaga solib yurarkan. Toborov Gustishni nihoyatda sog'inibdi, ayniqsa kengurular yashaydigan begona yurtlarga borib qolgandan keyin. Jiyaniga yolvorib Gustish haqida yozib yuborishini so'rabdi, har holda urushdan keyingi Gustish haqida bilgisi kelibdi. Toborovning jiyan frontortida jonbozlik ko'rsatgan, ko'kragi nishonlar bilan to'lgan yigit edi. Dab-durustdan, yana tag'in Avstraliyadan kelgan xat uni esankiratib qo'ydi. Xatni bir necha marta o'qidi, bir tomonidan shunday qarindoshi borligidan or qildi. Biroz o'tib amakisining

manzili yozilgan xat va unga yopishtirilgan ajoyib jonzot – kenguru muhrlı xatjild kamindan joy oldi. Shuning bilan Avstraliya bilan alo-qalar uzilib qoldi. Lekin bu xat so'nggisi bo'lmadi, Gustishga ke Yingi xat Kanadadan keldi. Andrey Razinov urushgacha Gustishning eng ko'zga ko'ringan yigitlaridan biri edi, uni ko'rganlar beixtiyor mahliyo bo'lib qolishardi. «Uzoqqa boradi hali», – derdi ko'pchilik. Mana xuddi o'sha Razinovning o'zginasi Kanadadan qari onasiga xat yozib turibdi: «butun urush davomida, Germaniyada yerosti harbiy zavodida tutqunlikda bo'ldim. Shunday aftoda holda Gustishga qaytolmayman, qishloqdoshlarimning ham yuziga qarolmayman, yuzim chidamaydi. Kanadada o'rmon ishi borligini aytishdi, shu yerga keldim. Bu yerda mahalliy hindular bilan o'rmonda ishlaymiz, ular ham kichkina uchburchak durracha kiyib yuradi, xuddi o'zimizning gustishlik qizlarga o'xshashadi. Shunday azobli kunlarimning birida o'zimga sal bo'lsa-da yupanch istadim va hindu qizlaridan biriga uylandim, hozir baxtdan sarkushman. Aytgancha, bu yerda bir tamoyil bor, sen uylangan ayoling bilan istagan ishingni qilishing mumkin, xohlasang uni chopib tashlaysan, xohlasang pishirib yeysan, u sening haqingga duo qilib turaveradi, bizning «kam-pirsholar» unaqa emas lekin».

Bu xat Gustishga ovoza bo'lib ketdi. Razinovning onasi achchiq ko'z yoshlar to'kdi, eshikma-eshik yurib xatni hammaga ko'rsatdi, dod-voy qildi. Noqobil o'g'ilni ham, uning boshini aylantirib olgan la'nati hinduni ham rosa qarg'adi, hamma anduhlarini bitta xatga joylashtirib shaxsan Stalining o'ziga yubormoqchi bo'ldi, lekin hamqishloqlar bir amallab to'xtatib qolishdi. Gustishdagi maktab direktori Pyotr Yeremeyevich onaizorning nomidan Kanadaga xat yozdi. U xatda onaizorning ancha keksayib, munkullab qolganini, bundan buyon unga qarov kerakligini, o'z qarorini o'zgartirib vataniga qaytsa, mayli agar hindu rafiqasini olib kelsa ham onaizorning ko'ngli taskin topishini, bu ketishda tez orada olamdan o'tishi ham hech gap emasligi haqida yozdi. Gustish muhri tushirilgan xat Kanadaga yo'l oldi. Tez orada onaizordan tashqari hamma xat haqida unutib yubordi. Chet elda yana bedarak ketgan besh gustishlik borligi aniqlandi, lekin hamma yerda vaqt shiddat bilan oldinga intiladi, vaqt bu insonlar haqidagi mish-mishlarni ham o'z domiga tortib ket-

di. Avvaliga rosa gapirishdi, pichirlashishdi, keyin esa hammaning xotirasidan o'chib ketdi.

* * *

Zaxar qirq sakkizinchı yil iyul oyining o'rtalarida Gustishdan, Yegordan kelgan navbatdagi maktubni oldi. Zaxarning bir necha oy davom etgan brigadirlik, yuk tashuvchilik ishi shu vaqtga kelib o'z nihoyasiga yetib qolgan edi. Endi hammani har xil joylariga yuborishdi, Zaxar mehnat ta'tiliga chiqdi. Tungi navbatchilikni o'tayotgan feldsherlardan biri Zaxarning shikoyatlarini tinglab, unga bir nechta kukun dori va ovqat tizimini yaxshilashni buyurdi. Manya indamasdan kukun dorilarni tokchaga qo'yib qo'ydi.

— Hoziroq qo'shnilarни chaqiraman, bir zumda ovqatlanish tizimingni boyitamiz-qo'yamiz, endi qobonga o'xshab yer titib ovqat izlashimiz qolgandi — Manya eshikni yopiboq Zaxarga yuzlendi, — go'yoki peshtaxtalar to'lib-toshib yotgandek tutadi-ya o'zini, go'yoki xabari yo'q.

— Qo'ysang-chi endi, — Zaxar uni to'xtatdi, — uning ishi shu, maslahat berish.

— Ozginagina suv quyamiz, — Manya suvda giyoh qaynatib, uni krujkalarga quyди. — Ol, ich, hammasi yaxshi bo'ladi, yaqinda tomorqa ishi boshlanadi, lekin bizga nima, ta'tilda bo'lsak. Mana baliqchi Ilyushka aytyni, o'rmon to'la meva emish, bir kunimizni ko'ramiz-da.

Eshik oldida turgan Ilyushka bir-ikki qadam oldinga tashladi. Uning qo'lida qandaydir xatjild bor edi.

— Ota, senga Gustishdan kelibdi, — xatni Zaxarning qo'liga tutqizdi, Zaxar bir necha daqiqa xatga qarab o'ylanib qoldi.

— Yegordan, — dedi u o'zi tomon qiziqsinib kelayotgan Manyaga qarab, — hozir hammasini bilib olamiz.

Zaxar xatni ovoz chiqarib o'qidi, orada biroz to'xtab, giyohli choydan ho'plab oladi, keyin yana o'qishda davom etadi. Har gal choydan ho'plaganida badaniga, ko'kragiga huzurbaxsh issiqlik yuguradi. Yegor naqd beshta maktab daftarining varag'ini to'lbiribdi, o'ziga qiziq bo'lib tuyulgan hamma narsa haqida yozibdi, yana

yozishicha, ularnikida Bryuxanov Tixon Ivanovich mehmon bo‘libdi, Yegor o‘sha kecha dasturxon atrofida bo‘lgan suhbatni ham to‘liq yozibdi. Aytishicha, ishlari joyida, Mitka-partizan bilan traktor haydashni o‘rganayotgan emish, yaqinda Lukarega tomorqa ag‘darishiga ham yordam beribdi.

— Ko‘rdingmi, — Zaxar o‘qishdan to‘xtadi, o‘ychan ko‘zlarini xatdan uzdi, Manya tasdiq ma’nosida bosh irg‘ab qo‘ydi (eri oldin-gi maktubida o‘g‘liga Lukarega yordam berishini tayinlagan edi). Ko‘rinib turibdi hozir eri qirq oltinchi yil kuzi bilan taqqoslayapti.

Oh, Manya hayron qoldi, axir kerak edi-da, qirq oltinchi edi, Zaxarushka! O‘tgan yilning yozida u qariyb xarobaga aylanib qolgan kulbani bir o‘zi epaqaga keltirdi. Yangi pechka qurdi, eshiklarni almashtirdi, xullas, hammasini bir o‘zi bajardi, Ilyushka undan ko‘p narsa o‘rgandi, u tobora otasiga o‘xshab borayapti, agar shu zaylda ishlasa. Yo Xudoyim, Manya xayolidan o‘tayotgan fikrdan cho‘chib tushdi, xursand bo‘lishimni qaranglar. Umrning oxirida yorishgan kulba, yaxshilikkanhammasi.

Zaxarning yoniga o‘tirgisi keldi-yu, biroq bolalar yonida bo‘lgan vaqtida bunday qilishni o‘ziga ep ko‘rmadi, turib yana xo‘jalik ishlariga unnab ketdi. Ilyushka hozir boshqa xonada, dars stoliga o‘tirib, kitoblarini varaqplayapti, kenjatoy Vasyaning qilar ishi buzg‘unchilik, hali uni sochadi, hali buni. Manya yana erining oyoqlari tomonga o‘tirdi.

— Chekishni kamaytirishing kerak, kechalari o‘pkang xirillayapti, — qaynayotgan ovqatga qarab qo‘yar ekan, gapida sekin davom etdi, — hammasi juda g‘alati, Zaxarushka, — moviy ko‘zlarini yerdan ko‘tarib eriga tikildi, — biz bu ahmoqona joyda nima qilayapmiz o‘zi, agar boshqalar kabi nochor bo‘lganingda ham tushunardim, erking o‘z qo‘lingda, to‘rt tomoning qibla bo‘lsa, nima qilayapmiz bu jin urgan joyda? Seni bu yerda nima ushlab turadi o‘zi, sira tushunmayman. Uyimizga ketaylik shu yerlardan...

— Yana o‘zingnikini ma’qullayapsanmi? — Zaxar qoshlarini chimirdi, bu mavzudagi navbatdagi suhbat bo‘lganligi bois avzoyi buzilmadi, — Manya, gap boshqa yoqda. Bu yerda meni hech kim bilmaydi, bu yerda o‘zimni xuddi zarbdorlardek his qilaman, — Zaxar bu gapni aytayotib juda g‘alati irjaydi, u bu gapi bilan o‘zidan

– Pastdagilar, aytishlaricha, Zagrebaga o‘xshaganlar har doim yuqoridagilardan olg‘irroq bo‘lishadi, hatto o‘taketgan turqi sovuq bo‘lsa ham, – xayrixohlik bilan dedi Zaxar.

– Nima, nima? – Manya aytildigan jumlani ilg‘ab ololmadi, Zaxar unga qarab jilmaydi, ayolning yuziga ham tabassum yugurdi, – men seni sevaman, jin ursin barini, – shivirladi u, – nimaga ekanligini o‘zim ham bilmayman... lekin oldingda o‘zimni xotirjam sezaman, – Manya o‘rnidan turdi, avval qaynayotgan qozonga, keyin bolalar xonasiga qarab qo‘ydi. Stolga dasturxon yozib kechki ovqatga tareddud boshladи. Zaxar ustiga paxtalik nimchasini tashladi, oyoqlariga avtomobil shinasidan ishlangan bejirim kalishini ildi, tashqariga chiqdi. Atrof suv quygandek jim-jit. Manya bilan bo‘lgan suhbat, Yegorkadan kelgan xat, barchasi bir kun uchun og‘irlik qildi, shuning uchun ham u hozir yolg‘iz qolishi kerak. Shu payt yuzini mayda chivinlar talab o‘tdi, Zaxar shoshilib ichkariga kirdi. «Illyushkaga mo‘rchani ostonaga qo‘yishini tayinlash kerak, – xayolidan kechirdi u, – vaqt keldi, axir».

Tun yarmidan og‘di, yo‘tal bir necha marta xuruj qildi-yu keyin xiyla qo‘yib yubordi. Hozir hamma shirin uyqu og‘ushida. Zaxar hammasini yaxshi biladi, Manya aytmasa ham, umrini yashab bo‘lganini, endi hech narsani o‘zgartirishning iloji yo‘qligini yaxshi biladi. Onasi bandalikni bajo keltirdi, usiz tuproqqa qo‘yishdi. Hatto ziyoratiga ham bormadi. To‘ng‘ichi Ivan xuddi bu olamda hech qachon bo‘Imagandek g‘oyib bo‘ldi, lekin ko‘zlarini yumdimi, tamom, shundoqqina ko‘z oldiga keladi, alamli nigohlari otasiniki bilan to‘qnashadi, xuddi hammasiga otasi aybdordek o‘qrayadi, Zaxar «men nima qildim, axir» deb shivirlaydi.

Zaxar ming‘irladi, yodiga yana o‘sha kun tushdi, hammasini ikir-chikirlarigacha aniq eslaydi, o‘shanda qo‘liga arqon ushlab olgancha omborxonada, Ivanni harbiy bilim yurtiga o‘qishga kirishga majburlagan, bolani holi-joniga qo‘ymagan, bola yerga qarab turaverган. Balki yuragiga azob beradigan ish ham aynan shudir yoki ketib qolganimi? Ketib qolmay bo‘ladimi? Kamiga Tixon Ivanovich Bryuxanovning shaxsan o‘zлari kuyovlikka saylangan bo‘lsalar, bu sizga ko‘ngilxushlik emas! Tixon Ivanovich Bryuxanov-a, Zaxar ning kuyovi. Eh Alyonka! Obbo, jin urgur qiz! Lekin nima deysan,

ular ham endi bir oila. Qorong‘ida katta gavdasini yotoqdan ko‘tardi, tamakisini topib og‘ziga soldi. Zim-ziyo xonada bir zumga gugurt chaqildi-yu, xonaning devorlaridagi qorong‘ilik ortga chekindi. Keyin yana avvalgidek zimiston cho‘kdi. U Yegorning allaqachon balog‘atga yetganini sezmay qolibdi, yozishicha, Mitka-partizan deganining traktorida tirkamachi bo‘lib ishlayotgan ekan. Zaxar Mitka Volkov deganlarini yaxshi eslay olmadi, keyin nega unga partizan deb nom berishgan, urushgacha qishloqda partizanlar bor edi, lekin uni... Zaxar ikki marta bu odam haqida Yegorgia savol yozdi, lekin Yegor bu savolni ikki safar ham javobsiz qoldirdi, kim bilsin, balki unchalik ahamiyatli deb hisoblamagandir. Zaxar bu dunyoga keli-shini o‘zi katta xato bo‘lgan deb o‘yladi, shu vaqtgacha hech kimga nafi tekkani yo‘q, na ota-onasiga, na uni jordan ortiq ko‘rgan rafiqasiga, na ularni baxtli qildi, na ularga quvonch berdi. «Qanaqa hayot bo‘ldi bu?» buruqsigan xonada o‘ziga o‘zi takror shu savolni berdi. Endi to‘xtatish qiyin, avval boshdan hammasining oxiri muqarrar bo‘lgan. Manyaga aytishga oson, «ketamiz», «ketamiz» deydi. Lekin qayoqqa? Asosiysi, nimaga? Bu bilan nima o‘zgaradi? Hech nar-sa o‘zgarmaydi, u avval ham otboqar Zaxar edi, bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Lekin endi... komendantnikiga boradi, unga Briliklarnikida bolalarga qilinayotgan munosabat haqida gapirib beradi, xo‘s, keyin-chi, komendant gapini ma’qullab boshini saraksarak qiladi, lekin bu odam juda ko‘p hodisalarining fahmiga bor-maydi, Varshava jangida yarador bo‘lganidan beri, keyin esa Zaxarni biron xilvat joyga olib kirishadi, qarabsizki, odamlar dom-daraksiz ketgan Zaxarning izini ham topisholmaydi. Zaxar tamakisini chekib tugatdi, lekin ha deganda uyqu kelavermadı. Yodiga birinchi marta bo‘linmaga borgan kuni tushdi, o‘shanda yigirma sakkiz yoshlar edi chamasi, norg‘il, ayni kuchga to‘lgan payti edi, boshidan qalpog‘ini olgan-u o‘tirib ariza to‘ldirgan.

13

Bundan ikki yil oldin ham uni boshqarmaga chaqirtirishgan, uzun yo‘lakda qari-yu yosh, novcha-yu pakana, semiz-oriq odamlar o‘z navbatini kutib o‘tirardi. Zaxar atrofga ko‘z yugirtirdi, biron bo‘sh

joy qidirdi, xayriyatki, bir burchak xoli ekan, borib o'sha yerga joylashdi. Ulardan ayimlari tanish, Zaxar uchun yangi chehralar ham ko'p. Lekin hozir hech kimning birov bilan ishi yo'q, katta og'ir eshik vaqtı-vaqtı bilan ochiladi, kimdir ichkariga kirib ketadi, kimnidir chiqarib yuborishadi. Bugun ayni shu yerda hammaning taqdiri hal bo'ladi. Bu odamlarni bir musibat birlashtirib turibdi, barchalari u yoki bu sabab nemislarga asirlikka tushib qolgan. Konslagerlaridan ozod qilingach bo'linmaga ularni ish joylariga taqsimlash uchun chaqirtirishgan. Vatanlariga qaytgach yana bir marotaba qattiq tergov qilishdi. Aytishlaricha, hammasini ochiq-oydin gapirish kerak, aks holda ayimlarni sud kutadi.

Ko'pchilik qatori Zaxar ham o'z ism-familiyasi yangrashini kutib o'tiribdi, eshikka qarar ekan, yuragi siqilib ketdi, kissasidan tamakixalta chiqarib, gugurt chaqdi. Atrofga tamaki tutuni tarqay boshladи, kimdir nafasi bo'g'ilib yo'taldi, kimdir Zaxarga ta'sip qilib tamaki tortdi. Zaxar jindek mudrab olmoqchi bo'ldi. Bu yerlarning nemis konslageridan o'lsa o'ligi ortiq, mana yana ozgina sabr qilsa bo'ldi, hammasi hal bo'ladi, ko'rgan-kechirganlari ortda qoladi. Zaxar ko'zini yumib xayoliga kelgan fikrlardan yengil tortdi. Lekin nima bo'lган taqdirda ham Gustishga qaytmaydi, qanchalar ayanchli bo'lmasin baribir qaytmaydi. Joylashib olgach Yefrosinya va bolallarni yoniga chaqiradi, shu ko'yi hayotlari ham izga tushib ketadi. Baribir qiziq, hozir shu yerda qancha odam bor ekan-a, ustiga-ustak qorovul ham qo'yishmabdi. Lekin bir tomondan keragi ham yo'q, xo'sh, qayergacha qochib borasan, undan ko'ra joyingda o'tir, qayerga yuborishsa, kulbangni qur-da, bilganingcha yashayver. Keyin yana tekshir-tekshir.

Zaxar tamakisini oxirigacha chekdi, ostida bir-ikki hovuch qolgan edi, tashlab yuborishga ko'zi qiymadi, avaylab kaftiga bo'shatdi da yana cho'ntagiga solib qo'ydi.

Zaxarni o'n daqiqalardan keyin chaqirishdi, yo'lakni egallab olgan olomonni bazo'r itarib-to'ntarib ko'zлari notanish, yosh, ziyrak tergovchining ko'zлari bilan to'qnash keldi.

- Deryugin Zaxar Tarasovich?
- Deryugin!
- Zaxar Tarasovich?

— Deryugin Zaxar Tarasovich, — deya tasdiqladi Zaxar tergovchining savol ma'nosida aytilgan jumlasiga javoban.

— O'tiring, o'rtoq Deryugin, — tergovchi bir talay qog'ozlar ichidan, bittasini sug'urib oldi va unga ko'z yugirtirib chiqdi, Zaxarning e'tiborini uning yuzi tortdi, ensasidagi tuklari tikanak, xuddi yosh bolanikiga o'xshaydi, g'alati jihatni malla, — qiziq, qiziq, — u boshini qog'ozdan ko'tarib suhabatdoshiga yuzlandi, — mana sizning anketangiz... unda qayd etilishicha, go'yoki siz, Deryugin, besh marotaba asirlikdan qochishga harakat qilgansiz... tasdiqlaysizmi shu ma'lumotni?

— Olti marta, — jumla Zaxarning tishlari orasidan sirg'alib chiqdi, — o'rtoq katta leytenant.

Tergovchi Zaxardan ko'z uzmay turib qog'ozga qalam bilan qandaydir belgi qo'yib qo'ydi, bu inson ko'rinishidan nihoyatda vazmin, ish uslubida xuddi shu vazminlik ko'rrib turardi.

— Ha, omadingiz kelmabdi, — kutilmaganda tergovchining ovozi-da achinishga o'xhash ohang paydo bo'lidi, Zaxarning yuziga hech qanday ma'no ifodalamaydigan sun'iy tabassum qalqidi.

— Nima ham qillardik, hayot doim kutilmagan qartalarни ochadi, — Zaxar ko'zlarini olib qochdi, keyin yana muloyimlik bilan qo'shib qo'ydi, — ba'zan hammasi jonimdan o'tib ketgan, lekin hayot davom etarkan. Ikki marta behush holimda ushlab olishgan, — keyin yana jimb qoldi, tergovchi boshiga tushganlari yodiga tushib ma'yus tortgan suhabatdoshiga tabassum qilib tasalli bergisi keldi. Uning yuzidan nihoyatda charchaganini payqash qiyin emas edi.

— Bilasizmi, hammani bag'rimizga olyapmiz, lekin sekin-astalik bilan, — bu gaplarni u hamdardlik bildirish uchun gapi rayotgan edi, — mana endi odamga o'xshab yashasa bo'ladi, urush ham tugadi.

Zaxar xayriyohlik bilan bosh irg'ab qo'ydi, lekin shu paytda juda qattiq charchaganini his qildi, bu liqildoq stulda o'tirish unga yanada malol kelayotgandi. Qolaversa, umrida urush ko'rmagan bu odam bilan urush iztiroblarini bo'lishib o'tirish g'alati tuyuldi.

Tergovchi jimb qoldi, keyin yana stoldagi qog'ozlarni ko'zdan kechira boshladi, ishidan zada bo'lgan ko'rindi, xonaning qaramaqarshi tomoniga o'tib cheka boshladi. Bu insonning yosh yigitlarnikiga o'xhash jussasi nima uchundir Zaxarning kulgisini qistatdi,

lekin insonga yupanch bera olish xislati istalgan odamda hurmat uyg'otadi. Mana bugun uni yana tekshirishyapti, nimaga ishonishmaydi, nimani bilishmoqchi, Zaxarning o'zi ham tushunmaydi. Aftidan hech kim unga ishonishga majbur ham emas, shu hayotga qaytgan ekanmi, demakki, sabr qilishi kerak, bu yigitcha ham o'z xizmat vazifasini bajaryapti, axir.

Tushlik payti bo'lib qoldi, Zaxar har daqiqada xunobi oshib tergovchiga qaraydi, hech qanday asos bo'lmasa ham bu insonning oldida bo'lish malol kela boshladi. Lekin hozir o'zi his qilayotgan ochlikni nemis konslagerida boshidan kechirgan vahshiyona ochlik bilan solishtirib bo'lmaydi, u lagerlarda ochlik tahqirlash, kamsitish, insonning naqadar nochor ekanligini ko'rsatish vositasi. Hozir ham ko'nglida qandaydir g'ashlik bor, to'g'ri, endi xiyla yengil tortsa bo'ladigan davr, lekin hozir mana bu yigitcha nima deydi-yu, yana boshiga nimalar tushadi. Hozir Zaxarning ko'nglini noxush qilayotgan yagona narsa – shu o'spirinning sukuti.

Zaxar shu kungacha ko'plab tergovchilarни ko'rgan, bir gal yigirma sakkiz yoshlar atrofidagi yosh tergovchi uni ancha tahqirlagan. Zaxar o'zini himoya qilish uchun biron so'z ham aytal olmagan. Shu-shu unda tergovchilarga nisbatan tushunarsiz qo'rquv bor. Zaxar hech qachon ular bilan do'slashib, til topisha olmagan.

Endi stulga yaxshiroq joylashib oldi, Zaxarni yana mudroq bosa boshladi, tergovchi ham shu daqiqani kutib turgan ekanmi, lop etib stol oldida paydo bo'lib qoldi. Asabiy holda qog'oz jilddan bir varaqni olib stol ustiga qo'ydi.

– Manzarangiz juda g'alati, chipor tus olayapti, mana, o'zingiz ham qarang-a, Deryugin, – tergovchi birma-bir sanay boshladi, – rafiqangiz sakkizta nemisga qo'shib uyining kulini ko'kka sovurgan, qizingiz avval partizanlar safida, keyin esa frontda... mana endi obkom sekretariga turmushga chiqayapti, to'ng'ich o'g'lingiz Germaniyada dom-daraksiz ketgan, bu ma'lumotlarning barchasi tasdig'ini topgan, sizning slovak partizanlari safida bo'lganiningizdan tashqari, albatta.

– Xo'sh, xo'sh... xo'sh, – Zaxar tergovchining aytgan gaplariga ko'p ham parvo qilmasdan yana mudradi.

– Nima xo'sh, – tergovchining nigohi Zaxarga qadaldi, xuddi shu daqiqada nimadir sodir bo'ldi.

Ko'zlar bir necha soniyaga to'qnashdi, dunyoda ko'rishi lozim bo'Imagan minglab azobni totib ko'rgan bir nigoh yosh, uquvsiz nigohga bazo'r toqat qildi. Endi u hammasini tushunib yetdi, aqli bilan emas yuragi bilan sezib turibdi, u hech qachon hech kimga ko'rgan azob-uqubatlarini so'z bilan tushuntirib bera olmaydi.

– Qulq sol, o'g'lim, – Zaxarni yengil yo'tal tutdi, yosh nigoh yana suhbatdoshini kuzata boshladi, endi u nimanidir noto'g'ri aytib qo'yanini tushundi, – yaxshisi, men bilan jo'nroq ohangda gaplasha qol.

– Qanchalik jo'nroq?

– Qanday bo'lsa, shundayligicha, boshqa hech, hech narsaning keragi yo'q, – biroz vaqt o'tib yana qo'shib qo'ydi, – butun tanamni muz bosgan, hanuz erigani yo'q.

Tergovchi churq etmadi, qog'ozlar tomonga engashdi-yu yana o'rnidan turdi, deraza oldiga borib ohista tebranayotgan ignabarg qarag'ayga tikildi. Xuddi shu paytda bo'g'ziga nimadir tiqilib qolgandek bo'ldi.

– Tergov tugadi, Deryugin, – tergovchi ortiga o'girilmadi, shu daqiqada ko'zları o'ychan tortib qoldi, – ko'rishguncha, borib tushlik qilib oling, hozir ayni vaqtı.

Zaxar bu gal dagi chaqiruv muddaosini umuman tushunmadı, ko'chaga chiqib atrofga sinchkov nazar tashladı, yoz oxirlab kuz ham yaqinlashib qolibdi. Nima uchundir boshi aylangandek bo'ldi, ko'z oldini xira qorong'ilik bosdi.

* * *

Mana Zaxarga mustaqil odamligini, bundan buyon o'zi istaganidek yashashi mumkinligini aytishganiga ikki yildan oshdi, biroq u hali-hanuz Manya va bolalarga ko'nika olmadı. Lekin Xirbatsk o'rmon xo'jaligidə oila uchun ajratilgan kulbani binoyidek qilib qo'ydi. Tomini qayta yopdi, pol va pechni ham o'zi to'g'rildi, eski-rib ketgan deraza romlarini almashtirdi, hozir bu yerda hafsalá bilan artilgan oynalar yaltirab ko'zni oladi.

Yegorkanining maktubini o‘qigach bu yerda qolib to‘g‘ri yo‘l tutganiga ishonchi komil bo‘ldi, vazifangni do‘ndirib qo‘ysan, vasalom, sen bilan hech kimning ishi bo‘lmaydi. U yerda-chi, har bir burchak, har bir xilvat o‘tmish haqida shivirlaydi, bu yerda ish tuga-gan. Endi bolalarni oyoqqa qo‘yish kerak, buning uchun oqko‘ngil odamlardan ko‘mak oladi, o‘zi tinimsiz mehnat qiladi.

Manya stolni yig‘ishtirarkan issiqliqdan yuziga qizil yugurdi, shuning uchun ham jundan to‘qilgan koftasini yechdi, lekin busiz ham xona issiq va shinam, uvullagan qish kechalarida Manyaning oyog‘i hech qayerga tortmaydi, lekin Zaxar bir necha da-qiqaga qo‘schnilarnikiga chiqib kelishini aytdi, Manya busiz ham charchoqdan yiqligudek bo‘lib turibdi, lekin Zaxarga e’tiroz bildirishning foydasi yo‘q. Shuning uchun jimgina bosh chayqab qo‘ya qoldi.

Bir necha daqiqa o‘tib Zaxar Briliklarnikida yetti kishi tizilib o‘tirgan uyning ostonasida paydo bo‘ldi, boshidan furajkasini olib salomlashdi. Birvarakayiga yetti kishi u tomonga o‘girildi. Yuzlari sovuqdan qizargan ayol cho‘mich bilan qaynayotgan chelakni aralashadirishda davom etdi, novcha, qotmadan kelgan Brilik salomlashish uchun Zaxar tomonga yo‘naldi. Lekin nima uchundir quti o‘chgan, yuz ifodasidan xuddi bir musibatga duchor bo‘lganga o‘xshaydi, tavba, bu inson navbatdagi zarbani yeyishga tayyorlanayotganga o‘xshaydi-ya. Zaxar uning qo‘llarini mahkam qisdi, undan suvda pishirilgan go‘sht hidi anqirdi.

– Buni qara-ya, yashashing shohona-ku, Stas.

– Bundan ortig‘i bo‘lmaydi, – Brilik ruschani bazo‘r gapirardi, so‘zlarni pachavasini chiqarib talaffuz qiladi, lekin mulozamat yuzasidan lablarini xiyol ko‘tarib tabassum qilib qo‘ydi, ayanchli ko‘zları esa o‘zgarishsiz qoldi, – kittik, Zaxar Tarasovich, orkamdan, – mehmon rozilik bildirmasidanoq eshikni ochib tashqariga chiqdi.

Zaxar uning ortidan ergashdi, qorong‘i tusha boshlabdi, shimol tomondan qora bulutlar yopirilib kelyapti. Quyosh ham allaqachon o‘z manziliga yo‘l olgan. Shu payt Zaxar og‘ir charchoq hissini sezdi. Yana bir bahorni qanday o‘tkazdik-a, hali bir yumushing oxiriga yetmay turib yana qishki mavsum boshlanadi, etni junjuktiradigan sovuq, yana qor va yana shamol.

Brilik uyga taqab qurilgan yog‘och imoratning eshigini lang ochdi, sara-sara taxtalarni bir joyga uyum qilib to‘play boshladi. Zaxar uning nima qilayotganini tushunmasdan iljayib turaverdi. Xo‘jayin ustma-ust taxlagan o‘tinlarni tomosha qildi.

– Burchakda, Zaxar Tarasich, burchakda, ko‘proq bo‘ladi, – Brilik ham iljaydi. Zaxar gap nimada ekanligini endi tushundi. Hovlidagi dorda o‘ndan ortiq kalamushning boshi osilib turardi. Ularga qaragani sari ko‘ngli oza boshladi, yuzidagi ifodani ko‘rsatmaslik uchun boshini quyi soldi. Botayotgan quyoshning eng so‘nggi nurlari dorga tushyapti, ilingan kalamush kallalarining rangi kumush tusda tovlanyapti.

– Yaxshilab kallamni qotirdim-da, shunaqa qopqonlardan beshta yasadim, – Brilik ko‘zlarini yanada qisdi, – ertalabga go‘sht bo‘ladi, bu ichaklarga nimadir tushishi kerak-ku.

Quyosh qalin bulutlar orasiga kirib, osmon limon tusini oldi, tomlarga tushayotgan eng so‘nggi shu'lalar ham ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi, Zaxar ketishga chog‘lanayotgan vaqtda Brilikning ovozi uni to‘xtatib qoldi.

– Baribir, hammasini chopib tashlayman, yuz yil kutmaymanmi, – Brilik qo‘lidagi xodalarni tashlab, bir g‘aramning ustiga o‘tirdi, – shu burchakda payt poylab turaman-da keyin chopib tashlayman, – maqsadsiz, ma’nisiz yana takrorladi u, – chopib tashlayman isqirtin...

Zaxar ortiga qaytdi, Brilikning oldiga o‘tirib kissasidan tamaki chiqardi.

– Jinni bo‘lma, Stas, kel, undan ko‘ra chekamiz, – Zaxar gazetaga o‘rog‘lig‘ tamakini Brilikka uzatdi, – ol, olsang-chi endi, uyalma, menda bunaqasidan naqd bir xalta bor, o‘g‘lim Xolmskdan jo‘natgan, bu Xolmsk tamakisi, juda mashhur.

Bir necha marta tamaki tortgach Brilik tabak ham bor-yo‘qligini so‘radi, Zaxar undan ham chiqardi. Brilik ketma-ket bir necha marta ichiga tortdi, keyin yuzi ham, qaltiroq qo‘llari ham xiyla osuda tortdi.

– Bu g‘aramni ham bolalar randalashgan, hammasining chiqiti o‘zi bilan, – oyog‘iga ilashgan payrahalarini qoqarkan davom etdi

Zaxar, – bu senga ota-onangning qo‘rg‘oni emas, shunaqangi gur-sullab yiqlasanki, suyaklaring ham qolmaydi, kimdan alamzadasan o‘zi?

– Zagreba ablahdan, – Brilik og‘ir nafas oldi, – kecha kechqu-run qizim unikiga boribdi, tongga yaqin qaytib keldi... u bor-yo‘g‘i o‘n besh yosh, axir, unikini tozalab berishga borgan, hech kimga hech narsa aytmaslikni tayinlabdi, har kuni kechasi borishni buyu-ribdi, qorong‘i tushishi bilan yana oldiga ketibdi, bu nimasi, Zaxar.

– Shoshma, uning o‘zi, qizning o‘zi, – Brilikning katta-katta ko‘zлari bilan to‘qnash kelishini taxmin ham qilmay ajablandi u, – uning o‘zi...

– Yana non bilan kolbasa yeishibdi, shakar choy qilib ichishib-di, rosa mazali vino quyib beribdi, keyin boshi aylanib ketibdi. Uyga ham non ko‘tarib keldi...

– Nimalar deyapsan, Stas, shu zumrashani orqasidan bolta ko‘tarasanmi, – Zaxar Brilikning ko‘zlaridan sizilib chiqayotgan tomchilarni ko‘rmay qoldi, – yuragingni mahkam berkit, axir, hali bolalaringni voyaga yetkazishing kerak.

– Nimaga... qanaqasiga, axir? – Brilikning ko‘zлari nafratga to‘ldi, – qaysi ayblari uchun jallodlarning qo‘yniga kiradi, yana kamiga quroq o‘qtalishadi. U avval ham u yerlarda menga tazyiq o‘tkazgan... endi esa yana... har gal suvdan quruq chiqadi. Men-da ham oxirgisi, unda ham... butun to‘dasini yig‘ib kelgan... butun qishloq uning mushtumzo‘rlaridan iborat edi. Bir mahal ahmoqlari-dan biri nima deydi degin: nimaga o‘zingni qiyansan, mana bizga qo‘yib ber, tutzorga olib borsak ham bo‘ladi, u esa yana hammani xo‘rlayli, xo‘rlayveradi... men xoinman, sotqinman, Zaxar Tarasich, bu alvasti umrimni yedi.

– Hech bo‘lmaganda, komendantning oldiga kirdingmi? – so‘radi Zaxar suhbatdoshining ko‘zlariga qaramaslikka tirishib.

– Yo‘q, – Brilik berilgan savoldan cho‘chib tushdi, – ular ham-tovoq... ahmoq boshliq, uniyam o‘ziga og‘dirib olgan, muttaham go‘rkov. Yo‘q, qo‘yib bersang butun oilam bilan tobutga tiqib ko‘mib yuboradi, jabr bo‘lsa, bir o‘zim tortaman, qizimning sharmandagar-chiligi uchun javob beradi... yegan nonining badalini to‘laydi.

— Mayli, Stas, men ketdim, senga yana bir marta aytaman, sabr qil. Chopib tashlaysan, xo'sh, keyin-chi? Ish qaltis, shoshilib nima qilasan, quyosh chiqqanda oy ko'rinmaydi, — tasalli berarkan, Stasning ko'zlariga qaray olmadi, nima uchundir aytayotgan gaplari uchun o'zini aybdordek his qildi, — Rakov quyib qo'ygan tentak, mayli, zulm hech qachon uzoqqa bormaydi. Yigitlarga yetkazib qo'y, dushanbadan ishga chiqaman, lekin tez orada...

Zaxar ortiga qayrilib qaramadi, to'g'ri uyga yo'l oldi, lekin ichiga bir iztirob tushdi. U hozir Briliknikiga nima uchun kelganini eslai olmaydi. Bu odam uchun nima qilishi mumkinligini ham bilmaydi. Bu hayot faqat uning bo'g'imlarini emas, yuragini ham zada qilib tashladi. Nima bo'lgan taqdirda ham yana boshqarma bilan bog'liq ishlarga o'ralashib qolmasligi kerak, Zaxar bunaqa ishlar dan zada bo'lib ketgan. Mana unga erki qo'lida ekanligini aytishganiga ikki yildan oshdi. Lekin xuddi endi urushdan chiqayotganga o'xshaydi. Hozir hammasi joyida, ayniqsa Manya kelgandan beri ancha dam oldi. Hozir ko'cha bo'ylab qadam tashlar ekan miyasida savollar g'ujg'on o'ynaydi: «Nimaga bordim o'zi unikiga?» — o'zini o'zi savolga tutdi u, — «Endi nima qilaman? Uning uchun nima qila olaman?» Ko'ngil taskin topishi uchun... allaqachon aqlini kiritib qo'yish kerakmidi. Bo'lmasamchi, tishlarini bittalab sug'urib olish kerak. Bu baloxo'r menga o'xshaganlarning qanchasini yutib yuborgan, lekin pinagini buzmaydi. Hamma bir-biriga u haqida pichirlaydi, lekin hech kim yurak yutib tiliga chiqarmaydi. Aslini olganda, birgina komendantning o'zi hammasini hal qilishi mumkin... lekin bu odam urushdan keyin aqdan ozib qolgan, jin ursin uni, nima bo'lgan taqdirda ham uning ko'ngliga qo'l solib ko'radi, balki bu bilan sharmandagarchiliklar yakun topmas, lekin hech bo'limganda biron kichik o'zgarish bo'ladi.

Zaxar uyga kirdi, lekin hozir hech kim bilan gaplashgisi yo'q. Tuzlangan baliqning sho'rvasiga non botirib yedi, qaynatilgan na'matak damlamasidan ustma-ust ho'pladi. Joyiga uzala tusharkan, xayoli yana o'sha voqealarga ketdi, bu komendant bilan qanday til topishish mumkin, hali bu gaplarni eshitsa nima deydi, lekin shunchaki indamay ketishga vijdoni yo'l bermaydi.

Shanba kuni komendant bilan uchrashdi, suhbat juda maroqli kechayotgan edi, lekin gap Zagrebaga kelib qadalganida uning quti o'chdi, ko'zları ola-kula bo'lib ketdi, shartta Zaxarning og'ziga urdi.

– Bo'ldi, o'chir ovozingni, Deryugin, hammasini aytmasang ham bilaman... bu ish tekshirilyapti, sen oldindan uvuldiriq tashlama, joningdan to'ydingmi yo? – xo'mraydi u, – senga maza, den-giz qushi, ta'til olding, men-chi, o'tirishimni qara, o'zi Moskvada sayr qilishimiz kerak hozir... tanishlarim ham ko'p u yerda, eee qo'y, o'zingdan gapir, sog'liqlaring qalay?

– Rahmat, – Zaxar ketishga taraddudlandi, – dushanbadan chiqaman, feldsher bo'ladi dedi.

Komendantning bema'ni, parvoyi falak basharasi Zaxarning qonini qaynatdi. Ayniqsa, u oppoq, yaltiroq tishlarini ko'z-ko'z qilib hirinlaganda o'zini bazo'r ushlab turdi. Zaxar qaytib gapirishni istamadi, kutilmaganda bu maxluq gapga tushib ketdi, aytishicha, Leningradda qandaydir kvartirasi bor, u yerga qaytib borishni o'ylab turibdi-yu lekin borishidan hech bir ish chiqishiga ko'zi yetmaydi, kim uchun boradi, chunki butun oilasi urush vaqtida blokadada qolgan ekan, Zaxar bu odam nega bunchalik gapdonlik qilayotganining sababini tushunmasdi, lekin sira ajablanarli joyi yo'q, oddiy suhbatlarda odamlar o'zları haqida hikoya qilib berishni ma'qul ko'rishadi. Bu orada Zaxar ham biroz hovuridan tushdi, komendant unga papiro uzatdi. U papiro tutatarkan komendantning tahlikali nigohlari o'zini bir necha marta ta'qib qilganini sezdi. U bilan gaplashish vijdon amri edi, lekin ko'rinish turibdiki, bundan hech bir ish chiqmadi. Xonaga kirayotgan quyosh nurlari tashqarida ham havo ancha ilib qolganini ko'rsatadi. Qiziq, oldida xuddi hali ham ishtonini ho'l qilib qo'yadigan ikki yashar bola o'tirganga o'xshaydi.

Suhbat shu asnoda tugadi, uyga ketish yo'lida Zagrebaning uyi atrofida uning odamlaridan biri – Roman Gribkinga to'qnash keldi.

– Sog'liq tilayman, Deryugin, – dedi u g'alamis ko'zlarini qisib tirjayarkan, – seni Pavlo Mixaylovich yo'qlayapti.

– Nega?

– Senda ishi bor ko'rindi.

– Qo'limizdan keladigan ish bo'lsa, bajonidil, boramiz, – Zaxar bosh irg'adi, ikkovlon uy tomon yo'nalishdi, shunda Zaxarning ko'zi

ikki ayol sharpasiga tushdi. Bir zumda Zagrebaning uyiga yetib kelişdi. Ostonada uni o'ttiz yoshlari atrofidagi istarasi issiq, ko'zları porlab turgan yigit kutib oldi. Stulni surib mehmonni o'tirishga taklif qildi.

– Nega chaqirding, – Zaxarning ovozi ancha qo'pollashdi, bu Roman Gribkin deganlari ham bir zumda qayergadir g'oyib bo'libdi, ko'rinib turibdi, ikkalalari yolg'iz qolishibdi. Shu payt qo'shni xonadan g'alati tushunarsiz tovush eshitildi.

– Juda shoshilyapsiz, – Zagreba hayron bo'ldi, – yoki xotinin-gizdan qo'rqsizmi, u vazmin ayoldek tuyulgandi menga.

– Vaqt tig'iz, kartoshka kavlashga yordamlashishimni so'ragan. O'ylashimcha, yakshanbada tovonbaliqqa jo'naydi, shekilli, aytishicha, hozir eng yaxshi ketayotgan baliq shu emish. O'zingdan qolar gap yo'q, kavsharlash ham zarar qilmaydi, – o'zini ta'qib qilayotgan ko'zlarga qaramaslikka urinsa ham Zagrebaning xayrixohlik bilan bosh irg'aganini ko'rdi.

– Nima derdim, qiyin vaqtlar...

– Qiyinki, asti qo'yaverasan, – Zaxar Zagrebaning yuziga tikildi, ko'zları avvalgidan ham qisilib ketdi, – o'tgan kuni desang, Stas Briliknikida bo'ldim, u mening brigadamda ishlaydi, – Zaxar endi Zagrebaning malla tusli ko'zlariga diqqat bilan razm soldi, odamga qo'rquv soladigan jihatı xuddi bu ko'zlarga muzdan parda to'shab qo'yilganga o'xshardi, – xullas, kirsam, go'sht hidi anqiyapti. Oh-ho dedim, hazillashib, Stas hammaga o'pkangni ko'rsatasan, lekin mai-shating go'sht ekan-da, – dedim, u esa meni tashqariga olib chiqib hovlisini ko'rsatsa degin... dorda o'n beshtacha kalamushning kallasi osilib turibdi.

– Nima?

– O'n beshtacha kalamushning kallasi osilib turibdi deyman... dumı bilan, borib birma-bir sanadim. Mana sizga go'sht bo'lmasa... O'g'lim bilan boraman-da tovonbaliqlardan olib Briliknikiga kirib boraman, to'qqiz jon, axir, balki qovirib, balki boshqa biron narsa tayyorlar.

– Naqadar jirkanch! – Zagrebaning oppoq, chiroyli chehrasiga qizillik tepib chiqdi, peshonasi va qoshining o'rtasi tirishib ketdi.

– Yordam qilish kerak, – Zaxar yengil yo‘taldi, bor vujudi ko‘zga aylanib qarshisidagi insonni kuzata boshladi, hatto arzimas narsa bo‘lsa ham ko‘zdan qochirmaslikka harakat qilardi.

– Yordam kerak, hammaga yordam berishning iloji yo‘q, – gapirar ekan, ko‘zidagi sovuqlik aft-angoriga ham ko‘chgandek bo‘ldi, – Hammaning ham bir tashvishi bo‘ladi-da.

– Bolalarga qiyin, ayanclli, xuddi och bo‘rivachchalarga o‘xshashadi. Ularning gunohi nima? Bu ketishda ertaga kim bo‘ladi?

– Qanday bo‘lishi kerak bo‘lsa, shunday bo‘ladi, Deryugin. Arzon-garov matohlarni yeb katta bo‘lishadi, hechqisi yo‘q, katta bo‘lishsa, hammasini tushunib yetishadi. Sen nega ularga jon kuydirib qolding? – Zagrebaning ko‘zlar yana qisildi, – o‘zingni o‘zing komissar qilib saylab oldingmi?

– Ketar vaqtim bo‘ldi, yigit, – Zaxar sekin o‘rnidan turdi, Zagreba bir-ikki yengil qadam tashlab uning qarshisida paydo bo‘lidi, – Mana bu yeringda, – Zaxar barmog‘i bilan uning peshonasini ko‘rsatdi, – qiyshiq bir narsa bor.

– Mana gap nimada, Deryugin, – Zagrebaning ovozi tahlikali va shuning bilan birga ancha sokin edi, – sen, albatta, mening chegaramni bosib o‘tding, bo‘lmasa senda qanaqa ishim bo‘lishi mumkin. Juda topib aytilgan bir maslahatni eshitishni xohlaysanmi? Dunyoda baxtli, huzur-halovatda yashashning birgina siri bor: birovlarning ishiga burun suqmaslik.

Zaxar devorga suyanib chekdi, yaqindagina bo‘lib o‘tgan suhabat mutlaqo tasodifdan xoli, hozirgina sukunatni yorib o‘tib jarang-lagan so‘zlarida dahshat, yo‘q-yo‘q qandaydir o‘lim nafasi bor. Odamlarning burchak-burchaklarga kirib pichirlashganicha bor ekan, u bugun ana shu dahshatning bir qismini boshidan kechirdi. O‘z holini mushohada qilarkan Zaxar o‘ziga o‘zi gapirdi: «Xo‘sh, xo‘sh... xo‘sh», papiros kulini yerga qoqdi, endi hammasi kundek ravshan: u endi Zagreba uni nima uchun chaqirganini, undan nima xohlayotganini biladi. Baribir qiziq: bu Zagreba deb atalmish ustoz afandi dumini likillatyaptimi, undan ko‘ra shunchaki maqsad-muddaoga o‘tib qo‘ya qolmaydimi? Lekin qanday aytadi, buni si ham bor-da. Ish qayerga borishini tushunyapsanmi, biron-bir burchakka sudrashadi, hech narsa qila olmaysan, Manya va bolalar

ham g'oyib bo'ladi, mana bunga o'xshaganlar esa atrofingni o'rab olishadi, o'laksaxo'rlar. Demak, qaysidir bir yaloqxo'ri yetkazib bo'lgan, u ham darrov meni topib kelishni buyurgan. Ko'rini turibdi, unga qarshi chiqishning foydasi yo'q, qo'lida o'nta kallakesari bor, bir og'iz gapiga mahtal. «Seni biron burchakda qo'lga tu-shirishadi, – Zaxarning tanasi muzlab ketdi, – shunday qilib ochiq havoda gaplashib olasizlar».

Oraga o'lik sukunat cho'kdi. Zagreba o'ziga mutlaqo yarashmaydigan ko'tarinki ohangda gap boshladi.

– Bilasanmi, Deryugin, yaxshisi, bugun kechqurun menikiga kela qol, – mutlaqo kutilmagan taklif berildi, – yaxshilab gaplashib olamiz, bunaqa apil-tapil emas. Hozir esa omborga bormasam bo'lmaydi, o'n uchinchidagi ehtiyyot qismlarini tekshirish kerak.

Zaxar bu taklifga ko'nib bo'lmasligini yaxshi biladi, bu qandaydir yangi tuzoq, lekin Zagrebaning ovozi shu qadar do'stona va samimiy chiqdiki, Zaxarga shubhalanishga hech qanday asos yo'qdek tuyuldi.

– Soat o'nlar atrofida kelsang ham bo'ladi, chaqchaqlashamiz, bugun yangi pivo tashlab ketishdi. Bundan tashqari, senda jiddiy ishim bor, yo qo'rqyapsanmi?

«Mana, birinchi qadam ham qo'yildi, – ko'nglidan kechirdi Zaxar, – orqaga chekinyapti, chamasi, yoki lashkarini yig'ib olishga vaqt kerak, bu orada menga ham biroz iltifot ko'rsatmoqchi, obbo shovvoz-e, obbo, ustoz afandim».

– Men kelaman, Zagreba, – uning ko'zlarida yana nimadir charaqladi, lekin zum o'tmay g'oyib bo'ldi...

«Jin ursin uni» – Zaxar tamaki chekishdan to'xtadi, shu tobda to-bora yopirilib kelayotgan vahimani tarqatish uchun o'ziga o'zi dalda berdi, – nimasi endi bu, nima, oyoqlariga yiqilishim kerakmi? Oyoqlarga yiqilasan, yolvorasan, ko'z yoshi qilasan, obbo bo'rivachchay! Menden unaqasini kutib bo'bsan, bir umr odamlarning ko'ziga tik qaradim, endi-chi, shu ablahning oldida-ya, hech qachon.

Ahyon-ahyonda ko'zga tashlanib qoladigan ignabarglar tebranayotgan qumtepaliklarda dimog'ga birinchi yashillik hidi urildi. Bu hid unga o'zining jonajon o'rmonlarini eslatdi, lekin hech kimga

yuragini tirnayotgan alamni tushuntirib bera olmaydi, shuning uchun g'ussaga cho'kkani ko'zlarini ufqqa tikadi.

14

Kechqurun Manyaning Zaxarni uyda olib qolishga qaratilgan barcha chorralari zoye ketdi, har qancha qarshilik qilmasin, u Zagrebanikiga yo'l oldi. Manyaning ahvolini tushunib turibdi, lekin hammasini ko'rib turibdi, bugun qo'rroqlik qilib u yerga bormasa, u o'zi odamlarini jo'natadi, u holda hech narsani to'g'rilab bo'lmaydi. U kutadi, bu aniq. Ayni paytda Zagreba oshxonadan taxta bilan ajratilgan burchakda mehmonini kutib olishga tayyorgarlik ko'rayotgan edi. Zaxar ostonadan hatlashi bilan ko'zi katta kitob javoniga tushdi, uning oldida zarhal jimjimador ramkada ikkita beligacha yalang'och ayol surati ilingan, ayollarning nim pushti, qaymoqrang ko'kraklari chiroq nurida yaltirab ko'rindi. Eshigi nim ochiq xonadan katta yog'och karavotning yarmi ko'rindib turibdi. Stol usti pivo shishalari bilan liq to'la, gazaklar ham xilma-xil: tuzlangan baliq, o'tkir hidli pishloqdan tortib nimtalangan ayiq go'shtigacha bor. Stolning o'rtasini aroq to'ldirilgan grafin egallagan. Zagreba qo'llarini artar ekan, Zaxarni stolga chorladi. Ko'rinishi ham ajoyib, mayin jundan to'qilgan yengil kostum bilan yoqasi qayrilgan oppoq ko'ylak kiyib olibdi, buning ustiga juda xushchaqchaq. Ochig'i bunaqa insondan shuncha o'zgarishni kutish qiyin.

— Ustki kiyimingni yecha qol, Zaxar, stolga, qani tezroq stolga, bugun tomoqni qaqratadigan kun bo'ldi o'zi... bo'la qol endi!

Zaxar kiyimini yechguniga mezbon qadahlarni to'ldirib qo'ydi. Zaxar qadahni qo'liga oldi-yu, tobora yaqinlashib kelayotgan xatarni payqagandek bo'ldi. Qadahini mezbonniki bilan urishtirar ekan, hurmat yuzasidan iljayib qo'ydi.

— Gazak qil, Deryugin, tortinma, — sanchqisini ayiq go'shti bo'laklari tomon cho'zgan Zaxarga qarab mehmonnavozlik qildi Zagreba, yarimlab qolgan stakanini og'zidan olib papirosh tutatdi. Zaxar hafsalala bilan oldiga olgan ayiq go'shtini bo'lakchalarga ajrata boshladidi, undan kelayotgan is ishtahasini qitiqlab yubordi, go'sht

ta'biga o'tirib qoldi, yana oldiga bir bo'lakni oldi. Bu orada Zagreba bir necha marta qadahini to'ldirib qo'ydi. Lekin muhit qanchalar osuda tortmasin, Zaxardagi bezovtalikni tarqata olmadi. «Ammo bu ustoz afandining muddaosi nima? Ko'p ham dasturxonga qovushmayapti, mening ovqatlanib bo'lishimni kutib o'tiribdi, qara-ya o'zi hech narsa yegani yo'q». – Zagrebani kuzatar ekan o'ziga o'zi dedi Zaxar, darhaqiqat bu inson Zaxarning ro'parasida o'tirib papiros tutatdi, hech vaqo yegani yo'q. Nima uchundir aft-angori oqarib, yal-tiroq ko'zлari ham so'nib qoldi. Shu turishida mehmon haqida umuman unutib qo'yganini taxmin qilish mumkin. U uchinchi marotaba mehmonning qadahini to'ldirib qo'ydi, Zaxar bosh irg'ab qo'yib go'shtni maroq bilan chaynashda davom etdi. U hozir aroqdan ko'ra ko'proq go'shtdan sarkush edi, tanovulni tugatgach bahuzur suyanchig'iga yastandi, kissasidan tamakixaltasini oldi.

– Mana qorin ham to'ydi, – mamnun ohangda dedi u, – rahmat senga, bunaqasini kutmagandim.

– Ol, Deryugin, osh bo'lzin, – Zagreba boshi bilan qadahga ishora qildi.

– Nima shu bilan tantanani tugatmoqchimisan. Shoshma, biroz chekib olaylik, – u oldida turgan qadahni nariroq surdi.

– Hay mayli, hamma o'z ehtiyojiga yarasha, men ichaman, – mezbon qadahini to'ldirib ko'tardi, – sening sog'lig'ing uchun, Deryugin.

– Undan ko'ra gazak qil, ichaklarining kuyib ketadi hozir, – dedi dam aroq, dam papirosni ustma-ust ko'tarayotgan Zagrebaga qarab. Mezbon tinimsiz u burchakdan bu burchakka yurib mehmonni umuman yodidan chiqarib qo'yganga o'xshardi.

– Har holda, Deryugin, ko'nglingdan bu jin urgur nimaga meni bu yerda olib o'tiribdi degan xayol o'tayotgandir. Xo'sh... – Zaxarning yuziga so'nganiga ancha bo'lgan tabassum qaytdi, yana ichini o'sha «nima kerak bunga o'zi» degan savol qoplab oldi.

– Ha, o'tayapti, qanday o'tmasin.

– Senga juda jiddiy gapim bor, Deryugin, – Zagreba Zaxarning yuziga tikildi, – lekin hech qanday istisnolarsiz, sen aqli odamsan, hammasini tushunasan. Ba'zi yaramaslar men haqimda bo'limg'ur gaplarni tarqatib yuradi. Nima emishki, hayvondan ham battar

emishman, qancha qizlarni abgor qilibman, yuragimga qandaydir tasqara o‘rnashib olganmish, bularni gapini qara, Deryugin.

– Menimcha, yigit, hali sen bilan sen-u menga borganimizcha yo‘q, – Zaxar hech narsaga tayanmasdan o‘rnidan turdi, ko‘ylagining eng yuqoridagi tugmasini bo‘shatib kutilayotgan olishuvga tayyorla-na boshladi.

– Unday emas, unday emas, – Zagreba ranjigan ko‘yi uni to‘xtatmochqi bo‘ldi, – mutlaqo unday emas. Yana qanaqadir safsa-talarga ishonyapsan, men kichkina odamman, Zaxar, bu yerdagи diligirliklardan harom o‘lyapman... Odamlar senga intiladi, sen ilg‘orlar sirasiga kirasan, yana senga intilishadi, lekin sira ilg‘orlarni xush ko‘rismaydi. Modomiki shunday ekan, bu yerda nima qilayapsan, nima keraging bor ularga?

– Shuning o‘zimi? – Zaxarning boshi qotdi, to‘g‘rirog‘i, suhbat-doshi uni gangitib qo‘ydi, – bilmadim, menda hech qachon bunaqa ishlar uchun bo‘sh vaqt bo‘lмаган. Ishimni bajaraman, faqat shuni bilaman, vassalom.

– Idrok qilib ko‘rsak... sen haqsan, har kim o‘zi uchun nima va nima uchun kerakligini bilishi kerak, – qo‘sildi u, – lekin har doim, har doim ham bunday bo‘lavermaydi-da, Deryugin. Ba’zilar nima xohlayotganini bilmaydi, lekin pildirab hammayoqni ostin-ustun qiladi, bir umr o‘zi ham bilmaydigan bir narsani qidiradi, bunaqlar oz deysanmi.

– Sen unaqalardan emassan, mo‘ljaling aniq, – ko‘rinib turib-di, vaziyat ancha yumshagan, endi tomoqni ho‘llab olish mumkin, Zaxar boyta surib qo‘yan qadahini oldiga surdi. – Ichamiz, – endi u ham suhbatdan ochila boshladi, yuzida do‘stona tabassum paydo bo‘ldi.

Zagreba ul-buldan yegan bo‘ldi, ichni kuydiruvchi aroqni og‘zida uzoq vaqt tutib turdi, mana endi, uchinchi qadahdan keyin ko‘nglida uzoq kutilgan halovat hissi uyg‘ondi.

– Haqsan, Deryugin, – Zagreba bir talaffuzdan ikkinchisiga juda ustalik bilan o‘tar edi, – ko‘rinib turibdi, sen o‘zingni hurmat qilasan, bu tashqaridan yaqqol seziladi, ammo, qani, ayt-chi, bu qanaqasi bo‘ldi, menimcha, odam o‘zining jamiyatdagi o‘rnini bilishi kerak. Xo‘s, sening o‘ming qayerda? Eng oxirgilarini o‘yla. Sen-

ga to‘g‘risini aytaman, sen meni bir ko‘rishda qiziqtirib qo‘yding. Seni uzoq vaqt kuzatib yurdim. Xaraktering g‘alati, qush kabi ozod bo‘lsang, istagan tomoningga uchmaysanmi, sen-chi, shu botqoqqa botib yuribsan. O‘rningda bo‘lganimda bir daqiqa ham yashamas edi... qiziq, juda qiziq. Hammasini oddiygina tushuntirish mumkin, – Zagreba katta panjalari bilan stolga ishora qildi, – uchrashishni xohlamaysan, o‘zing haqingda yangi gap eshitishdan qo‘rqasan. Mana o‘n yillardiki, shu yerda rus chivinlariga yem bo‘lyapman, moslashishim kerak. Menga siringni och, Deryugin, seni bu yerda nima ushlab turibdi? Hamma narsa bo‘lishi mumkin, lekin bugungi suhabatimizdan keyin yengil tortaman, bugun shu paytgacha topa olmaganimni shu yerda ko‘rmochiman... axir, qiziqishsiz hayot hayotmi? Kelishdikmi?

– Chuqurlashib ketayapsan, Zagreba, – Zaxar uning ochiqlik haqidagi gaplarini qabul qila olmadi, – bunaqasi ketmaydi, qiziqish emish, nimadir qayrilib ketishi hech gap emas.

– Bor, Zaxar, bor, – Zagreba yana ma'yus tortdi, lekin u hozir aytilayotgan har bir gapni tushunadigan darajada hushyor, – lekin, bular hammasi mayda-chuyda gaplar... tfu! Faraz qilaylik, qishloqqa ketyapman, hamma mening qishloqqa ketayotganimni biladi, jamiyatdagi qandaydir po‘pisaboz omborchi. Ko‘zga chalinmaslikka harakat qilaman, lekin senga-chi, Zaxar, odamlar takror-takror o‘girilib qaraydi, lekin menga qaragandek emas. Nega endi bunday deb, ko‘ngling og‘riydi. Nima bu hayot eliksirimidiķi, shuncha hovliqishsa? Sen tushingga kirsa ham hazar qiladigan bir joyda o‘z erki qo‘lida bo‘lgan odam yashasa, qiziq-da albatta, – Zagreba stol yonida paydo bo‘ldi, yarimlab qolgan qadahini ichib tugatdi, ortidan bir necha bo‘lak nonni og‘ziga soldi.

– Ishing tikanakzorga kirib bo‘libdi, burgut yigit, – Zaxar ham endi istiholasiz ochiq gapira boshladi, – endi uni qanday xalos qilasan?

– Bilgandim, Zaxar, men sening oliyjanob insonligingni bilgan edim, shuning uchun xoliroq gaplashib olaylik dedim-da, anavi dumalarsiz. Sen jo‘ngina, soddagina, faqat xayolingga boshqa gap kelmasin, boshqa ma’no qidirma yana.

Shu payt qo'shni xonadan shovqin ovozi eshitildi, unga kuchukning chiyillagan ovozi qo'shildi, darvoqe, Zaxar bu kuchukni bila-di, bu Zagrebaning mashhur nemis ovcharkasi Yashka. Itning ovozi chiqishi bilan xo'jayinining yuzidagi siniqlik o'chib tabassum paydo bo'ldi.

– Zerikdingmi, Yashkam mening, zerikdingmi? – Eshik yoniga borib itni xonadan chiqardi, bo'yи qariyb stol bilan barobar keladi-gan it Zaxarning oldiga yugurib keldi. Orqa oyoqlariga tayanib, old oyoqlarini stolga tiradi, katta tishlarini ko'rsatib Zaxarga qarab irilay boshladi.

– Hali beli baquvvat, – Zaxar gapidan kulib yubordi, shu payt qo'lini ko'tarishga kuchi yetmayotganini his qildi.

– Tinchlan, Yashka, o'zimizniki, – Zagreba kuchukning boshini siladi, kuchuk egasiga qarab qo'ydi-da, stoldan nari ketdi, Zaxarning oyoqlarini hidlab keyin polga yotib oldi. Zagreba bir nechta katta go'sht bo'laklarini otdi, kuchuk ularni havoda ilib olib deyarli chay-namay yuta boshladi. Zagreba it go'shtni ilib olishi va dumini quv-noq likillatishini maroq bilan tomosha qildi. Bu ikkovlon o'rtasidagi aloqa juda mustahkam, u oddiy xo'jayin va kuchuk munosabati-dan ancha yuqori turadi. Qishloqdagilar ko'ppakdan Zagrebadan qo'rqqandan kam qo'rqishmaydi. Zaxar yaxshi biladi, eng ma'qul yo'l Zagreba aytganidek, tinchgina, shovqin-suronsiz bu yerlardan bosh olib ketish, lekin u bunday qilolmaydi. Boz ustiga, bugungi ochilishlardan keyin. Qolaversa, qarshisida turgan qaroqchingining ga-pini ikki qilib bo'lmaydi, axir, bu kecha shaxsan uning xohish-iro-dasiga ko'ra o'tkazilmoqda. Jin ursin barini, o'zingcha gapdonlik qilasan, hech kim unga buyruq bergani yo'q. U hozir azbaroyi qiziq-qanidan shu yerda o'tiribdi. Qolaversa, bo'sh kelayotgani yo'q, bu qaroqchiga nimaniki o'ylagan bo'lsa, ro'yi rost, dangal gapiryapti. Lekin hali hech narsa aniq emas, ko'ramiz-da hammasi qayoqqa olib boradi.

– Birinchi marta ayiq go'shti yeishim, – Zaxar mezbonga qara-di, bu gapdan ham yana yangi qirralari ochilishini kutib.

– Yoqdimi, istasang yetkazib berib turishim mumkin, – Zagreba gapida davom etdi, – shu yerliklardan yaxshi ovchi tanishlarim bor.

– Chakki bo‘lmasdi, – ma’qulladi Zaxar, u hozir majburan bir o‘yinga kirib qolgan va bu o‘yining eng xavfli pallasiga yetib kelgan odamga o‘xshardi, lekin bu paytga kelib Zagreba ham ehtiyotkorlikni mutlaqo unutib qo‘ydi, u hozir ikki kuch o‘zaro to‘qnashganini payqadi, bu ikkovlonning holati daryo bo‘yida ko‘rishib qolgan ikki echkinikiga o‘xshab ketardi...

Suhbat asnosida Zagreba yana quyib ichdi, endi u yolg‘iz tunlarni qanday o‘tkazishi ma’lum, u o‘ziga qulay alfovda uzala tu-shadi, bu aqli ko‘ppak esa uzun qizil tilini chiqarib, xo‘jayinining yuzlarini yalaydi. «Obbo, jonivor-ey, bugungi maishatingga xalaqit qilibman-da». Yana biroz piypalanib o‘tirsa, kech qolib ketadi, hali ham kech emas, tezroq ketish kerak, Manya bolalar bilan bir o‘zi, ana endi xavotir ola boshlaydi, kim bilsin, hozir ko‘nglidan nimalar kechayotgan ekan, lekin ayni shu pallada Zagreba tamaki tutatib, gapning po‘stkallasiga o‘tdi.

– Ko‘rinib turibdi, – u endi to‘lqinlanib gap boshladi, Zaxar yerda yotgan it sharpasini payqadi, – shu yerda o‘tiribsan-u, Deryugin, xayolingdan men haqimda nimalar kechayapti. Isqirt, ablah, balki bundan ham yomonroqdir... Ich! – kutilmaganda Zagrebaning ovozi balandlashdi, kuchuk ham kutilajak voqealardan bezovtalanib chiyillab qo‘ydi. – Ich dedim, men bilan ichasan.

– Baqirma, Zagreba, gazak qilib olish kerak edi, – Zaxar xotir-jamlik bilan javob berdi, – ko‘rinib turibdi, men haqimda umuman hech narsa bilmaysan, meni kuch bilan hech narsaga majbur qila olmaysan, bunaqasi tarixda bo‘limgan, ichish masalasiga kelsak, qancha kerak bo‘lsa, ichaveramiz.

– Mana bu boshqa gap, – Zagreba nafasini ushlab turib, bir qadah aroqni ichib yubordi, ortidan Zaxar ham xuddi shunday qildi, lekin o‘z an’anasiga sodiq qolib, tobora ishtahasini qitiqlayotgan go‘shtdan gazak qildi.

– Yaxshi, to‘g‘rimi, Deryugin, men bilan chaqchaqlashib, tano-vul qilib o‘tiribsan, lekin men haqimda nima bilasan, – Zagrebaning ohangi dag‘allashdi, Zaxarga hammasi tushunarli bo‘ldi, bu insonni hamma doim markazga qo‘yadi, biroz bo‘shashdimi yana markazga qarab itarishadi, bunaqa itarishlar joniga tekkan, u oxiri qanday ya-

kun topishidan qo‘rqib yashaydi, – men sendan so‘rayapman, men haqimda nima bilasan?

– Nega endi sen bilan qiziqishim kerak? – savoldan Zaxarning achchig‘i chiqdi, – bundan menga biron naf bormi, Zagreba, sensiz ham tashvishim boshimdan oshib yotibdi.

– Agar sen yetarlicha oqil inson bo‘lganingda, meni tushungan bo‘larding, men ham ko‘nglimni bo‘satishni istayman, – qisqa va lo‘nda tushuntirdi u, – nima, seningcha men dunyoga shunday ko‘chmanchi holimda kelganmanmi? Menga, Deryugin, bolaligimda juda katta taqdirning bashorati berilgan, eshityapsanmi? – u ovozini pasaytirdi, – men nima uchun yutqizganimni bilasanmi, Deryugin?

– Bilmayman, – unga ro‘parasidagi odam nochor, tang ahvolda qolganga o‘xshab ko‘rindi.

– Mana ko‘rdingmi, bilmaysan, – davom etdi Zagreba, – men esa bilaman, faqat gapirish mumkin emas... har kecha boshimda yong‘in bo‘ladi, Deryugin, miyam yonadi. Nahotki, hammasi g‘oyib bo‘lgan bo‘lsa, umid, baxt, ertaknamo mamlakatlar – hammasi yulduzlardek tarqab ketganga o‘xshaydi. Endi faqat zimiston, pashshalar, – Zagreba uning yelkasiga qo‘lini qo‘yib o‘rnidan turdi, – ayiq, qaroqchilik, shaltoq.

– Mana, mana, ajoyib gapiryapsan, – Zaxar u tomonga yengil qadam tashladi, u hozir unga qarshilik ko‘rsatgisi kelayapti-yu lekin kundek ravshan, Zagreba suhbatdoshini bir daqiqa bo‘lsin nazoratdan chiqarmaydi. – Qanday bo‘lishi kerak bo‘lsa, shunday bo‘ladi, demak, irkit bo‘lishi kerakmi, irkit bo‘ladi, hech narsani o‘zgartira olmaysan.

– Bu hayotda pokiza nimanidir ko‘rdingmi, Deryugin, – tezlik bilan luqma tashladi u Zaxarning yuzida paydo bo‘lgan sarosimadan zavqlanib, – agar ko‘rgan bo‘lsang, demak, men ham umrimda birinchi marta shunaqa toifadagi odamni ko‘ribman. Dunyo irkit, undagi hammasi irkit. Nega jimbiz qolding, Deryugin, nega sarosimaga tushib qolding?

– Bor-eee, quyib qo‘yan artistning o‘zginasisan, – shang‘illadi u, tobora begona bosim ta’siriga tushib qolayotganini sezib, – sening o‘z hayoting, mening o‘z hayotim bor. Agar sening hayoting men uchun qiziq bo‘lmasa-chi?

- Nimaga qiziqmasligingni bilmadim-u, lekin e'tirozim yo'q.
 - Raxna solasan, raxna solasan, – Zaxarning ovozi o'zgardi, o'tmishini yodga olarkan isitma aralash alahlaganga o'xshaydi, juda-juda tanish, ulkan, ajal changalidagi o'tmish, lekin yodiga hozir hech narsa kelmayapti, bugungi suhbatga qovushadigan hech gap chiqmayapti, shu ko'yi Zagrebaning javob kutayotgan ko'zlariga qaradi, shodonlikdanmi yoki ma'yus tortibmi tanish jonzotning uvlashi eshitildi.
 - Kel, Deryugin, yaxshisi, ichamiz, – davom etdi u.
 - Ichish bo'lsa, ichamiz, – Zaxar uning oldidan stol tomon bordi, qadahini bosib to'ldirdi, – lekin, Zagreba, bilib qo'y, men sening so'zlarining uchun qadah ko'tarmayman. Bu masalada sening yo'ling boshqa, meniki boshqa. Masalan, sen ayollarni birga yotisha ga majburlasang-da agar...
 - Ularga kimning ko'zi uchib turgan ekan, – Zagreba masxaraomuz xoxoladi, – hammasi o'ziga pishiq, ishonaver, o'lib turadi hammasi bularning...
 - Bas qil, endi, Zagreba, – Zaxar uning gapini kesdi, – undan ko'ra ichamiz.
 - Foydasiz, menga kor qilmaydi, – hafsalasizlik bilan grafinni oldidan surib qo'ydi, – organizmim juda nozik, ko'p alkogolni ko'tara olmaydi, qittakgina ketadi xolos. Bu haqida eshitganmiding? Jin urgur odamlar buni nimalarga yo'yishmadi.
- Zaxar qadahini to'ldirdi, gazaksiz ustma-ust quyib ichgan edi, aroq juda bemaza tuyldi. U hali hanuz qarshisidagi odamning tabiatini tushunmadni, bu odam nima istaydi o'zi, ich-ichidan tezroq o'z hayotiga, yumushlariga qaytgisi keldi. Lekin shunchaki o'midan turib, eshikni yopib chiqib keta olmaydi, Zagreba bunga yo'l qo'yib ham qo'ymaydi. Bundan tashqari, hali hamon qandaydir bir xavf pisib yotganga o'xshaydi.
- Endi ikkovlon ham o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qoldi, Zagreba bolalik chog'larini esladi chamasi, vaqtiga vaqtiga bilan miyig'ida kulib qo'ydi. Zaxar ham xotiralarini kavlashtirdi, ayniqsa, oxirgi uch-to'rt yilda boshidan kechirganlarini. Slovak partizanlari safida yurganida yana asir tushib qoldi, hammaga o'lim hukmi o'qiladigan ne-

mis konslageridan ham tirik chiqdi, qarabsizki, odamlarning qo'l+ oyoqlari aralash-quralash bo'lib ketgan sassiq vagonda bir necha kun yotib inglizlar yashaydigan makonga tushib qoldi. Oxirgi yillarda boshidan o'tkazgan kunlari shunchalar g'ayritabiiyki, ba'zan o'zining ham ishongisi kelmaydi. Agar biron kitobda o'qiganida yoki kimdir begona mamlakatlar haqida hikoya qilib berganda ham ishongan bo'lardi, lekin o'z boshidan kechirganlarini... Lekin mana hozir bir botqoqzorda hech qanday qonun-qoidalarni pisand qilmaydigan «ustoz afandilarini» bilan otamlashib o'tiribdi, mana uning haqiqiy hayoti. Buni qarangki, bu yerdarda o'ziga shohona hayot qurban Zagrebaning o'zi ham ich-ichidan o'kinib yashaydi. Zaxarning miyasidan yarq etib bir fikr o'tdi, bekor bu yerga Manya va bolalarni chaqirtirgan ekan. Darhaqiqat, nima qilib yuribdi bu qaroqchilar lagidera o'zi?

Miyasiga kelgan fikrdan ruhi tushib bosh chayqadi.

— Ko'rdingmi, rozi bo'lding, rozi bo'lding, — Zaxarning bosh chayqashini Zagreba o'zi aytgan gapga tasdiq deb o'yaldi, — bu yerga kelganimda yigirma sakkiz yoshda edim, o'zim ham bilmayman, tarixiy parchalanishlarda inson huquqi haqidagi fikrlar quruq gapdan iborat bo'ladi, baland yangraydi, lekin hech narsa... F-u-u. Uzoqqa boradigan qirollik, Deryugin.

— Mayli, non-tuz uchun rahmat! — Zaxar sekin o'rnidan turdi, qaddini rostlab olishga xiyla qiyndi, — men endi boray.

— Borishing kerak bo'lsa, bor, bora qol, shundoq ham ushlanib qolding, — Zagrebaning ko'zlarida qandaydir bezovtalik bor edi, it ham o'rnidan turib, eshik oldiga yugurib bordi.

— Seni qara-ya, maxluq, — Zaxarga itning qilig'i yoqmadni, keyin uning xo'jayiniga qarab, — yaxshisi uni bu yerdan ol, Zagreba, kis-samda doim pichoqcha olib yuraman, biqiniga kirib ketsa, hammasi chappa ketadi. Xotinim, bolalarim bor, axir. Ularni boqishim kerak, ertaga tomorqa ag'darishim lozim.

— Yashka, bu yoqqa, — shu payt kuchuk uzun paxmoq dumini li-killatib, xo'jayinining yonidan joy oldi, — bunaqa deb o'ylamagandim, Deryugin, bora qol, lekin senga aytgan gaplarimni unutma. Yo shu yerning o'zida qulolqlaringdan tushib qoldimi? Yer yuzida yaxshi joylar ko'p, bu yerning nimasi yaxshi, bir burchakka tiqilib, unuti-

lishga mahkum bo‘lasan, bu senga to‘g‘ri kelmaydi, Deryugin, sira tabiatingga to‘g‘ri kelmaydi!

– Joy ko‘p, odamlar ham, – Zaxar hali-hanuz hammasi bunchalar jo‘n tugaganiga ishona olmasdi, nima qilsin, tezroq xayri-xo‘s qilib o‘zini ko‘chaga ursinmi yo...

– Yana bir gap, Deryugin, – Zagrebaning yodiga nimadir tushdi shekilli, mehmonni yana gapga tutdi, – haligi Brilik bor-ku brigadangdagi, meni chopib tashlash payida yuribdi. Sen uni biron chekkaga imlab ikki og‘iz shipshitib qo‘y, begunoh insonlarga tishini qayramasin. Nima keragi bor?

Zagreba juda aniq va qisqa gapirdi, Zaxarning ishonchi komil, u hozir qadahidagi so‘nggi tomchilarni og‘zidan quyib, oyoqlarini taxta pol ustida chalishtirgancha tushuntirish kutayapti.

- Nachora, alvido, Deryugin.
- Omon bo‘l, Zagreba.

Zaxar og‘ir eshikni itardi, ortiga o‘girilmagan bo‘lsa-da o‘ziga qadalib turgan o‘tkir inson va kuchuk nigohni his qildi.

– Bilasanmi, Zagreba, Xudo haqi, ikkimizdan qay birimiz to‘xtashimiz kerak, buni bilmayman. Arqon qancha to‘lg‘anmasin, bir kuni uziladi, shuni o‘ylab ko‘rmadingmi tanangga? Buni hech qachon qabul qilmayman, sen meni kim deb o‘layapsan?

Eshikni tashqari tomondan yopib ko‘chaga chiqdi, yuziga salqin shabada urildi, yoz bo‘lishiga qaramay kechalari etni junjiktiradigan sovuq izg‘iydi. Qorong‘ida bir necha uydan xira chiroq nuri taralyapti. Xuddi bu qorong‘ilik ich-ichiga kirib ketgandek bo‘ldi, shu qorong‘ilik ichida ham bir yigitning sharpasini sezgandek seskandi. «Obbo, hayvon-ey, juda quturib ketibsamni? – asabi tarang tortildi, – burun teshiklari kengayishini qara... xuddi yangi qon isini tuygandek, hali hayot senga ko‘rsatib qo‘yadi, u sen hidlab ketaveradigan qizlardan emas».

Qayerdadir zulmat bag‘rini yorib uzun chiziq paydo bo‘ldi, endi shamol esishi ham sekinlashdi. Atrosga qarar ekan, fusunkor tabiatdan yuragi quvонchga to‘ldi, Zagreba aytgan botqoqqa sira o‘xshamaydi bu yerlar, boz ustiga uning bolalari bor, aks holda bir zum bo‘lsin bu zulmatga dosh bera olmagan bo‘lar edi.

Yoz keldi va o‘z charxpalagini aylantira boshladi, tilog‘ochlarning barglari yozilib haqiqiy ignabargga aylandi, shamol uzoq-uzoqlardan uchirib kelgan chang-to‘zonne har tomonga sochdi, chang-to‘zonga burkangan shimol g‘ira-shira ko‘zga chalinadi, uning qish nafasi esayotgan xilvat botqoqlarida, son-sanoqsiz ko‘llarida ayanchli, og‘ir nafas izg‘irdi, hozir esa u yerdan o‘rdaklarning behalovat qichqirig‘i, g‘ozlarning g‘ag‘alashi yoki boshqa suv qushlarining ovozi keladi. Ular bu yerda ko‘payishib, nasl qoldiradi va tevarak-atrofga yoyiladi. Bu qushlar bilan atrofga anglab bo‘lmas, g‘alati tovush ham tarqaladi. Yo‘lda ketayotgan, ko‘l bo‘yida sayr qilgan, gulxan atrofida tunagan inson borki, uni eshitadi. Eshitadi-yu uzoq vaqt o‘ziga kela olmaydi, qanaqa ovoz bo‘ldi insonni junbishga keltiradigan, qoniga kirib oqadigan. U qaysi abadiyatdan uchib chiqdi, nega bunchalar behalovat. Elas-elas qulokqa chalinadigan noaniq ovozda bir olam g‘am bor, bu ovoz qulog‘iga kirgan odamlar ham o‘z qayg‘ulari haqida o‘ylay boshlaydi, o‘zini xuddi shu qorong‘ilikning bir bo‘lagiga aylanib qolgandek his qiladi. Bu yurakda shirin orzular bilan hayot alangasida kul bo‘lgan hasratlar bor. Lekin uni hech qachon hech kimga tushuntirib bera olmaydi.

Zaxar o‘ta og‘ir va g‘ayritabiyy o‘tgan mehmondorchilikdan qaytganida tun yarmidan og‘gan edi, oilasini tashvishga solib qo‘ymaslik uchun hech narsa demadi. Keyingi uchrashuvda birinchi bo‘lib Zagrebaning o‘zi gap boshladi, u hol-ahvol so‘ragan kishi bo‘lib, xo‘jalik ishlaridan gapirdi, atrofga tomoshabin yig‘maslik uchun uchrashuv qisqa va lo‘nda bo‘ldi. Uchinchi kuni Zaxar va Zagreba yolg‘iz uchrashishdi. Zaxar uchrashuvga oyog‘i tortmay bordi. Yana nari-beridan salom-alik bo‘ldi, Zagrebaning tamakidonidan tamaki olib tutatishdi, shu alfovza dunyoda bu ikki insondan ko‘ra inoqroq do‘sit yo‘qdek ko‘rinadi. Atrofga tamakidan chiqqan tutun o‘rlaydi, Zagrebaning munchoq ko‘zli kuchugi hech bir harakatsiz quloklarini dikkaytirib gap poyleydi.

– Qalay, Deryugin, hech narsani o‘ylab ko‘rmadingmi? – Zagreba do‘stona tabassum bilan gap boshladi, Zaxar shu zahoti qahqaha otib yubordi.

— Juda hazilkash chiqding sen, yigit... tovonbaliqqa boradi-ganman, yana nimani o'ylashim mumkin, — Zaxar xotirjam javob qaytardi, shu ondayoq Zagrebaning shirakayf insonni eslatuvchi ko'zlarida o't chaqnadi.

— Tovonbaliq deysanmi, tentak, — Zagreba o'ychan, xuddi Zaxarning oxirgi gaplarini eshitmagandek etigining uchi bilan yerni o'yib o'ynadi, — bu yaxshi, tovonbaliqni deyman, bolalargayam foy-dali, bu yerning qishi uzun, oynalardagi muz naqshni aytmaysanmi, ko'zingni uzolmaysan, haqiqiy go'zallik.

Yana bir-ikki jumla va bosh irg'ashlardan keyin tarqalishdi, Zaxar hozirgina xayrlashgan suhbatdoshi haqida o'ylagancha yumush-lariga qaytdi. Xo'jalik uchun bir-ikki joyni kavladи, keyin qayiqni ko'zdan kechirdi, ichiga yangi to'r tashladi, eshkaklarini tekshirdi, ko'ngli to'lgach Ilyushkani oldiga olib ko'lda suzishdi.

Qayiqdan chiqqan kichik to'lqinchalarda Ilyushkaning tikanak soqol bosgan ensalari qiyshayib ko'rindi, qayiqning tumshug' qis-mida o'tirarkan biron to'nka yoki daraxt ildiziga urilib ketmaslik uchun suvga diqqat bilan tikiladi. Zaxar yengil nafas oladi, atrofni maroq bilan tomosha qiladi. Qirg'oqlarda bo'tako'z, buta tollar chalakzor bo'lib ketgan, xuddi odamning ustiga bostirib kelayotganga o'xshaydi. Ularning tepasidan ignabarglar o'rin olgan, ularning ham ildizlari suvda. Qirg'oqda bunaqa daraxtlar ko'p, iloji boricha ularni chetlab suzgan ma'qul, ildizi suvda turib mo'rtlashib ketadi, qayiq-ning uchi xiyol tegib ketdi deguncha, shaloplab suvga ag'darilishi hech gap emas. Zaxar ham ularni chetlab suzdi. Qishloqdan o'ttiz kilometrlar chamasi uzoqlikdagi irmoqning atrofi ignabarglar bilan o'ralgan, Zaxar bu yerlarning baliq tutish uchun qulay joyligini yaxshi biladi. Bu irmoqning suvi kuzda kamaygan, o'shanda, deyarli, to'lqin bo'lmasdi, suvning ustini sarg'ish-kulrang mog'or qopla-gan. Lekin hozir bu sipo ko'l shu qadar shiddatga to'lganki, tezroq harakatingni qilmasang g'arq qilib yuborgudek pishqiradi, to'g'ri to'lqinlar qa'rida suzish yoqimli, lekin bunaqa joyda.

Zaxar ko'zlariga ishonmasdi, nahotki qarshisida uch kun oldin ko'rgan ko'l turgan bo'lsa. Ko'lning sathi uch kunda ancha yuqori-lab, notinch bo'lib qolgan edi. Qaytish uchun qariyb uch-to'rt soat suzishga to'g'ri keldi, qayiq urilgan katta to'nka uni ag'darib yubo-

rishiga sal qoldi, yana shunday to‘nkalarga urilmaslik uchun qayiqni qirg‘oqqa burishdi.

Bu vaqtga kelib quyosh ignabarglar ortiga bota boshlagandi, Zaxar ancha kechga qolganlarini tushundi. «Qorong‘ida qaytishga to‘g‘ri keladi, – Zaxarni vahima bosdi, – bu zimistonda ko‘zlar ni-manidir ilg‘asa, albatta... to‘g‘ri, ketish yo‘li oson, lekin uni ham bo‘ronda singan shox-shabba qoplab olgan bo‘lsa-chi, mana har qadamdan bir to‘ngak chiqayapti, xatardan xoli emas, shu yerda tu-nashga to‘g‘ri keladi, darvoqe, ish dushmanba kechqurundan ulguradi ungacha».

– Sakra, Ilya, – Zaxar qayiqqa ilakishib qolgan shox-shabbalarni olib tashladi, lekin hali uni suv ostidan mahkam tortib turgan shoxlar bisyor.

Ilya bir necha marotaba bosh siltab sochlariga yopishgan qizg‘ish qarag‘ay yaproqlarini qoqib tashlamoqchi bo‘ldi. Zaxar unga qarab mamnun jilmayar ekan, «quyib qo‘ygandek otasining o‘zginasi» de-gan xayol o‘tdi, lekin tiliga chiqarmadi, bolani cho‘chitib yuborish-dan cho‘chidi. Chunki bola endi-endi unga ko‘nikyapti, oxirgi vaqt-larda o‘rtalaridagi munosabat ancha iliqlashdi, orada o‘zaro ishonch uyg‘ondi. Hozir ular bir-birlarini so‘zsiz tushunadigan bo‘lib qolish-gan, Ilyushka javoban bosh irg‘adi, keyin odatdagidek ko‘ziga tush-gan uzun gajaklarini qo‘li bilan peshonasidan ko‘tardi, Zaxar kulib qo‘ydi, lekin hozir, shu daqiqalarda, Ilyushka allaqachon yag‘rindor, ensalarini tikanak soqol qoplagan, o‘z shanini himoya qilishga tay-yor erkakka aylanganini payqadi. Nega nolisin? Mana hayot, uning qarhisida, qayiqning tumshug‘ida o‘tiribdi, bundan ortiq nima kerak? Hech...

Uzoqdan o‘sha ko‘ngilga yaqin joy ko‘rindi: bu katta jarlik-ning yoqasi, ikki tomonida ham onda-sonda bo‘yi osmon qadar keladigan qarag‘aylar uchraydi, keyin yuqoriroqda o‘tloq bor, unda chag‘alaylar chug‘urlashib u yoqdan bu yoqqa yuguradi. Qayiq tumshug‘i yumshoq qum ustiga chiqdi, Ilyushka sakrab tushib uni ortidan ergashtirib sudray boshladi.

– Keldik... aslida insonga shuning o‘zi yetadi, lekin u har doim och, unga hamma narsa kamdek tuyulaveradi, – eshkaklar ni bo‘shatarkan dedi Zaxar. Uvushib qolgan oyoqlarining chigilini

yozdi, hech o‘zgarishsiz qolgan manzara, boshini xam qilib turgan tol butoqlarga qarab ko‘zlari quvnadi, – shu yerda tunab qolamiz, Ilyushka, qorong‘ida ketish xavfli. Pashshaxonani ol, kechga shox-shabba yig‘ish kerak, bir baliq qaynataylik, xohlasang, albatta.

– Xohlayman... zo‘r bo‘ldi, – Ilyushka bir daqiqada ignabarglar bilan to‘lgan jarlik yoqasida paydo bo‘ldi.

Zaxar qayiqni yanada quruqroq joyga sudrab keldi, tunash uchun kerak bo‘ladigan barcha anjomlarni olib qayiqni yana suvga sudradi. Bir necha daqiqa o‘tib bo‘liq tovonbaliqlar qayiq ichini baquvvat dumi bilan urib do‘pillata boshlandi, Zaxar qarmog‘ini qo‘ydi. Baliqlarning tangachalarini qirdi, ichak-chavog‘ini ag‘darib, suvda chaydi. Ilyushka quruq shox-shabbalarni yig‘di, qarag‘aylarning sinib qolgan butoqlarini kesib oldi, ularning ustidan yengil doka tashlab qo‘ydi, qarabsizki, gulxan oldida xushchaqchaq tun boshlandi. Qozon ilindi. Tun og‘ishiga ozgina vaqt qolgan bo‘lsa-da g‘ira-shira yorug‘lik bor, ufq tun cho‘kishidan oldingi qizg‘ish tusga kirgan. Bu yerlarda qorong‘i tushishi bilan tuman tushadi, hozir ham tumanning ilk belgilari ko‘rinish berdi.

– Baliqni ertaga tanlaymizmi? – so‘radi Ilyushka tutun isidan yo‘talarkan, u hozir dimoqni yoradigan baliq isidan yutunib qo‘yyapti-yu, sir boy bergisi kelmaydi.

– Ertalabdan oldinroq tanlasak-chi, nima endi pashshaxonada ovqatlanamizmi? Bunaqasi ketmaydi.

– Hozir o‘zim to‘g‘rilayman, – oldindan javobni bilgandek Ilyushka ishga kirishb ketdi, – tez orada uxlaymizmi?

– Istisno qilsak bo‘ladi. Baliq qaynatish nima degan gap. Qaynagan suvga solasan – vassalom.

Ilyushka pashshaxonaning yonini tepaga qayirib qo‘ydi, kechlik uchun joy hozirladi, Zaxar unga bug‘i chiqib turgan qozonni tutqazdi, o‘zi ham pashshaxonaga kirdi. Hammasi saranjom-sarishta. Qalin nondan ikki bo‘lak kesilgan, qoshiqlar yaraqlatib artilgan, yirik donachali kumushrang tuz va gugurt ham dasturxonadan joy olgan. Zaxar o‘g‘lini ichida maqtab qo‘ydi. Ikkalalari ham ovqatga sho‘ng‘ib ketishdi, seryog‘ baliqsho‘rvaga non to‘rg‘ab yeishdi. Ilyushka birinchi bo‘lib ovqatdan qo‘lini tortdi.

– Oh, qornim to‘ydi, – o‘zidan taajjublandi u, – qara, hozir qornim yorilib ketadi.

– Hechqisi yo‘q, quvvat bo‘ladi, – qoshig‘idagi go‘shtdan qilta-noqlarni sug‘urarkan javob qildi u, – hali ovqatdan bo‘kib hech kim o‘lmagan. Bilasanmi, bobong Makar nima degan, nuqul to‘q qoringa bolta ursang, abjaq bo‘lmaydi derdi.

Zaxar xuddi oltin izlovchiday qozonning ichini ko‘zdan kechirdi, baliq sho‘rvanining qoldiqlarini non bilan sidirib oldi, keyin pashshaxonaning biqiniga chiqarib qo‘ydi.

– Sen uxlayver, – dedi o‘g‘liga, – biroz chekaman, keyin o‘zim yuvib qo‘yaman.

– Biz bunaqa kelishmagandik, dada, – Ilyushka pashshaxona dan yugurib chiqdi, qozon ishqlash uchun bir g‘ujum o‘tni yuldi-yu suvga chopdi. Bu paytga kelib quyosh ignabarglar ortiga cho‘kkan, sharq tomondan mayin shabada esishni boshlagan edi.

Atrofga jimlik cho‘kdi, ahyon-ahyonda baliqlarning suvning betini shaloplatgani, o‘rmon qushlarining sayrog‘i eshitiladi, lekin bu ham xuddi sukunatning bir bo‘lagiga aylanib qolganga o‘xshaydi. Deyarli barcha irmoqlarning usti qayerdan hosil bo‘lgani noma’lum qalin tuman bilan qoplangan. Ilyushka qo‘lini qo‘ltig‘igacha tumanga cho‘zdi, na qo‘lini, na qozonni ko‘rib bo‘lardi. Bu yer dan qirg‘oqdagi gulxan xuddi oltin sochayotgan buloqqa o‘xshab ko‘rinadi, atrofidagi ignabarglar ustunlari ham uning shu’lasida tovlanib, to‘q qizil oltindek tovlanadi. Birinchi marta tunning xira, ohista tebratadigan go‘zalligi ichiga kirdi, jo‘shib ketdi chamasi, noodatiy nimadir qilgisi keldi. Balki tun qo‘ynida yugurar, qirg‘oqdan sakrab tushar, balki qulochini yozib samoga parvoz qilar, xullas, hozir nimadir qilgisi bor. Tumanning xira tomchilar iyoqlari orasida o‘ralay boshladи. Xuddi kimdir mayin ovozda uning ismini aytib chaqirgandek bo‘ldi. Shundan keyin yuragi or-qasiga tortib ketdi, tezroq gulxanga, otasining oldiga chiqib olishi kerak. Suvga engashdi, yuziga tumanningsov uq havosi urildi, qozon bilan qoshiqlarni ishqlab yuvdi, keyin esa shoshilmasdan ortga o‘girildi, xiyol o‘pkasini bosib gulxanga yo‘l oldi. Zaxar pashshaxonadan uyquchan ovoz bilan uplashga chaqirdi.

– Hozir, ota, ketayapman, ketayapman, – katta-katta ko‘zlarini gulxandan uzmay javob qildi, hammaning o‘z g‘am-tashvishlari bor, bu borliq hammaning alamlarini zimiston ichiga yashirib qo‘yganga o‘xshaydi, Ilyushka bilan hozir yonma-yon yotgan inson uning dasasi, lekin hali ikkalalari ham ochilib gaplashishmagan, bu inson hech qachon o‘zi haqida gapirmaydi, lekin uning ham ichini yemirib tashlaydigan alamlari bor, hech qachon hech kimga churq etmagan bo‘lsa ham bor.

- Ota, – sukunatni buzishdan cho‘chib past ovozda pichirladi.
- Ha, o‘g‘lim, – Zaxar uyqu aralash javob berdi.
- Hech Gustishni ham eslab turasanmi?

Bolaning ovozida g‘amginlik bor edi, Zaxar ko‘zlarini ochdi, shu zahoti uyqusи tarqab ketdi.

– Albatta, eslayman. Eslamay bo‘ladimi, o‘zing hisoblab ko‘r, deyarli, umrim o‘sha yerlarda o‘tdi.

Zaxar pashshaxona ichidan turib javob qildi, keyin tashqariga chiqib gulxan oldidan joy oldi, cho‘ntagidan tamakixaltasini olib biroz tutatdi. Boshida sira gaplashgisi kelmadi, bunaqa vaziyatda, qolaversa, nihoyatda og‘ir o‘tgan kundan keyin suhbat qurib o‘tirishga toqati yo‘q edi, lekin qandaydir ichki ovoz unga hammasini to‘kib solish haqida shipshitardi. Shu payt qalin butazor shitirlab e’tiborni tortdi, har ikkisini vahima bosdi. Zaxar ehtiyyot shart gulxan oldida turgan boltani ko‘tardi, lekin shitirlash juda tez tugadi, endi u ancha uzoqdan eshitila boshlagandi.

– Ba’zilarning sho‘xlik qilgisi kelib qolibdi-da, – xayolidan kechirganini tilga ko‘chirdi u, – bu yerda bug‘ular bor, qobon, ba‘zan, ayiqlar ham uchrab turadi... to‘g‘ri, biz ularni tashrifimiz bilan cho‘chitib yubordik, – oraga yana sukunat cho‘mdi, ikkovlon ham shamolda ohista chayqalayotgan ignabarglarni tomosha qilishdi, – bilasanmi, Ilyushka, bundan buyon har nima qilib bo‘lsa ham vaqt topamiz, men senga Gustish haqida gapirib beraman, yoshing ham ancha ulg‘ayib qoldi, o‘n beshga kirayapsan.

Zaxar gulxandan yonib tugamagan xasni olib tamakisini tutatib oldi, havo ancha salqinlashdi, yuziga yopirilib chaqayotgan chivinlarni beparvo qo‘rib qo‘ydi.

– Men yaqinda qirq oltiga kiraman, o‘g‘lim... ha, ha, shunaqa, sendan naqd o‘ttiz yosh kattaman. Poylaganimiz endi nishablikdañ o‘tdi, chamamda, shoshma, o‘ljani tutishga shoshilma... o‘shanda hammasi juda g‘aroyib edi, quturgan quyundek edim-da o‘ziyam. Endi esa ba’zan o‘ylab qolaman, aniqrog‘i, o‘zimdan o‘zim so‘rayman, suronsiz yashash mumkin edi-ku, osoyishta. To‘nkalar orasida kechib, yarqiragan ko‘lmaklarni tomosha qilib degandek. Shunday bo‘lishi ham mumkin edi... Dangalchi hech qachon qing‘ir yo‘lga yurolmaydi. Urushgacha hayotim to‘kis edi deb oshirib yubordim: kunlardan bir kuni onangni sevib qoldim. Juda qattiq sevdim, shuning uchun ham boshimda ko‘p kaltak sindi. Keyin esa sen tug‘ilding, sening oldingda otalik vazifamni bajarishim kerak, axir. Balki bularning hech biri kerak bo‘lmagandir. Bilsang eding, meni qanaqa katta oilam, bolalarim bor edi. Sen yoki boshqalar, kim qancha xohlasa istaganicha qoralashi mumkin, yoki o‘zim o‘zimni jazoga mahkum qilishm kerakmidi. Lekin, men bunday qilolmadim. Onang bilan bir-birimizsiz nima qillardik? Qorong‘i yerto‘lada umrim o‘tgan bo‘ldi. Lekin dunyo ham qorong‘i yerto‘ladan qolishmaydi. Demakki, hammasi shunday bo‘lishi kerak bo‘lgan. Urushda omadim chopmadi. Hali u konslagerda, hali bu konslagerda tutqun qilishadi, qochaman, yana tutib kelishadi, olti marta qochdim. Hali ham gumon ichida yuraman, men hech qachon Xudoga ishonmaganman, hozir ham ishonmayman. Bunday tasodiflar qanday sodir bo‘lishiga aqlim yetmaydi. Juda g‘alati... sening bobokaloning, Akim Makarovich bilan Dyusseldorfdag‘i bitta lagerga tushib qoldik.... Germaniyada shunaqa shahar bor. U yerda yana bir kishi bor edi, u ham gustishlik, ismi – Xariton Antipov, taqdir kulib boqdi. Hammasi sening bobong tufayli, Ilya, u meni qidirib topdi, qutqardi, o‘zi esa halok bo‘ldi, ana shu yerlarda nom-nishonsiz qolib ketdi, men hali hech kimga bu haqida aytma-ganman, faqat senga aytyapman, erkakcha suhabat bo‘lgani uchun.

Zaxar miq etmasdan olovga tikilib qoldi, Ilyusha ham ortiqcha savol bermadi, otasining hozirgi holati juda ajoyib, hali bu insonning ichida yana qancha sir yashirinib yotibdi, lekin bola baribir xursand bo‘ldi, ayniqsa otasi unga hech kim bilan bo‘lishmagan qayg‘usini to‘kib solganidan suyundi.

– Men senga, Ilya, u haqida keyinroq bat afsil gapirib beraman, hozir yodimga boshqasi tushib ketdi. Nima bo‘lishidan qat‘i nazar, inson doim haq yo‘ldan borishi kerak, to‘g‘ri, u juda mashaqqatli, lekin ichida mustahkam bir asos bo‘lsa, u albatta, o‘zini topadi, o‘lim ham u uchun qo‘rquinchli bo‘lmaydi, – yosh, bejirim qoshlarini chimirib turgan o‘g‘liga qarab qo‘ydi, – uplash kerak, uplash... nima endi, kechasi bilan valaqlashib chiqishimiz kerakmi? Yur, Ilya, pashshaxonaga kir.

– Hozir, ota, bir daqiqada qaytaman.

– Keyin eshigini tushirib qo‘y, men uxlayman, – chekib bo‘lgan tamaki qoldig‘ini gulxanga otdi, o‘g‘li bilan bo‘lgan o‘zaro yaqinlashuvdanmi yoki suhbat zavqidanmi yuzida nim tabassum paydo bo‘ldi, keyin yerga cho‘zildi.

Ko‘zini yumdi-yu mudray boshladi, eng qizig‘i shu ondayoq g‘ira-shira tush ko‘ra boshladi. Tushida juda mayin shamol esayotgan dalada yurgan emish, shubhasiz bu biroz oldin yodga olingan Gustish sog‘inchining natijasi. Dalada uzoq-uzoqlarga yugurarkan, o‘g‘lining dahshatli chinqirig‘ini eshitdi. Yerda yotgan boltani ko‘tardi-yu pashshaxonadan otlib chiqdi, yalang oyoqlariga muzday maysalar yopishdi, atrofga alangladi. Gulxandan chiqqan tutun atrofni qurshab, borliqni ko‘zdan yashirib ulgurgandi. Ulkan, paxmoq bir maxluq butalar orasiga uchib kirib ketdi, Zaxar uning shiddatidan bazo‘r oyoqda qoldi, bir tomon dan g‘ozlarning g‘og‘alashi eshitildi, keyin atrofga o‘lik sukunat cho‘kdi.

– Ota, ota, yordam ber, ota, – pastdan, tumanli irmoq orasidan o‘g‘lining ovozi keldi.

Bolta dastasini changallagancha pastga yugurib tushdi, bazo‘r muvozanatni saqlab qoldi.

– Ilya, qayerdasan, – baqirdi u, – nimalar bo‘layapti o‘zi?

– Shu yerdaman, hozir, – Ilyaning hansiragan ovozi keldi, – hozir, ota, ikkimiz ham bir joydamiz, siz tomona suzyapman.

Zaxar iloji boricha mayda toshchalarni g‘ichirlatmaslikka tirishdi, atrofga diqqat bilan qulqoq tutarkan, suvning bir maromda shildirashini eshitdi. Go‘yoki kimdir qorong‘ida ortidan pisib kuzatib turganga o‘xshadi, shu payt yana Ilyushkaning ovozi keldi, sharpa izsiz g‘oyib bo‘ldi.

- Ilya, — nima deyishini bilmay yana uni chaqirdi.
- Hozir, hozir, — endi ovoz Zaxarning yonginasidan kelardi, bir necha soniya o‘tib atrofga suv sachratib Ilyushkaning jiqla ho‘l boishi ko‘ldan chiqdi.
- Fu, jin ursin, — tishlarini takillatib qirg‘oqqa yopisharkan so‘kindi, — juda sovuq.
- Bu nimasi, Ilya, — yuragi yorulgudek bo‘lib turgan o‘g‘liga yaqinlashdi, — nima bo‘ldi o‘zi?
- Bilmayman, menga shunday tuyuldimi... o‘zim toyilib ketdimmi, kimdir turtib yubordimi... orqamga nimadir kelib urildi, katta, paxmoq, suvning oldiga uchib keldi, dahshatdan qotib qoldim, vahima! Mana sizga qulay imkoniyat! — Ilyushka katta-katta qadam tashlab, bir bosishda o‘n qadamni hatlab o‘tdi, — qulog‘imning tagida g‘og‘olashni boshladi, shunda kimdir biqinimga aylantirib soldi.
- Mayli, ertalab gaplashamiz, — Zaxar uni shoshiltirdi, — qani, gulxanga chop, isinib olishing kerak, yo‘qsa, shamollab qolasan, qaltirashingni qara.

Bir zumda yuqoriga chiqib olishdi, Zaxar bamaylixotir butalarni gulxan ustiga soldi, lekin bir qo‘lida changallab olgan boltasini bir zum bo‘lsin qo‘lidan qo‘ymadi. Tinimsiz bunday qabih ishni kim qilganini o‘ylardi. Pashshaxonadan Manyaning yupqa askarlik choyshabini olib chiqdi, o‘g‘liga ho‘l kiyimlarini yechib qurutib olishini aytdi, shu bilan hammasi o‘z o‘rniga tushib ketadi. Zaxar o‘zi uchun hech narsadan qo‘rqlamaydi. Sovuqdan yuzlari ko‘pchib chiqqan bolaga achindi, bu ora Ilya jiqla ho‘l cholvarini yechish uchun panaroq joyga o‘tdi.

— Qani, tez gulxan yoniga kel, — Zaxarning ohangi ancha dag‘allahdi, — nima issiqliqdan qizib ketayapsanmi? Men ham erkak kishiman, ko‘zim tushsa, nima bo‘libdi?

Ilyushkaning yelka va oyoqlarini choyshabga yaxshilab o‘rab qo‘ydi, sizilib suv tomchilayotgan ko‘ylak va botinkani gulxanga yaqinroq qo‘ydi. Shu bilan yana hamma yoq jimjit bo‘lib qoldi.

Tunning qolgan qismi osuda o‘tdi, Zaxar bir daqiqaga bo‘lsin ko‘zini yummadi, pashshaxonaga quyoshning ilk nurlari tushishi bilan shosha-pisha o‘g‘lini uyg‘otdi, diqqat bilan atrofni ko‘zdan kechirdi, toptab-bosib o‘tilgan o‘t-o‘lanlar ko‘p, lekin buni odamlar

qilganimi yoki hayvonlar, aniqlash mushkul. Tunagan joylaridan yigirma metrlar chamasi uzoqlikda sindirilgan qarag‘aychalarini ko‘rdi, ular odam qo‘llari bilan chopilgani aniq. Zaxarning yuzi asabiy burishdi, fikrini bir joyga jamlash uchun uzoq vaqt bir joyda o‘tirdi, yuragiga qandaydir og‘ir fikr joylashib qoldi.

Uyga kechga tomon kirib borishdi, qayiqning yarmi katta tovonbaliq bilan to‘lgani uchun yarim kechgacha shu bilan ovora bo‘lishdi. Bu yumushga Briliklarning ham hissasi qo‘sildi, avvaliga tangachalarini tozalashib, keyin ichini ag‘darib, obdan tuz-ziravor sepishdi. Zaxar Ilyaga bo‘lib o‘tgan voqealarni hech kimga, ayniqsa onasiga aytmasligini tayinladi. Hamma quvnoq, baxtiyor, o‘z yushmani bilan band. Lekin Zaxarning chehrasi hech yorishmadni, tishlari orasiga tamakisini qistirgancha xayolga berildi.

U Zagrebani uch kundan keyin chap oyog‘iga butun gavdasi bilan tayanib turgan holda uchratdi. Xodaga suyanib olib bamaylixotir Zaxarni kuzatib turardi.

– Hamma yoqda duv-duv gap, Deryugin, ko‘ldagi hamma tovonbaliqlarni tutib kelganmishtan, – qiziqsinib so‘radi Zagreba sovuq olov chaqnayotgan ko‘zlarini tikib.

– O’n pudcha bor, – javob qildi u, – pullayman, oz-mozg‘amlaymiz deganday... osh-ovqatimizga yetib turadi.

– Hoynahoy, ancha olisdan tutib kelayotgan bo‘lsang kerak, – so‘radi Zagreba, – o‘zingga ehtiyyot bo‘l, bu yerlarda hamma narsa bo‘lishi mumkin.

– A-a, – Zaxar qo‘l siltadi, – bo‘lganda nima, xotinning yubkasiga yopishib ochdan o‘lish kerakmi endi?

– Bu qanaqasi bo‘ldi? – Zagrebaning hayrati ortdi, Zaxar hozirgina aytgani to‘g‘ri borib nishonga tekkanini payqadi, bir on ro‘parasida ishshayib turgan bu kimsa kecha qorong‘ida pisib turgan sharpaning o‘zginasi ekanligiga shubhasi qolmadni, lekin buning aksi bo‘lishi ham mumkin, bu insonning ko‘ldagi voqealarga umuman aloqasi bo‘lmasligi ham mumkin. Birinchi farazini tasdig‘ini ko‘rish uchun Zaxar bo‘lib o‘tgan voqealarni gapirib berdi.

– Bu yerlarda hamma narsa bo‘lishi mumkin, – birmuncha xotirjamlik bilan dedi, – yaxshiyamki, oxiri baxayr bo‘libdi... u yerlar-

ga hech qachon bir o'zim bormagan bo'lar edim. Nochor qolgansan sen, Deryugin.

— Suhbatimizni eslab turaman, — Zaxar bosh chayqadi. — Hamma o'z tanasiga o'ylab ko'rishi kerak.

— Qulq sol, Deryugin, — itining gardanini silarkan Zaxar tomonga xiyol engashdi, — sen anavi Brilikingga aytib qo'y, bu ketishida barmog'ini tishlab qoladi. Eshitgan qulqqa yaxshimas, axir.

— Yaxshi, yetkazib qo'yaman, — Zaxar ichidan toshib kelayotgan g'azabini bir amallab tiydi, yerga tupurdi, ich-ichidan bu odam bilan dunyoda hech kim boshqalarga saqlamagan adovatga borishini sezib turardi, lekin hozir buning hech qanday foydasi yo'q.

— Mayli, omon bo'l, Deryugin, — biroz tanaffusdan keyin Zagreba xayrlashgan bo'ldi, uning peshonasidan bo'rtib chiqqan katta tomir Zaxarning diqqatini tortdi.

Qolgan yo'lni Zaxar sekin bosib o'tdi, har qadamda hozirgina aytigan gaplarni o'zicha taftish qilar, kechagi voqeaga aloqador biron gap chiqarishga harakat qilardi. Hozir keng zamin bu ikki insonga torlik qilayotganga o'xshardi. Zaxardan bunday hissiyotlar oldin ham o'tgan, u Anisimov bilan shu darajadagi adovatga yetib borgan-di. Lekin unda masala bu darajaga yetib bormagandi. Nima qilsin, hammasidan qo'lini yuvib ketaversinmi? Haligi tentak komendantni aytmaysizmi, bu aroqxo'rga bir necha marta aytdi, lekin Zagrebaning nomi aytlishi bilan a'zoyi badani qaltiraydi (Zaxar buni bir necha marotaba sinab ko'rdi), hammasiga nuqta qo'yish kerak, shartta oilasini olib ketishi kerak, eng muhimi shu. Demakki, qonun yo'q ekan, unga amal qilishning ham keragi yo'q.

16

Komendantning katta, pastqam yog'och kulbasi qishloqning markazida joylashgan. Tomiga qari eman soya solib turadi. Bu kulba ikki qismga bo'lingan: yarmi qabulxona, yarmida komendant va uning oilasi yashaydigan uy va omborcha bor. Uning ro'parasida Zagrebaning uyi joylashgan. Bo'kib ichgan Stas Brilik to'ppa-to'g'ri komendantnikiga yo'l oldi. Aroqning kuchimi yoki boshqa sabab hamiyati qo'zib ketgan, qumloq yo'lning o'rtasidan dadil qadam tashlaydi. Kayfi balandligidan ko'ziga har xil narsalar ko'rina boshladi,

ular orasida ablal Zagreba ham bor, u bugun qizi uchun, hammasi uchun va hamma uchun hisob-kitob qilib qo'yadi. O'sha kuni Brilik qalbida anchadan beri his qilmagan ozodlik hissini tuydi, yuragidagi qat-qat qora bulutlar ham tarqab ketdi, hozir borib azaliy dushmanining asl basharasini ochib tashlaydi, zaminni bulg'ab yurgan yana bir ablalni yer tishlatadi. Baxtga qarshi, Zaxar buni juda kech eshitib qoldi.

Keyin aytishlaricha Brilik yo'lida ikki marotaba to'xtagan. Bir necha kishi gurunglashib o'tirgan yemakxonaga kirgan, keyin yana do'konga kirib odamlar bilan chaqchaqlashgan. Kim bilandir tamaki tutatgan, keyin bo'lsa yana komendantnikiga yo'l olgan.

Zagrebaning uyiga o'n metrlar qolganda deraza oldiga kelib to'xtagan, yelkasidan pidjagini olib yerga otadi. Hafsala bilan ikki yengini tepagacha shimaradi.

— Hoy, Zagreba, quturgan ko'ppak, chiq bu yoqqa, sen bilan olishgani keldim, — boshida bu gaplarni juda past ovozda aytdi, keyin qo'rquvini quvdi, bor ovozi bilan baqirdi: — Chiq! Hayvon, men bilan olishmaysanmi? Kimligingni hamma biladi, isqirt!

O'n besh daqiqalar chamasi shu alfozda turdi, keyin kulba tomonga qarab tupurdi, yerdan changigan pidjagini olib ortiga o'girildi. Ko'zi uzoqdan kelayotgan Rakovga tushdi, u barmog'ini og'ziga olib borib «tiiis» qildi-yu, yana berkinib oldi. Uyga kelgach Brilikni rosmana qo'rquv bosdi, xotini nuqul «jin urgur, endi xohlagan vaqtida kelib boshimizni uzib ketishadi, hammasi kallakesarlar bo'lsa, ko'ngliga kelganini qiladi-da» deb qarg'ab yig'ladi. «Endi qo'lingdan nima ham keladi, qizing bilan bo'lgan ishni ortiga qaytara olmaysan, qolganlarni ham go'rga tiqmoqchimisan? O'zingga o'zing choh qaziding» va yana minglab qarg'ishlar. Brilik hammasiga qo'l siltadi, go'yoki hech narsa bo'lmagandek karavotga cho'zildi. Bo'lib o'tgan ishlarni endi tushunib yetdi, shu zaylda tonggacha uyquga ketdi, ertalab xotinidan kechagi qarg'ishning chalasini eshitib oldi, uning qistovi bilan qaynatilgan baliq va qichitqi o'tli nimadir yegan bo'ldi. Bo'lib o'tgan voqealarni orqavarotdan eshitgan Zaxar uni burchakka tortdi, so'rab-surishtirib, qattiq dashnom berdi. Brilikning yelkalari cho'kib qoldi, yuzida jirkanish alomati bo'lgan tiri-shish paydo bo'ldi. Indamay yigirma-o'ttiz g'aram o'tinni yukladi-

yu yo‘liga ravona bo‘ldi. Zaxarning brigadasi sakkiz kishidan iborat, ish tig‘iz bo‘lмаган vaqtarda har bir mashinaga o‘ziga qarab olti metrli ustundan o‘n-o‘n beshtacha yuklanadi.

Zaxar har doimgidek xo‘jalikni ko‘zdan kechirdi: taxtasupa, ar-qon, ustunni ko‘tarishda kerak bo‘ladigan uskunalarni tekshirdi. Shu payt yuk tashuvchi mashinalardan biri naqd g‘aramga ikki qadam qolganda to‘xtadi, eski «gazgen»dan xo‘rsinishga o‘xhash ovoz chiqib ketdi. Haydovchi sakrab tushdi, orqa kopotning qopqog‘ini ko‘tarib, ingichka temir bilan titkilay boshladi.

– Jin ursin seni, tumshug‘imgacha haydaganini qara, – baqirdi Zaxar mashinadan chiqayotgan tutundan ko‘zlarini achishib, – avval yuelingni ortib olsang bo‘lmaydimi?

– Ilojim yo‘q, – haydovchining moyga belangan qop-qora yuzi-dan oppoq irjaygan tishlari ko‘rindi, – bir marta o‘chdimi, ikki soatsiz yoqa olmaysan. Yigitlar, sekinroq mening navbatim.

Yuk ortuvchilar narigi tomonga o‘tishdi, biroz ko‘ngil chigilini yozish uchun tutatishdi, Zaxar ham tamakixaltasini oldi, bir zumda atrofini o‘rab olishdi, hamma har tomondan tamakidlonni tortqilay boshladi.

– Navbat bilan, o‘rtoqlar! – xiyol ovozini balandlatdi, – nima mening tamaki dalam bormi?

– Senga yana yuborishadi, Zaxar, qizg‘anchiqlik qilma, xalqni ranjitayapsan, axir, – kulgi aralash dedi yuk tashuvchi yigitlardan biri, bu devqomat, yag‘rindor yigitni hamma Lapsha deb chaqiradi, familiyasi Tyajedubov, lekin hech kimning tili aylanmaydi. – O‘g‘illaring mehribon, men qanjig‘imdan oddiygina tamakidan yuborishini so‘ragandim, bilasanmi, u nima dedi?

– Xo‘sh, nima dedi? – qiziqvchan Senka Plyushev shu zahoti savol berdi. Qop-qora munchoq ko‘zli bu yigit bilan Lapsha anchadan beri qalin o‘rtoq.

– Nima emish! Yalmog‘izning yozishicha, hozir ismi ham esimda yo‘q, ochig‘i, nemislarning jig‘iga kamroq tegishim kerakmish. Menga juda naqshinkor tobut yasatib jo‘natarkan, bunaqa tobutda yotish uchun har qancha pulning bahridan kecharnishman.

– Qancha pul yuboribdi, – faylasufona bosh chayqar ekan so‘radi Plyushev, – u tamakisini chekib bo‘lgach Deryugin chekayotgan tamakining tutunidan o‘pkasini to‘ldirib kayf qilayotgan edi.

- Pul, qanaqa pul? – Lapshaning yuzi ma'yus tortdi.
- Nima tobut tekinga keladi deysanmi, vagonning yarmiga to'lash kerak, xotining hammasini bo'yniga olmagandir.

Hamma qiyqirib kulib yubordi, Lapsha ham irjaygancha Plyushevning ustiga otilayotgan edi, Zaxar belidan ushlab qoldi.

- Bo'ldi, Lapsha, qo'y, hazilni ham tushunmaysanmi? – murosaga keltirmoqchi bo'lib gapni boshqa tomonga burdi, – sen nima deb javob yozding, shundan gapir.

– Menmi? – u papirosning oxirgi qoldiqlarini og'zidan oldi-oldida bo'lqanimda-ku, ikki ko'zining oldida yulduz chaqnatgan bo'lardim. Uzoqdan turib nima ham qila olasan? Men unga haligi deb yozdim, uni haligi... qog'ozga yaxshilab balg'am aralash tupurdim, keyin xatjildni yaxshilab yelimlab qo'ydim.

- Yo'l uzoq, qurib qoladi, u haqiqatni qayerdan bilsin. Balki uni siquvgan olishgandir, ana faylasuflarcha yozibdi-ku, hali hisoblashadigan joylari borligini, – Plyushev gapini tugatdi.

Atrofdagilar kulib qo'yishdi, Lapsha shabadaga orqa o'girib papirosini tutatib oldi.

- Hoy, yigitlar, – ishini tamomlagan haydovchi ularni chaqira boshladni, – yuklanglar endi, kechgacha bu yerda qaqqaygim yo'q.

– Ko'rdinglarmi, gaplarining jimjimadorligini-chi, – u tomonga o'girilmasdan dedi Zaxar, – bo'pti, bo'pti, shovqin solma, chetroqqa o'tib bir-ikki chekib ol...

Ertalabki o'n, atrofga quyoshdan qizigan po'stloq hidi anqiydi, bugungi osmonning juda ochiq bo'lishini va'da qilishgan, gohi-go'hida shamol esadi, g'aramlarning ustiga qoramoy tomgan. Zaxar boshiga furajkasini ildi, ustidagi kiyimini o'zgartirdi, yigitlarga yordam berdi, g'aramlari tugagan qo'shni brigada yigitlari ham ularga qo'shilishdi. Qarabsizki, bir zumda do'stona suhbatlar boshlandi. Yigitlarning engashganda xiyol ochilib qolgan bellari quyosh nurida yaltiraydi. Xodalar og'ir emas, ularni g'aram qilib joylash ko'p vaqt oladi. Xodani tikkalashadi, ba'zan og'irligini ko'tara olmay yana pastga qulaydi, qarabsizki, hammasini yana boshidan boshlash kerak. Hali bir mashinani to'ldirib ulgurmaslaridan ikkinchisi, keyin uchinchisi kirib keladi, mashinaning keti uzilmaydi. Haydovchilar ning sabri chidamaydi, Zaxar ham ularni ushlab turishni xohlamaydi, yana guruhini ishga soladi:

– Bir-ikki, bir-ikki.

Bir daqiqaga xodalarning taraq-turug'i to'xtadi, Zaxar ortida turgan Brilikning hansirashini eshitdi, yuz-ko'zidan selga o'xshab ter quyiladi. Odatdagidan tig'iz ish kunidan ming'irlab shikoyat qildi, darhaqiqat bu kungi yumush hammani oyoqdan toldirdi. Mashinalarning keti uzilmay qoldi, yana xodalarni yumalatishadi. Yangi mashinani to'ldirishdan oldin Lapsha rosa tarang qildi, Zaxar noiloj rozi bo'ldi.

– Yana bir qator, shu bilan bo'ldi! – dedi u.

– Bu nima qilganing, brigadir, nima, Buyuk Ivandan ham o'tib tushmoqchimisan, – Lapshaning qovoq-tumshug'i osildi, chekib olishimiz kerak, xumoridan ko'kraklar yonib ketdi-ku!

Qolganlar ham Lapshani qo'llab-quvvatladi. Zaxar bir xodaning ustiga o'tirib qolganlarni ham chaqirdi:

– Hoy yigitlar, chekib olamiz! Qo'lingdagini qo'y, chekib bo'lib boshidan boshlaymiz.

Hamma xodalar shu ondayoq yig'ishtirildi, Zaxar poyabzalini yechib oyoqlariga orom bergisi keldi.

– Bu tomonga o't, Zaxar, yumshoqroq, – Lapsha xodalarning quyi tomonini ko'rsatdi, xuddi shu vaqtida bir mashina kirib keldi, uning ichidan uch kishi sakrab tushdi. Birinchisi – Zagreba va uning kuchugi, ikkinchisi uning doimiy hamtovog'i – Roman Grikin, Zaxar uchinchi yigitni tanimadi. Ular Brilikka yeb qo'ygudek bo'lib tikilishdi. Zaxar xodalar ustiga qulayroq o'rashib oldi, avval quti o'chgan Brilikka, yigitlariga, keyin esa chaqirilmagan mehmonlarga qaradi. Brilikning rangi oqarib ketdi, xasta ko'zları atrofga alanglab najot qidira boshлади, Zaxar o'tirgan joyidagi xodalar chirmab bog'lab qo'yilgandi, agar arqonni kesib tashlasa hamma xodalar pastga qarab dumalay boshlaydi. «Obbo, yana o'zimga-o'zim mashmasha orttiradigan bo'ldim» – degan gap xayolidan o'tdi.

Lapshaga boltani olib kelishini aytib baqirmoqchi edi, ulgurmay qoldi. Zagreba kuchugi bilan g'aramning tagida paydo bo'ldi. Zaxar uning yuzida do'stona tabassumni ko'rди, hamma jim, ko'zlar faqat Zagrebaning qadamlarini kuzatadi. Hammaning nafasi ichiga tushib ketdi, Zaxarning ko'zları asabiy qisildi, iloji boricha Zagrebaga qa-

ramaslikka tirishib kissasidan tamakixaltasini oldi. Zagreba yigitlar bilan quyuq salomlashdi, keyin g'aramning tagiga borib, boshini te-paga ko'tarib, Brilikni chaqira boshladi.

— Ey, Stas, pastga tush, komendant shoshilinch chaqirtirayapti seni. Nima, gapimni eshitmadingmi?

Zagrebaning yirtqichni eslatuvchi yuziga qarar ekan Brilikning ko'zлari katta-katta ochildi, sarosimada oyog'i toyilib yiqilib tushdi.

— Yo'q, yo'q... yo'q! Bormayman! — bo'g'iq xirildoq ovozi yangradi, turgan joyida ham jon talvasasida tipirchilay boshladi, — bormayman! — Brilik harflarni cho'zib baqirdi.

— Tush, Stas, meni bilasan, birovga zararim yo'q. Yuborishdi — keldim. Quloq sol, Deryugin, unga yordamlashib yubor, aftidan, xo-daga tiqilib qolgan ko'rindi, — Zagreba endi Zaxarga yuzlandi, shu ondayoq xodalarga tirmashishga harakat qilib ko'rdi.

— Baquvvat maxluq, juda baquvvat. Senga aytayapman — uni pastga uloqtir emish, juda haddingdan oshib ketmadingmi-a, Zagreba? — kinoyali tirjaydi Zaxar, — yaxshisi, kech bo'lmasidan oldin tuyog'ingni shiqillat, — dedi Zaxar xodalar ustida chayqalarkan.

— Men komendantning buyrug'ini bajaryapman. Eshityapsanmi, Stas?

— Yo'q, yo'q bormayman, — yana Brilikning dahshatli faryodi eshtildi. Zagrebaning vajohatidan ko'rini turibdiki, u bu yerdan ishini bitirmay turib qaytib ketmaydi, uni faqatgina o'zidan ustun keladigan kuch bilan to'xtatib qolish mumkin. Ish-kutilganidan qiyinroq tus oldi, to'g'ri itidan tashqari yana sinalgan ikki odami bor, lekin shuncha odamga bas kelish oson kechmaydi. Mehmon-larning tashrifi bemavrid bo'lgani shundoq ham ko'rini turibdi, odamlarning oldida bunday qaltis ishlarni hal qilish Zagrebaning ta'biga mutlaqo to'g'ri kelmasdi. U hozir ko'nglidan o'tayotgan fikrlarni o'zi ham yaxshi tushunmasdi, hozir ishni bitirish kerakmi yo mavridi bilan, Brilikning o'zini xilvatga tortgan ma'qulmi. Ishini bajarishiga to'sqinlik qilayotgan qalang'i-qasang'ilar to'dasi nafratini qo'zg'atdi, lekin hammasi kunday ravshan, hozir tavakkal qilib bo'lmaydi, ish umuman boshqa tomonga qarab ketishi mumkin. Hoziroq hammasining oldini olish kerak, unga jin urgur Zaxar va

uning brigadasi bilan san-manga borishning umuman keragi yo‘q. Z agreba ham xoda ustiga o‘tirdi-da atrofga olazarak termila boshla- di. Butun brigada uning har bir harakatini diqqat bilan kuzatib turib- di, lekin hozir uning ko‘zi brigadani ham, quyonyurak Brilikni ham ko‘rayotgani yo‘q, uning bor diqqati g‘animni pisand ham qilma- yotgan Zaxar Deryuginda. Tishlarini g‘ichirlatarkan, butun yuzi asa- biy tus oldi, agar bu ketishda davom etsa butun qishloqqa masxara bo‘lishi turgan gap. Bu orada dumbultabiat Rakovning go‘riga g‘isht qaladi, u va uning ahmoqona gaplari sabab o‘zini nazar-pisand qil- magan va bundan buyon ham qilmasligini baralla e’lon qilgan Der- yuginning qo‘liga tushib o‘tiribdi.

Zaxar butun g‘azabini ichiga yutib jilmaydi, unga javoban Zag- reba ham xuddi shu kayfiyatda zo‘raki tabassum qildi. G‘alati jihatni bu tabassumdan o‘zi ham yengil tortdi. Lekin nima bo‘lgan taqdirda ham g‘aramning ustiga chiqib olarkan, u ko‘ppakka past ovoz bilan kutib turishini uqtirdi.

— Mayli, Stas, men sen o‘ylagan kekkaygan odamlardan emas- man, — bosh kiyimini to‘g‘rilarkan birmuncha quvnoq va xotirjam ovozda dedi, — nega buncha qo‘rqasan? Mayli, o‘zim chiqaman. Ik- kita hamyurt qanday gaplashsa, shunday gaplashib olamiz, vassalom, meni boshqa ishim yo‘q deb o‘ylaysanmi? Ortiqcha qulqlar- siz, ko‘z-ko‘zga tushib ishingni hal qilamiz...

Brilik mutlaqo esini yo‘qotib qo‘yganga o‘xshardi, Zagrebaning gaplarini eshitgach tinimsiz boshini yo‘q degandek chayqardi, bu orada Zagreba yana jilmaydi, pidjak yenglarini shimarib oldi.

Zaxar uning gaplaridan keyin boshini ko‘tardi, hozir Zagre- ba xoda uyuming pastidan ko‘tarilayotgan edi. Zaxar tomondagi uchinchi qatordan xodalar bo‘shatilsa hammasi Zagrebaning ustiga ag‘anashi aniq.

Atrofga jimlik cho‘kdi, Zagreba uquvsiz gimnast singari xoda ustida qoqilib-surilib yuqoriga intila boshlagan edi. Zaxar turgan joydan Zagreba ko‘rinmay qoldi, lekin u hozir ham qo- rin og‘rig‘idan buralib qolgandek tirishib turgan Brilikni ko‘rib turibdi, aynan mana shu insonlikdan asar ham qolmagan yuz oxirgi qarorni qabul qilishiga sabab bo‘ldi. Orqadagi xodaga

irg‘ib chiqdi, xayolidan baqirish o‘tdi, oyog‘ini butun g‘aram qu-lashiga olib keladigan xodaning ustiga qo‘ydi, Zagrebaning boshi ko‘rinishi bilan uni oyog‘i bilan surib yuboradi. Tishlarini mahkam siqib oldi, joyiga o‘rnashib, Zagrebaning furajkasi ko‘rinish berishi ni kuta boshladi. Tishlarini mahkam qisarkan «Nima, nima bu?» deb ich-ichidan g‘alati qaltiroq o‘tdi. Bir tomondan o‘zi uchun nimadir qilishi mumkin bo‘lgan eng muhim palla eshik qoqqandi, ikkinchi tomondan esa u ham inson, og‘ir hayot yo‘lini bosib o‘tgan inson...

Avval Zagrebaning furajkasi ko‘rindi, ortidan boshi chiqib keldi. Ortidan xotirjam yuzi, quvnoq ko‘zları ko‘tarildi. U Zaxarga xuddi «ana men senga nima degan edim» degandek kinoyali qarab turardi. Zaxar oyog‘i ostidagi xodaning siljiy boshlaganini ko‘rdi, bir xodaga, bir Zagrebaning talvasali yuziga qaraydi. Zaxar bor kuchi bilan xodani surdi, Zagreba jon holatda oldindagi xodalarga yopishdi. Zaxarning toshdek qotib qolgan yuziga oxirgi marta qaradi. Zaxar hammasini tushundi, endi nimanidir o‘zgartirishga juda kech bo‘lgan edi. Zagrebaning ko‘zları bilan yana bir necha soniyaga to‘qnashdi, Zagreba shu pallada o‘zini nima kutib turganini tushundi. Keyin pastga qarab shitob bilan yugurayotgan xodalar, zamin-u osmon, qo‘yingki undagi barcha narsa Zagrebaning ustiga ag‘darildi. Uyum taxta boshi, ko‘krak, qo‘llarini ko‘mib tashladi. Zaxar uzoq vaqt undan ko‘zini uzmadı.

Zagrebaning momaqaldiroqqa o‘xhash baqirig‘i olamni tutib ketdi, keyin yana bir necha xoda quladi va pastga xojasini kutib o‘tirgan itning ustiga yopirildi. Oxirgi xodalar uyumidan keyin Zagrebaning ham, kuchukning ham ovozi tindi. Yog‘och bu ikki joni mutlaqo ko‘mib yubordi va shuning bilan hammasi yakun topdi. Hamma xodalar to‘kilib bo‘lgach brigada qotib qoldi, hech kim yurak yutib oldinga bir qadam tashlay olmadi. Zaxar tepadan yugurib tushdi. Keyin xodalarni birin-ketin tepaga ko‘tarishdi, Lapshaning qo‘liga Zagrebaning furajkasi ilindi, murdani yog‘och tagidan olib chiqqach yuziga ayni shu furajkasini yopib qo‘yishdi.

– O‘zing o‘tirgan shoxni o‘zing arralading ustoz afandim! Ko‘rib qo‘yinglar, o‘rtoqlar, Xudoga ishonmaslikning oqibati shunday bo‘ladi.

– Safsata sotma, – Zaxar shu zahoti uning gapini kesdi, – bema'nigarchilik! Qonunsiz qonuniyatlar bo'lmaydi, sekin uni tortib olinglar... kuchukni ham... sekin...sekimroq... – Zaxarning ovozi xiyol ko'tarildi, – hoy yigit, anavi shaloq aravangni bu yoqqa hayda... qishloqqa eltamiz.

Zaxarning yodiga Zagrebaning yana ikki odami borligi tushdi, lekin hozir ular atrofda ko'rinxay qolishgandi. Zaxar brigadasini o'ziga yaqinroq tortdi.

– Gap bunday yigitlar, – har ehtimolga qarshi yana ovozini pasaytirdi, – hammasi ko'z oldingizda sodir bo'ldi, hech qanday dudmalliksiz... nimani ko'rgan bo'lsangiz boshqalarga ham shuni aytasiz, sen nega qaqqayib qolding, – xoda ustida shalvirab qolgan Brilik tomonga o'girildi, – Qimirla!

– Bo'l endi, onangni seni, tur o'rningdan, ahmoq, – Zaxar toqatsizlanib o'shqirdi, bundan majolsiz qolgan Brilik sal bo'lsa-da o'ziga keladi deb o'yladi, Brilikning tishlari takillay boshladi.

Issiq shamol olis-olislardan ko'lning mayin, rohatbaxsh salqinini olib keldi.

– Endi xodani qayta terishga to'g'ri keladi, – eh, onajoney, qachon bu qo'ng'iroq o'lgur jaranglaydi, – Senka Plyushevning avzoyi buzildi, – pishillashdi, pishillashdi, endi yana hammasini boshidan... bugun bittasini ochaman-da, hordiq chiqaraman, nima deding, Lapsha.

Suhbatni Brilikning baqirig'i bosdi, u xodalar ustiga mukka tuшиб bor ovozida yig'lardi.

* * *

Qishloqqa bir necha kun jimlik cho'kdi, Zagreba ishi bo'yicha bir badqovoq ko'zoynakli tergovchi keldi, Rakov bilan suhbatlashdi, jinday qittak-qittak ham qilib olishdi. Keyin voqeja joyida bo'lган barcha birma-bir so'roq qilindi. Tergovchi baxtsiz hodisaning barcha tafsilotlarini yozib yo'liga ravona bo'ldi.

Zagreba ko'pchilik uchun yaxshi inson sanalmasa-da, uning xodalar ostidagi o'limi g'oyatda mudhish hodisa bo'ldi. Janozasiga

yig'ilgan ko'pchilik Rakovdan ko'ngil so'radi, marhumni yaxshi sifatlar bilan xotirladi, yana kimdir sirtiga chiqarmagan bo'lsa-da ich-ichidan suyunib qo'ysi. Yana kimdir u o'z qiliqlari bilan allaqachon to'ng'iz qopishga loyiq bo'lganini dangal gapirdi.

– Yerga qoziqday qoqildi-ya, – juda takallufsiz so'z boshladi Zagrebaning ashaddiy kallakesarlaridan biri, tentaksifat Roman Gribkin, – u hayvon, odamlarning ko'ngliga tupurgandi, o'sha o'zining kumush tangalariga bino qo'yib (Gribkin kitob ko'rgan odam edi) nimaiki bo'lsa tortib olardi, erkingni mutlaqo tortib olardi.

Odamlar Gribkining ustidan kului, lekin uning gaplarida jon borligi hammaga kundek ravshan edi.

Bolalar allaqachon uyquga ketgan kunlarning birida Zaxar ham to'shabiga uzala tushib mudray boshladi, Manya Briliklarning naqadar shodon yashayotganini aytdi, lekin to'ng'ichi haliyam o'kinib yig'layotgan emish. Zaxar bosh irg'ab qo'ydi-yu javob qaytarmadi, lekin u endi hayotning kutilmagan tuhfalariga ancha o'rganib qoldi.

– Eshityapsanmi, Zaxar, – Manya uning yuziga qarashga tiri-sharkan ovozini pasaytirdi, – oh, tilim ham aylanmay qoldi, aytishlaricha, sen xodalarni... haligi... oyog'ing bilan surib yuboribsan, Zaxar, bu gap qayerdan chiqdi?

– Ko'proq g'iybatlashsang, shunaqa bo'ladi. Nuqlul aytishlaricha, aytishlaricha deysan, ahmoqlar og'ziga kelganini aytaveradi-da.

– Zaxar, men...

– Nima, sen! Sen! Xodalar hammaning ko'z oldida o'zidan-o'zi quladi, mustahkam o'rashmagan ekan, o'rmon ishida bo'lib turadi-da. Xalq hammasini ko'rib turgan edi, yugurib kelishdi, lekin ulgurishmadi, shitob bilan pastga ag'anab ketdi.

– Bas qil endi, xalq, xalq deysan, qanaqasiga xalq bo'lsin, – Manya erining sovuqqon yuzidan yuz bergen hodisalarni ich-ichidan sezib turardi, – bu yerlarda qanaqa xalq bo'lishi mumkin?

– Xalqqa o'xshagan xalq-da, – Zaxarning bu galgi javobi ham birmuncha qo'pol ohangda yangradi, – odamlar to'plangandan keyin xalq bo'ladi-da, senga esa bitta noyob maslahat, bundan buyon charilimgan joylarga burningni suqma, yaxshimi.

— Oh, Zaxar, oh, Zaxar, — Manya qo'llarini ko'ksiga bosdi, — mana shu yerim yonib ketadi, — bundan rasvosi bo'lmasa kerak, xalq, xalq deysan, axir, bu yerda nuqul kallakesarlar yashaydi-ku.

— Bo'pti, bo'pti, uxlay qolaylik endi, — Zaxar yon bergan bo'lib uni o'ziga tortdi, — kimga qanaqa bilmadim-u yuragimdag'i tosh devor qulagandek bo'lyapti, o'sha ablahn'i yorug' dunyoda yo'qligidan suyunishim kerakmi yoki mahzun tortishim, bilmadim, lekin anavi dumbul Rakovga ham shu bahona oz-moz aql kirib qolar.

Manya indamay qo'ya qoldi, yoyiq sochlarini yuziga tushmaydigan qilib tepaga ko'tardi, hozir erining ham, o'zining ham ko'nglidan o'tganlarini oxiriga tushunib yetolmadi.





Bryuxanov va Chubarev bilan bo‘lgan uchrashuvdan keyin Mitka deyarli hafta davomida So‘qir kechuv orqali Solovin jarligiga qatnadi. Avvaliga bir o‘zi qatnab turdi, keyinchalik yoniga yana ikki traktorchi qo‘sildi. Har gal Gustishga borib kelib vaqt yo‘qotmasliklari uchun Nastasya Plyushixinani oshpaz qilib qo‘sib berishdi, shu zaylda ancha-muncha vaqt tejab qolinadigan bo‘ldi. Shu kunlarda Mitkaning ko‘nglida tushunarsiz tuyg‘ular bor, ayniqsa kechalari yanada g‘ussasi ortadi, shunday chog‘larda dasht tomonga, Chertov qo‘rg‘oni atrofiga borib o‘tirishni odad qildi, bu yerdagи su-kunatni, atrofga razm solib o‘tirishni xush ko‘radi. Bu yerda, Solovin jarligidan janubga cho‘zilgan o‘n chaqirim joyni ilohiy dasht deyishadi. Aytishlaricha, juda qadim zamonlarda bu yerlarda istiqomat qilgan qabila ilohlarga atab juda katta qo‘rg‘on qurishgan. Hozir mazkur qabila o‘rnashgan o‘rmon, qo‘rg‘on va qabilaning o‘zidan ham asar qolmagan. Lekin tosh xotin hanuz dashtning eng yuqori cho‘qqisida, katta yuzini sharqning shamollariga mag‘rur tutib turadi, oradan necha asrlar o‘tdi, qancha avlod almashdi, faqatgi-na tosh xotin vaqtga o‘z tizginini bermay, o‘zgarishsiz qoldi. Aytishlaricha bundan bir necha asr oldin ham bu yerlarda dashtliklar bo‘lмаган, uning o‘rnida to‘rt tomonga yastanib yotgan, bepoyon slavyan o‘rmonlari bo‘lgan ekan. Bu yerlardan olislarda bir makkor dasht ham bo‘lgan ekan, yo‘lga chiqqan borki, yo‘qolgan xalq borki barini o‘ziga ohanrabodek tortib halok qilgan ekan. Mana yuz yilliklar o‘tibdiki, abadiyat ko‘li Osiyoning sokin, bosiq qonini Yevropaning shiddatkor qoniga qo‘sishdan charchamaydi. Mana necha yilki, bu yerda vazminlik, shiddat, huzur-halovat bir-biriga qorishadi (u vaqtidan ham o‘zib ketganga o‘xshaydi), jo‘shqin va vazmin qon bir avlodning tomirida qaynab avlodlariga meros qoldi, shu zaylda avlodlar almashaverdi, almashaverdi (endi inson vaqtidan ham o‘zib ketganga o‘xhardi). Shu jin urgan yerlarda u yoq-bu yoqdan ke-

lib qolgan ko'chmanchilar nari-beri yashagan, lekin hozir ulardan ham asar qolmagan. Biroq tosh xotin hamon shu yerda, katta basharasini sharqqa burib har tong quyoshning chiqishini kutib oladi. Urush davrida bu yerlarda juda shiddatli janglar kechgan. Bir necha snaryad bo'laklari xotinning tanasiga tegib, uni qattiq jarohatlagan. Shu atrofdagi qishloq qariyalari orasida bir gap yuradi, chinmi yoki cho'pchak, bulutli yoz kunlarida qo'rg'on atrofida tanasi oqish-moviy qabila paydo bo'larmish, shu yeriga kelganda xudojo'y qariyalari ovozini pasaytirib cho'qinib oladi, yana bu yerda qora kuchlar to'plagan oltin-u javohirlarga liq to'la omborlar va undagi xazinalar haqidagi mish-mishlar ham bor. Yana o'z ajdodlaridan eshitgan, g'alati-g'alati hikoyalarni ham eslashadi. Qo'rg'on atrofida ma'lum kunlarning, ma'lum soatlarida shaytonlarning bayram, marosimlari o'tkazilgan emish.

Xullas, shunday yozning bulutli kunlarining birida Mitkaning nafasi siqildi va ko'ngil yozish uchun shu yerga keldi. Yuzini shabada tutib o'tirar ekan kimdir biqiniga ohista turtganini payqadi, orqasiga o'girildi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, tosh xotin yaqinlashib kelayotgan tong osmoniga boshini ko'tardi. Mitkaning yuragi yorila yozdi, bor kuchi bilan qo'rg'onga chopdi. U yerda dong qotib yotgan tirkamachi yigitni siltab uyg'otdi, alahlab yotganiga qaramay tezroq ketishini uqtirdi, shu ketishda ikki soat yurib kulbasiga yetib keldi. Avval derazadan alangladi, moy hidi urib ketgan ko'ylagini yechib, nari-beri yuz-qo'lini chaydi. Keyin yotog'iga cho'zildi.

— Sekin, sekin, — pichirlab hali ham nima sodir bo'lganini tu-shunmayotgan Anyutadan bo'sa oldi, keyin u ham erining bo'salariga javob qaytara boshladi. Mayin pichirlash ta'sir qildimi yoki ayolning erkaliklaridan Mitka biroz xotirjam tortdi. Va nihoyat tengi yo'q dilrabo uni quchog'iga tortdi, bir zum ayolning oppoq, nafis badani erining yag'rindor yelkalarini bag'riga oldi, Mitka ham junbishga kelgan hissiyotlarini ortiq jilovlay olmadni.

— Mit, Mit, — ayol yana uning lablarini qidira boshladi, — kabutarim mening, sen uchun hammasiga tayyorman... eshityapsanmi, bizning ham o'g'limiz bo'ladi, onam tomonda ham avval bittadan to'ng'ich qizlar, ortidan aka-ukalar tug'ilgan ekan. Ilyuta xola shunday dedi.

– Xola burungi zamonning odami, undan yaxshi gaplar chiqadi, sen eshitaver, – issiq choyshabini tortarkan mudradi, hozir u hammasidan ko‘ra yotib orom olishni istagandi. Lekin xotinining o‘g‘il farzand to‘g‘risida orziqib gapirgan gaplariga beparvo ko‘rinishni istamadi, – undan juda ko‘p g‘aroyib hikoyalarni eshitganman, tasavvur qilib ko‘rgin-a, aqling bovar qilmaydi.

Anyutaning ko‘kragiga urilayotgan issiq nafaslari va pichirlashlariga berilib uyquga ketayozdi.

- Anyut, o‘g‘il bo‘lishiga astoydil harakat qilgan ko‘rinasan.
- Anyuta kafti bilan uning og‘zini berkitdi.
- Topgan gapingni qara, shusiz ham oramizdan qil ham o‘tmaydi.
- Demak, undan ham yaqinroq bo‘lish kerak...
- Tsss, – xavotir bilan dedi u, – eshitib qoladi, axir.
- Eshitsa eshitar, – Mitkaning biroz g‘ashi keldi.

Ilyuta xola shu yili qariyb yuz bilan yuzlashadi, bu yerdag‘i hammaning bobokaloni, urug‘-aymoqlarini yaxshi taniydi, u hozir o‘zini «o‘rdakcha» deb chaqiradigan yaqin qarindoshlarning qo‘lida qolgan. Xola qishin-yozin pechkaning oldida uxmlaydi, uyda borligi ham deyarli sezilmaydi, ayniqsa bu yil odamni qaltiratadigan qish kelgani uchun deyarli ostona hatlab chiqmadidi. Mitka uni xuddi o‘z onasiday parvarish qiladi, qattiq hurmat qiladi. Uning g‘aroyib hikoyalarini tinglashni xush ko‘radi. Fa-qat yaxshi insonning qo‘liga tushganda davo ulashuvchi o‘tlar va ildizlar, uy va o‘rmon ajinalari, tunda nozik kapalakka aylanib sayr qiladigan inson ko‘ngli va yana shunga o‘xshash minglab ajoyibotlarni aynan shu ayoldan eshitgan. Qahraton qish kularining birida kulbada Ilyuta xolaning bir maromdag‘i baland hikoyasi yangray boshladidi. Mitka karaxt bo‘lib qoldi, shu onning o‘zidayoq yuragiga muzday havo urilgandek bo‘ldi. Unga ishondimi yoki yo‘q, baribir g‘alati bo‘lib ketdi, nima uchundir uning uyqu aralash aytilgan hikoyasidan ranjidi. Mitka yolg‘iz qolishni istagan paytida Anyuta uning oldiga yaqinlashmaydi, bundan bir ish chiqmasligini yaxshi biladi. U yo xilvat o‘rmon ichiga kirib ketadi yoki bir shisha samogonni ko‘tarib so‘qqabosh Ivan Yemelyanovnikiga yo‘l oladi. O‘sha kuni ham shunday bo‘ldi. Ivan bilan qadahlarni to‘ldirishdi, urishtirishdi va yana bir necha marta qu-

yishdi. Ikkisi ham navbat bilan Gustishning yangi raisining go‘riga g‘isht qalashdi (urushdan keyingi to‘rt yil ichida Gustishda uch marta rais almashdi, so‘ngisi qaysidir tumandan yuborilgan Frol Timofeyevich Fedyunin hammasidan o‘tib tushdi, saylanganiga uch oy bo‘lganiga qaramay ko‘pchilikning asabiga tegishga ulgurdi, gustishliklar yangi raisni sira xushlashmasdi). Mitka katta qo‘llarini Ivanning yelkasiga qo‘yib xayolga cho‘mdi, o‘sha askarlik yillarini esladi, ishonib bo‘lmas darajadagi og‘ir vazifalarni topshirishgandi o‘shanda, lekin u hammasini uddalagan. Hozir ko‘ngliga o‘sha tanish hayajon, o‘sha tanish xavotir kirib kelgandek bo‘ldi. Mana bir necha yildirki hayoti juda zerikarli, rangsiz. Unda na jo‘shqinlik bor, na bir ishtiyoq. Kunlari bir xil o‘tadi, o‘zini qayoqqa urishi bilmaydi. Anyuta ba’zan uni so‘roqqa tutadi, o‘ziga e’tiborini yetishmayotganini aytib ayuhannos soladi, xola ham nasihat qilishni boshlaydi, Mitka bu daqiqalarga bazo‘r toqat qiladi. Yaqinda yana shunday holat bo‘ldi, Anyuta erining ma’yus tortib qolgani ni ko‘rib xavotir bo‘lib qoldi, xolaning maslahatiga binoan jo‘kali choy damlab berdi.

Yana ikki bahor ikki qish o‘tdi, tomorqa, xo‘jalik ishlari bilan bo‘lib uning qanday o‘tganini sezmay qolishdi. Yana bahorning eng katta bayrami troitsa kuni yaqinlashdi. Uni Gustishda yam-yashil dov-daraxtlar, gulchambarlar, musiqa va o‘yin-kulgi bilan kutib olishadi.

Mitka allaqachon uyquga ketgan, lekin Anyutaning ko‘ziga uyqu ilinmasdi. Erining bir maromdagagi xurragiga quloq soldi, uzoq vaqt devordagi ulkan soyasiga tikilib qoldi. Derazani ochdi, xonaga sal-qin shabada yugurdi, Ilyuta xola issiq yostig‘ini olib g‘inshidi. Ilyuta xolaning o‘g‘il farzand ilinjida bo‘lganlar troitsa kunida shudring tushgan o‘rmonga borib, ko‘lda cho‘milishi, Chertov qo‘rg‘oni at-rofiga borishi lozimligi to‘g‘risidagi gaplarini esladi. Anyuta bir necha marta berilib gapirdi, to‘lib-toshib Mitkaga bugungi kun naqadar muhim ekanligini uqtirmoqchi bo‘ldi. Mitka ayg‘ir otday pishqirib uni bag‘riga olmoqchi bo‘ldi, lekin bu gal uning husn-u jamolidan bahramand bo‘lish nasib qilmadi, ha, ha, dunyoda ba’zan shunaqa musibatlar ham bo‘lib turadi. U sira Anyutani fikridan qaytara olmadidi.

Mitka xotinining navbatdagi tajangligidan kului, unga masxara-omuz qarab qo'ydi-da jo'mrak tomon yo'l oldi, lekin Anyuta bu gal bo'sh kelmadidi. Nonushta dasturxonini yozarkan, qarorining naqadar muhim ekanligini uqtirardi. Tishsiz og'ziga ezilgan kartoshkani solarkan xola boshini sarak-sarak qilib Anyutaning tarafini oldi.

– Boringlar, boringlar, – kampir xira ko'zlarini nabirasining yu-ziga burdi, – xotining iltimos qilyapti, ko'nglini ol.

– Nimalar deyapsiz, buvi, – Mitka qo'lidagi kartoshkani stolning o'rtasiga uloqtirdi, – kelishib oldingizmi, tilingiz bir. Aqldan ozibsizlar.

– Mitenka, kabutarim mening, jahl qilmasang-chi endi, boramiz, kelamiz, vassalom, – Anyutaning ovozidagi mag'rurlikni yalinish ohangi egalladi. Nima qilib bo'lsa ham erini ko'ndirish payiga tushdi.

– Anna, axir, sen komsomollardan eding, bunaqa gaplarga sira toqating yo'q edi-ku!

– Edim, edim, – Anna gapi oxiriga yetmasidanoq o'zinikini ma'qullay ketdi, – komsomol edim, tonmayman, lekin endi sening xotiningman, o'g'il ko'rishni istayman. Jin ursin, sendan o'g'il tug'ishni ista-a-a-ayman.

– Anna, bas qil. Eshitdingmi?

– Eshitdim, mana sening xotiningga munosabating. Bir vaqt-lar olamlarni va'da qilgan eding, sendan birgina iltimos qildim, sen esa Mitenka... – erining avzoyi o'zgarayotganini ko'rib ohangini o'zgartirdi, – Mitenka, kabutarim, mayli, mayli, – erini bag'riga bosdi, katta-katta ko'zlarini uning lablariga tikdi, – xohishing, borishni istamas ekansan, demak, bormaymiz, kerakmas.

– Kimningdir qulog'iga yetib borsa, toza kulgi bo'lamiz. Bosh ko'tara olmay qolasan keyin. Yana uzoqligini-chi, jin ursin. Shularni o'ylab ko'rdingmi hech?

– Hech kimga aytmaydi, demakki hech kim kulmaydi, – endi kampir burchakdagi taxtaga tikilib o'tirardi, – odamlar sening g'amingni qayoqdan bilsin, vaysaqining bahosi bitta: tentak. Odamlarning gapini ko'tarib yurarkansan, hech qachon ishing unmaydi.

– Mitenka, ayni kuchga to'lgan paytimizda yo'l bahonasini qilamizmi? Juda borsa, o'n besh chaqirim chiqar, erkalanish ohangida

davom etdi Anyuta, – bir shisha musallas oldim yo‘lga, bir tomchini sinab ko‘rgandim, naqd shiftgacha uchib chiqdim misoli. Rosa maza qilamiz.

– Bir shisha xolosmi? – Mitkaning yuziga ham tabassum yugurdi.

– Senga qancha kerak? Xudo haqi, – Anyutaning ham kayfiyati yaxshilana boshladi, – ikkitami, uchtami, xohlaganingcha topiladi, Mitenka.

– Demak, Chertov qo‘rg‘oniga, – Mitka yam-yashil ko‘zlarini shodon qisib qo‘ydi.

– Kelishdik, Mitenka, tamom. Va’dadan qaytish yo‘q. Bayram ham bayramdek o‘tsin, – Anyutaning ovozida ham erkalanish, ham yalinish bor edi, – Mitenka...

Mitka ham hovuridan tushdi, boshini ko‘tarib Anyutaning jilmayib turgan yuzini ko‘rdi, ohista ko‘tarilib tushayotgan ko‘kraklariga qaradi.

– Seni qara-yu, – bostirib kelayotgan hirsini jilovlash uchun lablarini qimtidi.

– Mitenka.

– Mayli, mayli, – Anyutaning tobora yaqinlashib kelayotgan lablarini to‘xtatdi, – hali troitsa tuni boshlangani yo‘q, meni tirkamachim kutib o‘tiribdi, axir... hozircha chetga surib turamiz... bayramni-da... yugurib-yelib ma’shuqasini ko‘rishga ulgurgandir, – u deraza ortidagi o‘tin ustida o‘tirib bamaylixotir tamaki tortayotgan Yegor Deryusinga ishora qildi.

Anyutaning majlisi tugagach qo‘liga tushlik solingen bo‘xchasini oldi. Ostonaga borganda yana bir marotaba ortiga qaradi, yuzida mug‘ambirona tabassum zuhur qildi, shu ko‘yi chiqdi-ketdi. Anyutka orqasidan bugun qayerda uchrashishlarini kelishib olish kerakligini aytdi, Mitka o‘zini eshitmaganlikka olib Yegor bilan ko‘rishdi, yirtiq etigining poshnasini loyga botirib katta yo‘lga chiqishdi.

– Eshityapsanmi, Mit, – Yegordan istihola qilib pastroq ovozda dedi, – kecha Fedyunin uyma-uy yurib tintuv o‘tkazibdi, aytishlari ga qaraganda, samogon qidirgan, Stepka Boboknikidan mis aralash cho‘yan tog‘ora topib olgan ekan, bolta bilan chopib tashlabdi.

– Ahmoqona ishlar qilib yuribdi, aslida bunday qilishga haqqi yo‘q, – Mitka nazar tashlarkan, xuddi o‘zining pahlavonligini yana bir marta pisanda qilgandek bo‘ldi, tugunchani bir qo‘li bilan irg‘itib ikkinchisi bilan tutib oldi, – ha, nima gap?

– Agar kimdandir topgudek bo‘lsa ishini sudga oshirar ekan, butun qishloqlaring bezori, ishyoqmas yalqovlardan iborat debdi.

– Hammani taroq tishidek bir qator qilaman debdi-da, chuchvarani xom sanabdi, – dedi Mitka xotirjamlik bilan, – bu xalq unga hali ko‘rsatib qo‘yadi, miyang‘i...

Mayin shabada yuzlariga tegib qari qayingacha jim ketishdi.

– Nima, endi hammasiga ayollar aybdormi? – gapni to‘xtagan joyidan ulab ketarkan, Yegor onasining gaplarini takrorladi, Mitka suhbатdoshining kattalarnikidek chiqayotgan ohangiga kulib qo‘ydi, – jilla qursa Stepka Bobok yoki boshqasi... soliq to‘lashga hech narsa yo‘q, yangi yubkaga pul yo‘q. Hech bo‘lmasa samogon ishlab chiqarsin... erkaklardan hech kim qolmadi hisob.

– Sen juda bu xotin-xalajga ishonaverma, – shodon jilmayarkan, yodiga ertalab bo‘lib o‘tgan voqealar, xotini va Ilyuta xola qanday bo‘g‘zidan olgani tushdi, – aniqki, hali ularni yaqindan o‘rganmagansan, adashdimmi yo?

– Yaqindan, qanaqa bo‘ladi yaqindan o‘rganish? – Yegor savol mazmunini sal bo‘lsa-da taxmin qilgani uchun qizarib ketdi.

– Hali birontasi bilan-a, yotib ko‘rmadingmi?

– Yo‘q, yo‘q, – Yegor inkor ma’nosida bosh chayqadi, keyin Mitkaga yer ostidan miyig‘ida kulib qo‘ydi, – yaqinda meni bittasi chaqirgandi, qo‘rqedim, bormadim, buning ustiga yoshi ham katta...

Mitka tobora qizarib-bo‘zarib borayotgan Yegorning yuziga qarab kulib yubordi.

– Borish kerak edi... chakki ish bo‘libdi, – Mitka ayollar borasidagi tajribalarini baham ko‘ra boshladni, – yoshi katta bo‘lgani yaxshi, ortiqcha noz-firoqsiz etagini ochib qo‘ya qoladi. Aytgancha, sening yosh masalasidagi qarashing qanday, qari deganda necha yoshni nazarda tutding. Agar Chertichixa xola tengqur bo‘lsa, amrimahol. Lekin Zinka Potetayeva tengqurlarni o‘ylab ko‘rish kerak. Nega buncha qizarib ketding? Topdim, chamamda. Do‘stingga ham yorilmaysanmi? Mayli, aytmay qo‘ya qol.

— U hozir yigirma besh yoshda, — Yegor zo'rg'a Mitkaning ko'ziga qaradi, — yana nima xohlaydi, bilmadim.

— Xo'sh, sen hozir eng jo'shqin yoshdasan, Mitka kulganida ko'zidan chiqib ketgan ikki-uch tomchi yoshni kaftiga artdi, — baribir, ularga to'la-to'kis ishonib qolma. Ayolning ko'ngli erkaknikidan qattiq bo'ladi, bir hamla qilsa bormi na tura olasan, na yura. Agar baqir-chaqiridan bir naf chiqmasa, sekingina biqiningga suqilib ishini bitiradi.

* * *

Mitka xotininining nafis badani, chiroyli mulozamati va ishvalariga ko'p ham dosh bera olmaydi. Anyuta ham shu qurollari bahona Mitkadan o'z istaklarini so'rab oladi. Mana bir necha kundirki, boshqa gustishliklar qatori uydagi samogonni olib chiqib ag'darishni tayinlayapti, Mitka bu masalada qarori o'zgarmasligini bot-bot takrorladi. Mitkaning tabiatini bilgani uchun to'g'ridan to'g'ri muddaoga o'ta olmadi, hazil aralash, qochirimlar orasida gapni samogonga olib bordi, bundan hech bir ish chiqmadi. Xullas, qaysi tomonдан bormasin, ko'zlagan maqsadiga yetisha olmadi. Boshqa kuni Mitka o'z irodasizligini yengib, yana ichdi. Dangalchi xotin o'zini rostlashini aytib rosa tuzladi, Mitka borgan sari u bilan qanday murosaga kelish mumkinligini tushunolmay qolardi. Bir-ikki marta uyda o'z tartib-qoidalarini joriy qilmoqchi bo'ldi, lekin har gal qarshisidan tishlarini qayrab olgan Anyuta chiqdi. Ularning asosli vaj-karsonlari bor: uylarida Stepka Bobok, Yemelyanovnikidek voqeа bo'lishini istashmaydi. Stepka va Ivannikida bo'lgan hodisaning mashmashi Mitkanikida davom etardi. Boz ustiga Anyuta unga tinimsiz bosim o'tkazar, aytgan so'zlarining hech biriga ishonmay qo'ygan edi. Uyga qaytib xotiniga ko'rinasdan yuvinib olmoqchi bo'ldi, moy anqiyotgan ko'ylagi uchun yangi janjal bo'lishidan xavotirda lip etib o'zini eshikka urdi-yu beixtiyor Anyuta va Lukerya xolaning suhabatiga guvoh bo'lib qoldi. Xola oyoq bosishga qiynalayotganini, shu yoshida qarovsiz qolib ko'p mashaqqat chekkanini gapirdi, gap orasida Anyutadan jindek bo'lsa-da un berib turishini so'radi.

– Bizda un nima qilsin, Lukerya xola, – Anyutaning ovozi ham so‘lg‘in edi, – o‘zing hammasini ko‘rib turibsan. Hademay erim ish-dan qaytadi... yoniga yana o‘sha chirik kartoshkadan qo‘yaman. Un qayoqda deysiz?

Lukeryaning chuqur xo‘rsingani eshitildi.

– Yo Rabbim, Rabbim, qanaqa kunlarga qoldik-a, jangda jon bergenning nima, tirik qolib ochdan o‘lganining nima. Yashil narsa un-masa, yegani noning bo‘lmasa. Volkovday qahramon, traktorchining uyiga un istab kelasan, lekin o‘zida ham yo‘q. Yo Rabbiy, bizni ni-malarga girifor qilayapsan.

Mitka burchakdagi sochiqqa qo‘lini artdi, uyatdan yuziga qizil tepdi, eshikni ochdi-yu Anyutaga qayrilib ham qaramadi.

– Salomatmisiz, Lukerya xola, – kulbada Mitkaning jarangdor ovozi yangradi, – o‘zingiz bilan biron idish olib keldingizmi?

– Nima, nima deysan, o‘g‘lim, – xola berilgan savolni tushu-nolmay qoldi, bir Mitkaga qaraydi, bir Anyutaga. Mitkaning yalang ko‘kraklariga yuzidagi ter donachalari tomchilaydi.

– Qop deyman yoki xaltami? Qanday olib ketasiz? – nimadir deyish uchun og‘iz juftlayotgan Anyutaning og‘zini qosh chimirish bilan yopdi.

– Bor, Mit, bor, – Lukerya shoshib qoldi, egniga kiyib olgan erining eski pidjaki kissasidan taxlog‘liq xaltachani chiqardi. Mitka xaltachani oldi-yu omborga tushib ketdi, bir necha soniyadan ke-yin kutilmagan baxtdan yuzlari yorishib ketgan Lukerya bir xalta-chacha unni ko‘tarib ko‘chaga chiqdi. Mitka hech narsa bo‘lmagandek qo‘llarini yuvdi, ko‘ylagining yoqasini yonga qayirdi, stol ustidagi kerosin lampaga o‘t ilakishtirdi.

– Qani endi, ovqatga, – xonaning u burchagidan bu burchagiga g‘azab bilan ko‘chayotgan, yuzini qizillik bosgan Anyutaga har do-imgi xotirjamlik bilan dedi, – kampirsho qayerda qoldi?

Anyuta javob bermadi, stolning ustiga qatiq to‘ldirilgan xum-chani g‘azab bilan qo‘ydi, zarang tovada kartoshka keltirdi, uni ham xuddi shu ko‘yi stolga qo‘ydi.

– Ha tikanga ag‘anagandek ko‘rinasan, – nihoyat Anyuta tilga kirdi, – hech kim endi sendan qo‘rqmaydi! Bo‘kkuningcha ye! Bunda boshqasi senga harom. Hali qilg‘iliqlaring azobini tortmading-

da, Kampirsho ertalabdan kechgacha mijja qoqmaydi, tanasini qumursqa bosib ketgan. Bu-chi, oxirgi nonini ham duch kelganga tutqazib yuboraveradi.

Umuman olib qaraganda Mitka xotirjam va saxiy inson edi. Anyutaning gapirish ohangi, andishasiz gaplari uni shu darajada quturtirib yubordiki, bir qo‘li bilan stolning ustidagi jamiki narsani yerga urib chilparchin qildi.

— Bor, Anyuta, samogondan quy, ozgina salo ham qovur, meni boqishing kerak, axir.

— Olov senga ko‘katmidi, uloqtirasan, dumbul, — Anyuta g‘azab bilan qichqirdi, — uyda tishga bosgulik vaqo yo‘q, bor-yo‘g‘imizni ham shamolgasovurganing-sovurgan, buvingni sakrab tushganini ko‘rdingmi, u ham yarim dumbul, hech narsadan uyalmaysizlar. Bu senga ahmoqona partizanlik harakatingmidiki...

Anyuta gapini tugatib ulgurmasidek Mitka stol osha mushtini do‘laytirib peshonasida paydo bo‘ldi, bor kuchini mushtiga yig‘diyu xotinining qo‘rquvdan olazarak bo‘lgan katta ko‘zlariga qarab mushti havoda qoldi. Tishlarini g‘ichirlatdi-yu xiyol o‘zini bosdi.

— Dumbul ham sendan a’loroq, haqiqiy jinni sensan, tfu...

Anyuta aytilgan gaplardan faqat «tfu»ni eshitdi, sekin boshini ko‘tarib eri tomonga qaradi, u jahl otiga mingan, shitob bilan kiym ilgichdan pidjakini yerga tortqiladi, eshikni bor kuchi bilan te-pib chiqib ketdi. Uzoq vaqt tashqaridan asabiy g‘ijinish va chuqur tortilayotgan tamakining ovozi kelib turdi. U sukunatda erining har bir nafasini eshitib turdi, shu zahoti orqasidan yugurib chiqsa bo‘lar edi, lekin Anyutaning tabiatiga bunday ojizlik mutlaqo yot edi. Lekin baribir o‘ziga hech qachon ziyyoni yetmagan Ilyuta buviday be-ozor kampirni haqorat qilganiga vijdoni qiyndaldi. Lekin mana shu uyga kelibdiki, uyning barcha tashvishi, kampirning qarovi uning bo‘ynida, ham bolalar bilan... Mana shu tomonlarini o‘ylasa o‘ziga rahmi keladi. U shu daqiqada o‘zi uchun eng adolatli qarorni qabul qildi. Bo‘ldi, hammasiga nuqta qo‘yadi, ota-onasining oldiga ketadi. O‘scha yerda o‘zi ham, bolalari ham xotirjam yashashi mumkin. Ilyuta xola o‘rnidan turib Anyutani izladi, ayol javob o‘rniga bor ovozi bilan baqirdi, hatto shiftdagisi pashshalar ham har tomonga tum-taraqay bo‘lib ketdi. Baqirig‘idan biroz bo‘lsa-da yengil tortdi,

uzoq o'ylab o'tirmay apil-tapil narsalarini yig'ishtirdi, atrofga olazarak qarab Nastenkaning qo'lidan sudradi, shu ko'yi chiqib ketdi. Mitka uyga tun og'ishiga yaqin keldi, g'azabi tiyilgan, kayfiyati ham ancha ko'tarilgan edi. Mung'ayib o'tirgan Ilyuta buvini ko'rди-yu, hammasini tushundi. Buvi unga xotinining gaplarini, qay alfovda chiqib ketganini gapirib berdi.

– Tashvishlanishingni qara, jin ursin uni, – anchayin xotirjam va quvnoq ohangda javob qildi u, – o'ylashga ham arzimaydi, xotin zoti tiqilib yotibdi.

– Xudo haqi, tilingni tiy. Gustohlik qilishingni qara, – Ilyuta xola nabirasini koyidi, – oson bo'libdi-da, bir qizing bor, axir.

– Uni ham katta qilamiz, sen meni katta qilding-ku, – Mitka yanada xotirjam tortdi, bo'layotgan voqealar zig'ircha ta'sir qilmayotganini ko'rsatmoqchi bo'ldi, – seni onam deb katta bo'ladi, menga to'g'ri kelmaydi. Men haqimda hali-hanuz gazetalarda yozishadi, to'lib-toshib. Men qarashlarimni o'zgartirmayman, hatto u uchun ham. Nuqta! Hammasiga nuqta qo'yamiz. Nima meni odamlar qo'lini bigiz qilib ko'rsatishini istaysanmi? Ochko'z maxluqqa o'xshab, bunaqasi ketmaydi. Men o'rmonda burda nonimni ham yigitlarga beraman, endi uni deb...

– Anyuta, u hech vaqoni, Mit, tushunmaydi, uning oilasi hamma zamonlarda ham to'kis yashagan. Ular birovning g'amiga sherik bo'lishni o'rganishmagan.

– Hechqisi yo'q, biz ularga o'rgatib qo'yamiz, – Mitka ko'nglidan qanday fikrlarni o'tkazgani noma'lum, lekin uning yuzi tirishib, burun teshiklari ochilib ketdi.

– Mitenka, qo'zichog'im, – Ilyuta buvi har doimgi bir maromda gapirishni boshladi, – sigir umuman yem yemagan, u bekasiga o'rgangan, hech kimni yaqiniga yo'latmayapti, depsinib, shox tira-yapti, men ikki marta harakat qilib ko'rdim, shox suzayapti, eshit-yapsanmi, chinakamiga shox suzayapti. Hayvonga jabr, suti to'lib ketdi.

– Hechqisi yo'q, ko'nikadi, beradi sutini, bermay qayoqqa ham borardi, – ming'ayib qolgan kampirni bag'riga bosdi, – uni ertaga o'zim sog'aman, sigirni deb kuyinishingni qara, bu nima bo'libdi, Xitoy yo'lbarsi-yu Afrika filini ham sog'ishim mumkin. Xabaring

bormi, Afrikada shunaqa hayvon bor, bir sog'sang bormi, ikki che-lak limmo-lim sut beradi-da o'ziyam. Qunt qilsang g'ozning nari-ni ham sog'sang bo'ladi, haligi g'a-g'a-g'a-qiladi-ku, – Mitka o'zining gaplaridan kulib yubordi.

– Yo Rabbim, qanaqa uzun kun bo'ldi-ya, – huvillab qolgan uyga ko'z yugirtirarkan, xolaning yuragi g'ash tortdi, – yomg'ir yog'adigan ko'rindi, hozir boshlaydi, shekilli, pashshalar ham ko'rindiy qoldi, dahshat!

– Yomg'ir yaxshi, allaqachon yog'ishi kerak edi.

Mitka gapini tugatmasidanoq butun qishloqni larzaga solib momaqaldiroq chaqdi, ko'cha va tomorqaga shitirlab quyilayotgan yomg'ir tomchilar ovozi keldi, shu payt yana chaqmoq chaqdi. Yanada kuchli chaqqan momaqaldiroq fonusni o'chirib qo'ydi. Mitka derazadan boshini chiqarib yomg'ir havosidan to'yib nafas oldi, orqadan Ilyuta xolaning norozi ovozi eshitilgan edi, bahslashib o'tirmadi, yana derazani mahkamlab qo'ydi. O'zi ostonada turib yomg'irda shalabbo bo'lgan daraxtlarning hidini tuydi, yomg'ir tomlarni nog'ora qilib chalayotgan, tarnovlardan o'ynoqi suvda raqs tushib pastga tushayotgan yomg'ir ekinzor bag'riga singadi. Mitka uzoq vaqt yolg'iz turdi, o'pkasini toza havoga to'ldirdi, nima uchundir qadrdon Gustish o'rmonlari shu daqiqada huvillagan, begona joydek tuyilib ketdi, yodiga qirq birinchi yil Xolmsk o'rmonlarida nemislari bilan kechgan janglar tushdi, o'shanda tanasini g'alati titroq egallab olgan edi, o'lim bilan yuzma-yuz kelganingda, hamma-hammasi bir necha soniyalar ichida yuz berishiga tushunib yetganingda ko'z oldingdan juda ko'p xotiralar o'tadi... Bo'g'zingga yig'i tiqilib hozirgidek yomg'ir ostida xotirjam yashashni orzu qilasan, xo'sh, endi-chi? Ko'ngil orzu qilinganidek xotirjammi? Sharutta katta yo'lga chiqsang-da jiqlqa ho'l bo'lib boshing oqqan tomonga qarab ketaversang, ivib ketib bir daraxtning tagida nafas rostlab olasan va yana ko'zing ilg'agan joygacha yo'lga otlanasan, qani edi. Mitka yaqindagina Oleg Maksimovichdan olib turgan bir kitobni o'qib tugatdi (shaharga ehtiyyot qismlari olishga borganda motor uchun zavodga ham kirib chiqdi, shu bahona kitobni ham olib turdi). Xulas, kitob yangi yerlarni ochgan qabilalar haqida. Kitob eski, juda qiziqarli. Mitkaning yodida uning barcha tafsilotlari muhrlanib qol-

di, ko‘chmanchi qabilalarning turmush tarzi, hech qanday hudud va bo‘linishsiz yashagan odamlar, xuddi hayvon singari yo‘l-yo‘lakay tug‘ib o‘tib ketgan ayollar, qo‘yingki, kitobxon diqqatini tortadigan barcha lavhalari yodida qolgan.

Hozir u boshi oqqan tomonga yugurishni, qayoqqa bo‘lmasin ketishni istardi. Do‘stona tabassum bilan boqib turgan osmon, bog‘ning fusunkor tabiati, namiqqan po‘stloqning o‘tkir hidi – barchasi uning boshini aylantirib qo‘ydi. Uzoq vaqt zavq bilan yomg‘irdan paydo bo‘lgan pufakchalarni tomosha qildi, keyin biroz orom olish uchun yotog‘iga cho‘zildi. Vaqt o‘tgani sayin joni og‘rib surʼi toshgan sigir esa zorlanib g‘inshidi, mo‘ray boshladi, Ilyuta buvi pechkasiga suyanib sigirni obdan qarg‘adi, Mitka qattiq uyquga ketgach na sigirni mo‘rashini, na buvining qarg‘ishlarini eshitmadni.

Mitka uyg‘onganida kun yorisha boshlagan edi, tashqarida hanuz sharros yomg‘ir quyayotgandi. Endi sigir uzluksiz mo‘rar, joni og‘rib faryod solardi. Mitenka kechagidan ko‘ra yaxshi kayfiyatda uyg‘ondi, o‘ylab o‘tirmay og‘ilga yo‘l oldi. Avval eski shalvar va etigini kiydi. Chelakni olib sigir tomonga yo‘naldi. Ivib ketmaslik uchun boshini devorda osig‘lig‘ turgan eski qop bilan pana qildi. Sigirning bo‘ynini siladi (sigir ham do‘stona boshini silkitdi), Mitka ishma shirishdi, qo‘llarini shimararkan, yelin so‘rg‘ichlarini qanday ushlashni o‘ylab boshi qotdi. Bir so‘rg‘ichini tortgan edi, sigir to‘rt oyog‘ini to‘rt tomonga yozib raqs tushib yubordi, Mitka yerga o‘tirib qoldi, hayvon o‘tkir shoxlarini unga tirab kela boshlagan edi, zo‘rg‘a chekkaga qochib ulgurdi, chelak ham og‘ilning boshqa tomoniga uchib tushdi. Mitka xiyol o‘zini bosib oldi, uzoq vaqt qaysar hayvonga tikilib qoldi. Chelakni yomg‘irda chaydi, hammasini boshidan boshladi va yana sigirning qattiq qarshiligidagi duch keldi, yangi holat uni asabiylashtira boshladi. Yomg‘ir atrofni tinimsiz savalaydi, sigir tinimsiz mo‘raydi, ikkinchi muvaffaqiyatsizlik Mitkani quturtirib yubordi, og‘il eshigini asabiy yopdi, chelakni ham bir burchakka otdi-da, bundan besh kulba narida yashovchi Anyutaning ota-onasini kiga yo‘l oldi. Kulbaga yaqinlashgach qadamini sekinlatdi, etigiga yopishgan loyni xiyol sidirib tashladi. Anyuta issiq choydan qizar gan yuzlarini otasiga tikib nonushta qilib o‘tirardi, uning otasi ellik yoshlari atrofidagi inson, hali anchayin baquvvat, zabardast. Ostona-

da paydo bo‘lgan Mitkaga qarab qo‘yishdi-yu, hech kim lom-mim demadi, hamma bahuzur choy ho‘plashda davom etdi.

— Hoziroq borib sigirni sog‘, — otasining qarshisida pinagini buzmay o‘tirgan Anyutaga buyurdi, — hayvonni bunchalik xo‘rlashning sira keragi yo‘q.

— Mitka, kuyovjon, — nihoyat qaynotasi ham tilga kirdi, — kel bu yoqqa o‘tir, nonushta qilib ol, ul bul yeb olgin, Nastenka ham shu yerda.

— Istamayman, — Anyutaning parvoysi palak basharasi rosmanasiga asabini qaqlashda boshlagan edi.

— Kel o‘tir, Dmitriy, — qaynota takalluf qilishini qo‘ymasdi, Mitka g‘azabini bazo‘r bosib faqat bosh silkip rad qilardi.

— O‘zing sog‘, — Anyutaning yuzi avvalgidek xotirjam qoldi, o‘ziga bino qo‘ygan bu ayol sira yon berishni istamasdi. Mitkaning ko‘zlarida kishini tutqanoq tutganda zuhur qiladigan holat paydo bo‘ldi. Anyuta likopchasini bahuzur bo‘shatishda davom etdi.

— Demak, bormaysan.

— Bormayman, — issiq ovqat orqasidan choy ho‘pladi, hozir o‘zining butun alfozi bilan naqadar o‘zini bu yerda yaxshi yashayotganini ko‘rsatib qo‘ymoqchi bo‘lardi. Manzara yana-da jonlanishi uchun hammomdan endi chiqqan ikki yanog‘i gulgun qizil Nastenkaning ho‘l, tikanak sochlari silab qo‘ydi.

— Ha, ha, betini qalinligini qara-ya bularni, — Mitka shu ko‘yi suhabatga nuqta qo‘ydi, orqasiga o‘girildi-da eshikni yopib chiqib ketdi, ichkaridan qaynotasining ming‘irlagan ovozi keldi, lekin endi unga hammasi, baribir, bu odam nima deganini sira ahamiyati qolmagan edi. Yo‘l-yo‘lakay Keshka Aldoninnikiga kirdi, Ivan Yemelyanov, Foma Kudelin, Volodka Malla, xullas, hammanikiga birmabir bosh suqib tezroq unikiga borishini, zarur ishi borligini tayinladi. Sharros yomg‘ir quyib turgan bir paytda Mitkaning uyida chiqib qolgan kechiktirib bo‘lmaydigan ish hammani taajjublantirib qo‘ydi. Mitka uyga qaytgach tomga chiqib tushdi, uzoq vaqtlardan beri shu yerda yotgan to‘pponchasini qo‘liga oldi, xuddi urush yillarida bo‘lganidek obdan ichini tozaladi. Dili g‘ash tortib og‘ilga bordi, bezovta sigirning yagr‘inini siladi, og‘ilning burchagiga toza somon soldi, sigirni uning ustiga haydadi, undan bir necha qadam uzoqlik-

dan turib o‘q uzdi. Momaqaldiroqday o‘q ovozi yangradi. Avval si-girning old oyoqlari, keyin orqa oyoqlari yerda sirg‘aldi, keyin yerga yuztuban yotib qoldi. Mitka og‘ildan chiqdi, to‘pponchasini artib to-zalab, ochiq havoda biroz chekdi. Chaqirilgan mehmonlar o‘q ovo-zidan sarosimaga tushib yugurib kelganda sigirning bo‘yniga pichoq tortilgan, Mitka nim tabassum bilan qo‘llarini artayotgan edi.

– Birodarlar, qo‘limdan nima ham kelardi, – sir boy bermasdan davom etdi, – aynigan kartoshkaga bo‘kibdi jonivor o‘ziyam, u yoq-qa ag‘anaydi, bu yoqqa ag‘anaydi, bo‘kiradi, bir navi otib oldim, bu yog‘iga qarashib yuboringlar endi, boshqa nima ham qilardik...

Ivan Yemelyanov burnini tortib qo‘ydi, ishga kirishish uchun yengini baland shimardi, Mitka va Anyutaning baxtiqaro hayoti haqidagi gap butun Gustishga tarqalgan bir vaqtida Mitkanikida hayot qaynardi. Stolning o‘rtasida ikkita katta tova qovurilgan go‘sht bilan to‘lgan, atrofidagilar tinimsiz hangoma qiladi. Ham-maning kayfi taroq, yuzlari qip-qizil. Anyuta kulbaga qarar ekan, murdadek rangi oqarib ketdi, Ilyuta buvi har doimgi joyida, faqat o‘pkasi to‘lib, o‘kinib-o‘kinib yig‘laydi, oldida tovada qovurilgan go‘sht. Esdan og‘gandek hovliga chiqdi, atrofga alanglatdi, bir burchakda sigirning g‘amga botgan ko‘zлari qotib qolgan bo-shi ko‘rindi. Voqeа u o‘ylaganidan ko‘ra ancha jiddiy tus olgan-nini bildi, u o‘zining muloyim Mitkasining qalbida yashaydigan ayovsiz inson qiyofasi bilan to‘qnashdi, shodon raqs tushayot-gan yomg‘ir tomchilariga qo‘shilib Anyutaning ko‘zlaridan ham tomchilar dumalab tusha boshladi. «Boquvchimizni so‘yibdi bu o‘rmon qaroqchisi, ayab ham o‘tirmabdi, tomog‘ingga tiqilib qol-sin yegan-ichganing».

Endi kulbaga yo‘l olgan edi ostonada darg‘azab shirakayf Mitka-ni ko‘rdi, u Anyuta yaqinlashgani hamonoq baqirishga tushdi.

– Mana, mana ko‘rib qo‘y, ana endi ovozingni o‘chir, Anyuta, – avvaliga gap juda yumshoq ohangda boshlandi, lekin nihoyatda baland dag‘dag‘aga almashdi, – har gal ovozingni o‘chirishing kerak paytda ovozingni o‘chirasan, o‘zingning ahmoqona xasisligingni yig‘ishtirib vijdoningni ishga solasan.

– Ahmoq piyonista! – Anyuta o‘z tabiatiga mutlaqo zid bo‘lgan ko‘z yoshlarini to‘kdi.

Hayot yana bir maromda davom eta boshladi, Anyutaning Mitkani yo'lga solishga qaratilgan hiyla-nayrangleri ham kamaydi. Bir gal sigirning uvol ketganini aytib ho'nragani ham kor qilmadi. O'sha kuni Mitka o'limtikning bir qismini bozorga olib chiqishni xohlamadi. To'ppa-to'g'ri Ivan Yemelyanovnikiga yo'l oldi-yu o'sha yerda ikki kun dom-daraksiz qolib ketdi. Endi Anyutaning noz-karashmalari, dimog'-firog'i ham umuman ta'sir qilmay qoldi. Anyuta mutlaqo chorasiz ahvolga tushib qoldi. Endi kichkina bo'lsa-da xato qilishga haqi yo'q, aks holda eridan bir umrga ayrıladı. Turmushlari boshlanganiga besh yil bo'lganiga qaramay u erining asl qiyofasini endi ko'rayotgan edi. Bu inson bilan shuncha vaqt qanday birga bo'lganini o'ylab taajjubga tushdi va yana buvi bu inson uchun naqadar qadrli ekanligini, unga qilinadigan hech bir ishni javobsiz qoldirmasligini tushundi. Modomiki, hali bu inson bilan murosaga borishning yo'llarini bilmas ekan, uning ko'ziga ko'rinchay turish ma'qul bo'ladi deb o'yladi. Nafaqat kolxozda, uyda ham o'ziga yangi-yangi yushmanlar topib oldi. Tomorqaga yo'l tortish, pomidor va karam o'tqazish, tagini chopish, xullas boshi bilan ishga sho'ng'idi. Anyutaning ko'nglida yangidan kurtak yozib kelayotgan muhabbat bir ko'rishda odamning e'tiborini tortadi, u hozir xuddi muhabbatdan boshi aylangan yosh qizchalarga o'xshaydi, ko'zlar charaqlab turadi, dugonalaridan ham shu ma'nodagi qochirim, hazillarni eshitdi. Endi u vujudini ikkinchi marta egallagan muhabbat va baxtni his qilayotgan edi, buvini hammaga yomonlab, g'iybat qilishni bas qildi. Qalbi shu darajada xotirjam tortdiki, butun olam matohlaridan hech birini ko'ngli tusamay qoldi, ochig'ini aytganda Mitkani ham. Nima bo'lgan taqdirda ham Mitka bu olamda mavjud, o'zi tan olishni istamasa-da xotinini sevadi, bir kuni aylanib qozig'ini topadi, shunday kun keladi – hammasi avvalgidek o'z o'rniga tushib ketadi. Anyuta shu fikrni dastak qilib yashadi, erini Ivan Yemelyanov brigadasi bilan Solovin jarligi yoqasidagi katta yog'ochlarni tashishga jo'natishganda ham ko'nglini buzmadı, to'g'ri erini haftada bir marta ko'rsa ko'radi yoki yo'q, baribir

xotirjamligini yo'qotmadi. Lekin troitsa kuni yaqinlashgani sari Mitkani ko'rgisi keldi, uzoq o'ylab o'tirmadi, shartta ikki shisha samogonni savatiga solib ustiga yengil mato tashladi (uning otasi savat to'qiydigan usta bo'lgani bois uyida savatning har xil kattalikdagisi bo'lardi, asosan ularni Zejsk bozoriga olib chiqib sotar edi), tushlikdan keyin yo'lga chiqdi, avval tomorqa-yu dalalardan o'tdi, gullagan marjumak dalalari, pichanzor, sayoz o'rmonlarni uch soat deganda kesib o'tdi, nihoyat tizilib turgan traktorlar qatori ko'rindi. Shu yerdan haqiqiy o'rmon boshlanadi, to'g'ri, bu o'rmonning dasht bilan chegarasini belgilash qiyin, dasht va uning butalari o'rmon bag'rini yorib o'tib bamaylixotir yastanib olgan. Bir asrdirki, hammasi shunday: yoz-qish tinimsiz aylanadi, qushlar uchib keladi-uchib ketadi, maysalar bosh ko'taradi-xazon bo'ladi, lekin dasht o'sha-o'sha mag'rur, bir zarrasi bo'lsin o'zgargani yo'q. Diqqinafas, jazirama yoz kunlarida dashtda beqaror tuman ko'tariladi. Mana bir asrdirki, bu dashtdan sirli ohang taraladi. Shu paytda Anyutani g'alati hissiyot chulg'ab oldi, har nechuk dashta qadam bosishga hadiksiradi. Ko'nglida ham quvonchli, ham xavotirli bir fikr bor, o'zining ishidan o'zi ham taajjublandi, xuddi umrida birinchi marta uchrashuvga chiqayotgan o'spirin qizga o'xshaydi, nahotki inson o'z eridan ham shunday tortinsa. Ko'rgisi keldi, yo'qlab keldi, tamom-vassalom. Nima qilibdi shunga, buning ustiga nimaga boshqalarga hisob berishi kerak!

O'ziga ming xil tasalli berib tepalikka ko'tarildi, uzoqdan ikki traktorning osmonga o'rlagan qop-qora tutuni ko'rindi, undan sal nariroqda, deyarli, o'rmonga kiraverishda yana bir traktor turibdi, undan ham osmonga tim qora tutun yoyilyapti. Anyuta shu traktor tomonga yo'naldi, uzoqdan ham uni payqashganini sezib qadamini sekinlatdi, traktor kabinasida o'tirgan Mitka Yegorga shovqin ichida baland-baland baqirib nimanidir tushuntirdi, o'zi esa o'qday otilib chiqib Anyuta tomonga kela boshladи.

– Nima gap? Nastenkaga nima bo'ldi, – Mitka yo'ldayooq savol yog'dira boshladi, Anyuta bosh silkib, qo'li bilan hech narsa bo'Imaganiga ishora qildi.

– Hammasi joyida, hamma salomat, Nastenka salom aytib yubordi, salom, Mitka, – Mitkaning quyoshda qovjiragan yuziga mu-

loyim nigoh tashladi, ko'kraklari bir tekis ko'tarilib tusha boshladi, lablari ham issiqdan suvsirab qoldi, lekin o'zining noz-karashmasiga hayratga to'lgan ko'zlardan bo'lak javob ololmadi.

- Rostingni ayt, Anyuta, nima bo'ldi?
- Sog'indik, boz ustiga ertaga bayram, ertani kutib o'tiramanmi deb ul-bul ko'tarib kelaverdim.
- Nima ham derdim, katta rahmat, — u ortidan kelayotgan Yegorga qarab kului, Anyuta shu zahoti ko'zlarini yerga qadadi.
- Gap bunday, Yegor, yana ikki marta aylanasan, — dedi u, — yer tekis, bironqa chuqurlikni belgila-da, agar yordam kerak bo'lsa brigadirga ayt.

Yegor traktor haydashning ancha hadisini olib qo'ydi, o'zi ancha tortinchoq bola, lekin hozirgi alfozida uyatchanlikdan asar ham qolmagan edi. Mitkaning gapini eshitib o'zini traktorga urdi. Kabinaga uchib chiqdi-yu yo'lga tushdi, Mitka Anyuta bilan yolg'iz qolganidan o'ng'aysizlandi, shuning uchun xuddi butun xayoli traktorda qolgandek uning ortidan tikilib qoldi. Traktor yerda uzun-uzun ariq qoldirib keta boshladi, Mitka uning har bir harakatini sinchiklab kuzatib turardi.

Keyin Anyuta bilan tepalikka chiqib salqin joyga o'tirishdi, har ikkisidan ham sas-sado chiqmadi. Mitka papirosh chekdi, Anyuta birikki ko'z qirini tashlab qo'ydi, lekin ichida aytilajak gaplarini bir ipga tizayotganini payqash qiyin emas.

- Vaqt o'tishini qara, bir zumda troitsaga ham bir kun qolibdi, — u yengil xo'rsinib qo'ydi.
- Troitsaga ham yaqinlashib qoldi degin, — Mitka jilmaydi, — nima qilamiz, shudringzorga chopamizmi?
- Yaxshi, hammasi esingda ekan? — Anyuta ham xuddi shunday tabassum bilan javob qaytardi, — faqat o'zimga ayon, bu hayot qanchalar chigal ekanligi, yillarning hakalak otishini qara, turmush qur-ganimizga ham besh yil bo'libdi-ya. Erkak kishi nima degan gap, bir marta ko'radi-yu o'sha zahoti esidan chiqaradi.

Mitka javob bermadi, papiroshni tishlari orasida aylantirdi, qani endi o'sha haqida so'ramaganida, u Anyuta aytayotgan birinchi martani yaxshi eslaydi, lekin u aytayotgan birinchi kun Mitka uchun birinchi marta tushunchasidan yiroq edi. Lekin shuncha yildan keyin

bo'ronlar ichidan koptokday dumalayvergach barchasi esidan chiqayozdi.

– Mitka bu nimasi, shunaqa indamay berkinmachoq o'ynab yuraveramizmi? – o'ychan, ohangini yanada mayinlashtirib gapi da davom etdi, – to'g'ri, hammasiga men aybdorman, lekin buning uchun meni bir umrga jazolash shart emas.

– Qanaqasiga butun umr bo'lsin, atigi uch kun bo'ldi-ku, – Mitka eslay boshladi, – bir umrga jazolash deganining nimasi?

– Oh, Mitenka, menga har bir kun yildek tuyuldi, – Anyuta ning ko'zlariga yosh qalqidi, – men sening oldingga qanot chiqarib uchib keldim... sen esa xuddi begonalarga o'xshaysan... yonimda o'tiribsan-u ikki og'iz iliq so'zing yo'q.

Mitka tutunni pufladi, o'g'rincha xotininining yuziga qaradi, bir necha marta ustma-ust yo'taldi, yana kulgi qilayotgan bo'lsa-chi? Baribir, ko'ngli yengil tortdi, xotini ham chin yurakdan gapirayotganga o'xshaydi, gaplaridagi doimgi kesatiq, nish yo'q, lekin unga nima deb javob qaytarish mumkin? Mitka dil izhoridan xijolat tortdi. Boshidan qanday og'ir kunlar o'tmasin, u ich-ichidan qilgan ishlaridan pushaymon bo'lib yurgan edi. Sigir o'z nomi bilan sigir, bir yil yo ikki yil ter to'ksang o'rnini but qilasan, xotini ham bir hisobda haq, kolxozda hamma o'z-o'zicha yashaydi, odamlar og'ir kunida cho'zilgan kunni eslamaydi ham, axir qorning g'amini ham yeysiling kerak-da, ko'chaga qip yalang'och chiqib bo'lmasa, soliq to'lash kerak, istasang, istamasang qurumsoq bo'lib qolasan, bunisiga nima deysan?

– Hammasi o'zingga ayon, men xafa emasman. Kelganing uchun rahmat! Olib kelganining uchun alohida rahmat! Yigitlar bilan bo'lishamiz, shudgor ishi ertaga tug'aydi, indinga uyda bo'lamic, ko'pi ketib ozi qoldi. Hammomni isitib qo'ysang degandim, – u sigerimi sog'ishini so'rab borgan kunni esladi, o'shanda bu xotin qayrilib ham qaramasdan miriqib choy ho'plagani ko'z oldidan o'tdi, – Mitka oyog'i ostida turgan supurgi dastani poshnasi bilan o'ynadi, avzoyi o'zgardi.

– Mayli, – Anyuta o'ychan, lekin xotirjam javob qaytardi, – mana seni ham ko'rdim... hammasi joyida ekan, endi men bora qolay.

Mitkaning ichi achidi, lekin hozir tiliga biron jo'yali gap ilinmayotgan edi, Anyuta bostirib kelayotgan ko'zyoshlarini bazo'r tiydi, orqasiga o'girildi-yu botib borayotgan quyoshga qarab yo'l oldi. U Anyuta bilan xushmuomala insondek xayrlashdi, lekin unda hech bir iliqlik yo'q edi. Anyuta bir zumga ortiga o'girildi-yu bosh silkidi, keyin yana yo'liga ravona bo'ldi. Ortga o'girilmasdan qo'l siltab xayrlashdi. Mitkaning nafasi bo'g'ziga tiqilib qoldi, endi og'iz juftlashga juda kech bo'lgan, Anyuta ko'z ilg'ar-ilg'amas nuqtacha bo'lib ko'rina boshlagan edi.

Mitka labini tishlarkan, uzoqdan bosh chayqab qo'ydi, mayin shabada to'lqin yasab o'tayotgan o'tloqqa o'tirdi, shabada yoqimli ovoz chiqarib belini yalab o'ta boshladi. Osmon tiniq, bugun hech o'zgarishsiz qoldi, Anyuta dasht qo'ynida yo'qolishi hamonoq ko'ngliga g'ulg'ula tushdi. Biron ahmoqona ish qilib qo'ymaslik uchun traktorga yugurdi, yana ishlariga sho'ng'ib ketdi.

Kechga yaqin Mitka va Yegorgia Kesha Aldonin va sherigining traktori yo'liqdi, Aldonin dvigatelni tekshirar ekan, o'z odati bo'yicha yuzida yarim xanda hosil qildi, o'z xotini va bolalarini maqtay ketdi, aytishicha, xotini xuddi zambarak, birdan paqillaydiyu hammasini ostin-ustun qiladi, oxirgi vaqlarda esa uch bola bilan ovora bo'lib Aldoninni yodidan ham chiqarib qo'ygan emish.

— Yaxshi, u uch buzg'unchni biz ham yaxshi bilamiz, — Mitkaning yuziga ham tabassum yugurdi, — mening ham bir armonim bor... agar uch yigitchaning otasi bo'lib qolganimda to'ppa-to'g'ri shu yerga haykalimni o'rnatardim, u boshi bilan qo'rg'on va tosh xotin tomonga ishora qildi.

Hamma kulib yubordi, Aldonin kabinaga sakrab chiqdi-yu traktorini haydar ketdi, Mitka va Yegor tushlikka o'tirishdi, krujkalarga samogon to'ldirildi, Mitka krujkasini ko'tardi-yu, Yegorgia hazilomuz bosh siltab «hali yoshlik qilasan degandek bo'ldi».

— To'g'ri qilasan, ichma shu tavqi la'natni, hali yosh bo'lsang.

Yegor Mitkaning gaplaridan asabiyashgan bo'lsa ham bahslashishni ep ko'rmadi. Quyosh yarim botgan ufqqa qarab Mitka uzoq vaqt chekdi, o'z hayotini sarhisob qildi, Anyutaga qilgan muomasidan uyaldi, er va xotin o'rtasida nimalar bo'lib o'tmaydi, axir, xotin yurak yutib shu yergacha keldi, arz-hol qildi... bu-chi tentak...

g'irt tentak, – Mitka o'zini ancha ezdi, hozir jussasi ham notavon bo'lib qolganga o'xshardi.

Hozir u o'zining qilmishlari-yu Anyutani ham o'ylayotgani yo'q, hali o'zi peshvoz chiqmagan, ko'rmagan, tushunarsiz, olis-olislardagi tuyg'ularni o'ylay boshladi. Qulog'iga Yegorning yengil nafas chiqargani chalindi. Issiq ham chekina boshladi, bulutsiz osmonda yakkam-dukkam moviy bulutlar suza boshladi.

Mitka uzoq o'yladi, Anyuta olib kelgan savatchani qo'lidan o'tkazdi-yu dashtga yo'l oldi, uzoqdan ham qo'rg'onning baland, pishiq ustunlari ko'zga chalinadi, Mitkaning ko'ngliga sababsiz g'ulg'ula oraladi, hozir, shu pallada hech kimni ko'rgisi, hech kim bilan gaplashgisi yo'q, hech kim topa olmaydigan biron tuynukka kirib yolg'iz qolishni istaydi. Yuragini allaqanday qonxo'r bir chekkasidan kemira boshlaganga o'xshaydi, qadamini tezlashtirdi, ulgurmaslikdan cho'chiy boshladi.

Uzoqdan qo'rg'on va boshini osmonga qaratib turgan tosh xotin ko'rindi, qorong'ilik odamni yutib yuborayotganga o'xshaydi, vujudini qo'rquv egalladi, yaqinda Chubarevdan olgan kitobida katta-katta harflar bilan yozilgan qo'rg'on va tosh haykallar haqidagi jumla yodiga tushdi. Mitka bu yerda Xudodan ham, ins-u jinsdan ham, teri va tuxum yig'uvchilar vakolatidan ham qo'rqlaydi, u yaqinda shunday holatni boshidan kechirdi, uzoq vaqt katta sabr bilan chiqarilgan xulosa shundan iborat bo'ldiki, qancha jun kerak bo'lsa, istagan joyingdan olishing mumkin.

Mitka qo'rg'onga keldi, shu vaqtida o'zidan-o'zi achchiqlanib qoldi, modomiki shu yergacha kelar ekan, nega mushtipar Anyutani o'ziga ergashtirmadi, shu pallada bu yerda eng kerakli inson u edi-ku aslida. Qo'liga ilingan savati yodiga tushdi-yu, uni mahkamroq pinjiga qisdi, bir zumda Anyuta, tosh haykal, qo'rg'on haqidagi qo'rqinchli vahimalar tarqaldi. Aytishlaricha, olamning ibtidosida Xudoning yenglaridan dastavval yuzdag'i ter va farishtalar, keyinroq suv va osmon dumalab tushgan ekan. Mitka biroz chekib oldi, cho'kkalab o'tirib keyingi ishlarini xom cho't qilib oldi, birinci navbatda qo'rg'onnei hamma tomondan aylanib chiqadi, tunash uchun eng qulay joyni belgilab oladi. Kun qizib ketmasidan ulgurib qolish kerak. Dasht odamni yondiradi, kun jazirama, kechalari xiyol

salqin tushadi, kechki shabadada mudroq cho‘lga xilma-xil gulning ifori yoyiladi, dasht va o‘rmon gullarining muattar ifori aralashib ketdi, mag‘rur, bo‘ychan yulg‘unlarning hidi asal isini eslatuvchi moychechak va yovvoyi beda hidi bilan qorishib ajib bir tarovat kasb etdi. O‘rmon va dasht chegarasida minglab fusunkor gul maydonlari bor. Hali dashtni yozning qovjiratuvchi quyoshi tutganicha yo‘q. Mitkaning oyoqlari gullardan to‘shalgan gilam ustida rohat qila boshladgi, quyosh chekinganidan keyin ular yana-da nafis, yana-da go‘zal bo‘lib qolganga o‘xshaydi. Gullar ifordan to‘yib nafas oldi, dasht havosi bilan o‘pkasi va yuragiga ajib bir tuyg‘u oraladi, hozir o‘zini gulzor oralab shataloq otishdan bazo‘r tiyib turar edi. Qat-tiq, jarangdor dasht qo‘ng‘irog‘i ko‘ksini yorib o‘tganga o‘xshaydi, shunisi aniqli, u har doim, qalbini tushunarsiz hislar egallab olganda, shu dasht bilan anglab bo‘lmas mushtaraklikni his qilgan, uning ifori, qo‘ng‘irog‘i va barqut osmonini qo‘msagan. Anglab bo‘lmas istak yuragini yoqdi, bir necha gulni yulib oldi, hozir ahmoqona nimadir qilishni istaydi, hatto noma’lum sharpaning yig‘isini ham eshitgandek bo‘ldi. U dasht qo‘ng‘irog‘ini o‘ziga singdirayotgan edi. Qayerlardandir so‘fito‘rg‘ay, bedananing sayrog‘i keladi. Mayda qushchalar chug‘urlashib shoxdan shoxga uchib-qo‘nadi. Endi dashtdagi butun ovoz bir butunga aylanganga o‘xshaydi, xuddi bir-lashib uni chaqirayotgandek «Kel», «kel» deydi. U Ilyuta xolaning sehgarlikning boshlanishi haqidagi ertaklarini eslab tabassum qildi. Mana hozir uning o‘zi ushbu jodugarlikning boshlanishiga guvoh bo‘lib turibdi. Hiylagar dasht boshini aylantirdi, yuragini gupullatib yubordi, bor ovozi bilan dashtni larzaga keltirib baqirgisi keldi, hozir cho‘qqiga chiqadi-yu olis-olislarga uchib ketadi.

Mitkaning yuragi bir zum bo‘lsin hapriqib ketdi, yana qahqaha otdi, tosh xotinning atrofini bir marta aylandi, tirkaklariga yaxshilab razm soldi. Tosh xotinning boshi Mitkanikidan baland, oyog‘ining ostida yana mayda tosh bo‘laklari bor, oyog‘i yerga chuqur botgan, qo‘li va yelkalari yo‘q, tanasi yaxlitlashib ketganidan yuzini ajratib olish qiyin. Tosh ustuxonni har tomondan aylanib ko‘rdi, tanasidan chiqqan do‘nglik boshmi yo ayol ko‘kraklarimi tasavvur qilolmadi. Mitka bu inson qiyofali tana qanday qilib shu chog‘gacha yashab qolganidan taajjubda edi. Ichki bir xohish bilan shu yerni tunash

uchun tanladi. Qo'rg'on tepasidan yana dashtni tomosha qildi, lekin endi gul-u giyoh ko'rinas, butun dasht yengil shabada qo'ynida tebrana boshlagan edi. Chekka botqoqlar ustini tuman bosdi. Quyosh botdi. Shafaq oxirgi nurlarini ham erinmay yig'ib oldi, endi uning kuydiruvchi haroratidan asar ham qolmagan edi. Tiniq osmonda biroz oldingi porloq osmondan bir-ikki shu'la qoldi, Mitka cho'lning mo'jizaviy kuchi ostida qolganini tushundi; bu fikr emas, bu tuyg'u, lekin Mitkaning o'zi ham buni tushuntirib bera olmaydi. Tosh xotin ko'zsiz basharasini osmonga qadaydi. Qorong'i yulduzli osmon boshi uzra charx urdi, chek-chegarasiz osmonning salobatidan boshi aylanib ketadi.

— Ha sen, qari jodugar, shunaqa balandliklarni ko'zlab yuraman degin, — Mitka xuddi tirik odam bilan gaplashayotgandek istehzo qildi, — menga keladigan bo'lsak, shu yer ham bo'laveradi.

Gapirishga gapirdi-yu zum o'tmay qilgan ishidan taajjubga tushdi, atrofda inson zoti ko'rinas, shu bois ham bu yerlarda yangragan odam ovozi g'oyat noxush va jonsiz bo'lib eshitilardi, Mitka ulkan dashtning ustidan kulgandek qahqaha otdi. Bu kechani tosh xotin bilan qo'shnilikda o'tkazishga ahd qildi. Savat ustidagi yuviqsiz sochiqni tortgan edi, ostida bir necha xo'jalik buyumlari va tansiq mahsulotlar ko'rindi, Mitkaning ko'ngli yorishdi. Anyuta savatga ikki shisha samogondan tashqari ikki cho'yan krujka, kichkina alumin bidonchada kvas va bir necha mahsulotni joylab qo'ygan edi. U o't ustiga qaynatilgan tuxum, salo, nonni qo'ydi, katta sersuv piyozni qasirlatib po'stini shildi; taomga qo'l uzatishdan oldin yana atrof ga ko'z yugirtirdi, tabiatga qulqoq osdi. Chigirkalardan ortiq tirik jon borki sukutga cho'mgan, hammasi piyoz qisirlashini tinglardi. Krujkani samogonga to'ldirdi, keyin intiqlik bilan qo'liga oldi, og'ziga bir necha tomchi tushishi bilan tomog'i qizidi, rohatlanib og'zini katta ochdi, qaynatilgan tuxumga tuz sepib gazak qildi. Butun tanasiga yigitlikdagi issiqlik yugurdi. Nonning ustiga salo va piyoz qo'yib tishladi, ortidan yana bir krujka samogonni ko'tardi, pirog, tuzlangan qo'ziqorin, mayda to'rg'algan tuxum bilan gazak qildi, shu paytda pazanda va dono xotinini maqtab qo'ydi (to'g'risi-da, burchalar nazokat bilan dasturxon qilish uchun qancha tirishgan axir), boshini yumshoq maysaga qo'yib yulduzlarni tomosha qildi, ortidan

uzun yaltiroq chiziq qoldirib yulduz uchganda ko‘zları qamashdi. Mana buni mo‘jiza desa bo‘ladi, bu yulduzlar qachon o‘rnidan siljishini bilmaysan, ularga hukming ham o‘tmaydi, buni qanday tushunish kerak. Ular nima uchun yaratilgan o‘zi, qo‘l yetmas samolarga chiqib olgan. Mo‘jiza! Bu olamdagı erkak va ayoldan ma’ni nima, uning o‘zidan-chi? Mana to‘rt yildirki, yotgan joyida u yoqdan bu yoqqa ag‘anab to‘lg‘anadi, nimaga? Bu dasht insondan oldin ham bo‘lgan, uning o‘limidan keyin ham qoladi, xo‘s, nega endi aynan u? Eh, o‘zi bilan Yegor Deryuginni ham olib kelsa bo‘larkan, birgalikda qo‘shiq kuylashardi, oxirgi paytlarda yigitchaning ovozi ancha shira olgan... lekin unga ichishga ruxsat bermaydi, mayli balki kayfiyat uchun qittakgina ichishiga ko‘nar.

Bir so‘z bilan aytganda, tom ma’noda u haqiqiy rus kishisi, boshiga pidjagini tortib yaxshiroq o‘rnashib oldi, borgan sari tabiat qo‘yniga singib keta boshladı, mavjudligi mohiyatini chuqurroq anglay boshladı. Yana bir krujka ichmoqchi bo‘ldi, dashtda odatdagı hayot hukmronlik qilardi. Shafaqning gumbazsimon chaqmoqlari, yupqa bulutlar orasidan oy ko‘rindi. Avvaliga bulutlar ortidan o‘ychan mo‘raladi-yu sal o‘tmay osmonga sakrab chiqib oldi. Oxirgi bir necha daqiqalarda uni ko‘zdan yo‘qtgan kishi xuddi birov qo‘li bilan ushlab boshqa joyga olib qo‘yan degan taassurotda qolardi. Biroz o‘tib butun olamga kumushrang tolalar va oyning shivir-shiviri tarqala boshladı. Dasht ham bir zumda yorishdi, faqat eng quyi nuqtalari oy nuridan bebahra qoldi. Aynan, ha, ha, shubhasiz aynan mana shu qorong‘i cho‘kkan yerlarda hayot qaynaydi, bu yerlarda allaqachon sirli sehrgarlik boshlanib, hamma ko‘zini mana shu kelgindiga tikib turganga o‘xhardi. Uni tomosha qilish g‘oyatda bemaşa ish, dasht qo‘ynida yolg‘iz o‘tirgan bu inson naqadar ojiz, zaif. Bu dashtda ham, qo‘rg‘onda ham mutlaqo keraksiz maxluq. Samoviy yengilmas kuchning faqir mevasi, har daqiqada barbod bo‘lib yana voqe bo‘ladigan go‘zallik, inson ham uni hali tushunib yeta olmagan, bu go‘zallikdan bahramand bo‘lish shuuriga sig‘mas ekan nima qiladi bu yerlarda?

Mitka uzoq vaqt dashtga tikildi, qir uzra sirg‘alayotgan oy shu'lalarini tomosha qildi. U hozir shu darajada erkin va xotirjam ediki, umrida hech qachon hech qayerda o‘zini bu qadar baxtli his

qilmagan va yana qachondir, qayerdadir shunday baxtli bo‘lishi dargumon. U hozir umuman o‘zi ham tanimaydigan boshqa insonga aylanib qolganga o‘xshaydi, ayni pallada uni ko‘rgan insonning xayolidan ham shu fikrlar o‘tsa ehtimol. Hozir u ko‘nglidagi har qanday qaramlikni, qo‘rquvni unutgan edi. Shu payt yonginasidan g‘alati shitirlagan ovoz chiqdi. Mitka ko‘z qirini tashladi-yu, o‘zini dodlashdan bazo‘r tiyib qoldi. U tosh xotinning qanday qimirlagani ni, g‘amgin ko‘zlar iltijoli boqib o‘zini ozod qilishlarini so‘raganini ko‘rdi. Sakrab o‘rnidan turdi-yu qo‘rg‘onga qarab yugurdi, devor orqasidan shalvirab, yarim ochiq og‘zini qiyshaytirgancha tikilar ekan, bo‘g‘ziga tiqilgan nafasi burnidan issiq hovurga aylanib chiqib ketdi. Toshda endigina paydo bo‘lgan, issiq ko‘zlar uni shu ondayoq topib oldi. Yuragi battar taka-puka bo‘la boshladi. «Nimalar bo‘layapti, nima o‘zi bu?» – Mitka o‘ziga o‘zi pichirladi, toshdan yalang‘och qo‘llar, kichkina cho‘qqisimon ko‘kraklar son va umuman, ayol jussasini eslatuvchi qomat ajralib chiqdi. U hamon toshning qobig‘ini yorib o‘tishga harakat qilar, yordam kutib atrofga alanglardi. Ichida g‘imirlagan hislar sabab Mitka oldinga bir necha qadam tashladi, tosh ustunga qattiq urildi-yu, umuman og‘riqni his qilmadi, ko‘z oldida ro‘y berayotganlari oldida bu tosh ustun hech narsa emas, axir. Jarangdor, davomli kulgi uni cho‘chitib yubordi, lekin bu kulgi tanasining har bir hujayrasiga singib ketdi. Mitka shiddat bilan orqasiga o‘girildi, endi kulgi boshqa tomonga ko‘chganga o‘xshab uzoqdan yangrardi, zum o‘tmay u har tomonni bosib ketdi. Mitka peshonasidagi terni artdi, shu paytda tosh xotin qayoqqadir g‘oyib bo‘lganini payqadi. Mitkaning ongiga nima bo‘ldiki, u hozir tosh xotin oldin qayerda turganini ham eslolmay qoldi. Ha, u oxirgi daqiqalarda tosh xotinni umuman unutib qo‘ygan edi, butun xayolini undan ajralib chiqqan cho‘qqisimon ko‘krakli, baland bo‘yli, moviy ko‘zli suluvgan edilgan. Yuragini vahima bossa ham bu suluving qaytishini intiqib kuta boshladi, ishonadiki, toki barhayot ekan, suluvgan marotaba bo‘lsa-da yoniga keladi. Shu payt qulog‘iga mayin shivirlash eshitildi, imoni komilki, bu yana – o‘scha (u endi bu ovozni millionlar ichidan ham ajrata biladi), lekin qaysi tomonidan kelayotganiga aqli bovar qilmasdi. Orziqib oldinga bir necha qadam tashladi, oy

yigitning ortida katta qora ko'lanka yasadi-yu ko'lankasini yoyib dasht gullarini ezg'ilab ming tomonga chopdi. To'xtaganida bazo'r nafas olayotganini, tanasi kutishdan zo'riqqanini payqadi. Kulgi boshqa tomonda jarangladi, shu zahoti kulgi tomonga o'girilib qaraganida yashil tusli sharpaga ko'zi tushdi, qo'lini uzatgani hamonoq sharpa havoda g'oyib bo'ldi, boshqa tomonda kulgi tovushi yangray boshladni, qo'llar yana cho'zildi-yu havoda erigan muzday sharpaning tomchilari sachradi. O'zini qanday qilib telbaga aylanib qolayotganini tushundi, shu yoshgacha ayol zotiga bu darajada intiq bo'limgan, sharpaning yangi kulgisiga g'am-alam aralash javob qaytardi. Shu payt lablariga qadalgan nafis barmoqchalarni his qildi, bu ishoraning ma'nosi barcha zamonlarda, barchaga birdek ayon bo'lgan. Sekin lablaridan qo'llarini oldi, xuddi oydan tushgandek tizilib turgan chavandozlar halqasi ham havoda eriy boshladni, ular yoqqan gulxan va o'tinlar ham g'oyib bo'ldi. Mitkaning yuragi battar orziqar, nafas yetmay hapriqardi.

«Meni qidirayapti» – mahzun ovoz shodon tus oldi-yu tana yana havoda eridi, Mitka endi nima qilishini ham, o'zini nima kutib turganini ham bilmas edi.

Sharpa yanada tiniqroq tusda paydo bo'ldi va Mitkaning qo'llaridan ushlab yetakladi. Lekin endi dasht sira Mitka bilgan dashtga o'xshamas edi, yaydoq bo'ylab sukunatga cho'mgan otlar va odamlar, katta o'rkachli tuyalar bilan to'lib-toshgan edi. Hammasing ko'zida g'alati uchqun o'ynaydi, otliq chavandozlar ufqqa qarab ot suradi, bu yerda ularning son-sanoqsiz to'lqinlari paydo bo'lib ufqqa qarab yo'l oladi. Kim bilsin, shu ko'rinishi, ayniqsa qilt etgan tovush chiqmaydigan sukunat insonga o'lim nafasini eslatadi. Shuncha unsiz jon qay bir kavakdan chiqib keldi ekan-a?

«Bu menman, u men bilan» – yana o'sha tanish, xiyol xirildoq ovoz yangradi.

«Sen kimsan» – Mitka ham qo'rquv ichida so'rashga jazm qildi.

«Menmi?» – ovoz xuddi bahor irmog'i shovurlashidek tiniq va etni junjiktiruvchi, shu blan birga juda tez berilgan edi, – «Sen meni ko'pdan beri bilasan».

«Ko'pdan» – taajjublandi, ortidan ergashar ekan, bo'yni va belalarini chulg'ab olgan uzun yoyiq sochlariiga mahliyo bo'lib qoldi.

U to‘xtab yaltiroq joduli ko‘zlarini hamrohiga qadab tabassum qildi.

«Sen – jangchisan» – endi gulxanlar bilan to‘lib-toshgan dashtga tikilarkan pichirladi qiz.

«Jangchi kuchini yashirishi yaxshi emas».

Mitka qizning mayin burun kataklari qanday qilib kattalashib, nafasi ehtirosli tus olishini tomosha qilib turdi, u Mitkaning yelkalariga qo‘lini tashlaganida badanidagi har bir kiyim erib g‘oyib bo‘ldi. Endi taxmin qilish mumkinki, qiz qochmoqchi ham, g‘oyib bo‘lmoqchi ham emas, mana, ro‘parasida turib ehtirosini namoyon qilib turibdi, o‘ynoqi ko‘zlarini jimgina hamrohini kuzatadi. Namxush, o‘ljasiga ehtiyotkorlik bilan yaqinlashayotgan tana bir zunga yigitning badaniga yopishdi-yu, shu zahoti ortiga tisarildi. Bir maromda kuy chalayotgan yashirin musiqa asbobi sadosida qiz bir maromda tebrandi, xatti-harakatlaridan uzoq davom etgan tutqunligidan xalos bo‘lganini nishonlayotganga o‘xshardi. Qiz yigitning atrofini gir aylanib butun tanasini o‘ynatib muqom qilardi, Mitka yonginasida bo‘layotgan g‘ayrishuuriy holat sababmi endi unga yaqinlashishga ham yuragi betlamay qoldi. Biroz o‘tmay o‘zi ham qizning harakatlariga taqlid qilib, raqsiga qo‘sildi, lekin qanday qilib bu raqsga qo‘shilganini va bu qachon ro‘y bergenini o‘zi ham tushunmay qoldi. Qiz borgan sari avjiga chiqar, butun tanasi qizg‘ish tus olib, kichkinagina, qattiq, titroq bosgan ko‘kraklarini mudom qimirlatardi. Bu raqs g‘azabdan g‘ujanak bo‘lgan tana ni eslatib, mutlaqo sharmdan xoli ravishda ijro qilinayotgan edi. Qizning ko‘kraklari orasidan ter irmoq bo‘lib pastga oqa boshladi, yigit boshqa toqat qila olmasligini tushundi. Kuy to‘lqinlarida ortidan ergasharkan, qizga bir necha qadam bilan yetib oldi, uning yelkalaridan mahkam tutib o‘zi tomonga o‘girdi va namxush tanni o‘ziga tortdi. Ko‘kraklari qizning xayrixoh qarshilik qila yotgan qo‘llari urildi, nomiga bo‘lsa-da ko‘rsatilgan qarshilikdan Mitka qahqaha otib yubordi. Qizning zaifona qarshiligini sindirdi-
yu ko‘zlariga termildi, bir zum bo‘lsin xayolidan ikkilanish kechdi, qo‘yib yuborishni ham, mahkam ushslashni ham bilmay qoldi, lekin qizni qattiq quchib maysalar ustiga dumaladi. Bir necha soniya dan keyin dunyodagi kamdan kam insonlarga nasib qiladigan laz-

zatdan boshi aylandi. Kichkina qattiq ko'krakning uchlarini qattiq g'ijimlaganini eslaydi, qolganlari yodida yo'q. Va yana qo'llariga ko'tarib olgan nafis ayol tanasini, uning ustiga qanday otilganini eslaydi. Mitka ko'zini ochganida tanasi beto'xtov titrar, tungi mu-siqa nolaga aylanib miyasiga quyilib qolgan edi.

Quyosh chiqishiga bir necha daqiqa qolgan, shunga qaramay atrof nihoyatda yorug'. Mitka uzoq vaqt qayerdaligini, o'zi bilan nimalar sodir bo'lganini tushunishga, eslashga urindi. Quyoshning ilk nurlari Mitkadan bir necha qadam narida turgan tosh xotinning boshini yoritdi, Mitka unga qarab angrayib qoldi, tush yoki o'ngi ekanini bilish uchun u yoq-bu yog'ini chimchilab ko'rdi. Qizig'i, Mitka kecha qip-yalang'och bo'lib olgan edi, hozir ustboshi egnida, kimdir uni kiyintirib qo'yganga o'xshaydi, kiyimlari shudring yopishaverib jiqqa ho'l bo'lib ketgan. Shuuri oydin tortgach kechagi tunni ikir-chikirlarigacha esladi, o'rnidan turgan edi, boshi aylanib ketdi, xuddi g'oyat totli zahar bilan zaharlanganga o'xshardi, yana o'sha tanish chehrani ko'rish ilinjida atrofga alanglatdi. Shu payt biqini ni qandaydir sharpa yalab o'tgandek bo'lди, umid bilan tikilaran, toshning har doimgi joyida, har doimgi alfozda turganini ko'rdi, lekin uning yuzida xiyol tabassum qotib qolganga o'xshaydi, bu ham kechagi tuning sharofatidan bo'lsa, ehtimol.

Mitka tosh xotinning atrofini aylandi, tanasi qurshab chirilayotgan chigirtkalarni tomosha qildi, ancha chanqagan ekan, bir ko'tarishda kvasni yarimlatdi. Tosh xotinning yonginasiga cho'zilib uzoq vaqt xotirjam uyquga ketdi.

Bir kun o'tib uyg'a qaytdi, kalta sochlarini yoshlarga xos turmakkagan, o'ziga oro bergan Anyuta unga peshvoz chiqdi. Mitkaning ko'ngli dashtdag'i moviy ko'z huriliqoni ko'rmaganida Anyutaning bugungi qiyofasini bir ko'rishdayoq sevib qolgan bo'lar edi. Anyuta bir necha marta ochiq ishoralar qildi, tegishib ko'rdi, suykalishda behayo Zinka Politaixadan ham o'tib tushdi, lekin Mitka bularning hech biriga javob qaytarmadi, aniqrog'i, e'tibor ham bermadi. Hozir u hech kimni ko'rishni ham, eshitishni ham istamas, bu galgi tashrifida boshqa odamga aylanib qolgan edi. Nastenka... faqatgina shu beozor Nastenka bilan vaqt o'tkazadi, qizcha otasining tizzasiga o'tirib, baquvvat qo'llarini o'ynaydi.

— Yo Rabbiy, Yo Rabbiy, — Ilyuta xola erining alfozidan tinimsiz noliyotgan Anyutaning hasratini eshitib g'ijinadi, — erkakning tizgini ham xoli qo'yib turish kerak, axir, goh-gohida... tomirida qaynagan qon o'ynaydi, axir... hammasi o'tib ketadi... mana, allaqachon...

3

Bahor qachon o'z o'mini yozga almashtirdi, odamlar sezmay ham qoldi, yoz ham shuvillab o'tib ketdi hisob va nihoyat, saxovat-pesha kuz kirib keldi. Maysalar qovjirab, sarg'ayib qoldi, yomg'irlar ezib yog'ishni boshladi, ba'zan yomg'ir ikki-uch kun tinimsiz yog'adi, tinishi kunlardan haftalagra cho'ziladi, borgan sari hayot bema'ni, bemaqsad tus olayotgandek ko'rinadi, qirg'oqlarda hali to'lib ulgurmagan daryo hushtak chaladi, namxush o'rmonga kech tushmay zulmat oralaydi, dalalarda ham kuz nafasi esadi, hamma nimanidir undirib qolish payida besaranjom to'zg'i yidi. Osmonni katta-katta bulutlar qurshab oladi, qayerlardandir safar taraddudidagi g'ozlarning qichqirig'i, ahyon-ahyonda laylaklarning mungli nolasi quloqqa chalinadi, keyin esa yana yomg'ir, shamol daraxt shoxlarini silkib uvlaydi, inson yana qanday sirli tovush eshitishini taxmin ham qilolmaydi. Xuddi qandaydir sirli kuch bilan yuzma-yuz kelib, savoli javobsiz qolgandek serrayib qolaveradi.

Kuz avgustning so'nggi pallalaridan boshlanadi; polizlardagi tarvuzning ichi pishib yetilganidan qon rangiga kirib taram-taram bo'lib yorilib ketadi, katta ehtimol bilan pashshalar va chumolilar yerga to'kilgan tarvuz sharbatini talashib fojiaviy jangga kiri-shadilar, bunday betakror ta'mdan kim ham quruq qolishni istaydi deysiz. Bir chumoli ikkinchisining ustiga chiqib oladi, kuchlisi kuchsizligining nasibasiga sherik bo'ladi, pashsha ham xuddi shu usuldan boradi, sharbatni boshqa burchakka qo'yib, chumolilarga bepisand qarab yalay boshlaydi, chumolilar pashsha tomon chopardi, qay biri oyog'iga, qay biri qanotiga yopishib ayovsiz chaqa boshlaydi, biroz o'tib bo'laklangan o'ljani birma-bir tashiy boshlaydi. Xullas, polizda ana shunday shiddatkor hayot qaynaydi. Poliz uzra quyosh porlaydi, kun iliq va quruq. Lekin ahyon-ahyonda daraxtlardan qizg'ish yaproqlar uchib tushadi, avval bittasi, biroz

turib boshqa tomonga ikkinchisi. Bir-birining ustiga tushgan yaproqlar yerda ajib dog' bo'lib ko'rindi. Shunday kezlarda qalbga allanechuk hayajon va ma'yuslik o'ralaydi. Kuz yaqin... bu uning eng birinchi nishonasi, odamni sergaklikka chaqiradigan ovozi, u kundan kunga ko'proq yaproqlarni qizilga bo'yaydi, qarabsizki, zum o'tmay butun o'rmon, dala-yu tomorqa qizg'ish tus oladi. Bir-ikki qattiq shamol-u do'l, shu bilan kuz baqiroq bo'yoqlarini kurrayi zaminga sochib yuboradi. Daraxt-u butoq qipyalang'och bo'lib uzzu-kun yog'adigan yomg'irda cho'miladi. Ba'zan yomg'ir shunchalar ko'p yog'adiki, dala ishlari taqa-taq to'xtaydi, yo'llarni bo'tana bosadi, botqoq tomonga qadam bosib bo'lmaydi. Bunday kunlarda hech bir gustishlik issiq o'rninisovutishni istamaydi, pech oldiga biqingancha xayolga beriladi. Yomg'ir yog'gan paytda havo nihoyatda musaffo, toza bo'ladi, kulbalardan erta-yu kech tutun o'rlaydi, havo musaffoligi sabab uni bir-ikki iskab qo'shning kechga nima pishirayotganini bilib olasan. Kuz o'n kishilik qishloq-chadan tortib sershovqin, g'ala-g'ovur shaharlarni ham o'z izmiga soladi. Sanoqsiz fonuslarda yoritilgan shaharning asfalt ko'chalari nam tortib, yaltiraydi. Ot o'yin arg'imchoq o'rnatilgan xiyobonlar kimsasiz qolib mung'ayadi.

Hamma kuzga o'zidan kelib chiqib baho beradi, xuddi bahor va yozga qaragandek, kimgadir karka baliq ikrasi, yana kimgadir qadr-don qishloq kvasi bilan shovul solingan karam sho'rva yoqadi, bir so'z bilan aytganda, har bir faslning o'ziga xos taomi, mazasi bor. Bu yil kuz tevarak-atrofdagi qishloqlar singari Gustish uchun ham og'ir keldi. Ro'zg'orda tishga bosgulik hech narsa qolmadidi. Lekin bu odamlar urush ko'rgan, oldinda ko'rgan bir emas, bir necha yilning hisobini olib yurishadi. Hali saxovatpesha kuzning bir necha ne'matlaridan bahramand bo'lish mumkin, sabzavot va olma bilan kun o'tkazish mumkin, lekin nonni qattiq kunlarga saqlab qo'yish kerak, ayniqsa, bahorning ilik uzuldi kunlari uchun saqlab qo'yilgan un jonga ora kiradi. Shuning uchun hech kim hozircha ombordagi unini ishlatmayapti. Bu yil qand lavlagi har yilgidan ko'proq hosil berdi, odamlar kechalari oynadan mo'ralaydi-yu qo'l bola samogon tayyorlaydi. Samogonning foydasidan sovxoz-ning badali, bolalarning maktab xarxashalari bitadi.

Bir-ikki kun yomg‘ir tindi deguncha hamma o‘zini kolxozga uradi, qand lavlagini terib chiqib yopishgan loylarini tozalashadi, aravyu zambillarga ortib yuk mashinasiga tashishadi. Mashinada lavlagi qand zavodiga topshiriladi. Ba’zan ish shunchalar tig‘izlashib keta-diki, lavlagini polizdanoq mashinaga ortishga to‘g‘ri keldi.

Oktabrning o‘rtalarida, quyoshning ilk nurlari kuz osmonini yoritish uchun yo‘l olgan tonglarning birida bir yuz besh yoshli Makar amaki qazo qildi. O‘sha kuni zaif kuz quyoshi nur sochar, Makar amaki ham o‘zini quyoshga solish uchun xarobaga aylangan eski kulbasi yonidagi o‘rindiqqa chiqib olgan edi. Lukarya urush yilla-rida yana-da cho‘kdi, bir necha yilga qarib ketdi, lekin hanuz cholga g‘amxo‘rlik qiladi. Bugun ham unga kiyinishida yordam berdi, qo‘llaridan tutib o‘rindiqqa olib chiqib qo‘ydi. Makar amaki qirq yamoq po‘stiniga yanayam burkanib oldi, deyarli ko‘rmay qolgan ko‘zlarini osmonga qadadi. Lukarya yana uy ishlariga sho‘ng‘ib ketdi, yerto‘ladagi kartoshkalarni saralash, piyozni savatga joylash, loviyani po‘stlog‘idan ajratish masalasi-ku bir necha haftadan beri or-qaga surilayotgan edi, hali uni xaltachalarga joylash kerak... Lukarya uy yumushlari bilan ovunadi, o‘zini xuddi avvalgidek yosh, katta oilasining tashvishlaridan arimaydigandek his qiladi. Eri, qizi, oilali bo‘lib ketgan o‘g‘illari bolalari bilan mehmon bo‘lib kelganini xayol qiladi, shuning uchun bor-budini g‘amlayotgandek go‘yo. Bu orada biroz qo‘li bo‘sadi, nima uchundir yuzlari so‘lg‘in tus oldi. Ishdan chalg‘idi-yu asl hayoti yana uni domiga tortdi, uning eri yo‘q, urushda bedarak ketgan, o‘g‘illari ham yo‘q, kim bilsin, qay yerlarda qaysi yirtqich-u qaysi o‘laksaxo‘r ularning go‘shtiga to‘ydi ekan. Bittayu bitta qizi esa kimsa topmas Shimol tomonlarda sang‘ib yuribdi. U o‘zining betavfiq Zaxarushkasining ortidan ketgan, o‘zi xatida yozgandek ikki-uch oyga mehmonga kelganida haqiqiy quvonch, rosmana bayram bo‘lgan bo‘lar edi. Bugun esa o‘rindiqqa o‘tirib olib kartoshka saralaydi, qo‘llar o‘z odati bo‘yicha kundalik ishini qiladi, ko‘zlar esa o‘z qadrdonlarini yod olib xayolga cho‘madi, endi ular haqida faqat orzu qilish mumkin. Nima uchundir xayoli ko‘proq Manya va badkirdor Zaxarga ketadi, u yerlarda qanday qilib hayot kechirayotganini o‘ylaydi. Bu urush degani uning oilasini har tomonga sochib yubordi, sasigan kartoshkalarni bir tomonga,

butunlarini boshqa tomonga ajratar ekan, xayolidan kechirdi u. «Qiz bechoraning hayoti hech qachon yaxshi kechmagan, qayerdan ham shu qaroqchiga yo‘liqib qoldi, Yo Rabbiy, o‘zing marhamat qil, gapirish menga qolibdimi, mening ishimmi bu, – to‘ng‘illar ekan, odati bo‘yicha burun tortdi, – gunoh, ayniqsa, o‘z qoningdan bo‘lganlarni muhokama qilish, sho‘rlikka oson tutasanmi, ikkita bolasi bor, yakka boshiga qanday boqadi ularni – o‘zi bilan o‘zi gaplashar ekan, qiziga yon bosdi. – Demakki, taqdiri shunaqa ekan. Kechmishiga shunday yozilgan. U xuddi kiyimga o‘xshaydi: kimdir ipakka burkanib yashaydi, lekin turqiga qarasang mushukday hurpayib turadi, kimdir kanop ko‘ylagida ham yal-yal yonadi. Taqdir».

Yerto‘la nimqorong‘i tus oldi, yerdan issiq, yoqimli zax hidi ko‘tarildi, yerto‘laga kirgan nur uning burchak-burchaklarigacha yoritdi, endi u yerto‘laning osti bo‘ylab o‘rmalay boshladi. Lukarya cho‘ziq qomatli laychaga achinib qarab qo‘ydi, keyin yana ishiga sho‘ng‘idi. Tepada jo‘shqin hayot qaynaydi, kimningdir g‘ing‘irg‘ing‘ir ovozi keladi, lekin gapini tushunib olib bo‘lmaydi, Lukarya ular bilan qiziqib ham o‘tirmaydi, hammasiga qo‘l silkigancha o‘z yumushlariga oshiqadi, yerto‘la quyosh nuriga burkangan bo‘lsa ham sovuq qotayotganini payqadi, ko‘zlarini hamon savatga tikar ekan, ko‘nglidan g‘alati his o‘tdi. Buguncha qilgan ishlari yetar, dam olishi kerak, bu yerto‘lada o‘zini nihoyatda yolg‘iz his qiladi, xudi butun yer yuzida bir o‘zi qolib ketganga o‘xshaydi. Yerto‘laning burchaklariga qarar ekan, bu yerda qolishga boshqa madori qolmaganini tushundi, ichki qo‘rquvini xiyol yengib narvonga tirmashdi, kun allaqachon yorishib bo‘lgan, quyosh tevarak-atrofga zaif nurlarini beminnat sochmoqda edi. Atrofga nazar solar ekan, hammasi joyida ekanligini ko‘rdi. Soqoli ko‘kragiga tushgan Makar amaki o‘zini oftobga solib mudrab o‘tiribdi, ko‘chaning narigi betida Mitka partizan Volodka Mallaga to‘lqinlanib nimanidir hikoya qilib berayapti. Lukarya o‘z odati bo‘yicha qalin ro‘moli tagidan ular tomonga qulq soldi, afsuski, ayni shu pallada Mitka hamrohi bilan bosh silkib xayrlashdi, ikki suhbatdosh ikki yo‘nalishga ajraldi, Lukaryaga yana bir qiziq suhbatdan quruq qolgani alam qildi. Keyin narvonning oxirgi pillapoyalariga tirmashib, tashqariga chiqib oldi, «Qariyani qornini to‘yg‘azish kerak», atrofni ko‘zdan kechirar ekan,

yodiga tushib qoldi. Lekin qariya hech qanday javob qaytarmadi, Lukarya taajjublanib amaki tomon yurdi.

— Hoy, qariya, — odatdagি qo'pol ohangida cholning yelkasidan turtdi.

Makar amaki ichiga qog'oz to'ldirilgan chipta qopdek yengil oldinga engashdi, keyin o'rindiqdan sirpanib yerga tushdi, lekin ko'zlarini ochmadi, Lukarya dahshatdan qotib qoldi, cholning yelkasiga qo'ygan qo'li havoda muallaq qolib ketdi. Nima bo'lgani kunday ravshan, nima uchundir Lukarya bo'layotgan voqeani anglab yeta olmadi, ko'z oldida sodir bo'lgan o'lim uni nihoyatda qo'rqtitib yuborgan edi, keyin lablarini titroq bosdi, qariyaning og'irlashib qolgan yelkalaridan mahkam quchib uvvos soldi, chunki endi u rostmanasiga yolg'iz qolgan, yorug' olamda hech kimga kerakmas kimsaga aylangan edi. Boshidan yomon xayollarni haydashga qancha tirishmasin, ular yana yopirilib kelar, bechoraning jussasini ezib tashlardi. Lukaryaning ayyuhannosi butun ko'chani tutdi. Boshini yig'idan ko'targanida atrofga ancha-muncha odam to'planib qolgan edi. U olomondan bir necha qadam oldinda turgan Mitka partizan bilan Volodka Mallani bir ko'rishda tanidi. Erkaklar bosh kiyimini qo'liga olgan, boshini egib turibdi. Ayollar Lukaryaga hamdardlik bildirib, tasalli bergan bo'ladi. Aytishlaricha, qariya umrini yashab o'tdi, hatto kamdan kam bandaga nasib qiladigan umrni yashadi, xo'sh, nima qilish kerak, Yaratgan endi uni dargohiga chorladi, amakining o'limi ham beozor bo'ldi, Yaratgan uni og'ir kasallik bilan qiyngan yo'q. Qiynoqlar ichida o'z o'limingni kutishing naqadar dahshat.

— Joyini jannatdan qilgin, ey marhamatlι Egam, o'zing odillik sohibisan, — Varechka Chernaya cho'qinib qo'yar ekan hech qanday nomaqbul harakat qilmagan bo'lsa ham, sobiq turmush o'rtog'i Volodka Mallaga yovqarash qilib oldi, — joyini jannatdan qilgin, jannatdan qilgin, — yana bir bor cho'qindi, — eskilardan qolgan bir gap bor: kelishning ham, ketishning ham vaqt(soati) bor. Yo Rabbiy, bizlarni kechir, biz gunohkorlarni o'zing kechir!

— Kulfat, kulfat, — Lukarya aks sadodek qaytara boshladi, — uni risoladagidek dafn qilishga ham kuchim yetmaydi, madorim yo'q. Men adoyi tamom bo'ldim, yaxshilar, adoyi tamom bo'ldim...

– Bunaqa gaplaringni qo'y, Lukarya xola, – Mitka-partizan unga tasalli berdi, – biz Makar amakini feldmarshallardek dafn qilamiz, shunaqa yodgorlik qo'yaylikki, yer ham silkinib ketsin. Qani, yigitlar, marhumni kulbaga olib kiramiz, rasm-rusumini joyiga qo'yishimiz kerak, avval o'rindiqqa joylashtirib olamiz.

Shu daqiqadan boshlab Gustishda avval hech kim bilmagan, ko'rmagan g'alati muhit hukmronlik qila boshladi. To'g'ri, gustishliklar to'y va cho'qintirish marosimlarida bir-birini qo'llab-quvvatlab kelgan, uyiga musibat oralagan kishini ham yolg'izlatib qo'yishmagan. Lekin Makar amakining o'limi tom ma'noda ularni birlashtirdi. Bu qariyaga hech kim ortiqcha qiziqib o'tirmagan, xuddi boshi uzra chegarasiz osmon, oyoqlari ostida ulkan yer borligini payqamagandek, bu insonning hayotda borligini hech kim payqamagan. Uni bir alfovza, bir joyda ko'rishga ko'nikib qolishgan. Shuning uchun ham ko'pchilik uning o'limi haqida eshitganda avvaliga ishonmadi, uning endi mavjud bo'lmasligiga ko'nika olishmadi, Gustishga og'ir, zalvorli motam nafasi cho'kdi. Palivanovlar xonadoni ga jimlik cho'kkon, hamma o'z yumushi bilan band, bir-biri bilan gaplashmaydi. Keksa ayollar Saltichixa xola boshchiligida bugungi marosimga tayyorgarlik ko'radi. Saltichixa bamaylixotir marhumga kiyim tikadi, suv isitishdi, bular marhumni yuvib, kafanlash uchun kerak. Kayvoni xolaning tajribasi katta, u juda ko'p dafn marosimlarida qatnashgan, marhumning qaysi a'zosini qanday yuvish kerakligini yaxshi biladi, marhumni g'amxo'rlik bilan taxtaga yotqizib, yorug' olamning so'nggi tuhfasi – issiq suvni ustidan quyadi. Bugun ham ishni shundan boshladi, chelakdan issiq suvni olib, marhumning tanasiga quydi.

– Ayollar, – xola oraga cho'kkon og'ir sukunatni buzdi, – qariya xuddi go'dak kabi begunoh, hech kim undan uyalmasin, hech kim uni uyat qilmasin, begunoh, begunoh!

Ayollar uning gapini ma'qullab bosh irg'ab qo'yishdi, Saltichixa xola esa yengini shimarib amakining tanasiga sopol idishdan suv quya boshladi, xuddi oltindek tovlanib turgan bir kaft poxol bilan beozor ishqaladi. Boshqalarning ko'magida tanani ortiga o'girdi va xuddi shu zaylda yuvib oldi. Keyin marhumning yuzini, quloqlari ichini, yelkalarini yuvdi. Yuvish marosimi tugagach zig'ir toladan

to'qilgan katta sochiqqa o'rashdi, biroz muddat tana qurishini kutilushti. Bu ishda shoshma-shosharlik yaramaydi. Mayit tobutga pokiza bo'lib kirishi kerak. Keyin Makar amakiga kanop gazlamadan tikilgan keng ishton va keng ko'ylak kiydirishdi. Qo'llarini ko'kragi ustiga juftlab qo'yishdi. Qo'llari ikki yonga sirg'alib tushib ketmasligi uchun bosh barmoqlarini dastro'mol bilan bog'lab qo'yishdi. Peshonasiga iltijo-duo yozilgan qog'ozni qo'yishdi. Hamma kutilajak marosimga tayyorlanib, qo'liga nozik mum shamlarni oldi. Bu vaqtga kelib tobut to'shak ham tayyor bo'lay deb qoldi, yigitlar amakining o'zi rais Kulikdan so'rab olgan qarag'ay yog'ochlarni bir-biriga qoqib mahkamlashdi. Bir necha daqiqqa o'tib marhum o'zi niyat qilgan tobutidan joy oldi. Varechka Chernaya katta qora gardishli ko'zoynagini taqib Injil o'qiy boshladi, u hozir kerakli sahilarni chaqqonlik bilan topib baland, bir maromda o'qib berardi. Atrofda Varechkaning ovozidan bo'lak sado qolmadi.

*Men qanchalar g'amnok ulg'aydim,
Bolalarimni qanday ulg'aytirdim,
Tunda to'shak ko'rmadim,
Kunda orom bilmadim.*

Lukarya o'zi haqida aytilgan jumlalarni eshitib dod soldi, marhumga alam-u iztiroblarini aytib yig'ladi, atrofdagilar unga zarracha bo'lsin xalaqit berishni istamas, barcha odob bilan sukut saqlar edi. Yig'i aralash bu dunyoda yolg'iz qolganini aytib o'kindi.

Bu paytda marosimning tashkiliy tomonlari bilan band bo'lgan Mitka-partizanni boshqa tashvishlari bor edi. Dafn marosimidan keyin an'anaga muvofiq tushlik tashkil qilinadi. Bu tushlikni esa aroqsiz tasavvur qilish qiyin. Mitka Yegor Deryugin tengqur uch-to'rt yigitni uy kezishga jo'natdi, biroz o'tib o'zi ham ularning ortidan bordi. Makar amakining o'limi juda taqchil pallaga to'g'ri keldida, kechgacha uyma-uy yurib besh litr samogon yig'a olishibdi xolos. Tabiiyki, bu urvoq ham bo'lmaydi. Mitka har xil uydan har xil shishalarda yig'ib olingen samogonlarga qarab ichi achishdi. Inson dunyoga keldi, bir insonga munosib yashadi, kim payqab, kim payqamadi, lekin u ham yashadi, bolalarini ulg'aytirdi, oyoqqa qo'ydi, mana endi vafot etdi, nima, shu bilan hammasi tamommi, shu bilan

hamma eshiklar yopiladimi, kim ham umri poyonida shunaqa sovg'a olishni orzu qiladi deysiz. Yaxshimas, odamgarchilik nuqtayi nazari-dan yaxshimas, mayli, boshqa tomondan olib qaraganda ham yaxshi emas.

Tunda osmonni yana bulut qopladi, shamol ko'tarildi, Mitka mil-tillab yonib turgan chiroq olovini tomosha qildi. Uni anchadan beri kuzatayotgan Anyuta ortidan keldi, qo'llarini yelkalariga qo'ydi.

— Bu nimasi, Mitka, allaqachon kechki ovqatni yeysining kerak edi... kech tushib ketdi...

— Hali ulguraman.

— Qani, menga yoril-chi, nimalar bo'lyapti o'zi, — Anyutaning ovozi erkalanib chiqdi, og'zidan chiqayotgan mayin hovur Mitka-ning gajaklariga urildi.

— Negadir yodimga urush tushdi... shunga o'xhash tun, muz, sovuq, suyaklaringga o'tib ketadi. O'zimiznikilarga yetib olishim uchun qirq chaqirim yurishim kerak, — Mitka joyidan qo'zg'almadi, shu daqiqalarda xotinining erkalagan qo'llari juda yoqib tushayotgan edi.

— Xo'sh, qadrligim, yetib oldingmi keyin?

Mitka javob qaytarish o'rniغا unga tikilib qaradi.

— Qirq litr samogon topish kerak, Anyuta.

— Qii-rq, — Anyuta ortidan hayron bo'lib takrorladi, — shunchasi nimaga kerak? To'ymidiki shuncha samogon qo'ysang, buyog'i xo-tirlash kuni bo'lsa, yigirma litr ham yetib ortadi.

— Yigirma! — Mitkaning o'siq qoshlari chimirildi, — yigirma emish... eh siz ayollar... tovuqmiyal... U bir yuz to'rt yil umr ko'rdi! Aslida janozasiga butun polk tizilib turishi kerak, hurmat bajo keltirib. Yuz yoshni ko'rgan odam bilan xayrlashyapmiz, gapga quloq sol, Anyuta, kimdan topilarkin-a? — u boshi bilan derazada turgan aroq shishaga ishora qildi.

— Kimda, chiq, so'rab-surishtir, katta ehtimol bilan Steshka Bachixada bo'ladi bunaqa narsalar, lekin senga bermasa keragov...

— Nega endi?

— Gap shundaki, uni sotib bir yillik soliqni to'laydi, — Anyutaning Mitkaning gajaklariga urilayotgan issiq nafasi to'xtadi. Hali ham er-xotin o'rtasida qandaydir to'siq bor, lekin Anyuta xotirjam

qiyofasini yo'qotmadi, eri esa bosh ko'tarib unga qaramadi. Anyuta uning yuzini o'ziga burdi, mayin tabassum qildi. – Yur, Mitka, dam olamiz, – davom etdi u, – bugun kampir juda xotirjam, uyg'onishini o'yamasang ham bo'ladi.

– Sen uxlayver, men xolanikiga chiqib kelaman, – Mitka shoshib o'midan turdi, kamarini tortib bog'ladi, – sen bemalol, dam olaver, mening ishim ko'p, – xotinining yuzini egallayotgan norozilikni ko'rib xijolat bo'lib qararkan, baribir yo'lga otlandi. Bir necha daqiqa o'tib yelkasiga eski mo'ynasini tashlab olgan Stashka Babachixaning ostonasida kampirsho bilan gaplashib turardi.

Mezbon Mitkaning gaplarini eshitib og'ir bosh chayqadi.

– Xoh mendan xafa bo'l, xoh yo'q, lekin, Mit, bera olmayman, – Steshka xolaning ko'zлari qorong'ida yaltirardi, – mening ham tashvishlarim bor, axir, ba'zan hukumatdan ham ko'ngling qolib ketadi, qaysidir kuni agent kelgan ekan, oxirgi cho'chqagacha ortib ketibdi, bemehr gazanda. Bor-yo'g'imni senga berib barmoq so'rib o'tiramanmi? So'rama, bermayman, lavlagim ham tamom bo'lgan, senga bor vaqoyimni berib ochdan o'lamanmi? Amaki boqiy dunyoga ketib bo'ldi, endi unga hammasi baribir, tiriklarga qiyin.

– Bizga esa, Stepanida xola, baribir emas, – Mitka g'ijindi, – men senga o'zimnikini beraman, hatto ortiqchasi bilan, tashvish tortishingni qara, odamlar yordam qiladi... o'zim ham...

– A-ha, Mit, – xola mo'ynasini ko'kragiga tortdi, yuzida istehzoli tabassum paydo bo'ldi, – bu yil lavlagi hosiling unmagan deb eshitganim bor.

– To'g'ri, unmadi, – Mitka ham sira bo'sh kelmasdi, – ungan, unmaganining nima dahli bor? Nima, menda lavlagi yo'q deb o'layapsanmi? Lavlagilaring bo'ladi, Stepanida xola. Buni senga men aytypman, har bir litriga ikki puddan beraman. Iotasang, tilxat yozib qoldiray, ertaga tunda yetkazaman.

Xola jimb qoldi, vaziyat ancha jiddiy tus ola boshlagandi, lekin shu chog'gacha Mitka-partizanning birovni chuv tushirganini eshitmagan ham.

– Nega buncha boshing qotdi, – Mitka yana hujumga o'tdi, – shunday olib kelib omboringga to'kamiz, hech narsa yutqazmaysan.

Tasavvur qilib ko'r, har litriga – ikki pud. O'zi senda qancha bor, Stepanida xola?

- O'ttiz litr atrofida, – ishonqiramay javob qildi u.
- Yaxshi, ertaga ertalab olib ketaman, – Mitka ortiga o'girildi, – kechqurun hammasini qaytaramiz, chin so'zim, yigitlik so'zim.
- Kelishdik, – Stepanida xola ishonqiramay bo'lsa-da rozi bo'ldi, – lekin, Mitka, shuni bilib qo'y, aldasang, juda katta gunoh yoziladi. Tavqi la'natidan qutula olmay yurasan keyin.
- Bir gapni ushlab olsang, sira qo'yib yubormaysan, bo'ldi endi, Stepanida xola, – Mitka qo'l siltadi-yu qorong'i ko'chaga singib ketdi. Steshka xola biroz ostonada turdi-da eshikni mahkamladi, u halihanuz to'g'ri qildimi yoki yo'q shuni o'layotgan edi, axiri, uyqu elitib ko'zlarini yumdi.

Ertasi kuni ertalabdan yomg'ir ezib yog'a boshladı. Kuz yomg'iri yermi shalabbo qildi, yo'lak va yo'lakchaları suv bosdi, Mitka ertalabdan raisning yo'lini poyladı. Nihoyat, yomg'irda ivigan Fedyunin ko'rinish berdi. Boshidan brezent plashining yopinchig'ini oldi, jiqla ho'l oyoqlarini artdı, Mitka ham unga ro'baro' bo'lishi bilan maqsadga ko'chdi.

– Eshityapsanmi meni, Frol Timofeyevich, – dedi raisning yonginasiga kelib, – senda zarur ish bor.

– Gapir, – hamma ishning beliga tepgan yomg'irdan g'ijinib javob qildi u, umuman olganda, Fedyunin o'z ishidan ham norozi, bu yerdan yigirma kilometrlar chamasi uzoqda, Zejskda shinamgina uyi bor, issiq suv ham, sovuq suv ham ulangan, odamga nimaiki qulaylik kerak bo'lsa, barchasi muhayyo. Bu yerda hammasi ostin-ustun bo'lib yetibdi. Nima uchundir xayoliga irkit bo'lib xurillayotgan cho'chqalar keldi.

Mitkaning ham ko'plab gustishliklar qatori raisni jini suymasdi, lekin na iloj o'z hojatini ado qilishi kerak, shuning uchun uning yuziga qaramay gap boshladı.

– Makar amaki qazo qildi, Frol Timofeyevich, shunga keldim, janozasiga ellik pud atrofida lavlagi yozib berish kerak, – dedi Mitka, – qariyaning hurmatini joyiga qo'yish kerak.

Bu darajada surbetona taklifdan Fedyuninning avzoyi o'zgardi, butun gavdasi bilan Mitka tomonga o'girildi, yonidagi uyatsizning gaplaridan tomog'iga nimadir tiqilib qolgandek bo'ldi.

Mitka yuzidagi soxta shodonlikni saqlab qoldi-yu o'girildi, xuddi o'z-o'zidan mammun odamdek odimladi. Barcha gustishliklarni yolg'onchi, muttaham deb biluvchi Fedyuninning oldida yana bir muammo paydo bo'lgan edi. U g'azabini sochib yerga tupurdi.

— Eslab qol, Mitka, to'pponchadan, to'pponchadan, paq! paq!

Mitka raisning dag'dag'asini eshitdi, lekin o'g'rilib qaragisi keldi.

4

Birinchi uchqun xiyla so'ndi, Fedyunin issiq choydan ho'plab bo'lib o'tgan voqealarni o'zicha mushohada qildi. Tuman militsiya boshlig'iga qo'ng'iroq qilishga qaror qildi, militsiya almoyi-aljoyi hikoyasini tugatmasidanoq qarsillatib go'shakni qo'yib qo'ydi. Nima emish, endi polizdag'i har bir lavlagingga poyloqchilik qilishimiz qolgan edi deydi, nima har bir polizga bitta otryad biriktirib beraylikmi deydi, nima xalq mulkini gazandalardan himoya qilish kichkina ish ekanmi. Go'shakni qo'ygandan keyin Fedyunin ham uni bo'ralatib so'kib oldi. Lekin bu insонning to'qim tabiatи haqida ko'p marotaba eshitgani uchun ko'ngliga olmadi. Alam ustida bir necha marta tuman sekretariga qo'ng'iroq qilmoqchi bo'ldi-yu, oxirgi daqiqalarda tanasiga yaxshilab o'ylab ko'rdi. U shu choqqacha Valsev deganlari bilan shaxsan yuz ko'rismagan, lekin ayni shu kimsaning sharofati bilan mana shu qo'lansa joy Gustishga kelib o'tiribdi. Yo'q, Valsevga qo'ng'iroq qilib bo'lmaydi, undan yordam kutib bo'lmaydi, qaytanga hammaga kulgi bo'lib, gap-so'z bo'lGANI qoladi. Lekin Mitka Volkov masalasini ochiq qoldirib ham bo'lmaydi, buni Fedyunin ichichidan his qilib turibdi. Hammasi gardkamiga bir-biriga o'ralashib ketgan, kim kimga ilashishini bilib bo'lmaydi. Bir marta bo'sh keldingmi tamom, boshingga chiqib olishadi. Bu qanaqa hukumat bo'ldiki, bittasiga bas kela olmasa. Mitkaning masalasi bilan qosh qorayganini ham payqamay qolibdi, Fedyunin bamaylixotir bugungi kechaga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Ichidan qalin yungli ich kiyimlarni kiyidi, ustiga yelkalarini issiq tutadigan nimchasini ildi, oxirida brezent plashini ustidan tashladi-yu, bir qur o'ziga razm soldi. U yoqdan bu yoqqa yurib kiyimlarining qulayligini tekshirdi (uy sohibalari bo'lgan kampirlar janoza vajidan uyda bo'lmay qoldilar). Fed-

yunin eshikni qulfladi, kelishilgan joyga kalitni qo'yib yo'lga tushdi. Tez orada yuziga shitob bilan urilayotgan shamolga qarshi g'ujanak bo'lib qishloq tomon yo'l oldi. Har qadamda oyog'iga bo'tana ilaki-shadi, ularni silkitgani sari yana ham battarroq bo'tanaga tushadi. Shu zaylda bir amallab polizga yetib bordi. O'ziga o'ng'ay joy axtardi, g'aram qilib qo'yilgan poxolning bir burchagiga o'tirdi. Bu poxolni qishning qahratonli kunlariga chorva uchun g'amlab qo'yishgan. Bu yerga o'rnashib olgan odamni payqash oson ish emas. Fedyunin g'aramni aylanib eng qulay burchakni tanladi. Shu yerda poxoldan kichkina o'rindiq qildi-yu, ustiga o'tirib oldi. Kaftlari bilan o't oldirgichni shamoldan pana qildi, miriqib papirosh tutatdi. Achchiq tutunni ichiga yutarkan, rangsiz hayotini ko'rib o'zining o'ziga rahmi keldi. Mana, keksalik ham ostonada turibdi, nimasi yaxshi? Xuddi dala qo'riqchisiga o'xshab o'zinikilardan polizini qo'riqlab o'tiribdi, bundan ortiq qanday rasvolik bo'lishi mumkin. Yana topgan vajini qarang, allaqanday lavlagini qo'riqlashi kerak. Tonna-tonna lavlagisi ham ketini zaxga berib, shamol, yomg'ir aralash tunda poxol tagida o'tirishiga arzimaydi aslida. Lekin u-chi, bo'sh kelmaydi, oxirgi lavlagi donasi uchun ham qon kechib jang qiladi. U hech qayerga bir qadam ham siljimaydi, uning ahmoqona tabiat shunday, lekin nimaga bu qadar tarang qilayotganini o'zi ham tushunmaydi.

U papiroshni qoldig'igacha chekib yubordi, o'tiraverib beli toldi, orqasiga bir uyum poxol tashlab suyanib oldi, plashining yoqalarini ko'tarib yuzini to'sdi. Qanchalik issiq kiyangan bo'lmasin, zax va sovuq ich-ichiga o'tib ketdi, qolaversa, poxol ham nam tortib qolgan. Bu ketishda uzoq vaqt o'tira olmasligiga ko'zi yetsa-da, sira egardan tushgisi kelmasdi. Ertadan boshlab navbatma-navbat qorovul tayinlaydi. Qorovul! Ertaga jo'rttaga ham bir kelib ketadi. Bu qanaqa la'nati qavm bo'ldi ekan! Hammasi bir yoqadan bosh chiqargan, bittasiga tegsang bormi, hammasi yumma talab tashlaydi. O'g'rilar, ochko'zlar, nimtalab tashlayman deydi-ya.

Fedyunin gapini tugatmagan ham ediki ko'zlar hayratdan qotib qoldi, ko'zlariga ishonmay bir necha marta qayta-qayta ishqaladi. Hozirgina bo'ralatib so'kayotgan xalqi lavlagiga aylanib dalaning har tomonidan unga qarab chopib kelayotgan edi. Kamiga har birining qo'lida bittadan pichoq yaltiraydi, xuddi suvarak kabi ildam

odimlaydi. Fedyunin yoqa tishladi, lekin shu ahvolida ham dush-manni sirtdan kuzatardi. Har bir lavlagining odamniki singari qo‘li, oyoqlari borligini ilg‘ab oldi. Yana ko‘zi, yarim ochiq tirjaygan og‘zi ham bor. Bu ildam xalq shu turishida anchayin vahshiy bo‘lib chiqsa ajab emas. Mana ular, deyarli, Fedyuninning oldiga yaqinlashib qolishdi. Fedyunin tirmashib olgan poxol uyumi tagiga yetib kelganlarida bir-biriga qo‘l cho‘zib g‘aramga tirmasha boshladi. Mana bir necha soniyada uning kiyimlari ustida lavlagi odamchalarining nam qo‘l va oyoq izlari muhrlanib qola boshladi. Uning kiyimlari orasiga o‘rmalab kirib eng yashirin nuqtalarigacha suqulib kirishdi. Fedyunin vahshiylarning dastidan dod solib o‘zini pastga otdi.

— Jim, jim bo‘l, rais, — juda tanish ovoz amr qildi, Fedyunin notanish bo‘lsa-da inson zotiga yo‘liqqanidan suyunib ko‘zini ochdi, biroq g‘ira-shira qorong‘ida hech kimni ilg‘ay olmadi, lekin kimdir yelkasidan mahkam ushlab olganini aniq sezib turardi. Kiyimlarni paypaslab qurolini topa olmagach ruhi yanada tushib ketdi, qurol xuddi hech qachon bo‘lmagandek g‘oyib bo‘lgan edi. Birdaniga yelkasiga yopishgan changal bo‘sashdi, Fedyunin biroz bo‘lsa-da xotirjam tortdi, lekin shu ondayoq bu changal issiq shamolga aylanib basharasiga urildi, Fedyunin shundan keyingi voqealarmi eslay olmaydi, ko‘zini ochsa, bir necha kishi qoplarga lavlagilarni joylash-tirayapti. Odamlar jim, qolaversa, bu qorong‘ilikda ularni tanib olish ham amrimahol. Fedyuninga ularning ko‘z, lab va burunlari kesib olingandek tuyuldi.

— Qani, yordamlash, — Fedyunin bu tanish ovoz Mitka-partizanniki ekanligiga zig‘ircha bo‘lsin shubha qilmayotgan edi. Temir musht yana uning yelkalaridan tutdi.

— Sen hali hammasi uchun javob berasan, — Fedyunin alam ichida chinqirdi, — endi xonumoning bilan kulingni ko‘kkasovuraman... qarab tur hali, yerning tagidan bo‘lsa ham topaman.

— Men senga yordamlash dedim, — Mitkaning ovozi yana amr qildi, keyin yana o‘sha qo‘llar Fedyuninni chirpirak qilib tashladi, ubazo‘r oyoqda qoldi.

— Ko‘ndira olmaysan, shu yerda o‘ldirsang ham go‘rga, o‘g‘rilarga yordam berishga ko‘ndira olmaysan meni, — Fedyunin-

ning chinqirig'i ajviga chiqdi, – o'ldirsang ham so'zimdan qaytmayman.

– Sening kimga keraging bor, – ovoz javob qildi, – shoshma, qayerga ketaysapsan?

Fedyunin qochishga chog'lanayotgan edi, temir qo'l uning oyoqlaridan dast havoga ko'tardi, yuqoriga olib chiqib pastga tashlab yubordi, Fedyunin ko'kragi bilan yuztuban tushdi. Fedyunin qanchalik urinmasin ko'rinas mas kuch uni lahzada mahkam qisar, changalidan bo'shatmas edi.

Alaloqibat temir qo'l uni dast ko'tarib poxol g'aramning us-tiga olib borib tashladi. Fedyunin ojizligi va o'z holiga o'kirib yig'ladi, sharmanda bo'lgan yuzini kaftlari bilan to'sib oldi, mag'rur ko'tarilgan yoqalarini pastga tushirib tashladi. Dunyoda uning holi-dan ham abgorroq bir hol bo'lman bo'lsa kerak, har holda, Fedyunin o'sha vaqtida shunday xulosaga kelgan edi. Yoniga lattadan o'rab yasalgan poxol bosh o'rnatilgan dala qo'riqchisini ham o'tqazib qo'yishibdi, hozir shu qo'riqchi tilga kirib ovozning nomidan gapi-rayotgan edi. Notanish ovozning ham rahmi keldi chog'i, Fedyunin-ga tasalli berishni boshladi.

– Qo'ysang-chi endi, Fedyunin, bu nima qilganing, – dedi u, – lavlagi degani nima degan gap – bir-ikki, tamom, yana o'sib chiqaveradi, sen sog'lig'ingni o'yla, hali hayot yo'ling uzun. Sen sabr qil, sabr bilan kut, hammasi yaxshi bo'ladi, senga yaxshi bo'ladi. Hali pech oldida o'tirib olib obdan isinasan... sen shahar odami bo'lsang, qosh qorayganda yaydod dalada nima qilasan, mana, burningdan bu-loq bo'ldi.

– Sen, itvachcha, Volkov, nimalar qilayapsan o'zi, – alam bilan xirilladi u, – yana o'zingni partizan deb his qila boshladingmi, nima, bu senga urushmidi?

– Meni qanaqa jin urgur Volkov nomi bilan chaqirayapsan, – ovoz taajjublandi.

– Unda kimsan, – qichqirdi Fedyunin.

– Mayli, o'tir, o'tir, umi, boshqasimi, nima farqi bor, mana, yaxshilab chekib ol.

– Xohlamatayman, – Fedyunin inkor qilib bosh chayqadi, yuzini boshqa tomonga burib oldi. Quloqlarini qo'riqchi tomon burib

uning kimligini bilib olmoqchi bo'ldi-yu, uddasidan chiqa olmadi. Ikkı-uch, balki to'rt soat o'tgandır qo'riqchi o'rnidan turib kerishdi, oyoqlarini yig'ib-yozib mashq qildi. Tamaki tutatgan lablarini qiy-shaytirib qahqaha otdi.

— Boraqol endi, rais, — dedi u, — lekin ko'zingga qarab yur. Bugungi kecha yodingdan chiqmasin. Yana xalq bilan nomurosa bo'lsang, boshingda kaltak sinaveradi.

Fedyunin ham quvonchdan baqirib yubordi, yuragi tortishib og'rir, yana o'zini nimalar kutib turganini taxmin qilishga ham botina olmas edi. Shamol kuchaygandan kuchaya berdi, xuddi yerni ham o'pirib ketayotganga o'xshaydi. Qipyalang'och daraxtlarda oq-qushlar biqinib mudraydi. Oldidagi dala qo'riqchisi g'oyib bo'lgach o'rnidan sapchib turdi. Har tomonga alangladi. Shamolning uvlashi-yu poxolning tebranishidan bo'lak hech bir tovush eshitmadni. «Fu, jin ursin, hammasi ko'zimga ko'ringan — boshidagi qotib qolgan qonni paypaslarkan, ko'ngli biroz yorishdi, — qanaqa jin urgur lavla-gichalar, qanaqa Mitka, a-ha, Makar amaki, haligi qazo qilgan Makar amaki...»

Fedyunin sabzavotlarni ezb'alab dalaning qoq o'rtasidan uyga qarab yugurdi, oyoqlariga muzday loy va sassiq bo'tana yopishdi. Fedyunin bu ketishda to'shakka mixlanib qolishini o'yladi. O'ziga ishonib-ishonqiramay uyga yetib keldi. Qanday yechinganini ham bilmaydi, boshi choynakday qaynab tars yorilib ketay deyotgan edi. Tantanalarga asrab qo'yilgan yaxshi aroqni oldi, bir stakan to'ldirib ichdi. Aroqdan tetiklashib, choyshabga o'randi, badaniga issiq tegib tush aralash kechgan tun dahshatini ham unutdi, sokin va sog'lom uyquga ketar ekan, o'zining bu qadar tetikligiga hayron qoldi. Butun tunning bor tafsilotlari, ikir-chikirlarigacha yodiga tushdi, hammasi qanday va nima uchun yuz bergenini tushundi. Bu yerda ortiq ishlay olmasligini tushunib yetdi. Qandaydir ichki kuch uni deraza to-monga yetaklay boshladi, ko'nglidan kechgan o'ydan yuzi o'zgarib ketdi, tashqaridagilar payqab qolishlarini istamay choyshabga o'rangancha deraza oldiga bordi, ayni shu vaqtda bo'tana tortgan iflos ko'chadan Makar amakini olib ketishayotgan ekan, Fedyunin o'z holidan uyaldi, qishloq raisi bo'lsa-yu uni janozaga chaqirishni ham ep ko'rishmasa, mana, o'zlari hammasini risoladagidek ud-

dalashiyapti. Deraza qarshisidan deyarli butun qishloq o'tdi: avval qariyalar va bolalar, keyin erkaklar va ayollar, oppoq tobut chayir yigitlarning keng yelkalari uzra chayqaladi. Xullas, shu zaylda tobut butun atrofni aylanadi, ba'zan u biron fursat to'xtab qoladi, bu vaqtida qariyalar iltijo qilib, duo o'qib olayotgan bo'ladi. Havo ancha ochilib ketdi, osmon sovuq va bulutsiz va toza edi, Fedyunin tanish chehralarni ko'rdi, ular kunora har xil masalalar bilan uning idorasiga kirib turishadi, mutlaqo notanish chehralar ham ko'p, buni qarangki, ko'plab fuqarolarini tanimaydigan bo'lib chiqdi, hozir uning joyi shu odamlarning o'rtasida edi-yu, lekin ancha kech bo'lgan edi. Shartta kiyimlarini kiyib olamonga ortidan yetib olsa ham bo'ladi-kuya, lekin bu Fedyuninning so'nggi falokati bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun jimgina yotog'iga borib bir chekkasiga o'tirdi. Ko'z oldidan tobut ko'targan sokin olomon ketmay qoldi. Qo'llidagi viskini qattiq siqib, boshini sarak-sarak qildi. Bekaning mushugi ro'parasiga kelib yashil ko'zlarini tikdi, og'zini katta ochib miyovlab qurilladi. Fedyunin mutlaqo xayolga cho'mdi, xayollariga xalaqit qilayotgan mushukka yostiqchani beozor otdi. Mushuk o'zini panaga olgan edi, yostiqcha borib eshikka tegdi.

Balki nimanidir to'g'rakash haqida o'ylab ko'rish kerakdir, lekin nima, nima uchun? Baribir, Fedyunin bu yerdagi hammani va hamma narsani jinidan battar yomon ko'radi, shunday ekan nima uchundir poydevor qurishning sira keragi yo'q. Nega uni shu kolxozga tashlashdi, mustahkamlash uchunmi? U bu ishga yaramaydi, keskin rad qiladi, bosh tortadi, irodasi yetmaydi.

Fedyunin shunday o'ylar girdobida qolib anduh chekar ekan, xoch va tobut yelkalagan olamon qishloqning bir chekkasidagi oq qayinzorga yetib kelgan edi. Qayinlar ham bargini to'kkan, onasonda shoxlarida qizg'ish yaproqlar uchraydi. Maysa va yaproqlarning namxush hidi odamni sarxush qiladi, havodan asal isi anqiydi, o'ynoqi shamol qayinlarning osmonga tutashgan novdalarini o'ynaydi. Yefrosinya lapanglayotgan tobut ortidan majolsiz ergasha-yotgan Lukaryaga katta-katta qadam tashlab yetib oldi, ayol azbaroyi baqirib yig'laganidan ovozi chiqmay qolibdi, oyoqlarini ham bazo'r sudraydi, Yefrosinya uning qo'llaridan tutib suyanchiq bo'ldi, buni hech bir gap-so'zsiz amalga oshirdi. Hozir Lukarya nimanidir eshi-

tib tushunadigan ahvolda ham emas edi. Yefrosinya Makar amakini kelin bo‘lib tushganidan beri bilardi, bu insonga qo‘shti bo‘lgan, mehribon amakiga ko‘nikib, o‘rganib qolishgan edi. Mana endi ana o‘sha qadrdon inson g‘oyib bo‘ldi, lekin Yefrosinya na qo‘rquvni, na og‘riqni his qildi. U hozir hammasini boricha qabul qilishni o‘rgangan, fikrlari teran, mushohadalari o‘rinli. U o‘zi, bolalari, Nikolay va Yegor haqida xayol surdi, bu ikki o‘g‘lining borligi naqadar katta baxt, mana odamlar o‘g‘il, qizini oldiga solib yuribdi, Yefrosinyaga bunday maqtanchoqlikning sira keragi yo‘q, shundoq ham bolalari hayotda katta yutuqlarga erishgan. Katta ko‘chadan borar ekan, xuddi butun hayotini ochiq osmon ostida yurib o‘tkazgandek his qiladi o‘zini. U jilla qursa biron marta o‘tirib nafas rostlamagan yo‘lovchiga o‘xshaydi. Endi nafas rostlashga ham hojat yo‘q, manzil deyarli ko‘rinib qoldi. Bir hatlasa bas – u ham yo‘qlik saltanatiga singib ketadi, xayollaridan allanechuk yuragi uvishdi.

Yefrosinya miyasiga kelgan o‘ylardan chuqur xo‘rsindi, atrofга yashirinchа ko‘z tashlab oldi. Olamonning «dumi» sekin asta maydonga qarab siljidi. Yelkasiga tobut ortgan yosh yigitlar o‘zaro shivirlashishadi, qo‘liga injilni mahkam ushlab tobutning ortidan ergashayotgan Varechkaga hech kim e’tibor qilmaydi. Ivan Yemelyanovdan bir necha qadam narida ketayotgan Volodka Malla u to-monga engashib pichirladi. Ivan ham bosh irg‘ib ma’qullab qo‘ydi. Keyin qo‘lidagi yog‘ochni yo‘l chetiga uloqtirdi. Yefrosinya ko‘zi bilan Yegorni qidirardi, lekin topa olmadi. Yana bo‘ynini cho‘za boshlagan edi, majolsiz Lukarya xola qo‘llariga yiqlidi.

– Oh, Lukarya xola, o‘zingni o‘zing yeb bitirasan-ku, – Yefrosinya yengil koyigan bo‘ldi.

Tez orada atrofi tol va qarag‘aylar bilan o‘ralgan mozor ko‘zga tashlandi, do‘ngliklar ustida kuzning o‘ynoqi shamoli kezadi, bu yerga gustishliklarning bir necha avlodи ko‘milgan. Qabristonga ya-qinlashgach hammaning yuzi jiddiyashdi, qabriston ularda qandaydir xavotir uyg‘otganga o‘xshar edi, umumiy kayfiyat Yefrosinyaga ham yuqdi. Faqat Mitkaning jo‘shqin ovozi bu kayfiyatga qovushmaydi, marosimning boshidan oxirigacha o‘zi bosh bo‘ldi, hamma-ga ishini bo‘lib beradi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, anchagina serg‘avla ish bo‘lsa-da Mitkaning o‘zi ham bundan zavq olayotganga o‘xshar

edi. Yefrosinya bu qat'iyatli yigit timsolida yosh Zaxarni ko'rgandek bo'ldi, keyin esa fikridan o'zi ham seskanib ketdi. Makar amakini yerga qo'yishdi, hamma tobut ustidan tuproq sochdi, hatto bolalar ham qo'rquv va qiziqish aralash lahad oldiga churillashib borishadi, qumni sepib tum-taraqay qochishadi. Yefrosinya ham bir kaft tuproq sochdi-yu Avdotya buvining qabri boshiga bordi. Bu qabr ancha es-kirdi hisob, bosh tomoniga sanchilgan yog'och xoch ham nam tortib ketibdi.

Varechka bor kuchini yig'ib injildan Lukaryaning alfoziga mos jumlalarni topib o'qidi, tevarak-atrofni uning ovozi bosib ketdi:

*Shu qabriston qo 'ynida
Ona yerning bag'rida
Ming-ming qabila yotar,
Qarindosh-urug' yotar
Bobo va buvi yotar,
Otaning yonverida
Onaning boshi uzra
O'g'li va qizi yotar
Bu dunyoning qismati
Suyaklarning chirishi
Tunda uzlatga cho 'kib
Quzg'unga yem bo 'lishi
Qaynota, otajonim,
Meni o'zing bilan olib ket
Ona yer, Senga topshirdik uni
Huzur-halovatga elt.*

Yefrosinya ortiq chidab turolmadi, qabrnинг ustiga yiqilib, uni mahkam quchoqladi, xuddi qalin yer bag'ridan ham qadrdon tana-ni quchgandek bo'ldi, ho'ngrab yig'lab yubordi. Qabrdan namiq-qan tuproq va maysa hidi anqiydi. Yefrosinya ham kuz barglariga qo'shilib osmonda uchayotganga o'xshaydi, xuddi atrofini dasht va sokin kuz osmoni qurshab olganga o'xshaydi, ajib hissiyot. Olis-olisarda Zaxar bor, uning Zaxarushkasi, nima bo'lmasin, qanday bo'lmasin, hayot davom etar ekan, yashash kerak. Ortidan kimdir uning yelkalariga yopishib yerdan ajratib olmochi bo'ldi, Yefrosinya jiqla ho'l ko'zlarini kaftiga artib qoshlarini chimirib turgan Yegorni ko'rди.

– Ketdik, oyi, nimalar qilyapsan, – birov ko‘rib qolmadimi deb olamon tomonga ko‘z tashlab qo‘yadi, – yetar endi.

– Yuragimni bo‘satib olgim keldi, chamasi, – dedi u aybdorlik ohangida, – sen boraver, boraver, men hozir.

– Tur, tur, oyi, – Yegorning qoshlari chimirildi, lekin shu zahoti onasining o‘tkir, alamli nigohlariga to‘qnashdi va jimb qoldi, tushunib yetdiki, onasi bu yerda qancha xohlasa qolishi va o‘zini qanday xohlasa shunday tutishi mumkin, bunga uning ma’naviy haqqi bor. Aksincha, Yegorning ona-bolaning diydorlashishiga xalaqit berishga haqqi yo‘q, shu fikr bilan onasidan qo‘lini tortdi, uni ortiq bezovta qilmaslik uchun o‘zini chetga oldi.

O‘g‘lining ortga tisarilganini ko‘rib Yefrosinya ma’qullab bosh chayqadi, g‘amgin ko‘zlarini yumgan edi, ko‘z yoshlari favvoradek otilib chiqa boshladi. U jilla qursa yana ozgina shu yerda qolishni, to‘yib yig‘lashni istardi, lekin nachora. Yegor uning yelkalaridan quchib turishiga ko‘maklashdi, osmonda kuz quyoshi sayr qiladi, qurib-qaqshagan dov-daraxt, shox-shabba shamolda chayqaladi, uzluksiz yomg‘ir jilla qursa bir necha soatga to‘xtaganini nishonlaydi. Gustishliklar, marosimni rasamadi bilan bajo qilgach qishloq tomon yo‘l oldi. Yefrosinya yaqinda do‘ppaygan oppoq qabrga qaradi, u avvaliga Yegorning ortidan ergashayotgan edi, lekin jimgina qabristoning boshqa tomoniga ketdi, (eski bo‘lsa-da bu qabrni kimdir mehr bilan tozalab turishi ko‘rinib turibdi, ustida dala gullaridan yasalgan gulchambar, qo‘ylganiga ancha bo‘lgan chamasi avval qovjirab, keyin namiqib ketgan, bu gulchambarni Yefrosinya pasxada olib kelgan edi, qabrning ustiga yupqa qoplama qilingan, boshida qarag‘aydan qilingan o‘rtacha kattalikdagi xoch o‘rnatilgan, bu xochning ham o‘z tarixi bor, uni o‘ttizinchi yillarning boshida Akim Palivanov yasagan edi, xochda duo yozilgan tasma bog‘langan bo‘lib, shamolda qabr uzra hilpiraydi). Yegor bu qabr haqida oz bo‘lsa-da biladi, shuning uchun onasining ortidan istar-istamas u tomonga yurdi. Yegor ancha katta yigit bo‘lib, aqli ham to‘lishib qoldi, lekin hali-hanuz shu qabr ustiga kelishdan qo‘rqadi, aniqrog‘i, Yefrosinyadan bo‘lak onasi bo‘lganini hazm qila olmaydi, u o‘zining tuqqan ota-onasini biron marta bo‘lsin ko‘rmagan, shuning uchun Yefrosinya xotira kunlarida qabr ustiga non, tuz, qaynatilgan tuxum, ko‘zada suv olib kelgan

vaqtlarida buni xuddi bir kattalar o'ynaydigan o'yindek qabul qilgan, marosim ado etilishi bilan shataloq otib uyga jo'nagan. Lekin bugun qabr boshiga kelarkan, yuragi allanechuk bo'lib ketdi, Yefrosinyaning ortida turib g'alati hissiyotni boshidan kechirdi. Shu payt qabristonga katta ko'lanka yoyildi, shamol qo'pib osmonni yana bulut qopladi, yangi kuz yomg'iri yog'ishga shaylana boshladi. Keksa qayin shoxiga o'tirib olgan qarg'a juda qattiq qag'illadi. Yegorning ichiga xavotir tushdi, umrida birinchi marta yer bag'rida yotgan marhuma bilan mushtaraklik his qildi, Yefrosinyaning oldidan o'tib qabr boshiga bordi, oldinlar qabrga bunchalik yaqin kelmagan va kelishni ham istamagan, Yefrosinya o'sha kun kelganini tushundi, Yegorni qabr boshida qoldirib o'zi nari ketdi, Yegor o'zi xushlamagan qabrni birinchi marta bu darajada yaqindan ko'rdi, siladi, keyin esa ko'z yosh to'kdi. Osmon ham uni kutib turgandek o'sha zahoti sanoqsiz tomchilarini yerga qo'yib yubordi. O'sha kuni Yegorga qo'shilib zamin-u osmon yig'ladi.

– U qanaqa edi, – yoniga kelib cho'kkalab jimgina xayriohlik qilayotgan Yefrosinyadan so'radi.

– Juda yosh edi, Yegorushka, bag'oyat go'zal edi, – Yegorning ko'zlariga tikildi, – o'sha kunni eslayman, taxta ustiga yotganini, xuddi shudringga chayilgan deysan, oppoq. U sening onang edi, Yegorushka, dunyoga keltirgan onang.

Kuzning salqin yomg'irlariga yer bag'rini tutgan o'sha kunda Yegorning yuragi hapriqib ketdi, o'sha kuni nimalarni his qilganini o'zi ham yaxshi tushunmasdi.

5

Shu kuni Palivanovlar xonadonidagi shovqin-suron yarim tungacha tinmadi. Odamlar keladi, marhumning haqi-hurmati uchun ichadi, qaynatilgan kartoshka va sho'r bodring bilan gazak qilib o'mini boshqalarga bo'shatib ketadi. Ba'zilar marhum xonadoniga og'irligi tushmasligi uchun ichkilik va gazagini o'zi bilan olib keladi, hamma bosh kiyimini yechib duo qiladi. Bunaqasi Gustishda hech qachon bo'limgan, butun qishloq bir tan, bir jon bo'lib, katta bir oilaga aylanganga o'xshar edi. G'am-tashvishi ham, xursandchiliği ham o'rtada, kim misqolcha narsa topsa, o'rtaga qo'yadi.

Ayni shu pallada Gustishning baxtiqaro raisi Fedyunin Valsevning xonasida o'tirib beixtiyor furajkasini o'ynardi. U hikoyasini tugatganida Valsevning hayrati oshdi.. Qaysidir ma'noda hikoyadan yuragi g'ash tortdi, Fedyunin esa alamini kim bilandir bo'lishib ancha yengil tortdi.

— Mitka Volkovni qamoqqa olish kerak, sud qilishimiz kerak uni, hammasining boshida shu turibdi, — dedi u asabiy chekishga tutinarkan, — aks holda bu xalqni hech qachon yo'lga solib bo'lmaydi, Gennadiy Mixaylovich.

Valsevning ko'zlarini tabassum qilayotgan bo'lsa-da, ich-ichidan bugungi holatga kuyindi. Fedyuninning gaplarini ma'qullamay, bosh chayqadi.

— Eh, hammasi shunchalar oson deb o'ylaysanmi, — Valsev Fedyuninning gaplaridan taajjublandi, — qamoqqa olasan, shu bilan ish yopiladi deysanmi, chuchvarani xom sanabsan, Frol Timofeyevich, g'irt ahmoqsan, shu turishingda ahmoqdan ham o'tib tushasan.

— Shoshma, Gennadiy Mixaylovich.

— Yo'q, sen shoshma, — Valsev beparvo qo'l siltadi, — undan ko'ra maslahat ber, endi seni qayerga jo'natsak ekan?

— Meni?

— Seni, seni, yana kimni bo'lardi, — Valsev juda xotirjam gap boshladi, Fedyunin ham ishtahasi karnay bo'lib yangi lavozimini kuta boshladi. — Qurilish idorasini boshqarganmi? Boshqargan. Ishning pachavasini chiqqarganmi? Qoyilmaqom. Xo'jalik trestini boshqarganmi? Boshqargan. Shaharni cho'ktirib yuborishiga bir bahiya qolgan. Guvohlar ham bor. Quritish zavodining direktori bo'lganmi? Bo'lgan. Ishchilarining yarmi ishni tashlab qochib ketgan... Eslab ko'rgin-a, Anisimov Rodion Gustatovichdan keyin, yodingga tushdimi, achinish kerakmi yoki aqldan ozgan deb hisoblashmi, bilmadim, — ochiq-oydin gapirganim uchun ma'zur tutasan! — Anisimov Xolmskga o'tib ketganida seni raypotrebsoyuzga tashlashdi... rahmat ularga, xato qilganlarini bir martadayoq payqab qolishdi, aks holdami... endi esa bu yerda, eng ilg'or chekkani ham...

— O'rtoq, Valsev, — Fedyunin yelkalarini oldinga tashladi, — Hatto tuman sekretari bo'lgan taqdiringizda ham meni haqorat qilishingizga yo'l qo'ymayman! Men iqtisodchiman, ko'p yillik tajribam

bor... shuni unutmang! Men partiyada yigirma yil... men o‘g‘rini o‘z qo‘llarim bilan tutib oldim... partiya oldidagi burchimni sidqidildan bajarib... jamoatchilik tartibini saqlab qoldim.

– Gapir, gapirib qol, – Valsev uning yuziga qiziqsinib qaradi.

– Demakki, dongdor odam, urush qahramoni, aytaylik, partizan, lekin g‘irt o‘g‘ri, mutahham, it emgan odam. Kechirasiz-u, jamoat mulkini talon-taroj qilib yuribdi.

– Sen gapga o‘qigansan, Fedyunin, buni hamma biladi. Gapi-rishga ustasiz, xalq bilan ishlashga kelganda esa... guvochlaring bor-mi?

– Guvochlар? – Fedyuninning ensasi qotdi, – unda men kimman, kommunistning haq va‘dasi qayerda qoldi?

– Sening haq so‘zlaringga ishonib butun qishloqni sud qilamiz-mi? Mitka partizan ham keldi, qamoqqa olindi deylik, xo‘s, u ham-masi sening to‘qima nayranging ekanligini aytса nima qilasan? Se-ningcha kimga ishonishadi, nomi tillarda doston qahramongami yoki aljang-buljang valaqlayotgan takasaltanggami? Ishning bu tomoni ham bor. Sen ish boshlaganiningdan beri butun qishloq tish-tirnog‘i bilan senga qarshi, xo‘s, Mitka Volkovni qamadik ham deylik, qol-ganlarni nima qilasan? Bu xalq seni mutlaqo suymaydi, bu ham se ning aybing.

Fedyunin sirtida sir boy bermagan bo‘lsa ham ich-ichidan biladi, Valsev haq. Qay tomonga qarama, nima bilan o‘lchama aybing bor-mi, vassalom, bo‘yningga olishing kerak. Fedyuninning tik yelkalari cho‘kdi, ovozi ham kayfiyatiga monand pasaydi.

– Menga nima bo‘ladi, bundan keyin demoqchiman, – Valsev-ning yuziga o‘g‘rincha qarab oldi, – u yerda ortiq ishlay olmayman...

– Aqlim yetib turibdi, – dedi Valsev quruqqina qilib, – u yer-da ortiq ishlolmasligingga aqlim yetib turibdi, – Valsev afsuslangan ko‘yi Fedyuninga qaradi. Endi nimanidir o‘ylashga sira hojat yo‘q, Fedyunin masalasi kundek ravshan. Fedyunin yolg‘iz emas, u kabi qoloq kadrlar tizim bo‘ylab sochilib ketgan, hammasi o‘ziga doi-ra yasab olgan. Hammasi juda g‘alati, aytaylik, odam bir mansabni egalladi bir bahonai sabab bilan uni bo‘shatishiga to‘g‘ri keldi deylik, u shu zahoti atrofga alanglashni boshlaydi, uni boshqa joyga, xuddi shu martabadagi lavozimga tayinlashlarini kutadi. Xullas, o‘z o‘rnini

o‘z xohishiga binoan tinchgina topshirishi uchun yana shunday ishga o‘tkazilishi kerak. Hatto biroz quyirog‘iga ham rozi bo‘lishmaydi, mumkin emas. Hatto mana bu Valsev tinimsiz tishlayotgan Fedyuningning o‘zi ham bir vaqtlar chakki buxgalter bo‘lмаган, у о‘зининг лавозимини трестнинг буяргуига биноан егалиган... taxmin qilish ham qiyin – buyog‘i peshonadan.

– Gustishliklar bilan hech kim kelisha olmaydi, jin chalgan xalq. Qandaydir Zaxarni eslashadi, familiyasi Deryuginmi-yey. U Gustishga urushgacha raislik qilgan ekan, og‘izlari ko‘pirib o‘shani maqta-shadi, bir pasda seni o‘sha afsonaviy Zaxar bilan taqqoslashadi-da, sendan yuz o‘girishadi. Bunaqada ishlab bo‘larkanmi? – gap orasida qistirib o‘tdi Fedyunin. – Balki hech qanaqa Deryugin deganining o‘zi ham bo‘lмагандир, sen u yerlarni yaxshi bilasan, Gennadiy Mixaylovich. O‘t-alafni-ku, qo‘yaverasan, yerda achib-sasib keta-di, birovning parvoyiga kelmaydi. Bizning xo‘jalikda esa hammasi boshqacha, yerni yog‘ tushsa, yalagudek qilib qo‘yishadi. Qachon shuncha ishni saranjomlashganiga aqling bovar qilmaydi. Bunga jin urgur Zaxarning nima daxli bor, qani edi, hech kim uni eslamaga-nida.

– Shoshma, shoshma, – Valsevning ko‘zлари yaltirab ketdi, – u bilan o‘zingni taqqoslash qayerdan xayolingga keldi? Buni o‘zing o‘ylab topdingmi?

– Qanaqasiga men o‘ylab topay, – umidsiz qo‘l siltadi, – o‘sha gustishliklardan eshitdim-da.

– Ko‘rinib turibdi, qiziqqon odamsan, – Fedyuninning oxirgi gaplari Valsevning sabr kosasini to‘ldirib yubordi. U stulning bir chekkasiga biqinib o‘zini umuman yo‘qotib qo‘ydi. Lekin bu gal hech kim bechora Fedyuninga xayrixoh emas, Valsev ham tezroq shu suhabatni tugatish payida bo‘lib turibdi. Tinimsiz telefonga qaraydi, boz ustiga bugun zavodga ham borib kelishi kerak, bu ham ancha vaqt talab qiladi, (Chubarevning tabiatи ham unga besh qo‘lday ma’lum), Valsevning tobora toqatsizlanib borayotganini payqagan Fedyunin o‘rnidan turdi.

– Mening ishim nima bo‘ladi, Gennadiy Mixaylovich, – so‘radi u ohista.

— O'ylab ko'ramiz, Zaxar Deryugin masalasiga keladigan bo'lsak, u haqiqatdan ham bo'lgan, o'sha tomonlarda jonbozlik ko'rsatgan, — dedi Valsev xayolidan mutlaqo boshqa masala o'tarkan, u Gustishga kimni rais qilish haqida o'ylay boshladи. Balki, shu Mitka Volkovning o'zini «Ha nima bo'libdi juda tirishqoq, ilg'or odam, hammasini qoyillatadi» — oxirgi fikrlari beixtiyor tiliga ko'chdi, quvonchdan qo'llari ko'tarilib, yuzi charaqlab ketdi.

— Tushunmadim, meni aytayapsizmi, — Fedyuninning ovozi xayollarini tarqatib yubordi.

— Ha yo'q, o'zimga o'zim, og'ayni, hammasi joyida, — xursand qiyofasini o'zgartirmay dedi u. — Ishni topshir. Raykom idorasiga xat jo'natamiz. Endi sekin o'z yo'lingga tushib olsang ham bo'ladi, Fedyunin, bo'ladigan gap shu. Balandlikda hammaning nafasi siqadi.

— Qanaqa balandlik? — Fedyuninning peshonasi tirishdi.

— Bilishimcha, juda yaxshi buxgalter bo'lgansan... yaxshisi, o'sha rejalashtirish bo'limiga qayta qol.

— Ustingizdan arz qilaman, — Fedyuninning yuzi oqarib, peshonasini dumaloq ter bosdi, men — kommunistman, necha yillik tajribam bor. Men noroziman! Siz o'g'rini himoya qilayapsiz. Meni esa...

— Chiq, Frol Timofeyevich, biroz salqinlab ol, — dedi Valsev xotirjam qiyofasini saqlab, — keyin attang qilmay desang, tuyog'ingni shiqillat.

— Kechirasiz-u, Gennadiy Mixaylovich, — Fedyunin ham ayovsiz jangga kirishib, raqibiga hamla qilishni boshlagan edi, — siz menga nisbatanadolatsizlik qilyapsiz, o'zingizga bor haqiqatni ko'rib turib tarafkashlik qilayotgandek tuyulmayapsizmi? Aniqmi? Masalaga boshqa tomonidan qarasak, siz nima qilyapsiz? Siz o'g'ri, muttahamning yonini olyapsiz. Siz partiya ishidan xabardormisiz, unga xilof ish qilayotganingizni bilasizmi?

— Ha, uni aytyapsanmi, afsus, senchalik bo'lmasa ham biroz xabarim bor, — Valsev motor zavodiga doir hujjatlar solingan jildni oldi, shu vaqtning o'zida kichkina tugmachani bosib kotibani chaqirdi.

Fedyunin hammasini tushunib yetdi, ter bosgan yuzini orqa o'girib chiqib ketdi. Shu payt Valsevning qulqlari ostida boshqa

ovozlar jaranglay boshladi, u urushdan oldingi yillardagi Zaxarni xotirladi, u o'shanda Bryuxanovning oldiga partbiletini qahr bilan qo'yib eshikni daranglatib chiqib ketgan edi.

– Kerak bo'lsa, obkomga boraman, shaxsan o'rtoq Bryuxanovning o'zlariga, – MQ bor, – yana Fedyuninning asabiy po'pisalari yog'ila boshladi.

– Bo'shashma, Frol Timofeyevich, Bryuxanov bilan maydala-shib nima qilasan, to'g'ri siyosiy buyroga bora qolsang-chi, – dedi Valsev, – faqat bitta muammo bor, avval masalang tumanda ko'rildi, bitta ilg'or kolxoz ishining pachavasini chiqarganining uchun javob berasan. Endi esa bo'shsan!

Nihoyat, xonada yolg'iz qolgach papiros chekdi. To'kilishga taraddudlanayotgan nastarin barglarini ertalabdan ezib yog'gan yomg'ir ayovsiz kaltaklaydi. Ko'z oldidan g'o'r va yosh Bryuxanovning mungli qiyofasi o'tdi, bechoraning «aftidan, bu odamni chuv tushirishgan ko'rindi, lekin o'zi yomon odamga o'xshamaydi, biz esa... bunaqasi ketmaydi» deb kuyingani hamon yodida.

6

Alyonka eriga o'zi uchun ham mutlaqo kutilmagan yangilikni aytди, nima uchundir ovozini sezilarsiz qaltiliq bosdi. Bryuxanov stol lampa o'chirilishi bilan mudray boshlagan edi. Avvaliga xotini har doimgi gaplardan gapirayotganini taxmin qilib bosh chayqab qo'ya qoldi, lekin eshitganiga ishonmay o'rnidan sapchib turdi.

– Menga shunday tuyildimi, yoki sen rostdan ham shunday dedingmi?

– Ha, – dedi u biroz sukutdan keyin, – shunday dedim, o'rtoq Bryuxanov, sen esa pinagingni buzmay uxbab yotibsan, seni qara-yu, eh Bryuxanov!

– Alyonka! – kaftlari bilan boshini ohista ushladi, ro'parasiga o'tirib oldi, hozirgina xotini aytgan gaplar haqiqatmi yoki yarim tush alahlayaptimi o'zi ham bilmay qoldi, – Alyonka... rostmi shu?

– Ha, ha, ha, – deb shivirladi u toqatsizlanib, – sekinroq, sekinroq gapirsang-chi, hozir hammani uyg'otib yuborasan.

- Buni bo‘lajak shifokor aytayotganiga qaraganda, – Bryuxanov xotinining yelkalaridan quchdi, lablaridan o‘pdi, uyqusi umuman o‘chib ketdi.
 - Qara-ya, Bryuxanov, erkaklar buncha sodda bo‘lmasa-ya.
 - Borimiz shu-da, – u xotinini mahkamroq bag‘riga bosdi, bo‘salarining keti uzilmasdi.
 - Buni so‘z bilan tushintirib bo‘lmaydi, – dedi Alyonka, – hech bir erkak ayoliga bunaqa daqiqalarda nima kerakligini bilmay qoladi.
 - Faqat aytsang bas, senga nima kerak? – maqtandi Bryuxanov uni qo‘yib yubormay, – nimaiki istasang, hammasini muhayyo qilaman, faqat bir og‘iz aytsang bas.
 - Bilmayman, mana gap nimada. Menga sen va farzandimizdan bo‘lak hech narsa kerak emas. Lekin hozircha hech kimga churq etma, ayta ko‘rma, aks holda hammasi barbod bo‘lishi mumkin, – dedi u baxtiyor jilmayib, uning quchog‘iga o‘rnashar ekan, demak, ota bo‘lmish Bryuxanov shunday mamnun insonga aylangan ediki, Alyonka qarshisidagi xushchaqchaq insonni tanimay qoldi. Xuddi shu insonga o‘xshagan bolakayni ko‘z oldiga keltirdi.
 - Hammasi yaxshi bo‘ladi, Alyonka, – dedi u erkalab, – men hammasini bajo keltiraman, hatto imkonsizini ham.
 - Menga imkonsiz hech narsa kerak emas, – Alyonka ham pi-chirlab javob berdi, – endi menda hammasi bor... Tfu, tfu, tfu, ko‘z tegmasin, – maqtanib qo‘yanidan yugariga xavotir oraladi.
- Shu bilan boshqa gaplashishmadi, u yana va yana bo‘salar oldi, keyin esa Alyonka mudradi, biroz o‘tib orqa o‘girib uxlab qoldi. Lekin Bryuxanov sira o‘ziga kela olmasdi, yonboshladi-yu o‘zidan uyalib ketdi, aniqrog‘i, rafiqasining o‘tmishi haqida o‘ylaganlari, asossiz rashk qilganidan uyaldi, keyin bola haqida xayol surdi, u hali bolalar haqida hech narsa bilmaydi, tajribasi yo‘q, qiz yoki o‘g‘illagini ham bilmaydi. Hayratlanarlisi, u hozir o‘g‘il yoki qiz bo‘lishi haqida o‘ylay ham olmasdi, uning hech qachon bunday teran orzular qilishga haddi sig‘magan. Bugungi uyqusiz kechadan tortib Alyonkani ko‘zi yoriguncha bedor, beorom kunlarni yashadi. Alyonkani shifoxonaga olib ketishdi, uni Bryuxanovsiz olib ketishgan, hali hanuz yodida erta bahorning qahraton kechalaridan biri, kasalxonaga qosh qorayganda kirib borib tong yorushguncha o‘tirishiga to‘g‘ri

keldi, lekin bu orada yuragi qinidan chiqayozdi. Tug'ruq juda og'ir kechdi, ayoli uchun qattiq qayg'urdi, uning uchun Alyonkasiz hayot huvullab qolar, Bryuxanov bunday kimsasiz hayotni tasavvur qilishga qo'rqrar edi. Bryuxanov Alyonkasiz bir kun ham yashay olmaydi, uzun qorong'i yo'lak bo'ylab kichkina tor xonaga kirdi, yodiga birinchi xotini Natasha tushdi, yuragi qo'rquvdan uvishib ketdi, bir lahzaga bo'lzin bu dahshatli o'yni o'ziga yaqinlashtirmasligi kerak, yaxshimas, yaxshimas, juda noxush gap, o'ylari uni shu darajada ezdiki, peshonasidan muzdek ter chiqib ketdi. Lekin hech kimni chaqirib o'ziga e'tibor talab qilgisi kelmadi. Javonchadagi idishdan bir necha marta suv olib ichdi, papiros chekdi. «Bu qanaqasi, nega bir og'iz xabar berishmaydi, o'sha zahoti, bir soniya ham kechiktirmay Moskvadan eng yaxshi mutaxassisni olib kelardim-ku» deb ranjidi.

Papiros qoldig'ini xona chetida turgan metall idishga tashladi, bunday mavhumlikda ortiq o'tirishni istamadi, shahd bilan eshikni ochgan ham ediki, ostonada uning fikrlarini oldindan o'qigandek bosh shifokor kirishga chog'lanib turgan edi. Yoshi bir joyga borib qolgan bu qo'yko'z ayolni Bryuxanov uzoq yillardan beri taniydi.

– Nima gap, Zinaida Ilinichna? – so'radi u toqatsizlanib.

– Tinchaning, Tixon Ivanovich, tinchaning, – ayol bugungi kundan qattiq horigan, shuning uchun ustiga oq choyshab yozilgan bemorlar ko'rik stolining bir tomoniga o'tirib oldi, Sverdlovskdan evakuatsiya qilish vaqtida sochlariqa oq oralagan, lekin quvnoq ko'zlar va silliq yuzi umuman yoshiga nomutanosib tarzda uni mutlaqo yosh qilib ko'rsatardi, – o'zingizni xuddi yosh boladek tutasiz, to'g'ri, to'g'ri, kelishgan, xushbichim erkak, lekin asablari tamom bo'lgan, oddiy ishga ham chidamaydi, – Zinaida Ilinichna tabassum qildi, xuddi ko'zlarining ichiga odamni tinchlantiradigan rang quyilgandek bo'ldi, bu ko'zlar kasbiy sharoitdan kelib chiqib minglab hovliqma odamlarni tinchlantirishga, o'zini bosishiga yordam bergen, – ayol sho'rlikka qiyin, – davom etdi u, – kimga maza, siz erkaklarga maza, – Bryuxanovning diqqinamas bo'lib borayotganini ko'rib yana uni tinchlantirishga urindi, bosh silkib tabassum qildi, – hammast risoladagidek ketayapti, bola katta... lekin, ona baquvvat, uddalaydi.

– Uddalaydi, deganingiz nimasi, Zinaida Ilinichna, boyaqish...

– Yordam beramiz, yordam beramiz, bunchalar hovliqma bo‘lmasangiz, Tixon Ivanovich, – Zinaida Ilinichna hayron bo‘ldi, – ayolning ko‘zi yoriyapti, tamom, tug‘may qayerga ham borardi! Hamma holatga tayyor turadigan mutaxassislarimiz bor, uyg‘a bor-sangiz bo‘lmaydimi, axir, ish kuni og‘ir bo‘lgandir?

– O‘zingiz-chi, Zinaida Ilinichna, balki ozgina dam olib olarsiz.

– Hojati yo‘q, mening ishim boshqacha, bu paytda uxlolmayman.

Suhbat qisqa va aniq bo‘ldi, Bryuxanovga ayol uning e’tirozlariga umuman e’tibor bermayotgandek tuyuldi, shuning uchun umuman tinchlana olmadi. Butun suhbat davomida nimanidir so‘rab bilgisi keldi, tinimsiz xona aylandi, ayolning tinchlantirishga urinib aytgan aksar so‘zlarini, balki hech birini qabul qilmadi. Bir insonning kasbiy burchi yuzasidan aytilgan bu gaplar odamlar kunda-shunda ishlatadigan oddiy jumlalar bo‘lsa-da, Bryuxanovga g‘oyat bema’ni, tuturiqsiz bo‘lib tuyuldi. Zinaida Ilinichna hammasini to‘g‘ri tushundi, oldidagi insonni muhokama qilib o‘tirmadi, ko‘rinib turibdi, bu insonni hozir na kelajak, na bugun va na yorug‘ olamdag‘i boshqa narsa qiziqtiradi, hozir unga shu voqeadan muhimroq va zarurroq hech narsa bo‘lishi mumkin emas. Ilinichna bu masalada haq. Bryuxanovning barcha qabul, tashrif, katta-yu kichik muammolari har tomonga qanot qoqib uchib ketdi. Hozir hech qanday aqlii gap, mulohaza uni o‘ziga keltira olmaydi. U hozir dunyoga kelajak odamcha uning uyiga nimalarni boshlab kelishini bilmaydi, lekin oilalarda vaziyat xudi shunday. Mana havoga ojiz, yengil yig‘i ovozi tarqadi. U shunchaki o‘z oilasida, uning yonida o‘z farzandi bo‘lishini istaydi xolos, hamma qatori farzandiga mehr bersa, erkalab o‘ynatsa, u ham bola atalmish tilsim qanday bo‘lishini bilsam deydi. Ha, ha, o‘z dilbandi, butun umrni begonalarga bag‘ishlab bo‘lmaydi-ku, axir, lekin yorug‘ olamda begona so‘zining o‘zi g‘alati. O‘zidan yashiradigan siri yo‘q. U uchun eng muhimi – Alyonka. Bola ularning o‘rtasidagi rishtani mustahkamlaydi, bu gapni ich-ichidan ma‘qullamasa ham, o‘zi bilan o‘zi yolg‘iz qolishdan qo‘rqadi, tan olish kerak, bola o‘ta muhim. Bu shunchalar shiddatkor, muqarrar, yanglish va muhokamalardan xoli fikrki, uni Bryuxanovning o‘zi ham o‘zgartira olmaydi. Hamisha, hali Alyonka bolani qornida ko‘tarib, qattiq boshqorong‘i bo‘lib

yurgan kunlarida ham (boshqorong‘ilik unga to‘rtinchı haftadan yopishib to tug‘ruqgacha davom qildi, Alyonka cho‘p bo‘lib qolayozdi) Bryuxanov uning og‘riqlariga teng sherik bo‘ldi, bularning barchasini faqatgina bola ularni bir‘ umrga bog‘lashi mumkinligi uchun qildi. Bryuxanov jirkanch xayollaridan uyalib ketdi, Alyonka shunday og‘ir daqiqalarni yashayotgan bir paytda o‘ylaganlaridan pushaymon bo‘ldi, o‘z manfaati yo‘lida, hali notanish va noma‘lum bola uchun xotinining jonini azobga qo‘ydi, balki shuning uchun ham sira keragi bo‘lmagandir... Qaytib Zinaida Ilinichnaga ko‘rinishdan qo‘rqib Bryuxanov devor yonida qoldi. Juda g‘alati, kimdir devorga uning kayfiyatiga g‘oyat mos tushadigan «NIMA?» degan savolni yozib qo‘yibdi, «Nima nima?» Bryuxanov hayron qoldi. Xuddi hamma devorlardan baqiriq ovozi kelayotganga o‘xshaydi, buni baqiriq ham deb bo‘lmaydi, qandaydir inqillash aralash faryod, Zinaida Ilinichna oyoqqa turdi, demakki, eshitganlari borasida yanglishmabdi. Quloqlarni qomatga keltirayotgan ayollarga rahmi kelib ketdi.

— Xo‘s, xo‘s, — dedi Zinaida Ilinichna toqatsizlanib, — mana bir vaqtning o‘zida beshtasining ko‘zi yoriyapti. O‘zim ham hayronman, nega sizga kirishga ruxsat berdim... kap-katta xotinlar xuddi birinchisini tug‘ayotgandek dod soladi-ya.

Zinaida Ilinichna ostona tomon yurdi, lekin Bryuxanov tomonga yashirinchcha ko‘z tashlab oldi. Bu ayolning xayolidan nimalar kechayotgan ekan. Mana sizlarga obkomning birinchi sekretari, dovrug‘i olamni tutgan kishi, ishchan, faol va ayni paytda ayovsiy odam, shafqatsiz odam, o‘tirishini qaranglar ming‘ayib, qo‘lidan hech bir ish kelmaydi. Demak, bu nusxaning boshqalardan ortiq joyi yo‘q. Har holda Bryuxanovning bugungi ko‘rinishi o‘zi haqida aytilgan hech bir ta’rifga mos kelmaydigan darajada zaif edi.

Zinaida Ilinichna yana Bryuxanovga bosh irg‘ab eshik tomon yo‘naldi, uning qadam tovushlari yo‘lakka bir necha qadam qolganda to‘xtadi. Shu payt eshik shahd bilan ochildi, yosh, boshiga oppoq qalpoq qistirib olgan, ko‘zlar quvonchdan porlab turgan doya-shifokor xonaga otilib kirdi.

— Hammasi joyida, Zinaida Ilinichna, — dedi u, — juda katta chaqaloq, tug‘ildi.

— Mayli, mayli, Fedya, — xuddi uyida yurgandek dedi Zinaida Ilinichna, keyin Bryuxanov tomonga o'girildi, — mana bunisi sizniki, Tixon Ivanovich.

— Qizaloq bilan tabriklayman, o'rtoq Bryuxanov, — yosh shifokor Bryuxanovning qo'llarini mahkam siqib bir necha marta siltadi, — do'mboqqina, pahlavoncha, — shifokor qo'li bilan havoda katta dumaloq yasadi.

Bryuxanov uning qo'llariga angrayib qoldi; Shifokorning donadona qilib aytgan «qizaloq» so'zini eshitgach allanechuk bo'lib ketdi, shu daqiqalarda tushundiki, u har doim qiz farzand kutgan, qizaloqli bo'lishni orzu qilgan. U har doim ich-ichidan qiz tug'ilishiga ishongan. Shu payt Bryuxanovning yuzi yorishdi, allanechuk g'alati, ahmoqona tabassum paydo bo'ldi, shiddat bilan o'zini eshikka urdi. Zinaida Ilinichna hazil aralash uni to'xtatib qoldi.

— Hoy, Tixon Ivanovich, — uning gapi kulgi aralash yangrayotgan bo'lsa ham qat'iy buyruq ohangi ham yo'q emas edi, — men bu yerning qiroli bo'lgan taqdirimda ham bunday qilishni o'zimga ep ko'rmagan bo'lar edim. Uyga boring, boraqoling, ertalab yetib kelasiz.

— Demak, hammasi joyida, shundaymi, — Bryuxanov hali-hanuz tinchlana olmasdi.

— Shubhasiz, — dedi yosh shiforok o'ziga o'zi, lekin u hozir o'zi anglamagan holda uni eslab qolishlarini, borligini payqashlarini istardi. Shu pallada Zinaida Ilinichna u tomonga mamnun ko'z tashlab qo'ydi, yosh shifokorning o'ychan qiyofasi ham shodon tus oldi, «Obbo, qari boyo'g'li-yey, ko'zлari kechasi ham hammasini ko'rib turadi-ya» xayolidan kechirdi u. Lekin tez orada shodonligi tarqab ayolga qaradi, chunki vaziyat g'oyat og'ir kechdi, buni u juda yaxshi biladi. Lekin hartugul bevosita kim bilandir bog'liq yomon xabar yo'q.

Bryuxanov shifokolarning gapi bilan u tomonga o'tmadi, biroz vaqt o'tib tun qo'ynidagi shaharga chiqib oldi. Shaharni tong otishidan oldingi toza, beozor sukunat qoplagan. Shahar ko'chalari, xiyobon-u maydonlarning chekka burchaklari ham xira kulrang yorug', lekin hali kun yorishmagan, bu tun o'z o'rnini kunduzga bo'shatayotgan nozik palla. U hozir shaharni har doimgidan-da yaxshi ko'rib ketdi,

har bir burchaklarigacha istisnosiz, shahar ham endi bor husn-u tarovatini namoyon qila boshladi. U hozir o‘zini har doimgidan yosh, navqiron his qiladi. Ko‘chalardan ko‘chalgarda shoshmasdan, bamaylixitir qadam tashlaydi, chunki endi uni shoshiltiradigan, bezovta qiladigan hech bir sabab yo‘q. Qolaversa, hozir shoshilish yaramaydi, shoshilish bugun u bilan sodir bo‘lgan barcha ezgu ishlarga haqorat bo‘ladi, u endi o‘zidan ortda qolayotgan o‘tmishga, orqaga qayrilib ham qaramaydi, hovliqib qochmaydi, kelajak sari dadil... bu shunday pallaki inson o‘z-o‘ziga barcha haqiqatlarni oshib tashlaydi va o‘zi ham ko‘z o‘ngidagi haqiqatlardan hayron bo‘lib qoladi, balki sarosimaga ham tushib qolar. Lekin bu yangilik hissi Bryuxanovga og‘irlilik qildi, yana qadamini tezlatib uyga shoshildi, ortiq o‘zi bilan o‘zi qolishni istamadi, u o‘zi haqida o‘zi bilganidan ko‘ra ko‘prog‘ini bilib qolishni istamaydi. Ayrim ko‘chalarda yo‘lni qisqartirish uchun to‘sqliardan oshib o‘tdi, shunday qilib keksa shaharning ich-ichiga kirib ketgandek bo‘lar edi. Inqilobgacha barpo qilingan bog‘lardan biriga kirdi. Tumanga burkangan qari olma daraxtlarining oldida mung‘ayib qoldi, daraxtlarning biridan kurtak yozgan novdani sindirib oldi, oq-qaymoqrang kurtak ustiga gul hidi anqiydigan shudring tushgan. Yana bahor, dedi u, bog‘ havosidan o‘pkasini to‘ldirib nafas oldi, endi u har bir narsaning iforini ajrata oladi, olma gulining, namxush yerning, shudringning – xullas, hammasining hidi qanday bo‘lishini bilib oldi. Gullagan olmalar qo‘ynida o‘tirar ekan, yashash uchun juda ham kech qolganini payqadi. Mana, hozir u qirq yetti yoshda, demakki, u yashashga qirq yetti yil kech qoldi. Shu yoshgacha tinimsiz ishladi, zahmat chekdi, lekin biron marta gullagan olmani tomosha qilmadi. U hozir har kim hayotida bir bor bo‘lsin bosib o‘tishiga to‘g‘ri keladigan chegaraga yetib kelganini tushundi, lekin u endi qo‘rqmaydi, barchasini bosib o‘tuvchi tuyg‘u oldida qo‘rquv juda kichkina narsaga aylanib qoladi, lekin u hozir o‘zini qamrab olgan tuyg‘uning nomini bilmaydi, u hozirgina mana shu bog‘ qo‘ynida dunyoga keldi. Ha, ha, dedi u o‘ziga o‘zi, xotirjam bo‘lishga urinar ekan, vaqt soati kelib g‘oyib bo‘lishing kerak bo‘ladi, bu hayotning o‘zgarmas qonuni, nima buni o‘zingcha kashf qildingmi? Sen qizli bo‘lding xolos, sen sog‘lom, aqlli insonsan, hali hammasi oldinda... lekin mana bu kutilmagan bo‘sag‘a... nega, nega,

axir? – Bryuxanov o‘zini to‘xtatib qoldi. O‘tmishning bir daqiqasini ham qaytara olmaysan, endi birovning hayotini yashay olmaysan, bog‘ hali yana gullaydi, bu hayotda yashash ham qo‘rqinchli, ham yoqimli, undan berkinish mumkin emas, bunga haqqing ham yo‘q. Balki berkinishning imkonsiz ekanligi ham yaxshidir...

U hozir har qanday telbalik qilishga rozi, shartta yerga o‘tirib bo‘kirib-bo‘kirib yig‘lab olsa ham bo‘ladi, lekin bu uning tabiatiga to‘g‘ri kelmaydi, ko‘ziga bir-ikki tomchi sizib chiqqan edi, bog‘dan nari ketdi. Kichkina to‘sqidan sakrab o‘tgan edi, qarshisida ko‘zlar qo‘rquvdan katta-katta ochilgan, qo‘liga belkurak ushlagan kampirga ro‘para bo‘ldi.

– Xayrli tong, – dedi Bryuxanov, kampir ham bosh silkib qo‘ydi, lekin avvaliga begona kimsani tanimay turdi, boshdan oyoq razm solgach o‘z odami yana tong yorishganda kirib kelganini tushundi, – yana adashib qolsam degin, to‘g‘riga yursam, uydan chiqaman degandim, aksi bo‘ldi.

– O‘zi shunaqa bo‘ladi, o‘zganing uyi darvozasiz, – kampir kuyinib ming‘irladi, keyin ortiga qaytdi, Bryuxanov bu qo‘rroq kampirni yaxshi eslaydi, keyin eshik ochilib ostonada Timofeyevna ko‘rindi.

– Barakalla, – Timofeyevna mushtini do‘laytirdi, – xotini tug‘ayapti, buni jin-ajina bosgan bog‘da sandirag‘lashini qarang, senga yordamching Vavilov ikki marta qo‘ng‘iroq qildi. Yap-yangi kostyumni nima qilganiningni ko‘r... yo otaxonlarim!

– Qiz, Timofeyevna, – baqirdi Bryuxanov, qo‘llarini katta ochib ko‘rsatar ekan, – Mana shunaqa qizcha! Vo-o!

Bryuxanov Timofeyevnani quchoqlab xona aylandi, uni bir necha marta havoga ko‘tarib ilib oldi, xotinning nafasi qaytib bir nimalar dedi, uni qo‘yib yuborib divanga uning yonginasiga cho‘kkaladi. Chuqur nafas chiqarar ekan, ko‘kragini changallab qoldi.

– O‘ldira yozding, – nihoyat Timofeyevna tilga kirdi, – qari xotinni koptokday aylantirishingni qara, tag‘in shiftga otganing nimasi, oh otaxonlarim!

– Qornim och, Timofeyevna, kel, dasturxon tuza!

– Sekinroq gapirsang-chi, Kolyushkani uyg‘otib yuborasan, – Timofeyevna dashnom berdi-yu quvonch yoshlarini artib jilmaydi, – ancha vaqtgacha uxlay olmadi, tepasida o‘tirdim, boshini ko‘taradi,

«nima bo‘ldi» deb so‘raydi, «hech narsa, Xudo haqi, yotib orom ol, sen tashvish qiladigan ish emas bu» deyman. Endi o‘rmingdan tur, yuz-qo‘lingni yuv, kostyumi yech, tuppa-tuzuk narsani rasvo qilibsan, ustingga boshqa narsa il, o‘sha xonadan topiladi, Yo qodir Egam, demak, qiz degin-a, – nihoyat Timofeyevna bugungi kunning eng muhim yangiligiga ko‘chdi. – Ko‘rdingmi, betavfiq Foma, ko‘pni ko‘rganlar hammasini bilishadi... men senga qiz bo‘ladi deganmidim... sen-chi rosa xoxolaganding.

7

Bir-ikki kun o‘tib oltinrang eski teatr binosining ro‘parasidan o‘tar ekan, bir necha kampir va bolalarning qatorlashib gul sotib o‘tirganini ko‘rdi. Bryuxanov ham bugungi kunga mos kayfiyatda lola va nargiz guldan bir quchoq sotib oldi. Ularni mashinaning orqa o‘rindig‘iga qo‘yib qo‘ydi. Farzandli bo‘lishning ham o‘z gashiti bo‘lar ekan, mana bugun u ertalabdan beri faqat tabrik eshitadi. Oblispolkom raisi Lukatovni aytmaysizmi, gulxonadan shaxsan o‘zi gul terib kelibdi, kamiga ularni shkafning ustidagi billur guldonni olib solib qo‘ydi, bu guldon anchadan beri shkafning tepasida turadi, uni xolmsklik ustalarning ijod namunasi sifatida saqlab qo‘yishgan. Bryuxanov buncha takallufdan o‘ng‘aysizlanib boshini necha marta kerakmas degan ma’noda silkitmasin, Lukatov bilganidan qolmadi.

– Qo‘ysangiz-chi, Tixon Ivanovich, qo‘ysangiz-chi, – yelka qisi di u, – bu nimasi, bayram bayramdek o‘tsin-da.

Bryuxanov qo‘l siltab qo‘ya qoldi, hozir unga bularning barchasi ma’lum ma’noda yoqib ham tushayotgan edi.

May quyoshi osmonni kuydiradi, Bryuxanov shunchalar xur-sandki, hozir barcha may gullarini Alyonkaning poyiga sochishga tayyor, gullarni o‘rindiqqa joylashtirar ekan, ko‘zi katta reklama qog‘ozlariga tushdi. Quyosh yanada tepaga qarab yo‘l olmoqda, mashinalar tutun buriqsitib o‘zi issiq havoga dimlik qo‘sadi. Bryuxanov ko‘zlarini pana qilib, mag‘rur may quyoshiga qaraydi, «hech-qisi yo‘q, hali yomg‘irlar bor» mutlaqo kayfiyatini tushurmay so‘z qotdi o‘ziga o‘zi.

– Salom, Tixon Ivanovich, – ortidan juda tanish ovoz yangradi, Bryuxanov o‘girilib baland bo‘yli, ko‘zlari tabassum qilib turgan

bo'lsa-da g'oyat g'amgin ayolga ko'zi tushdi. Bryuxanov uni shu zahoti tanidi, har ehtimolga qarshi ularni diqqat bilan kuzatib turgan ikki gul sotuvchi oldidan nari ketib ayolga xiyla yaqinlashdi.

— Klavdiya Georgiyevna, — dedi u juda iliqqina qilib, lekin o'zini yo'qotib qo'ygani ko'rinish turardi, odam bir vaqtlar o'zi uchun juda qadrli va ahamiyatli bo'lgan insonni unutib qo'yib tasodifan uchratib qolganida xuddi shunday holatga tushadi, — Salom, Klavdiya Georgiyevna, ahvolingiz qalay? Nega shuncha vaqt o'zingiz haqingizda biron xabar bermadingiz?

— Buning nima keragi bor, Tixon Ivanovich, — ayol yam-yashil ko'zlarini undan uzmasdi.

— Nima keragi bor, — takrorladi Bryuxanov, — Nima keragi bor deganingiz nimasi? Hozir qayerda ishlayapsiz? Turish-turmushingiz qanday?

— Vaqt, Tixon Ivanovich, o'tayapti, qizim allaqachon turmushga chiqib ketgan, men o'sha eski joyimizdaman, o'sha musiqa maktabida ishlayapman, nolimayman, ishimni yaxshi ko'raman va yana... endi nimanidir o'zgartirishga ancha kech bo'ldi, chamasi.

— Men Semenning partizanlik qilib yurganini ko'rdim, Gorbanning otryadida, lekin ikki og'iz gaplashishga ham fursat bo'lmadi, keyin esa uning qaytmaganini bildim.

— Nima ham qilar edik, taqdiriga shunday yozilganidan keyin, — dedi Klavdiya, lekin Tixon Ivanovich, uning naqadar bo'zarib ketganini ko'rди, — u hech qachon bir xususiyati bilan ommadan ajralib turmagan.

Bryuxanov cho'qinmoqchi bo'ldi, lekin Klavdiya unga masqaraomuz kulgi aralash qaradi, keyin Bryuxanov ham fikridan qaytdi. Oldida bir zamonlar yaqindan tanigan va bilgan ayol turibdi-yu, ko'nglida zarracha iliqlik uyg'ongani yo'q. Bir vaqtlar kulgi, quvonchga to'la bu ko'zlar o'qrayib boquvchi, begona ko'zlarga aylanib qolibdi.

— Uylandingizmi, Tixon Ivanovich, — so'radi Klavdiya, — Men sizni bir necha bor bir ayol hamrohligida ko'rdim... baxtingizni topganingiz rostmi?

— Yaqindigina qizchali bo'ldim, — dedi Bryuxanov mashina tomonga ishora qilib, — gul olib ketayapman.

— Tabriklayman, siz uchun xursandman, — Klavdiya bilishi mumkin bo‘limganlari haqida ham bilib olish ilinjida Bryuxanovga diqqat bilan razm soldi, lekin bundan bir ish chiqmagach ko‘zini undan uzdi, — bilmadim, nega sizga ro‘para bo‘ldim, — Klavdiya xo‘rsindi, — benihoyat xursand edingiz, siz uchun juda xursandman. Hay mayli, meni ma’zur tuting, Tixon Ivanovich, sizni ham yo‘ldan qoldirdim.

Klavdiya xayrlashgan bo‘lib bosh chayqadi-da tezda ketib qoldi, Bryuxanov uning ortidan termulib qoldi, mashinaga o‘tirdi-yu, Fedotichga haydashni buyurdi. «Unga nima deyishim kerak edi?» xayolidan kechirdi u. Rostdan ham u aytgandek baxtiyor insonmi u? Baxt o‘zi nima? Mana, besh yil o‘tibdi hamki, u hamon urush tugaganiga ko‘nika olmaydi, ba’zan ishonmaydi ham. Ko‘zini ochadi-yu jimlikdan yuragi orqasiga tortib ketadi, xuddi birdaniga bomba portlab atrofni o‘q ovozi bosib ketishidan qo‘rqadi. Faqatgina kecha gullagan olma daraxtlari orasida kezib urush tugaganini his qildi. Klavdiya haqida esa bir narsa deyishi qiyin, bu ayol uchun har doim o‘zi va manfaatlari birinchi o‘rinda turgan. Ba’zan shunaqa odamlar ham uchrab turadi, minglab odamlar bilan bir osmon ostida yashaydiyu, ko‘zi o‘zidan boshqa hech kimni ko‘rmaydi, lekin buning uchun ularni ayblastash noto‘g‘ri bo‘ladi, shunchaki ular o‘zi mavjudligini boshqalardan ustun qo‘yishadi xolos. Lekin aksar o‘zlar bu hayotdan norizo o‘tishadi, doim va doim o‘zlariga diqqatni tortish uchun kurashishadi, buni eplay olmaganlarida esa aybni boshqalariga ag‘darishadi. Kim bilsin tag‘in shunaqlar ham uchrab turadi-da. Lekin hozir unga bir haqiqat ma’lum: u baxtli, albatta, baxtli. Chunki endi uning qizi bor. Endi Alyonkaning bir bo‘lagi uning jonida yashaydi, endi hech kim uni tortib ololmaydi. O‘zi ham bola naqadar muhimligini bilgan, doim bola tashvishida bo‘lgan. Ana endi hammasi boshqacha bo‘ladi...

* * *

Alyonka uncha katta bo‘limgan, bosh shifokorga qo‘shni paltada yotardi. U hamon barchasi ortda qolganiga ishona olmas edi, ba’zan aljang-buljang tush ko‘rib, jiqqa terga botib uyg‘onadi, bu holat bir necha marta takrorlandi. Bir gal yana shunaqa tushdan sapchib turdi, ko‘zi tanish enagaga tushdi.

– Bu qanaqasi? Bolam qani? Nega hali ham uni menga berish-madi? Iltimos, aniqlashtirib bering, – yalindi u, – sutim toshib keta-yapti...

– Mehmonni qabul qil, – dedi enaga ajin bosgan yuzlariga tabassum yugurib, – men harakat qilaman, harakat qilaman.

Alyonka enaga yordamida o‘zini epaqaga keltirdi, iyaklari o‘zi chiqishi mumkin bo‘lgan eng baland nuqtaga ko‘tarildi. Enaga chiqib ketdi. Shu zahoti eshik oldida aql bovar qilmas katta-likdagi guldasta ko‘targan Bryuxanov paydo bo‘ldi. Bryuxanov xonaga kirdi, gullarni qo‘yish uchun joy qidirib atrofga alanglatdi, lekin topa olmagach ularni karavotga, Alyonkaning oyoqlari ostiga qo‘ydi. Alyonka oyoqlariga tekkan gullarning iliqligi va iforini sezdi, «Rahmat» ojizona shivirladi u. Alyonka ancha qiyinchilik tortgani ko‘rinib turardi, ko‘zлari ichiga tortib ketgan, g‘amgin tortib qolgan edi. Bryuxanov uning rangidan qon qochib oqarib ketganini payqadi, lablari ham quriqshab ketgan, umuman olganda, uning holati juda yomon, Bryuxanovning ko‘tarinki kayfiyatining mutlaqo aksi.

– Hammasi o‘tib ketadi, – dedi u, – sen kuchlisan.

Shu zahoti qo‘llarini o‘ziga tortib o‘pdi, shu zahoti quruq va issiq lablarini paypasladи.

– Bilasanmi, – majolsiz dedi u, – qizcha g‘oyat go‘zal, xuddi senga o‘xshaydi. Tixon, bilasanmi, men juda qo‘rqib ketdim, uning mana bu yerida, – Alyonka gajaklarini ko‘tarib peshonasini ko‘rsatdi, – naqd peshonasining o‘rtasida katta qip-qizil dog‘ turibdi, shunaqa qo‘rqdim, shunaqa yig‘ladimki... Zinaida Ilinichna hammasi o‘tib ketadi, qizcha sog‘lom dedi, bu tug‘ruq bilan bog‘liq deb tushintirdi, vaqt o‘tishi bilan o‘z-o‘zidan yo‘qolishini aytdi. Ertalab birinchi marta emizishga olib kelishdi, sira ko‘krak olmasa degin, hamma atrofida girdi kapalak, tishsiz og‘izchasini katta ochib yig‘laydi. Tixon, Tixon, qanday qilib odam bu darajada... – u ustiga tashlangan choyshabni tortdi, Bryuxanov uning cho‘pga aylangan qo‘llariga qaradi, – biz uni Kseniya deb ataylik, Tixon, Kseniya, mittigina, kichkinagina...

– Nega endi Kseniya? – so‘radi Bryuxanov, uning ichidan otilib chiqayotgan notanish ismga munosabatiga qiziqib.

hissini sezgan. O'shanda Bryuxanovni xuddi yosh bolani parvarish qilgandek parvarish qilardi. Har gal Kseniyani ovqatlantirganida, cho'miltirganida, biron harakati yoki ovozini eshitganda yettinchi osmonga uchib ketayotgandek bo'lar edi.

Vaqt juda tez o'tardi, Timofeyevna uzoq kutilgan mehmonni loaqla bir marta qo'liga olishi uchun, deyarli, bir necha oy kerak bo'ldi (dastavval Alyonka bola dunyodagi barcha hodisalardan oldin onasining qo'llarini his qilishi kerakligini aytib Timofeyevnani bolasning yaqiniga yo'latmadi, qaysidir ma'noda bunda jindek qizg'anish ham yo'q emas edi). Qizaloq sog'lom o'sdi, juda yaxshi vazn yig'di, ovqat-u sayr vaqtiga daqiqa-daqiqasigacha rioxalari qilishdi, boshqa vaqt qizaloq jiddiy nigohlarini oyoq-qo'llariga tikib o'zini-o'zi o'rgandi. Va nihoyat bizning Timofeyevnamiz ham o'zining uy xo'jaligidagi barcha mas'uliyatini saqlab qolgan holda Kseniyaning hayotidagi ikkinchi darajali rolini ijro eta boshladi.

Shu mittigina odamchani deb Bryuxanov ham doimo oilaning g'amxo'rlik markazida bo'lishdek baxtidan mosuvo bo'ldi, lekin o'zi bunga qachon ko'nikib ulgurganini bilmay ham qoldi, Bryuxanov dunyoda hech narsaga almashmaydigan xotiralar ham ayni shu pallada ko'z oldiga muhrlandi, qizcha otasining iztirobli ko'zlar guvohligida ilk bor o'tirdi, keyin emakladi, tizzalariga tayanib atrofni tomosha qiladigan bo'ldi va nihoyat o'zi o'rnidan turib bemalol aylanib yuradigan bo'ldi.

Kseniya bir yoshga kirar-kirmas kvartirani besh qo'ldek o'rganib oldi, ayniqsa, qorong'i burchaklarga ancha mehri boshqacha. Timofeyevna uni Nikolayning xonasidagi stol ostidan, eski ashqol-dashqollar bilan to'lgan omborxonadan xunob bo'lib qidiradi, qizchani ichki tuyg'u bilan shu yerdan topishiga umid qiladi. Bu safar Timofeyevna rosmanasiga qo'rqib ketdi, uzun yo'lak va katta-katta oltita xonani qadamba-qadam tekshirib chiqdi, Bryuxanovning xonasida stol ustidagi telefonlar qulogni qomatga keltirib basma-bas jiringlaydi (darvoqe, Timofeyevna bu matahlarni jinidan battar yomon ko'radi, ertalabdan kechgacha jiringlasa ham loaqla ko'tarib biron

og‘iz so‘z aytmaydi, ularga «tatarlar» deb laqab ham qo‘yib olgan, telefonlar kim o‘zarga jiringlab avjiga chiqa boshlaganida, hammasiga qo‘l siltaydi, shartta orqasiga o‘girilib ketaveradi. «Qilinglar, qilinglar, bo‘lmasa ishingiz yonib ketadi» – pichirlaydi o‘ziga o‘zi). Lekin hanuz Kseniyadan darak yo‘q, Timofeyevna barmog‘ini tishlab qoldi. Ko‘ngliga tushgan o‘ydan bezovta bo‘lib derazadan qaraydi, lekin chiqib ketgan bo‘lishi ehtimoldan xoli, chukni eshik ertalab qanday qulflangan bo‘lsa shundayligicha turibdi. Alyonka ishga ketish oldidan har ehtimolga qarshi katta varaqqa bir raqamni yozib qoldirgan edi, agar biron kor-hol sodir bo‘lib yordam kerak bo‘lib qolsa, qo‘ng‘iroq qilishini tayinlagan. Jon holatda go‘sakka yopishdi, cho‘qinib uni uch marta olib yana joyiga ildi, axiri yuzida xo‘rsinish-u g‘azab aralash bir ifoda paydo bo‘ldi-yu uni joyiga shaxt bilan ilib qo‘ydi. Yuzlari yig‘idan qizarib, «Yo Rabbiy, rahming kelsin» deb pichirladi, endi u rosmanasiga yig‘lay boshlagan edi, lekin qizchaning qayerdaligiga aqli bovar qilmash edi.

Yana xonama-xona kirib qizchani qidira boshladidi, hamma yoqni titkilab tashladi, tangadek joy bo‘lsin, qaramagan joyi qolmadidi. Yarim soatlar o‘tib chamasi oshxonadagi stol ustiga cho‘qqayib o‘tirib qoldi. Bazo‘r yelkalarini ko‘tarib qaddini rostladi, ro‘parasida joylashgan idish-tovoq javonidan ko‘zini uzolmay qoldi. Kaftlariiga o‘tirib erkalanayotgan mushukka ham parvo qilmadi. Qizcha go‘yoki hech qachon bu uyda bo‘limgandek izsiz g‘oyib bo‘lgan edi. «Mana, – o‘ziga o‘zi gapira boshladidi, – qarigan chog‘ingda qamoq balosini ham sotib olding, kim ham senga ishonardi? Go‘yoki yer yutganga o‘xshaydi, endi sekin bo‘xcha-tugunimni tayyorlashim kerak, bir burchagiga oz-moz qotgan non ham solib qo‘yishim kerak, u yoqlarda shuning ham qadri o‘tadi».

Bazo‘r oyog‘ini sudrab Bryuxanovning ish xonasiga kirdi. Telefonlardan biri quloqlarni qomatga keltirib tinimsiz jiringlardi. «Seni qara-yu, la’nati maxluq, ishing tig‘iz-da, shoshilishingni qara, mana senga» asabiy dedi u xonaning burchaklariga tikilar ekan. Burchakda katta qora jomadon qaqqayib turar edi, bu jomadon juda pishiqlicharmdan ishlangan, Bryuxanov bir necha kun oldin Moskvaga qilgan safarida ishlatib shu ko‘yi xonaning burchagidan joy olgan edi. Timofeyevna lang ochilgan og‘ziga kaftini tutdi, bazo‘r oldi-

ga bordi, qo'rqib-pisib engashdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, Kseniya ochiq qolgan jomadon ichiga tushib uxbab qolibdi, mitti oyoqchalarini xiyol tashqariga chiqarib olgan. Timofeyevna yig'lab yubordi. Keyin qizaloqni sekin qo'liga oldi, ohista'xonasiga olib borib kara-votga solib qo'ydi. Ayni shu vaqtga kelib telefonlar chunonan avjiga chiqdi, go'yoki uyda momaqaldiroq chaqayotganga o'xshab qoldi. Timofeyevna sochiq olib idishlarni artar ekan har bir yangi jiring-lashni qarg'ish-u so'kinish bilan qarshi olardi.

Kechga tomon barcha katta stol atrofida jam bo'ldi. Timofeyevna hayajonlanib bugun boshidan o'tganlarini gapirib berdi, Alyonka quchog'ida qiqirlab o'tirgan Kseniyaning yuzchalaridan o'pib oldi. U bugun qizini deyarli ko'rgani yo'q. Bugun davlat imtihonlarini topshirdi, keyin institut kutubxonasida, shahar shifoxonasida hali u hali bu bahona bilan kechgacha qolib ketdi. Bryuxanov baxtiyor oilasiga qarab jilmayadi. Timofeyevna qamoq uchun tugun hozir-laganini aytib kului, shu payt allaqachon radiofizika institutining ikkinchi bosqich talabasi bo'lishga ulgurgan, doimo shoshib formulalari ichida kun kechiradigan Nikolay qo'lidagi sanchqini uloqtirib yubordi, o'rnidan sapchib turib baqirib yubordi:

— Topdim! Topdim! Topdim! Aynan o'sha yerda, magnit maydonining ichida, — stulga turtunib xonasiga yugurib chiqib ketdi.

Alyonka va Bryuxanov uning ortidan angrayib qolishdi, Timofeyevna Nikolay yugurib ovqat sachratgan stulning oyoqlarini arta boshladи.

— Oh, o'ldirdi, bir kunmas bir kun erkatoyingiz boshimizni yeidi. Bu nima qilgani, axir, nimasi bo'ldi bu, yo'-o'q, — dedi Timofeyevna jiddiy qiyofada, — men sizlarnikidan ketaman, ortiq kuchim qolmadi. Bunaqa g'alati odamlar bilan... qarigan chog'imda kerakmi menga shu g'avg'olar, nafaqangiz ham boshingizda qolsin.

— Ba! — qo'lida katta qoshiqni o'ynatgancha Kseniya Timofeyevnani chaqira boshladи.

— Nima deysan Kseniya, — uning yuzida bolalarga xos tabassum paydo bo'ldi, — kel menga, qizalog'im, kelaqol, oppog'im.

Kseniya Timofeyevnaga qarab intildi, Alyonka uni yana bag'riga bosib keyin unga uzatdi, bu orada qizaloqni uyqu eltib mudray bosh-lagan edi, Timofeyevna uni xonasiga olib ketdi.

Alyonka stol ustiga qo'llarini yozib o'y surib qoldi, hozir xayollar har qayerga sochilib yotgani uchun ham o'ziga anchadan beri tikilib o'tirgan Bryuxanovning nigohlarini payqamadi, uning ovozini eshitganida esa cho'chib ketdi.

Alyonka uning og'ir va o'tkir nigohlariga qancha to'qnash kelmasin sira sir boy bermaydi, endi u bir necha yil oldingi hatto bir necha oy oldingi nigohlari ichidagini sotib qo'yadigan ayol emas.

– Aytarli hech gap yo'q. Sillamiz quridi hisob. Institut, uy, shifoxona, – dedi u, – o'lguidek charchadim. Senda nima gap?

– Doimgidek, Alyonka, yangilik yo'q, – Bryuxanov ham xuddi shu ohangda gapirdi, keyin uning ko'zlariga qarab yana sigaret chekdi. Bryuxanov agar ayol kishi erkak bilan munosabatlari yaxshi deb hisoblasa, demak, munosabatlar rostdan ham yaxshi bo'ladi deb hisoblaydiganlar sirasidan edi. Lekin oxirgi vaqtarda Alyonkada sodir bo'layotgan o'zgarishlarni ko'rmaslik uchun chinakamiga ko'r bo'lish kerak. U hozir har doimgidan ham asabiyroq bo'lib qolgan, salga jazavasi qo'ziydi, Bryuxanovga tikilib turadi-da undan nimadir kutadi. Lekin uni tushunish kerak, hammasi qattiq charchoqning oqibati. Kseniya kechalari juda yomon uxlaydi, kunduzning esa o'z tashvishlari bor.

– Hechqisi yo'q, Bryuxanov, – dedi u xuddi uning xayolidan o'tayotganlarini o'qib olgandek, – hammasini uddalayman, bizning nasabimiz shunaqa.

– Qanday ekan? – qiziqsindi u masxaraomuz ohangda.

– Deryuginlarda, Tixon Ivanovich. Xuddi yerdek mustahkam.

– Bu qachon bo'lgan edi, – Bryuxanov gapni hazilga burib kului, Alyonka javob bermadi, indamay stol ustidagi idishlarni yig'ishtira boshladi. Har ikkisi ham suhbatni kelishtira olmaganlarini payqab tugatishdi.

Bir kecha Kseniya ortidan harsillayotgan Timofeyevnadan qochib Bryuxanovning xonasiga chopib kirdi, u kira solib otasining qo'llariga tirmashdi, Bryuxanovning xayollari ham tumtaraqay bo'lib ketdi, keyin eshikdan Timofeyevnaning katta yelkalari ko'rindi, Kseniya otasining yelkalariga tirmashdi.

– Qizchani taltaytirmang, naqd uddalolmay qolamiz keyin, – Timofeyevna shikoyat ohangida gapirgan bo‘lsa-da ko‘zlar shodon porlar edi.

Tuman nemislardan ozod qilinganidan so‘ng bir necha yillar mobaynida Zejsk raypotrebsoyuzida ishlagan Anisimov yana Xolmsk safariga otlanish haqida o‘ylab turibdi. Eski joylar eski xotiralarni jonlantiradi, ularning orasida urush tugaganidan ikki yil o‘tgach xotinining topilishi bilan bog‘liq bo‘lgan xotira ham bor. U avvalroq erini dunyoda o‘zidan bo‘lak yaqin odami qolmagan bir holda qoldirib g‘oyib bo‘lgan edi. Anisimov xotinining topilganini xabar qilishgan daqiqalarni juda yaxshi eslaydi. O‘sanda u ishxonada edi, go‘sakni mahkam changallab olgancha qaltirardi:

– Rostdanmi, hazil emasmi bu? – go‘sakning narigi tomonida gilar gaplarini yaxshi eshitishmadi chog‘i, yana go‘sakni changallab baqira boshladи, – Allo! Allo! U qayerda? Xudo haqi, qayerdali-gini aytsangiz-chi.

Unga xotinining cho‘zinchoq, go‘zal chehrasini ko‘rsatishganda ko‘nglidan nimalar o‘tganini so‘z bilan ta‘riflab bera olmaydi. O‘sanda yuragi qinidan chiqib ketayozdi, o‘sha daqiqalarda bu ayol o‘ziga naqadar kerakligini, agar uni manguga yo‘qotsa holi ne kechishini o‘yladi, o‘sha kuni unga xotinining allaqachon vafot etgani haqida xabar berishlari ham mumkin edi-ku, bordi-yu shunday xabar kelganida bunga faqat Anisimovning o‘zingga aybdor bo‘lar edi. Bir lahma bo‘lsin ko‘z oldida turgan ayolning haqiqiy ekanligiga ham shubha uyg‘ondi, bu o‘sha ko‘z oldida turadigan sarobga o‘xshaydi, bir marotaba mayin tabassum qiladi, keyin esa abadulabad g‘oyib bo‘ladi. Lekin bu safar u g‘oyib bo‘lmadi, xavotirli nigohlarini unga qadab kutayapti, mana o‘sha insonlar bot-bot lof uradigan quvonch va baxtning yorqin misoli, u Anisimovning ro‘parasida turibdi va bugun u mutlaqo ro‘yo emas. Anisimov necha bor uni ibodatlarida so‘rab yolvordi, nihoyat mo‘jiza ro‘y berdi. Ayolning yonida yetti yoshlар chamasidagi qizaloq angrayib Anisimovga qaraydi.

– Bu Shura, – dedi Yelizaveta Andreyevna mayin ovozda qizchaning boshini o‘ziga tortib, – Shurochka... endi biz u bilan birgamiz.

Anisimov shoshilib bosh chayqadi, u hozir qarshisida turgan ayol uchun barchasiga rozi edi. Bu ayolning ketib qolishi juda qimmatga tushdi. Avval qamoqqa, urushning oxirgi yillarida esa Avstriyada joylashgan konslagerga tushib qoldi, bir necha marta tutqunlikdan qochmoqchi bo‘ldi-yu, omadi chopmadi, keyin u boshqa mahbuslar qatori sovet aksarlari tomonidan ozod qilindi, mana endi turmush o‘rtog‘ining qarshisida turibdi, lekin ozodlikning birinchi kunlari, soatlarini yashash nihoyatda og‘ir kechdi. Anisimov u xotiralarni eslatishni istamaydi, o‘zining barcha savollariga javob bo‘ladigan qirq uchinchi yilning mart oqshomi haqida-ku gapirma-sa ham bo‘ladi, Yelizaveta Andreyevna hardamxayol bo‘lib qolgan, «ha, ha» deb boshini bir maromda tebratib qo‘yadi, lekin o‘zining o‘y-xayollari ichida yurgani darrov bilinib qoladi. U avvaliga sira ko‘zlariga ishonmadni, lekin turmush o‘rtog‘ining qaytganidan chinakamiga xursandligini ko‘rgach ko‘ngli joyiga tushdi.

– Har doim nimalar haqida xayol surasan-a? – kurnardan bir kuni so‘radi u tinimsiz o‘zining boshqa chorasi qolmaganini isbotlashga urinayotgan xotinining gapini bo‘lib.

– Qanchalar ortga qaytishni istaganimni bilsang edi... o‘z uyimni, osmonimizni, o‘zimizning odamlarni naqadar sog‘ingandim... ruscha gaplashishni... ruscha eshitishni... Anri meni bu kunlar keli-shiga ishontirdi... Yo Xudoyim... keyin Shurochka paydo bo‘ldi. Hammasini u uchun qildim... o‘zimga qolsa o‘limni afzal ko‘rib qolgan edim. Men uning vataniga qaytishiga xalaqt bera olmasdim. Aks holda bir umr o‘zimni kechirmagan bo‘lar edim.

– Yana qanaqa Anri? – Anisimov o‘zini yo‘qotib qo‘ydi.

– Mose Anri Brusak, – beparvo ohangda davom etdi u, so‘ng jimb qoldi, uning avzoyidan boshqa bu suhbatni davom ettirishni istamayotganini fahmlash qiyin emas edi.

Anisimov keyingi suhbatlarda bugungiga o‘xhash o‘ng‘aysiz holatlar bo‘lishining oldini olishga harakat qildi, lekin baribir ozmi-ko‘pmi munosabatlar darz ketgani ko‘rinib qolardi, shu turishda bu ikki insonni bir-biriga yaqin insonlar ekanligini taxmin qilish ham qiyin, Anisimov har vaqt o‘zi va xotinining o‘rtasida ulkan devor turganini his qiladi, kamiga o‘rtalarida Yelizaveta Andreyevna unchalik ham gapirishni xushlamaydigan janob Anri tiqilib kirib olgan-

ga o‘xshaydi. Anisimov o‘rtadagi begonalik hissini kuch bilan yo‘q qilish mumkin emasligini yaxshi tushunardi, o‘zini bir zum bo‘lsin ayoli o‘tkazgan qo‘rquinchli burchakda tasavvur qilib ko‘rdi-yu, mu-ammoning yechimini topgandek bo‘ldi. Yangi g‘amxo‘rlikni yangi uyda boshlash lozim. Yangi kvartiraga ko‘chish xarxashasi ham-masi chetga surilib birinchi darajali masalaga aylanadi (bu vaqtida kun o‘tkazish barcha uchun birdek qiyin masala bo‘lib qolgan edi), qarabsizki hammasi o‘tib ketadi. Xolmskni nemislardan ozod qilish jarayonining ilk soatlarida Anisimov katta rol o‘ynagan, u istisno-siz Zejskka borishi zarur va u kelgan qarorida sira adashmagan edi, uning yaqin kunlar uchun tuzgan rejalariga ikki kishi xalaqit qilishi mumkin – biri xotini, ikkinchisi Fyodor Makashin – lekin Makashin-da zig‘ircha bo‘lsin Anisimovga qarshi dalil yo‘q edi, qolaversa bu inson o‘zidan juda qo‘rqadi, o‘zi uchun hech kim bilan sen-u menga bormaydi, Anisimov bilan esa hech qachon... xotini masalasida uning ko‘ngli to‘q, unga ishonadi, har holda uning mulohazали, tartibli ta-biatiga ishonadi. Boshqa tomondan esa keskin, qaqshatqich choralar qo‘llamasra bo‘lmastidi. Anisimovning dala etaklarida kechgan jang-lardagi ishtiroti hal qiluvchi rol o‘ynagan, buni Bryuxanovning o‘zi ham ta’kidlagan edi. Uning Zejskka qaytishi omad darvozalarini ochib bergen edi. Agar u ham o‘z burchagiga biqinib yashashni afzal bilganida, balki hammasi boshqacha tus olgan bo‘larmidi. O‘z ishiga qaytgan Valsev ham Anisimov Bryuxanovni qutqarib qolganini yax-shi biladi (endi Yelizaveta Andreyevnada ham bunga shubha yo‘q) Anisimov o‘lim bilan yuzlashgan, tumonat odam tanqid yog‘dirgan lahzalarni o‘ta xotirjamlik bilan qabul qilgan. Lekin hozir uning ha-yoti avvalgidek emas, xuddi kul ostida qolgan cho‘g‘ga o‘xshaydi, o‘z hayotidan, ishidan sira ko‘ngli to‘lmaydi, lekin sirtida o‘zining mamnun qiyofasini saqlab turishi kerak, ichida bir necha qishloq, bir necha xonadonni yondirib kul qiladigan o‘ch-to‘rt bochka kerosin portlashiga o‘xhash quvvat bor, xuddi shu quvvatdan ilhom olib butun mamlakatda yangi hayot barpo qilinmoqda. Anisimov gap kero-sin yoki boshqa narsa, hatto Sovet davlatida emasligini yaxshi biladi, hamma gap uning o‘zi bilan kechayotgan halokatli almashinishda, eski ustunlar allaqachon chirib qulab bitdi, o‘rniga tirkak bo‘ladigan yangilari yo‘q, insoniyat boshiga tushgan falokat yangi ustunlarni

ham eskisi kabi yanchib tashladi. U ichida ba'zi odamlarga o'xshab oshqozon dardida nemislarning nog'orasiga o'ynamaganidan faxrlanadi, u bu xalqning konsepsiyasini vaqtida anglab yetdi. Ularning ozod Rossiya haqidagi barcha gaplari ahmoqlar uchun qand upa se-pilgan demogogiyadan boshqa narsa emas, u hozir ham gazetalardan sud jarayoni, xoinlar va ularning taqdiri haqidagi xabarlarni o'qib turadi, o'ta g'aroyiblarini Yelizaveta Andreyevnaga aytib beradi. Shunga qaramay ko'ngli bo'm-bo'sh, balki bundan ko'ra qamoq, odamning yelkalarini qayishtiradigan og'ir mehnat afzalroqmidi, nimaiki bo'lsa mayli, faqat odamni mudom domiga tortadigan kommunistik shanbaliklar, zayom-u yana burd-u balolar bo'lmasa bo'lgani, inson bu hayotda aqli va uddaburonligi bilan o'zi istagan martabaga va eng muhim kuch va nonga ega bo'lishi mumkin. Eng muhim shu.

Yelizaveta Andreyevna qaytgach Anisimovning hayoti yaxshi to-monga o'zgara boshladi, u ich-ichida tiklanib, barq urib borayotgan edi, xuddi o'zining ikkinchi hayotini boshlaganga o'xshaydi. Endi ishslash ancha oson, hatto unga zavq bera boshlagan edi, rayispolkomda va raykomda uning shaniga yaxshi gaplar ayta boshlashdi, lekin xotinining hardamxayolligi, kunlab miq etmasligi doim dili-ni xira qilib turadi. Hatto tuman va zavod oshxonalariga yetkazib berishi lozim bo'lgan kartoshka va piyoz, tuzlangan qo'zigorin va bodringlarni ham mammuniyat bilan ulasha boshladi (u bu safar Zejsk motor zavodini bir necha bor qo'llab yubordi, avvalla-ri Chubarev yoki raykom sekretari Valsevning qaqshab qiladigan qo'ng'iroqlaridan keyingina ishga kirishar edi). Xullas kalom, xiyol o'tmay uni o'ziga taalluqli bo'lgan yoki mutlaqo aloqasi bo'limgan masalalardagi qo'ng'iroqlarga ko'mib yuborishdi, agarki masala-ni hal qilishning yo'li bor ekan, u hech kimni quruq qaytarmaydi. Endi unga kamdan-kam uchraydigan murojaat, kolxoz raislari va MTS direktorlarining mix, g'isht, taxta, avtomobil ehtiyyot qismlari yetishmasligi haqidagi murojaatini o'rganish uchun Molotov viloya-tiga uni vakil qilib jo'natishdi, bu yerdagi yerto'lalarning endi yar-mi qazilgan, ishlar chala, uni oldinga yurgizish uchun oz bo'lsa-da mahsulot yetkazib berishni tezlashtirish kerak. Anisimov murojaat yuzasidan deyarli yarim yil shu yerda qolib ketdi. O'lda-jo'lda qol-gan temiryo'l va chala-pulcha qolgan o'rmon ishini nihoyasiga yet-

kazish o‘zini ko‘rsatish uchun qulay imkoniyat ekanligini tushunib yetdi. Haftalab, tinim bilmay temir yo‘lning u boshidan bu boshiga qatnadi. Moskvaga boradi va yana ortiga qaytadi, temir yo‘lning daraxtzor bilan o‘ralgan o‘rmonlardan o‘tdi. U isbotladi, so‘radi, odamlarni ishontirdi, katta-katta va’dalar berdi, bu vaqt ichida stansiya boshliqlaridan tortib dispatcherlargacha, yog‘och korxonasi direktoridan tortib yuk tashuvchi ustalargacha tanib oldi. U qanday bo‘lmisin bu jangda g‘olib chiqishi kerak edi, shunday bo‘ldi ham – Xolmsk uchun atalgan har bir daraxt kesildi va manziliga yuborildi, platformada qizg‘ish, xushbo‘y qarag‘ay-u ignabarglar ol-didan yelib o‘tarkan, har biri ko‘zga tanish, issiq bo‘lib ko‘rinadi. U hatto juda g‘alati qo‘shiqning o‘zi uchun atalgandek yozilgan ikki qatorini xirgoyi qila boshladi:

*Tan oling, ey yigitcha,
Men naqadar muhim va hurmatga sazovor emanman!*

To‘g‘ri, ba’zan shu o‘rmonda ter to‘kkon, bu platformaga bevosita aloqasi bo‘lgan Zaxar Deryuginni aynan shu yerda o‘z o‘rnida ko‘rishni istaydi, ammo shu zahoti xayoliga kelgan bu fikrdan yuzi burishib ketdi, zudlik bilan miyasidan bo‘limg‘ur fikrni quvdi.

Borgan sari kuchayib borayotgan shamol bilan hazillashib bo‘lmaydi, istiqbolida katta siyosiy yutuqlar va’da qilinmagan bo‘lsa-da uning kataklari karnay bo‘lgan ishtahasiga dalolat bo‘lib keng yozildi. Anisimov miyig‘ida kulib qo‘ydi, aniqrog‘i hayotning qiymati nimada ekanligini bilishiga ishonchi komil edi. Uning haq-qı-hurmati g‘azabga to‘lgan Ural o‘rmonlari ustidan kechani kecha demay uchgan, qor kechgan. Anisimov hayotni sevar edi hamda yana va yana yashagisi kelardi.

Omadli yakunlangan Molotov safaridan so‘ng Xolmskga qaytish ko‘ngildagidek ish bo‘ldi, bu vaqtga ish pishitib qo‘yilgan ekan. O‘zining Xolmsk obkomining savdo-sotiq yo‘nalishi raisiga o‘rinbosar etib saylanishi uchun to‘ldirishi lozim bo‘lgan so‘rovnama ustida o‘tirar ekan, yorqin istiqboli, porloq kelajagi haqida xayol qilar edi. Majburiyatları doirasini o‘rganar ekan, tajriba masalasida deyarli qiynalmasligini bildi, biron haftalar o‘tib kim uning oldida

ishlashi, kimni o‘z o‘rniga tushurib qo‘yish lozimligi va kim bilan xayrlashish kerakligini bilib oldi. Ishga sekin-astalik bilan kirisha bordi, ba’zan ish aql bovar qilmas darajada chalkash, og‘ir tus olar edi. Alal-oqibat Anisimov zarur deb hisoblagan barcha fikrlari o‘zini oqladi. Oxirgi marta shunday kutilmagan holat hali qo‘l urilmagan artezian quduqlari uchun burg‘ulash moslamasini sotib olish bilan bog‘liq ish edi, ish tez orada samarasini ko‘rsatdi, ayniqsa mintaqaning janubiy viloyatlarida juda tez ommalashdi, hamkasblari ham, ma’muriyat ham Anisimovni yangi muvaffaqiyat bilan tabriklandi. Anisimov o‘z holiga jilmayib qo‘ydi, u allaqachon o‘z o‘rnini egallagan, lekin hozir ortiqcha ko‘rinish bermay soyada qolgani ma’qul; bu nima deganingiz, bu nimasi, dedi u o‘ziga o‘zi, kechirib qo‘yasiz, mening nima aloqam bor? Ish aniq, hammasi yaxshi, lekin men uning atigi kichkina murvatchasiman xolos, mana yaqindagina Sverdlovskga, zavodga yuborishdi, qariyb ikki hafta u yerda bo‘lib qaytdim, shunchaki bu mening vazifamga kiradi, shuning uchun masosh olaman.

Yelizaveta Andreyevnadan bo‘lak hech kim Anisimovning ish deb bunchalar yonib-kuyishidan hayratga tushmagan, aytgancha, u erining iqtidorini Xolmskga ko‘chishning so‘nggi oylariga kelib-gina tan oldi, lekin Anisimov xotinini bunday xulosaga keltirish uchun chakana asab, sabr-toqat ko‘rsatishiga to‘g‘ri keldi. Biroq Xolmsk ularni birlashtirmadi, lekin har holda bu munosabatlarda jindek bo‘lsin oldinga siljish bor, ammo Anisimov bir holatdan doim hayratga tushadi, u Yelizaveta Andreyevnaning begona qizaloq, Shurochkaga bunchalar mehribonlik qilishining sababini tushunmaydi. Xotini bilan-ku munosabatlarining istiqbolini xayol qila oladi, lekin qizcha masalasiga kelganda o‘zini boshi berk ko‘chaga kirib qolgandek his qiladi, shunga qaramay unga nisbatan muloyim, g‘amxo‘r bo‘lib ko‘rinishga tirishadi. Hayotiy tajribami yoki ichki sezgi, har holda yaqin o‘rtada hammasini o‘zgarishini sezib turibdi, shuning uchun hammasini zimdan kuzatib turishni ma’qul ko‘rdi. «Ipidan ignasigacha ikkinchi front» – deya hazilashdi u o‘ziga o‘zi, ko‘rinib turibdiki, boshi va keti noaniq ikkinchi front xotini uchun bag‘oyatda muhim, aniqrog‘i birinchi frontdan ham ko‘ra muhim. Qanchalik muvaffaqiyatga erishmasin, xuddi

hayotidagi har bir voqea o‘z izmida ketayotgandek bo‘lib ko‘rinsa ham aslida ichki xotirjamlikka erisha olmadi, uni qancha olqishlab ko‘kka ko‘tarishmasin, ich-ichidan o‘ziga bo‘lgan mislsiz nafrat, beparvolik hissini tuyar edi, artezian quduqlarini burg‘ulash qurilmasi bilan bo‘lgan ishdan keyin ham xuddi shunday bo‘ldi – u endi qaysarlik bilan o‘zi qilib ro‘y berayotgan hislarni taftish qila boshladi, axiri bir kuni hammasini boshdan oyoq bir chiziqqa soldi, hammasini qayta-qayta o‘ylab ko‘rdi. Anisimov ko‘zlarini xiyol qisib qaradi. Bir soniya oldin bo‘m-bo‘sh turgan deraza tokchasiga navdasidan uzilgan chinor yaprog‘i uchib tushdi. Anisimov shoshi-lib deraza oldiga bordi, yaproqni qo‘lga olib hidladi, keyin derazadan ko‘chani tomosha qildi. Hammasi xuddi kechagidek, hatto bir necha hafta oldin qanday bo‘lsa shundayligicha turibdi. Yana o‘sha shoshqaloq olomon ko‘chalarni to‘ldirib u yoqdan bu yoqqa yelib yuguradi, Stalin doim kiyib yuradigan shinel va palto uning baland poydevor ustiga o‘rnatilgan haykaliga ham ko‘chgan, Anisimovning xonasidan uning haykali yaqqol ko‘rinib turadi. «Qiziq...» – dedi Anisimov ko‘zlarini haykaldan yana uzilgan yaproqqa olar ekan.

Lekin hozirgina og‘zidan chiqqan «qiziq» so‘zini kimga nisbatan, nima uchun aytganini o‘zi ham tushunmadi. Lekin bu hafta juda og‘ir kechdi, hozir uning kayfiyati ham shunga monand edi, keyin kaftida turgan yaproqni barmoqlari uchiga oldi, pufladi, yaproq binoning to‘rtinchchi qavatidan maydon tomon yo‘l oldi, Anisimov uning parvozini kuzatib turdi, keyin yana ish stoliga qaytdi, oxirgi hisobot va ma’lumotlarni ko‘zdan kechirdi.

Kun juda qizib ketdi, xonaga vaqtı-vaqtı bilan issiq shabada yuguradi, Anisimov o‘zini qog‘ozlar bilan yelpib deraza oldiga bordi, lekin uni yopgisi kelmadi. «Shu tobning o‘zida hammasiga tupurib, shartta qo‘l siltasang-da, shu zormanda shahardan o‘rmon tomonlariga qarab ketsang, – dedi u o‘zini katta kitob varag‘i bilan yelpib, – Qanaqa tizim bo‘ldi bu... bir juft ishton sotishdimi tamom, haftalik hisobot yozasan... bir qui sichqon kemirgan makaron berishdimi... doston yozishing kerak... Yo Xudoyim... qanaqa tizim o‘zi bu. Uyum-uyum yozilgan varaqlardan tog‘ yasasang bo‘ladi, osmondan yog‘iladigan unni-ku asti qo‘yaversiz, u har qayerda biqinib yotgan

lo'ttibozlarga ham yetib ortadi, revizor bunaqa mayda-chuyda ishlari bilan boshini qotirib o'tirmaydi».

To'satdan miyasiga kelgan fikr uni kulgisini qistadi: mayli, qog'ozbozlik o'z yo'liga, u hamma joyda bor, eng qizig'i, u hozir ham bundan yigirma yil oldingidek Bryuxanov uchun ishlaydi, lekin urushdan keyin unga umuman ro'para bo'lgani yo'q. To'g'ri, ishton, seld balig'i, burg'ulash uskunasi, o'rmondag'i tarkib – bularning barchasi yaxshi va kerakli jihozlar, lekin ularning bar'i hayotning yuzaki matahlari, u har doim hayotning mohiyatini, o'zining mohiyatini topishga harakat qiladi. Lekin hech qachon buning uddasidan chiqa olmaydi. Mana gap qayerda, allaqachon Bryuxanov bilan uchrashish kerak bo'lgan. Qanchalar g'alati bema'ni tuyilmasin, uning bor g'ayrati, kuch-quvvati Bryuxanov orqali zuhur qilgan, balki bu uchrashuvdan hayotida milt etgani uchqun tug'ililar, aks holda hayot sovuq va bema'niligicha qolaveradi. Yetar, yetar endi, o'zining mudhish kasbi bo'g'ziga keldi, ertalabdan kechgacha ishton, paypoq, tanani isitadigan moslamasonini ifodalaydigan manashu jirkanch raqamlarga tikilib o'tirishi kerak, u bir necha marta ish stolini tepib ag'darib tashlagisi kelgan, uning ustiga chiqib baqirganini yo'lakdagi hamma eshitgan, kotiba sekin imo-ishora qilib qabulda hammani tarqatib yuborgan. U kichkina ma'budcha haykalini mahkam siqdi, «Besh yuz just erkaklar ishton» ko'zi qog'ozlardan biriga yozilgan ro'yxatga tushdi, ha, bu jumla unga tanish, bir vaqtlar omborlardan birida dag'al paxta matosidan tikilgan erkaklar ishtoniga ko'zi tushgan edi.

Anisimov grafinning o'zidan qonib iliq suv ichdi, keyin o'ylagan ishini kechiktirmaslik uchun qalin telefon kitobini qo'liga oldi, telefonni oldiga surdi. Go'shakni qo'liga olib raqamlarni aylantira boshladi.

Deyarli yarim soatlar vaqt o'tgach go'shakning narigi tomonidan past, bir maromdag'i ovoz kela boshladi.

– Oblispolkomdan Anisimov gapirayapti... ha, ha, Anisimov Roldion Gustavovich. Menga Tixon Ivanovich kerak edilar... ha, tushunarli, shunday deng... qurilish obyektiga ketdilarmi... Oridagi sohil bo'yiga... bu haligi yangi drama teatri qurilayotgan joy emasmi?

Go'shakni qo'yib yana grafin qo'yilgan stol yoniga bordi, bu vaqtga kelib kichkina ma'budcha hech qanday sababsiz jiringlay boshlagan edi. Keyin yana grafindan iliq suv ichdi. Hali-hamon boshi yorilib ketgudek og'riyotganini sezdi, seyfni qulflab kotibaga shifoxonaga borib kelishini aytdi-yu o'zini zinaga urdi. Tashqariga chiqishi bilan yuziga issiq shamol urildi, ko'chada shamol yirtilib ketgan teatr afishalarini va boshqa katta-kichik axlatlarni havoda o'ynaydi. Qiziq, qachon qattiqroq shamol tursa, shahar osmoni axlatga to'lib ketadi. Anisimov oppoq kanop furajkasini boshiga mahkamroq bosdi, katta-katta qadam tashlab yo'lni qisqartira boshladи, shu payt momaqaldiroq gumburlay boshladи, shamol urushdan omon qolgan yakkam-dukkam daraxtlarni, ko'chalarni izg'ib shaharni boshiga ko'taradi, go'ngqarg'alar dahshatli qag'illay boshladи, yashil barglar orasida qorayib ko'rindigan uyiga biqinib ko'zlarini miltiratadi. Uzoq yillar Rossiyaning olis mintaqalarida yashagan bu inson yana shaharning shukuhini his qildi, bu shukuh har doim uni ruhlan-tirib kelgan. Oldidan bir necha soniyada bir-biriga biqingan qizlar galasi shovqin solib o'tdi, Anisimov ularga qarab jilmayib qo'ydi. Keyin usti qirq yamoq bo'lib ketgan tramvay gudok berib sudra-lib kela boshladи, Anisimov uning ortidan jilmayib qoldi, allaqachon bu vagonlarning hammasini yangisiga almashtirish vaqt kelgan, bu masalaga kelganda shahar ijroiya qo'mitasining rahbari Sidorenko-ning boshi og'rib qoladi, tramvay parki ham eskirib shalag'i chiqib ketgan, lekin yangisini qurishga joy yo'q, umuman olganda trans-port muammosi butun mamlakatda bor, bir necha bor majlislarga ko'tarilganligiga qaramay hamon masala hal bo'lgani yo'q.

Qo'liga katta supurgi ushlab olgan qorovul yerni qoplagan axlatlarni to'ppa-to'g'ri Anisimovning oyog'i tomonga supirdi, Anisimov uning betakalluf qilig'idan ranjib qadamini jadallahstirdi. Bulut quyoshning yuzini to'sib olgach ko'chaning burchak-burchaklarigacha nimqorong'ilik cho'kdi. Qattiq momaqaldiroq chaqnadi-yu quvnoq yo'z yomg'iri sharros quya boshladи, Anisimov bazo'r o'zini panaga olishga ulgurdi. Bir necha muzdek tomchi Anisimovning yuziga urildi, yeri-u ko'kni tutgan yomg'ir havosidan o'pkasini to'ldirib nafas oldi. Yomg'ir juda tez tindi, yomg'irini to'kib bo'lgan bulutlar yana ko'k yuzini quyoshga

bo'shatib har tomonga tarqab ketdi, bir zumda kun yorishib ketdi. Quyosh yomg'irda yuvilgan shahar ko'chalarini yorita boshladi, namxush yaproqlar zarrin nur sochib yaltiraydi. Anisimov momaqaldiroqda yanada musaffo tortgan havodan zavqlanib jadal odimlaydi, ulkan o'rmondan o'tib qum, shag'al, g'isht uyulib yotgan Ora qирг'ига yetib keldi. Ora qurilish ketayotgan eng katta maydonlardan biri, qирг'oqда o'ndan ortiq kichkina yuk kemalari turibdi, ularga g'isht, taxta kabi qurilish ashyolari ortilgan, ko'rinishidan nihoyatda horigan kran katta yuk ortilgan qutini maydonga tortib kelayapti. Anisimov atrofga razm soldi, butun binoni tirkarma-narvonlar qurshab olgan, ularning ayrimlari to'rtinchı qavatga o'rnatilgan bo'lib, quruvchilar shu qavatda ishlashayotgandan dalolat berar edi. Osmonga bo'y cho'zib turgan ikki kranni ko'rib ko'ngliga xotirjamlik kirdi. Qирг'oqning ko'lmaklarida quyosh nuri yaraqlaydi, yuk mashinasi ichidan haydovchining tirjagan basharasi ko'rindi, u belkurak bilan qo'l silkitayotgan ikki ayolning ustiga bostirib borayotgandek bo'lib yonidan o'tib ketadi. Lekin bu ajoyib manzaraning markazida hech istisnosiz Bryuxanov turadi, mana uning butun umri davomida izlagan insoni, uning yonda suhbatdan unchalik ham mamnun emasligi qiyofasidan bilinib turgan qurilish ishlari boshqaruvchisi – Potapenko turibdi. Anisimov qadamini sekinlatdi, keyin joyida to'xtadi. Bryuxanov darrov begona kimsa yaqinlashganini payqadi, suhbatning bo'linganidan noroziligini yashirmay begona mehmon tomonga qaradi:

– Menda ishingiz bormi? ... shoshmang, Rodion Gustavovich, o'zingmi? – u jilmayib Anisimov tomonga kela boshladi. – Mana sizga kutilmagan uchrashuv, ko'rganimdan xursandman, salom, salom.

– Salom, Tixon Ivanovich. Taklifsiz kelganim uchun ma'zur tuting, shunchaki siz bilan ko'rishib o'tay degan edim, – Anisimov ham tabassum bilan javob qaytardi.

– Taklifsiz deganingiz nimasi? – Bryuxanov o'zini intazorlik bilan kutayotgan ishchilar tomonga qarab qo'ydi. – Biroz kutib tur, Rodion, o'n besh daqiqalarda bo'shayman.

– Albatta, albatta, kutib turaman, – Anisimov ulardan nari ketdi, uzoqdan chala qurilgan binolarni tomosha qilib tamaki tutatdi,

Bryuxanov o'sha zahoti ishga sho'ng'ib ketdi, yangi mehmonni bir chetga surib Potapenkoga yuzlandi.

– Bo'ldi, ko'zimni shamg' alat qilishni bas qiling, – Bryuxanov uni gayritabiyy holatda to'xtatdi, – menga buni tekshirish hech gap emas... siz tajribali quruvchisiz, siz bilan bunday tasodiflar bo'lishi aqlga sig'maydi. Sinchkov ko'z hammasini bir onda ilg'ab oladi!

– Tixon Ivanovich...

– Xo'sh, bosh me'mor yana olti oy ta'til oldi deylik, bu yerlarning pachavasi chiqarmidi?

– Ha, Tixon Ivanovich, lekin sizni ishontirib aytishim mumkin-ki, hammasi siz o'ylaganchalik pachava emas. Gap arzimagan bir necha metr haqida ketayapti xolos... chizma bo'yicha ishlash binoni xarob qiladi, to'rt marta boshimni cho'rt kesib tashlashsa ham mayli!

– Adolatli ish bo'lar edi, – Bryuxanov jonlandi. – Hayron qoldim sizga, Potapenko. Shaharning umumiy qurilish rejasi bor, hech kim uni o'zboshimchalik bilan o'zgartira olmaydi. Biz kelajak avlod oldida shahar uchun javobgarmiz.

– O'tinaman sizdan, Tixon Ivanovich, meni ham biroz eshititing.

– Albatta. Lekin hozir va bu yerda emas. Ertaga soat o'n ikkida barcha ma'lumotlarni olib mening xonamga borasiz, – Bryuxanovning buyrug'i baland ovozda jarangladi, bu ohang aytilajak yangi tushuntirishlarni bo'g'ib qo'ydi. – Sizga shoshilishni maslahat bergen bo'lar edim, ish rasmiy tus olmasidan burun barcha kerakli tu-zatishlarni qiling.

Potapenkoning rangi bo'zdek oqarib ketdi, u yana nimadir deyish uchun og'iz juftlayotgan edi Bryuxanov Anisimov tomonga ketib qoldi. Anisimovning tirsagidan ushlab qirg'oqning boshqa tomonida joylashgan so'qmoq tomon boshladi.

– Sen haqingda ko'p yaxshi gaplar eshitdim, Rodion, – Bryuxanov hamon biroz oldin Potapenko bilan o'tgan suhabatni eslab asa-bylashardi, – o'zingdan gapir, turish-turmushing qalay?

– Nolimayman, Tixon Ivanovich, hammasi risoladagidek, yaxshi yashayapman, ishimdan ko'nglim to'q. To'g'ri, qog'oz tog'lari ichida yuribman-u, – Anisimov hazili tabiiy chiqishi uchun zo'raki kuldilari, – lekin alaloqibat ko'nikib ketar ekansan. Ko'rib turganingizdek, bugun sizning qarshingizda turibman. Hamma

narsa bo'lishi mumkin, ba'zan hammasidan bezib ko'ngling al-laqayerlarni tusab qoladi, bunaqa vaqtarda tog' havosining o'zi yetarli bo'ladi... keyin hammasi yana o'z izmiga tushib ketadi. Ko'rinishingiz a'lo darajada, Tixon Ivanovich, yillar sizga sira ta'sir qilmabdi.

– Xotining qalay, – Bryuxanov eski xotiralarini titkilayotgani ko'rinish turar edi, – avvalgidek o'qituvchilik qilayaptimi? Yelizaveta Andreyevna edi-a, adashmasam.

– Xotirangizga qoyilman, Tixon Ivanovich. Ha, Yelizaveta Andreyevna. Qirq uchinchi yilning bahorida shosha-pisha meni tashlab ketgan edi. Hatto unga ikki og'iz so'z aytishga ham ulgur-magan edim. Biznikilar olib kelishganda esa qarshimda mening Yelizaveta Andreyevnamga ikki tomchi suvdek o'xshaydigan bir ayol turibdi, xuddi o'sha izsiz g'oyib bo'lgan xotinim. Tasavvur qila olmaysiz nimalar bo'lganini. Uni qayerdan olib kelishganini taxmin ham qila olmaysiz. Oz emas, ko'p emas naqd Avstriyadan, Insbrukdan degan joyidan topib kelishibdi. Yo Xudoyim, shuncha yillar, har qadamda oyoq ostidan chiqadigan xatar ichida ham omon qaytishibdi, – Anisimov gapga berilib ketdi, – u deyarli jahannam azobini totishiga to'g'ri kelibdi, Yelizavetta Andreyevnani deyman... Makashin okkupatsiyasining oxirlariga kelib... haligi Makashinni eslaysizmi? Zejsk uyezdining politsiya boshlig'i bo'lgan bor-ku nemislар davrida... o'shanda u nimandir payqab qolgan... ketishim bilan o'zining nemislari bilan birga paydo bo'lgan, meni qidirib hamma yerning tit-pitini chiqarib tashlagan o'ziyam... bechora Yelizavetta Andreyevna meni qidirib yurishganini ko'rib ne ko'ylarga tushgan ekan?

– Bilasanmi, Rodion, – Bryuxanov ham suhbat qizib ochila boshladi, – bizdagi ma'lumotlarga qaraganda Makashin hali tirik. U o'shandan keyin ham qutulib qolgan. Agar chegaradan o'tib ol-magan bo'lsa topib olish gap emas, bunaqlarning ko'pchiligi justakni rostlashga ulgurgan.

– Iflos odam iflosligicha qoladi, Tixon Ivanovich. Yagona chora badaniga qizigan temir bosish, – shu pallada Anisimov ancha vahshiyyona gaplarni qo'zg'adi, ko'zlar ham gaplariga hamohang asabiy qisilib ketdi, – ularni deb qancha qon oqdi... u isqirt Zaxar Deryu-

ginning to‘ng‘ich o‘g‘lini tutib olganda qanchalar suyunganini bilsangiz edi... jirkanch maxluq, sho‘rlik Yefrosinya oldimga yugurib kelgan edi o‘sanda... bunaqalarni faqat go‘r tuzatadi.

— Kerak emas, Rodion, — Bryuxanov Anisimovning yelkasiga qo‘lini qo‘ydi, — urush o‘z nomi bilan urush. Unutish masalasiga kelsak, biz hali hech narsani unutganimiz yo‘q. Hamma hali qilmishiga yarashasini oladi.

— Liza bugungi uchrashuvimiz haqida biladi. Juda e’tiborli odamga aylanib qolgan u, Tixon Ivanovich, — Anisimov suhbatning mavzusini o‘zgartirish uchun miyasiga kelgan birinchi fikrni aytди, — oldin ancha xayolparast edi, urush uni umuman o‘zgartirib yubordi.

— Unga ehtiromimni yetkazib qo‘y, — dedi Bryuxanov, — biz eng muhimini qo‘lga kiritdik, qolganlari ham yo‘l-yo‘lakay bo‘laveradi.

— Ha, ha, albatta, — Anisimov shu zahoti uning gaplarini ma‘qulladi, — tasavvur qilib ko‘ring-a, Tixon Ivanovich, u o‘zi bilan bir qizchani olib kelibdi, amerikaliklar ularni ozod qilganida o‘zi bilan olib ketgan ekan. Yoshi yettilar atrofida, ismi Shura. Juda g‘alati ish bo‘ldi, xuddi dunyoga shu qiz bilan birga kelganga o‘xshaydi, o‘zi ham faqat shu qizcha uchungina tirik qolgan emish.

To‘satdan Anisimov o‘ng tomonini changallab qoldi, nafasi siqa boshladi, peshonasidan ter chiqib ketdi. Bryuxanov atrofga alanglab haydovchini qidira boshladi. Anisimov hammasi joyida degandek bosh irg‘adi.

— Kerakmas, kerakmas, bezovta bo‘lmang, menda ba’zan shunday holat bo‘lib turadi, — dedi u uzun barmoqlari bilan chakkasini ishqalab, Bryuxanov yana ba’zi gaplarni xotirlagisi keldi-yu, lekin mavridi emasligi ko‘rinib turar edi.

— Quloq sol, Rodion, ish o‘z yo‘liga, lekin odam o‘zi uchun ham vaqt ajratishi kerak. Qanday qilib o‘zingni unutasan, bunaqada yarim yo‘lda yiqilib qolasan-ku, — Bryuxanov iliq do‘stona tabassum qildi, — ahmoqlik qilma, kechiktirmay shifokor ko‘rigidan o‘t, yana menga nayrang qilaman deb o‘ylama, baribir qo‘lga tushasan.

Anisimov ham iliq tabassum qilib bosh chayqadi, ko‘kragidagi sanchiq ham xiyol bo‘shashgandek bo‘ldi. Xullasi kalom, bugun u o‘zi orziqib kutgan inson Bryuxanov bilan yuz ko‘rishdi. Bu inson bilan samimiy suhbat qildi, xotiralarini bo‘lishdi, eng qizig‘i bu

odam bilan qancha suhbatlashmasin yana va yana uning so‘zlariga tashna bo‘lib borayotganini his qildi. Hech qachon Bryuxanovdan o‘ziga nisbatan samimiylit va qiziqish bo‘lishini tasavvur qilib ko‘rmagan edi. Nega endi? Ko‘rinib turibdi, u Bryuxanov uchun ishlari qalashib yotgan bo‘lsa ham bir burchakka o‘tib o‘z xotiralarini bo‘lishishga arziyidigan inson. Qandaydir matematik qonuniyatlarga asoslanmasa-da, shunisi ayonki, Bryuxanov bilan tanishlik va yaqinlik istalgan insonning hayotini yaxshi tomonga o‘zgartirib yuboradi.

— Hayot baribir ajoyib, Rodion, ha, ha, ko‘p narsalardan ayirgan bo‘lishiga qaramay, — Bryuxanovning yuz ifodasi yanada yumshadi, — Bilasan, men oilaliman... Zaxar Deryuginni eslaysanmi... uning qiziga uylanganman. Urush bizni birlashtirdi, qiz farzandli bo‘ldik, Kseniya. Xotinim oblast shifoxonasida ordenaturada, nevropatolog.

— Siz uchun xursandman, Tixon Ivanovich, eshitgan edim, — Anisimov Bryuxanov ham ko‘ngil yoza boshlaganini ko‘rgach ich-ichidan mamnun bo‘ldi, (albatta, albatta-da, axir hozir uning oldida turgan sokin ovoz egasi hamma biladigan Bryuxanovga sira o‘xshamaydi) — Rafiqangizga ehtirom ko‘rsatavering, mening ehtiromimni ham yetkazib qo‘ying... bilasizmi, yillar juda ko‘p narsalarni o‘zgartiradi, yoshlikda ko‘rganlaringizga boshqacha nigoh tashlashni o‘rgatadi, — Anisimov qattiq tomoq qirdi, kuchanganidan ko‘zlarini yumilib ketdi, — nimani bilishi go‘rga, — bu gapni ichida o‘ziga o‘zi aytdi, — ahyon-ahyonda keksalik ko‘z yoshlari hujum qilib turadi.

— Rodion, yana o‘zingni yomon his qilayapsanmi? — Bryuxanov xavotir bilan u tomonga yaqinlashdi.

— Yo‘q, yo‘q, Tixon Ivanovich, xavotir olmang, hammasi o‘tib ketdi, — dedi Anisimov qattiq talaffuz qilib, — ochig‘ini aytsam, sizni ancha ushlab qoldim, Xudo haqi, bularning hech biri vaqtingizni oladigan darajada muhim emas, — dedi yuzidagi yengil tabassumni saqlab qolishga tirishib, — mana, nihoyat, yuz ko‘rishdik, men uchun eng muhimi shu, ba’zan o‘sha xotiralarni ham qo‘msab qolarkansan odam. Ma’zur tuting, Tixon Ivanovich, andishasizlik bo‘lsa-da bir savolim bor, Zaxar Deryuginning hozirgi holati haqida biron narsa ma’lummi sizga?

— Albatta, — Bryuxanov xuddi shu savolni kutib turgandek hozirjavoblik bilan javob qildi.

– Meni to‘g‘ri tushuning, – Anisimov suhbatsoshiga mavzuni ochilishida yordam berdi, u hozir tariqcha bo‘lsin tavakkal qilishni istamas edi, – men bu gapni shunchaki qiziqish vajidan qo‘zg‘aganim yo‘q... bizning umumiy jihatlarimiz bør, taqdirimiz ham o‘xhash.

– Zaxar bilan sodir bo‘lgan hodisalar ko‘p ham muhim emas, – javob qildi Bryuxanov, – asirlikka tushgan, bir necha marta kons-lagerlardan qochgan, keyin slovak partizanlari safiga kirib yana jang qilgan, yana yarador bo‘lib asirlikka tushib qolgan. Albatta, keyin hammasi iziga tushdi, unda Gustishga kelish imkoniyati ham yo‘q emas edi, lekin xohlamadi, Yuqori Kamdagi qaysidir o‘rmon xo‘jaligida ishlab qolibdi. Tabiat qanaqaligi o‘zingga ma’lum. Bir necha marta xat yozdim, sira javob bo‘lmadi, keyin men ham...

– Ha, kamyob ta‘b, – Anisimov boshidagi furajkasini to‘g‘riladi, u ortiq Bryuxanovni gapga solib turishga haddi sig‘madi, xayrlasha turib biron yaxshi kurortda ta‘tilni o‘tkazish haqida gap ochilib qoldi, Anisimov kamtarlik bilan yelka qisib qo‘ya qoldi.

– Gagri, Matsesta, – yuziga urilayotgan dengiz shamoli sabab ko‘zini qisdi, quyosh ham, dengiz ham bir zum bo‘lsin yasamadek tuyulib ketdi. – Palmalar, issiq dengiz, ah, jin ursin, naqadar yaxshi. Hammasi juda go‘zal va yiroq. Men ertaga, Tixon Ivanovich, ish yuzasidan Moskvaga jo‘nashim kerak, vazirlikka, – dedi u quvnoq ovozda, – makaron va qandolat zavodlaridagi uskunalarini o‘rganib kelishim kerak. Nima, birovdan kam joyimiz bormi?

Xayrlashishlari ham xuddi ko‘rishganlari singari juda quyuq bo‘ldi, Anisimov hanuz o‘ziga kulib boqqan baxtga ishona olmas edi. Shitob bilan ketayotgan Bryuxanovning mashinasini ko‘zqiri bilan kuzatib qo‘ydi; quyosh yana ayovsiz qizdira boshladи, tevarak-artof yarim soatlar oldin qanday bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha holatga qaytdi. Lekin baribir u hozir uning ko‘zlariga boshqacha ko‘rinayotgan edi. Bu yerda har tomonga sanchilgan qoziq, g‘isht, qum, hammasi uyulib yotgan, urush hammasini ayovsiz vayron qilgan bo‘lsa-da, yangi Xolmsk ko‘chasi barpo etilayotir, unda osmonga bo‘y cho‘zgan binolar bo‘ladi. Yo‘q, hali hayot tugagani yo‘q, u hali bir necha yangi janglarga kiradi, hali kuchdan qolganicha yo‘q. Uyga ham shu katta o‘zgarish qilish fikri bilan qaytdi, xotini bilan gaplashib oldi, ertasi kuni poyezd avval sekin, keyin esa shitob bilan oldinga intildi. Ye-

lizavetta Andreyevna va Shurochkaning yuzi avval sekin, keyin esa bir lahzada Anisimovning ko‘z oldidan suzib o‘tdi, xotini ham eri bilan bo‘lgan suhbatdan ancha yengil tortgan edi. Hozir har ikkala-lariga alohida bo‘lish, sekin-astalik bilan bir-birlariga ko‘nikish, bir-birlarini eshitishni o‘rganish uchun vaqt kerak edi va ikkalalari ham bu ehtiyojni allaqachon tushunib yetishgan.

10

Anisimovning Moskvadagi safari uzoq cho‘zilmadi. U Shuroch-kaga ko‘zini ochib yumadigan qo‘g‘irchoq, xotiniga bir quti qim-matbaho «Qizil Moskva» atiri va ikkita kapron paypoq sotib oldi. U ertalabki soat oltida uyga kirib keldi, Yelizavetta Andreyevna alla-qachon turgan, nonushta tayyorlab, daftар tekshirayotgan edi.

– Salom, Rodion, – u yo‘lakchadagi shovqinni eshitgach eriga peshvoz chiqdi, aftidan juda xotirjam ko‘rinar edi. – Iltimos qilaman, biroz sekinroq, Shurochka yana biron soatlar uxbab olishi kerak.

– Bu senga, Lizonka, – Anisimov o‘rog‘liq sovg‘ani kichkina stolcha ustiga qo‘yib, xotinining boshi va lablarini siladi, – bunisi Shurochkaga... qo‘g‘irchoq.

– O‘zing beraqol, – Yelizavetta Andreyevna mayin tabassum qildi, lekin shu zahoti yuzidagi tabassum siyohi o‘chdi, u kulganida o‘zini juda o‘ng‘aysiz his qiladigan bo‘lib qolgan, garchi bugungi voqea, erining egaridan tushib Shurochkaga sovg‘a olishidek hodisa juda kamyob bo‘lsa-da, tabassum qilishga botina olmadi.

– Ha, shunday qilish kerak, – dedi Anisimov jo‘ngina qilib.

– Sog‘lig‘ing qalay?

– Bir navi, – xotinining e’tiboridan yengil tortdi, – o‘tgan kuni mehmonxonada biroz og‘irlashdi, yuragim ushlab qolsa degin, yarim kechada tez yordam chaqirishga to‘g‘ri keldi, ukol qilishganidan keyin o‘tib ketdi.

– Ahmoqning o‘zginasisan, shifokorga ko‘rinsang bo‘lmasmidi, – Yelizavetta Andreyevna har doim eriga shunday quruq, iltifotsiz, har qanday hissiyotdan xoli munosabatda bo‘lgandek tuyuldi. – Bor, yuvinib chiq, choy tayyorlayapman, hozir Shurochka ham uyg‘onib qoladi, birgalikda nonushta qilamiz.

– Yo‘q, yaxshisi, ikki soat mizg‘ib olaman, keyin hisobot uchun borib kelishim kerak.

Vannaga kirdi-yu dush tagida jo‘mrakni yoqib yig‘lab yubordi, nimalar qilayapti o‘zi, aytadigan gapi qolmagach hech narsa o‘ylab topa olmagach, axiri, shunday dedi qo‘ydi-da, balki hozir shu munosabat shakli har ikkisiga birdek to‘g‘ri kelar, endi biroz shoshmagan ma’qul. Nima bo‘lmasin, bugun shifokorga borishni esladi. Bu ham yaxshi qadam. U Bryuxanov bilan uchrashish har qanday ta’til va kurortdan maroqliroq bo‘lishini bilmay qo‘ya qolsin. Anisimov badaniga yoshlik tarovati kirganini payqadi. Hechqisi yo‘q, hechqisi yo‘q, vaqt(soati) kelib barchasi o‘z izmiga tushib ketadi.

Kelasi kuni bir amallab ishidan bosh ko‘tarib shifokorga uchrashishga qaror qildi, shifokor ham begona emas, u bilan bir tom ostida yashaydigan qo‘shnisi, Anisimov dardi xuruj qilganda nima qilishni yaxshi biladi, bu paytda shaharning eng oldi shifokorlari ning ko‘rigiga boradi, mana uning qo‘shnisi kichik Xatunsev ham shifonxonada bosh shifokor lavozimida ishlaydi. Yaqin ikki yillardiki, ikkalalari eshigi bir-biriga qarama-qarshi qo‘shnilar, ba’zan ul-bul yumush bilan bir-birlarinikiga o‘ch-to‘tt marta kirib chiqishadi. Anisimov istefodagi polkovnik Xatunsevni unchalik ham jini suymaydi, bu odamning ochiq-oshkora takallufsizliklarini yomon ko‘radi, lekin uning o‘g‘li Igor ajoyib yigit, o‘z ishining ustasi.

Kichik Xatunsev Anisimovning shikoyatini diqqat bilan tingladi, ko‘rikdan o‘tkazib o‘zi singari yosh, serg‘ayrat hamkasbiga yo‘naltirdi, Anisimov bunaqa ishlarga o‘ta betoqat odam bo‘lgani uchun qo‘shnisining gaplarini jiddiy qabul qilmas, uning ortidan ham istar-istamas ergashar edi. Tashxis uchun kerakli barcha tahlilni topshirdi va uch kun o‘tib yana kichik Xatunsevning xonasiga keldi. Lekin bu gal Xatunsev yolg‘iz emas edi, uning xonasida hamkasbi, yosh, chiroyli ko‘zlar porlab turgan ayolga ko‘zi tushdi. Anisimov uni bir qarashdayoq tanidi. Bu ayol Bryuxanovning xotini. Anisimov u haqida Xolmskda Bryuxanov bilan bo‘lgan uchrashuvidan oldinroq boxabar bo‘lgan. Ayolning yuz tuzilishi Deryuginlarga xos. Ko‘zlarida qat’iyat bor, ayol boshini ko‘tarib eshik tomonga, aniqrog‘i, uning ortida turgan Anisimovga qaradi.

– Kiring, kiring, Rodion Gustavovich, – Xatunsev uni ichkari ga chaqira boshladi, – mana endi hammasi kunday ravshan, – dedi u quvnoq ohangda tez-tez varaqni to‘ldirar ekan, – uncha katta bo‘lmagan yetishmovchilik bo‘lgan ko‘rinadi, mana nima uchun og‘igan, yurakni charchatib qo‘ymang, tez-tez sayrga chiqib turing, ayniqsa, uyqu oldidan va eng muhimi, bizning bemorimizga aylanib qolmang.

Atrofdan kulgi ovozi keldi, Anisimov ham jilmayib qo‘ydi.

– Rahmat, doktor, – minnatdorchilik bildirar ekan Alyonkadan nigohini uzmadи, bunga javoban ayolning qoshlari ham baland chimirildi.

– Siz, Yelena Zaxarovna, aftidan meni tanimadingiz, – Anisimov bor diqqatini ayolga qaratdi, – men oxirgi marta sizni urushdan oldin ko‘rgan bo‘lsam ham darhol tanidim. Men – Anisimovman, Rodion Gustavovich Anisimov.

Alyonkaga bu ism-sharif juda tanish tuyuldi, lekin harchand urinmasin, qayerda va qachon eshitganini eslay olmadi.

– Biz, Yelena Zaxarovna, sizning otangiz bilan birgalikda kolxoz tashkil qilganmiz, yillab... yillab... – Anisimov gapga tushib ketdi, Xatunsev stul suyanchig‘iga yaxshilab suyanib olib uning o‘tmish xotiralarini tinglay boshladi, – uchrashib qolgan joyimizni qarang, agar Zaxar Tarasovich shu yerda bo‘lganidami, quvonchdan terimga sig‘may ketgan bo‘lar edim.

Anisimov to‘lqinlanib gapirishda davom etdi, Alyonka ham beixtiyor uni g‘ayriodatiy qo‘l harakatlarini tomosha qila boshladi, biroz o‘tgach bu inson o‘zida katta qiziqish uyg‘otib qo‘yganini payqadi, Alyonka uning har bir so‘zini tinglar, xatti-harakatlarini ku-zatib turgan edi. Bu odamning imo-ishoralari o‘zidan oldin gapiradi, butun hikoyasida qandaydir ranj, alam borga o‘xshaydi, Anisimov nimadan bu qadar jo‘sib gapirayotganiga aqli bovar qilmaydi, lekin Alyonkaning miyasida uzuq-yuliq xotiralar jonlana boshladi. Mana u, xayolidan kechirdi Anisimov, hayot deganlari shunaqa bo‘ladi, bir paytlar Makashkin unga ko‘z olaytirib yurardi, lekin murodiga yeta olmadi. U esa kimsan Bryuxanovning xotini. Bir vaqtlar ko‘chki bo‘lganda mening yerto‘lamda jon saqlashgan edi... g‘alati, juda g‘alati... hammasi qanday qilib shu darajaga yetib kelgani g‘alati...

agar bu kulrang ko'zli yosh xonimcha otasini men otganimdan xabar topsa nima bo'ladi? Otasining hayotini izdan chiqargan odam men ekanligimni bilsa nima qiladi? To'g'ri, men boshqa odamni o'ldirdim, lekin o'qni aynan Zaxarni mo'ljalga olib otganman... xo'sh, alaloqibat nima bo'ldi? Mana uning qizi ro'parangda shifokor qalpoqchasini qo'ndirgancha o'tiribdi. U Bryuxanovning xotini va har kuni odamlarni davolaydi, ularga yaxshilik ulashadi. Sen-chi, sen kim bo'lding, xuddi chiqindiga o'xshaysan, ikki marta ishlanib hech narsaga yaroqsiz bo'lib qolgan chiqindi, axlat... boshqa hech. Bo'limgan gap! Nima ahmoqgarchilik! – hammasiga uning o'zi aybdor edi. Hech narsa bo'limgan, men hech kimni otmaganman, hech narsa bo'limgan, mana doktor ham o'z og'zi bilan aytib turibdi: qo'rqinchli joyi yo'q, yurakni charchatib qo'ymaslik kerak, uyqu oldidan sayr qilish lozim.

Anisimov ongiga suqilayotgan keraksiz xotiralar oqimini jilovlab olishga tirishdi, og'zidan u mavzuda biron so'z chiqmagan bo'lsa ham o'zini o'ng'aysiz his qila boshladi.

– Qo'ysangiz-chi, Rodion Gustavovich, barcha gaplaringiz menning qarindoshlarim haqidami, – Alyonka tabassum qildi, – odam o'zini noqulay sezar ekan.

– Nimasi noqulay ekan, men kichkina bir qizaloqni tanir edim, Yelena Zaxarovna, – u darrov kalovlanib qolgan ayolga yordamga keldi, – Yelizavetta Andreyevnaning oldiga qatnab turar edingiz, Igor Stepanovich masalasida meni ma'zur tuting, u mening qo'shni bo'ladi. Hayotda nimalar bo'lmaydi deysiz?

Birdan Alyonka kulib yubordi, Xatunsev ham bosh chayqab uning gaplarini tasdiqlab qo'ydi.

– Men endi sizni aniq esladim. Yelizavetta Andreyevna sizning xotiningizmi? – Alyonka xotirasi tiniqlasha bordi, u o'zining katta mакtab sumkasini taqib shudringzor daladan qanday qilib chopib Yelizavetta Andreyevnaning oldiga oshiqqan kunlarini esladi.

– Xuddi shunday, – dedi Anisimov chaqqonlik bilan. – Uni ham urush o'z domiga tortdi, sizning vaqtinigizni oldim. Endi boray xayr bo'lmasda.

– Xayr, Yelizavetta Andreyevnaga salomimni yetkazib qo'ying, – Alyonka u bilan bosh silkib xayrlashdi, lekin bu uchrashuv kunda-

lik turmushda bo'lib turadigan odatiy hol bo'lganligi uchun deyarli e'tibor bermadi.

Lekin nima uchundir bu uchrashuv Alyonkada yoqimsiz hissiyot qoldirdi, kimsasiz uzun yo'lak bo'ylab borar ekan, yo'lakni yomon ko'rb ketdi, xuddi u huvillab, g'am-alamga to'lib ketgandek tuyuldi.

Xatunsev kun davomida Alyonkani deyarli bezovta qilmadi, biron marta savol ham bermadi, biroq ish kuni deyarli tugab hamma ketish taraddudiga tushib qolganda yo'lakhchada uni to'xtatdi.

— Yelena Zaxarovna, bir daqiqa, — dedi u darhol muddaoga o'tib, — ochiq hissiyotlar, xuddi bugun Chakvidzega nisbatan bo'Igani kabi nevropatologga sira yarashmaydi. Bir marotaba hissiyotga berildingizmi tamom, keyin ularga o'zingiz qaram bo'lib qolasiz. Shifokor va bemor o'rtasida faqat shifokor va bemor munosabati bo'lishi kerak, ayniqsa, sizdan unga. Aks holda sizdan yaxshi nevropatolog chiqmaydi. Xayr, Yelena Zaxarovna, vaqtningizni olganim uchun ma'zur tuting.

11

Bugun Anisimov har doimgidan ko'ra tetik va quvnoq. Shurochka har gal ovqatga qoshig'ini cho'zar ekan, kulgisi qistab qo'lida qoshiq bilan xandon otadi. U sinfdoshlaridan biri Borya uchinchi qatordagi partadan qanday sakragani, uchinchi qavat zinapoya dasstagiga minib ikkinchi qavatga tushayotganda maktab mudiri Stepan Arkadyevich uni qanday qilib ushlab olganini va o'qituvchisining qo'llariga tutqazganini qayta-qayta aytib kulaverdi. Kulaverganidan sochlari yozilib yuziga tushdi, soch tolalari yuzini qichishtirdi chog'i burnini tirishtirdi. Shurochka oxirgi vaqtarda ancha o'zgargan, avvalgi yovvoyi tabiatidan asar ham qolmagan.

Tushlikdan so'ng Anisimov oshxonadagi divanga yonboshladi, tamaki chekdi, har doimgidek o'zining Lizasidan mammun bo'ldi. Liza oddiy tushlikni ham bayramga aylantirib yubora oladi, did bilan yasalgan gulasta, shubhasiz undagi barcha ranglar o'zaro uyg'un bo'lishi kerak, uzun shamshod kabi billur qadahlar va did bilan tanlangan idish, hammasi juft-juft qilib qo'yilgan. Yelizavetta Andreyevna idishlarni kundalik turmush va bayram uchun ajratib

qo‘yishlarini yoqtirmaydi, uning bu masalada o‘z qarashlari bor, unga ko‘ra insonning har bir kuni bayramdek o‘tishi kerak. Parvoz va qulash, quvonch va yo‘qotish, xullasi kalom, zerikish va diqqinafas bo‘lishdan tashqari bor xīslatlar shu ayolda mujassam. To‘g‘ri, hozir ham hammasi ko‘ngildagidek ketayotgani yo‘q, lekin eng muhimi ular yana bir tom ostiga birlashishdi. Bu masalada u Zaxar Deryugindan ko‘ra omadliroq bo‘lib chiqdi, u na oilasini, na uy-joyini, qo‘yingki, o‘zi ega bo‘lgan hech bir narsani asrab qola olmadi. Mana endi Ural degan tomonlarda sarson-sargardon bo‘lib yuribdi, Ural qayerda-yu bu yerlar qayerda. Bu yerda Lizaning yonginasida hammasi saranjom-sarishta. O‘tgan oyda Shurochka uchun yangi pianino sotib olishdi. Shu yili kuzdan boshlab musiqa mактабига qatnaydi, Klavdiya Georgiyevna Pekarovaning guruhiга boradi, Anisimov bu haqida allaqachon mudira bilan kelishib ham qo‘yan, xullas kalom, hammasi joyida. Oldinda uni katta ishlar kutib turibdi, bugun Bryuxanovning xotini bilan bo‘lgan uchra-shuvda o‘zini bazo‘r tutib turdi, bu mitti qushchani ham inobatga olib qo‘yish kerak ekan. To‘g‘ri, yosh qo‘shni, bir-ikki hazilomuz qarab qo‘ydi, lekin bu endi uning ishi, unga ham ozroq tushuncha berib qo‘yilsa chakki bo‘lmas edi. Anisimov miyasiga kelgan fikrdan miyig‘ida kului, keyin oyoqlarini divan ustiga qo‘yib, qo‘llarini tutashtirib boshining ostiga oldi.

Anisimov qo‘shni xonaga mo‘ralar ekan Shurochkaning xona burchagida qo‘g‘irchog‘i Lena bilan gaplashib o‘tirganini ko‘rdi, ora-orada uning ipakdek mayin sochlarini silab, tarab qo‘yadi. Qo‘g‘irchoq ham Shurochkaning mehribonligiga tabassum qilib javob qaytaradi. «Yaxshi, hammasi joyida» – Anisimov yana o‘ziga tasalli berdi.

Soat oltiga yaqinlashdi, Anisimov ustiga Moskvadan sotib olgan yangi mayda hoshiyali ko‘ylagini kiydi. Yelizavetta Andreyev-naga qo‘shnilarinikiga chiqishini aytdi, keyin ko‘tarinki kayfiyatda qo‘shni eshik tomonga yo‘naldi. Eshikni katta Xatunsev ochdi.

– Kir, Rodion Gustavovich, kir, – mezbon Anisimovni juda xushmuomalalik bilan qabul qildi, uning yelkasidan ushlab uyga tortqiladi. – Mana shaxmatda ikkinchi marta yutqazayapman. Tormor qildi, razil, ota-onasini pashshachalik nazarga ilmaydi.

Katta Xatunsev ishtiyoq bilan Anisimovning qo'liga tikildi, uning muddaosini tushungan Anisimov o'zi bilan olib kelgan bir quti moskvacha choy va bir shisha arman konyagini stol ustiga qo'ydi. Keyin stol atrofiga qulay o'rashib olib o'yinni qiziqish bilan tomosha qila boshladi. Beixtiyor ko'zi kichik Xatunsevga tushdi, yoshlikka, erkaklikka xos katta va sergo'sht lab, tim qora soqol-mo'ylov, baquvvat qo'llar istalgan odamning havasini keltiradi. Anisimovga bu yigitcha yoqadi, uning qiyofasida o'zining yoshligini ko'rgandek bo'ladi. Poruchik Anisimov o'z davrida yengib bo'lmas inson edi, lekin bir jihat qiziq, unda yoshlik va yoshlik bilan aloqador biron narsa bo'lganmikan, xuddi hammasi olisda, sas-sadosiz sharpaga o'xshab ko'rindi, bundan bo'lak hech narsa yo'q.

Ota-bola Xatunsevlar yolg'iz yashashadi, uyni o'zлari yig'ishtirishadi, ovqatni ham o'zлari tayyorlashadi, faqat haftada bir marta farrosh ayol kelib xonani epaqaga keltiradi, kir-chirni yuvib ketadi. Xonadagi muhit mutlaqo erkakona: uydan tamaki hidi anqiydi, yo'lakka tutilgan darpardalar tamaki tutuni uraverib sarg'ayib ketgan, bu yerda jilla qursa bir shisha atir yo'q, yana uyni bezatish, yasatish uchun foydalilaniladigan matohlarning hech biri uchramaydi. Eshikdan kiraverishdagi ilgichda pogonsiz shinel osig'lig' turadi, tokchalarning birida yuzi xira tortgan ayol portreti bor. Bu Xatunsevning urush yillarida vafot etgan rafiqasi, Igoring onasining surati. Aftidan xotinidan so'ng polkovnikning ayollar masalasida ko'p ham omadi chopmagan, axiri, uch yil oldin ularning bariga qo'l siltagan-u shartta o'g'lining oldiga kelib u bilan yashay boshlagan.

Nima uchundir o'lgan ayol surati Anisimovning ko'ngliga g'ashlik soldi, ko'rini turibdi, ayol nihoyatda o'ziga oro berib yurgan, yuzlari ham yaxshi parvarish qilingani ko'rini turibdi. Lekin nima bo'lgan taqdirda ham bu ayolning portreti Anisimovning ko'ngliga g'ashlik solib turardi. Xuddi yuragiga muzday havo joylashib, kimdir yuragiga shaytonga o'xshab o'rmalab kiriб pichirlayotganga o'xshardi: tamom, tamom, tamom. Xatunsevlar Anisimov bilan tanishganidan buyon uni uylariga meh-monga taklif qilishadi, lekin u shu paytgacha biron marta bunga hafsala qilmagan. Qanchalik tirishmasin nima uchun bu surat

o‘zini bunchalik bezovta qilayotganining sababini tushuna olmadidi. Xatunsevlarning divaniga yalpaygancha iloji boricha suratga qaramaslikka tirishib o‘tirdi.

Bugun u o‘z odatini o‘zgartirdi, surat bilan kechgan bo‘limg‘ur jang o‘z nihoyasiga yetdi, endi bazo‘r bo‘lsa-da tabassum qilib turgan ayolning suratiga qaray boshladi. Istarasi issiq marhumaning suratiga topinish uyg‘a kichik Xatunsevga turmush o‘rtoq kelganda ponyoniga yetadi, lekin Anisimovning qulog‘iga ayrim gaplar chalingan, katta Xatunsev o‘g‘lini bo‘lajak kelinidan qattiq qizg‘anadi, shuning uchun ham qanchadirki, bu masala ochiq qolib kelmoqda. Anisimov cholga qarab jilmayib qo‘ydi. O‘yin tugadi, alaloqibat katta Xatunsev o‘zining shohini oldinga surib, yelkalarini mag‘rur ko‘tardi.

— Xo‘s, bunisiga nima deysan, Rodion Gustavovich, men ya-qindagina mana shu yigitchani tuvakka o‘tkazib qo‘yar edim, lekin qariyalarning izzatini qilishni bilmadi, bir-ikki moskvacha usullarni qo‘llagan edik, hurmatimizni joyiga qo‘yadigan bo‘ldi, qo‘yadigan bo‘lib qoladi ham, hay mayli, Gustavovich, men borib choy qaynatay.

Kichik Xatunsev shaxmat taxtasi va donachalarini tartib bilan yig‘ishtirib oldi, stol ustiga tamaddi uchun joy hozirlar ekan Anisimovni yoniga chorladi.

— Sen meni nihoyatda xursand qilding, Igor, demak men bilan hammasi joyida shundaymi? — so‘radi Anisimov nihoyat o‘ziga navbat kelganidan suyunib.

— Mutlaqo, Rodion Gustavovich, — bosh irg‘adi Xatunsev, — tah-lil natijalarini ham ko‘rdim, hammasi risoladagidek.

— Endi o‘zimni ancha tetik sezayapman. Xonangga kirdim-u sog‘ayib ketdim, axir, shunday ayolning oldida kasallik haqida gapi-rib bo‘lar ekanmi?

— Kim haqida aytayapsiz, — so‘radi kichik Xatunsev.

— Kim haqida bo‘lardi? Deryugina-da.

— A-a-a, — Xatunsev yanglish eshitdim deb o‘yladi, — Yelena Zaxaronva haqidami?

— Qani mening yigirma sakkizim, o‘lay agar bunday ofatijonni sira qo‘ldan chiqarmagan bo‘lar edim.

— Bunga, Rodion Gustavovich, ko‘p ham oshiqmang.

– Nega endi? – Anisimov butun gavdasi bilan u tomonga engashdi, yuzida tabassumli bo'lsa-da g'alati ifoda paydo bo'ldi.

– Biz uning uchun kim bo'libmiz, bor yo'g'i iliksiz suyak, qolaversa, u o'zini tamoman ilmga bag'ishlagan, – Xatunsev aytishi lozim bo'limgan gaplarni valaqlab qo'yanini payqadi, – tashxisni aniq, to'g'ri qo'yadi, qo'li ham yengil.

– Albatta-da, – Anisimov yelka qisdi, – obkomning birinchi sekretarining xotini iste'dodsiz bo'lishi mumkinmi? U porloq kelajak sohibasi. Bu, axir, qayd qilingan qonun-ku.

– Yo'q, bu qadar gapirish to'g'ri bo'lmaydi, umuman olganda juda izlanuvchan ayol, – kichik Xatunsevning yuzlari xiyol qizardi. – Ishchanligiga qoyil qolasiz. Aslini olib qaraganda, u hozirgi holatida hech narsaga majbur emas. U hozir butun nevrologiyada o'zgarish qilmoqchi. Lekin bariga sabab tajribasizlik. Qachonlardir barchamiz bu bosqichdan o'tganmiz.

– Men senga ishonaman, ishonaman, – Anisimov uning gapini bo'ldi. – Lekin o'zing tanangga o'ylab ko'r, Igor, bir qadam ham og'ishmay, hech qanday balandparvoz gaplarsiz! U yosh va go'zal ayol, to'g'rimi, shunday bo'lgach uning kimning xotini ekanligini nima qizig'i bor. Yo'q, yoshlar, men sizlarni tushunmayman, sira tushunmayman. O'zingizga orzu qilishga ham izn bermaysiz. Sevgi bobida-ku hammangiz bir go'rsiz, menimcha bu mamlakatda sevgining chegarasi yo'q, unda qirol degan, hatto obkom sekretari degan tushuncha ham yo'q. Uning qarshisida hamma barobar, hamma teng.

– Quyib qo'ygan shoirning o'zginasiz, Rodion Gustavovich, sizdan sira kutmagan edim!

Kichik Xatunsevning gaplari hazilomuz ohangda aytilgan bo'lsa-da, bunda Anisimovni ehtiyotkorlikka chaqirish istagi ham yo'q emas edi. Anisimov shu bilan jimb qoldi. Xatunsev armani konyakni ochib kichkina aroq qadahlarni to'ldirdi. Stolda bo'ydoqlarga xos dasturxon tuzalgan edi, polkovnik choy damlab keldi, keyin o'g'lini ham stolga imladи. Kichik Xatunsev juda g'alati alfozga tushib qolgan edi, biroz avval tugagan suhabat nima uchundir uni sarosimaga solib qo'ydi. Choyni idishlarga quyar ekan, qayta va qayta biroz avval aytilgan jumlalarni tahlil qilar edi. Bir qaraganda e'tiborga arzimaydigan gaplar, erkaklar keksaygani sari ayollar haqidagi suh-

batlarga o'ch bo'lib qolishadi. Bu tabiat qonuni, qachonlardir jo'sh urgan hissiyotlarning oxirgi uchquni, aftidan, Rodion Gustavovich ham shu pallaga yetib kelgan ko'rinaldi, bu gapni ortiq kavlashdan ma'ni yo'q.

– Biz bu yerda, Stepan Vladimirovich, Igor bilan gurunglashib turgan edik, – Anisimov yana gap boshladi, ortidan bahuzur choy simirib, og'zida oq qandni qarsillatib maydaladi, o'yin usullarini muhokama qildik, bir-ikki usullarni tavsiya qildim.

– Men nuqlul bir gapni qaytarayapman, – dedi polkovnik xomush tortib, – endi u uylanishi kerak, o'ttizni qoraladi, yana qancha shunday yurishi mumkin.

– Ota, yana sen o'zingnikini tiqishtirayapsan...

– Ha, o'z fikrimda qolaman ham, – polkovnik shu zahoti uning og'ziga urdi, – uyg'a ayol kerak, turmushimizga qara, odamnikiga sira o'xshamaydi, xuddi yarim jon bo'lib qolganga o'xshaymiz... senga yana bir bor aytib qo'yay, olim o'g'lim, o'zing hal qil, modomiki, sen uylanmas ekansan, sening o'rningga o'zim uylanaman. Ana shunda ko'rasan haqiqiy hayot qanaqa bo'lishini. Nega hech vaqo yemay o'tiribsan?

Kichik Xatunsev istar-istamas nonning ustiga saryog' surdi, nazokat bilan pishloqdan bir bo'lak kesib oldi, otasiga qarab kulib qo'ydi.

– Balki yana bir qo'l shaxmat o'ynarmiz, qo'shni, – Anisimov qiziqsinib polkovnik tomonga qaradi, lekin polkovnik taklifini rad etdi.

– Nega jimb qolding, Igor, – nima uchundir polkovnik g'azablanib ketdi. – Nima, men sendan so'rayapman, nega indamaysan? Ahvoling yaxshimi?

– O'ylayapman, ota, – kichik Xatunsev ko'zlarini yerdan uzib otasiga qaradi, – biroz avval Rodion Gustavovich o'rtaga bir gapni tashlagan edi, shu o'ylantirib qo'ydi, lekin baribir, Rodion Gustavovich, men sizning gaplaringizga qo'shilmayman. Bu xuddi mushukni qaychilashga o'xshaydi, baqirig'i olamni buzadi, lekin yungdan asar ham yo'q. Oladigan rohating tavakkal qilishingga arzimaydi.

– Nima haqida gapirayapsiz, – polkovnik ajablandi, – nimalar deyapsiz o'zi, hech narsaga tushunmayapman.

- Sabr qil, ota, yoshi katta erkakka to‘g‘ridan to‘g‘ri gapirish odobdan emas.
- Ehtiroming uchun rahmat! Nima seningcha men erkak emasmanmi?
- To‘ppa-to‘g‘ri, Stepan Vladimirovich, biz ham aynan erkaklar bilan bo‘lib turadigan holatlar haqida gaplashayotgan edik. Aytaylik bir ayol erkakka ma’qul tushib qoldi, lekin ayolning boshi ochiq emas.
- Bu gapni cho‘zishning nima keragi bor, – polkovnikning avzoyi buzildi. – Hammasi kundek ravshan. Modomiki boshida eri bor ekan – bu mavzuga nuqta qo‘yilishi kerak.
- Otamning bu masalada qarori qat’iy, xuddi uchburchakning uchta qirrasiga o‘xshaydi, – qasam – buyruq va ijro deganlaridek.
- Siz nimalar haqida va’z qilayapsiz o‘zi, esdan og‘dingizmi? Buzuqlik-ku bu!
- Shoshmang, shoshmang endi, agar sevgi otashi xuddi olovday kuydirayotgan bo‘lsa-chi? – Anisimov yana o‘zini diqqat bilan ku-zatib turgan kichik Xatunsevga qaradi, – agar gap bemisl go‘zallik haqida ketayotgan bo‘lsa-chi? Biz qariyalarga tushuntirib ber-chi, Igor, nima qilgan ma’qul?
- Kerak emas, Rodion Gustavovich, bo‘rttirib yubormang. Hamma qatori ayol, faqat ko‘zga yaqin, tan oling, u agar Bryuxanovning xotini bo‘lmanida qayrilib ham qaramagan bo‘lar edingiz.
- Qiziq, qiziq, nimasi bo‘ldi bu?
- Hamma qatori deysanmi? Hammasi sen o‘ylaganingdek oddiy emas, Igor, – Anisimovning ko‘zлari ola-kula bo‘ldi, – u urushda partizanlik qilganidan xabaring bo‘lsa kerak? Yashil qiz... lekin gap bunda emas. U bir yigitni juda qattiq sevgan, josus yigitni... Juda dovyurak yigit edi. Shunaqa sevishishganki, asti qo‘yaverasiz, lekin aynan o‘zi yigitni otib tashlagan.
- Nima deganingiz bu, qanday qilib otib tashlaydi, – so‘radi polkovnik quruqqina qilib.
- To‘pponchadan, albatta. O‘sha yigitcha qandaydir topshiriqni bajarish vaqt qattiq yaralangan va nogiron bo‘lib qolgan, inson bolasi toqat qilishi mumkin bo‘lman og‘riqlarni boshidan kechirgan, shuning uchun qiz o‘zi bilan to‘pponcha olib borgan va uni otgan,

busiz ham hech qancha yashamas edi, balki ikki-uch soat, balki bir kun, – Anisimov yana nimadir demoqchi bo‘ldi-yu qo‘l siltab qo‘ya qoldi, – haqiqiy sevgi degani manə shunday bo‘ladi, o‘rtoqlar, men sizga aytsam. Lekin bu siz ko‘klarga ko‘targan gumanizmga sira to‘g‘ri kelmaydi. Xo‘s, endi nima deysan?

– Hech narsa, Rodion Gustavovich, nima ham derdim? – Kichik Xatunsev stoldan turdi, – o‘zim yaxshi bilmagan insonlar haqida xulosa chiqarishga haqqim yo‘q.

– Xo‘s, xo‘s, – endi Anisimovning gaplarida ochiq da’vat va shama bor edi. – E’tiboring uchun, senga aql o‘rgatish niyatim yo‘q. Shunchaki senga hayotda hamma narsa bo‘lishi mumkin demoqchi edim. Mo‘jizalar yuz beradi, buni qaysi qonuniyat orqali amalgaloshishiga aqling bovar qilmaydi.

Kichik Xatunsev uning gaplarini odob bilan tingladi, lekin javob qaytarmadi, keyin suhbat mavzusi Moskva safariga ko‘chdi, polkovnik poytaxtdagi o‘zgarishlar haqida so‘radi, Qizil maydonda o‘tkazilgan g‘alaba kunini esladi, tez orada Anisimovning ham safari qaridi, polkovnik uni ostonagacha kuzatib eshikni zanjirladi. Kichik Xatunsev otasiga xayrli tun tilab xonasiga yo‘naldi, polkovnik suhbatni yana davom ettirish ko‘yida og‘iz juftlagan edi, u vaqt allama-hal bo‘lganini, qolaversa, ertasi kuni navbatchilik qilishi kerakligini aytib suhbatga yakun yasadi. Polkovnik ham indamay qo‘ya qoldi.

Issiq yozgi tun cho‘kdi, navbatdagi kun, yana bir kun ummon qa‘ridagi arzimas tomchi kabi yo‘qlikka singib ketdi. Xolmsk osmoniga oy ko‘tarildi. Oy har doimgidek hech kimni, hech narsani o‘z nuridan bebahra qoldirmaydi, ko‘cha-yu hovlilar, dasht-u dala, jarliklarning eng qorong‘i burchaklarigacha kirib boradi. Derazalardan sizib xonaga mo‘ralaydi. Oy nuri jumlayi jahonni bir-biriga bog‘laydi va bir-biridan farqlaydi. Polkovnik o‘z odati bo‘yicha o‘sha daqiqadayoq uyquga ketdi, kichik Xatunsev eshik ortidan uning xurrak ovozini eshitdi. O‘rnidan turib uni yonboshiga yotqizib keldi, qiziq, oldin sira bu ovozdan bezovta bo‘lmagan edi. Deyarli ko‘zi ilinay degan ekan, endi uyqusи qochdi. Oy nuri tushib turgan polda g‘alati soya g‘imirlab o‘tdi.

«G‘alati kecha bo‘ldi, – xomush tortdi u, – juda ahmoqona va quruq, bemaza suhbat, nima haqidadir to‘g‘ri mulohaza yuritish

uchun kechalari uyda kamroq bo‘lish kerakmi deyman. Qariyalar uchun vaqtini valaqlab o‘tkazish tabiiy hol, nega endi men umrimni mana shunday bo‘lmaq‘ur suhbatlarga sarflashim kerak. Undan ko‘ra qariyaga dangal meni Leningraddagi nufuzli shifoxonaga taklif qilishayotganini aytsam bo‘lmasmidi... baribir, bir kun kelib aytishga, ketishga to‘g‘ri keladi. Bunda fojiaviy hech narsa yo‘q, odam boshiga qo‘ngan baxt qushini tutib ola bilishi kerak. Katta shahar, ilm-fan... keyinroq kvartira olinadi, agar qariya xohlasa ko‘chib borishi mumkin. Soch-soqolga oq ilakishmasidan harakat qilib qolish kerak, busiz ham qancha vaqtini yo‘qotdi».

Oy nurlari xonani tark etdi, kichik Xatunsevni mudroq bosdi. Uyqu aralash bo‘lsa-da ertagayoq kerakli maktubni yozish va jo‘natishni qasd qildi, o‘zining qarori haqida o‘ylar ekan, hatto tu shida ham qo‘rqadi, yana bir kor-hol yuz berib hammasi aksiga olishidan, yo‘lini yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqadi. Tongda osmonda oy qalqib turgan kimsasiz shaharda uyg‘ondi, lekin bu shahar sira Xolmskga o‘xshamaydi. U huvullagan ko‘chalarni kezdi, xiyobon-maydonlar ni aylandi, ko‘priklardan o‘tdi, eng qizig‘i qayerga bormasin, ulkan, qizg‘ish oy o‘ng tomonida turib unga hamrohlik qilar edi.

Bu uyg‘onish ham tushining bir parchasi bo‘lib, Xatunsev tushida ham hayratga tushdi. Rosmana uyg‘ongach bugun qarorini amalga oshirishga jiddiy ahd qildi. Uzun yo‘lakdan borar ekan yo‘lidan chiqib qolgan Alyonka bilan quyuq salomlashdi, yodiga kecha Anisimov aytgan gaplar tushdi, unga mulozamat bilan yo‘l berib o‘zi yo‘lakning orqa qismiga qaytdi. Shu kungacha davom etgan kuzatuv va taxminiy fikrlar o‘z nihoyasiga yetdi, har gal bu ayolni ko‘rganida uyg‘onadigan o‘ng‘aysizlik hissining sababi ma’lum bo‘ldi. «Hammasi juda oddiy, – dedi u xotirjamlik bilan, endi unga kechagi bema’ni tun ham juda o‘rinli va zaruriy hodisa bo‘lgandek tuyulmoqda edi. – Birinchi taassurot uni aldamadi, unda hammasi bor, aql, ko‘rkam ko‘rinish, balki, imkoniyat ham... va shu paytga cha unga tinchlik bermaydigan his, tuyg‘u, – Xatunsev yelka qisdi, – bunday ayollar o‘z tabiatidan uzoqlashish yo‘llarini qidiradilar, ilm, siyosat, gazetalar uchun she‘r yozishadi... hammasi joyida, hammasi to‘g‘ri... Yangi hayotning ilg‘or quruvchilaridan biri qariya Anisimov buni odatiy hol deb hisoblaydi, hatto bunda jozibadorlikni

ko'radi, lekin bunisi uning shaxsiy ishi. Lekin bir narsani tan olish kerak: hech qanday mo'jiza yuz bermaydi, hatto tasodifan ham».

Kichik Xatunsev ertalabki ko'rik oldidan fikrlarini tartibga solar ekan tunda uning xonasida mehmon bo'lgan oy Anisimovning xonasida ham mehmon bo'lganini, bu inson ham yotog'iga cho'zilishdan oldin kun sarhisobi uchun ikki-uch daqqa ajratib bo'lib o'tgan voqealar, xususan, Xatunsevlarnikida bo'lib o'tgan suhbatdan biroz ko'ngli bezovta bo'lganini xayoliga ham keltirmas edi. Devordagi gulqog'ozlarni tomosha qilar ekan, ancha-muncha keraksiz gaplarni valdirab qo'ygandek, o'ziga daxlsiz masalalarga aralashgandek tuyldi. Qaytib bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik kerak.

Oynavand eshik ortida maktab taraddudini ko'rayotgan Yelizavetta Andreyevna va Shurochka ko'rindi. Ular har doimgidek pichirlashib, mayin ovozda gaplashishmoqda, lekin Anisimovning ishonchi komil, hozir ular uni ko'rishlari bilan suhbat mavzusini o'zgartirishdi. Juda g'alati, bu xuddi ko'ngil yaqinligiga o'xshaydi, ular bir-birlarini so'zsiz tushunishadi, nima uchundir bu holat Anisimovning g'ashiga tega boshladi, shu chog'gacha qo'lidan nimi kelsa, hammasini qildi, o'yinchoq, konfetlar sotib oldi, ozor berishi mumkin bo'lgan gap gapirib qo'yishdan o'zini tiydi, lekin hech narsaga erisha olmadi. Xotini qizcha bilan yaqin munosabat o'rnatishiga xalaqit berayapti, doim ularning orasiga suquladi, devor bo'ladi, lekin nima, nima uchun?

Biroz kutib turdi-da, ustiga kiyim ilib yo'lakka chiqdi.

— Ha, gapdonlar, xayrli tong, salom, Shurochka, — dedi u o'ta muloyimlik bilan, — bugun qancha darsing bor?

— To'rt ta, Rodya amaki, — dedi Shurochka dona-dona qilib.

— Shurochka, sen Rodya amaking bilan salomlashishni unutib qo'yding, — dedi Yelizavetta Andreyevna erining yuz ifodasiga sinchiklab tikilar ekan, u qo'lidan kelgancha uydagi muvozanatni ushlab turishga harakat qilayotgan edi.

— Salom, Rodya amaki, — dedi Shurochka ko'zlarini yerdan uzmay.

Anisimov qizchaning boshini siladi, qiz uning qo'lidan seskanib ketganini ko'rib hayron qoldi, lekin bu jimit jussa boshidan qanday kunlarni o'tkazganini yaxshi biladi.

— Boraqolinglar, boraqolinglar, — shoshiltirdi u, — bu ketishda kech qolasiz.

Kasalxona shovqini tinganiga ancha bo'ldi, to'shamasi yaraqlatib artilgan nimqorong'i yo'laklarda sokin tun hukm suradi. Kundalik muolaja va ko'rik tugagan, bemorlar xonasida o'z yumushlari bilan shug'ullanadi, bir amallab tong ottirish kerak, axir. Alyonka so'nggi bemorga oid qog'ozlarni to'ldirar ekan, muolaja to'g'ri belgilanganini yana bir marta ko'zdan kechirdi. Aftidan bugungi ishlar nihoya-siga yetgan edi, endi uyga ketsa ham bo'ladi. Juda g'alati hissiyot, lekin sira uyga qaytgisi kelmaydi, o'zi ham o'z holatidan tashvishda barcha vositalarni ishga solib, o'zini o'zi qattiq tergov qilishi kerak. Nega xohlamaydi, uyda nima o'zgardi? Chunki hozir u shu yerda, jur'atsizlik bilan dedi u, shu kasalxonaning narigi qanotida, qaysidir bir xonada o'tiribdi, agar juda xohlasa borib ko'rishi mumkin, xuddi yo'lakda ko'zлari ko'zlariga to'qnash kelgan kun kabi... lekin buning iloji yo'q, o'kindi u, hatto buni o'yash ham ayol kishining sha'niga dog' tushiradi, ayol uchun sharmandalik bu. O'y-xayollarini bir tizinginga solishga harakat qilar ekan, stol ustiga tomgan kichik qora dog'ga tikilib qoldi.

Keyin shaht bilan o'rnidan turdi, narsalarini apil-tapil kichkina jomadonchaga sola boshladi, kichkina metall bolg'achani ham soldi, yana bolg'achani qo'liga olib o'z odati bo'yicha sopidan ushlab kaftiga yengil-yengil zarbalar berdi, qiziq, bu insonni o'ylaganida ko'nglidan yana nimalar kechadi? Buni qanday o'ziga ep ko'rди? Yoshroq yigitni o'ziga rom qilmoqchimi? Naqd kul qiladigan olovku bu.

Keyin bir soniya ham o'ylab o'tirmay o'zini liftga urdi, liftdan tushib kimsasiz yo'lak bo'ylab tez-tez qadam tashladi, go'yoki bu ishi bilan tasodify uchrashuvning oldini olgandek edi, bu xayol unga biroz bo'lsa-da taskin ham berdi. «Ahmoq xotin» o'zini o'zi koyishda davom etdi u, bu ishingni kim ham ma'qullardi. Bryuxanov har doim unga yetarlicha erkinlik bergen, agar bu gapning bir uchini bo'lsin eshitsa bormi, naqd ko'chada qolasan, u hozir sening ko'nglingdan o'tayotgan xayollarini tasavvur ham qilib ko'rmagandir. U har doim xiyonat emas, uning inson ko'nglida qoldiradigan ayanchli iztirobi yomon bo'ladi deydi, u insonni yo baxtsiz qiladi.

Alyonkaning yonoqlari yanada qizara boshladi, qadamini bundan-da jadallashtirdi, gap Bryuxanovga ulanishi bilan masala hal bo‘ldi qoldi. Bu inson Alyonkani bir umrlik tirikchilik tashvishidan ozod qilib qo‘ygan, shunchaki butun dunyoni sevimli rafiqasining poyiga tashladi, shu inson tufayli pichog‘i moy ustida... Institut, uy xizmatchisi, mana endi ordinatura, eng oldi shifoxonadan ish... u onasiga o‘xshab och bolalarini boqish uchun ertalabdan kechgacha chirk bosgan cho‘chqaxonada izg‘igani yo‘q yoki Avdotya buvisi kabi ochlikdan shishib ketsa ham oxirgi burda nonini nevaralarining og‘ziga tutgani yo‘q, balki shunaqa hayotni ko‘rganida bugungidek bo‘limg‘ur xayollarga berilmasmidi.

Temiryo‘l uzra chayqalayotgan tramvayga qo‘shilib chayqalar ekan, nima uchundir turli o‘rindiqlarni egallab o‘tirgan tun-gi yo‘lovchilar u tomonga boshini burib qarayotgandek tuyuldi. Plashching ichiga burkanib eng oxirgi qatordagi o‘rindiqqa borib o‘tirdi, tramvay oynasidan qorong‘i ko‘chaga tikilar ekan yana o‘sha savol yuragini ezdi: nega endi, nima uchun bunchalar baxtiqarolik? Shu paytgacha yuragidan nimadir uzilib tushayotganga o‘xshasa, uning aybi nima? Hali-hanuz boshqa obkom ishchilarining rafiqalari bilan til topisha olmaydi, ularni bir ko‘rsangiz edi, sipo, o‘ziga ishonchi baland, o‘zlarini jamiyatning kibor qatlami sifatida bilishadi. Alyonka ularning doirasidagi oq qarg‘aga o‘xshaydi. Lekin ikkinchi tomondan endi u kap-katta xotin, uning qizi va jonidan ortiq ko‘radigan turmush o‘rtog‘i bor, bitta katta uyning bekasi, ko‘ngilga chaqirilmagan mehmonni kiritishning o‘rni emas.

Alyonka o‘zining devorlari och yashil rangga bo‘yalgan kichki-na stol lapmasi qo‘yilgan Ksenianing xonasida turganini tasavvur qildi, Kseniya uyqu oldidan barcha o‘yinchoqlarini gilamcha ustiga tizib birma-bir g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi, ayniqla yo‘lbarscha Zikaga mehri boshqacha. U kirib borishi bilan Kseniya quchog‘iga otlishini, uni avaylab krovatiga solib qo‘yishini, qizchaning entikib oladigan nafasini va yelkalaridan sirpanib tushadigan jajji qo‘llarini tasavvur qildi. Xayolga berilib o‘zining bekatiga yetib kelganini ham bilmay qoldi, bazo‘r tramvaydan tushib qolishga ulgurdi. Uy tomonga yo‘nalgan yo‘lak boshiga tushdi. Mana dedi o‘ziga o‘zi, endi ancha xotirjamsan, hech narsa yo‘q, hammasini o‘ylab ko‘rding,

hammasi yaxshi, Bryuxanov senga nimaniki ravo ko'rgan bo'lsa, hammasi yaxshilikka. Bir-biriga nimaniki, in'om qilgan bo'lsa, bu taqdirning tuhfasi. Bordi-yu shunday ish bo'ladigan bo'lsa, uning holi nima kechadi? Keyin bir-birlarining ko'zlariga qanday qarashadi? Mana uy oldidagi tanish teraklar chayqaladi, ular Kseniya bilan bab-barobar o'smoqda, xuddi unga o'xshagan tetik. Qalpoqchasiga tasma qadalgan dengiz piyoda askari Alyonkaning izidan ergashayotgan edi, lekin chiroqlar bilan yoritilgan hashamatli obkom sekretarining uyini ko'rishi bilan yo'lning narigi betiga o'tib ko'zdan g'oyib bo'ldi, Alyonka qattiq kulib yubordi, lekin shu zahoti to'xtab qoldi, yuragida sadosiz og'riq turdi. Yo Tangrim, xayolidan kechirdi u hayron bo'lib, nimaga ayol kishi bunday yaratilgan? U urushda ko'rgan-kechirganlardan so'ng butun umrini insonlarning mushkulini oson qilishga bag'ishlashga qasamyod qilgan. Mana endi senga, qayerdan keldi bu bemaza ish? Ha, ha, hammasi juda oddiy, xo'sh, hozir yo'lning narigi betida Alyoshka Sokolsev paydo bo'lib uni o'zi tomonga chaqira boshlasa nima bo'ladi? Bir daqiqa bo'lsin, o'ylab ham o'tirmaydi, shartta to'rtinch qavatdan o'zini uning qo'llariga otgan bo'lar edi... lekin endi u hech qachon ko'chaning narigi yuzida paydo bo'la olmaydi, shuuridan o'tgan fikrdan yuragi siqildi.

Bryuxanov har kungi odatidan farqli ravishda uyg'a erta qaytibdi, Timofeyevna allaqachon Kseniyani uxlatib bo'libdi, karovat oldida chiroq nurida kichkina munchoq ko'zları porlayotgan yo'lbarscha Zika turibdi.

– Qayerlarda qolib ketding, Alyonka, – Bryuxanov uni ko'rishi bilan gap boshladi. – Ertaga Zejskka ketayapman, kiritilgan sarmoyani yana ko'paytirishmoqchi, misli ko'rilmagan ishlar bo'layapti o'ziyam. Mutaxassislarning butun boshli armiyasi yo'lga chiqqan, yana qanaqa mutaxassislar degin, o'z ishining ustalari. Sen ham ishingni Zejskka ko'chirsang bo'lar ekan. Endi hammasini qanday uddalaymiz? Ikkalasini qo'shib yuborishning sira iloji yo'q. Chubarev qo'ng'iroq qildi, yonib yotibdi...

– Shoshma, Tixon, men yuvinib chiqay.

– Chubarev ajoyib g'oyani o'rtaga tashladi – zavod qoshida institut ochish g'oyasi, o'zimizga o'zimiz kadr tayyorlaymiz, hamma masalaga Moskvaga chopavermagan bo'lar edik, – Bryuxanov

gapga berilib ketdi, Alyonka o'zini epaqaga keltirib olguncha kir solinadigan qutining ustiga o'tirib oldi, egniga yangi kostum kiyib olgan, shu turishida barcha qo'rquv va ikkilanishlarini bir tomonga surib qo'ygandek ko'rinar edi.

– Tixon, hozir qutini sindirasan, bu nima qiliq? Yana uyda kostumda yuribsan, – dakki berdi u, – borib kiyimlaringni almashtir, iltimos!

– O'zingda emassan, nimadir bo'lidi? – so'radi u.

– Mutlaqo hech narsa, shunchaki sening toqat qilib bo'lmas odatlaring bor. Deyarli butun kun ko'rishmadik, kelishim bilan yana ishing haqida gap boshlaysan, bundan boshqa gap yo'q, – jilmaydi u. – Institut, zavod, qanaqadir mutaxassislar... qachon biz ham oddiy odamlarga o'xshab bamaylixotir yashar ekanmiz?

– Mana shu haqiqiy hayot, bundan boshqasi yo'q, bo'lmaydi ham. Seni Chubarevga topshirsak bo'lar ekan, u senga yaxshi hayotni tashkil qilib berarmidi. Dinamitli bochka bilan. Anarxist! Lekin qoyilmaqom anarchist! – allaqachon tomog'iga pichoq tirab bo'lishdi, lekin uni faqatgina Moskva orqali daf qilish mumkin. Vazifa... ishda yangi, darrov ustidan shikoyat qila boshlashgan, orasida moskvalik, mahalliy maslahatgo'ylar ham bor, baribir, senga nimadir bo'lgan, Alyonka, – dedi u sochiqni uzatar ekan.

– Albatta, xira oynada kampir ham qiyshiq bo'ladi, – Alyonkaning nigohlarida g'azab uchqunladi, – Loyihalar, olamshumul g'oyalar... tumshug'ingning tagida nimalar sodir bo'layotganiga yaxshiroq qara, qaysi tomonga qarama ochlik, men tumandagi tekshiruvlarda qatnashdim, hammasini o'z ko'zim bilan ko'rdim... ahvollari ayanchli, Tixon, juda ko'p ichishadi, bu kelajakka qilinayotgan ochiq xiyonat, ayollar aroqxo'r erkakning naslini ko'paytirishadi, bunday bolalar ham bir kuni shu dardga mubtalo bo'ladi. Bu borib turgan ijtimoiy jinoyat. Men Amerika ochayotganim yo'q, tumanning statistik ma'lumotlarini mendan yaxshi bilsan, bu haqida atrofga jar solish kerak. Yana nima istaysizlar? Bir dunyo zavqmi?

– Kim bo'ldi u «sizlar» deganing, – so'radi Bryuxanov sovuq ohangda.

– Birinchi navbatda o'zing, barcha korchalonlaring.

– Xo'sh, yangi nimadir jaranglagandek tuyuldi... yaxshi... demak, sen bu xalq aroqxo'rlik qilib, halokat yoqasiga borib qolgan degan ayblov e'lon qilmoqchisan shundaymi? Unda shuncha mehnatni kim qilayapti? Kim nemislardan keyin mamlakatni oyoqqa turg'izdi, ikki oyog'ingni bir etikka tiqib olgan sen bo'lasan... xalq seni tushunmaydi.

– Nima uning nomidan gapirishga vakolatim bor deb hisoblaysanmi? – bilishimcha sen ham uning nomidan gapirishga vakolatl emassan...

– Havas qilsang arziydi... o'ziga ishongan, xotirjam. Lekin bir jihatga tushunmayman: Nimaga oddiy xalqning turush-turmushini jilla qursa biroz yaxshilaydigan g'oyalar o'ylamaysan. Na Moskva-dan biron taqiq, na...

– Bilasanmi, Alena, ana edni bunisi demogogiya hisoblanadi, – Bryuxanovning avzoyi o'zgardi, orqa o'girib o'zining ishxonasi tomon ketdi. Alyonka bir stakan muzday sut ichib oldi, ancha hovuridan tushdi. Keyin Bryuxanovning ortidan ergashdi, boshini xiyol oldinga cho'zib erining darg'azab yuzini ko'rdi.

– Yo'q, sen menga javob ber, qachongacha xalqni holdan toldirish mumkin, Lukaryani, Nyurka bilan Bobokni, Kudelinlarni? Qancha? – so'radi u ovoz ohangini yumshatishga urinib, – Qachon bo'lmasin ularga ham nafas olishga imkon berish kerak. Kechirasani, Tixon, sen xalqni ummuman bilmaysan, sevmaysan, u siz uchun oddiy bir loy, aralash axlat, quyosh chiqadi, ishga borasiz, quyosh botadi, uyga qaytasiz, shunchaki borib kelaverasiz.

– Xo'sh, xo'sh, xo'sh, marhamat, oxiriga yetkazishing mumkin, bajoni dil eshitaman, – Bryuxanov xo'mraygan yuz ifodasini o'zgartirmay jovondan bir kitobni oldi, ilgari ham shunga o'xhash mavzularda tortishuvlar bo'lib turgan, Alyonka unga nisbatan o'ta adolatsizlik qilayotgan bo'lsa-da, Bryuxanov o'zini bosdi, haddan ortiq qizishib ketmadi. Chunki bu uning gaplari emas, og'riqli nuqtalari. «Mayli, gapirib olsin» deya ko'nglidan kechirdi u, xuddi xotinini jon qulog'i bilan tinglayotgandek temulib o'tiraverdi, Alyonka jon kuydirib tinimsiz gapirardi, lekin u hech qachon Bryuxanovning ichidan o'tganlarini, unga nimalar

ma'lumligini bila olmaydi, tushunmaydi. Uning uchun barchasi og'zidan chiqayotganlari kabi oson... Oblast o'tgan yili g'alla rejasini bajara olmadi, kolxozda ozgina bo'lsada bug'doy qoldirish uchun chakana kuch ketmadi. U' hech qachon Lukatov kabi ish-chilarning xizmatlarini qadrini tushunmaydi. Bu odam bir necha marotaba Moskvada kechgan norasmiy safarlarida oblast qishloq xo'jaligi uchun g'oyat muhim bo'lgan kelishuvlarga erishdi, lekin hech kim uni bilmaydi, na biron hujjatda nomi qoldi, na biron inson qilgan ishlarini bildi.

— Mayli, Yelena Zaxarovna, keling, ovqatlanib, keyin uxlaymiz, — dedi u, — ertaga Fedotich ertalabki oltida olishga keladi.

Alyonka gapga qattiq berilib ketgan edi, shuning uchun ham joyidan bir qadam ham jilmadi.

— Bilasanmi, Tixon, menimcha, inson zimmasidagi vazifasini uddalay olmasa, yaxshisi, o'rmini bo'shatib qo'yishi kerak... balki, uning o'rmini dadilroq, qat'iyatlroq odam egallar.

— Agar dadilroq, qat'iyatlroq odam kelmasa-chi, aksi bo'lsa-chi? Kim kafolat beradi? — Bryuxanov yana Lukatovni esladi, uning to'rburchak, istarali va xotirjam yuzini, doim yuzida zuhur qilib turadigani nimtabassumni esladi.

— Kafolat yo'q, Tixon. Hech kim senga o'z o'rmini bermaydi. O'z navbatida sen ham hech qachon bunday qadam tashlashga jur'at qila olmaysan, — ovozida achinish ohangi paydo bo'ldi, — hammasi quruq gap.

— Nima uchun?

— Sen epitet shaxsiyatli insonlar sirasiga kirasan... bir daqiqa, bir daqiqa, tushuntirib beraman, — Alyonka sigaret qutisidan bir dona sigaretni sug'urib oldi, uni barmoqlari orasida aylantirib o'ynadi. — Bu odamlar amalsiz, buyruq bermay turib yashay olmaydilar. Bu ularning tabiatiga xos. Ko'pchiligi uchun «yaxshilik», «vijdon», «adolat» kabi tushunchalar mavjud emas.

— Shunaqa degin, — dedi Bryuxanov xotiniga yaqinlashar ekan, — unda ular uchun qaysi tushunchalar mavjud ekan-a?

— «Kerak» tushunchasi... mana ularning xulq-atvori.

— Xo'sh, xonimning o'zлari-chi, — Bryuxanov nihoyatda xotirjam qiyofada edi, — sen o'zing qanday insonlar sirasiga kirasan?

— Men, azizim, psixosteniklar sirasiga kiraman, psixostenik bo‘lganda ham eng ashaddiy psixostenik. Men bir umr o‘zimning jinlarim bilan kurashib, o‘zimni o‘zim yeb o‘taman, mendan ko‘nglingizni to‘q qilsangiz bo‘ladi.

— Bo‘ladi, — Bryuxanov qo‘llarini uning yelkasiga qo‘ydi, — qachon ular seni mavh etishsa, haligi jinlaringni aytayapman, qo‘ng‘iroq qilishni unutma, bilasanmi, men ularni idish bilan...

Alyonka boshini kreslo suyanchig‘iga qo‘yib zo‘raki tabassum qildi.

— Nima, Bryuxanov, — dedi, — chiday olamiz deb o‘ylaysanmi?

— Kel, Alyonka, ovqatlanaylik, — dedi u, — Timofeyevna ham qarab qoldi, qolaversa, qiladigan ishlarim bor.

— Mendar ranjidingga?

— Yo‘q.

— Odamning o‘z uyi bo‘lgani qanday yaxshi.

Alyonka uning qo‘llaridan tutib o‘rnidan turdi, ikkisi ham yuzaga kelgan bahsni janjalga aylantirib yubormaslik uchun shu yerda to‘xtash lozimligini ichki bir ishonch bilan tushunib olishdi. Bryuxanov bir necha marta Timofeyevnaga hazillashib kulishdi, Nikolay bilan talabalik hayoti haqida berilib suhbatlashdi, ovqatdan so‘ng Nikolay bilan bir qo‘l shaxmat o‘ynashga kelishib olishdi. Shu vajdan uning ish xonasiga kirishdi. Nikolay ham, Bryuxanov ham shaxmat ustida ortiqcha gaplashishni yoqtirishmaydi, deyarli, bir-birlarini bezovta ham qilishmaydi. Kichkina doira shaklidagi stolga lapma yorug‘lik tushirib turadi. Nikolay o‘z donachalarini juda tez suradi, u hech qachon yurish uyuşhtirish uchun ortiqcha vaqt sarflamaydi. Bryuxanov Nikolayning raqibini boshi berk ko‘chaga tiqib qo‘yadigan usullarini yaxshi biladi, shuning uchun bir zum bo‘lsin uning qo‘llarini ko‘zdan qochirmaydi, birinchi donani surishdanoq o‘zini himoya qilish haqida reja tuza boshlaydi. Qo‘liga papirosnli olib chuqur tortadi, baribir har gal Nikolayning mahoratiga qoyil qoladi, hozir ham uning bugungi yurishidan hayratda, lekin buni yi-gitchaga ko‘rsatishni istamaydi. Sir boy bermay o‘pkasini tutundan bo‘shatadi, «xo‘sh, xo‘sh, xo‘sh» deb o‘ziga o‘zi pichirlaydi. Javob yurishini qilishdan oldin yana chuqur-chuqur tortib tamaki chekadi, uzoq vaqt o‘playdi.

Derezani ochib xonaga Alyonka mo'raladi, u allaqachon hamma uqlab bo'lgan degan gumonda eridan xabar olish uchun kelgan edi.

- Yana biroz, xayrli tun, – dedi Bryuxanov taxtadan ko'z uzmay.
- Sening zarur ishlaring bor edi chog'i, – dedi u.

Bryuxanov qo'lidagi ot bilan uzoq o'ylanib qoldi, keyin eshik tomonga qarab bosh irg'ab qo'ydi, Alyonka nojoiz gap gapirganidan pushaymon bo'lgandek eshikni yopib ketdi va nihoyat, u qo'lidagi ot bilan javob yurishini qildi.

– Yaxshilab o'ylab ko'rdingizmi... Tixon Ivanovich, – so'rар ekan Nikolayning yuzida istehzoli tabassum paydo bo'lди.

– Nima demoqchisan, bir shaxmat taxtaga, bir raqibining yuziga tikildi, – hech qanday yomon joyini ko'rmayapman, vahima qilmasang-chi, uka.

- Mening farzinimga qarang, 5D ni ochib qo'ydingiz.
- Nima bo'libdi, – so'radi Bryuxanov, – sen o'sha tomonga yurmoqchimisan?

– Albatta, siz uni olish yoki olmasligingizdan qat'i nazar mening keyingi yurishim ot bilan 6F ga bo'ladi.

Bryuxanov yana taxtaga qaradi, endi taxtadagi manzara mutlaqo o'zgarib ketgan edi, avval boshdan rejalshtirilgan ishonchli himoya va yurish yo'llari parchalanib ketgan edi. Oldida mag'lubiyatga olib boradigan bir necha usul qolgan xolos.

Bryuxanovning yashiringan hayrati sirtiga sizib chiqdi, yana tamakisini tutatib kresloga yastanib oldi.

- Jin ursin, bu miyangning ichida o'zi nima bor, – dedi u, – qandaydir yengib bo'lmas mashina, hech qachon yutib bo'lmaydi.
- Yanami? – shodon ko'zlarini qisib so'radi Nikolay.

Tezda taxta ustidagi donachalarini yig'ib olib qayta terishdi, lekin zum o'tmay Bryuxanov yana o'sha holatga tushib qoldi, tamaki tutatgancha uzoq tanaffus qildi. U yurishini bir marta, ikki marta, uch marta tasavvur qilib ko'rди, hammasi aniq, ipidan ignasigacha hisoblangan, dushmanga hech qanday yo'l va imkoniyat qolmagandek ko'rinar edi, shu turishda yutqizishni-ku sira tasavvuriga sig'dira olmas edi. Lekin Nikolay yangi yurishi ni amalga oshirishi uchun taxtaga bir ko'z qirini tashlashi kifoya

qildi (muddaosi yangi yurishni rejalahtirish emas, shunchaki vaziyatni bilib olish), taxta ustidagi vaziyat shunchalar qaltiski, istalgan lahzada, istalgan katak ustida hammasi chappasidan ketib yonib ketishi mumkin. Ranglar-u raqamlarning bo'linishiga qaramay, har ikki insonning maqsadi bir, chiroyli o'yin ko'rsatish.

– Menga nimadir demoqchimiding? – dedi raqibini oz bo'lsa-da chalq'itishning bolalarga xos eng sodda usulini qo'llab.

– Ha, o'ylab ko'rdim, arzimas gap, – Nikolay navbatdagi yurishini qildi, Bryuxanov uning qo'lidan ko'z uzmasdi, taxtadagi vaziyatni ko'rgach esa chuqur nafas chiqardi.

– Xo'sh... navbatdagi yurish, – u xiyol taxta tomonga egildi, nima uchundir raqibining har doimgidan ham g'amgin, gapso'zga xasis bo'lib qolganini payqadi, agar kechki ovqat vaqtida shu alfozda o'tirsa, tushunish mumkin edi, lekin hozir ham shu ko'rinishda bo'lishi g'alati.

– Shunday bo'lishi aniq, baribir seni yenga olmayman, – Bryuxanov o'rnidan turdi, – kel, undan ko'ra u yoq bu yoqdan gaplashamiz, masalan, sen aytmoqchi bo'lgan gap haqida.

– Arzimaydi, Tixon Ivanovich, arzimas gap, – Nikolay yana asabiylasha boshladi, – gapishtiga kech bo'ldi, lekin Alyonka eshitib qolgudek bo'lsa bormi, chunonan g'azabi toshadiki, to'g'ri, arzimas gap, – o'zining ham aytayotgan gapiga ishonchi orta boshladi, – xuddi tasodifan tilimni tishlab olganga o'xshayman.

– Bilasanmi, Kolya, – shaxmat bu bir bahona, – Bryuxanov uni to'xtatdi, – bu yerda sen bilan raqobatlashadigan hech kim yo'q, sen ham aftidan menga ishonch bildira boshlagan eding.

Nikolay donachalarni bir joyga yig'ar ekan, yuzi o'z-o'zidan qizara boshladi, yana bir amallab suhbatni ortga surmoqchi edi-yu ilojini qila olmadni, keyin universitetda bo'lib o'tgan voqeя, Gustishga yuborilishi kerak bo'lgan pul, aniqrog'i onasiga yuborilishi kerak bo'lgan pul, xullas, bir-biriga ulanmaydigan uzuq-yuluq gaplarni gapira boshladi. Bryuxanov uning sira boshqalarga yorilmaydigan odatidan biroz ranjidi ham.

– Men pul yo'qotdim, Tixon Ivanovich, – yerdan ko'zini uzmay, boshini ham ko'tarmay gapira boshladi, – o'zimniki emas... deyarli, yetti yuz rubl.

- Shoshma. Senga begona pul qayerdan kelib qoldi? – Bryuxanov hayron qoldi, Nikolayning qip-qizil yuziga qiziqsinib tikildi.
- Men kurs sardoriman.
- Xo'sh, keyin nima bo'ldi?
- Pul yig'gan edim. Uni xatjidda saqlar edim, doim portfelimning ichida turardi, bugun ma'ruzada esa...
- Tushunarli, – Bryuxanov unga hamdardlik bildirdi, – agar allaqachon bu mavzuda gap ochilgan bo'lsa... yo'q, yo'q, sen hech kimga aytmasliging ham mumkin, – Nikolayning yuz ifodasi o'zgara boshlaganini ko'rib tezda gapini to'g'rilab oldi. – Hammasi sen o'ylaganingdek emas. Men nega endi onangning oldiga borib o'tirasan demoqchi edim... Bizda pul bor, Alyonkadan istaganingcha olishing mumkin... shu bilan hammasi hal.
- Alyonkadan shunchaki pul olib bo'lmaydi, u har doim meni tergaydi, nuqul tarbiyalagisi keladi, – Nikolay asabiyashib o'rnidan turdi, – xayrli tun, Tixon Ivanovich.
- Demak, bu yetti yuz rublni olmoqchi emassan, – so'radi Bryuxanov umid bilan.
- Yo'q, rahmat, olmayman.
- Nima uchun?
- Unda sizga bu pul nima uchun yig'ilganini ham aytishimga to'g'ri keladi.
- Shart emas, menga qizig'i yo'q, – dedi Bryuxanov battar hayron bo'lib.
- Hamma gap shunda-da, – Nikolay xuddi qo'llidan o'yinchog'i tortib olingan bechorahol boladek qaradi, – men sizga hammasini aytib bera olmayman, shunchaki pulingizni ham ololmayman... shu bilan bu ish tamom.
- Bu nima bema'nilik, – Bryuxanov ham sira bo'sh kelmasdi, – unday qila olmayman, bunday qila olmayman. Quloq sol, Kolya, gap bunday, o'zingni jinnilikka solma. Mana senga pul, shu bilan bu masala hal, – u hamyonidan yetti yuz rublni chiqarib Nikolayga uzatdi,
- Xudo haqi, lozim bo'lмаган ishlar uchun sarflamang... lekin...
- Tixon Ivanovich, oramizda qolishiga va'da berasizmi? – so'radi Nikolay, – hatto opamga ham.
- Xotirjam bo'l, hech kimga aytmayman, qasam ichaman.

– Bilasizmi, kursimizdag'i talabalardan biri...

– Men izoh talab qilayotganim yo'q, – Bryuxanov hozirjavoblik bilan uning gapini kesdi, tabassum qilib, qo'llarini mahkam qisib qo'ydi, – ha, yana oyog'ingni tiramaysanmi?

– Juda yaxshi qiz, aqli, jiddiy, lekin bir mas'uliyatsiz odam bilan osh-qatiq bo'lib qoldi, o'zingiz tushunasiz-ku... Unisi ham bizning talabamiz, mana endi bosim ostida qolib ketdi, bir tomondan institut, bir tomondan kelajak hayoti... Biz u yaramas bilan gaplashib insofga chaqirishga harakat qilib ko'rdik, lekin o'taketgan mazras bo'lib chiqdi... Qiz faqat stipendiyaga kun ko'radi. Yetim, barcha qarindoshlari urush vaqtি halok bo'lgan. Biz stipendiyasi bilan harna bo'lar deb pul yig'gan edik... lekin, bilasizmi, shifokorga ham... tfu, eslagim ham kelmaydi, – Nikolay og'ir nafas oldi.

– Nima? Nima? Nima? – Bryuxanov taajjubini yashirmsadi, – Shifokorga degandek bo'ldingmi? Bola oldirish uchunmi? Lekin nima uchun aynan sen? Boshqa odam, masalan, sal hayotning past-u balandini ko'rgan kattaroq odam shug'ullansa bo'lmaydimi?

– Axir, sizga aytdim-ku, meni kurs sardori qilib saylashgan, – Nikolay toqatsizlana boshladi, – mening o'rnimda boshqa odam bo'lganda allaqachon inkor qilgan bo'larmidi, men ahmoq esa...

– Tarixi shunaqa degin-a, – Bryuxanov xayolga toldi, qo'llarini stol suyanchig'iga tiradi, ko'zlarini bir-biriga to'qnash kelganda ikkisi ham baralla kulib yubordi, keyin pullarni o'rtasidan bukib Nikolayning cho'ntagiga solib qo'ydi. Qo'llarini uning yelkasiga qo'yib eshik oldigacha kuzatib qo'ydi.

– Qo'rqinchli joyi yo'q, hayot o'zi shunaqa, – dedi u, – bunaqa voqealar bo'lib turadi, endi borib o'rningga yot, aks holda opangni savollariga tutilib qolishimiz hech gap emas, boraqol, boraqol, hammasi o'rtamizda qoladi.

Katta og'ir eshik ochildi, Nikolay qorong'i yo'lakda ko'zlarini katta-katta ochgancha devorlarni paypaslab yotoqxonasiga ketdi, Bryuxanov yolg'iz qoldi. Oynalari ochiq turgan deraza pardalarini bir tomonga surdi. Qo'shni ko'chadan tramvayning taraq-turug'i eshitiladi, u tun bag'rini yorib eng so'nggi yo'lovchilarini o'z ulari tomon eltadi. Bryuxanov uning ovoziga qulqoq tutib turdi, ko'z

o'ngida Alyonkaning mutlaqo begona, sovuq, bugungi qiyofasi paydo bo'lidi. Yosh o'rtasidagi tafovut o'z so'zini ayta boshladimikan? Bunaqaga o'xshamaydi yoki u shu paytgacha bunga ahamiyat bermagannikan? To'g'ri, u hech qachon uyda ko'p vaqtini o'tkaza olmaydi, lekin xotini bilan har doim samimi, ochiq bo'lishga harakat qiladi. To'g'ri, har bir insondagi bo'lgani kabi uning ham xotini bilan ochiq gaplasha olmaydigan masalalari bor. Lekin bu mavzularning unga qizig'i ham yo'q. Unda shuncha anglashilmovchilik, ruhan begonalik qachon paydo bo'la qoldi.

Balki hammasiga sababchi o'shadir? Bir kuni uning qo'lida Petrovning daftarchalarini ko'rib qolgan edi, keyin bu daftarchada nima yozilganini so'ragandi, rasmiy ariza va ma'lumotlar ekanligini eshitgach qo'l siltab ketgan edi. Balki Alyonkani qiynayotgan narsa hech qachon unga o'z sirlarini ochmaslidir, u aqli ayol, uni aldab bo'lmaydi, buning sira iloji yo'q. Nega u o'zi uchun dunyodagi eng qadrli ayolga ham o'zini so'nggi vaqtlar ezayotgan o'y-xayollar haqida ochilib gapira olmaydi? Sharitta Petrovning hamma daftarlarini oldiga qo'yib «ma, o'zing o'qi, qara oramizda qanaqa odamlar bor» deyish kerak. Hali o'zing bir yoqli bo'lmay turib uni ham o'pqonga giriftor qilmoqchimisan? Nimasи bu? Shu ham aqldanmi? Busiz ham boshi g'ovlab yurgan bo'lsa.

Yoz kechasi sekin-asta xiralasha boshladi.

13

Shunday qilib boshqalardan ruhiy chalkashliklarini ustalik bilan berkita oladigan inson – Bryuxanov tumandagi nochor ahvolga tu-shib qolgan kolxozlarni aylandi, urushgacha eng badavlat sanalgan kolxozlardan biriga bordi. Bu kolxozning raisi ham tanish, u keksa, o'z ta'biri bilan aytganda hamma narsaga loy kechib erishgan odamlardan biri.

Kolxoz mana ikkinchi yildirki g'alla rejasini bajara olgani yo'q. Bryuxanov raisning yuziga bazo'r qaradi, vaziyatdan ranjidi.

– Xo'sh, nima qilamiz endi, Artemyev, – Bryuxanov to'g'ridan-to'g'ri muddaoga ko'chib qo'ya qoldi, Artemyev boshi va yelkalariga qo'ngan quruq barg parchalarini qoqa boshladi, odatda savolga

tayinli javobi bo‘lmanan har qanday rus kishisi o‘zini xuddi shunday tutadi. Kutilmanan mo‘jizadan umid qilib deraza oynasidan tashqa-
riga mo‘raladi.

— Juda yomonmi? — so‘radi Bryuxanov, hamdardlik ohangida. Buni ruhi tushib ketgan odamga dalda berish uchun ham aytdi. Bryuxanov bu savolni nafaqat Artemyevga, xuddi o‘ziga ham bera-yotganga o‘xshar edi. Qanchalar ravshan bo‘lmasin bu qadar yoqim-siz va ko‘ngilsiz haqiqatni sira qabul qilgisi kelmas edi. Artemyev o‘sha alfozda indamay deraza qarshisida turaverdi.

— Modomiki, Andrey Gavrilovich, gaplashadigan gapimiz yo‘q ekan, xo‘jaliklarni aylanib kela qolaylik, — dedi Bryuxanov.

— O‘zingiz aytganingizdek, — nihoyat Artemyev tilga kirdi, u katta go‘shtor kaftlari bilan bosh sahifasida ikkita ayol jilmayib turgan gazeta varaqlarini tekisladi, — bizda yaxshi sut sog‘uvchilar ko‘p, mana gazetada ham chiqishgan, — qo‘lidagi gazetaga boshi bilan ishora qildi, — Pasha Maleyeva bilan Sofya Trofimovna Volo-buyeva, o‘tgan yili har biri uch yarim ming litrdan sut sog‘gan. Biz ham yashayapmiz, ishlayapmiz, xatlarni imzolayapmiz, aftidan hammasi joyiga tushib ketadi...

— Dalaga boramizmi, Andrey Gavrilovich, — Bryuxanov gapda davom etdi, Artemyev horg‘in bosh chayqab gapini ma’qulladi, qo‘lidagi gazetani avaylab stol ustidagi qutichaga solib qo‘ydi, keyin chuqur nafas oldi.

Fedotich ularni uch kilometr uzoqlikdagi dalaga eltid qo‘ydi, ikkalalari bamaylixotir gaplashib olishlari uchun haydovchiga javob berib yubordi, biroq Artemyev bilan ochiq muloqot qilish nihoyatda mushkul bo‘ldi. U xuddi avvalgidek miq etmasdan Bryuxanovning ortidan ergashardi. Erta bahorgi bug‘doy allaqachon o‘rib olingan, undan qolgan somon esa g‘aramlab ustma-ust terilgan. Uzoqlardan pichan ortilgan aravaning g‘ichirlashi eshitiladi. Bryuxanov biroz to‘xtab atrofni tomosha qildi: atrof sokin, lekin ko‘ngilni xijil qiladi-gan nimadir borga o‘xshaydi.

— Tabiatimiz g‘oyat go‘zal, Andrey Gavrilovich, — dedi u, Artemyev ham ma’qullab ko‘zlarini qisib qaradi, biroz o‘tib aravaning o‘zi ham, g‘ichirlagan ovozi ham g‘oyib bo‘ldi. Uzoqdan, ikki kilo-

metrlar naridan ikkita odam sharpasi ko'zga chalina boshladi, ular jarlik yoqalab yurib qayinzor ichiga kirib ketishdi. Osmomonning bir uchi tiniq, ikkinchi uchida esa pag'a-pag'a oppoq bulutlar suzib yuribdi.

— Bolalar boshoq yig'gani keladi, o'rmondan o'tib bo'lmaydi, shunga jar yoqalab kelishadi, quyosh botguncha uylariga sakkiz-o'n pud atrofida boshoq yig'ib qo'yishadi.

Bryuxanov ham qayinzor tomonga qaradi. Lekin hamsuhbatidan farqli ravishda na achinish, na iztirobni his qilmadi. Kamgap bu inson shu ikki og'iz so'zi bilan ham o'zining eng og'riqli nuqtasini ko'rsatmoqchi bo'layotgan edi.

— Qorovul ham ularni haydab yubormaydi, u ham shu yerda fagaqt dalaning boshqa tomonida, — qo'shib qo'ydi Artemeyev.

— Ancha jahldor kishi ko'rinasiz, Andrey Gavrilovich, — dedi Bryuxanov, keyin suhbatdoshining yuziga qaradi, Artemeyevning kulrang ko'zlaridan o't chiqib ketdi.

— Balki, badjahldirman, — Bryuxanovning gapini ma'qulladi, — Dargumon, Tixon Ivanovich. Mana keldingiz, hammasini o'z ko'zingiz bilan ko'rdingiz, ponani pona bilan surib chiqarishadi, bu odam boshidan beri miq etmayapti deyotgandirsiz. Jimman, chunki haqiqat sizniki, sizga aytadigan tayinli gapim yo'qligi uchun ham jimman. Siz bizdan holimizga shifo bo'ladigan dori kutayapsiz, lekin bu yerda, bizda u yo'q, shuning uchun ham jimman. Balki endi paydo bo'lar, biz ular tug'iladigan joylarni yo'qotdik, na o'rmonda, na dalada, na o'tloqda... balki qayerlardadir shunday joylar bordir, lekin bizdagilari allaqachon barbod bo'lgan, Tixon Ivanovich.

— Chin yurakdan hamdardman, Andrey Gavrilovich.

— Ko'rib turibman... Faqat mening ko'nglimda kichkina bir bosh boshoq ham qolmadi. Qanday aytayotgan bo'lsam, aynan shunday. Kurrayi zamindagi eng og'ir holat, Tixon Ivanovich. Hatto aravani tortishga ham madorlari yo'q, hammasiga tupurib qo'yishgan. Qachon hammasi shu holatga tushib qoldi, aqlim bovar qilmaydi, men o'qimishli odam emasman, faqatgina bir haqiqatni bilaman, uni sira o'zgartirib bo'lmaydi. Hammayoq vayrona... dahshat...

Ancha vaqt suhbatlashib yayov yurishdi, Bryuxanov Artemyevning gaplarini diqqat bilan tingladi, sira Artemyev aytayotgan gaplarga, keltirayotgan dalillarining haqqoniyligiga ishongisi kelmasdi.

— Moliyachi inspekrotlar, go'sht bo'yicha agentlar, — dedi Artemyev kalta barmoqlarini bukib o'ynar ekan, — qayoqqa qarayapti o'zi? Odamlar yillab hech narsa olmasa, go'sht rejasini qayerdan to'ldirsin? Bunaqa ishchilar yana qayerda bor ekan-a? Tovuq tugul o'zini boqishga hech vaqosi yo'q-ku. Qanaqa tuxum? Qanaqa go'sht? Nima o'zinikini kesib bersinmi? Shunday qilgan taqdirda ham quruq suyak bilan po'stdan bo'lak hech narsa chiqmasa kerak?

Taxminan ellik besh yoshni qoralab qo'ygan, o'rta bo'yli, qotmadan kelgan, ko'zлari asabiy qisilgan bu odam Bryuxanovning yashirinchha roziligi va sukutidan foydalanib barcha muammolarini to'kib soldi. Bryuxanov o'zining mulohazalari, fikrlari va kuzatuvlariga yakun yasash uchun ham bu yerga kelgan edi, lekin ko'rrib turibdiki, hozir o'zini shuncha muammoning sababini va yechimini hal qilishga ojizdek his qildi. Artemyev gapishtida davom etar ekan o'z musibatining qiyofasini bir soat avvalgidan-da ochiqroq, beshafqatlik bilan olib tashlamoqda edi. Yer adoyi tamom bo'ldi, uning odamlar bilan asrlar davomida mushtarak bo'lib kelgan aloqalari uzildi, hozir birin-ketin e'tirozlarni qalashtirib tashlayotgan bu odam mutlaqo haq edi. Haqiqatdan ham, juda og'ir va murakkab jarayon boshlandi, uni oldingi holiga faqatgina juda katta qudrat, inqilob bilan qaytarish mumkin, ana shunda uning mustahkam ildizlari tagtomiri bilan qo'porilib ketmaydi.

Bryuxanov yana yolg'iz qolishni istadi aniqrog'i yana o'z xayollarini bilan bo'lishni xohladi, shuning uchun ham qishloqqa qaytdi. Shu payt gilos shoxlari orasidan yugurib kelayotgan to'qqiz yoshlar atrofidagi bolaga ko'zi tushdi, uning ortidan bir ayol ham baqirib yugurib kelayotgan edi. Bola axiri yiqilib tushdi, ayol uning ustiga chiqib sindirib olgan gilos navdasi bilan savalay ketdi. Bola bir amallab, tipirchilab uning changalidan qochib jon-jahdi bilan yugurdi, ayol ham yig'lab baqirganicha orqasidan quva boshladi. Bryuxanov yugurib borib ayolning qo'lidagi xivchinga yopishdi, ayol ham jaza-va ustida uni o'ziga torta boshladi, ayol shiddat bilan bir tortgan edi,

Bryuxanovning qo‘lidagi xivchinning uchi terisini shilib, yashinday uchib shilib ketdi. Bryuxanovning kafti lovullay boshladi. Ayolning tishlari asabiy g‘ijirlab ketdi, xivchinni boshqa qo‘liga olib atrofga olazarak alanglay boshladi, uzoqda, dala tomonga chopib ketayotgan bolani ko‘rib og‘ir xo‘rsindi.

– Buning uchun sizni javobgarlikka tortishlari mumkin, nimalar qilayapsiz o‘zi, – Bryuxanov boshini chayqadi.

– Sening nima ishing bor? – ayol to‘zib ketgan sochlarni ro‘moli tagiga bosdi, uning qo‘llari hamon qaltirardi, – sen meni sud bilan qo‘rqita olmaysan, – ayol asabiy bosh chaydi, keyin qishloq tomonga o‘girilib keta boshladi, Bryuxanov uni ushlab oldi, – jin ursin hammasini, – dedi ayol to‘satdan, – qayerga yashirma topib olib yamlamay yutadi-ya... uyda yana ikkitasi bor, ertalabdan kechgacha yeyman deydi, tushlikka bir bo‘lak non olib qo‘ygandim, birpas ko‘zim ilinibdi... kimdan bunyod bo‘lgan bu shayton, – ayolning qo‘llari bo‘shashib pastga tushdi, Bryuxanov boshini quyi egdi, endi u ayolning ko‘zlariga tik qarashga jur’at qila olmasdi. Hozir hamyonida puli bor, birinchi qilgan ishi unga qo‘l cho‘zish bo‘ldi, lekin yana qo‘lini orqasiga qaytarib oldi.

– Bunda hech kimning aybi yo‘q, – dedi u sokin ovozda, – fagaqt sabr qilish kerak, hammasi joyida bo‘ladi, hammasi o‘z o‘rniga tushadi, Sovet hukumatining irodasi...

– O‘zimizniki, o‘zimizniki, nima o‘zimizniki?

– Kim bilan gaplashayotganingizni bilasizmi? – so‘radi Bryuxanov.

– Qanaqasiga? O‘tgan yili portretini ko‘rganman, ovoz bergaman, – ayolning ko‘zлari suzilib ketdi. – Rahmat, o‘rtoq deputat, a’lo hayot uchun chin ko‘ngildan rahmat, – Bryuxanovga yengil ta’zim qildi, keyin o‘zini daraxt panasiga olib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi, hammasi juda tez sodir bo‘lgani uchun Bryuxanov biron so‘z aytishga ham ulgurmadi.

Ayolning xuddi o‘g‘liniki singari g‘azab sachragan yuzi, butun oila tushligini yeb x‘yan bolaning yugurib qochishi ko‘z oldida muhrlanib qoldi. Kulbalar, loy sachratib oshiqayotgan mashina g‘ildiraklarini tomosha qilib uzoq vaqt sayr qildi, tomorqa oldiga to‘sinqqa bog‘langan ikki bosh buzoqcha oldiga kelganda to‘xtab

goldi. Ulardan biri uzala tushib yotibdi, ikkinchisi esa uning ar-qonidan tishlab tortib turishga undayapti, hozir bu huvullagan ko‘chaga jon kiritib turgan yagona mavjudot shu buzoqchalar edi aslida. Ularga tikilar ekan Bryuxanovning esiga ikki yil oldingi voqeа tushdi. O‘sha kuni, karta o‘yinlari bekor qilingan kechada jo‘shqin hayot ufurayotgan shahar bo‘ylab do‘kon aylangani chiq-qan, o‘shanda sira o‘zida bo‘lмаган umumiy quvonch hissini tuy-gandek bo‘lgan edi, o‘shanda peshtaxta oldida qiy-chuv solib kon-fet va pecheniy talashayotgan bolalar, keyin qo‘liga ilingani bilan yonida turganini mehmon qilayotgan bolalar to‘dasini ko‘rgan edi. Bolalarning shodonligi kattalarning kayfiyatiga ham yuqqan, ular to‘polonchi zumrashalarni navbatsiz peshtaxtaga o‘tkazib yubori-shardi.

Mana yana qahraton dekabr kechalarining birida hayajonini ichiga yutib yengil yo‘talgan, atrofga besaranjom bir-ikki nigoh tashlagan-u ko‘chaga chiqqan.

Ayvonda Fedotich ham, mashina ham ko‘rinmas edi. Bryuxanov to‘sinq oldiga o‘rnatilgan liqaldoq o‘rindiqqa o‘tirib tamaki tutatdi. Xuddi Bryuxanovning shu yerga o‘tirishini poylab turgandek ikki tovuq paydo bo‘ldi, bir – biri bilan nimanidir talashib uzoq olishdi. Keyin allaqayoqdan qo‘lida tayoq ko‘targan kampir paydo bo‘ldi, u pichir-pichir qilib tovuqlarni qarg‘ayotgan edi. Bryuxanovdan biroz narida shalrangqulqoq, aqli va munchoqday ko‘zlarini Bryuxanoga tikib turgan it ko‘rindi. Bryuxanov ko‘zlarini bir zumga yumdi, juda charchagan bo‘lishiga qaramay, aqli ravshan va teran edi, rejalarini chamalab chuqur uh totdi, istaysanmi yoki yo‘q, baribir uyga erta-roq borishning iloji yo‘q. Shu yerdan to‘g‘ri Moskvaga, yana qandaydir shoshilinch ish. Xo‘sh, u o‘zining barcha harakatlari uchun javobgarlikni o‘z bo‘yniga olishga rozi. Vijdoni va majburiyatları o‘rtasidagi kurash uni ancha qiy nab qo‘ydi. Kutilmaganda qalbiga g‘arq bo‘lib ketgan bir his bosh ko‘tardi, endi u ozmi-ko‘pmi uning shaxsiyatiga ta’sir qiladi.

«Barcha mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish» – Bryuxanov Pet-rovning kundaligida keltirilgan satrni aniq-tiniq esladi. Qancha-lar g‘alati bo‘lmasin u oxirgi vaqtlardara imi-jimida bu qog‘ozlarga ko‘z tashlaydigan odat chiqargan, bu ish mutlaqo g‘ayriodatiy

tarzda odat tusini olmoqda edi. U oldin hech qachon hayot oldida bu qadar ojiz ahvolda qolmagan, Petrovning so‘zлari ham mutlaqo xohish-irodasiga qarshi qalqib chiqayotgan edi, xuddi goh u, goh bu tomonga o‘tib uni masqara qilayotganga o‘xshardi. Agar bu o‘sha sehrli tayoqcha bo‘lsa-chi? – xayolidan o‘tkazdi u har gal Petrovning qog‘ozlari haqida o‘ylaganida yuziga tepib chiqadigan g‘azab bilan. Agar boshqa bir haqiqatni tan olish kerak bo‘lsa-chi? Qancha qazisang, shuncha ichkariga yetaklab ketaveradi, buning oxiri yo‘q. Agar u umuman mavjud bo‘lmasa-chi, shunchaki qaziyversang, qaziyversang nima bo‘ladi? Agar bu ojizlikning asosi, o‘zidan-o‘zi qochish bo‘lsa-chi? Balki o‘sha sehrli tayoqcha Petrovda bo‘lgandir? Stalinda-chi? Umuman u kimadir bo‘lishi mumkinmi? Nega endi murosasizlarni yarashtirishga urinish kerak, bu xuddi xayoliy ko‘prik ustidan tubsizlikni kechib o‘tishga o‘xshaydi... xo‘sh, keyin-chi, keyin nima qoladi? – so‘radi yana Bryuxanov o‘zidan. Ko‘pchilik, juda ko‘pchilik... Bu oddiy qishloq ko‘chasi, chang-to‘zon bosgan egatlar, onasi tomonidan kaltaklangan och bolalar, xuddi hali ham daryo-yu o‘rmon yoqasida quvalashayotganga o‘xshaydi... yuzlab, minglab oddiy, zaruriy ishlar... Alyonka bilan Kseniya, yana Chubarev ham bor.

Endi chiqayotgan quyosh shu’lasi yerga tushib Bryuxanovning oyog‘iga ilakishdi. Xuddi shu lahzalarda uning ko‘z oldida Petrov gavdalanganday bo‘ldi.

Petrov charchoqdan qizargan ko‘zlarini qog‘ozdan ko‘tardi, hali ichilmagan yangi choydan stakaniga quyarkan eshik tomonga norozi nigoh tashladi. «Kech bo‘lganda kim bo‘ldi ekan? Soat o‘n ikkidan o‘tdi axir, nahotki xotin shunchalar kech qolgan bo‘lsa» – asabiylashdi u. Eshikni ochdi-yu esankirab qoldi. Ro‘parasida qotmadan kelgan, o‘rtta bo‘yli, o‘z zamonasiga mutlaqo qovushmagan holda to‘pig‘igacha tushadigan keng palto, ichidan katak-katak ko‘ylak kiygan bir g‘alati odam turardi. Yuzi ham bir ahvol, soch-soqoli anchadan beri qirib, taralmagani ko‘rinib turibdi, lekin eng e’tiborni tortadigan jihatni uning ko‘zлari bo‘ldi. Katta-katta, o‘qraygan bu ko‘zlarda uchqun chaqnaydi. «Rohibmi yo qotilmi, yoki aqldan ozgan biron kimsamikan?» – xayolidan o‘tkazdi Petrov, – qo‘rquv bil-

masligi aniq». Notanish hamon mezbonning tilga kirishini kutardi, ko‘zлari qorong‘ida dahshatli yiltiraydi, ko‘zлar Petrovning har bir harakatini kuzatib turardi.

– Adashib qolgan ko‘rinasiz, – Petrovning ovozi chiqdi, endi u yo‘lovchining javobini kutmoqda edi, yuzida zohir bo‘lgan rang ichidan kechayotgan ishonchsizlik va qo‘rquvni sotib qo‘ydi.

– Qarg‘alar, qarg‘alar, – yo‘lovchi juda tez va uzuq-yuluq gapi-ra boshladi, – butun osmonni qarg‘alar egallab olgan, jahannamning yovuz ruhlari, ozgina uyqu bosadi, qanotlari sinadi, osmon tutilib qoladi. – Yo‘lovchining ko‘zлari ichki dunyosini berkitib olgan oy-naga o‘xshaydi, uning ortini sira ko‘rib bo‘lmaydi, Petrov sal bo‘lsada o‘zini qo‘lga oldi. – O‘n yildirki uyqu nimaligini bilmayman... qanotlarning shitirlashi, chigirtkalar, chigirtkalar Ioannovo hukm-ronligi davrida edi adashmasam, osmon ko‘rinmaydi, mana bunday o‘rnimdan sapchib turib ketaveraman, bu olamda uyqu ham, hordiq ham yo‘q, – yo‘lovchining ovozi balandladi, Petrov xotirjamlikni saqlab turishi va qaltirog‘ini bosib olishi kerak edi.

– Sizni bu yerga kim jo‘natdi, – Petrov ham ohangini keskin-lashtirdi, – nima vajdan bu yerdasiz?

– Xabarchilar – Xudoning xabarchilari, – javob berdi yo‘lovchi, uning ohangida kutish hissi bor edi, – ular hech qachon o‘z-o‘zicha kelmaydi, faqatgina turar joylarning eshiklari, qabrlarning ust qop-lamasi, begonalarga eshik ochish xatarli, noma’lumlarga, vayrona-garchilik va buzuqlik, – u hamon horg‘in ko‘zлarini Petrovdan uz-mas edi, uning qa‘rimsiq peshonasi va yuzlarida och pushti dog‘lar paydo bo‘la boshladi.

– Siz bemor bo‘lib qolgan ko‘rinasiz, – dedi Petrov sekingina.

– Biz boshpana istaymiz. Lekin tana uvol ketadi, gunohkor tana...

Bu yerda ilohiy ruh qo‘nim topa olmaydi. Qarg‘alar... qarg‘alar...

– Kiring. Sizga yordamim kerak ko‘rinadi... Mening oldimga doim biron hojat bilan kelishadi, hojatsiz odam mening oldimga kelmaydi, – Petrov o‘zi ham nima qilayotganini anglamagan hol-da tungi yo‘lovchini uyiga taklif qildi. U bilan birga xonaga alla-qachonlar unutilib ketgan abadiylik va cheksizlik hissi kirib keldi, qiziq yo‘lovchi bu jarayonda qanday rol o‘ynar ekan? Mana bugun qorong‘ilik qa‘ridan yana bir odam keldi, mana hozir u ohista stol-

ga o‘tirdi, u Petrov ehtiyotkorlik bilan eshikni yopganini, oshxonaga o‘tib toza stakan va shakar olib kelayotganini diqqat bilan kuza-tib turdi (uning o‘zi odatda achchiq choyni shakarsiz ichishni xush ko‘rar edi), keyin choy va shakar, bo‘laklangan pishloq va pecheniy-ni mehmonning oldiga qo‘ydi. Baquvvat sariq bosgan tishlari bilan pecheniyning bir chetidan tishlab mehmonga qaradi. Mehmonning loyga botgan etiklaridan pol iflos bo‘lib ketdi. U bir oyog‘iga qarab qo‘ydi-yu keyin yana xonani aylanishda davom etdi, o‘qraygan ko‘zлari kitob terilgan javonga tushganida uzoq vaqt to‘xtab qoldi. Keyin ko‘zлarida yana o‘sha qiziqish uchqunladi.

– Marhamat qiling, nega choy ichmayapsiz? Xohlamaysizmi? Balki biroz ilitish kerakdir?

– Qanaqa choy? – mehmon uzun ozg‘in qo‘llarini siltab kerak emas degandek qildi, – tundan oldingi choymi? Gunohkor tana, uning zavqi ruhga zarar...

Mehmonning jarangdor ovozi o‘qib unutilgan bir kitobni yodga soldi, Petrov odob yuzasidan bosh chayqab qo‘ydi.

– Anig‘ini aytganda kim bo‘lasiz? Ish nuqtayi nazardan aytyap-man, – so‘radi u.

– Rohib va zohid Iyeronim, sizning istagingiz bilan buzilgan va bulg‘angan Zejsk dashtlaridan bo‘laman, – mehmon yana bir bor oldinga engashdi, – kulfat mening boshimni emas, Xudoning uyini tutdi.

– Xo‘s, zohid va rohib Iyeronim, nima, shikoyat qilmoqchimisiz? – so‘radi Petrov mehmonning yuziga tikilar ekan, – kamiga choyga unamayapsiz.

– Choy dunyoviy matah, bema’ni o‘yin-kulgudan iborat, – dedi Iyeronim jahl bilan, – ruh muvaffaqiyatsizlikka uchradi, u jin-u shaytonlarga masqara bo‘ldi... qanday bunday yashash mumkin?

– Sizning chanqog‘ingizni qondira olishimga ishonchingiz komilmi, Iyeronim?

– Hammasi qorishib ketdi, jinlar raqsi, onalarning qabrлari uzra zino, – zohid stol ustidagi qog‘oz va jadvallarga bosh irg‘ab ishora qildi, o‘siq soqoli orasidan yaltiroq tishlari ko‘rindi, – hamma seni katta odam deb hisoblaydi... sen esa tayinli bir gap ayta olmaysan... ruh tanazzulga yuz tutgan... bunaqada qanday yashash mumkin?

Xavotir... hammasi o'zingiz haqingizda, hammasi o'zingiz haqingizda... ruh esa vayron bo'lgan.

Zohid g'azab bilan qo'llarini boshi uzra qovushtirdi, Petrovni dahshatli charchoq o'z domiga tortdi, bu oxirgi bedor bir necha haftaning asorati edi. Zohid bir joydan ikkinchisiga ko'chib o'tgandek bo'ldi, Petrov joyidan qo'zg'almoqchi bo'ldi-yu lekin uddalay olmadi, u shu zahoti stol ustida uyquga ketdi. Aniqki, hayot charxpalagi uning uyi tomon uloqtirgan bu zohid ham charchoqli tushining bir bo'lagi, xuddi tanasiga suyuq bir narsa oqib kirgandek bo'ldi, endi u olislarda qolgan zohid bilan hech qachon ko'rishmaydi.

– G'azab hech qachon donolik bilan birlasha olmagan, – uzoqlardan yana o'sha zohidning ovozi keldi. Shu zahoti o'ziga kelib atrofga alangladi. Jin ursin! Zohid hech qayerga ketsabdi, mana o'sha zohid, stolning ro'parasida, unga uyqusiz, horg'in ko'zlarini tikib o'tiribdi, Petrov iyagi va peshonasini qattiq ishqaladi. Yerdagi qora ko'lankalar uzoq-uzoqlarga cho'zildi, xonani tutib ketgan nopok tanning qo'lansa hidi ham yo'qolgan edi, endi undan qo'ziqorin hidi anqirdi. Petrov o'ziga kelib, aqli ravshan tortganda o'sha paytda mudrab qolgani uchun o'zini o'zi koyib yurdi, bu hayotida birinchi va oxirgi marta yuz berishi edi.

– Yaratgan senga hordiq berdi, – dedi zohid muloyimlik bilan, – tun cho'kdi.

– Men qancha uxladim o'zi, – so'radi Petrov ishonqiramay

– Dunyodagi vaqtning qadri arzimas, hisoblab nima qilasan? – zohid chuqur nafas oldi, u hozir o'ta jiddiy vazifa bilan mashg'ul edi, – bu qisqa mudroq vaqtida qalbingni ochgani uchun Rabbingga shukronalar ayt... O'zing va boshqalarni unut, hammalarini hammasi uchun kechir... hanuz qarg'alar uchmoqda... azob chekishadi, ruhga ozor berishadi... qarg'alar, qarg'alar...

– Qanaqa ko'ngil, qariya? Yarim kechasi nimalar deb vaysayapsiz? – allaqachon sovib qolgan choydan ho'plar ekan so'radi Petrov, – Siz bilan sira gapimiz qovushmayapti, qarg'alar, qarg'alar, qarg'alar uchjadi-da uchmay tag'in nima qilsin? Siz mendan nima xohlaysiz? Yordammi? Qanaqa yordam? Sizni ranjitishdimi?

Zohid Petrovga yaqinlashdi, lekin eng esda qolarlisi nima edi-ya, haligi zohidning o'siq sochlari orasidan ko'zga chalinib turgan mitti qulqomqi?

– Dunyo yaxshi joy emas... bo'm-bo'sh, men hech narsani bilmayman, hech narsani tushunmayman, siz bittasini ajratib oldingiz, javob o'zingizda, qo'rquv ham o'zingizda. Aytilganidek, buyruq beruvchi ko'p, ishlaguvchi kam, – zohid o'girildi, Petrovda juda g'alati hissiyot paydo bo'ldi, ko'z oldida so'qmoqda hassa tayanib ketayotgan yo'lovchi paydo bo'ldi, yo'lovchi qoqladi-yiqiladi, Petrov tomoshabin bo'lishdan ortig'iga yaramaydi. U tor so'qmoqdan ketayotgan ojiz va himoyasiz inson.

– Xo'sh, muqaddas bitiklar masalasiga kelsak, ularni o'zim ham yaxshi bilaman, agar ish doirasida gaplashadigan bo'lsak... siz nega menga va'z o'qiyapsiz? Hammasini aytib bo'ldingizmi? Agar aytib bo'lgan bo'lsangiz, keting, – Petrov buni navbatdagi targ'ibotchilarining ishiga yo'ydi, qarshisida turgan odamga zo'raki jilmaydi, unga biroz rahmi ham keldi, – kimdir qon va azob ichida jon berishni orzu qilar, lekin bu yerda qon ham, azob ham bo'lmaydi, keting.

– Sen-chi, men bilan ketishdan qo'rqmaysanmi? – qiziqsinib so'radi zohid, u endi ancha xotirjam va muloyim qiyofaga kirgan edi, – bu yerdan unchalik ham uzoq emas.

– Nega endi?

– Mening so'zlarim sening yumushingga aylanishi uchun. Qo'rhma, men yolg'izman, sheriklarim yo'q. Senga ziyon yetkazmayman. Boz ustiga, qari va notavon bo'lsam, – zohid Petrovning yuzidan ko'z uzmasdi, – Bir qarab ko'r-chi, balki qalbingga Yaratganning ruhi kirgandir.

Petrovning ko'zi telefonga tushdi, zohid anchadan beri mana shu daqiqani kutib turgan edi, u oyoqlari ostiga qaradi, umidsiz zuhur qila boshladgi, shu ondayoq yuzida istehzoli tabassum bilan qotib qoldi.

Bu uzoqqa cho'zilmadi. Petrov asta-sekinlik bilan erib borayotgan tunning ovozini eshitdi. Faqatgina bir haqiqat ma'lum, o'sha qariya o'rnidan turdi, eshik tomonga bordi va o'sha yerda g'oyib bo'ldi. Hamma ishlar chalkashib ketdi, katta qora dog'ga o'xshab ko'rinadi. Modomiki, g'oyib bo'lar ekan, nega yarim tunda keldi,

uya kirdi, o'tirdi, jilmaydi, qayta va qayta odam bolasining jirkancha va iflosligini ta'kidlayotganga o'xshaydi. Petrov hech qachon bun day beshafqat va berahm yuz ifodasini ko'rmagan, go'yoki butun tur olam sinoatini tushunib yetganga o'xshaydi, yer yuzida bu bandan ajablantirishga qodir hech narsa qolmaganga o'xshaydi. Xonadaq o'rmon qo'ziqorinlarining hidi kuchaydi.

Petrov nafasini tutib turdi, bundan boshqa yo'li yo'qligini tushunib yetdi, shartta o'rnidan turdi-da, boshiga furajkasini ilib eshilishni tomon yurdi. Uni zohidning ovozi to'xtatib qoldi.

– Pidjak... pidjakingni ustingga tashlab ol, – dedi u g'amxo'rli bilan. – Kechqurun havo nam, shamol, qorong'i bo'ladi.

Zohidning g'amxo'rliqi Petrovga yoqmadi, lekin har ehtimol qarshi ustiga charm paltosini tashlab oldi, biroz o'tib qorong'i v kimsasiz shahar ko'chasi bo'ylab zohid hamrohligida qadam tashla boshladi. Zohid keksa va zaif bo'lishiga qaramay bir maromda, jinni qadam bosar edi. Har safar burilish yoki aylanib o'tish joyi kelganda Petrovni ogohlantirib qo'yar edi.

Petrov qo'llarini paltosining cho'ntagiga tiqqancha zohidning o'tidan ergashardi, qancha harakat qilmasin unga yetishib yura olmasdi hozirgi alfoziga zohiddan ham ko'ra o'zidan g'azablandi. Endi sod bo'layotgan hodisalar kulgili tus ola boshladi, Petrov ustiga qarab esa yotgan shamoldan yuzini to'sdi, g'ayriixtiyoriy tarzda zohidning izida qolmayotganiga kulgisi qistadi. Xo'sh, nima ham qillardik endi, xayoli dan kechirdi Petrov, endi u haqida nima deb o'ylashining sira ahamiya yo'q. Bu e'tiqodni jon-jahdi bilan himoya qilish lozim bo'lgan daqiqalar dan biri... hozir o'zi va o'zgalar oldida kim ekanligini anglatadigan palla... agar bir qadam bo'lgin chetga og'ishning imkonini bo'lmas ekan alaloqibat bu halollik sizni aqldan ozdirishi mumkin... Mutlaqo un tilgan tuyg'u... yelkalarni ayamajiz beomon talaydi... xuddi bir vaqtli jandarma boshlig'inining xonasida bo'lgani kabi...

Butun sayohat davomida biron tirik jonga duch kelmadilar, faq bir burchakda qunushib yotgan boshpanasiz itga ko'zlarini tushdi, zohid boyagidek alfozda bir maromda qadam tashlashda davom etdi.

Tongga yaqin qorong'ilik yanada kuchaydi, u hamma narsani o'domiga tortdi va yuvib ketdi, uylar, daraxtlar, to'siqlar, xullas jami narsa uning qo'yniga kirib ulkan soyaga aylanib qoldi. Qorong'ili

da zohidning kichik jussasi ham katta ko'lana yasadi. Petrov bata-mom atrofni ilg'olmay qoldi, endi u qulqoqa aylanib diqqat bilan tinglardi. Xuddi atrofini mayda, yengil qadam tashlab kelayotgan odamlar qurshab olayotgandek bo'ldi.

Petrov hech qachon yonida qurol olib yurmagan, hozir shu al-fozda bundan biroz afsuslandi ham. Qayerga ketishayotganini bilib olish ilinjida atrofga alanglay boshladı. Petrov Xolmskni juda yax-shi bilardi, hozir unga zohid xuddi markazni maqsadsiz takror-takror aylanib yurgandek tuyuldi, lekin borgan sari ko'tarilib borishayotganini payqagach allaqachon shahardan chiqib ketishganini tushundi. Ular hozir shahar qariyalari Eski qal'a deb ataydigan dasht qismiga ketishayotganini tushundi. Bu Xolmskning deyarli yarim vayronaga aylanib qolgan qismi bo'lib, vayron bo'lgan cherkovlar, qulagan qo'ng'iroq minoralari, yakkam-dukkam o'sgan bir necha asrlik ko'hna daraxtlar bilan to'lgan tashlandiq joy edi. Bir vaqlar bu yerdagi hujralar, ayollar monastirlari yosh qiz-juvonlarning qahqahasi bilan to'lib toshgan edi.

Zohid yengil chayqalib borgan sari tepaga qarab intilar edi, ni-hoyat tashlandiq yerning eng baland nuqtasiga chiqib to'xtadi. U tepalikka chiqish uchun ortiqcha kuch sarflamadi, shamol uning ridosining etaklarini uchirib o'ynay boshladı. Safar Petrovga ancha og'irlik qildi, tepalikka ko'tarilgan sari nafasi qisa boshladı. Shu payt osmondan qushlarning ayanchli qag'illashi eshitildi, Petrov qushlarni ko'rish uchun ko'zini xiyol qisib osmonga tikildi.

– Qarg'alar, qarg'alar... xayriyatki, yana qaytishibdi, – zohid juda g'alati g'o'ng'irladi, Petrov atrofga sinchiklab qarab ularning vayronalar ustida uchib-qo'nib yurganini ko'rди.

– Xolmskning muqaddas ona ilohasi ibodatxonasini vayron qilishdi, – zohidning ovozini shamol uzoq-uzoqlarga uchirib keta boshladı, – Xolmskning markaziy ko'chalariga yer yotqizish uchun buzib tashlangan, sizning buyrug'ingiz bilan, albatta. Hammasi oyoq ostida, yer bilan bitta bo'ldi, xuddi yovvoyi ko'chmanchilar kabi, ruh ovozi mudrab yotibdi, tanasi esa, g'azabga to'lgan. Ajoyib, osudalik qo'ynida yashash ajoyib, faqat qarg'alar, osmondagi qarg'alar.

– Bu qachon yuz berdi, – so'radi Petrov paltosiga mahkamroq o'ranar ekan, xuddi ruhi muzlab qolgandek bo'ldi. Zulmat, oyoq os-

tida uyilib yotgan qal'a, odam hatto nafas olishga ham jirkanadigan manzara.

– Bir yarim haftalar oldin, – Petrov zohidning ovozini xuddi qulqlarigi paxta tiqib, keyin uni unutib qo'ygandek elas-elash eshitardi, – ular toshlarni ko'tarib tashishni to'xtatishdi, oddiy xalq esa bu yerdan tosh olishni istamaydi, ularning osuda ruhi bor.

Zohidning oxirgi gaplari Petrovning asabiga tegdi, endi hech qanday ahamiyatga ega bo'lmasa-da, u bu yerda nimalar sodir bo'lidan mutlaqo bexabar edi. Xolmskda nimaiki sodir bo'lmasin barchasiga u javobgar, lekin endi kimningdir aybini tan olish va uzrma'zur qilish juda jo'n va kulgili ish.

– Balki cherkov hech qanday tarixiy ahamiyatga ega bo'l-magandir, – dedi u baland ozozda ko'nglidan o'tganlarini tiliga ko'chirib, – qachon qurilgan ekan o'zi?

– Kufr qilma! Bu yerdagi toshlar muqaddas. Quloq tuting... yig'layapti, yig'layapti, – zohid uning gapini kesishga oshiqdi, – Nimalar deyapsan? Nimalar deyapsan o'zi? Inson hech bo'lmasa bayramlarda o'z tabiatи bilan bo'lishi kerak, qara, Ilohnинг uyi tun qo'ynida ham nur sochib turibdi, – zohid qo'lini xarobalar tomon-ga cho'zdi, zum o'tmay ular bo'shashib egasiga qaytdi. – Cherkov qo'ng'irog'i Xolmskning buyuk knyazi avliyo Vsevolod Xolmskiy tomonidan mo'g'ul istilosiga qadar o'rnatilgan... bemisl mahorat, vizantiyalik ustalar tomonidan... bu yerda, yer osti xonaqohlarida buyuk Xolmsk knyazlari dafn qilingan... naqadar buyuk odamlar. Qarg'alar! Qarg'alar! Endi-chi, hammasi oyoq ostiga, ifloslikka botib yotibdi, – zohidning ovozi tindi, zaif tanasiga biroz dam berib yana gapira boshladи. U hozir tahdid ham, talab ham qilayotgani yo'q, shunchaki o'zini ezib tashlagan dard-alam haqida yig'lab ga-pirayapti.

Shamol kuchaydi, vayronaning chang-to'zonini osmonga ko'tardi, zohid bo'g'ilib yo'taldi, u hozir Petrov haqida umuman unutib qo'ygancha o'yga tolgan edi.

– Bemisl go'zallik oyoq ostida, oyoq ostida, – yo'talib, tutilib davom etdi u, toshlar o'tga tutashadi, qarg'alar... qarg'alar, payg'ambarlarsiz xalqlar bo'lmaydi. Inson yolg'on uchun dunyoga keladimi, qiyomatga ketishi yolg'onmi... qulqlar haqiqat so'zini

tinglamaydi... Ko'ryapman, ko'ryapman... payg'ambarlarning ko'zlarini ko'r qilingan, tillari kesib olingan, xochga mixlab olovga tutilgan... qarg'alar... qarg'alar... g'am-alam bo'lzin sizga mag'rur do'zax ahli, qalbingizni qora qo'tir bosadi, o'g'illar otalarini g'ajib tashlaydi, ayollar bo'riga o'xshab uv tortadi, Qudratli Rabbim, Qodir Egam, ularga marhamat qil, avf et, barchasi shaytonning ishi...

Petrov qariyaning toat-ibodatiga xalaqit bermadi, qaytib uning so'zlarini ham eshitmadni, u hozir ko'proq o'zi haqida o'ylar edi. Tun poyoniga yetdi, osmonning sharqiy tomoni sekin yorisha boshladni, shamol yanada sovuq va shiddatkor bo'la boshladni, Xolmskning ayanchli vayronasida shamoldan pana bo'ladigan joyning o'zi yo'q. Petrov bazo'r oyoqda qoldi, shamoldan bir amallab yuzini pana qildi, u bugungi tongni shu alfozda kutib oldi. Keyin zohid va uning barcha iztiroblarini ortda qoldirib o'z ishi, mas'uliyati tomon oshiqqa boshladni. Petrov yana Xolmskning vayrona tepaliklaridan pastga ina boshladni, u endi katta adir qo'ynidagi kichkina harakatlanuvchi dog'ga o'xshab qoldi. Birdan miyasiga nimadir yarq etib urilgandek bo'ldi. Nega u avvallari hech qachon bular haqida o'ylab ko'rmagan ekan-a? Faqat ish, ish va yana ish bor edi, aniq maqsad va vazifalar belgilab qo'yilgan edi, birgina bedor tundagi kutilmagan uchrashuv va uning xayollari ostin-ustun bo'lib ketdi. Uning olamida nimadir joyidan siljib, nimadir o'zgargan edi. Agar bu shafqatsizlik bo'lsa, u aniq maqsadlar uchun qilingan, lekin bundan tashqari xalq tarixi, abadiy go'zallikning uyg'unligi masalasi ham borki, u hech qanday qonuniyatlarga bo'ysunmaydi. Agar u har doim uning ruhida yashagan va bugun bahonayi sabab bilan o'zini tanitgan bo'lsa-chi? Nega avvallari unga ahamiyat bermagan? Nima uchun?

— Ketdik, — dedi zohid, Petrov hech qanday istisnosiz uning ortidan ergashdi, hozir o'zida zohid bilan ruhiy bog'lanish paydo bo'lganini his qildi. O'n besh daqiqalar chamasi sochilib yotgan toshlar orasidan yurishdi.

Zohid tosh bo'laklarini surib vayron bo'lgan ustunlar orasiga kirdi, tuzilishidan bu yerning ark bo'lganini taxmin qilish mumkin, Petrov uni qiziqish bilan kuzatib turdi. Zohid chuqr nafas oldi, bor kuchini to'plab toshlarni chetga surdi, toshlar bir-biriga urilib momaqaldiringga o'xshash ovoz chiqardi. Petrov u yer osti yo'lini ochayot-

ganini tushunib qoldi. Xayolidan nam, bo‘g‘iq havo bilan to‘qnash kelishni o‘tkazdi. Zohid qadimgi aralashma bilan qotirilgan bir nechha toshni bazo‘r surib tashladi. Zohid pastqam temir eshikni ochdi, zang bosgan eshikdan dahshatli g‘ichirlagan ovoz chiqdi, nam, mog‘or hidi kuchaydi. Zohid Petrov tomonga o‘girildi, uni yo‘lak tomonga imladni, o‘zi esa o‘sha zimiston eshik ortiga kirib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Petrov yonginasida yoqilgan gugurt shu‘lasini va zohidning yuzini ko‘rdi. Zohid sham yoqdi, shamning yorug‘ida devor aji-buji soyalar bilan to‘lib-toshib ketdi. Zohid shamni Petrovga tut-qazdi, o‘ziga ikkinchisini yoqdi.

Yana uni noaniq tuzilishdagi bino ichiga kirishga undadi, Petrov hech qanday savol bermadi, faqatgina zohiddan ortda qolib ketmaslikka harakat qilar edi.

Nihoyat, yer osti labirintining markazi sanalgan o‘z davri uchun hashamdar bo‘lgan xonaga yetib kelishdi, sham nuri xonaning burchaklarini yoritishga ojizlik qildi. Petrov hansirab nafas oldi, peshonasidan oqqan terni yengiga artdi, tosh ko‘taraverib zohidning ham tinkasi qurigan edi, u hozir o‘yga tolgan. Petrov shamni baland ko‘tarib atrofni yoritmoqchi bo‘ldi. Keyin artofni diqqat bilan tomosha qildi. Devorlarning birida yerdan baland ko‘tarilgan ustunlarga ko‘zi tushdi. Ustunning yuzi eski slavyan, kirill yozuvidagi matn bilan qoplangan edi, biroq ustun ancha namiqqan, mog‘or bosgan, shu sababli matn ham tushunarsiz holatga kelib qolgan. Petrov jilla qursa bir-ikki qator o‘qish umidida ko‘zoynagini taqib ojiz ko‘zlarini pirpiratdi.

– Shu shaharga birinchilardan bo‘lib asos solgan rus knyazlari... bu yerda esa avliyo otalar – rohib Fedor Zejskiy va Danila Xolmskiy. Bu ibodatxonaga mo‘g‘ullar istilosidan oldin asos solishgan edi... Xolmsk qal’asi uchun qaqshatqich janglar bo‘lib o‘tgan. Mana, mana bu qabrtoshiga qara, bu yerda Vsevolod Xolmskiy dafn qilin-gan... u jangda yiqlidi... lekin qilichini qo‘yib yubormadi... bu yer uning mozori. Mo‘g‘ullar bu tepalikka chiga olishmagan, necha asr o‘tsa hamki, dahlsiz bo‘lib qolgan.

Yer osti labirintida zohidning bir maromdagagi ovozi kezardi, Petrov bu qal’a haqida bilish u yoqda tursin hatto eshitmagan ham edi. Zohidning ko‘ksini yirtib yuborgudek bo‘lib yo‘tal tutdi, qo‘lidagi

sham ham tebranib, devordagi soyalarga jon kirgandek atrof jimirlab ketdi.

– Nega avvalroq mening oldimga bormading, oqsoqol, – Petrovning ovozida ham o'kinch, ham g'azab bor edi, lekin zohid javob qaytarmadi, u allaqachon sarg'ish-jigarrang tusli pergamentni ko'zdan kechirishga tutingan edi.

Nihoyat yer osti labirintining bir buzchagiga yetib kelishdi, mog'or bosgan tosh yo'lak boshida to'xtashdi, yo'lak qimmatbaho hoshiyali suratlar, cherkov idishlari, kumush qadahlar, turli yozuv va suratlar tushirilgan rasmlar, shamdonlar bilan to'lib toshgan edi. Bu yerdagi kitoblarning muqovasi charmdan ishlangan bo'lib, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan edi.

Petrov shamni balandroq ko'tardi, shu payt har tomondan ko'zni qamashtiradigan yorug'lik tarala boshladi, bu yerda oltin va fil su-yagidan ishlangan noyob buyumlar uyilib yotardi. Ikkisi ham ularga shikast yetkazib qo'ymaslik uchun oyoqlarini baland-baland ko'tarib ehtiyyotkorlik bilan qadam tashlashdi va sirtiga vizantiya hamda boshqa yozuvlarda yozilgan noyob buyumlar qarshisiga kelib to'xtashdi. Shamni ularning yuziga qaratib o'qib ko'rishmoqchi bo'ldi, lekin aksar buyumlarning sirti namdan mog'or bosgan, harflari ham uniqib ketgan.

– Qara, qara, anavi mana bu xochning bitiklari juda ajoyib ekan, – qayerdandir zohidning ovozi yangradi, – taniqli rus ustalari jon bermoqda... ilohning ruhi bilan muqaddas bo'lganlar jon bermoqdi... go'zallik jon bermoqda... qarg'alar... qarg'alar... Bu yerlarga o'n sakkizinchchi yilda kelishdi, jonlari gunohkor edi, shuning uchun rad etildi. «Hech narsani bilmayman, aytayapman-ku, hech narsani eshitmadim, qanaqa yashirin daxmalar» ... Ular yana kelishdi, bu safar labirintgacha tushishdi, hech narsa topa olishmadi, – yana zohidning ovoziga g'alati gerdayish qo'shildi.

Petrov qop-qora taxtaga yozilgan matnni o'qish bilan ovora edi, shuning uchun ortiga o'girilmadi.

– Endi esa oling! Barchasini oling! – labirintning tosh devorlari zohidning ovozini yutib yubordi. – Ibodatxona butun bo'lganida barchasi omonda edi... hozir esa hammasi shamloga aylanmoqda... hammasi xarob... barbod bo'ldi. Yashirin manbalarda... u ne-ne za-

monlarni ko‘rmadi... ne-ne o‘limlardan omon qoldi... U yerda juda oqilona gaplar aytilgan... endi esa barchasi xarob bo‘lmoqda. Zax mog‘orga qorishmoqda. Ol, bu yerda qal’aning bir necha yuz yillik boyliklari jamlangan. Faqat men bilardim bu haqda. Xuddi zabonsiz ko‘ppakka o‘xshardim. Mana bir yil bo‘lib qoldi, vaqtini ham eslay olmayman, yillar barchasini yuvib ketdi. Mening iymonli birodarlarim... barini tashlab ketishdi... halok bo‘lishdi. Kimdir ortga chekindi. Endi bu qal’aning muqaddasligi qolmadi, hech narsa kerak emas, hammasi qo‘pchib yotgan chang. Hammasi xarob! O‘limga mahkum! – zohid o‘zi aytayotgan kufroniy so‘zlardan larzaga tushdi, yuzini yengi bilan berkitib ortga tisarildi, – Rabbim, o‘zing afv et, – Petrov uning ojizona shivirlashini eshitdi, – hammasi sening ixtiyoringga, haqiqat zulmatda ham haqiqat bo‘lib qoladi.

Zohid shaxdam qadamlar bilan ramkaga solingan mayda tasvirli suratning oldiga bordi, uning changini artib kichkina matoga o‘rab oldi.

– Oyoqlarimdagи changni silkiyman, – endi zohidning ovozi bazo‘r eshitilardi, unda g‘amdan bo‘lak hech narsa qolmagan edi, ey ilohiy Xolmskning onasi! Shafoatchi zot! Sen bu yerlarga suv kechib kelding... biron marta inson tovushini eshitmading... faqat daraxtlar shitiri-yu, hayvonlarning bo‘kirig‘ini eshitding. Nopok kimsalarning ko‘zi seni ko‘rmaydi. O‘zing zimistondan chiqish yo‘lini ko‘rsatgin! Bizlarga baraka ato et!

Zohid matoga o‘ralgan tasvirni qattiq bag‘riga bosdi, o‘pkasini to‘ldirib shamni pufladi, shu daqiqa xuddi havoda erigandek g‘oyib bo‘ldi. Endi yer ostida o‘lik zulmat hukm şurardi, fasodifan ham quloqqa biron sas chalinmaydi. Petrov o‘zining yolg‘iz qolganidan xursand ham bo‘ldi, chunki unga ayni vaqtida mana shu yolg‘izlik juda zarur edi. Petrov o‘ziga tikilib turgan ko‘zlarni payqadi, zohid yana qaytib kelganini taxmin qilib shamni boshi uzra ko‘tardi. Bo‘yi qabr toshi tengi keladigan bir avliyo unga tikilib qarab turar edi. Petrov ko‘zlariga ishonmadni, beixtiyor u tomonga qadam tashladi, u hozir xuddi mana shu ko‘zlarga singib ketayotganga o‘xshar edi. Avliyoning ko‘zları Petrovni qarshilash uchun yanada kengroq ochildi. U hozir sovuq va mudhish savol qarshisida o‘ylanib qoldi, zohidning vasvasa ichida qolgan va’zlarisiz hammasining tub mohi-

yatini tushunib yetgandek bo‘ldi. Bular shunchaki oldi-qochdi gaplar emas, unda qonning bahosi, hayotning bahosi, necha-necha avlod-larning bahosi bor, inson o‘zidan mana şunday katta-katta o‘lmas ko‘zlarni qoldirish uchun ham dunyoga kelmaydi, uning dunyoga kelishining o‘zi xuddi daraxting qalbi va h.k.lar kabi muhim, xayolidan kechirdi Petrov o‘ychan va aftodahol bo‘lib. Inson dunyoga aqlsiz yilqi kabi bayram qilish uchungina keladimi? Modomiki, unday emas ekan, avlodlar va zamonlarni birlashtirib turadigan bir hodisa bo‘lishi kerakmi? Ha, siz uzoqdan tikilayotgan ko‘zlarning sizdan nima istayotganini tushunib yetmaysiz... xo‘s, undan keyin-chi? Yana va yana keyin-chi? Siz va men shunday go‘zal ruhni bunyod qila olamizmi? Bir butun avlod ham buning uddasidan chiga olmaydi...

Dahshatli, javob kutayotgan ko‘zlar oldida o‘zini keraksiz nochor insondek his qildi, bir lahzada butun hayoti, turush-turmuishi ko‘z oldidan o‘tdi. Tushunib yetdiki, bunday go‘zallik odamlardan voz kechib zohid bo‘lishga arziydi... u hozir o‘zining hayotdagagi roliga aniqlik kiritib olishni istamas edi, chunki uning zohidlik roli ancha oldin belgilangan, endi uni hech bir rol bilan almashtirib bo‘lmas edi. Bu xuddi o‘sha xalqning ruhiy asoslari va xuddi shuzot – Petrovning o‘zginasiga tegishli.

Birdan qo‘llariga issiq mum to‘kildi, Petrov vaqt tushunchasini mutlaqo yodidan chiqarib qo‘ygan edi. Namlik butun tanasini ishg‘ol qila boshladi, avvaliga e’tibor va diqqatini zo‘riqtirdi, u hech bir a’zoga shikast yetkazmay oldinga siljiy boshladi. Xuddi shu vaqtida devordan zohid qalqib chiqdi, Petrovning savollariga nimadir deb javob berdi-yu keyin yana devorga singib ketdi. Petrov bir necha bor uni yoniga chaqirdi, lekin bari bekor ketdi. Petrov hayotning eng muhim jihatini tushunishga ulgurmoyotganini bilib turibdi, lekin bunga faqatgina uning o‘zi aybdor, chunki u eng muhim pallada charchog‘idan ustun kela olmadi. Avval boshdan oldinga qarab shitob bilan ketayotgan inson bilan bafurja gaplashib olish kerak edi, lekin u bu ishni qilmadi, unga ruhiy quvvat, bag‘rikenglik yetishmadi, endi esa bular haqida gaplashishga kech bo‘ldi, foydasi yo‘q. O‘sha vaqtida yangi chiqqan qo‘ziqorin hidi qayerdan paydo bo‘lib qoldi?

Yarim soatlar o'tgach Petrov katta bo'laklangan tosh usti-da yuzini shabadaga tutib o'tirardi. Zohidni xuddi yer yutganga o'xshardi, hech qayerda izi ham ko'rinxasdi. Qal'adan shahar, tutun haydayotgan zavod quvurlari, ko'lda suzayotgan paroxod ko'rinxib turar edi. Olis-olislardan zohidning ovozi kelgandek bo'ldi, lekin yaxshilab tinglagach uning shamolning uvvullashi ekanligini ajratib oldi. Petrovni titroq bosdi, uning hayotiga mana shu qismat bilan tushuntirib bo'lmas achchiq his kirdi, ana endi undan qutulish ham amrimahol, lekin u yillar davomida xuddi shu hisni qidirgan, yillar davomida unga yetishmagan narsa ayni shu tuyg'u edi. U hali ham yer ostida ko'rganlari ta'sirida edi, o'tmishdagi budparast xuddi uning ovozi bilan chinqirayotganga o'xshaydi, qanchalik urinmasin sira o'rnidan qo'zg'ala olmadi va nihoyat, tong iliqligi uni oyoqqa turg'izdi. Ro'parasida badjahl, loqayd shahar gerdayib turibdi. Ko'l ham kuzgi shamol qo'ynida bir maromda tebranadi.

U o'zini qo'lga olib xarobazor ta'siridan chiqqa boshladи.

* * *

Kun yorishdi. Iyeronim o'rmondan etagini to'ldirib yong'oq terib chiqdi. Allaqachon quyosh chiqishi kerak edi, lekin atrofni g'ayritabiyy nim qorong'ilik qurshab olgan edi, hammasi hanuz tasavvurda ro'y berayotgandek ro'yoga o'xshaydi, majhul.

Iyeronimning aft-angoridan tobi qochgani bilinib turar edi, u al-lamahalgacha ko'chalarni dovdirab kezdi, faqatgina tongga'yaqin o'z yo'lini tushungandek bo'ldi. Boshi cho'g' bo'lib yondi, ko'z oldini yupqa loy qatlami qoplab olganga o'xshaydi. Daraxtlar ortidan quyosh ko'rindi, yerga uning birinchi issiq nurlari urildi. Iyeronim unga yuzini tutar ekan ichiga issiq harorat kirganini, bu harorat xotirjamlik bag'ishlayotganini his qildi, lekin bu uzoqqa cho'zilmadi, har gal Petrovning yuvuqsiz va tushunarsiz aft-angoriga qarar ekan, mutlaqo ke-raksiz paytda paydo bo'lib halovatini buzayotgan bu kimsadan ranjididi. Bu holat toqat qilib bo'lmas darajaga yetganda atrofni qorong'ilik qurshab oladi, xiyol o'tib yana o'ziga qaytadi, quyosh asta-sekin tevarak atrofni iliq nurlari bilan uyg'otmoqda, osmon tiniq, uning nurlari

zaif, uyquchan ko'zlarga botmaydi, aksincha beozor silaydi. Xuddi boshi uzra kichkinagina go'dak boshi uni kuzatib turgandek bo'ldi, u bir lahzada yana osmonga singib ketdi. Iyeronim zaif ingradi, keyin yana ko'z oldini qorong'i ko'lanka bosdi.

Ko'kragini zaxga berib yotdi, shunda yaqin o'rtadan xirgoyi ovozi keldi, xirgoyidan suyunib kuch bilan o'rnidan turdi va u tomonga yura boshladi, uni xushbo'y tutatqi va yoqilgan minglab shamlarning ifori qarshi oldi. Ulkan, naqshinkor, oltin kabi tovlanuvchi darvoza lang ochiq. Cherkovda iltijo bo'layapti, ruhoniylarning ovozi jaranglaydi. Xor ibodatni ikkinchi marta ijro qildi, mitti olov hosil qilgan minglab shamlarning tili katta alangaga o'xshab ko'rindi, zohid yo'lda davom etdi, qandaydir kuch uni iltijo qilayotgan olomon orasidan yorib o'tishiga yetakladi. Shu payt oldida chit ko'ylak kiyib olgan olti yoshlar atrofidagi qizcha paydo bo'ldi, qizcha uning qo'llariga yopishib yig'lamsiraydi. Iyeronim u tomonga o'girildi, yo'liga g'ov bo'lgan qizchaga qaradi.

– Bobo, hoy bobo, sen o'layapsanmi? Shoshma, bobo, o'lmay turgin, men oyimni chaqirib kelaman, – yana qizchaning bezovta ovozi keldi, lekin sira qovoqlarini tepaga ko'tara olmadidi. Hozir sira bekorchi gaplarga chalg'iydigan vaqt emas, ich-ichidan sezib turibdi, maqsadiga bir qadam yo'l qoldi. Hayotiga qandaydir kuydirguvchi o't tushgan, u xonumonini ham, yuragini ham kul qilib tashladi. «Nima, men nima qilishim kerak, Yo Rabbiy?» so'radi u, shunda uning qarshisidagi devor ikki tomonga surildi, uning ortidan ulug'ver ovoz yangradi. «Kel» amr qildi ovoz, bir lahma o'tib ro'parasida avliyo Sergiy Radonejskiy paydo bo'ldi; avliyoning dog' bosgan yuzi va oppoq rido ichidagi badani qaltiraydi, ko'zları ham juda g'alati, xuddi birovga emas o'ziga o'zi gapiroayotgan, olamdan umidini uzgan odamga o'xshaydi.

– Kel, kel, rohib Peresvet, – avliyo uni o'zi tomon chorlay boshladi, Iyeronim atrofga alangladi, bu yaqin atrofda undan boshqa odam siyohi ko'rinas edi. Avliyo Sergiy qayta-qayta uni chaqirdi, «Ha, u meni chorlayapti» – zohid oh tortdi, shu onda tanasiga kuch yig'ilgandek bo'ldi, xuddi bo'yi va tanasi kattarib, ustiga tashlagan ridosi to'pig'idan ancha balandlab ketgandek bo'ldi. U avliyoga yaqinroq bordi, uning qo'lidagi xochga cho'qindi, avliyoning qo'llari

iliq, badani toza va quruq, shu lahzada butun hayoti va ikir-chikirlar xotirasidan o'chib ketdi. Alanga olgan nafrat ham so'ndi va rohib Peresvetning o'shshaygan vujudi barcha nafrat, g'am-alamlaridan forig' bo'ldi, u qachonlardan beri mana shu nafratni so'ndirish yo'llarini o'ylab yurgan edi. Bir vaqtlar avliyo Sergiy izsiz g'oyib bo'lgan edi, shundan keyin uni hech kim ko'rmagan, faqatgina o'sha ma'shum tunda Nepryad ko'li yonidan qonga botgan ridosini topishgan. «O'rningdan tur, mening maktubimni Dmitriy Moskovskiyga yetkaz» – rohib Peresvetning quloqlari ostida avliyoning bir paytlar aytgan so'zлari jarangladi. – Xaloskor bu g'azot orqali rus yerlarida burilish bo'lishini aytdi, bu g'azotga Yaratgan fazli-karami uchun kiring».

Rohib Peresvet boshini tik tutdi.

– Avliyo ota, – so'radi u, – martabang ulug'! Menga taqdirimdan xabar ber, birgina harakating bilan ko'nglimdan g'azab ko'tarildi.

Avliyo Sergiy javob qaytarmadi, Peresvetning oldidan o'tib ancha eskirib ketgan Odigitra ona tasvirining oldiga bordi. Shu bilan Peresvet uni qaytib ko'rmadi. U endi o'zini Donni kechib o'tayotgan piyoda askarlar ichida ko'rdi, qирг'oqlar, past-balanliklar, buta-yu o't-o'lan quyuq tumanga botgan odatdagи sentabr tonglaridan biri; janub tomondan elas-elas shamol esishni boshladи, har soniyada rus qo'shinining yangi to'lqini Donni kesib o'tadi. Oqliqlar-u piyodalar badaninisovut qoplagan, boshida pat qo'ndirilgan dubulg'asi bor. Peresvet qирг'oqqa chibib otini tinchlantirdi, yuqoriroq ko'tarilib Donni tomosha qildi, dengizni kechib o'tayotgan minglab askarlarni ko'rib g'ururlandi; hali hech qachon rus yerkari bunchalar ko'p lashkar to'plamagan va maslagida bu qadar yakdil bo'lмаган. U Donning chap qирг'og'iga kelib to'planayotgan minglab askarlarga nazar soldi, ko'ngli yorishdi, chunki kecha Oslebi bilan birga buyuk rus knyazi Dmitriy Moskovskiyga avliyo Sergiyning maktubini topshirishdi, knyaz bundan nihoyatda xursand bo'ldi. Bu maktubda knyazga oq fotiha berilgan, har bir rus askariga, piyoda-yu otliqqa duo fotiha qilingan. Peresvet tun yarmida qanday qilib Donni kechib o'tganlarini va askarboshi, dala ishlariga usta knyaz Dmitriy Volinsev to'ppa-to'g'ri otini rus va tatar qo'shnulari chegarasiga qarab surganini esladi. U otdan tushdi-yu uzoq vaqt yerga quloq tutib

turdi, keyin o'rnidan turib yer ustida kechayotgan xunrezliklardan nola chekayotganini aytdi, yerga yer depsinishini va bu g'alabadan nishona ekanligini aytdi.

Avliyo jangchi Peresvet ham yerga quloq tutdi, shu lahzada yer uni o'ziga tortgandek bo'ldi, uning qa'ridan fig'on otilib chiqmoqda edi, xuddi tirik jon kabi nola qildi. Yirtqich qushlar jimgina tun qo'ynidagi samoda kezdi, keyin qayinlarning ko'kka o'rلان shoxlariga tizildi; Peresvet ularning parvozini ichki ilohiy his bilan sezdi, mana bugun ikkalalari ham o'zlari cho'qintirilgan maskan Kulikovo qo'ynida uchrashishdi va ularning sassiz soyalari butun osmonni qurshab oldi. Peresvetning yuragi siqildi, ha, ertaga jang bo'ladi, rus yerlari uchun katta jang bo'ladi. Bunda Xudoning ilohiy belgisi bor, duoyi fotiha butun rus qurolli erkaklarini va xristianlarini birlashtiradi.

Shu payt dondan yana bir necha drujinachilar guruhi, polklar suzib o'tdi va nihoyat knyazning buyrug'i bilan hamma o'z o'mini egalladi. Xizmat vaqt Bogorodinlar tavalludiga atalgan o'sha mudhish sakkizinch sentabr kuniga to'g'ri kelgan edi, Peresvetning yana yuragi g'ash tortdi, lashkarga bir marta ko'z yogurtirdi; Nepryadving chap qirg'og'idan Dongacha bo'lgan masofa bir necha chaqirimga teng. Mana bir necha chaqirim tub yerliklar, krivichlar, suzdallar, bryanskliklar, novgorodliklar bilan to'lib-toshgan, markazda esa g'azab o'tida yonayotgan moskvaliklar polki joylashgan. «Iso surati solingan bayroq hilpiraydi, ko'zlarga quyoshning ilk zarralari ilashadi, – xayolidan kechirdi u shu'laga tikilar ekan, – qurolyarog' xuddi suv kabi mavj qiladi, slavyanlarning boshida dubulg' o't bo'lib yarqiraydi, yuzlariga shamol purkaydi».

Shu payt rusning buyuk knyazi Dmitriy Moskovskiy keldi, u ot ustida o'tirib oxirgi marta g'alaba iltijosini qildi, chehrasi o'z ulug'vorligiga xos porlaydi. Soat o'n birlar atrofida polk Qizil do'nglik tomon yo'l oldi, lashkar har bir qadami ostida pusib turgan xafvga parvo qilmay dadil odimlaydi, Qizil dashtning eng tepe qismiga Mamayxonning chodiri tikilgan, u yerda nigoh marosimi o'tkazilayapti. O'rdaliklar ruslarning bunchalar tavakkalga qo'l urishlarini xayollariga ham keltirishmagan edi. To'plar qulogni qomatga keltirib, lashkar ham ko'zga chalinadigan yerga yetib qol-

ganda hammasi sarosimaga tushib qoldi. Chodir-u ye gulguligini tashlab har tomonga alangladi, lekin bu vaqtga kelib fursat qo'ldan chiqqan edi. Hatto urush qilishga ham joy qolmagan ruslar ularni o'rmonning har ikki tomonidan o'rta ga siqib qo'ygan edi. Buyuk knyaz Dmitriy Moskovskiy knyazlik nishonini o'zining sevimli mulozimi Mixail Aleksandrovich Brenokka qoldirib birinchi qatorda jangga kirdi. Avliyo Sergiyning maslagini mahkam tutgan va ich-ichidan buyuk knyaz bilan birlik borligini his qilgan Peresvet do'sti rohib Andrey Oslyabi bilan olg'a boradi, u hamma qatori rus yerlarining yagona xaloskoriga umid bilan qaraydi, shu paytda osmondan belgi bo'ldi. Don va Nepradvning tutashgan osmonida Bibi Maryamning siyomosi paydo bo'ldi, uning marhamat bilan yozilgan qo'llarini, ko'zi va yuzini barcha ko'rdi. Peresvet ham ilohiy mujdani ko'rdi. Butun qo'shin yangi kuch bilan tatarlar sari olg'a bora boshladni, tez orada butun qo'shin jangovar baqiriq bilan jangga kirdi, otliq-u piyodalar aralash bo'lib ketdi. Mahorabaning dahshatidan yer larzaga keldi, qilich, nayza, kamon ovozidan osmon ham titrab ketdi, otlar dahshat ichida pishqiradi, yer o'lik-u yaradorlar bilan to'lib ketdi. Qarg'alar ham dahshatga tushgan, baland qayinlar ustidan o'tib uzoq-uzoqlarga uchib ketdi.

Knyaz Dmitriy oddiy sarboz kiyimida tatar xoni Tulubekning qarshisidan chiqdi, naqd urush maydonining o'rtasida knyaz va xon o'rtasida qaqqhatqich jang boshlandi. Lashkarning old qatorida turgan Peresvetga ularning olishuvi yaqqol ko'rinish turar edi. Qarshisida esa tatar bahodiri Chebuleyni ko'rdi, u ro'parasidan chiqqan rus askarlarini har tomonga uloqtirardi va nihoyat uning qarshisida Peresvet qoldi. Peresvet ich-ichidan yaqinlashib kelayotgan olishuv uning taqdiri ekanligini tushunib yetdi, olishuv boshlanganida har ikki raqib bir-biriga munosib jang ko'rsata boshladni. Bu qonli mahorabaning bir zarrasigina edi xolos, u Chebuleyning yo'lini to'sib chiqar ekan, butun Kulikovoning qalbini ko'rishga ulgurgan edi, uning qalb ko'zi ochilib hammasini aniq ko'rdi, u endi mana shu maydonda jon berishini, butun rus uning o'limini olqishlashini tushundi.

Butun Kulikovo bo'y lab qon daryo bo'lib oqdi, odamlar og'riq ichida jon bera boshladni, Peresvetning ko'zlari esa faqat uzun dubulg'a ichida qisilgan ko'zlarni ko'rdi, ikkisi bir-biri tomon

sakrab bir-biriga nayza soldi, har ikkisi yaralanib yerga yiqildi, yi-qilar ekan Peresvet issiq quyoshni ko'rdi. Keyin nayzasini boshi uzra baland tutib qayta va qayta dushman ustiga sakradi. Shunday qilib Qizil dashtning necha chaqirimini kesib o'tdi, axiri dashtning eng baland nuqtasi Mamay xonning chodirigacha yetib bordi. Xonning ko'zlarida alanga o'ynaydi, titroq ichida o'zi tomon yaqinla-shayotgan jangchining qadamlarini kuzatadi. Peresvetga bu safar Qizil dashtlikdan ortga qaytish nasib qilmadi, shu lahzada yuragi urishdan to'xtadi va ko'zları yumildi.

Lekin shu vaqt mo'jiza yuz berdi, u o'lgan bo'lsa-da hammasini bilib, ko'rib turardi. U jangchilarning qanday oh tortganini eshitdi, Butun dashtni yaradorlarning dod faryodi bilan aslahalarning jarangi tutdi. Qalqonlar maydalandi, oyboltalar sindirildi, xanjarlar os-monga ko'tarilib, qilichlar yaltiradi, knyaz Serpuxovskiyning zaxira qo'shini oxirgi qaqqhatqich zarbani berganini, o'rdaliklarning qanday qochganini ko'rdi. Dahshatli mahorabidan keyin tun cho'kdi, butun Kulikovo maydonini o'liklar va mayib-majruh odamlar bosib ketdi, havoda qon va murda isi anqidi, uzoq-uzoqlardan qon isini olgan yirtqichlar maydon tomon yo'l oldi, bir rus shahrining fojiasi boshqalariga ham uchib o'tdi, maydondagi o'liklarni yig'ib ko'mishga naqd sakkiz kun vaqt ketdi. Keyin marhumlar xotirasiga bag'ishlab qalin o'rmon qayinlaridan Bibi Maryam cherkovi qad rostladi. Bu cherkovda har shanba kuni marhumlarni xotirlash marosimlari bo'lib o'tardi, u rus xalqining bir tan-u bir jon bo'lib qozongan g'alabasining ramzi bo'lib qoldi.

Bundan-da g'alatisi, marhum Peresvetning va uning do'sti Andrey Oslyabining tanasini qayin g'o'lalari bilan o'rab olis Moskvaga olib ketishdi, ularni Moskvadagi Simonovskoy manzilgohiga dafn etadigan bo'lishdi... Avliyo Sergiyning shaxsan o'zi, rus yerining turli qismlaridan oqib kelgan xalq qatnashadi... Bu haqida Peresvet eshitadi va tinglaydi, faqat keyin xotirasidan izsiz o'chib ketadi.

* * *

Dasht qal'asidagi yer osti boyliklarini yig'ish operatsiyasi poyoniga yetdi, topilmalarning har biri diqqat bilan sinchiklab o'rganildi, Petrov diqqat bilan yuzidan qon qochgan, yag'rindor Lukatovning

so‘zlarini tinglardi. Lukatov Xolmsk gorispolkomining raisi. Petrov yaqin-yaqingacha bu odamni ko‘rganida qanday qilib ovozini ko‘tarmaslik, qanday qilib o‘zini o‘zi bosib turish haqida bosh qotirdi, buni qarangki, u bugungi suhbat chog‘ida juda kamgap bo‘lib qoldi.

— Albatta, g‘oyat mudhish xato, Konstantin Leontevich, — dedi u Petrovning nigohlaridan qochishga tirishar ekan, — yer ostini ko‘rib bo‘lmasa... qo‘limizdan nima ham kelardi... Boz ustiga gorsovets dasht ustidan inqilob bayramlarini nishonlash uchun tosh yotqizib maydon hozirlash haqida qaror chiqardi. Bu nimasi, bizga nima, Konstantin Leontevich?

— Iltimos, yaqinroq keling, — Petrov gazetaga o‘rog‘lig‘ yassi narsani qo‘liga oldi.

— Ikona, — Lukatov hayrat bilan yelkalarini oldinga tashladi, lekin yana ko‘zlarini Petrovdan olib qochdi.

— Sizningcha, bu qancha turadi? — Petrov oltindan yasalgan, deyarli yong‘oqdan kattaroq yoqut va zumraddan ishlangan ikonani zavqlanib tomosha qildi.

— Bu sizning qo‘lingizga qayerdan kelib qoldi? — Lukatov vaqtini cho‘zish uchun o‘zini go‘llikka soldi.

— Bumi? Komsomol qizlar Xolmskdan uncha uzoq bo‘lмаган Goroxovdan topishibdi... ikona taqib olgan kichkina qizcha ketayotgan mish. Aytishicha, unga buni bir amaki beribdi, onasiga olib borishini tayinlabdi, o‘zi esa o‘sha yerda yotgan mish. Boboni topa olishmadi, ikona esa mana, qarshingizda. Petrov uni yana ehtiyyotkorlik bilan gazetaga o‘radi, keyin stoli oldiga borib o‘tirdi, — sizningcha, bu nima?

— Har holda juda qimmatbaho narsa, Konstantin Leontevich, — nihoyat Lukatovning bo‘g‘iq ovozi chiqdi, — agar oltin va toshlarni hisoblaydigan bo‘lsak...

— Jim bo‘ling, — nihoyat Petrovning limmo-lim bo‘lgan sabr kosasi to‘ldi. — Jim bo‘ling endi... iltimos, hammasini pulga chaqayotganingiz emas, o‘z ahmoqligingizni hayotiy zaruratga yo‘yayotganingiz ahmoqlik. Sizga o‘xshaganlarning qo‘lidan, Lukatov, partbiletni olish kerak, sizning qo‘lingizdagи inqilob vandalizmga aylanadi.

Avvallari hech kim, na Lukatov va yana boshqasi Petrovni o'sha kungidek sokin qiyofada ko'tmagan, oradan roppa-rosa yigirma yil o'tib Bryuxanov qiyishiq o'rindiqda haydovchini kutib o'tirar ekan Petrovning esdaliklaridan bilib olganlarini xayolidan mana shunday o'tkazdi, o'zini qayta va qayta so'roqqa tutar ekan bundan hech naf chiqmadi, aksincha har gal o'zi haqida o'ylaganida xayol uni Petrov tomonga olib ketaverdi, u bilan o'tkazgan vaqtini ikir-chikirlariga-cha eslashga harakat qildi. Lukatovga keladigan bo'lsak, oxirgi yillarda xizmatda ko'plab muvaffaqiyatlarga erishdi, hozir u Xolmsk oblispolkomining raisi va fidoiy kadrlardan biri hisoblanadi. Hammasi to'g'ri, Petrov o'shanda qahri qattiqlik qilib uni vandalizmda ayblagan va ishdan bo'shatish, partiya safidan o'chirish taklifi bilan chiqqan edi, bu haqida gazetada ham kattagina maqola chiqqan. O'shanda Lukatovning ishi Moskvada ko'rildigan bo'ldi va unga qo'yilgan ayblovlar o'z isbotini topmadni, shuning uchun ham partiya safida qolib, binoyidek ishlab yurdi. Petrovning boshida esa ko'p kaltak sindi.

Bryuxanov esdaliklardan o'qib bilayotgan voqealar ozmi-ko'pmi tanish edi. Hozir uning bu qadar havotirga tushishiga sabab nima? U o'zining holatini aniqlashtirib olmoqchi bo'ldi. Eski cherkov ustida shuncha g'avg'o ko'tarib nima qilardi? Bu yerda Lukatovning gunohi nima? U qayerdan bilsin xazinasini? U yaqindagina evokuatsiyadan qaytgan Xolmsk tarixiy muzeyi fondini tekshirganini, u yerda maxsus oyna ortiga joylashtirilgan Bibi Maryam cherkovi qoldiqlaridan topilgan qimmatbaho ikonani zavq bilan tomosha qilgанини esladi. O'shanda uning oldiga Lukatov kelgandi va ikonani katta qiziqish bilan tomosha qilgan edi.

– Yoqdimi? – Jo'ngina qilib so'radi Bryuxanov,Lukatov jimgina bosh chayqab qo'ydi.

– Qachonlardir juda g'o'r bo'lганмиз, – dedi Lukatov sekin ovozda, tog'ni jilovlamoqchi bo'ldik, lekin bunga aqlimiz yetmadni.

O'shanda Bryuxanov voqeа tafsilotlarini surishtirib o'tirmagan, hatto Lukatov ochiqdan ochiq aybini tan olayotganidan ranjigan ham. Uningcha, vaqt hamma narsaga o'z hukmini o'tkazadi, boz ustiga Lukatov Petrovdan ko'ra hayotga yaqinroq inson. Keyin u uzoq vaqt esdaliklarni o'qidi, daftarlarni varaqladи. Keyin yana on-

gida qarama-qarshilik uyg'ondi, har doim bilim johillik va varvarlikdan qutulishning yo'li bo'lgan – xayolidan kechirdi u, – hamma narsa o'zgarishga mahkum, o'sha davrda yangi pishiq yo'l va katta maydon eski qal'a va xaroba cherkovdan ko'ra zarurroq bo'lgan, bu jarayonni na Petrov, na Iyeronim va na o'z maslagida sobit bo'lgan uchinchi odam to'xtata olardi, shuning uchun ham hech kimga chora ko'rilmagan. Mana endi o'rindiqqa suyangancha mashina kutar ekan, Petrovning estaliklaridan muddaosini tushungan-dek bo'ldi, u shunchaki o'zining haq ekanligini asoslab bermoqchi bo'lgan. Albatta, bu masalada u haq. Go'zallikni barbod qilish oson, Pushkin bilan Dostoyevskiyga loy chaplash oson, ularning ta'sir kuchini so'ndirishdan ko'ra minglab aqli noqis, lekin baqvat varvarlarning oyog'i ostiga tashlash oson. Gap Petrov, zohid Iyeronim yoki uning o'zida emas. Hamma gap uning hayotida, har kuni kechagi ortda qolgan kun uning hayotiga kirib keladi, har kuni bir xil yumush bilan band bo'ladi. Bryuxanov bugun o'sha hayotdan biroz chetga chiqib yana bir haqiqatni topdi, u o'z xalqini o'zi o'ylaganidek yaxshi bilmaydi.

Uzoqdan mashinaning chirog'i ko'rindi, Bryuxanov qo'lidagi tamakini qum to'ldirilgan qutiga bosdi, keyin u tomon yo'l oldi.

14

Bryuxanov ham, Chubarev ham Moskvaga bu qadar tez va shoshilinch chaqiriq sababini bilishmas edi, yo'lda hatto bu haqida gaplashishgani ham yo'q. Faqatgina chiroyli tabassumli qiz ertalabki choyni keltirganidan so'ng Chubarev g'ijinib gap boshladi, bu vaqtga kelib Moskvaga juda yaqin qolgan edi.

– Menga bunaqangi poygalar yoqmaydi, – o'shshaygancha dedi qirtishlangan platformalarni tomosha qilar ekan, – ko'riniq turibdi, urib kengaytirilgan, to'g'rimi, Tixon Ivanovich?

– Shilov dvigatelining ahvoli qanday, Oleg Maksimovich? Muravyovniki menga ma'lum, uning atrofida muttasil bahslar bo'lgan.

– Shu sababdan deb o'ylaysizmi? Yo'q, menimcha, bu yerda boshqa gap bor. Shilov ikki hafta oldin mamnuniyat bilan uchib ketgan edi, o'lcham olish juda muvaffaqiyatlari o'tgan edi... juda muvaf-

faqiyatli, u yerda uzilish bo‘lishi mumkin emas, boshim bilan javob beraman.

– Xo‘p, tushunarli, tayyorlanamizmi? – dedi g‘ildirakning yengil tin olayotganini kuzatar ekan.

– Balki, baribir endi uyqu kelmaydi, mana quyoshcha ham ko‘rinay deb qoldi, – Chubarev deraza tomonga engashdi, – Xuddi shunday, parmalab kengaytirishgan.

Yuvinib, soch-soqollarini qirtishlab, kiyinib olmagunlarigacha ikkalalari ham miq etishmadi, keyin Chubarev o‘ziga yot bo‘lgan ezmalik bilan yuragi g‘ash tortayotganini aytdi, Bryuxanov uning gaplaridan hayron bo‘ldi.

– Borganingda ko‘rasan, ne bo‘lar, ne bo‘lmas, – dedi u, – yaxshisi o‘ylamaylik, tez orada bilib olamiz.

– Oqilona gap, oqilona gap, Tixon Ivanovich, axir aytilgan-kutun ham o‘z o‘rnida, daryo ham o‘z o‘rnida deb, – Chubarev falsafiy gaplariga yakun yasab yana derazadan tikildi, bekatning nomini o‘qimoqchi edi, ulgurmay qoldi.

– Birinchi marta ham, so‘nggi marta ham chaqirilishimiz emas, ko‘nikishimiz kerak, – Bryuxanov yana shunga yaqinroq jumla topib qo‘sib qo‘ymoqchi bo‘ldi-yu lekin fikridan qaytdi. Mana kimdir bir necha marta u bilan uyda qilinadigan kichkina hazillardan biri «aravacha» hazilini qilayapti, kamiga bu hazilni juda baland ovozda qiladi, biroz atrofga alanglaydi-da pichirlashga o‘tadi, o‘ta jiddiy hazilini butun mamlakatga yo‘ymoqchi bo‘ladi, Bryuxanov xalq bilan «burjuaziya liberalizmi» o‘yinini o‘ynaydi. Mana ikki yildirki, g‘alla rejasini bajarmaydi. «Aravacha»ni boshqaradigan qo‘l shubhasiz, ko‘pni ko‘rgan, tajribali qo‘l. Aftidan, qog‘ozni qurol qilib aravani g‘ildiratishni ko‘zlagan chog‘i. Shu payt ko‘z oldiga bir moskvalik tanishining yuzi va aytgan gaplari keldi. «Sen, Tixon Ivanovich, ko‘z-qulqoq bo‘lib yur, bu qadar seni chin ko‘ngildan sevib qolgan inson kim ekan-a» degandi u, Bryuxanovning battar qovog‘i osildi, u o‘zi bir oy muqaddam MQga borib, ortiqcha hissiyotlarga berilmasdan shu yerdagi barcha javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan inson sifatida kolxozning bu yilgi g‘alla rejasini bajarishga kuchi yetmasligini, kolxozning ehtiyojlari va ko‘rilishi lozim bo‘lgan zaruriy choralar haqida ma’lumot topshirib kelgan edi. Bu ma’lumotlar hali mu-

taxassislarda ham yo‘q edi, bu paytda ular o‘zlari yuborgan so‘rovga javob kutib o‘tirishardi, tabiiyki, keltirilgan ma’lumot ular uchun mutlaqo yangilik bo‘ladi. Uni endi yangi savollar qiyinay boshladи, u bu ishi bilan yana o‘sha taqiqlangan hududga kirib qolmadimikan? Moskvaga shoshilinch chaqirilishning bir uchi kelib shu voqeага taqalmasmikan? Bryuxanov xuddi marhum estaliklarida yozilgани каби, o‘z nomidan MQda ma’ruza qilib juda katta tavakkalga qo‘l urgan edi, istaydimi yo‘qmi, endi u keltirgan ma’lumotlarning bir uchi Stalining o‘ziga borib tegadi. Bu insonning taqdiri bosh-qalarnikidan mutlaqo farq qiladi, albatta-da, masalan, biron zavod bo‘limida yoki non chiqarish sexida ishlash va jamoa bo‘lib buyuk dohiyga minnatdorchilik maktubini yozish va buyuk dohiyning noaniq tabiatidan bexabar qolish, uning injiqqliklari-yu xarakteridan bexabar qolish boshqa, bu insonni yaqindan ko‘rish boshqa masala.

Bryuxanov qulayroq o‘rnashib olar ekan, boshqa mavzuga chalg‘ishga harakat qildi. Alyonka unga kerakli kitoblar ro‘yxatini yozib bergen, lekin bunga qo‘li tegarmikan. Oxirgi kunlarda u mutlaqo o‘zgarib qolgan, to‘g‘ri, yaqinda bo‘lib o‘tgan tortishuvni inobatga olmaydigan bo‘lsak, u deyarli avvalgi holiga qaytgan. Lekin ba’zan shunday ahvolga tushib qoladiki, aqling bovar qilmaydi. Yuzi shu qadar mahzun va nafis bo‘lib qoladiki, xuddi ichini ilitib turgan yagona sham o‘chib qolmasligi uchun harakat qilayotgandek bo‘ladi. U ana shu lahzalarda butun olamni unutib qo‘yganga o‘xshab qoladi, na Timofeyevnaning shang‘illashini, na Ksenianing qiqirlashini, na savol va na murojaatni eshitmay qoladi. Uning chirroyli kulrang ko‘zlarida og‘riq bor, atrofdagi hamma narsaga xuddi begonadek, umrida birinchi marta ko‘rib turgandek tikiladi. Bryuxanov shunday vaqtarda uni bezovta qilmaslikka harakat qiladi, uy va bola bilan bog‘liq masalalarni o‘zi hal qilishga harakat qiladi. Undagi g‘alati holatni ish yoki o‘qish, avvalgidek farzandsizlik qayg‘usi bilan bog‘lab bo‘lmaydi. Qizaloq – naqd oltin, oydan oyga onasiga o‘xshab borayapti, doim uyni quvonchga to‘ldiradi, Alyonka qizi bilan o‘ynagan paytda o‘zi ham yosh bolaga aylanib qoladi, xuddi ikkisining ham yoshi tengga o‘xshaydi (ba’zan ularning safiga Nikolay ham qo‘silib qoladi), ana unda uyda haqiqiy bayram bo‘ladi. Lekin bu sokin hayotda nimanidir o‘zgartirish kerak, hammasi shu

yo'sinda davom etishiga toqat qilib bo'lmaydi. Lekin aynan nimani? – u avvallari ham bu savolni o'ziga bir necha bor bergan. Hozir ham shu haqida o'yladi-yu, hayotidagi dahshatli haqiqatlardan birini tus-hunib yetdi. Ularning munosabati quyidagicha: ulardan biri ikkinc-hisini sevadi va ikkinchisini ham deyarli har soatda o'zini sevishga majbur qiladi. Xo'sh, shunday ham ekan deylik, agar oraga uchinchi kimsa suqlugudek bo'lsa, Bryuxanovning falsafasi qaysi tomonga yo'l oladi.

Oxirgi kunlarda miyasiga o'rashib qolgan bu fikrdan Bryuxanovning tishlari g'ichirladi, g'azab bilan vagon oynasidan o'rmondag'i qayin ko'chatlariga tikildi. Qanchalar mudhish bo'lmashin, hammasini oxirigacha o'ylab olish kerak, o'zi doim Alyonkaga shunday deb uqtirib kelgan. U mavjud bo'lgan taqdirda ham, o'sha uchin-chi, – Bryuxanovning mushti tugildi keyin hamrohiga bo'yinbog'ini to'g'irlayotgan odamdek bo'lib mushtini yozdi, kekirdagi bo'rtib yutindi, – qo'lidan hech narsa kelmaydi, u senga hech narsa qila olmaydi, Alyonka ham jon-jahdi bilan iliq munosabatlarini saqlab qolishga harakat qiladi. Lekin bu munosabatlarda ko'p narsa o'ziga ham bog'liq, hayot o'zgaruvchan narsa, oldindan bir gap aytish qiyin.

Jo'shqin shahar sari bir necha qadam bosishlari bilan bar-chasi butkul yoddan chiqdi, oxirgi haftalarda uni qattiq bezovta qilayotgan og'riqli fikrlar tumtaraqay bo'lib ketdi. Kelishlari bilan majlisga chaqirishdi, yelkasiga nishoni o'rnatilmagan mundir kiygan mulozim hamrohligida majlis binosiga yetib kelishdi. Bino katta, derazalari baland. Xonaga kirishlari bilan ko'zları o'zaro chaqchaqlashib turgan to'rt kishiga tushdi. Chubarev ham, Bryuxanov ham bir qarashda ular orasida turgan Stalinni ajratib olishdi. Unga uzoqdan bosh egib, keyin oldiga borishdi, salom-alik quyuq bo'ldi, Stalin ulardan safar qanday kechgani ni so'radi, keyin oblast va zavod ishlari bilan qiziqqan bo'ldi, reaktiv dvigatellarga oid yopiq tadqiqot tez orada e'lon qilinishi haqidagi gaplardan so'radi. Chubarev shu zahoti hozirjavoblik qilib dohiyning og'zidan gapini oldi, Stalining yuziga tabassum yugurdi, aftidan bu ikki inson orasida na Bryuxanov va na boshqalar o'rnatishga qodir bo'lmagan o'ziga xos yaqin-

lik bor edi. Chubarev gapida Bryuxanovga notanish bo‘lgan familiyalarni keltirdi, u hozir o‘zini g‘oyatda dadil va erkin his qilayotgan edi. Stalin va Chubarev berilib suhbat qurar ekan, Bryuxanovning ko‘zi yaqingacha Zejsk motor zavodining direktori bo‘lgan Muravyovga tushdi, u ushbu tanish chehrani yana bir marta obdan kuzatishga muvaffaq bo‘ldi, uning peshonasidagi uzun ajinlari, labining ikki yonidan osilib tushgan mo‘ylovi va asabiy yuziga sinchiklab qaradi. U suhbatdoshlarining har bir gapini diqqat bilan tinglayotgan edi. O‘z vaqtida bu inson bilan o‘rtasida talaygina kelishmovchiliklar bo‘lib o‘tgan, lekin hozir Bryuxanov o‘tgan ishlarni eslashning mavridi emasligini yaxshi biladi. U hozirgina ushbu kimsa ham unga boshdan oyoq ko‘z yugirtirganini ko‘rib hayron qoldi. Oxirgi vaqtarda bu kimsa ancha o‘zgargandek bo‘ldi, avvalgidan ko‘ra demokratroq, jamoat ishlarida faolroq bo‘lib borayotgan va ayni vaqtda o‘sha-o‘sha yopiq insonligicha qolayotgan edi. Bryuxanov qolgan suhbatdoshlarni tanimas edi, Stalining bir maromda guldirak chiqayotgan ovozidan ich-ichidan muzlab ketdi.

— Sizdan, o‘rtoq Chubarev, bir masalani so‘ramoqchi edim, — dedi u xotirjamlik bilan, keyin o‘z odati bo‘yicha tiliga ko‘chirmoqchi bo‘lganlarini boshida pishitib oldi, — ayrim o‘rtoqlarning ta‘kidlashicha, sizning ish tamoyillaringiz bizning mafkuramizga zid bo‘lib qolayotgan emish.

— Imkonni bo‘lsa, aniqroq aytangiz, o‘rtoq Stalin, — Chubarev shu zahoti savolga savol qaytardi, Bryuxanovning ichi ag‘dar-to‘ntar bo‘lib ketdi, Muravyov tezlik bilan oldiga kuldanni tortdi, tamaki kulini silkib, ustma-ust gugurt chaqa boshladi, xuddi hammani mitti quvnoq gulxan atrofiga yig‘ib olganga o‘xshardi, Stalin u tomonga qarab kulib qo‘ydi, lekin hech nima demadi.

— Aniqroq, — so‘radi oldingidek xotirjam va o‘ychan alfozda, — Masalan, o‘rtoq Chubarev, siz o‘zingizning boshqaruv ishingiz va faoliyattingizga so‘qir g‘arb tajribasi va ilmini qo‘llamoqdasiz, to‘g‘rimi, bu bilan ajdodlarimiz ilm-fanini kamsitib, chetga surib qo‘ymadingizmikan? Shuni nazarda tutgan edik, — Stalin trubkasini og‘zidan olib stol atrofidagilarga ko‘z yugirtirdi. — Biz, o‘rtoq Chubarev, sizning bu boradagi fikringizni tinglamoqchi edik.

Chubarev hayratga tushdi, aytilgan gaplardan dong qotib qoldi, keyin shaht bilan ikki qo'lini stolning ikki tomoniga tiradi-yu o'rnidan sapchib turdi.

— Men, o'rtoq Stalin, sizga kecha ish boshlagan odam emasman, — qat'iyat bilan davom etdi, — bugungi kun fan-texnikasi har qachongidan-da cho'qqiga chiqdi, hech kimga ma'lum bo'lmasa-da sizga kaftdek ayon, yana kimga qanaqa. Faqatgina o'z mamlakati ilm-fanini o'rganish, xorij mamlakatlarining tajribasini o'rganmaslik ortda qolishimizga sabab bo'ladi. Bu xuddi o'z dumini tishlash uchun aylanib yugurishga o'xshaydi. Ha, men talab qilganman va bundan keyin ham har bir muhandisimdan g'arb tajribasini o'rganishini va amaliyotda qo'llashini talab qilaman. Bularning hech biri, o'rtoq Stalin, Rossiyaning zavoli uchun qilinayotgani yo'q, aksincha, uning kelajagi va xalqining farovonligi uchun qiliniyapti. Qaysi it emgan, ma'zur tuting, sizga bunday bo'htonni yetkazdi?

Stalin avvalgidek xotirjamlik bilan trubkasini tutatishda davom etdi, Chubarev o'miga o'tirdi, shu bilan qaytib gapirmadi. Stalining ko'zлari bir-biriga ishqalab gugurt chaqayotgan Muravyovning qo'llariga qadaldi, Muravyov hamon gugurt chaqib ularni kuldon-ga ustma-ust tashlashda davom etardi, garchi qo'llar gugurt yo-qishdan to'xtamagan bo'lsa-da bu kimsaning labi yonidan tushgan mo'ylovleri asabiy osilib qoldi, Stalining ko'zлari uning qo'l harakatlarini diqqat va qiziqish bilan kuzatishda davom etdi, Muravyov bu gal o'ziga qadalgan nigohlarni sezdi, ammo loqaydlarcha bu nigochlarga parvo ham qilmay gugurt chaqishda davom etdi. Hozirgina Stalining og'zidan chiqqan gaplarning muallifi ham aynan shu kim-sa, shunga qaramay o'zini mutlaqo befarq tutib o'tiribdi. Lekin hozir Stalin uni biroz avval aytgan gaplari uchun emas, o'zining ozmi-ko'pmi hosil qilgan psixologik tajribasi vajidan kuzatayotgan edi. U hozir hatto Muravyov haqida o'ylayotgani ham yo'q, uning xayoli marhum Petrov xotirasi bilan band edi, uning urushdan oldindi jo'shqin faoliyati ham Chubarevning qamoqqa olinishi bilan bog'liq edi, Stalin biroz kalovlanib qoldi, lekin bu xotira hech qanday hissi-yot uyg'otmadni, u kundalik hayotda qalqib chiqadigan minglab xotiralardan biri, e'tiborli jihatni hozir aynan u diqqat markaziga chiqib qoldi. O'shanda Chubarevning ishini vazirlik yoki MQning muta-

saddi bo'limlari bilan ko'rib chiqish ham mumkin edi, lekin hayotda hammasi doimo ayqash-uyqash bo'lib kelgan, bundan tashqari Chubarevning Petrov bilan o'zaro shaxsiy aloqalari ham bo'lgan, bu ham har gal Chubarevning oyog'idan tortib turgan (ta'kidlash joizki Petrov ishbilarmon, uzoqni ko'ra biladigan, ishbilarmon odam edi). Hozir bu inson atrofiga yopiq doira chizib olgan, faoliyati u bilan aloqador insonlar hech qachon yakuniy qaror chiqarishga oshiqishmaydi, aksincha bu vazifani uning o'ziga qoldirishadi. Albatta, u uchun vaziyatni o'zgartirish pista po'choqday gap, lekin har doim unga o'zi ham nomini bilmaydigan tuyg'u qarshilik qilgan, balki bu zaif bo'lsa-da, hech narsani o'zgartirishni istamaslik xohishidir.

Stalin butun stolni diqqat markaziga oldi, lekin hozir uning asosiy nishoni Chubarev va u bilan yonma-yon o'tirgan Bryuxanov, u bugun Bryuxanovga alohida e'tibor qaratishni istamadi, bu ozmiko'pmi marhum Petrovni xotirasiga yo'latmaslik istagi bilan bog'liq edi, modomiki, unga hozir tirik odamlar kerak ekan, marhamat, ularning bari stol atrofida jam bo'lib turibdi.

Stalining fikr oqimi sustlashdi, Bryuxanovning peshonasi asabiy tirisha boshladи, Stalin iloji boricha unga e'tibor qaratmaslikka harakat qildi. Aytarli biron gap bo'lmadi, shunchaki u ong ostida hayotida yetishmayotgan narsalarni ushlab turishga harakat qildi, Petrovning o'limidan keyin uning hayoti qaysidir ma'noda kirlandi, tubanlashdi. Shuning uchun ham Chubarev masalasi bilan shaxsan o'zi shug'ullandi, qo'liga kelib tushgan Petrovning qog'ozlarini esa Bryuxanovga berdi.

– Shunga qaramay ayrim o'rtoqlar ilm-fan va ishlab chiqarishda qo'llaniladigan bunday metodlar mamlakatimiz sha'niga dog' tu-shiradi degan fikrdalar, – dedi Stalin ma'lum muddat uzilib qolgan suhbatni ular ekan, – Chubarev o'z ishining ustasi, uni nafaqat mamlakatda xorijda ham kuzatuvchilari ko'p, – Stalin shunday gapirdiki, Muravyov tomonga qarab chimirilgan qoshlaridan uning oxirgi jumllalari kimga qaratilgan ekanligini bilib olish qiyin emas edi. Lekin Chubarevdan boshqa hech kimning ko'rinishi o'zgarmadi, ular bu masalada bosh irg'ab Stalinga hamfikr ekanliklarini bildirib qo'ydilar, – oxirgi oyda Qo'shma Shtatlar matbuotida Chubarev nomi o'n bir marta tilga olindi.

— Meni sariq matbuot olqishlagani bilan maqtanish shart emas, — Chubarev yana o‘rnidan sapchib turdi, — ishbilarmonlik u yerda ham, g‘arbda ham bu bilan o‘lchanmaydi. Mamlakatning haqiqiy kuchi uning ilmiy va ishlab chiqarish salohiyati bilan o‘lchanadi. Ummim davomida neki qilgan bo‘lsam, barchasini mana shu salohiyatni oshirish uchun qildim. Boshqa tomondan kimdir mendan olg‘irroq chiqsa, qandini ursin, bundan faqat suyunaman. Odatda tafakkur ehtirosdan oldin va keyin qo‘zg‘alib qoladi, lekin ehtiros vaqtida u ortiqchalik qilib qoladi. Balki men allaqachon bu sahnani tark etishim kerak bo‘lgandir, oltmishni qarshilayapman, axir.

Chubarev borjomidan quyib ichdi, keyin hech kimga qaramay o‘rniga o‘tirdi. Uning ro‘parasida yuzi bir alfozda Muravyov o‘tirardi, u Chubarevning gaplarini eshitib ham bir alfozda gugurt o‘ynab o‘tiraverdi.

— Ha, ba’zi o‘rtoqlar shunday o‘ylashadi, — Stalin stol atrofidagi-larga bir qarab qo‘ydi, keyin yengil qadam tashlab xonanинг boshqa burchagiga o‘tdi. — Ular sizni biroz yengilroq, javobgarligi ham pastroq ishga o‘tkazishni taklif qilishdi, o‘rtoq Bryuxanov, — dedi kutilmaganda Stalin, — menimcha, siz o‘rtoq Chubarevni uzoq yillardan beri bilasiz, o‘rtangizdagi munosabatlar ham qalin. Bu masalada nima deb o‘ylaysiz, o‘rtoq Bryuxanov? Shart emas, o‘tiring, o‘tirsangiz-chi...

— Bu masalada faqatgina bir fikrni bildirishim mumkin, o‘rtoq Stalin, — Bryuxanov yengil harakatlar bilan o‘rnidan turdi, — Oleg Maksimovich birinchi darajali mutaxassis va tashkilotchi inson. Siz aytayotgan janoblar, o‘rtoq Stalin, nimani nazarda tutishganini bilmayman. O‘rtoq Chubarevni yoshini bahona qilib ishdan chetlatilishi mamlakatimiz uchun ham, partiyamiz uchun ham katta yo‘qotish bo‘ladi. Shaxsan men bunga qarshiman. Oleg Maksimovichning chet el tajribasini o‘zlashtirish xususidagi qarashlariga to‘laqonli qo‘shilaman. Faqatgina shu yo‘sinda yuksalish mumkin.

— Biz bu masalani o‘ylab ko‘rdik, o‘rtoq Bryuxanov, — Stalin oynadan qorong‘i tortib borayotgan osmonga qaradi, — Ha, biz bu masalani yana bir marotaba sinchiklab o‘rgandik, — shubhasiz, u ho-

zir bir gapni takror-takror aytib o‘z fikrlarini tartibga solib olayapti, – o‘ylaymanki, o‘rtoq Chubarev bizni to‘g‘ri tushunadi, u haqiqiy erkak. O‘rtoq Chubarev ish uchun juda zarur odam, – Stalin bir maromda gapirishda davom etdi, qolganlarning yuragi esa gapning oxirini kutib gupurlab ketdi, Bryuxanov Stalining yuzi borgan sari yorishib borayotganini payqadi. – Biz ehtiyyotkor bo‘lamiz, ogoh bo‘lamiz, lekin bu biz dushmani o‘zimizga yaqinlashtiramiz degani emas. Biz bunga aslo yo‘l qo‘ymaymiz. To‘g‘ri, o‘rtoq Chubarev davlat va jamiyat uchun juda katta xizmat qildi. Komil ishonch bilan aytamizki, endi ham bundan kam xizmat qilmaydi. Bundan tashqari, siyosiy byuro o‘rtoq Chubarevni mamlakat oldidagi xizmatlari uchun «Sotsiolistik mehnat qahramoni» unvoni bilan taqdirlash g‘oyasini ilgari suryapti, bilishimcha, Oliy kengash prezidiumi ham buni qo‘llab-quvvatlaydi.

Hamma o‘rnidan turdi; Bryuxanovning yuragi hapqirib ketdi, u Stalinga mamnuniyat bilan qaradi. U bugun va aynan hozir keyingi hayoti va faoliyatining qay tomonga burilib ketishini taxmin ham qila olmas edi. U hozir momaqaldiroq tingenini, yengillik hissini tuya boshlaganini va badanini g‘alati zaiflik qurshab olganini tushunib sezib turardi. Tezroq majlis tugab shu stoldan turib ketishni kuta boshladi. Bryuxanov Muravyovning bo‘zarib ketgan basharasiga qaradi, u o‘ziga tushgan nigohlarni ko‘rishi bilan tepa labini xiyol ko‘tarib iljaygan bo‘ldi. Yana Stalining momaqaldiroqday ovozi yangradi, Bryuxanov uning ichida yangragan o‘z ismini ilg‘ab qoldi, Stalin birinchi so‘zni talaffuz qilishi bilan «aravacha» maqsadga yetdi deb o‘yladi, balki hammasi bundan-da yomonroq tus olar. Qo‘rqinchli va tushunarsiz insonning ishonchiga kirgandan ko‘ra o‘z xohishi bilan minbardan tushish yaxshiroq.

– Menimcha, o‘rtoq Bryuxanov, – dedi Stalin o‘scha ohanda, – siz to‘g‘ri yo‘ldasiz. O‘tiring, o‘tiring, – u yana joyidan qo‘zg‘alayotgan Bryuxanovni to‘xtatib qoldi, – siz asosiy jihatni juda to‘g‘ri ta‘rifladингiz: zamonaviy ilm-fanni bir daqiqa bo‘lsin to‘xtatib bo‘lmaydi.

– «Xo‘s, xo‘s, xo‘s, xo‘s» – ko‘nglidan o‘tkazdi, u hozir bor kuchi bilan xotirjamlikni saqlab qolishga va xotirjam ko‘rinishga harakat qilar edi.

– Biz sizni yangi bir ishga rahbar qilib o'tkazmoqchimiz. Ishonchim komil, barchasini uddalaysiz. Bu mamlakat mudofa-asasi bilan bog'liq ish. Oldingi lavozimingizga odam topish qiyin bo'lmaydi, Stalin gapini Bryuxanov e'tiroz qilishi mumkin bo'lgan o'ringa nuqta qo'yib tugatdi, kamiga unga yangi lavozimi o'ta munosibligini pisanda qilib o'tdi. Stalining og'ir tabiatи va ko'rinishi Bryuxanovning ichidagi hamma narsani bir nuqtaga siqib qo'ydi, shu zahoti u Petrovning maktublari haqida o'ylay boshladi, lekin shu lahzada tushunib yetdiki, hozirgi holatiga bu qog'ozlarning sira aloqasi yo'q. U Stalining nigohiga dosh berish uchun butun irodasini bir joyga yig'di, uning qarshisida hech kim va hech qachon ko'rmagan, hech kim va hech qachon ko'ra olmaydigan hodisalarga nazar solgan nigoh turardi, yoshi bir joyga borib qolgan odamning bu qadar sirli bo'lishining o'zi g'alati. «Yo'q, xayolidan o'tkazdi u, – bu yerda Petrovning qog'ozlari nimanidir anglatadi. Hech narsa shunchaki sodir bo'lmaydi. Bir vaqtlar u Petrov bilan partiya ishiga yaqinlashmasligimni kelishib olgan edi, boz ustiga marhumlar bilan kelishish oson, ular o'rtasidagi munosabatda kutilmagan burilishlar kutishning sira hojati yo'q... hay mayli, hay mayli... boshliq bo'lsa boshliq-da.

Shu pallada Bryuxanov o'zini yumshoq to'shamal gilam ustida yurgandek his qildi, bosishi lozim bo'lgan har bir qadamini belgilab berayotgan qariyaga nisbatan g'azabni his qildi, hamma undan o'lardek qo'rqadi, Chubarevdan boshqa hech kim balandroq yo'talishga ham jur'at qila olmaydi. Bryuxanov boshining orqasini qashlar ekan, ro'parasidagi odamga barchasini ro'yi rost gapirib berish haqida o'ylay boshladi, hamma-hammasini, ipidan ignasigacha, qanday o'ylagan va qilgan bo'lsa shunday, xalq qanday yashayotganini, bir daqiqa bo'lsin paysalga solib bo'lmaydigan ishlar borligini va oxirida Petrovning qog'ozlari haqida nima deb o'ylashini aytadi, keyin nima bo'lsa bo'lar, uning hozir yengib bo'lmas istagi shu. Ko'nglidagi g'azab so'ndi, u endi o'ziga nisbatan adolatsizlik qilishganini yaxshi biladi, o'tmishdagi barcha ishlarda va eng muhimmi o'z hayotida, shubhasiz, u haq bo'lgan. Lekin hozirgidek qolgan umr qanday kechishini hal qiladgan miyani gangitib qo'yadigan lahzalar bo'ladiki, u paytda o'zingni suhbatdoshing o'rniga qo'yib

ko‘rishing kerak bo‘ladi. Ayon bo‘lishicha, aniq ko‘rinib turgan haqiqat shundan iboratki qarshisida turgan bu o‘rta bo‘yli inson (endi Bryuxanovda zarracha bo‘lsin shubha qolmadi) bekorga zudlik bilan boshqa ishga o‘tkazish rejasini tuzmagan.

— Xo‘sh, o‘rtoq Bryuxanov, bizning taklifimizni qabul qilasizmi, — Stalin bir zumga uning qarshisida to‘xtadi. Ovozi oldingidek bir maromda jarangladi, xira nursiz ko‘zlar esa o‘zgarishsiz qoldi. Avvaliga bu ko‘zlar Bryuxanovga ham hamma qatori amirona qaradi, u bir marta bir umrga yopiladigan dunyoni namoyon qildi. Agar hozir Bryuxanovning o‘zi ko‘zlarini olib qochib, ularni Stalindan berkitsa, Stalin hech qachon xalqning og‘ir turmushidan xabardor bo‘lmaydi, hech qachon zaruriy choralar ko‘rish kerakligini o‘ylab ko‘rmaydi, har holda Stalining o‘zi shu fikrda edi. Bir kun kelib barchasi tog‘dek uyuladi va katta falokatga aylanadi. Mana necha yildan beri amerikaliklar bilan kuchlarni tenglashtirish yo‘lidagi urush ketayapti, aynan u butun xalqning ahvolini, qanday choralar ko‘rish kerakligini yaxshi biladi. Aynan uning nolishga haqqi yo‘q.

— Kechirasiz, o‘rtoq Stalin, sira kutilmagan taklif bo‘ldi, — Bryuxanov hayron bo‘lib o‘rnidan turdi, — men yetarlicha tayyormikanman, buning uchun maxsus bilim talab qilinadi.

— Bizga dunyoqarashi keng tashabbuskor, kommunist boshliqlar kerak, bilim esa biroz vaqt talab qiladi, — Stalining ovozida kutilmagan chorlov bor edi. — Qolaversa, siz u yerda yolg‘iz bo‘lmaysiz. Ilmiy masalalarning birini o‘rnbosaringiz o‘rtoq Muravyov hal qiladilar va yana bu yo‘lda yelkadosh bo‘ladigan boshqalar ham siz bilan birga bo‘lishadi.

— A ha, tan olish kerak, juda dabdabali ish bo‘ldi, ayniqsa, Lukatov masalasini olib qaraydigan bo‘lsak, — dedi Chubarev uning yuziga tikilar ekan, yana nimadir demoqchi bo‘ldi-yu fikridan qaytib jimib qoldi.

15

Oradan bir haftalar o‘tib Muravyov qo‘ng‘iroq qildi, u Chubarevni yangi mukofot bilan tabrikladi, tez orada barcha ishlarini bitirib shaxsan o‘zi Xolmskka borishini va o‘z ehtiromini bildirishini aytди. Muravyovning qo‘ng‘irog‘idan keyin Bryuxanovdan qo‘ng‘iroq bo‘ldi, keyin esa

MQdan qo‘ng‘iroq bo‘ldi, uni yangi ishlab chiqarish bilan muborakbd qilishdi. Kun oxiriga borib Chubarev nihoyatda charchadi, kun deyarli go‘sakni ko‘tarib tabriklargacha javob qaytarish bilan o‘tdi.

Yana bir kuni unga obkom orqali yetib kelgan telegrammani ko‘rib hang-u mang bo‘lib qoldi, ko‘zlariga ishonmay qayta-qayta qatorlarni o‘qiyverdi.

«Mashaqqatli mehnat faoliyatingizga o‘z ehtiromimni izhor qilaman. Shaxsiy hayotingizda sog‘liq va baxt tilayman. Xalqimiz yo‘lida yanada ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

I.Stalin».

«I. Stalin», «I. Stalin» – takrorladi u Sialkovskiyning og‘ir, g‘adir-budir peshonali haykoliga tikilar ekan, xayoliga MQdagi oxirgi suhbat tushdi, unda mamlakat reaktiv aviatsiya qurilishini yuqori bosqichda jadallashtirish, Xolmsk motor zavodining oxirgi ilmiy tadqiqotlarni amalda qo‘llash markaziga aylanishi va bir maqsad yo‘lida ishlaydigan o‘nlab institut, byurolarni tashkil qilish yo‘lidagi qiyinchiliklar haqida bo‘lgan edi.

Chubarev yana bir marta teleogrammaga ko‘z tashlamoqchi bo‘lgan edi, ulgurmadi, ustiga yana bitta telegramma olib kelishdi, tabriklar to‘lqini tog‘dan tushgan ko‘chkidek yopirilib kela boshladi, undagi gaplarni aytmaysizmi, kimdir uni aviatsiyaning otasiga, kimdir esa naqd Jukovning o‘ziga qiyosladi, lekin mana necha kundirki, hech kimning uning naqadar charchagani bilan ishi ham yo‘q. Mana uning nevaralari bobo kimligini bilmay ulg‘aydi. Umr o‘tib borayapti, u esa ishdan boshqa narsani ko‘rgani yo‘q. Uning yoshidagi «Oltin yulduz» ham yangi javobgarlik, yelkasini ezadigan yuk, iste’mol ko‘rgazmalarida dvigatellar ayyuhannos soladi, har bir xorij safarini aytmaysizmi, bechoraning asablarini chunonam sinovdan o‘tkazadi, bir tamaddixonaga kiradi-yu qontalash bo‘lib ketgan oyoqlarini bog‘laydi yana hech narsa bo‘limgandek o‘rnidan turib bir narsa orttiraman deb ko‘cha kezadi. Qani edi bundan charchagan faqat u bo‘lsa. Xalq kutib turmaydi, jarayonni to‘xtatib qo‘yib bo‘lmaydi, aslida Stalinning barcha harakati ham shundan, kimda-kim shiddatkor zamonning yo‘rig‘iga yurmasa, hammasidan mahrum bo‘lib qolaveradi. Masala shunday qo‘ylgan,

istaysanmi yo'qmi u bilan murosa qilasan. Sira ajablanarli joyi yo'q, shunchaki ishingni topshir, keyin suv yuzidagi loy aralash ko'pikday paq yorilib yo'q bo'lib qolasan, tajribada kuzatilgan, hech kim seni bu yerda ushlab qololmaydi, yana o'sha oyoqlaring bo'tana bosib qontalash bo'ladigan joyga ravona bo'lasan. A ha, mana u, dedi u jiringlayotgan telefonga qarab, bu qo'ng'iroqqa shaxsan o'zi javob berishi kerak, keyin yuzida nim tabassum bilan go'shakni og'ziga tutdi. Hammasi qanday bo'lishi kerak bo'lsa, shunday davom etayapti, ruhni cho'ktirishga sira hojat yo'q, bu uyatsiz go'shak har hafta har bir bosib o'tilgan millimetr uchun hisob so'rashda davom etaveradi.

— Ha, Chubarev, — dedi u go'shakni qulog'iga yengil bosib. — Sizni eshitaman, ha... ha... ha... ha.... bilaman, bu borada imkon darajasidagi hamma choralar ko'riliyapti... Shilov Andrey Pavlovich? Nimadir bo'ldimi? ... Hech narsa? Albatta, u deyarli yarim yil shu yerda bo'ldi, juda katta ishchanlik namunasi... xo'sh, xo'sh, albatta, xursandman, juda xursandman. Unga ehtiromimni yetkazing... Zavod aerodromimi? Albatta, har doimgidek, hammasi joyida, o'rtoq general konstruktorni mukofotlayapmiz, xuddi badani qizigan ot kabi, hech narsani sezmaydi... ha? Rahmat, rahmat, har doimgidek, ish urchib yotibdi, kutamiz, kutamiz, xayr, omadli bo'lsin!

Chubarev go'shakni ildi, ko'z oldiga qorni qappaygan, qu-loqlarining tog'aylari bo'rtib chiqqan konstruktor Shilov keldi. U mamalakatdagi bиринчи klass dvigatellarining ixtirochisi. Bu odamning tabiatiga sira toqat qilib bo'lmaydi. Zavodga kelib ketadigan konstruktchlarning boshi-keti ko'rinxanidi, u birinchisi ham emas, oxirgisi ham emas. Lekin uning tashrifi haqida doim Stalin qabulxonasining o'zidan ogohlantirish bo'ladi; qiziq, buning hikmati nimada ekan? Bu qandaydir Shilov deganlariga reaktiv dvigatellarning konstruksiyasini ko'rsatish shunchalik zaurumi? Nima uchun?

Chubarevning ko'z oldiga Muravyovning shirakayf vaqtida-gi bema'ni kulgisi keldi, birdan yuzi burishib ketdi; obbo, bularni asti qo'yaversiz, ehtiyot qilishadi, tekshirishga bo'rishadi, modomiki, ish borib Shilovga taqalar ekan, oldindan nima bo'lishini

bilib bo'lmaydi, hozir eng asosiysi – dvigatellarni o'tkazib olish, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ishni yo'lga qo'yib olish, qolgan hammasiga, uni vahimaga solayotgan hodisalarga e'tibor bermaslik kerak, Xudo marhamatli, ajab emas hammasi ko'z ochib yunguncha o'tib ketsa, unga Stalin bilan bog'liq yigirma ikki yillik tajribasidan ma'lumki, nimaiki rejalashtirilgan bo'lsa, uzoq vaqt kutib o'tirilmaydi.

Chubarev bosh konstruktorni kutib olish uchun tayyorgarlik ko'rishni boshladi, biroz o'ylab ko'rgach aerodromga o'zi borishga qaror qildi va yo'lga tushdi. Yo'lda qarag'aylari quyoshga yetib qolay degan shinamgina zavod mehmonxonasi bor, Chubarev Shilovni devorlari mayda oyna bo'lakchalari bilan bezatilgan zavod bo'linmasiga olib keldi (umuman olganda, Chubarev bu joy bilan har doim faxrlanib kelgan, chunki bu vaqtda mayda freska topish ham muammo bo'lib qolgan edi). Chubarev unga kichik buyron, ATS, xonalar, konferensiyalar zali, alohida kirish-chiqish yo'lagi qilingan direktor xonasini ko'rsatdi.

– Keng quloch yozib, shohona yashayapsiz, – Shilovning do'rillagan ovozi yangradi, keyin devorga ilingan suratlarni tomosha qila boshladi, uch qator ishchilar surati oldiga borib uzoq vaqt qolib ketdi, uning e'tiborini ayrim suratlarga tortilgag qizil va qora chiziqlar tortgan edi.

– Qalay, hammasi kaftdagidek bo'lib turibdimi? Shaxsan o'zimning kashfiyotim, patent olsammikan deb o'ylab turibman. Sex boshliqlari bu taxtadan o'Igudek qo'rjadi. Yomon ishladimi – qora chiziq, yaxshi ishladimi – qizil chiziq. Ko'rib turganingizdek qizillar kamroq.

– Serg'ayrat otlarni bilaman... yordam berayaptimi? – Shilov boshini yoqalari ichiga tortib qushga o'xshab qunishdi, kichkina ko'zlar bilan rang tortilgan rasmlarni sanay boshladi.

– Bunaqa usullar ham kerak, harqalay o'z o'mini bilib oladi, – Chubarev suv va uzun billur qadahlarni oldi. – Juma kuni sarhisob qilib yana chizamiz, bitta qora chiziqmi ogohlantirish, ikkita qora chiziqmi jiddiy chora, uchinchi qora chiziqdan keyin zavod bilan xayrashadi.

– Oghlanliganingiz yaxshi bo'ldi, inobatga olib qo'yaman, – Shilov kuldi. – Xo'sh, Oleg Maksimovich, asosiy ishimiz nima bo'layapti? Metallurgiyada nima gap?

– Yupatish uchun aytiladigan darajada kam, halqumga sig‘gudek, Andrey Pavlovich. Talab qilayapmiz, yuklatyapmiz, so‘rayapmiz, Siyosiy byuroga qadar chiqdik. Yuqori sifatlari po‘lat, shvedlarniga o‘xshash, afsuski, hali yo‘q. Har kuni yangi natijalar bo‘lishiga va’da berishadi.

– Mening vazifam juda og‘ir, Oleg Maksimovich. O‘lsang o‘l, lekin vazifangni qil. Dvigatel resurslarini o‘n-o‘n besh foizga oshirish kerak. Ko‘rib turganingizdek, hammasi quruq gap. Menga ham hayot bir marta beriladi, – Shilov o‘zini oldinga tashladi, hatto qalin tog‘aylarining uchi ham oqarib ketdi, – ko‘rgandirsiz, ortda qolganlarini yopishlarini-yu amerikaliklarning oxirgi natijalarini...

– H-m, – dedi Chubarev Shilovning yuziga yana bir qarab, – ular menga ma’lum, onajonlarim-ey, ko‘rsatkichlarni aytayapman, – Chubarev ko‘z qisib qo‘ydi, u dangalchi odamlarni yoqtirardi. – Nima ham qilar edik, ko‘ryapsiz, mening xotirjam hayotim nihoyasiga yetgan. Hay mayli, odatlanmaymiz... gap o‘rnida gap... Sizga, azizim Andrey Pavlovich, kartalar qo‘lingizda.

Shilov jimb qoldi, yana qiziqib taxtadagi suratlarni tomosha qila boshladi, lekin qaytib gap boshlamadi; ular bir-birlarini urush yillaridan beri bilishadi, o‘shanda hukumat qarori bilan Uralda reaktiv minomyot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishgan edi, shundan beri bir-birlarini yarim gaplaridanoq tushunib olishadi, lekin qirq birinchi yilning qishida oralari buzilib, ashaddiy dushmanlarga aylanib qolishdi, Stalining qattiq dashnomigina oralalarini iliqlash-tirdi.

Hozir ikkisining xayolidan qirq birinchi yilning qishi o‘tdi, o‘shanda zavodning uchdan bir qismini qor bosgan edi, chizmalar, temir aslahalarning barchasi qor ostida qolgan, chilangarlar, montajchilar, armaturachilar, betonchilar qor ichidan o‘rmalab chiqib o‘zlarini har tomonga ura boshlashdi.

«Men buyruq imzoladim, Andrey Pavlovich, o‘n beshinchi de-kabrdan asosiy ustaxonalar ishga tushadi, – kuchli shamol Chubarevning og‘zidan gapini yulib uzoq-uzoqlarga uchirib ketardi, – birinchi smena ertalabki oltida, o‘zimiz bilan olib kelgan ehtiyyot qurilmalari ni yig‘a boshlaymiz».

«Kechirasiz, ertaga ham kun bor-ku, – Shilov bir-biriga yopishib qotib qolgan kipriklarini tepaga ko‘tarib tushira boshladi, – men ni-manidir tushunmayapman».

«Albatta, ertaga».

«Buning iloji yo‘q, Oleg Maksimovich».

«Bu urush yillarining buyrug‘i».

«Bizda o‘lim holati bo‘ldi, Oleg Maksimovich, bugun to‘rtta o‘spirin muzlab qoldi, hammasidan xabaringiz bor».

«Men faqat bir narsani bilaman... mamlakat jar yoqasida. Harakat qiling. O‘tinaman sizdan birinchilardan bo‘lib shaxsiy namuna ko‘rsating».

«Bu odamga xos bo‘lмаган вахшийлик-ку, – dedi Shilov chidab turolmay, – вахшийларча исхаб чиқариш. Oleg Maksimovich, hech bo‘lmasa besh kunga ruxsat bering, hech bo‘lmasa yigirmanchiga-chá. O‘nta dvigatel bilan hech narsa hal bo‘lmaydi».

«Bir soat ham yo‘q, Andrey Pavlovich, bugungi bir dona motor besh kundan keyingi o‘nta motordan muhimroq. Nahotki, uni sizga tushuntirib o‘tirishga ehtiyoj bo‘lsa? Qilolmayman, Andrey Pavlovich, vaqt g‘animat. Harakatni boshlang».

Shilov Chubarevga ko‘z qirini tashlab qo‘ydi, lekin har ikkala-
lari uchun birdek og‘ir bo‘lgan qisqa va yashirin suhabatni eslashni
istamadi.

– Xo‘sh, Oleg Maksimovich, mening tabriknomamni oldingiz-
mi? – so‘radi u.

– Tabriknomá? – Chubarevning qoshlari tepaga ko‘tarildi, lekin shu zahoti gapini to‘g‘rilab oldi, – qanaqasiga, qanaqasiga, rahmat. Nima ham derdik.

– Qanaqasiga nima ham derdik? – Shilov hayron bo‘ldi. Oleg Maksimovich, menimcha, rus emas edi, shekilli...

– Tushunaman, tushunaman... va taklif qilaman, – Chubarev g‘amgin oh tortdi. – Nima ham derdik, hammaga ham quvnoq ish nasib qilavermaydi. Ichish, o‘yin-kulgi qilishni kim istamaydi deysiz. Aytishadi-ku, birdaniga butun xalqning boshiga paxta deb! Yo‘q, rus emas. Agar men kavkaz yoki boshqird bo‘lib tug‘ilganimda-chi? To‘g‘ridan to‘g‘ri g‘alaba qozon, keyin basketga bor – tamom! Hatto uni deb Moskvadan ham kelishadi... Muravyov qo‘ng‘iroq qildi...

uning o'zi butun boshli mulozimlari bilan... siz uning yangi lavozimi haqida eshitgandirsiz? – so'radi Chubarev bexabar kishi bo'lib, – Bryuxanov u yerdan yangi boshliq bo'lib qaytdi... mana endi birinchi o'rribosarning shaxsan o'zлari biz uchun banket uyushtiryaptilar... Siz Muravyovni ilgaridan bilasiz, u juda qiziquvchan odam. Uni bu yerlarda nimadir qiziqtirib qolgan, aks holda sira kelmagan bo'lar edi.

Shilov yana boshini ichkari tortib yelka qisdi, uning bu alfovidan ko'nglidan nima kechayotganini ham bilib bo'lmashdi. Balki u gap moskvaliklarga borib taqalganidan xursanddir va yoki aksincha, tezroq so'z o'zlarining mavzuga qaytishini kutayotgandir. Keyin ikkovlon birgalikda sibircha chuchvaralar bilan ovqatlanishi, Shilov Ural safaridan beri bu taomni yaxshi ko'radi, shuning uchun ham taom va xayrlashuv risoladagidek o'tdi. Boshqa kuni Shilov hech bir ogohlantirishsiz keldi, buyro, laboratoriya, sexni ko'zdan kechirdi, Chubarev uning ortidan ko'rib qoldi. Shilov ochiqchasiga uchrashuvdan qochib yurganga o'xshardi, gohida ro'parama-ro'para kelib qolishsa ham uni-buni ro'kach qilib gapdan qochadigan bo'lди, uning g'alati holati Chubarevning ko'nglini g'ash qilib qo'ydi. Faqatgina bir marta yo'lakdan o'tib ketish vaqtida Chubarevdan biron burchakni o'ziga ajratib berishini so'radi, Chubarev umuman boshqa ish bilan band bo'lganligi bois uning gapini yon daftarchasiga yozib qo'ydi va o'sha lahzaning o'zida yodidan chiqardi. Oradan bir necha kun o'tib MQdan, aniqrog'i, kotibdan qo'ng'iroq bo'lди, u bosh konstruktur qanday ishlayotganini surishtirdi. Chubarev hech narsadan shubhalanmay, u juda yaxshi ishlayotganini, uz-u kun tinim bilmay, zavoddan bir qadam ham chiqmay ishlayotganini aytdi.

– Yaxshi deysizmi? Bizdagi ma'lumotlarga ko'ra zavodda general konstruktorga hech qanday sharoit yaratib berilmagan emish, hatto choy qaynatib ichishiga, uqlashiga ham joy yo'q ekan, siz yana yaxshi ishlayapti deysiz, – kotibning ovozi asabiy tus ola boshladi, – u Molotovga telegramma yuboribdi.

– Telegramma? Qanaqa choy? – kutilmagan xabardan Chubarev esankirab qoldi, qanday qilib o'midan sapchib turganini ham bilmay qoldi.

– Qiziq, oddiy narsalar-ku, – dedi kotib o’sha ohangda, – Siz, Oleg Maksimovich, hammasini joy-joyiga qo‘ying, kichkinagini divancha qo‘yib bering, sha’ningizga sira yarashmaydigan ish bo‘libdi.

– To‘g‘rilaymiz, o‘rtoq kotib, – Chubarev og‘ir nafas oldi, go‘shakni qo‘ygach Shilovni iltimosi yodiga tushdi, yanada hayrati ortdi, keyin baland ovozda hoholab yubordi. Shu vaqtning o‘zida kerakli buyumlarni yozib xo‘jalik mudiriga yubordi, kechqurun Shilovni xonasiga chaqirtirdi.

– Bilsam bo‘ladimi, Andrey Pavlovich, samovar qaynatishga ehtiyojlari yo‘qmi?

– Menga oddiy choynakcha ham yetib ortadi, – dedi oxirgi paytlarda ozib-to‘zib ketgan Shilov asabiy ohangda, – karovat bilan kitob javon qo‘yib berishdi, zarbof choyshab yetishmayapti xolos.

– Sizni kim biladi, Andrey Pavlovich, – Chubarev quvnoq ohangda hazillashdi, – har ehtimolga qarshi qo‘yamiz. Balki qo‘l kelib qolar? Ish endi ancha yaxshi ketayaptimi?

– Qanaqasiga yaxshiroq bo‘lsin, – Shilov asabiy qo‘l siltadi, – bugun yarim soatlarcha yopishib turdi, u ham bo‘lsa yelim bilan. Qanday ko‘chib tushdi, qanday yopishgan bo‘lgan, kechqurun ko‘raman.

– Bir so‘z bilan aytganda, Andrey Pavlovich, – Chubarev uning gapini kesib qo‘ydi, – siz mendan nimanidir yashirayapsiz.

– Men hali asosiy suhbatga tayyor emasman, Oleg Maksimovich, – nimadir qovushmayapti, hali hammasi chala, ko‘nglim sezib turibdi, hammasini qayta ko‘rib chiqish kerak.

– Mayli, kutib turamiz, Andrey Pavlovich, – dedi Chubarev biron daqiqalar o‘ylab ko‘rgach. U Shilovni juda yaxshi bilardi va bu alfoz u tomonidan norozilik borligini ko‘rsatayotganini bilib turardi.

Ertasi kuni faqat banket vaqtida uchrashib qolishdi. Muravyov navbatdagi qadah so‘zini aytgan, hamma yubiley sohibi uchun qadah ko‘targan edi, Chubarev bir qadah shanpanni endi ko‘targan edi iloji boricha ko‘zga chalinmaslikka harakat qilib orqa eshikdan suqilayotgan Shilovga ko‘zi tushib qoldi. Shilov bo‘yinbog‘siz, ko‘ylagi ham yoqavayron holatda kirib keldi.

- Kechikding, kechikding, Andrey Pavlovich, – dedi Muravyov.
- Biz Oleg Maksimovich va uning mukofoti uchun ichib bo‘ldik. Sizga esa, janob, jarima.

Muravyov unga gapirib hammaning diqqat markaziga tushirib qo‘ydi, Shilov hamma bilan bosh irg‘ab salomlashib chiqdi, keyin birinchi duch kelgan bo‘sh joyga o‘tirib oldi, yuz ifodasini o‘zgartirib tabassum qilmoqchi bo‘ldi.

– Buyoqqa, buyoqqa, Andrey Pavlovich, xonimga yaqinroq, – Chubarev uni Alyonka, yonidagi bo‘sh turgan joyga chaqirdi, Shilov o‘z odati bo‘yicha o‘tirgan joyini almashtirishni yoqtirmasdi, biroq yanada diqqatni tortmaslik uchun Muravyov va xonim bilan salomlashib ularning safiga qo‘sildi. Shu zahoti uning ham qadahini to‘ldirib berishdi, tabiiyki, qadah so‘zi navbatli ham uniki edi:

– Siz uchun, Oleg Maksimovich, chin ko‘nglimdan siz uchun. Sog‘-salomat bo‘ling, badavlat bo‘ling, har doimgidek ruhingiz tetik bo‘lsin, yana bir bora siz uchun xursandman.

– Xo‘sh, xo‘sh, – shang‘illadi Chubarev, – to‘g‘ridan to‘g‘ri she’r ham yozib ketayapsizmi, Andrey Pavlovich, bu qanaqa apofeozi bo‘ldi? Undan ko‘ra gazak qiling, Vera unga serko‘pigidan ber. Yelena Zaxarovna, bizning Andrey Pavlovichni o‘z qaramog‘ingizga olsangiz.

Shilov ichib bo‘lgach qoshlari ustidan ter tomchilari oqib tushayotganini payqadi, ularni qo‘li bilan artdi-yu bahuzur ovqatlanishda davom etdi. Avvaliga baliq yedi, keyin birin-ketin dasturxonada nimaiki bo‘lsa tatib ko‘rdi. Bexosdan likopchasi begona qo‘llar tomonidan to‘ldirilayotganini payqab qoldi, keyin boshini ko‘tarib oldida turgan Alyonkani ko‘rdi.

– Rahmat...

– Yelena Zaxarovna, – Alyonka hozirjavoblik qildi, – Sog‘-lig‘ingiz uchun, Andrey Pavlovich, adashmadimmi? – Alyonka mutaxassis sifatida uning yuziga sinchiklab qaradi, – nima qilib kechikib yuribsiz, hamma siz haqingizda gapirdi, hamma sizni kutdi, marhamat, tortinmang, xizmat safaridasiz, axir.

– Qanot qoqdim-da uchib keldim... mening doimgi ishim, – dedi u bo‘yoqsiz, quruqqina qilib, Alyonka tushundiki, bu suhbatdoshi-

ning eng yuqori himoya qatlami, uning ostida qanchadan qancha sir o'ralib yotibdi. U mana shu qaltiroq tana orqali butun tashqi olamdan himoyalanadi, Alyonka buni bir ko'rishdayoq payqadi, Shilov ko'zlarini miltillatib yana bir marta minnatdorchilik bildirdi, Alyonka vinodan bir yutum ichib qadahni stolga qo'ydi. Xolmskda Bryuxanovning lavozimini egallagan Lukatov Stepan Antonovich so'z oldi, Bryuxanov o'z o'mini mana shunday xotinchalish, turqi sovuq odamga qoldirib ketayotganiga ich-ichidan ezildi (uning Lukatov nomzodligi haqida aytgan gaplari zig'ircha inobatga olinmadi), Alyonka ortiga suyanib o'tirar ekan, yuz ifodasini o'zgartirmaslikka harakat qildi.

U yana Lukatovga quloq tutdi, lekin yana xuddi oldingidek hech narsani his qilmadi, tushunmadi, u bilan bo'lib o'tgan va bo'lib o'tayotgan jarayonlar dunyodagi hamma narsadan ko'ra muhimroq edi, u endi olamni faqat mana shu anglab bo'lmas hissiyot orqali qabul qila boshlagan edi, u shu chog'gacha na baxtni va na boshqa tuyg'uni tuymaganini tushunib yetdi, qolganlarini esa umuman ahamiyati yo'q. Bir tomondan qulog'iga Lukatovning gaplari chalinadi, chalinadi-yu izsiz o'chib ketadi.

— Xuddi shunday, aziz o'rtoqlar, bizning hurmatli yubilyarimiz Oleg Maksimovich bizning Xolmsk yerlariga qadam ranjida qilgan vaqtanoq aviatsiya zavodi uchun poydevor qurilgan. Vatan va partiya uning xalq oldidagi xizmatlarini munosib baholadi. Biz g'animlarimiz orzu qilganidek hech qachon yo'limizdan og'ishmaymiz. Safimizda Oleg Maksimovich Chubarevdek insonlar bor ekan, oldinda bizni faqat g'alaba kutadi. Biz Vatan uchun yo'limizdan kelgan va kelmagan barcha ishni uddalaymiz. Siz uchun, Oleg Maksimovich, sizning ulkan insoniy fazilatlaringiz va tashkilotchililingiz uchun!

Lukatov qadah ko'tardi; Chubarev uning so'zlariga yoqa ushlab qoldi, qoshlarini chimirib u tomonga qaradi, javob o'rnida nimadir degisi keldi-yu, lekin umumning oldida o'zini tiydi. Katta zal odam bilan liq to'lgandi, taomlanish vaqtida hamma kichkina guruhlarga bo'linib ketdi, ana endi gap stol ustida qiziy boshladи, hamma yerni odamlarning gurungi, qadahlarning jarang-jurungi bosib ketdi. Tantanining boshidan beri diqqat markazida bo'lishga intilayotgan Mu-

ravyov shovqin-suron ichida ko'milib ketish xavfiga qarshi kurasha boshladi.

— O'rtoqlar, o'rtoqlar, — u qadahini ko'tarib o'midan turdi, — bir daqqa, atigi bir daqqa vaqtingizni ayamang, o'tinaman sizdan, o'rtoqlar! — dedi u borgan sari to'lqinlanib, — Hurmatli o'rtoqlar! Har birimiz urushda tom ma'noda alohida bir kuch bo'lganmiz, lekin barchamizning kuchimizni, irodamizni, xohish va istaklarimizni birlashtirib turuvchi katta bir kuch bor, u ham bo'lsa — partiyamiz. Hammamizni bir kuch, bir iroda ostida birlashtirgan buyuk inson uchun ichaylik. O'rtoq Stalin uchun qadah ko'taramiz!

Hamma o'midan turdi, kimdir salomatlik tilab qichqirdi, birlari bilan do'stona qadah urishtirishdi.

Yana bir necha marta qadah ko'tarildi, bir-biridan qolishmaydigan tabrik va qadah so'zları aytildi; keyin so'z Xolmsk zavodi oqsoqollarini nomidan bosh texnolog Krujkovskiy Konstantin Yevgenievicha berildi, u oltmish yoshlar atrofini qoralab qolgan baquvvat odam. Krujkovskiy nimpushti yanoqlarini ko'tarib-tushirib gapira boshladi.

— Sovet oqsoqolarining bizning motor zavodiga yuklagan topshirig'i (bizning zavodimizdagи aksar kommunistlarning yoshi ellikdan oshgan), menga sovet oqsoqolining buyrug'ini o'qib eshittirish buyirilgan. Buyuk oqsoqol shuncha rahbarlar ichidan Oleg Maksimovich Chubarevning faoliyatini alohida ta'kidlashni istadi. Krujkovskiy stoldagilarga diqqat bilar razm soldi, — oqsoqol bugungi yubilyarimizni yuksak «Faxriy medal» bilan taqdirlar ekan, uni shunchaki topshirib qo'ya qolishni istamagan bo'lar edi, albatta, shuning uchun ham quyidagilarni o'qib eshittirishni lozim topdim:

1. «Faxriy medal» sovet hujjatlarda birinchi yarim yillikning oxiridan boshlab estalik-nishon sifatida qayd etila boshladi. Uning xavfsizligi sovet oqsoqoli tomonidan ta'minlangan, u taqdirlanuvchiga o'tkazilganidan keyin asrash ham sohibiga yuklatiladi.

2. Medal taqdirlanuvchining eng baxtiyor kunlaridan birida taqdim qilinadi (yig'in mukofotlanuvchining o'zi yoki sovet oqsoqoli tomonidan tashkil qilingan bo'lishi mumkin, albatta). Istisno tariqasida quyidagi kunlarda ham taqdirlashni amalga oshirish mumkin:

a) yaqinlari va qarindoshlarining tug‘ilgan kunida – xotini, bolarli, nabiralari va u bilan qarindoshlik aloqasi bo‘lgan boshqa insonlar nazarda tutiladi;

b) oylik yoki nafaqa olinadigan kunda;

v) kassadan uzoq muddatli yordam puli ajratilganda. Eslatma: yuqorida keltirib o‘tilgan barcha holatlar uy muhitida amalga oshirilishi kerak.

3. Medalning taqilishi xususida: u yelkadan quyiga qorin qismining boshlanishidan teparoq nuqtaga joylashadi;

4. Medal taqiluvchining tanasi ozoda bo‘lishi lozim, medal tasmasi o‘tadigan sohalar ortiqcha yog‘dan xoli bo‘lishi kerak...

Krujkovskiy borgan sari ochilib borar edi, sahifalarni varaqlar ekan ovozini balandlatib pastlatar, matnni ifodali o‘qishga harakat qilar edi. Stol atrofidagilar qiy-chuv solib undan yanada balandroq o‘qishini so‘rashardi, Chubarevning ovozi hammanikidan balandroq chiqadi. Yig‘ilganlar toqatsizlana boshladi, Krujkovskiy ularga xo‘mrayib qaradi, Lukatov ma’noli tomoq qirib yo‘talib qo‘ydi.

5. Medal sohibi tadbir va marosimlarda o‘z medaliga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi kerak, – Krujkovskiy ifodali o‘qishda davom etdi, – bunda u tadbir va marosimlarda o‘zini sipo va madaniyatli tutishi, o‘z mukofotiga munosib shaxsiyatni namoyon qilishi nazarda tutilmoqda.

6. «Fahriy medal» sohibiga quyidagilar ta’qiqlanadi:

a) o‘z medalini boshqa medallar bilan almashtirish;

b) qimor o‘yinlarini o‘ynash (tanga otish, otib yiqitish va h.k.), o‘yinlarda medaldan garov sifatida foydalanish;

d) muolaja va xo‘jalik ishlarida qo‘llash taqiqlanadi;

7. Agar medal yo‘qolgudek bo‘lsa, Sovet oqsoqoli ikkinchi mafotroba medal bilan taqdirlashi mumkin, lekin bu galgi medalning yasalishidan boshlab toki taqdirlash marosimigacha bo‘lgan barcha sarf-xarajatlar aybdorning zimmasiga yuklatiladi. Agar yo‘qotish holatida jinoyat alomatlari kuzatilsa, aybdor javobgarlikka tortiladi:

a) uy boshqarmasidan ma’lumotnoma (yo‘qolgan kundan boshlab bir kun);

b) xotinidan ma’lumotnoma (yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxs yoki shaxslar) yo‘qolgan kundan boshlab bir kun;

v) baxtsiz hodisaga aloqasizligi haqida tibbiy ma'lumotnoma.

Krujkovskiy atrofdagi hoholashlarga e'tibor bermay, hujjatni jiddiy qiyofada bir maromda varaqlashda davom etdi.

— Mana o'rtoqlar, medalni qanday qilib parvarish qilish haqidagi yozilgan paragrafga ham yetib keldik, lekin, menimcha, buni o'qib eshittirishimizga hojat yo'q, endi asosiy ishga o'tsak ham bo'lar.

— Davom eting, otajonlarim-ey, yo'q, yo'q, yo'q, — qichqirdi Chubarev, — men barcha qonun-qoidalarni bilib olishim kerak!

Muravyov Chubarevning yonini ola boshladi, Alyonkani kapkatta odamlarning bolalarga xos qilig'i taajjubga soldi, keyin kulgisi qistadi, davraga qo'shilib hoholay boshladi.

— Medalni saqlash va parvarish qilish qonun-qoidalari qyidagliidan iborat. Xo'sh, — Krujkovskiy jiddiy qiyofada o'qiy boshladi:

1. Medalni ikki, uch yoki eng muqobili to'rt xonali kvartirada saqlash tavsiya etiladi. Albatta, besh va undan ortiq xonali kvartiralarga ham hech qanday e'tirozimiz yo'q.

2. Agar xonada yetarli harorat va namlik bo'lmasa, uni yopiq jism, masalan, qutichada saqlash tavsiya etiladi. Quticha havo va namlikni bir me'yorda saqlab turadigan bo'lishi maqsadga muvofiq. Sanab o'tilgan jihatlarni doimo nazoratga olib turish kerak.

Keyin Krujkovskiy oldidan choy qutisiday keladigan barqut qu-tichani oldi, ichidan pushti-ko'k tasmali bronza medal xuddi uchoq kabi uchib chiqdi, uni Chubarevning yelkasiga tashlaganida hamma birvarakayiga qarsak chalib, «ura»lab qichqirib yubordi, keyin hamma yana qadahlagra yopishdi, kimlardir xumor qilib turgan ekanmi, buriqsitib cheka boshladi.

Alyonka uzunchoq, bejirim sumkachasini qo'ltig'iga qistirib imijimida stoldan sirg'alib chiqib ketmoqchi bo'lib turgan edi, to'ppato'g'ri Vera Dmitriyevnaning qo'liga tushdi.

— Ketdik, azizam, biroz bo'lsa-da bu diqqinfaslikdan nari bo'laylik, siz menga juda ma'qul tushib qoldingiz, Yelena Zaxarovna, — dedi u ayollarga xos nazokat bilan, lekin gaplarning ostida kosa tagida nim kosa bor. — Holatingiz oxirgi marta ko'rishganimizdan beri ancha yaxshilanibdi, kichik muddat, o'zgarishlar esa...

– Nimalar deyapsiz, Vera Dmitriyevna, – dedi Alyonka, lekin u bu muddat orasida sira yaxshilangani yo‘q, yaxshilanish yo‘lini ham bilmaydi, lekin sir boy bermay hayoti bir maromda kechayotgan xotirjam ayol kabi javob qildi, – ba’zan shunchalar qo‘rqamanki, shunchalar qo‘rqamanki... – o‘z roli tabiiy chiqishi uchun astoydil tabassum qiladi, xuddi baxtdan sarxush odamday tinimsiz iljaydi, aslida birgina xatti-harakati bilan mana shu baxtni yo‘q qilishdan shunchalar qo‘rqadiki...

– Qo‘ysangiz-chi, ajoyib qizaloq! – dedi Vera Dmitriyevna biroz betgachoparlik bilan o‘zining o‘tmishini esga olar ekan, – necha yillardan beri esimda qolgan yagona xotira shu o‘zi, qolganlari biring-ketin o‘chib ketdi. Erkak zoti buni hech qachon his qila olmaydi, tushunmaydi ham. Bu masalada ayollar ustunroq. Keling, yana nariroqqa boramiz, bu tamaki anqigan havodan nafas olish... Biron narsa ichdingizmi?

– Birozgina, dedi sal hayron bo‘lib, – baribir, emizmay qo‘y-ganimga ancha bo‘ldi.

– Baribir, juda zararli, – Vera Dmitriyevna Alyonkani gapga tutishda davom etdi. – Hoynahoy, tez orada ikkinchi farzandni ham rejalashtirayotgan bo‘lsangiz kerak, tez orada eringizdan yangilik eshitib qolsak ajabmas, – so‘radi u qiziqvchanlik qilib.

Alyonka tishi bilan labini qimtib, qat’iy bosh chayqadi.

– Xabaringiz bor, men tez orada ordinaturani tamomlayman. Kelasi yil.

– Ha, ha, tushunaman, – dedi Vera Dmitriyevna, – ayol kishi erishgan yutuqlaridan mahrum bo‘lishi juda oson.

– Yo‘q, bu yerda boshqa gap bor.

– Agar yo‘lingizga g‘ov bo‘layotgan bo‘lsa, yulib tashlang, to‘xtab qolmang.

– Yulib tashlayapman, – dedi Alyonka ichki bir ishonch bilan ko‘zlarini tikib, – albatta, yulib tashlayman, hatto juda tez orada, har holda umidim bor, lekin buning uchun juda qattiq olishuvlarga kiri-shishimga to‘g‘ri kelayapti, eng qizig‘i... kap-katta, aqli odam bo‘la turib meni sira tushunmaydi...

– Balki, istamas, – so‘radi Vera Dmitriyevna tabassum bilan.

– Balki, istamas...

– Ana ko‘rdingizmi, – Vera Dmitriyevna yana tabassum qildi, Alyonkani yana oldinga boshladi, bir-biri bilan hangomalashayotgan erkaklar guruhi oldidan o‘tishdi, yana bir-ikki kichik davralarda ish yuzasidan gap ketayapti, pianino oldida turgan bir-ikki juftlik yangi qadah ko‘tarish uchun chog‘lanib turibdi. Chubarev, Lukatov va Muravyov davrasida sokinlik hukm suradi, ular xotirjamlik bilan atrofdagilarni kuzatishadi, yaqin kelajakda zavodda amalga oshiriladigan vazifalarni muhokama qilishadi. Chubarev bir necha marta o‘z stolida yolg‘iz qolgan Shilov tomonga bir necha marta qarab qo‘ydi, Shilov ham bu nigohdan biroz xijolat bo‘ldi chog‘i ularning davrasiga kelib qo‘shildi.

– Olg‘a bosing, Andrey Pavlovich, – dedi Chubarev quvnoq ohangda, – ko‘rib turibman, kattagina surpriz hozirlashni rejalash-tirib yuribsiz.

– Ha, tayyor ham bo‘ldi, – dedi u humor hissidan bebahra odamlarday qo‘l siltab, – kechangizni buzgim yo‘q edi, lekin na chora, ish – ish-da.

– Oho, Chubarev yana kuldi, – bunaqa chiqishdan keyin yaxshi bir xabar kutgan edik, ochig‘i...

– Sira iloji yo‘q, – dedi Shilov shu alfovza, – bilmayman, bu boshda qanaqa xayollar uchib yuribdi, lekin fahmi ojizimcha, sira iloji yo‘q.

– Xo‘s, xo‘s, ochiqroq gapiring, – Chubarev qat’iy talab qila boshladi.

– «Sh-28» qismga tushmaydi, Oleg Maksimovich. Mumkin emas, bunaqasi ketmaydi, jin ursin! Bilasizmi, menda juda ahmoqona va shu bilan birga juda asosli o‘zgarishlar bo‘ldi, – dedi u shaht bilan Chubarevning borgan sari o‘zgarib borayotgan aftangoriga qarar ekan.

– Ko‘nglim tog‘day ko‘tarildi! Bir o‘q bilan necha quyonni ur-dik o‘ziyam, buning oxiri baxayr bo‘lmasligini ko‘nglim sezgandi, – Chubarev o‘zini ortga tashladi, keyin shu zahoti oldinga otildi. – Hamma yo‘nalish-u, sexlar menga qarab turgandi, seriyaning chiqishi Siyosiy byuro tasdiqlagan, har kuni tayyorgarlik jarayoni haqidada ma’ruza qilishimga to‘g‘ri keldi! Aynan shu «Sh-28»ning chiqishi haqida. Xo‘s, keyin-chi, mukammal holatdagi dvigatel... boz ustiga, hukumat komissiyasi.

– Komissiya, Komissiya, – Shilov deyarli baqirib yuboray dedi, – jimjimador quloqlari esa cho'g'day yonib, qizarib ketdi, – men uchun eng muhim komissiya – mening konstruktorlik vijdonim. O'laymanki, bu resurs dvigateli bilan ortiqcha ikki yuz soatga erishish mumkin.

Shilov gapida davom etdi, Chubarev ham bosh ko'tarmay uni eshitishda davom etdi, ortiqcha ikki yuz soat haqida eshitgan Chubarev Shilovning gaplariga guman aralash qaray boshladi, endi u ko'zlarini uning yuzidan deyarli uzmasdi. Muravyov o'ziga ko'p ham ma'lum bo'limgan suhbatga birdaniga aralashib ketishni istamadi, lekin so'ppayib, avvalgidan ko'ra g'amginroq bo'lib qoldi. Gap kamaygani sari uning hayrati osha boshladi, jin urgur ishda har galgidek omad Chubarev va manavi ahmoq nusxa Shilovga kulib boqayotgandek edi, nafaqat ish, shaxsiy hayot masalasida ham shunday, omad mana shularga kulib boqqan (kimnidir yaqinda uchinchi xotinidan ham uzr-ma'zur qilishiga to'g'ri keldi), ana endi Chubarevni yana yangi marralarning egasi sifatida bilishadi. U Shilovni Chubarevdan kam bilmaydi. Uning miyasida o'zini bosish va qo'lga olishning turli usullari charx ura boshladi. U tengi yo'q odam, o'z ishining ustasi, tavakkal qilishni ham biladi, lekin uning bu tavakkali ham yetti o'lchab bir kesilgan bo'ladi (aks holda uning lavozimida uzoq vaqt ishslashning sira iloji yo'q), Muravyov hech bir istisnosiz ish keng miqyosda qaynay boshlashini tushunib turibdi, lekin manavi bo'rivachchaga o'xshagan Chubarev anoyillardan emas, shu turi shida bir nimalarni tusmollab turgan bo'lsa ajab emas, lekin safsata so'qishni do'ndiradi. Shilovning uch kishi guvohligida aytgan gaplari butun kelajakni belgilab beradi, Muravyovga hammasi tushunarli bo'ldi, u qarshisida turgan bemisl aql sohibiga nisbatan g'ayirlik va ayni vaqtda hayrat hissini tuydi, lekin sirtdan o'zini o'z lavozimiga munosib har bir amaldor tutadigandek xotirjam va dadil tutdi, Muravyov ham o'ziga yarasha iste'dodli odam, uning kechinmalari hech qachon o'zini aldamagan, hatto uning ortidan juda katta tavakkallarga ham qo'l urgan. Lekin Chubarev o'zining och ko'zlarini allaqachon Shilovga tikkan, u endi Shilovga egalik hissi bilan qaray boshlagan edi.

— Ikki yuz soatdan ko‘proq-a? So‘radi Chubarev yaltiroq ko‘zlaridagi gumanoni yashirmay, — sen uni isitish blokiga tashlamaysanmi, Andrey Pavlovich, demak, boshni kundaga qo‘yishga arzigulik nimadir bor, shundaymi? Yoki hammasi sovungami?

— Gapiravering, gapiravering, Oleg Maksimovich, — dedi Shilov, — birinchidan, Oleg Maksimovich, bizda nimadir bor, lekin sovun emas, ikkinchidan, men adashishim mumkin emas, aks holda boshimni kundaga qo‘yishga ham roziman. Qarang, hisob-kitob qilib ko‘rsak, cho‘ntakka ham foyda, faqat keraksiz narsalarni ortda qoldirsak bo‘ldi.

— Bu yerda emas, bu yerda emas, Andrey Pavlovich, biroz sabr qil, — Chubarev uni to‘xtatib qoldi, — buni tinchroq joyda, shoshilmasdan, sizga ma’qul bo‘lgan choy ustida gaplashamiz.

— Darhaqiqat, bunchalar shoshma-shosharlikka nahojat? — o‘z navbatida suhbatga Muravyov qo‘sildi, u endi soatning o‘ynayotgan kapkirlarini tomosha qila boshladi, — balki hammasini bir boshdan yaxshilab tekshirib ko‘rish kerakdir?

— Pavel Andreyevich, siz o‘z tamoyilingiz bo‘yicha dangal gapirishni xush ko‘rasiz, — Shilov shu zahoti yashirin chaqiriqni qabul qildi, — lekin men ham ahmoq emasman, bo‘tqa quruq pishirilishini yaxshi bilaman. Xo‘sh, endi nima qilamiz? Jarayonni qancha tez to‘xtatsak, zarar ham shuncha kichkina bo‘ladi. Nimaniki qanchalar yaxshi ko‘rmang, vaqtি-soati bilan undan voz kechishingizga to‘g‘ri keladi, afsusda qolamiz, — dedi Shilov, — aks holda bu katta jinoyat bo‘ladi.

— Siz nima taklif qilasiz, — dedi Murayyov sovuq ohangda quruqqina qilib.

— Kerak bo‘lganda men ham o‘z fikrimni bildiraman, — dedi Shilov unga tik qarab, u endi hech kim qo‘llab-quvvatlamasligini tu-shunib yetgan edi. — O‘ylashimcha, Oleg Maksimovich, zudlik bilan «Sh-28»ning ishlab chiqarilishini to‘xtatish kerak.

— Qani endi, hammasi shunday oson bo‘lsa! Azizim, zavodda hammasi shay qilib qo‘yilgan bir paytda qanday qilib to‘xtataman, — Chubarevning baland, zalvorli ovozidan asar ham qolmagan edi, — yo‘q, yaxshisi, stolga marhamat qiling, hali bo‘ynimga tosh boylab o‘zimni palubadan otishga bemalol ulguraman! Xuddi eski qaroq-chilarday qadimgi romga yo‘q demas edim. Yolvoraman! Siz ham, Andrey Pavlovich! Endi samovar izlab yurmang, duch kelgan non-

tuzdan totinavering. Ana endi hammamiz hukumat komissiyasining samovarida o'tiramiz. Biz o'z ta'birimiz bilan aytganda, respublika uchun qo'limizdan kelgan hamma narsani qildik. Hali zaxiramizda qolgan o'n besh daqqa topiladi... hammaga quyishingizni so'rayman!

Shilov yelkalarini qisib nimadir demoqchi bo'ldi, o'ylab ko'rib o'ziga konyak quymaslikka qaror qildi. Darhaqiqat, davr o'z ishini qildi, endi hamma gap allomalarda qolgan edi.

O'ngga ham, chapga ham chalg'imay Chubarevni diqqat bilan kuzatayotgan Lukatov bu insonni umrida birinchi marta bu ahvolda ko'rди, u ancha-muncha voqeа bu inson shaxsiyatini izdan chiqara olmasligiga guvoh bo'ldi va bu lavhani zaxira uchun xotirasiga muhrlab qo'ydi, chunki uning bu masalada o'z qarashlari bor ...

Nima bo'lган taqdirda ham do'stona tabassum qilib, o'z qadahini ko'tardi, borgan sari yaqinlashib kelayotgan Vera Dmitrievna va Yelena Zaxarovnaga peshvoz chiqdi, ularni stolga taklif qildi; u har doim Bryuxanova ochiqchasiga tan berib kelgan.

– Nimadir bo'ldimi? – so'radi Vera Dmitrievna ko'zoynagini to'g'rilar ekan, har doim xotirjam va sipo bo'lган va bugun xavotirli tus olgan Lukatovning yuziga qarab.

– Hech gap yo'q, marhamat qilsinlar, Vera Dmitrievna, mana sizning qadahingiz, – dedi u bir tekis tishlarini ko'rsatib iljayar ekan, – eski qaroqchilar romni afzal ko'rishdi. Marhamat qiling siz ham, Yelena Zaxarovna, marhamat, marhamat, qaroqchilar ayollar uchun ichishayapti.

– Demak, ish romgacha yetib boribdi-da, – dedi Vera Dmitrievna yuzidagi tabassumni yo'qotmay eri tomonga burilar ekan.

– Ha, Verushka, romgacha yetib bordi.

– Ayollar ham qadah so'zi aytishsa bo'ladimi, – so'radi Alyonka qo'qqisdan, – bilasizlarmi, men bugun Chubarevning qo'lostidagi zavod shifokori, loaqla hamshirasi bo'lishni orzu qilib qoldim, yoki manavilarning bir quvuri bo'lsam ham mayli edi, – dedi u boshi bilan maketlar tomonga ishora qilar ekan, – menimcha, kim siz bilan bir marotaba ishlasa men qilgan orzuni ko'nglidan o'tkazsa kerak, nima ham derdim, Oleg Maksimovich, faqat siz uchun!

– Rahmat, Yelena Zaxarovna, nima uchun Tixon Ivanovich kelmadilar, va'da qilgan edilar.

– Juda band, – dedi Alyonka, – ishni qabul qilib olyapti.

Shu payt Chubarevga yana bir quti telegramma olib kelishi-di, u telegrammalarni to‘g‘ri stol ustiga yozib ko‘zdan kechira boshladi. Ularning aksariyati Uraldan kelgan, o‘ziga tanish za-vod direktorlarining ism sharifi, hatto ayrim ism-shariflar mut-laqo notanish. Ayrimlari vazirlik va turli idoralar rahbarlaridan jo‘natilgan. Chubarev telegrammalarni titkilab o‘ziga tanish va qadrli ismni uchratgach chehrasi yal-yal yonib ketdi. Ularning biri Bryuxanovdan, yana biri Rostya Lapindan kelgan edi.

16

Xomush, diltang shaharning qoq markazida boshi osmonga o‘rlagan minora bor. Bu shahar odamlarga ham o‘z kayfiyatini yuqtirib, ularda qanotsizlik hissini paydo qiladi, mana endi uning tosh yotqizilgan ko‘chalarida kimsasiz, huvillagan manzara surati ko‘rina boshladi. Bu shahar boshidan oxirigacha butun olamdan yashirin tarzda qurilgan, har bir detalini, har bir g‘ishtini sinchiklab ko‘zdan kechirishgan, sinchiklab o‘rganishgan, eski qayrag‘och mana bir necha yildan beri dovul bilan savalashadi, unga basma-bas har yili tanasini mayda gullarga burkaydi. Ular tushgan joyini kuydiradigan cho‘g‘ning kuliga o‘xshaydi, mana shu gulchalar ne-ne qiyinchilik-lardan omon qoladigan tuzmnning kuchini ko‘rsatadi. Qayrag‘och at-rofida beton quyvchi quyuvchi-askarlar uning mustahkam ustunidan, yashovchanligidan hayratga tushishadi. Bu daraxt juda qari, deyarli yalang‘och va shox-shabbadan iborat bo‘lib qolgan, askarlar, ayniqsa yosh askarlar uning qo‘yniga yashirgan sirlarini bilish uchun angrayib qarashadi, bu insonlarning qoniga ham cho‘lning o‘lik havosi oqib kiriadi. Askarlarning terisi qoraytiruvchi bahor quyoshida yoshargandek bo‘ladi, uzoqdan namxush yaltiraydi. Qayrag‘ochning o‘lik badani-dagi gullarga tegishar ekan, bir-birlariga ishonchsiz qarab qo‘yishadi. Ular bo‘ysunmas daraxt bilan, yer bilan, rangi o‘chgan ufq va ko‘z yoshini bazo‘r tiyib turgan osmon bilan birqalik hissini tuyishadi (qa-yerlardadir, osmonning eng baland burchaklarida kuchli shamol esa-di), bu bema’ni qurilishning ham, sahroning ma’nosini ham hech kim tushunib yeta olmaydi, yana bir-birini inkor qiladigan uzunquloq gap-lar yuradi. Sirli qayrag‘och va unga tikilib turgan askarlardan bir kilo-

metr narida yangi minorani montaj qilish ishlari yakunlanayotgan edi, minora ustida g‘imirlab yurgan odamlar yerdan chumolilarga o‘xshab ko‘rinadi, payvand qilayotgan joylarda yondiradigan issiqlik yoyiladi.

Shu qurilish maydoniga javobgar bo‘lgan general ayni mana shu jo‘shqin bahor kunlarining birida vertolyotda butun maydonni ko‘zdan kechiradi, lekin yumushlari ko‘pligidan va lavozimidan kelib chiqib na qayrag‘ochni va na unga tikilib turgan aksarlarni ko‘rmaydi, ko‘rolmasdi ham, lekin aynan u xayoli ishga mashg‘ul bo‘lmagan kunlarning birida tevarak-atrofda, dunyoda ancha-muncha insonga ko‘rish nasib qilmaydigan joyni ko‘rgan va uning sirini tushungan-dek bo‘lgan. Obyekt unga to‘liq bo‘ysundi, ishning mutlaqo maxfiy olib borilishi vaziyatni yanada qiyinlashtirdi, general o‘ta bilimdon va tajribali bo‘lishiga qaramay, har qanday kutilmagan holatlarga shay turishi kerakligini yaxshi bilar edi. U yuqorida turib qurilish ishining borishini ko‘rdi, barchasi tasdiqlangan jadval asosida ketayotgan bo‘lsa-da, ichidagi hadik, xavf-xatar hissidan qutula olmadi, uni tinimsiz, oxirgi natijalarning nomukammal bo‘lishi haqidagi tasavvur miyasidan sira chiqib ketmasdi, lekin boshqa tomondan, uzoq yilik tajribasidan ma’lumki, bunday keng ko‘lamli ishlar kamchiliksiz bo‘lmaydi, mana shu fikrning o‘zi ham unga taskin berib turar edi. U o‘zining oltinchi hissiyoti bilan hammasi vaqt bilan o‘z izmiga tushib ketishiga ishonar edi, agar xuddi soat mili kabi oxirgi lahzalargacha aniq va ishonchli harakat qilish lozim bo‘lsa, barcha mana shu maqsad yo‘lida birlashadi, shuncha odam nima uchun kurashyapti, axir, mamlakat ochlik davrida ham o‘zi uchun g‘oyatda muhim bo‘lgan qadamni tashlay bildi, endi oldinda turgan ikki-uch oy ichida barchasiga mantiqiy nuqta qo‘yilsa bas. U shuningdek oylar qanday uchib o‘tib ketishini ham yaxshi biladi, mana oxirgi bir necha oy ko‘z ohib yunguncha o‘tib ketdi, hatto atrofiga razm solishga ham ulgurmadi, hali ekspertlar kelishadi, hali olimlar bilan harbiylar qadam ranjida qiladi, kuzatuvchilar va komissiyalarning qadami uzilmaydi, ularning barchasi o‘z ko‘nglida nimanidir tartibga solish uchun keladi, lekin aynan «nima»ni...

Bunaqa «nima»lar juda ko‘p, hatto u ham, qurilishning boshlig‘i va davlatning birinchi darajali amaldori bo‘la turib, qurilish maydoniga adashib kirib qolgan tuyu masalasini va ikki ofitser

o'ttasida bo'lib o'tgan janjalni hal qila olmadi. Lekin bir narsani aniq bilib turibdi: vaqt o'tib ketdi, yozning bиринчи yarmi o'tib, yerdagi alaf qovjiray boshladi va hademay bu kunlar avgustga ulanib ketadi. Lekin maydon kutilmagan ravishda gavjumlasha boshladi, turli tekshiruv komissiyalari kela boshladi, keyin hukumat a'zolari, Bryuxanov ham o'zining mutaxassislar guruhi bilan uchib keldi, harbiylar va olimlar o'zaro kengashdi, punktlar yangi tajriba va kuzatuvlar olib borish uchun jihozlandi, grafikda bir daqiqa bo'lsin bo'sh vaqt qolmadi. Belgilangan «Ch» soatiga bir necha kun qolganda Lapin Rostislav Sergeyevich ham tekshirish ishlari uchun o'z guruhi bilan yetib keldi, u ta'tilni to'xtatdi, Chubarevning yubileyiga borishni ham bekor qildi, sababini Xolmskka telegramma yuborib bildirib qo'ydi. Unga ish haqida juda kech xabar berishdi, tekshiruv asbob-uskunalarini bir necha hafta ichida tayyorlashga to'g'ri keldi, eng yaqin yordamchilaridan tortib Lapinning o'zi ham oyoqdan qoldi, lekin hamma yana bir necha hafta, oy, yil bo'lsa-da shu zaylda ishlashga tayyor edi, chunki qilinajak ish shunga arzir edi. Lapin o'zi «tuyaqush diplomatiyasi» deb nom bergen ishdan biroz g'azablandi ham, ishning o'ta shoshilinchligi va maxfiyligi vaziyatni yanada qiyinlashtirdi, agar unga shoshilmasdan, yetarlicha tayyorgarlik ko'rish imkonini berishganda ilm-fan oldidagi yo'qotish ehtimollari ham kamaygan bo'lar edi. Biroz vaqt o'tib begonalar ortga chekina boshlashdi, vaqt esa ni-hoyatda tezlashib ketdi. Lapin va uning guruhiga ishning qolgan qismiga o'tkazish uchun tekshiruvchilar guruhi tayinlandi, ish shu darajada keng ediki, deyarli radiofizikaning katta qismini qamrab olar edi, shuning uchun asosiy vaqt asbob-uskunalarni tayyorlash va joylashtirishga ketdi. Jarayon shu darajada qizib ketdiki, Lapin Bryuxanov bilan ko'rishishga ham ulgurmadi.

Guruhda kimdir tig'izlik va noqulaylikdan shikoyat qila boshlasa, Lapin uni yupatgan bo'ladi:

— Xo'sh, kabutarim, ortiqcha jahlg'a na hojat? Ko'rib turibsiz, butun ilm-fan shu yerga jamlangan, har birimiz tarixiy jarayonda ma'lum bir iz qoldirishni istaymiz va bu yerda shuning uchun ham minimum imkoniyat ajratilgan. Biz asabiylashish yoki siqilishimiz emas, harakat qilishimiz kerak...

Lapin o‘zi ishlashni ham, ishni tashkil qilishni ham yaxshi biliadi, lekin hozir unga na vaqt, na kuch yetishmayapti. «Ch» soati to‘lishiga deyarli bir kun qolganda jillaqursa bugun mizg‘ib olish kerakligini tushunib qoldi. Har ehtimolga qarshi o‘zini qayerdan topishlari mumkinligini aytib ogohlantirdi, keyin barchaga dam olishni buyurdi, uyilib yotgan uskunalar oralab tajriba joyidan chiqdi va atrofi faner bilan o‘ralgan shiyponchaga chiqdi. Oyoq kiyimini yechib o‘zini to‘sakka tashladi, shunda ko‘zi devorga tushib turgan ulkan qora ko‘lankaga tushdi (oldin sira bunga ahamiyat bermagan edi). qiziqib soya tushayotgan tomonga bordi va bo‘yi ufqqa tutashib ketgan ulkan daraxtni ko‘rdi. U daraxtga yaxshilab tikilib, uning eski qayrag‘och ekanligini bildi. Lapin bu daraxtni esladi, u tekshiruv joyidan turib daraxtni bir necha marta ko‘rgan, lekin hech qachon ortiqcha e’tibor bermagan edi. Daraxt bugun Lapinning diqqatiga tushib qoldi, balki bunga sabab so‘qqabosh qayrag‘ochning tiniq osmonga bo‘y cho‘zib turganidir, u daraxtning bir tomonga og‘ib silkinayotgan shoxlariga qarab g‘arb tomondan kuchanib kelayotgan shamolni taxmin qildi. «Yomon, yomon, shamol turishi yomon» – dedi va ko‘zlarini yumib oldi, keyin xayoli uyga, qiziga ketdi, shu zahoti mudroq bosib uxlab qoldi, charchoq va uyqu aralash ham o‘ziga o‘zi tunggi soat ikkida uyg‘onish kerakligini takrorlardi. Tushida yoqimsiz va og‘riqli hislardan qutulib ko‘z ochganga o‘xshar edi, yuragi gohi-gohida tartibsiz urayotganga o‘xshardi, keyin nafas olishini bir maromga solish uchun yana o‘rniga cho‘zildi. Shu payt qulqlari ostida tanish ovoz jaranglay boshladi:

– Valka, Valka, Sabiyev, jin ursin, Valka qayerga ketdi? Simobli to‘g‘rilagichni topa olmayapman. Valka qayerga ketdi, shayton olib ketdimi bu ko‘rinmas odamni?

Lapin oyoqlarini osiltirib o‘tirib oldi. Oh, ha, ha, ha, u quvonch va sabrsizlik yaqinlashib kelayotgan «Ch» soatini esladi. «Ch» soati bu yerdagi narsani ham o‘z ichiga oladi, bu yerdagi hamma narsa «Ch» soati bilan o‘lchanadi, u o‘zida koinot kuchini mujassam qilgan. Qiziq, insoniyat azaldan barcha yaratiquarning markazida turishni, ularni o‘lhash, o‘rganish va formulalarga solishning payida yuradi, shu orqali yangi yutuqlarga va sirlar girdobiga ro‘para bo‘lib qolaveradi.

Rostislav Sergeyevich Lapin juda ko‘p bilimlarni puxta o‘zlashtirgan va o‘zlashtirishda davom etmoqda, u Mendeleyevning «Fan cheksiz va u har kuni insoniyat oldiga yangidan yangi vazifalarni qo‘yib keladi» degan so‘zlarini yurakdan his qiladi. U har doimgidek qoshlarini chimirdi, etiklarini tepaga tortib, boshiga yengil to‘qima shlapasini qo‘ndirdi. Oxirgi marta dasturning ishlashini tekshirish, bundan o‘n, hatto yuz chaqirim narida yuz berayotgan portlashlarning sababini aniqlash zarur. U soatiga qaradi, besh daqiqa kam o‘n bo‘libdi, belgilangan vaqtga bir kundan kamroq vaqt qoldi, shoshilish kerak. Lapin termosdan sutli qahva quyib ichdi, uni deyarli bir ko‘tarishda, to‘xtovsiz ichdi, xayolidan har bir guruh a‘zosi va unga yuklatilgan vazifa haqidagi o‘y o‘tdi. Shu zahoti o‘rnidan turib ishga kirishdi, endi hech kimning bir daqiqa bo‘lsin sekinlashishga haqi yo‘q. Kechqurun sinov maydonida bo‘lganlarning barchasiga xavfsizlik qoidalari haqida qo‘srimcha ma’lumot berildi, hamma ga belgilangan joy va yuklatilgan vazifalar bo‘lib berildi, hatto eng mayda ishlar ham jadval asosida taqsimlandi.

Kun bo‘yi shimoliy-g‘arbiy tomondan keskin shamol esib turdi, kun oxiriga borib kuchaydi, do‘l yog‘a boshladidi. Butun maydon mayda sharchalar bilan qoplandi. Bulutlar to‘planib chaqmoq chaqdi, endi ular markaziga o‘ttiz uch metrli minora o‘rnatilgan markaz tomon harakatlana boshladilar, bu nimora allaqancha elektr tarmog‘iga ulangan bo‘lib, unda sovet davlatining ilk plutoniy bombasi hozirlanmoqda edi, bundan maydon-dagi barchaning xabari bor. Shuning uchun ham hamma dovul va momaqaldoiroq ostida raqs tushib tebranayotgan minoraga qo‘rquv ichida qaraydi.

Lapin barcha sozlamalar shay holatga kelayotgan bir vaqt-da sinov maydonchasidan chiqib ketdi, osmonni bulut qoplagan bo‘lishiga qaramay uning bir burchagida turgan quyoshni his qildi. Yakka qayrag‘och zulmat ichida qolib baland shoxlarini tebratadi. Vaziyat – juda dilgir. Lapin ko‘ylagining yoqasini tepaga ko‘tardi, ko‘kragini shamolga tutib, ko‘zları minorani izlay boshladidi. Axiri bulutlar orasida qolib mayda chaqin taratayotgan minorani topdi, u yerda esa bir necha metr balandlikka ko‘tarilgan, qobiq bilan o‘ralgan mislsiz enegriya manbayi.

Lapin bir necha soniya shamol va do'lning taraqa-turuq ovozini tinglab turdi, hammasi besh qo'ldek ayon, bir necha daqiqa ichida maydonda tartibsizliklar boshlanadi, har gal momaqaldoiroq minoraga urilib chaqin sachratganida o'zining yuragi ham orqasiga tortib ketadi. Ob-havo bugungi kun uchun juda yomon bo'ldi, shamol uyum-uyum qumni ko'tarib keldi, qum odamlarning yuziga chang soldi, keyin asbob-uskunalarni nari-beri surib, hammayoqni ag'dar-to'ntar qildi.

Minora xuddi olamning markaziga aylanib qolganga o'xshaydi, shamol uning atrofini kezib, tim qora bulutlar ham aynan uning boshi uzra charx urayotganga o'xshaydi. Lapinni juda g'alati hissiyot chulg'ab oldi, u avval hech qachon boshidan bunday holatni o'tkazmagan, ham qo'rquv, ham xavotir va g'ayriixtiyoriy quvonch bilan sodir bo'lajak voqeani kuta boshladni, u hozir na shamolni va na g'azab otiga mingan osmonni pisand qilmas edi, ko'z oldiga dunyoda o'zi uchun eng qadrli bo'lgan inson – qizalog'ining chehrasi keldi, lekin u zum o'tmay miltillab g'oyib bo'ldi. Olam hech bir ishdan bexabar, yana bir tun o'tadi va juda ko'p narsalar o'zgarib ketadi, eng inja joylarda mudroq bosib, berkinib yotgan kuch bir-biriga ortga qaytarib bo'lmas darajada aralashib ketadi, birinchi darajali bo'lib qoladi, bu kecha tugamaydiganga o'xshaydi, u odamni siqib ko'zdan g'oyib bo'ladi. Ha, ha, ha, xayolidan o'tkazdi Lapin, ertaga tongda yana bir ko'chki dunyoga keladi, uni hech kim nazorat qila olmaydi, u shiddat bilan oldinga intiladi, hech kim uning na buguni va na ertasi haqida aniq bashoratlar qila olmaydi.

Maydonni egallab olgan sharchalar oyoqlariga qarsillab urila boshladni, Lapin ulardan birini ushlab olmoqchi bo'lib engashdi, lekin ulgurmadi; shu zahoti shamol boshidagi shlapasiga chang soldi, uni uzoqlarga uchirib ketdi, Lapin ushlab olish ilinjida bir-ikki qadam tashladi-yu keyin qo'l siltab ortga tisarildi. Uchsa uchar, xayolidan kechirdi u, lekin juda qulay edi qurmag'ur, mayli, Xudoga topshirdim... Xayolimdan nima lip etib o'tdi? Xo'sh, ionosfera... o'ylab ko'rish kerak, bu portlash o'z navbatida uning g'azabini qo'ziydi, xo'sh? Xo'sh. Shunchaki olamshumul elektromagnit bo'ron ko'tariladi, radiostansya va lokatorlar quloqni qomatga keltiradi, o'ylab ko'rish kerak, ko'zlar chidam bera olmay qamashib ketadi; barchasi juda qiziq, bitta bomba bilan radio falokat chiqarish mum-

kin, hurmatli hamkasblar, ha, ha, – Lapin xayoliy raqiblariga javob qaytardi. Va nima nimadan? Zamonaviy urush davrida bu haqiqiy halokat degani, mahrumlik degani. Xo'sh? Xo'sh. Vaziyatdan qanday ehiqish kerak? Faqat bir gap: atom portlashining boshqa tomonini ko'ra bilish kerak, masalan, o'tkazish vazifasini, xuddi ko'priki kabi, hech bo'lmasa oygacha, masalan, ha, agar u kerakli tomonda bo'lsa... balki, diqqatni aynan qabul qiluvchilarning o'ziga qaratish kerakdir? Juda baland chastotada, olam chastotasiga o'xshash? A? Sen, qariya, hali ham chakki emassan chog'i, – Lapin o'zini o'zi maqtab qo'ydi, keyin sevimli shlapasisiz qolganiga ham ko'nikdi.

Bu kechada bir necha daqiqa bo'lsin mijja qoqishning iloji bo'lmadi, Lapin kiyimlarini o'ynayotgan shamolga bag'rini ochib turaverdi, sathini qora dog' bosib ketgan janubiy-sharqiy tomonning osmoniga qarab turaverdi, bu keyinchalik qit'alarga bo'linib ketgan Gondvananing sobiq markaziga. Oxirgi kunlardagi charchoq va zo'riqish sababli fikrini bir joyga jamlay olmadi, shuning uchun miyasida tovush va hid, odamlarning shiviri va uzoqdan ko'rinish turgan sharpalari aralashib ketdi. Endi unga butun olamni miyasining tubida hosil bo'lgan noaniq bir hukmron ovoz boshqarayotgandek bo'ldi. Uning tanasini titroq tutdi, sovuqdan qo'llarini cho'ntagiga soldi, kutilmaganda boshida yoshi haqidagi fikrlar izg'iy boshladи, ichidan bir ovoz oldinda kutilayotgan mayda-mayda ko'ngilsizliklardan ogoh qilayotgandek bo'ldi. Yana xayolidan barcha bilimlarni egallash imkonisligi haqidagi o'y o'tdi, buning ham o'z ma'nosи, siri bor, u qit'aning qalbidan qattiq qo'riqlanadi, uning ichida olamning tug'ilishi, cheksiz koinotning paydo bo'lishi, u na zamon va na makonni biladi, faqat bir narsa aniq, uning markazida ojiz va zaif inson turadi.

Kimdir Lapinni blindajga chaqirdi, u yugurib kelayotgan odamni to'xtatish uchun «Hozir ketayapman, ketayapman» deb baqirdi.

– Rostislav Sergeyevich, o'rtoq Boroda keldilar, – deb baqirdi u, Lapin shoshilgancha janubiy kuzatuv punktiga keldi, uzoqdan turib Kurchatovning qorasini tanidi.

Hamma o'zaro salomlashdi, Lapin guruhining yosh a'zolari u bilan o'pishib ko'rishishdi.

– Ob-havo qalay, Rostislav Sergeyevich, yaxshimi? – so'radi Kurchatov vaqtı-vaqtı bilan nam tortgan soqolini siypalab qo'yar ekan.

– Yaxshilikka yaxshiku-ya – javob qildi Lapin hammani xavotirga solib qo‘ygan Kurchatovning hazilomuz ohangiga, – ozgina kutib tursak bo‘lmaydimi, Igor Vasilovich?

– Xuddi jannatga tushgandek xursand bō‘lgan bo‘lar edim, lekin bu gal sira iloji yo‘q, – dedi u, burishgan peshonasi ostidan o‘qraygan ko‘zлari ko‘rindi, ovozini shamol yulib ketsa ham to‘xtovsiz gapira ketdi, endi u Lapin bilan boshlagan suhbatini bir notanish harbiy bilan davom ettirar edi.

Lapin ko‘p odam to‘planadigan joylarni xush ko‘rmagani sabab chetga chiqdi. U o‘sha kuni o‘zining sodda va xotirjam ohangi, qiyofasi Kurchatov uchun nimani anglatishini tushunib yetdi, u hozir hech narsani, dunyoning hech bir ne‘matini rad qilishni istamas edi. U hozir Kurchatovga nisbatan sezayotgan munosabati qizi-qishdan ko‘ra ko‘proq hasadga o‘xshardi, Lapin bu odam haqidagi afsonalar bilan ham ortiqcha qiziqmagan. Lapin hammasini bilib turibdi, Kurchatovning fikri bomba portlaganidan bir necha soniya o‘tib o‘zgaradi va u tarixiy sharoit nuqtayi nazaridan uning muallifiga aylanadi, u hozir ayni chegarada turibdi. U hozir nimalar haqidagi o‘ylayotgan ekan-a, oddiy rus dehqoni va yoki taniqsiz olimnimi ketdi xayoli, shu onda uning hayotiga hech kim aralashmayotganmikan? «Hammasi bema’nilik, hammasi bemazagarchilik» – dedi Lapin o‘ziga o‘zi, keyin Kurchatov tomonga qadam tashladi. Bu vaqtga kelib Kurchatov ham ketish taraddudiga tushib qolgan edi, yana bir zumga har ikkisining ko‘zлari to‘qnashdi. Bu to‘qnashuv atigi bir necha soniya davom etdi, lekin azaldan bir-birini yaxshi biladigan odamlar o‘rtasida shunday holatlar ham bo‘lib turadi, atigi bir necha soniyalik qarash zamirida ham og‘ir, ham quvnoq uzlucksiz hayot to‘lqinini his qilishdi, bu hech kimning irodasiga bog‘liq emas. Keyin Kurchatov uyulib yotgan ishlari tomon eltadigan mashinasiga yo‘l oldi. Lapin uni ortidan kuzatib qoldi, lekin hanuz bir necha soniya davom etgan suhbatning ma’nosini tushunmadi, bu orada Kurchatov allaqachon mashinaga o‘tirib oldi, qovoqlari soliq, yodiga kuni kecha Stalin bilan bo‘lib o‘tgan suhbat tushdi. Xayolidan uning bir maromdagi, bo‘g‘iq ovozi o‘tdi. Hech kim bu atom poygasida Stalining shaxsan o‘zi qanday rol o‘ynashini bilmas edi. Potsdamdan keyin hamma ishning ko‘lami va xususiyatini tushunib

yetdi, u ilm va ishlab chiqarishning birlashmasi bo‘ladi, xuddi bir vujudda yashaydigan miya va qon aylanish tizimi kabi.

Kurchatovning yodiga bir necha kun oldin hukumat a’zolaridan biri bilan bo‘lib o’tgan suhbatи tushdi, suhbatdoshi unga xotirjamlik bilan bomba portlamasligini aytgan edi, Kurchatov g‘azab bilan tishlarini g‘ichirlatdi, imi-jimida suhbatni yakunlab uzoqlashayotgan suhbatdoshini ushlab qolgan edi:

«Sira xavotir olmang, u aniq portlaydi»

«Lekin, bilasizmi, o‘rtoq Kurchatov, men bugun Moskavaga uchib ketayapman, – jumlasini eshitdi u javob o‘rnida, – ma’ruza qilishim kerak».

«Jarayon tugamaguncha hech kim hududdan chiqmaydi» – dedi charchoq va beparvolik bilan.

«Nima» – qizisha boshladi u, «hech kim deganda meni ham nazarда tutayapsizmi?»

«Shubhasiz, sizni ham, – ta’kidladi Kurchatov, u qarshisida turgan odamning fe'l-atvorini ikir-chikirlarigacha bilardi, bu odam ochiqchasiga qarshilik ko‘rsatadigan odamlar sirasidan emas, – modomiki, shu yerning vakolati menga topshirilgan ekan, turli anglashilmovchiliklarning oldini olish uchun shu qarorga keldim. Bunda hech qanday istisnolarga yo‘l yo‘q, bu davlat xavfsizligi masalasi.

«Ha, siz yaxshiroq bilasiz» – dedi u ajablanib, Kurchatov javob o‘rnida yelka qisib qo‘ydi, undan tinchlanish va boshqa ishga xalaqt qilmaslikni so‘radi; u g‘ildirak ostidan sakrab chiqayotgan mayda toshchalarni tomosha qilar ekan xayoliga xo‘rsingan bola ko‘zları keldi, xo‘rsingan va xafa bo‘lgan bola ko‘zları, go‘yoki qo‘qqisdan kimdir qo‘lidagi eng a’lo o‘yinchog‘ini tortib olgan bola ko‘zları; juda ajoyib, mislsiz ko‘zlar, olamda ilk bora xafa qilingan inson ko‘zları.

Kurchatov o‘zini qo‘lga oldi, hozir eng muhim daqiqalar oldidan bo‘limg‘ur gaplarga chalg‘imaslik kerak, albatta, ko‘pchilik, shu jumladan Stalining o‘zi ham oxirgi suhbatning mohiyatini yetarli-cha anglab yetgani yo‘q.

«Bir emas, plutoniy miqdori har xil bo‘lgan bir nechta bomba yasang, mayli ular sal zaifroq bo‘lsin, bu hech narsani hal qilmaydi».

«Imkonli yo‘q, o‘rtoq Stalin, bu inson qo‘lidan kelmaydigan ish. Plutoniyning portlash tezligi yorug‘lik tezligiga teng».

«Hammasi sharoitdan kelib chiqadi, – e’tiroz bildirdi u, – biz qurollanish borasida tezroq Trumen janoblariga yetib olishimiz kerak. Busiz buyuklik maqomini ushlab qololmaymiz».

«O’rtoq Stalin, qo‘limizdan kelgan barcha ish qilindi va qilinmoqda, bizda hammasi yetarli darajada bo‘ladi».

«Tezroq, o’rtoq Kurchatov, tezroq».

Mashinaning g‘ildiraklari ostida loyga botgan dumaloqchalar chirsillay boshladi, Kurchatov tezlikni oshirishni buyurdi, Kurchatov hamon xayolan Stalinga e’tiroz bildirardi, uning hamma narsa tabiiy sharoitdan kelib chiqmasligi haqidagi gaplari bir necha yil o‘tib tasdig‘ini topadi, o‘shanda uning gaplarini esga olishadi. Lekin hozir birinchi atom bombasi portlashi butun mamlakat taqdirini o‘zgartirib yuboradigan palla, u haydovchini yana shoshirdi. Tun cho‘kdi, osmonda momaqaldoiroq gumburladi, bu tun atomning gumburlashi bilan nihoyasiga yetishi kerak, chunki bu zarur, xalq bu kun uchun qo‘lida nimaiki bo‘lsa barini berdi.

Lapin yelib kelayotgan mashina ichida tanish chehrani ko‘rdi, keyin yana quyuqlashib borayotgan qorong‘i osmonga tikildi, bu orada Bryuxanov mashinadan tushdi. Uzoqdan Bryuxanovning ovozi chalindi, Lapin u bilan ko‘rishishga oshiqdi, suhbatdoshi bilan tezda gaplashib, suhbat uzilgan Bryuxanov ham Lapin tomonaga yurdi.

– Sizni bu yerda ko‘rganimdan xursandman, Rostislav Sergeyevich, – dedi u xursand ohangda.

– O‘zim ham, Tixon Ivanovich, – quvnoq kayfiyatda dedi Lapin, – mana nihoyat siz bilan qayta tug‘ilish kuniga ham yetib keldik.

– Lekin, kimga qanaqa, – Bryuxanov hazil aralash shubhasini ham ko‘rsatib ketdi, – tez orada Moskvada ko‘rishamiz deb umid qilaman, Rostislav Sergeyevich, aytganlarining barchasini eslayman. Men, albatta, ularni qo‘limdan kelgancha targ‘ib qilayapman, – deb qo‘shib qo‘ydi u, – lekin o‘zingiz bilasiz-ku...

– Eh, bu naqadar zarurligini bilsangiz edi... hech bo‘lmasa belgilangan joylarda ikkita-uchta, Tixon Ivanovich.

– Pul, pul, Rostislav Sergeyevich, mana, – u jilmayib minora tomonga boshi bilan ishora qildi, – hammasini paqqos tushirdi... o‘rnini to‘ldirayapmiz, Rostislav Sergeyevich.

– Tixon Ivanovich, – Lapin yana gapga og‘iz juftlayotgan Bryuxanovning yo‘lini to‘sdi, – yana bir savol, to‘g‘ri arzimas bo‘lib ko‘rinishi mumkin, lekin men uchun juda muhim. Bilasiz, men keksa odamman, mening ham o‘z tamoyillarim bor.

– Rostislav Sergeyevich, nimagadir o‘zingizga o‘xshamayapsiz. Biron gap bo‘lsa, ochig‘ini aytavering.

– Men bir narsani bilmoqchiman: sizning o‘rribosaringiz Muravyov, sizning buyruqlaringizga itoat qilayaptimi?

– Ha, shunday, iltimos, aniqroq gapiring, – Bryuxanov Lapin va uning instituti bilan bog‘liq xotiralarini titkilab, biron shubhali gapni eslay olmadi.

– Bilasizmi, Tixon Ivanovich, oxirgi ishlar dilimni xira qildi... u meni institutga to‘rtta aspirantni olib borishimga majbur qildi, tasavvur qilayapsizmi, u bilan o‘zim gaplashishimga to‘g‘ri keldi, mana shunisi hech qanday quyushqonga sig‘maydi, u siz haqingizda gap ochdi, aytishicha, umumiy qiziqish va manfaatlaringiz bor emish... lekin, kechirasiz-u, hammaning ham qarindoshlari, yaxshi tanishlari va nihoyat umumiy qiziqishlari bor, – Lapin bir qo‘li bilan shamoldan pana bo‘lib ikkinchi qo‘lini tinimsiz silkitar edi, boshiga atom tuxumi o‘rnatilgan minora ham qorong‘ilikka g‘arq bo‘ldi. – Agar gap mana bu boradagi qiziqish va manfaatlar haqida ketayotgan bo‘lsa, men eng avvalidanoq har qanday tushunmov-chiliklarga yo‘l qo‘ylmasligini istayman, Tixon Ivanovich, qayerda fan manfaatiga zarar yetsa, u yerda menga joy yo‘q.

– Siz ular sirasiga kirasisizmi?

– Albatta, yo‘q, – Lapinning qoshlari tepaga ko‘tarilib ketdi, – bunaqa isrofgarchilikni cho‘ntagim ko‘tarmaydi, bunga imkonim ham, vaqtim ham yo‘q.

– Juda soz, – hozirjavoblik bilan dedi Bryuxanov, – unda nega bunchalik tashvishdasiz?

– Lekin bu menga qimmatga tushmasmikan, – o‘z navbatida hayron bo‘ldi Lapin, – Men Xitoy strategiyasiga o‘rganmaganman, boz ustiga oddiygina bir olimman.

– Albatta, aniqlashtirib olamiz, Rostislav Sergeyevich, hozircha esa... – Bryuxanov Lapinning qo‘llaridan mahkam siqdi, keyin esa zulmatga sho‘ng‘ib ketdi.

– Qulq soling, o‘rtamizda hech qanday sir bo‘lmasligi kerak, – dedi u uning ortidan, keyin biroz o‘ziga kelish uchun xonasiga yo‘l oldi, talabalaridan biri yasab bergan kichkinagina priyomnikni yoqdi, Motsartni kuyiga to‘g‘rilab bir necha daqiqa tingladi. Lekin bu gal Motsart ham yordam bera olmadi. O‘sha kecha boshi uzra qaqqayib turgan osmon ham, uning hali yorug‘lik arimagan burchaklari ham g‘oyat yoqimsiz bo‘lib tuyildi. Keyin priyomnikni o‘chirib o‘rnidan turdi, tashqariga chiqdi. Shamol yanada shiddatliroq tus olgan edi, Lapin og‘zi-burnidan kirib o‘pkasini to‘ldirayotgan havodan bo‘g‘ilib qoldi. Tun yarmidan og‘gan edi. Lapin tim qora osmonga tikildi, hech bo‘lmasa bir dona yulduzni ko‘rish ilinjida edi. Lekin yulduz o‘rnida shamol ko‘targan tartibsiz osmonni ko‘rdi. «Yomon, yomon, naqadar dahshat» dedi u, shu payt maydon tomondan ovoz yangradi:

– Portlashga uch soat-u qirq yetti daqiqa qoldi.

Lapin shosha-pisha qo‘l soatiga tikildi, portlash naqd bir soat oldinga, ertalabki yettiga surilgan edi; Shu daqiqadan boshlab Kurchatovning hayajonga to‘lgan ovozi teskari sanoq tizimi bo‘ylab sanay boshladи, qolgan vaqt xuddi shamol uchirgandek juda tez o‘tib ketdi va shamol bag‘rini yorib «Nol» degan ovoz yangradi. Lapin shoshilgancha kuzatuv ambzuriga yopishdi. Ko‘ziga qalin himoya ko‘zoynagini taqib olganiga qaramay ko‘zlariga juda o‘tkir, dunyoda hech bir yorug‘lik bilan solishtirib bo‘lmaydigan yorug‘lik kelib urildi. Lekin shu pallada qanchalar xohlasa ham, mushtoq ko‘zlarini yuma olmas edi. Uning qarshisida tobora qit’aning bir bo‘lagiga aylanib borayotgan, qora chaqmoq ortidan hosil bo‘lgan sarg‘ish, pushti, moviy to‘lqin qadimiy Osiyo osmonni to‘ldirdi.

Tabiiyki, Lapin portlash markazidan uncha uzoq bo‘lmagan joyda turgan artilleriya va tanklarning qanday qilib erib bitganini ko‘ra olmadi. Eski qayrag‘och parchalanib kuli ko‘kka sovirildi, tajriba hayvonlari va beton to‘sqlilardan asar ham qolmadи, ularning bari ulkan olov qo‘ynidagi zarraga aylandi-qoldi. Lapinning ko‘zlar dahshat va hayajondan kengayib ketdi, to‘lqin inson aqli bovar qiladigan va qilmaydigan turli ranglarni o‘ziga jamlab osmonga o‘ralay boshladи. Samoning eng buyuk ijod namunasi namoyish berdi, bir zum osmonni to‘ldirib, yoriq joylaridan bo‘linib ketdi. Modda ozod-

likka erishib vaqt atalmish tilsimni yorib o'tdi. Endi vaqt teskari harakatlanayotganga o'xshar edi, qit'aning manzarasi ajoyib, bag'ri yulduzga to'lgan okeanlar, hammasi ajoyib, bu lahzani oldindan tasavvur qilgan ko'zlar yoshga to'ldi.

Lapinning yonginasida turgan kimdir tovush uzatuvchilarining bo'g'ilib qolganini xabar qildi, lekin Lapin unga deyarli e'tibor bermadi. U allaqachon aytildigan xavotirli so'zlar uchun tasalli jumlarini pishitib qo'ygan edi: «tinchaning, tinchaning, azizim, shunaqa bo'lishi kerak edi, bo'ldi ham, hechqisi yo'q».

Endi uning ongi parchalanishning aqldan ozdiruvchi ko'rinishiga, uning jo'shqin ko'tarilishlariga bardosh qila olmas edi. Keyin osmonni tutgan alanga yerga tushdi, shiddat bilan toshloqqa hamla qila boshladi, Lapin ambrazurdan uzoqlashdi.

Lapinning ko'zлари juda tanish ko'zlarga tushdi, lekin hayrat va quvonch aralash bu chehrani tanib-tanimay turdi.

– Bu juda ajoyib edi, – dedi u o'zini qurshab turgan olamga qarab, bu olam hozir chok-chokidan sirtilgan, har tomonda portlash uloqtirgan kuyindilar otlib yotar, odamlarning yuzlari ham holatga hamohang edi, – Bu juda ajoyib edi, – atrofdagilarga fikrini uqtirmoqchi bo'lib yana takrorladi. – Tabiatda o'lim yo'q, odamlar buni o'zlarini oqlash uchun o'ylab topishgan, lekin haqiqatdan-da unda o'lim yo'q, buni bugun barchamiz ko'rdik.

Bryuxanov voqealar rivojida uning oldida edi, lekin aytgan gaplarini tushuna olmay hayron bo'lib qoldi.

* * *

Oz emas ko'p emas bundan roppa-rosa to'rt yil oldin urush davrida Xirosima ustiga tashlangan bomba dahshati odamlarni devorlarga yopishtirib qo'ydi, har tomondan kimono kiygan chayir yapon ayollari yugurib chiqdi, hamma o'zini har tomonga urdi. Ushbu voqealari qilich bilan insoniyat tarixini ikkiga bo'lib tashladi. Bu Xirosimagacha va Xirosimadan keyingi davr... endi bu o'lka o'zini g'oyat buyuk sanaydigan, har qanday g'ayri qarashlardan xoli va eng demokratik davlatga qarashli. Atom qilichi gumanizm g'oyalarini pisand qilmay baland ko'tarildi. Chayir yapon xalqi devorlarga,

yo'laklarga, ko'chalarga qapishib ketdi, ulardan bor yo'g'i kul bosgan tana qoldi, portlash markazidan uzoqda tirik qolgan odamlarda sirli, da'vosiz davr boshlandi. U otadan o'g'ilga o'tib, xirosimaliklar hayotining ajralmas bo'lagiga aylandi. Million yil davomida biron avlod vakiliga oshkor qilinmagan tabiat sirlari bir necha daqiqa-da ongli ravishda barbod qilindi, bu insoniyatga qilingan eng katta bosqinchilik edi. O'sha kuni vaqt tarozisi ham titrab ketdi, butun olamning boshqaruvchisi – inson miyasi hammasini ko'ra bila turib jinoyat qildi, butun qit'ani bulg'adi, insoniyat katta qurbanlik qildi. Bu qilmishning oqibatlari shu darajada mudhish va cheksiz ediki, uni anglab yetish uchun ham yillar kerak bo'ldi.

O'z navbatida, AQSHning o'ttiz uchinchi prezidenti Garri Tru-menga Xirosima voqeasi haqida xabar berishganda u o'zining chur-qur hamdardligini bildirgan. Qudratli Qo'shma Shtatlarning Prezidenti bir lahzaga bo'lzin cho'g'dek qizib ketdi, chunki insoniyatga taalluqli hislar unga ham begona emas. U endigina abadiyat nafasini his qildi, to'rt yil oldin portlagan bomba ko'zlarida chaqnagandek bo'ldi, tanasida qon yugirishdan to'xtadi, anglab yetdiki, aynan mana shu Xirosima voqeasi tarixga muhrlanib qoldi. U ham atigi bir odam, ichidan bir sanoq mashinasi chiqdi-yu voqeanning barcha kutilajak variantlarini har tomonga uloqtirib yubordi, chunki bu nafaqat uning o'zi balki partiyalar bilan munosabati, senat, kongress va muxolifatlar bilan bo'lgan munosabati, umuman olganda AQSH prezidentining hayotini qamrab oladigan barcha bilan bog'liq. Bu his juda yoqimsiz bo'lib, uni g'alati holatga solib qo'ydi, keyin bir necha daqiqa oldin o'z chaqirig'iga binoan kelgan doktor Bushga orqa o'girdi, Bush oxirgi yillarda AQSHning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan yirik olim, Trumen hozir bu odamni yodidan chiqarib qo'yganga o'xshar edi, shu alfozda dumaloq stol oldiga borib, tortmasidan sigara oldi, keyin uni pidjakining yuqori cho'ntagiga solib qo'ydi; doktor azal-dan havaskor general va senatorlarning bo'limg'ur gap-so'zlarini yoqtirmas edi, ularning ohangiyooq g'azabini qaynatib yuborar edi, lekin bugun suhbatning boshidanoq o'zini nihoyatda sipo va vazmin tutdi. U hozir prezidentning o'ziga qaratilgan yashirin noroziligini sezib turardi, go'yoki barchasiga u aybdor, go'yoki u ruslardan bir qadam oldinda bo'lish uchun shoshma-shosharlik bilan shu qarorga

kelgan. Prezident va senatorlarning e'tiroziga sabab bo'lgan ikkinchi sabab esa mutlaqo kulgili. Go'yoki doktor Bush ular bilan kelishgan odam bo'ldi, real hayotda atom bombasi nimanidir o'zgartirishiga shubha qilmadi. Lekin hammasi juda oddiy edi, kutilmaganda monopoliyaning hisob-kitoblari pastga sho'ng'iy boshladı. Undan ko'ra shu vaqtning o'zida hammasiga nuqta qo'yish va kuchlar o'rtasida murosa va muvozanatga kelish foydaliroq bo'lar edi. Qorong'ilik, tartibsizlik – bu insoniyat hayotining ajralmas bo'lagi, go'yoki u vaqt soati kelib yo'qlikka mahkum bo'lishi va o'zini o'zi yo'q qilishi kerak edi, shuning uchun hech qanday muvozanat va kuchlar tengligi haqida gapirishga hojat yo'q. Ma'lum bir sababga ko'ra qanotidan ayrilgan qush parvozga yaramaydi, bu harakat qonuni, bundan inson ham mustassno emas. Hatto xalqining uzoq kelajagi haqida aniq boshoratlar berishga majbur bo'lgan prezident ham birinchi navbatda oddiy inson, u ham boshqalar qatori hissiyotlardan xoli emas, u ham hazm bilan bog'liq muammolar va xotinining kayfiyatidan norozi bo'lish mumkin. Hozir doktor Bush tanasida olim, bir mamlakat fuqarosi va qay darajada bo'lmasin prezident farmoyishlariga qaram inson to'qnashdi. Bush hozir aytadigan gaplari prezident uchun ham, senator Vandenberg va mudofaa vaziri Jonson uchun ham o'ta yoqimsiz gap bo'lishini yaxshi bilardi, lekin bu odamlarning yuzidagi taajjub uni biroz bo'lsin ko'nglini ko'tardi, chunki bu odamlar har doim o'zlarini piramidaning cho'qqisisida turadiganlar sirasidan deb bilishgan. Senator voqeа haqida hayajonga to'lib, sohadan mutlaqo bexabar odamdek mulohazalar bildirganida Bushning ichida masxaraomuz hayrat paydo bo'ldi.

– Yo'q, yo'q, bunday bo'lish ehtimoli juda past, – bo'lib o'tgan gaplardan keyin uning popugi ancha pasaydi. – Kosmik qismlarning ko'rinishi mutlaqo boshqa ko'rinishda, senator. U yerda mutlaqo boshqa ohang hukmron. Atom davri boshlanganini tan olsak yaxshi bo'lardi. Men ruslar bombasini portlatganiga sira shubha qilmayman.

Bush o'zi yoqtirgan tamakidan cheka boshladı, suhbatdoshlarining gaplarini diqqat bilan tinglab o'tirdi, Vandenberg rus ayg'oqchilari, uran-235 ning milliy zaxiralari, xavfsizlik choralar haqida gapirdi. Bushning diqqatini prezidentning taajjubdagи yuzi tortdi. Bir necha qatorda faqat sonlardan iborat harbiy razvedka xulosasi dunyonи

ortga qaytmas darajada o'zgartirib yubordi xoh u Amerika prezidenti bo'lsin, xoh marshal Stalin va yoki qaysi bir orolda yashovchi yalang'och ayol hech biriga ta'sir qilmay qolmadi. Kutilmaganda Osiyoning qum barxanlari ustida sodir bo'lgan uran portlashi yana bir bor rus xalqining iste'dodini olamga namoyish qildi, shuningdek u dunyodagi xavfsizlik tushunchasini ham yo'qqa chiqardi. Aynan mana shu nuqtadan yangi ibtido boshlanadi, Bushning yuragi va miyasi muzlab qoldi. Bu hikoya hech qachon tugamaydi, to'xtab ham qolmaydi, bu ibtidoiy ajdodlar safiga qaytish va zulmatning boshlanish nuqtasi bo'lishi mumkin. Lekin nima bo'lgan taqdirda ham u inson, taqdir taqozosi bilan Amerika Prezidentiga aylangan inson. Bu juda qiziq, lekin hozir bu haqida o'ylashni istamas edim.

Bush ichki sezgi bilan mamlakati va butun dunyo taqdirini hal qilishga bel bog'lagan insonning ichidan nimalar o'tayotganini taxmin qilardi. Kutilmaganda hammasi yer bilan bitta bo'ldi. Prezident hozir Bushning gaplari, razvedka va mutaxassislar bergan hisobotda qandaydir xatolik o'tib ketgan degan ilinjga ishongisi keldi, chal-kashib ketgan fikrlari tartibga kelishini kutdi. U bir necha soniyaga qo'llarini beliga qo'yib o'yga toldi, boshi uzra ortiga o'rnatilgan bayroq turardi. Ha, u hozir bir necha kun oldin Potsdamda bo'lib o'tgan kengashda aytgan gaplarini eslayotgan edi, o'shanda ko'pchilikning e'tiroziga qaramay Yaponiyaga ikkinchi va uchinchi bombalarni tashlash haqida gapirgan edi. O'shanda ham, hozir ham ishonchi komil, u millionlab insonlar taqdirini hal qilishga qodir inson, mana shu daqalardan yangi davr boshlanadi va odamlarni bu davrga Truman olib o'tadi. Unda hozir bunga zig'ircha bo'lsin shubha qolmagan edi, qanchalar istamasin, miyasidan lip etib bir fikr o'tdi, hozir Rossiya ham cho'l bag'rida atomning dahshatli uyumini hosil qildi – bu begona ong va begona qo'lning ishi; endi boshlagan ishi haqida oldingidek qat'iyat va ishonch bilan gapira olmasdi. Kimdir yaxshi jihozlangan, bemisl mashinaning motoriga shaytoniy xoxolash bilan qum sepib yuborgandek edi, shuning uchun ham prezidentning lablari qimtinib, yuz mushaklari qimirlamay qoldi.

Prezident sinov uchun portlatilgan birinchi bomba, keyin bir yuz ellik ming odamning umriga zomin bo'lgan Xirosima bombasiga bog'liq ma'lumotlarni eslay boshladи. Hammasi yaratganning

va shaxsan Trumen janoblarining xohish-irodalariga muvofiq yuz bergen edi. U buning barini o‘z xalqi uchun, uning farovonligi va yulduzchalar bilan to‘lgan bayrog‘ining toza va yuksak martabada qolishi uchun qilganiga ishonardi.

Prezident bir yuz ellik ming odamning umriga zomin bo‘lgan qo‘ziqorinsimon bombaning shahar tomon uchganini, ortidan Tibbets boshchiligidagi 509 avia bombardimonchi guruhning Xirosima osmoni uzra tasavvur qildi, Tibbetsning kemasi uning onasi sharafiga «Enola Gey» deb nomlangan edi.

Trumenning miyasida yana bir xotira jonlandi, u xalqaro yig‘ilishlardan birida Stalinga Amerika butun dunyo taqdirini o‘zgartirib yuborishga qodir qurolga ega bo‘lganini aytib g‘ururlangan edi. Stalinning tund, ifodasiz yuzi Trumenning yodida qolib ketdi, avval boshda sovuq va sokin yuz ro‘y berajak global fojiani masxara qilayotganga o‘xshar edi, Trumen Stalinning yuziga tikilib eshitsa siyosatga aloqasiz odam ham seskanib ketadigan xabarga munosabat qidirdi, lekin Stalin qurgan qalin devor ortidan uning ruhiyatiga mo‘ralay olmadi. Prezident bir zumga ko‘zlarini yumib g‘azabini ichiga yutdi, u shu lahzaning o‘zida g‘olibdan mag‘lubga aylanib qolgan edi. Trumen o‘shanda ham, hozir ham bir og‘iz masxaraomuz jumla bilan o‘ziga dahshatli raqib paydo qilganini, bu g‘urur va raqibini cho‘chitish maqsadida aytilgan gap tez orada yana bir atom bombasi yaratilishiga olib kelishini xayoliga ham keltirmagan edi. Bu gaplar Stalinning hamiyatini qo‘zg‘adi. Prezident har kuni Potsdamda minglab katta-kichik ishlар bilan band bo‘ladi, insoniyat uchun yaqin o‘n yillikning rejalarini avvaldan tuzib qo‘yiladi, boz ustiga dunyo yetakchiligidagi da‘vogar Cherchill bilan yashirin kurash olib boradi. Cherchill qari ingliz siyosatchilaridan biri, qolganlar hisobidan minimal foiz olishga odatlangan maktab, lekin Stalinning masalasi boshqa, u Trumenning gaplarini aniq-tiniq tushundi. Trumen Rossiyaning iqtisodiy imkoniyatlarini yaxshi billardi, urush va u olib kelgan dahshatli vayronagarchilikdan charchagan xalq bor kuchi va imkoniyatlarini shu jabhaga yo‘naltira olishiga aqli bovar qilmasdi. Stalin Potsdamdan qaytmasdanoq shu masala bilan shug‘ullana boshladi, urushdan charchagan olim, konstruktor, dizayner, harbiy, xullas kalom shu sohaga aloqador kimki bo‘lsa

barini shu yo'nalishda birlashtirdi. Bir kunda tug'ilgan zaif siyosiy g'oya kuchli strategiya va mamlakat maslagiga aylandi.

Shubhasiz, Trumen ikki yil o'tgach bosh vazir Molotovning russlarda atom quroli yo'q ekanligi haqidagi bayonotini o'qib hayratga tushadi, bundan-da ajablanarlisi – u endi Sovet davlati bilan qurollanish borasida urushga kirishi kerak.

«Aynan shunday, ehtimoldan xoli emas», – dedi u o'ziga o'zi, keyin esiga yoqimsiz xotira kelib yuzini burishtirdi, tanasi xuddi do'zaxiy jaziramada yonayotgandek tuyildi. «Nega endi birinchi bombani tashlagan samolyotni aynan ayol kishining nomi bilan atashdi», – dedi u qayg'uli ohangda, keyin asosiy gaplardan chalg'ib ketgani uchun o'zini koyidi, ayol nomi haqidagi e'tirozga: – insoniyat tarixida shunaqa bo'limg'ur ishlar ham bo'ladi, – deb qo'ya goldi.

Prezident suhbatdan chalg'ib ketgan edi, diqqatini to'plab doktor va senator o'rtaida bo'lib o'tayotgan suhbatni tushunib oldi, o'zaro savol-javobga berilgan bu ikki insonga qarab biroz g'azablandi, nima bo'lgan taqdirda ham yakuniy so'zni aytish na Bushga va na senatorga nasib qilmaydi.

– Doktor Bush, – dedi prezident uncha baland bo'limg'an ovozda, nima uchundir bugungi kostumi juda noqulay tikilgandek tuyula boshladi.

– Ha, janob prezident, – dedi u davlat rahbarlariga qilinadigan mulozamat yuzasidan.

– Aiting-chi, doktor Bush, uran bombasidan yuz marta kuchliroq bombani yaratish mumkinligi haqidagi gaplar to'g'rimi? – so'radi u, doktor uning ko'zlarida katta bo'shilqni ko'rdi.

– Ha, janob prezident, – javob qildi doktor, u hozir berilgan savolga nima sabab bo'lganini yaxshi bilardi. Keyin prezidentning diqqatini jamlash uchun gapida davom etdi, – lekin, ta'kidlab o'tishim joizki, bu hech narsani o'zgartirmaydi, chunki fan oldida bunday savol qolmagan. Hammasi texnikaning karomati. Texnikani esa bir mamlakat doirasida ushlab qolishning imkon yo'q.

Olim prezidentning qoshlari baland ko'tarilganini payqadi, ularning ko'zlarini to'qnash keldi, bir necha yil keyingi voqealarni avvaldan ko'ra biladigan ko'zlar shafqatsiz qaror allaqachon qabul qilin-

ganini tushunib yetgan edi. Prezidentning xotirjam yuzida yaratilajak vodorod bombasi haqidagi xabar yashiringan. O'sha kuni hech bir istisnosiz insoniyatni yana bir necha o'n yilliklar mobaynida xorlik va ochlikka mahkum qiladigan hukm dunyoga keldi, balki buni atom jazavasi deb atasa to'g'riroq bo'lar, nima bo'lgan taqdirda ham olma pishib tagiga tushib bo'lgan edi. Doktor Bush qaytib bir og'iz ham gapirmadi. Dunyoni endilikda Garri Trumen boshqara boshladi, aslini olganda-ku bu inson oldinga bir qadam mustaqil yura olmaydi, hatto o'zi qaror qilgan hukmnинг oqibatlarini ko'ra olmaydi. Prezidentlik pardasi ortidagi yashirin kuchlar uning uchun qaror qabul qilishdi. Doktor Bush undan ko'zlarini olib, xuddi aytgan gaplariga xayrixohday xiyol bosh egib qo'ydi. Alal-oqibat bu taqdir hazilidan kulgisi qistadi, buyuk siyosatchilar, to'g'rirog'i, o'zini buyuk sanaydigan siyosatchilar doim bir qadam oldinda bo'lishni va ortidagilarga qarab zavqlanishni yaxshi ko'rishadi, qubul qilgan qarorlari haqida tuzukroq o'ylab ham ko'rishmaydi. Lekin har qanday aqli odamga ma'lum, xalq hayoti bilan bu qadar keskin o'yin qilish arzon avantyuradan boshqa narsa emas.

* * *

Yana bir oy o'tdi, qish kirib keldi, u o'zining shimoliy qal'asidan yurish qilib butun mamlakatni bosib oldi, yo'l, qishloq va o'rmon-dashtni qor bosdi. Kechalari osmon uvvos tortganda, yer va samoning nolasi bir-biriga qorishib ketganda tirik jon borki, bari o'zini panaga urishga harakat qiladi. Parranda-yu darranda o'zini, g'or va archa tagiga uradi, odam esa uyining pechkasida qunishadi. Yo'g'on daraxtlarning tanasini mog'or bosgan, yer va qor o'rtasida yana bir qatlam paydo bo'lgan. Bu qatlam to'kilgan barg, ignabarg va chirib ulgurmagan xazonidan iborat, och qolgan tuyoqlilar qahratonda biror yemish kavlab topib olsa joniga ora kiradi. Qor ustiga kunduzi quyosh, tunda qordan chiqadigan yorug'lik tushadi. Bu quyon, mayda yemiruvchi va hatto ayyor tulkilarni dushman qo'liga tushishidan va muzlab qolishidan asrab turadi. Kun juda qisqa ana-mana deguncha tun cho'kadi, yana olamni sukunat allalay boshlaydi, tirik jon borki, barini mudroq bosadi. Tunda yana shamol uvladi, qor ustiga qor tushdi.

MUNDARIJA

Birinchi qism.....	3
Ikkinchchi qism	189

Rus adabiyoti durdonalari

Adabiy-badiiy nashr

PYOTR LUKICH PROSKURIN SENING ISMING

Roman

Rus tilidan **Rohila Abdullayeva** tarjimasi

Nashr uchun mas'ul **A. Boboniyozov**

Nashrga tayyorlovchi **Y. Abdullayev**

Muharrir **Y. Abdullaev**

Rassom-dizayner **B. Zufarov**

Texnik muharrir **L. Xijova**

Kichik muharrir **M. Salimova**

Musahhih. **M. Ishonxonova**

Kompyuterda tayyorlovchi **B. Dushanova**

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009. Bosishga 2021-yil 20-oktyabrdagi
ruxsat etildi. Bichimi $60 \times 90^{\frac{1}{16}}$. Ofset qog'ozsi. «Times New Roman»
garniturasida ofset usulda bosildi. Sharqli bosma tabog'i 23,50.
Nashr tabog'i. 23,17. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 21-275.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz.

www.iptd-uzbekistan.uz



27840, 35 арм.

スルカクアラム

第三章

18



P.L. Proskurin

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7335-9-6

A standard linear barcode representing the ISBN 978-9943-733596.

9 789943 733596